

6031646
3

ADABIYOT

6



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

S. AHMEDOV, R. QO'CHQOROV, SH. RIZAYEV

ADABIYOT

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING
6-SINFI UCHUN DARSLIK-MAJMUA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NASHRGA TAVSIYA ETGAN

TOSHKENT «MA'NAVIYAT» 2005

9721Aziz o'quvchi!

Siz 5-sinfda o'zbek va jahon adabiyotining ajoyib namunalari bilan tanishgan, buyuk siymolarning, iste'dodli ijodkorlarning tarjimai hollaridan xabardor bo'lgan edingiz. Shubha yo'qki, Siz egallagan bu bilimlar dunyoqarashingizni yanada boyitdi, ezgulikka, go'zallikka bo'lgan mehringizni oshirdi.

Bu yil, 6-sinfda yanada ko'proq ijodkorlar bilan tanishasiz, rang-barang asarlarni teranroq o'rganasiz. Endi Sizning ko'ngil uyingizga o'zbek mumtoz adabiyoti-yu jahon adabiyotidan ham, hozirgi zamon adabiyotidan ham ko'proq adib-u shoirlar kirib kelishadi. Ularga qalbingizdan keng o'rin bering, asarlarini qunt bilan, sinchiklab o'rganing. Darslikda badiiy asarlarning turlari va janrlari haqida nazariy ma'lumotlar ham keltirilgan. Bu esa Sizning adabiyot ilmi haqidagi bilimlaringizning yanada boyishiga, badiiy asar mohiyatini chuqurroq anglashingizga yordam beradi. Sizga yana bir narsani tavsiya qilamiz: ushbu darslikda ko'pgina asarlar to'liq holda emas, balki qisqartirib keltirilgan; Siz ana shu asarlarning to'liq nusxasini topib o'qisangiz, adabiyot fanini yanada chuqurroq o'zlashtirgan, ayni paytda juda katta estetik zavq, ma'naviy oziq olgan bo'lasiz.

Bu ishda Sizga muvaffaqiyatlar tilaymiz!


10 31646
3

Osiyo Rivojlanish Banki krediti mablag'lari hisobidan DARS-LIKLAR AYLANMA JAMG'ARMASI (DAJ) uchun chop etildi.

Ushbu nashrga doir barcha huquqlar muhofaza qilinadi va nashriyotga tegishlidir. Undagi matn va rasmlarni nashriyot rozilgisiz to'liq yoki qisman ko'chirib bosish taqiqlanadi.

A 4702620204-22
M25(04)-05

© «Ma'naviyat», 2005



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

Mutal BURHONOV *musiqasi*

Abdulla ORIPOV *so'zi*

Serquyosh, hur o'lkam elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQAROT:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo'l obod!

NAQAROT:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon
Olamni mahliyo aylagan diyor!



MA'NAVIYAT XAZINASI

Aziz o'quvchi!

O'tgan yili adabiyot darsidan anchagina saboq oldingiz. Adabiyot nima ekani, odamlar badiiy asar o'qishga nega qiziqishlari, adabiy asarlar qanday turlarga ajralishi-yu uning ayrim mumtoz namunalaridan xabardor bo'ldingiz. Dars davomida o'rganilgan ko'plab asarlar hamon yodingizdan chiqmay, Sizni o'ylantirayotgan bo'lsa ham ajab emas. Masalan:

Shiroqni bu qadar jasoratga undagan qanday kuch edi?

Bir qarashda bezori ko'rinadigan ko'cha bolasi Yanguli nega otasiga ergashib Gretsiyaga ketishni xohlamadi? (Nodar Dumbadzening «Hellados» hikoyasi) yoki Kichkina shahzoda (fransuz adibi Antuan de Sent-Ekzyuperining shu nomli qissasi qahramoni) nima uchun asar oxirida Yer yuzini tark etib ketdi? degan o'nlab savollar o'y-fikringizga o'rinishib qolgan bo'lsa, hayron bo'lmang.

Bu holat – yaxshilik alomati. Ya'ni, Siz bu asarlarni faqat baho olish uchungina, shunchaki o'qimabsiz. Diqqat bilan, ko'nglingizni berib mutolaa qilibsiz. Ularning qahramonlari Sizning yuragingizdan joy olibdi. Bir so'z bilan aytganda, ma'naviy olamingiz kengayib, yanada go'zallashibdi!

Hozirgi kunda televideniya va radioda, gazeta va jurnallarda «ma'naviyat», «insonning ma'naviy dunyosi» degan iboralar tez-tez ishlatilayotganini bilasiz. Ayrimlar og'zidan esa: «Kitob o'qimay, adabiyot bilan qiziqmay ham yashasa bo'ladi-ku, qancha odam yashayapti-ku, hamma olim bo'lishi shartmi?» degan gaplarni eshitayotgan bo'lsangiz ham, ajab emas.

Xo'sh, inson ma'naviyatining, ruhiyatining yuksalishida adabiyot, kitob mutolaasi qanday o'rin tutadi? Boyagiday gaplarni aytayotgan odamlarga nima deb javob berish mumkin?

Gap shundaki, inson hayvondan farq qilaroq, nafaqat moddiy ozuqaga, balki ma'naviy-ruhiy oziqqa ham muhtojlik sezadi. Bu nima degani?

Agar Siz iste'mol qiladigan oziq-ovqatlar jismingiz ehtiyojlarini qondirib, uni holsizlanishdan asrab, doimiy quvvatlantirib tursa, ma'naviy oziqlanish Sizni ruhiy boyitib, tetiklashtirib, ma'naviy qashshoqlashishdan asraydi. Odamning moddiy boyliklarining ko'payishi uni o'z-o'zidan ma'naviy boy qilib qo'ymaydi. Inson och-yupun qolmaslik to'g'risida qanchalik o'ylasa, o'zini ma'naviy yuksaltirish to'g'risida ham undan-da ko'proq jon kuydirishi kerak bo'ladi. Ma'naviy yuksalishning eng samarali yo'llaridan biri esa kitobga oshno tutinish, jumladan, adabiy asarlar multolaasiga ixlos qo'yishdir.

Adabiyotni bekorga «ma'naviyat xazinasini» deya nomlamaydilar. Chunki birinchidan, adabiyot deb atalgan noyob sohada faqat va faqat tug'ma iste'dodli kishilargina faoliyat ko'rsata oladilar. Ular o'z dunyoqarashi va tafakkuri jihatidan boshqalarga ibrat bo'ladigan shaxslardir. Demak, ularning ijodiy asarlarida katta bir xalq, hatto insoniyat badiiy tafakkuri izlanishlarining eng noyob durdonalari jamuljam bo'ladi. Siz «yozuvchi-shoirman» deb yurgan hamma kishilar ham shunday imkoniyatga egami, unda bemaza she'rlar, biroq o'qimaydigan kitoblar qayerdan paydo bo'ladi?» deb so'rashingiz mumkin.

Ziyakligingizga balli!

Aytganingizdek, o'zini «yozuvchi-shoirman» deb tanishtiradigan hammani ham chinakam ijodkor deb bilmaslik kerak. Haqiqiy iste'dodlar kamdan-kam tug'iladilar. Shu tufayli ham butun xalq, jamiyat bunday ijodkorlarning qadriga yetmog'i, ular qoldirgan durdonalarni ko'z qorachig'idek asrab, o'qib-o'rganmog'i nihoyatda muhimdir. Navoiy davrida ham, Bobur zamonida ham, Cho'lpon-u Oybeklar yashab ijod etgan vaqtlarda ham adabiyot maydonida ot surishga harakat qilgan, biroq changi chiqsa ham dong'i chiqmagan qalamkashlar juda ko'p uchranganlar. Biroq, «vaqt – eng odil hakam» deyilganidek, xalq yodida chinakam iste'dodlar va ular tomonidan yaratilgan yuksak san'at namunalarigina saqlanib qoldi.

Adabiyotning aynan ma'naviyat xazinasini ekanligining yana bir sababi shundaki, uning bag'rida hozirga qadar insoniyat ardoqlab kelayotgan eng tansiq hislar – insonparvarlik (gumanizm), adolat, shafqat, o'zaro hamjihatlik,

do'stlik, mehr va muruvvat, sevgi-muhabbat, go'zallikka tashnalik singari o'lmas insoniy tuyg'ular jamuljamdir. Adabiyotga oshno tutingan odam qalbiga bu hislar ko'chib o'tishi, uni hazrati insonga aylantirishi, hayotiga nur olib kirib, turmushini turfa mazmun bilan boyitishi aniqdir.

Sizni badiiy adabiyotni ixlos bilan o'qishga da'vat etayotganimizning sabablari ko'p, albatta. Bu masalada, keling, uzoqqa bormay, o'zingizdan kelib chiqaylik. O'tgan o'quv yilida o'nlab shoir-yozuvchilarning qator asarlarini o'qib-o'rgandingiz. Jumladan, Imom Buxoriy bobomizning zahmatli mehnati orqali yetib kelgan hadislardan odob-axloqqa, ilmning zaruratiga oid o'gitlarni o'zlashtirgan bo'lsangiz, E.Vohidovning «O'zbekim» qasidasini o'qib, shu millat vakili bo'lganingizdan ko'nglingiz tog'dek ko'tarildi. Minglab yillar ilgari sodir bo'lgan voqealar sharhi – «To'maris» afsonasi yoki Xurshid Davronning Vatan haqidagi rivoyatlaridan ona yurtimiz ozodligi qanchalar muhim masala ekanligini angladingiz.

Endi ayting-chi, shu asarlarni o'qigan va uqqan tengdoshingiz bilan ularni o'qimagan yoki o'qisa-da uqmagan sinfdoshingiz orasida qandaydir farq bormi-yo'qmi? Abdulla Oripovning «O'zbekiston» qasidasini yurak-yuragingizdan chiqarib yoddan o'qiyotganingizda o'zingizni qandaydir boshqacha his qilishingizni-chi, sezdingizmi?

To'g'ri, adabiyot va boshqa san'at turlarining insonga ta'siri darrov sezilib-bilinib qolmaydi. Xuddi yoshingiz ulg'ayayotganini o'zingiz sezishingiz qiyin bo'lganidek, adabiyotning Sizga o'tkazayotgan ta'sirini ham qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ko'rish mumkin emasdek. Lekin ko'p kitob o'qiydigan, adabiyotga chin dildan qiziqadigan do'stlaringiz yurish-turishiga, odob-axloqiga razm solib qarasangiz, ular boshqalardan ancha ajralib turishini sezmaslik-ko'rmaslik ham mumkin emas. Ularning gap-so'zlari salmoqli, mazmunli bo'lib borayotgani, bu bolalar ko'cha changitib yurishdan ko'ra biror foydali mehnat qilishga harakat qilishlari, uyatsiz so'zlar bilan lafzini bulg'ashdan tiyilishlarini ham sezsangiz kerak. Ular uyda yozib kelgan inshosi yoki referatini o'qib berayotganida eng to'pilonchi sinfdoshlaringiz ham jimgina eshita boshlagani ham bor gap.

Xo'sh, bu kitobsevar bolalarning boshqalardan bir-ikki qadam oldinroqqa o'tib olishlariga ham ota-onalar, ham ustozlarning nazariga tushishlariga ko'proq nima sabab bo'ldi? Nega ko'plab fan olimpiadalarida

aksariyat o'shalar g'olib chiqyapti? Nega maktabingizda o'tkazilayotgan «Davlat tili bayrami»ga sinfingizdan aynan shu bolalar tanlab olindi? Nima uchun bu do'stlaringiz ortidan turli xunuk gaplar eshitmaysiz? Ularni boshqalardan ildamroq yurishiga kuch berayotgan narsa nima ekan?

Barakalla, to'g'ri topdingiz! Buning nomi – MA'RIFAT. Kitob orqali, adabiy asarlarni o'qib-o'rganish tufayli orttirilgan bebaho boylik – ma'naviyat va ma'rifat!

Bolalar, eshitgan bo'lsangiz kerak: xalqimizda «Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin» degan maqol bor. Demak, inson olim bo'lib ham odam bo'lmasligi mumkin ekan-da. Demak, o'qishda ham o'qish, uqish va his qilish bor ekan-da. Ko'p kitob o'qishning, olim degan nomga sazovor bo'lishning o'zi ham yetarli emas ekan-da.

Gap shundaki, kitob mutolaasi odam bolasidan bu ishga jiddiy berilishni, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ixlos bilan yondashishni talab qiladi. Falon asarni o'qidingmi-o'qidim qabilida ish tutish mutlaqo yaramaydi. O'sha asarni, uni yozgan yozuvchi yoxud shoiming orzu-o'ylari, asarga singdirgan tuyg'ularini his qilish kishidan alohida e'tiborni talab qiladi. His qilib o'qilmagan asar chinakam gul bilan plastmassadan yasalgan gulning farqiga bormagandek gap.

Xo'sh, asarni his qilib o'qish nima degani?

Bilasizki, har qanday badiiy asarda insonga xos bo'lgan fazilat va illatlar ifoda etiladi. Go'yo hayvonlar to'g'risida bitilgan ertaklarning ham tag-zaminida insoniy tuyg'ular yotadi. Tuyg'ular esa faqat aql orqali emas, balki ko'ngil, yurak orqali seziladi. Deylik, bir asar qahramoni og'ir ahvolda qoldi. Yomon odamlar qilmishidan uning taqdirida qorong'i kunlar boshlandi. Uning bu holatini yaqindan his qilish, bu voqealar xuddi Siz bilan bo'layotgandek qarash ruhiyatingizni toblaydi, Sizni chiniqtiradi, yomonliklardan qutulish yo'llarini o'rgatadi. Siz o'zingiz sezib-sezmagan holda dunyoda yomonlik degan yovuz kuch bor ekanini bilasiz. Uni olamga yoyayotgan ham Siz-u bizdek insonlar ekanini ko'rasiz. Va, eng muhimi, bu yomonlikka qarshi kurashish ham odamlarning zimmasidagi muhim vazifa ekanini anglab yetasiz. Mana shu anglash Sizni olimgina emas, yaxshi odam ham bo'lishingiz yo'lidagi dastlabki qadam bo'lsa, ne ajab.

Ona-Vatanimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganiga unchalik ko'p



bo'lgani yo'q. Uning ertangi kun taqdiri qanday bo'lishi, dunyo xalqlari orasida orttiradigan obro'-e'tibori ko'p jihatdan Sizning qanday odam bo'lishingizga bog'liqdir desak, hecham hayron bo'lmang. Chunki mamlakatni mamlakat, millatni millat qiladigan uning o'g'il-qizlari, bag'rida o'stirayotgan farzandlaridir. Agar bu farzandlar faqat bugungi kunini, qorin g'aminigina o'ylab yashaydigan, yurtdoshlari taqdiriga befarq, o'z manfaati yo'lida insof, adolat, iymon tuyg'ularini toptab o'tadigan kimsalar bo'lib yetishsa, bunday yurtning holiga voy. Bunday yurtga chetdan bosib keladigan dushmanning ham keragi bo'lmaydi. Boyagi ma'naviyatsiz, ma'rifatsiz kimsalarning qilmishlari yurtning nafaqat bugunini, balki kelajagini ham xavf ostida qoldirishi turgan gap. Bunday farzandlar qo'liga o'tadigan yurtning boyliklari talon-toroj bo'ladi, iqtisodiy tanazzul tunganmas dardga aylanadi. Uning madaniyati va san'ati milliy qiyofasizlikka duchor bo'ladi. Jamiyat hayotida adolatsizlik, insofsizlik va madaniyatsizlik oddiy holga aylanib, kishilarning kelajakka bo'lgan ishonchi mutlaqo so'nadi.

Farzandlari ma'rifatli, ma'naviyatli xalqning esa, albatta, iqboli kuladi. Komil farzandlar o'zini tug'ib katta qilgan ona Vatanining qadrini har narsadan yuksakka qo'yadi. Ular uchun yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, el farovonligi yo'lida o'qib-o'rganish, mehnat va ijod qilish hayotning tub mazmuniga aylanadi. O'zini buyuk millatning, qadimiy xalqning chinakam vorisi deb bilgan farzandlar bugun dunyoda hech kimdan kam emasligini anglab, kelajakda ham hech kimdan kam bo'lmaslikni ko'zlab harakat qiladilar.

Shu ma'noda, xalqimiz boshidan o'tgan barcha yaxshi va yomon kunlarni doimiy yodda tutish uchun adabiyotga murojaat qilamiz. Qolaversa, otabobolarimizning ushalmagan orzularini ro'yobga chiqarish bizning zimmamizdagi muqaddas burch ekanini anglashga yordam beradigan ham adabiyot – so'z san'ati hisoblanadi. Zero, adabiyot tarixi – millat va mamlakat tarixining jonli ifodasidir. Adabiyotini anglagan millat o'zligini anglaydi. Va aksincha, adabiyotiga befarq bo'lgan xalq o'ziga, taqdiriga befarq hisoblanadi.

Demak, adabiyot darsi Siz uchun shunchaki vaqt o'tkazib, o'qituvchi savollariga bir amallab javob berib, qoniqarli baho qo'yganiga xursand bo'lib chiqib ketadigan dars bo'lmasligi kerak ekan-da. Adabiyot Sizni nafaqat olim, balki ODAM bo'lishingizga yaqindan ko'maklashadigan eng yaqin do'stingizga aylanishi qanchalar muhim. Bilingki, bu do'st Sizga hech qachon

xiyonat qilmaydi, hech vaqt Sizni yolg'iz qoldirmaydi, biror payt joningizga tegmaydi, zeriktirmaydi. Adabiyotga qo'lingiznigina emas, qalbingiz – yuragingizni bering – u bilan yorug' kunlarni ko'zlab safarga chiqing.

Safaringiz mazmunli bo'lsin, aziz o'quvchi!

Savol va topshiriqlar

1. «Adabiyot» so'zining lug'aviy ma'nosini izohlab bering.
2. Adabiyotni nega «ma'naviyat xazinasini» deb nomlanishini tushuntirib bering.
3. Qaysi adabiy asarni o'qiganingizdan keyin o'zingizda jiddiy o'zgarish his qilgansiz? Shu o'zgarishni izohlab bera olasizmi?
4. O'zingizni yetarli darajada kitob o'qiyapman, deb hisoblaysizmi?
5. Yoshlari ko'p kitob o'qigani, xalq miqyosida ilm-fanga katta e'tibor berilgani tufayli dunyoning eng ilg'or mamlakatlariga aylangan qaysi davlatlarni eshitgansiz?
6. «Kitobdan kitobning farqi bor» degan gapni qanday tushunasiz?
7. Xalqimiz tarixidan jaholatga berilish tufayli sodir bo'lgan falokatlar, noxush hodisalardan misol keltira olasizmi? O'qigan adabiy asarlar-ingizdan-chi?
8. Sizni va tengdoshlaringizni ko'proq nimalar qiziqtiradi? Ular orasida adabiy asarlar o'qishga chanqoqlik ham bormi?
9. Agar bir aylanib yozuvchi bo'lib qolsangiz, eng avvalo nimalar to'g'risida yozgan bo'lardingiz?
10. Sizningcha, ilmiy asarlar bilan badiiy asarlar orasida qanday farqlar bo'ladi?
11. «Ma'rifatli kishi» deganda yaqinlaringizdan kimni ko'z oldingizga keltirasiz? Bunday odamdan nimalarni o'rgangan bo'lardingiz?
12. Ota-onangizning vaqti bo'lmaganda ukalaringizni atrofingizga yig'ib, biror kitob o'qib berishni odat qilganmisiz?
13. Yozuvchi Abdulla Qahhor «Adabiyot – atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak» degan edi. Shu gapni izohlab berishga urinib ko'ring-chi.

BOLA – UCHQUR XAYOL EGASI*Xudoyberdi****TO'XTABOYEV****(1933-yilda tug'ilgan)*

Xudoyberdi To'xtaboyev bugungi o'zbek adabiyotining yetakchi va-killaridan biridir. Adib 1932-yil 17-dekabrda Farg'ona viloyatining Katta tagob qishlog'ida tug'ilgan. Otadan juda erta yetim qolgan adib bobosi Erkaboy va buvisi Robiyabilarning tarbiyasida qoladi. 1949-yili Qo'qon pedagogika bilim yurtini, 1955-yili Toshkent davlat universitetini (hozirgi Milliy universitet) bitirgan. So'ng bir necha yil Farg'ona viloyatining Bag'dod, O'zbekiston tumanlaridagi maktablarda o'qituvchi, ilmiy bo'lim mudiri, maktab direktorlari lavozimida ishlagan. Adib 1958-yili Toshkentga keladi. 14 yil davomida «Toshkent haqiqati», «Sovet O'zbekistoni» gazetalarida ishlaydi. Shu vaqt mobaynida hozirjavob, qalami o'tkir jurnalist sifatida elga taniladi, jamiyatdagi illatlarni fosh etuvchi 300 dan ortiq felyeton yozadi. 70-yillar boshida o'z faoliyatini bolalar hayotiga yo'naltiradi. Yozuvchi o'zining tarjimai holida bu qarorini shunday ta'kidlaydi: «Ruhi dunyosi pok bo'lgan, tarbiyaga quloq soladigan, savob va gunohni bilishga intilayotgan, ruhi go'zallikka talpinayotgan bolalar dunyosida ishlasam qanday bo'lar ekan», – deb o'ylay boshladim va qaror ham qabul qildim, bolalar, o'smirlar dunyosiga paqqos o'tib ketdim».

Darhaqiqat, adib o'z mehnati yozuvchilik iste'dodini bolalar va o'smirlar dunyosiga, ularning ma'naviy tarbiyasiga bag'ishlab kelyapti. U ana shu maqsadda «Yosh gvardiya» nashriyoti, «Gulxan», «Yosh kuch» jurnallarida faoliyat ko'rsatib, o'zi e'tirof etganidek, «...Bola va o'smir ruhidagi go'zallikni himoyalashga e'tibor» berib kelyapti. Yozuvchi tinimsiz mehnati, izlanishlari, bolalarga cheksiz mehr-muhabbati tufayli, o'zbek bolalar adabiyotining zabardast namoyandasiga aylandi. Adib qalamiga mansub «Omonboy va Davronboy sarguzashti» qissasi (1974-yil), «Sariq devni minib» (1968-yil), «Sariq devning o'limi» (1973-yil), «Besh bolalik yigitcha» (1976-yil), «Qasoskorning oltin boshi» (1981-yil), «Shirin qovunlar mamlakati» (1986-yil), «Jannati odamlar» (1996-yil) kabi romanlari ana shu xayrli bolajonlik harakatining misolidir. Yuqoridagi asarlar orasida adibning «Sariq devni minib» va uning mantiqiy davomi «Sariq devning o'limi» romanlari nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon adabiyotida ham bolalar uchun yaratilgan sarguzasht asarlarning eng yaxshi namunasiga aylandi. Bu romanlarda 6-sinf o'quvchisi Hoshimjonning ajoyib sarguzashtlari, uning sehrli qalpoqcha yordamida erishgan, qahramonliklari qiziqarli tarzda hikoya qilinadi. Hoshimjon tashlandiq bir uydan bir vaqtlar buvisidan eshitgan oq jundan yasalgan sehrli qalpoqchani topib oladi. Uni sehrililigini avval uyidagilar misolida sinab ko'radi. Qalpoqchanning sehriga to'la amin bo'lgach, uning sehrli kuchini dastlab qishlog'idagi folbin xolaning yolg'onchiligini fosh qilishga qaratadi. O'zisiga qo'shib firibgarlik qilayotgan sinfdoshi Mirobiddinxo'jani tavbasiga tayantiradi, folbin xolaning xaltachalaridagi dorilarni almashtirib qo'yib mijozlarni unga qarshi qo'yadi. Sehrli qalpoqcha ishlaridan ruhlangan Hoshimjon uni o'zi o'qiydigan maktabida ham sinay boshlaydi: «Qalpoqchani kiyib olib, o'qituvchilar konspektlaridan yozma ishlarni to'g'ri ko'chiradi, natijada baholari, o'zlashtirishi yaxshilana boshlaydi, biroq shoshqaloqligi tufayli o'zi ham pand yeydi. O'qituvchilar uni koyib, tartibga chaqiradilar. Bilimsiz, yaxshi baholarga o'qimay turib biror-bir kasb egasi bo'lish mumkin emas deb uqtiradilar. Lekin sehrli qalpoqchanning kuchiga juda ishongan Hoshimjon ustozlarining «ilmsiz bo'lsang, zootexnik tugul, molboqar ham bo'la olmayсан» degan gapiga o'jarlik bilan, «bo'laman, bo'laman, bo'laman», –

deydi-da, eshikni tarsillatib yopib maktabdan ketadi. Maktabini, jonajon qishlog'ini tark etadi. Dastlab ishlari yurishgan bo'ladi, u sehrli qalpoqcha yordamida ishyoqmas, dangasalar, lo'ttiboz kimsalarni rosa dodini beradi. Ularni qilmishiga yarasha jazolaydi. U jinday quv, ayyor, bir qadar lofchi bo'lsa-da, aslida sofdil, ko'ngli beg'araz bola. U doimo yaxshilikka, ezgulikka intiladi. Tezroq katta bo'lgisi keladi, sehrli qalpoqcha yordamida turli kasblarni egallashga intiladi. Ularni bir qadar egallaydi ham, biroq bilimsizligi, tajribasizligi tufayli pand yeydi. Biror-bir maqsadga erishish uchun sehrli qalpoqchadan tashqari, bilim ham kerakligini unutib qo'yadi. Shuning uchun ham qaysi kasbga qo'l urmasin ishi chappasiga ketadi.

Agar siz «Sariq devni minib», «Sariq devning o'limi» romanlarini to'liq o'qib chiqsangiz sehrli qalpoqcha tufayli turli mutaxassisliklarni egallagan Hoshimjon har safar chuv tushishi sabablarini bilib olasiz.

Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» asari ko'pgina jahon xalqlari tillariga – jami 24 tilga tarjima qilingan, buyuk bolalar yozuvchisi Janni Rodarining tahsiniga sazovor bo'lgan.

Sevikli bolalar yozuvchisi X. To'xtaboyev 1982-yilda «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi», 1991-yilda esa «O'zbekiston xalq yozuvchisi» kabi yuksak unvonlar bilan taqdirlangan.

SARIQ DEVNI MINIB

II BOB

SHAYTONNING YELKASIGA IGNA SANCHDIM

Bir jihatdan olib qaraganda, oyim uyga kiritmay to'g'ri ish qilgan ekan. Nega desangiz, o'sha paytlarda men sehrli qalpoq axtarib egasi ko'chib ketgan hovlilarni, go'ng tepalarni, eski-tuski kiyim-boshlar tashlanadigan burchak-surchaklarni tintuv qilib yurgan edim. Bir oy avval Qashqir qishloqda turadigan buvim biznikiga mehmonga kelib, sehrli qalpoq haqida ertak aytib beruvdi. Qalpoqni kiyib olgan azamat yigit biram ishlar qiladiki, biram qahramonliklar ko'rsatadiki, agar eshitsangiz, og'zingiz ochilib qoladi. U hammani ko'rib turadi. Uni esa hech kim, eng ko'zi o'tkir odamlar ham ko'rolmaydi.

– Buvi, buvijon, o‘sha qalpoqning rangi qanaqa? – deb so‘radim hovliqib.

– Oq jundan to‘qilgan.

– Uni qayerdan topsa bo‘larkin?

– O‘sha qahramon qarib-chirib o‘layotganda qalpoqni shu atrofdagi hovlilardan biriga yashirib ketgan, bolam.

– Topsa bo‘larmikan?

– Nega bo‘lmas ekan. Izlasang, albatta topasan, o‘g‘lim.

Xullas, o‘sha kechadan buyon oromimni yo‘qotganman. Kechasi-yu kunduzi tinim bilmay sehrli qalpoq axtaraman. Ishonsangiz, izlamagan joyim qolmadi. Faqat eski qishloqning chekkasidagi tashlandiq bir uy qolgan, xolos. Bu hovli kimniki – hech kim bilmaydi. Hatto, oyim ham aniq bir narsa ayta olmadi.

Kechqurun uyga kirishdan mahrum bo‘lgach, oyim aytyapti deb, qo‘sh-nimizdan ikkita nonni qarzga oldim-da, qorong‘i tushishi bilan o‘sha hovli tomon yo‘l oldim. Tashlandiq uydan xunugi bo‘lmas ekan. Qaysi bur-chakka qaramang, ajnami, alvastimi ko‘zini lo‘q qilib menga baqrayib turganga o‘xshaydi. Hatto nazarimda ikki marta bo‘ri ham ko‘ringandek bo‘ldi. Keyin bundoq sinchiklab qarasam, ikkovi ham mushuk ekan. Men titkilamagan burchak qolmadi. Teshikki bor, hammasiga qo‘l suqib ko‘r-dim...

Bir mahal charchab, suvsab, holdan toyib o‘tirib qolibman. Mudray boshladim. Yo‘q, men uxlamasligim kerak, dedim o‘zimga-o‘zim. Keyin shartta o‘rnimdan turib sal ichkariroq kirdim. Molxona bo‘lsa kerak, oxurda bir to‘p latta yotibdi. Orasini titkilagan edim... topdim, ishonasizmi, topdim, xuddi o‘shaning o‘zi! Oq mayin jundan, chekkasiga ipakdan chiroyli hoshiya tikilgan!

– Salom, qalpoqcham! – qichqirib yubordim.

– Salom, Hoshimjon! – degan ovoz eshitildi.

– Men seni axtarib yuruvdim.

– Men seni kutib yotuvdim...

Boshimga ildim-u, uy tomon qush bo‘lib uchdim. Axir men uning chinakam sehrli qalpoq ekanligini sinab ko‘rishim kerak edi-da... Sinab

ko'rdim ham. Ko'cha eshikning ustidan oshib to'ppa-to'g'ri uyga kirib bordim. Oyim tepki mashinada Donoga ko'ylak tikib o'tirgan ekan. Yonginasiga borib:

– Oyi, – dedim ingichka ovozdada. Oyim boshini ko'tarib, u yoq-bu yoqqa qaradi-yu, «tavba» deb ko'kragiga tuflab qo'ydi. Sekin borib lagandagi sovuq oshni yeya boshladim.

– Oysha, akangdan darak bo'lmadi-ku? – deb so'radi oyim.

– Bilmasam, – deb qo'ydi bir chekkada dars tayyorlab o'tirgan singlim.

– Bechora qayerlarda qolib ketdi ekan?

– O'zingiz-da, bo'lar-bo'lmasga urishaverasiz.

Shu payt sovuq osh tomog'imga tiqilib hiqichoq tutib qolsa bo'ladimi, bunaqasiga ilgari hech uchramagan edim. O'ziam naq o'n besh minut nag'ma qildim-da.

– Tavba! – dedi oyim u yoq-bu yoqqa qarab.

– Tavba! – dedi singlim ham yoqasini ushlab.

Demak, qalpoqcham chindan ham sehrli ekan, deb o'yladim-da, termosdan choy quyib ichgan edim, hiqichoq bosildi. O'shangacha ham hech birlari meni ko'rishmadi. Sekin xolodilnikning yoniga bordim-u, eshigini ochib boshimdan qalpoqchani oldim. Oyim bilan singlim baravariga o'rnilaridan turib ketishdi.

– Qayoqdan paydo bo'lib qolding? – ikkovlarining ham savoli shu bo'ldi.

– Xolodilnikning ichida yotuvdim, – deb yuboribman bilmasdan. Oyim bechora qo'rqqanidan andak bo'lmasa yig'lab yuborayozdi. Darrov meni issiq bag'riga olib yuz-u ko'zlarimdan o'pa ketdi.

– Bolaginam, muzlab qolay debsan-ku! – dedi u tinmay. Issiq ko'rpaga o'rab qaynoq-qaynoq choy ichirishdi. Har choy ho'plaganimda jo'rttaga bir inqillab qo'yaman. Ichimga issiq kirishi bilan huzur qilib uxlab qolibman.

Ertasiga birinchi qilgan ishim qishlog'imizda yashaydigan Soraxon folbinning ishlarini tekshirib ko'rish bo'ldi. Meni biron kishi komissiya qilib tayinlagani yo'q-ku, lekin shunchaki o'zim qiziqib qoldim-da. O'qituvchimiz unga ishonmanglar, hammasi yolg'on deydi. Yolg'on bo'lsa, nega xolamning shuhrati shunchalik yoyilib ketadi. Rom ochirib, dardiga davo so'rash uchun odam shunaqangi ko'p keladiki, shunaqangi ko'p keladiki,

qishlog'imizdagi medpunkt uning oldida ip esholmaydi. Undan keyin, kelganlar quruq kelishmaydi. Birovi shoxdor qo'y, birov sariq echki, birov qog'ozga o'ralgan pul, bir xillari katta tog'orada to'rt quloqli somsa tashlab ketishadi. Men bilan o'qiydigan o'g'li Mirobiddinxo'janing kerilganini aytmayisizmi, bir o'zining ikkita velosipedi bor. Tunov kun, bittasini minib biroz sayohat qilgan edim, qosqonini egib qo'ygan ekanman, aka-uka meni tutib olib rosa do'pposlashdi.

Odamlar:

– Soraxon folbin to'ppa-to'g'ri xudo bilan gaplashadi! – deyishadi.

Mirobiddinxo'ja bo'lsa maqtanib:

– Bizning uydan xudoning ovozi eshitilib turadi! – deydi.

Ishqilib, ana shu narsalarni tekshirib ko'rmoqchi bo'ldim-u, ertalab nonushtadan so'ng to'ppa-to'g'ri folbin xolamning uyiga qarab yo'l oldim. Hovlisida yettita xotin, beshta chol, uchta bola o'tirishibdi. Hammasi ham kasal bo'lsa kerak, rangi oftob urgan xamakdek sap-sariq. Qalpoqni kiyib sekin ichkari kirdim. Folbin xolam qorong'i uyda o'tirib olib rom ochyapti, qarshisida bola qo'ltiqlagan mening oyimga o'xshagan cho'ziq yuzli bir ayol o'tiribdi.

– O'g'lingni sariq jin uribdi, qizim, – dedi folbin xolam.

Shu payt uyning pollari ostidanmi, qalin devorlari orasidanmi, shif-tidanmi – qayoqdanligini aniq anglay olmadim-ku, – lekin sariq jinlar-ning jarang-jurung qilib o'yinga tushayotgani, childirma chalayotgani eshi-tilib, qo'rqqanimdan dodlab yuborayozdim. Xayriyatki, oldimda folbin xo-lam, bolali ayol o'tirishibdi. Bo'lmasa, kim biladi, nimalar qilib qo'ygan bo'lardim. Vahimali ovozlari tinishi bilan g'oyibdan:

– Ovm-i-i-in! – degan surnaynikiga o'xshash ingichka ovoz eshitildi.

Folbin xolam davom etdilar:

– Sariq echki so'yib, terisiga bolangni o'raysan.

– Ovm-i-i-in! – degan ovoz eshitildi yana g'oyibdan. Ketidan haligi vahimali jarang-jurunglar jo'r bo'ldi. Folbin xolam bolali ayolning qo'rq-qanidan o'ynab turgan ko'zlariga tikilib:

– Xudo o'zi shifo beradi, ana, arshi-a'lodan uning tabarruk ovozi eshityapti, eshit! – deb qo'ydi.

Bu gal jarang-jurung eshitilmadi-yu, lekin qisqa-qisqa qilib aytilgan



«ovmin» eshitildi. Boshimda qalpoqcham bor. Jinlar bari bir meni ko'rolmaydi, deb o'zimga-o'zim dalda berdim-da, ular bilan uchrashish niyatida ovoz qaysi tomondan kelayotganligini aniqlash uchun shoshilib tomga chiqdim. Qalin devor orasiga narvon tushirilgan ekan. Sekin pastga tushdim. Uyning osti podval, o'rtada so'ppayib bir xum turibdi. Shu choq folbin xolamning uyiga yana bir kishi kirgandek bo'ldi. Uning: «Oh, otaginam, otaginam, sizga qora dev hamla qilibdi, suf, suf, suf», degani eshitildi. Bu ovoz tinib ulgurmasdan xumning ichidan jarang-jurung bilan childirma sadolari yangradi, ketidan «ovmin» ham eshutilib qoldi. Avvaliga qo'rqanimdan bezgak tutgandek dag'-dag' qaltiradim. Keyin o'zimni bosib, sekin borib mo'ralasam, xumning ichida o'zimizning Mirobiddinxo'ja o'tiribdi. Bilaklariga har xil shiqildoqlar taqib olgan, qo'lida do'ppidan sal kattaroq o'yinchoq childirma! «Iy-e, ha, shaytonning o'zlari shu yerda ekanlar-da, yashavorsinlar-e! – dedim kulgim qistab, – sariq jin ham o'zlari bo'lsa kerak?» Shu paytda shunaqangi achchig'im chiqdiki, shunaqangi achchig'im chiqdiki, cho'ntagimdan to'g'nag'ichni olib bor bo'yicha yelkasiga sanchib yuborganimni o'zim ham sezmay qolibman.

– Voy-dod! – deb qichqirdi Mirobiddinxo'ja. Folbin xolam: «Otaginam, kasalingiz g'oyat og'ir, ana, quloq soling, parilarim faryod chekyapti», deb javray boshladi. Kap-katta xotinning yolg'on so'zlaganini ko'rib, yana jahlim chiqib ketdi. Ko'zimga Mirobiddinxo'ja alvastidan ham xunuk ko'rinib ketdi nazarimda. To'g'nag'ichni yana sanchib yuboribman.

– Oyijon! – deb qichqirdi Mirobiddinxo'ja.

– Ovozingni o'chir! – boshidan xumning ichiga bosdim.

– A! – Mirobiddinxo'janing ko'zi xuddi jon berayotgandek ola-kula bo'lib ketdi. – Sen kimsan o'zi, ayt, kimsan?

– Men Azroilman.

– Azroil?

– Ha, Azroilman, joningni olgani keldim.

– Oyijon! Men o'lyapman...

– Dodlama, – deb boshiga bir shapaloq urdim, – menga qara, Hoshim degan bolani taniyanmi?

– Taniyman, Azroilbobo, taniyman.

- Tanisang, nega unga velosipedingni berib turmading?
- Berdim-ku?
- Nega uni akang bilan ikkovlashib urdilaring?
- Tavba qildim, endi urmaymiz.
- Bari bir, hozir joningni olaman, – shunday deb jo‘rttaga bo‘g‘moqchi bo‘lgandek ikki qo‘limni tomog‘iga olib bordim.
- Jon Azroilbobo, bu gal jonimni olmang, kechiring.
- Nega odamlarni aldaysan?
- Oyim aytdilar-da...
- Oying nima dedi?
- Ovmin deysan, dedi. Undan keyin mana bu shiqildoqlarni chalib, childirmani do‘pillatasan, dedi.
- Yolg‘on, o‘zing ham maktabga borib uyimizdan xudoning ovozi eshitiladi degansan.
- Aytdim-ku, oyim o‘rgatdi deb.
- Oying nima deb o‘rgatdi?
- Ko‘cha-ko‘yda yurganingda, maktabga borganingda shunday deb aytasan, dedi.
- Demak, hammasi yolg‘onmi?
- Yolg‘on, Azroilbobo, yolg‘on.
- Yolg‘onligini maktabga borib aytasanmi yoki joningni olib qo‘ya qolaymi?
- Aytaman, bugunoq aytaman.
- Bo‘lmasa seni sinab ko‘raman. Hozircha joning o‘zingda tursin. Uy vazifalarini yaxshilab tayyorlagin, Hoshim degan bola so‘rasa yo‘q demagin...

Tashqariga chiqib endi nima qiliq ko‘rsatsam ekan, deb o‘ylanib qoldim. Hali folbin xolam bolali ayolga dori berayotganida xaltasiga ko‘zim tushib qoluvdi. Ana o‘sha xaltachalarni ham bir tekshirib ko‘rmoqchi bo‘ldim. Har xil chitdan tikilgan katta-kichik beshta xaltacha bor, hammasida ham o‘zimizning aptekalarda sotiladigan oddiy dorilar: birida penitsillin, birida biomitsin, boshqasida yurak o‘ynoqni bosadigan poroshok. Xudoi taolo ato qilgan noyob dorilar deb, xolajonim ana shularni pullayotgan ekan. Yasha-

vorsinlar-e, dedim o‘zimga-o‘zim, hali shoshmay tursinlar, o‘zlarini ham bir uyaltirib qo‘ymasammi...

Folbin xolamning cho‘ntagiga qo‘l solib besh-o‘n so‘m oldim-da, darhol tug‘ruqxona oldidagi aptekaga yugurdim. O‘sha yerdan ichni suradigan har xil dorilar olib keldim. Xaltachalardagi dorilarni olib, o‘rniga o‘shalarni ehtiyotlik bilan joylab qo‘ydim. Oradan o‘n-o‘n besh kun o‘tar-o‘tmas, xolamning obro‘lari ham bir pul bo‘ldi. Sen hali bizni ataylabdan zaharlamoqchi bo‘ldingmi deb, ichi surib darmondan ketgan bemorlar xolamni tutib olib rosa do‘pposlashibdi...

Ishlarim yurishgandan-yurishib ketdi. O‘zim xursand, kayfim chog‘, ashula aytganim-aytgan. Baholarim ham joyida – nuqul besh! Ilgarigidek uy vazifangni bajargan bo‘lsang menga berib tur, deb birovlariga yolvorib ham o‘tirmayman. O‘qituvchilarimizning uyiga shartta kiraman-da, konspekt daftarini olib o‘sha yerda ko‘chiraman-qo‘yaman. Obro‘yim ham shunaqangi oshib ketdiki, o‘qituvchilar menga kulib boqadigan bo‘lib qolishdi. Faqat og‘zaki so‘raladigan fanlardan hamon mazam yo‘qroq. Lekin unga ham bir vaj topib qo‘yganman.

– Mening og‘zaki nutqim rivojlanmagan, yozma ravishda talab qilaveringlar, – deyman-da, o‘qituvchilarimning o‘zlaridan ko‘chirib olgan konspektlarni sal boshqacharoq qilib o‘qib beraveraman.

Xullas, ishlarim har jihatdan yurishib ketgan edi. Sinfkomimizni amaldan tushirib o‘rniga meni saylamoqchi bo‘lib turishgan edi-yu bir xatoga yo‘l qo‘yib, butun maktabda sharmanda-yu sharmisor bo‘ldim, rostini ayt-sam, bir pulcha obro‘yim qolmadi.

Darsdan qaytayotganda hech kim sezmasa kerak deb o‘zimga va eng yaqin do‘stim bo‘lmish Qosimjonga yettita fandan a‘lo baholar qo‘yib, chorak tugamagan bo‘lsa ham, cho‘zib o‘tirmammi deb, chorak baholarini ham chiqarib qo‘ya qolgan edim. Bu ishni avval ona tili o‘qituvchimiz, so‘ngra fizika o‘qituvchimiz payqab qolibdi. O‘sha soatdayoq hammaga oshkor bo‘libdi. Ertasiga maktabga borishim bilan direktorning kabinetiga chaqirishdi. Kirsam, yettita o‘qituvchi qator o‘tiribdi. Qosimni ham chaqirtirib kelishdi.

– Hoshim, beriroq kel-chi, – dedi Otajon Azizovich barmog‘i bilan jurnalda bahoni ko‘rsatib, – bu baholarni kim qo‘ydi?

– Bilmasam.... – dedim yelkamni qisib.
 – Sen qo‘ydingmi? – so‘radi Qosimdan direktor.
 – Nimani? – mendan battarroq hayron bo‘lib dedi Qosim.
 – Ikkoving maslahatlashib qilgansan bu ishni. Ochiqchasiga iqror bo‘linglar, – dedi o‘qituvchilardan biri.

– Yo‘q, bu ish Qosimdan chiqqan, – dedi boshqasi,– nega desanglar, Hoshim so‘nggi paytlarda ancha tuzalib qoldi. Baholari ham nuqul besh...

O‘tirganlar hammasiga bu fikr ma‘qul tushdi shekilli, har tomondan bechora Qosimga savol yog‘dira boshlashdi. Qarasam, do‘stimning ahvoli chatoq – ko‘zida miltillab yosh tomchilari ko‘rinyapti. Yo‘q, qilg‘ilikni men qilib, jabrini biron tortmasligi kerak! Shartta o‘rtaga chiqdim:

– Kechirasizlar, bu ishni men qilganman.

– Nimaga?! – sakkiz kishi birdaniga shu savolni berdi.

– Ha, men qilganman. Qosimning bu ishdan mutlaqo xabari yo‘q. Undan keyin, xullas, bu ishni men qilganman...

Tamom, hali aytganimdek, obro‘ ikki pul bo‘ldi. Aytilmagan gap-u, qilinmagan nasihat qolmadi. Mendan shu ketishda ketaversam, tuzukroq odam chiqmas emish, agronom ham, injener ham, zootexnik ham bo‘la olmas emishman.

– Yo‘q,– dedim qaysarligim tutib,– mendan agronom chiqadi, albatta.

– Chiqmaydi! – sakkiztalovlari bir ovozdan takrorlashdi.

– Bo‘lmasa zootexnik bo‘laman.

– Ilmsiz bo‘lsang, zootexnik tugul molboqar ham bo‘lolmaysan!

– Bo‘la olaman.

– Gapni ko‘paytirma, bo‘lolmaysan! – achchig‘i chiqib dedi direktor.

– Bo‘laman, bo‘laman, bo‘laman! – dedim-da, eshikni tarsillatib yopib chiqib ketdim. Men o‘qimay turib ham boshimda shu qadrdon qalpoqcham bor ekan, albatta, agronom ham, injener ham, shoir-u artist ham bo‘la olaman deb qattiq ishonar edim. «Ha, albatta, bo‘laman, – deb takrorladim o‘zimga-o‘zim, – bularga, menga ishonchsizlik bilan qarayotgan mana shu qadrdon o‘qituvchilarimga o‘zimning kimligimni ko‘rsatib qo‘yaman...»

O‘sha kuni kechasiyoq qahramonliklar ko‘rsatib, shon-u shuhrat taratib, o‘qituvchilarimni, Otajon Azizovichni hayratda qoldirish niyatida safarga otlandim.

Xayr, jonajon qishlog'im, hayqirib, toshdan-toshga urilib oqayotgan zilol suvli anhorlar, poyonsiz mevazor bog'lar, hammangizga xayr. Yo'l yoqasidagi azim yong'oqlar, sizlar ham yaxshi qoling. Endi sizlarga hech kim tosh otib shoxingizni sindirmaydi, tanangizga mix qoqib ozor bermaydi!

Mehribon oyijonim, sho'xliklar qilib ko'nglingizni og'ritgan bo'lsam, qaysarligim tufayli o'ksitgan bo'lsam, kechiring meni! Qo'ng'ir sochli singillarim, sizlar ham yaxshi qoling. Har xil qiziqchiliklar qilib sizlarni qiqirlatib kuldiradigan, maktabdan qaytayotganingizda sho'x bolalar urganda tarafingizni oladigan akangiz yoningizda yo'q endi. Sog'inganda, ko'nglingiz o'ksiganda rasmga boqing. Lekin yig'lamang. U albatta keladi, qahramonliklar ko'rsatib qaytadi. O'z o'qituvchilariga o'qimasdan turib ham agronom bo'la olishi mumkinligini, artist bo'lib hammani o'ziga mahliyo qila olishi mumkinligini ko'rsatib qo'yadi. Ha, albatta, ko'rsatadi. Ko'ksi to'la orden bilan qaytadi.

Xayr!

Ey, chala qolgan uy vazifalari, sizlarga ham xayr!

Yarim tunda qishloqdan chiqib borar ekanman, ko'zim jiqqa yosh, ammo qalbim shodliklarga to'la edi.

III B O B

BAXTIM KULIB BOQQAN EDI

Qayoqqa borishni, nima qilishni bilmas edim. Boshim qotgan, o'ylab o'yimga yetolmayman. Ammo bir jihatdan ko'nglim shod – ovqat tekin, poyezd-u avtobuslar tekin, qadrdon qalpoqcham boshimda. Zeriksam, u bilan suhbat quraman.

- Qalpoqcham, qayerlarga kelib qoldik? – deb so'rayman.
- O'zim ham bilmayman, Hoshimjon, – deydi qalpoqcham.
- Rostini ayt. mendan agronom chiqarmikin-a?
- Chiqadi. Albatta, chiqadi.
- Axir mening diplomim yo'q-ku? – deyman ko'nglim o'ksib.
- O'kinma, – deydi qalpoqcham, – qo'lingni cho'ntagingga sol – diplom tayyor.

Qo'limni cho'ntagimga solgan edim, chindan ham ko'k jildli, ichkarisiga har xil yozuvlar yozilib, dumaloq muhr bosilgan diplom chiqib qoldi.

– Qalpoqcham, axir mening bo'yim juda past-ku, – deyman yana ikkilanib, – hech kim meni katta odam deb o'ylamaydi-ku?

– Xafa bo'lma, kerak bo'lganda bo'y ham qo'shib beraman.

Yo'l yurdim, yo'l yursam ham mo'l yurdim, bir mahal mundoq qarasam sahro-yu biyobonga kelib qolibman. Bir tomoni poyoni yo'q cho'l. Qarasang, ko'zing jimirlab ketadi. Yantog'-u sho'radan boshqa hech narsa ko'rinmaydi. Ahyon-ahyonda menga o'xshab qayoqqa borishini bilmay garang bo'lib uchib yurgan qushlar to'dasigami, dumi uzun yumronqoziq yoki ko'zini lo'q qilib turgan kaltakesakkami duch kelib qolasan.

Ikki marta ilonlar galasiga ham uchrab qoldim. Yegani ovqat topolmay bir-birining dumini so'rib yotgan ekan, meni ko'rishi bilan sevinib shunaqangi quvlashga tushib ketishdiki, agar boshimga qalpoqchamni kiyib olmaganimda, kim biladi, holim ne kechar edi...

Biroz yurgach, bog'-rog'lar yashnab yotgan joyga kelib qolibman. Tavakkal qilib daraxtzorlar orasidan yurib boraverdim. Goh olmazor, goh shaftolizor, goh tokzorlar orasidan o'tib borardim. Bir tomonda g'o'zalar ham yashnab yotibdi. Dadamga o'xshagan odamlar tepasiga brezentdan soyabon o'rnatilgan universallarga minib olib ishlov berishmoqda. Katta sement ariqdan shundoqqina o'tishim bilan g'alati bir manzaraga ko'zim tushib, rostini aytsam, hang-u mang bo'lib qoldim. Yuz gektarcha keladigan katta maydon mayda-mayda bo'laklarga bo'lib tashlangan, har bir bo'lakchada uchtadan-to'rttadan bo'lib o'zim tengi, o'zimdan sal kattaroq bolalar, Oyshaxon singlimga o'xshash qo'ng'ir sochli qizchalar terlab-pishib ishlashib yotibdi.

– Hoy bola, horma! – dedim g'o'zaning ichidan o't yulib yurgan bir bolaning yoniga borib.

– Ishingni qil, – dedi u boshini ko'tarmay.

– Horma, deyapman.

– Ishingni qil deyapman, – shunday deb notanish bola sekin boshini ko'tardi. Ko'tardi-yu, uyalganidan bo'lsa kerak sholg'omdek qizarib ketdi.

– Kechirasiz, – dedi peshanasidagi terini artib, – men sizni o‘zimizning Shavkat deb o‘ylabman.

– Kechirasiz, – dedim men ham hurmatini joyiga qo‘yib, – bu qaysi mamlakat?

– Nima?

– Qaysi mamlakat deyapman?

– Mamlakat emas, Mirzacho‘l.

– E, anavi gazetadagi Mirzacho‘l shu yerlarmi?

– Gazetadagi emas, Mirzacho‘ldagi Mirzacho‘l, – tushuntirdi notanish bola.

– Bu yerda nima qilyapsizlar?

– O‘t yulyapmiz.

– Bu g‘o‘zalar kimniki o‘zi?

– Bizniki.

– Nega endi sizniki bo‘larkan?

– Ana shu, ko‘rib turganingiz o‘n gektar yerdagi g‘o‘zani oltovimiz ekanmiz, o‘zimiz parvarishlayapmiz, hosilini ham mashinada o‘zimiz yig‘ishtirib olmoqchimiz.

– Sizlarga agronom kerak emasmi?

– Yo‘q, – dedi bola boshini chayqab, – biz o‘zi bo‘lajak agronomlarmiz...

Gapni cho‘zib o‘tirmasdan narigi kartalarga o‘tib ketdim. Mendan ko‘ra sal novcharoq bo‘lgan ikkita bola qovun chopiq qilish bilan ovora.

– Nima qilyapsizlar? – so‘radim jo‘rttaga nima qilayotganlarini ko‘rib turgan bo‘lsam ham.

– Ikkinchi chopiq qilyapmiz, – degan mujmalroq javob oldim. Bolalar juda shoshib ishlashardi. Yo bir-birlari bilan kim ko‘p ishlashga musobaqa o‘ynashgan yoki o‘zlari shunaqangi chaqqon ishlashga o‘rganib qolishgan bo‘lsa kerak, deb o‘yladim. Rostini aytsam, shu paytda mening ham ana shu bolalar bilan egatlarga yonma-yon tushib olib, musobaqalashib, ketmon chog‘im kelib ketdi. Lekin o‘zimni bosib, jiddiy bir ohangda:

– Sizlarga agronom kerak emasmi? – deb so‘radim.

– Yo‘q, kerak emas.

– Nega endi kerak bo‘lmas ekan? Ehtimol, kerakdir?

– Bizning o‘zimiz agronommiz.

Shundan keyin kun botguncha ishlayotganlarni gapga solib, suhbatlashib, mayda kartalarni aylanib, tomosha qilib yuraverdim. O‘ziam tomosha qilsang arzigulik joylar ekan, cho‘lni yashnatib yuborishibdi. Bir kartada hali aytganimdek paxta, boshqasida hali aytganimdek qovun-tarvuz, nariroqda piyoz, beriroqda karam! Ayniqsa, bu atrofda mevalarni aytmayisizmi. Luchchak shaftolilarga maza kiray deb qolibdi, olma daraxtlari hosilni ko‘p qilganidan biron ayb ish qilib qo‘ygandek boshlarini egib turibdi. Uzumning o‘zidan, xoh ishonib, xoh ishonmang, roppa-rosa yigirma ikki xilini sanasam-a.

Tovuqlarga don berib yurgan, hadeb tuxum yeyaverganidan bo‘lsa kerak, oshqovoqdek semirib ketgan sariq sochli bir qizdan:

– Bu tovuqlar kimniki? – deb so‘radim.

– Bizniki, – dedi qiz hozirgina archilgan kattagina tuxumni og‘ziga solib.

– Tuxumni kimga berasan?

– O‘quvchilarga.

– Uy vazifalarini bajarmaganlarga ham beriladimi?

– Unaqalar bizda yo‘q.

– Bordi-yu, bitta-yarimta topilib qolsa-chi?

– Bor, ishingni qil, – dedi sariq sochli qiz yana bitta tuxumni og‘ziga solib, – tovuqlarimni hurkitib yuboryapsan.

– Menga qara, – dedim biroz yumshab, – sizlarga zootexnik kerak emasmi?

– Zootexnikni nima qilamiz?

– Ish o‘rgatadi-da.

– Unaqasidan o‘zimizda ham to‘lib yotibdi...

Sal nari borgan edim, atrofi yog‘och taxta bilan o‘ralgan katta qo‘rg‘onga ko‘zim tushib qoldi. Darvoza tepasiga «Krupskaya nomli maktab-internat fermasi» deb yozib qo‘yishibdi. Ha-ha, bu maktabning hali fermasi ham bor ekan-da, deb o‘yladim-u, sekin ichkari kirib bordim. Rostini aytsam, ferma uncha katta ham, uncha kichik ham emas ekan: sakkizta sigir, o‘n to‘rtta cho‘chqa, uchta qo‘tir echki – bor-yo‘g‘i shu.

– Qo‘ylaring ham bormi? – so‘radim mollarning tagini tozalab yurgan past bo‘yli, peshonasi do‘ng bir boladan.

– Qo‘ylar cho‘lda... – dedi bola menga qarab angrayib.

– Quyonlar-chi?

– Quyon fermamiz katta bog‘ning ichida turadi.

– Echkilaring bor-yo‘g‘i uchtami?

– Muncha ezma ekansan, aytdim-ku, echkilar ham qo‘ylarning yonida deb.

– Shunaqa demaysanmi, – dedim sal past kelib. – Men bo‘lsam boshqalari kasal tegib o‘lib ketganmi deb o‘ylabman. Buzoqlaring ko‘rinmaydi?

Peshonasi do‘ng bola toza jonimga tegding-ku, degandek qo‘lini siltab, paqir bilan supurgini ko‘targancha, xiyol oqsoqlanib cho‘chqaxonaga o‘tib ketdi. O‘sha yerdan turib, negadir tilini uzun chiqarib meni masxara ham qilib qo‘ydi.

– Tort tilingni, hozir borib sug‘urib olaman! – dedim mushtimni ko‘rsatib.

– Meni-ya!

– Ha, seni.

– Urishgandan ko‘ra kelib ishga qarashsang bo‘lmaydimi! – dedi bola iljayib, ishga tushsam tushay deb ustimdagi yangi ko‘ylagimni shartta yechdim-da:

– Qani, ishingni ko‘rsataver, – deb qo‘ydim.

– Menga qara, tag‘in sen mehmon bo‘lmagin? – qiziqib qoldi u.

– Mehmonman-da.

– Iye, shunday demaysanmi? Qani, tanishib qo‘yaylik: mening otim Hayitvoy, yettinchi sinfda o‘qiyman.

– Mening otim Hoshimboy, – deb qo‘limni cho‘zdim, – oltinchi sinfning a‘lochi o‘quvchilaridan bo‘laman. Sizlar o‘zi kimsizlar, o‘quvchimi, kolxozchimi, hech tushunolmay qoldim-ku?

– Bizmi, biz hu anavi ikki qavatli bino bor-ku, o‘sha yerda o‘qiyimiz, darsdan bo‘sh vaqtimizda ko‘rib turganingdek ishlaymiz, kasb o‘rganamiz. Biz-chi, Hoshimboy, o‘zimizni o‘zimiz boqamiz, o‘zimizni o‘zimiz kiyintiramiz...

– Rostdan-a?! – dedim hech ishongim kelmay.

– Rost, – Hayitvoy ishonchsizlik bildirganim uchun biroz xafa bo‘ldi, – hali sen ko‘rganing yo‘q, o‘ttiz gektar yerda mevazor bog‘imiz bor, shig‘il hosilga kirgan. Yarmini yeymiz, yarmini bozorga chiqarib sotamiz. Go‘sh t ham, sut ham o‘zimizda yetarli.

– Sigirlarni kim sog‘ib beradi?

– Kim sog‘ardi, o‘ninchi sinfning qizlari-da.

– Meva-chevalarni ham o‘shalar sotib beradimi?

– Bo‘lmasam-chi? – dedi Hayitvoy maqtanib, – direktorimiz Xursanali Sharafiddinovich bu qizlardan ajoyib sotuvchilar yetishib chiqadi, deydi. Mayli, rastrata qilsalar ham ishlashaversin, bora-bora o‘rganib ketishadi, deydi. Tunov kuni, bilasanmi, nima bo‘ldi? Tekshiruvchilar borganda, haligi budkada sut-qatiq sotib o‘tiradigan Sanobar opam bor-ku?

– Qaysi? – so‘rab qo‘ydim.

– Hali o‘ninchi «b» da o‘qiydigan bor-ku, o‘sha oq xalat kiymasdan savdo qilayotgan ekan, qo‘lga tushib qolibdi. Tartibni buzgani uchun rosa muhokama qilib vigovor berishdi. Undan keyin desang, o‘n besh so‘m shtraf qilishdi.

– Shtraf pulini qayerdan oladi?

– Qayerdan olardi, brigadaning fondidan oladi-da, hali aytdim-ku, mahsulotlarimizdan kelgan foydani kassaga qo‘yamiz deb. Kassadagi pul yig‘ilaveradi, yig‘ilaveradi, keyin o‘ninchini bitirib butunlay ketayotganimizda har kim o‘ziga tegishli pulni olib ketadi.

– Rost aytyapsanmi? – dedim yana ishongim kelmay.

– Rost. O‘tgan yil maktabimizni ellik kishi bitiruvdi, bitirish kechasi Xursanali Sharafiddinovich har biriga ming so‘mdan pul ulashdi, biz rosa qarsak chaldik... Sizlarning maktablaringizda ham shunaqami?

Rostini aytsam, nima deyishimni bilmay, jo‘rttaga nariroqdagi sigirlarni tomosha qilayotgandek angrayib turaverdim. Bizning maktabimizda, yashirib nima qilaman, bu yerda ko‘rganlarimning mingdan biri ham yo‘q. Rost, tirik burchakda ikkita ori q quyon bor edi, lekin uning ham bittasi ochidan o‘lib qolgan. Undan keyin maktabimizning orqasida kattagina mevazor bog‘ ham bor, lekin bu daraxtlar meva qiladimi-yo‘qmi, hozir o‘ylay-o‘ylay hech xotiray olmadim. Shunday bo‘lsa ham maktabimizning sha‘nini hecham yerga urgim kelmasdi.

– Nima deding? – dedim maqtanishga chog‘lanib.
– Sizlarda ham shunaqalar bormi deyapman?
– Sizlarnikidan yuz marta yaxshisi bor.
– Quyon fermalaringiz ham bormi?
– Bor. Hatto bizda sher, arslonlargacha bor...
– O‘h-ho‘, – dedi Hayitvoy qo‘rqqanidan ko‘zlari ola-kula bo‘lib, – yeb qo‘ymaydimi??

– Biz ularni temir qafaslarga solib, ustidan kattaligi sening kallangdek keladigan qulflar solib qo‘yganmiz...

– Sizlarda haligi eshik, rom yasaydigan ustaxonalar ham bormi?

– Oh-ho, bizning ustaxonani bir ko‘rsang, – deb qo‘ydim. Shunday deyman-u, lekin maktabimizning ustaxonasi qayerda ekanligini o‘zim ham bilmayman.

– Haligi kiyim-bosh tikadigan artel-chi? – deb so‘rashda davom etdi Hayitvoy.

– Bor. Hammasi bor. Mana shu ustimdagi ko‘ylak ham o‘sha yerda tikilgan. Oyog‘imdagi tuflini Shokir degan bitta og‘aynim tikib bergan.

– Bizda ham ustaxonaning har xilidan bor, – dedi Hayitvoy biroz shashtidan tushib, – hozir olib borib ko‘rsatardim-u, lekin ishlarim qolib ketadi-da.

Men uning ishlariga ko‘maklashadigan bo‘ldim. Ko‘z yumib-ochguncha avval molxonani, so‘ngra cho‘chqaxonani yog‘ tomsa yalagudek qilib tozalab tashladik. Go‘ng bilan chiqindilarni men katta chelakka solib turdim. Hayitvoy tashqariga bo‘zchining mokisidek qatnab turdi. Bir nafasda hammayoq, hali aytganimdek, yog‘ tomsa yalagudek bo‘ldi-qoldi.

– Do‘stim Hayitvoy, – dedim ishlar tugagach, – sizlarga mol doktori kerak emasmi?

– Do‘stim Hoshimboy, – javob qaytardi sherigim, – mana shu ferma-dagi sakkiz bola hammamiz mol doktori bo‘lamiz...

Hayitvoy bilan o‘rtoq bo‘lib qoldik. O‘ziyam ko‘ngli ochiq, xushchaq-chaq, menga o‘xshab qiziqchiroq bola ekan. Avvaliga rosa maqtanchoq bo‘lsa kerak, deb o‘ylagan edim. Yo‘q, unchalik maqtanchoq ham emas ekan. Aytganidek, maktabning ustaxonasi ko‘rsang ko‘rgudek, tomosha qilsang

tomosha qilgudek joy ekan. Qizlar mening oyimnikiga o'xshash tepki mashinada chok tikishayotgan xonaga kirib o'n minut chamasi angrayib turdim. Qasam ich desangiz, qasam ichib aytamanki, bunaqangi ustaxona dunyoda hech bir maktabda bo'lmasa kerak. Quyonlarning terisidan jajji qizlar uchun popukli qalpoqchalar, oq batistdan o'quvchi qizlar kiyadigan fartuk deysizmi, paxta teriladigan kanop etaklar deysizmi, xullas, dunyodagi yo'q kiyimlar mana shu yerda tikilar ekan. Biram bejirim, biram chiroyli tikishyaptiki! Hay-hay, nozik qo'lchalarning chiroyli harakatlarini ayt-maysizmi, oyoqchalarning bir me'yorda ishlashini qarang-a! O'zlari kichkina-kichkina qizlar, oyoqlari tepkiga zo'rg'a yetyapti-yu, katta xotinlardek kerilib o'tirishadi-ya, obbo jin sochlar-ey! Zavqim oshganidan yoniga borib bittasining biqinidan sekin chimdigan edim, qo'limga bir tushirdi.

– Bular ham sotiladimi? – deb so'radim Hayitvoydan.

– Sotiladi, hammasi sotiladi, – tushuntirishda davom etdi u.

– Menga qara, ana u qalpoqchalardan esdalik uchun menga ikkita berolmaysanmi?

– Nima qilasan bularni?

– Ikkita singlim bor, o'shalarga sovg'a qilib olib bormoqchiman.

– Yo'q, berolmayman.

– Berasan, keyin qo'limga pul tushganda kelib to'lab ketaman.

– Berolmayman! – dedi Hayitvoy biroz jahli chiqib.

– Berasan, – shunday dedim-da, stol ustida turgan chiroyli qalpoqchalardan ikkitasini olib qo'ltiqqa urdim. Hayitvoy qo'limga yopishgan edi, bilmasdan qattiqroq itarib yuborgan ekanman, bechora ikki-uch dumalab ketsa bo'ladimi. Chok tikayotgan qizlar bizni kuzatib turishgan ekan, ularni sut-qatiqlar bilan ta'minlab, nonushtalariga qaymoqlar yetkazib berayotgan ukajonlarini ranjitganim uchun mendan o'ch olmoqchi bo'lib 28 qiz baravariga o'rmidan turdi: birining qo'lida pichoq, birining qo'lida qaychi, birisi qizib turgan dazmolni ushlab olgan, hammalari menga tashlanib qolishdi. Qarasam, ishning keti xunuk bo'ladigan. Qochmagan nomard, dedim-da, o'zimni eshikka urdim... Yo'q, Mullahoshimboy kechikkan ekanlar, eshikni allaqachon berkitishga ulgurishibdi, qalpoq-

chamni boshimga kiyishga arang ulgurib qoldim. Ko'zdan yo'q bo'lishim bilan:

– Stolning tagini qaranglar, stolning tagida! – deb qichqirdi biri.

– Shkafning ichiga kirgandek bo'ldi!– dedi boshqasi shovqin solib. O'zimni sekingina derazadan hovliga otdim. Qizlar: «O'g'ri qochdi, ushlanglar!» – deb orqamdan yugurib chiqishdi. Butun internatda trevoga ko'tarildi. Direktor Xursanali Sharafiddinovich radiouzel orqali e'lon qilib, meni qidirishga 550 o'quvchining hammasini safarbar qildi.

– Afti angori esingda qolganmi? – so'radi u Hayitvoydan.

– Bo'lmasam-chi?..

– Unda mana bu radiouzel orqali hammasini gapirib ber, tezroq bo'!

– Diqqat, diqqat! – hovliqib, xirillab gapira boshladi Hayitvoy, – o'g'rini qidirayotganlar diqqatiga. Hozirgina qochgan bola 12–13 yoshlarda edi. O'zi qorachadan kelgan, oriq, bo'yi mendan ko'ra novcharoq. Ko'zlari yirik-yirik, doim chaqnab turadi. Burni angishvonaga o'xshaydi. Gapirganda tutilib-tutilib qoladi. Ustida oq shoyidan sorochkasi bor, shimi yo'l-yo'l sherstdan, dazmollanmagan. Afti boshiga bir haftadan buyon suv tegmagan bo'lsa kerak, hammayog'i kir...

Hayitvoy radiodan e'lon berayotgan mahalda men direktorning kabinetida xuddi o'sha direktorning o'zi bilan yonma-yon o'tirib choyxo'rlik qilmoqda edim. Divanga yonboshlab olib o'ylanib ketdim.

– Nimalar qilib qo'ydim o'zi? Ularning mehnatiga yordamlashish o'rmiga hammasini ishdan qo'ydim-ku! Mana Xursanali Sharafiddinovich bilan yonma-yon o'tiribmiz, o'zi yomon odamga o'xshamaydi, ancha mehribon, gapga tushunadigan ko'rinadi... Ehtimol, yaxshilikchasiga iltimos qilganimda meni biron uchastkaga agronom qilib olgan bo'larmidi. Ishlarim yurishib ketganda, kim biladi, rasmim gazetalarda bosilib ham chiqarmidi. Ana unda mehribon direktorimiz Otajon Azizovich ham, algebra muallimimiz Qobilov ham kishi o'qimasdan turib agronom bo'la olishi, o'rtoqlariga hisobsiz foydalar keltirishi mumkinligini o'z ko'zlari bilan ko'rardilar... ha, baxtim kulib boqay deb turgan edi. Lekin afsuski, ishni o'zim buzib qo'ydim...

Sekin o'rnimdan turdim-da, Xursanali Sharafiddinovichning sovib

qolgan choyidan och qoringa xo‘rillatib bir xo‘pladim-u, radiouzel o‘rnatilgan xonaga kirdim. Hayitvoy o‘sha yerda hamon kekirdagini cho‘zib gapirar edi.

– Ma, qalpog‘ingni ol, bunaqasi bizning maktabda ham to‘lib yotibdi!
– dedim-da, oyog‘ining tagiga tap etib tashladim.

Arzimagan bir narsa uchun yuzim shuvut bo‘lib qoldi, endi bu yerda qolishim mumkin emas edi. Bolalarning oshxonasiga kirib, qozonning boshiga o‘tirib oldim-da, lazatli taomlardan to‘yib-to‘yib yedim. Kompot pishirishgan ekan, undan ham ikki stakanni pok-pokiza urib oldim. Keyin, o‘zingiz ham sezib turgan bo‘lsangiz kerak, yana yo‘lga ravona bo‘ldim...

IV BOB

HASHAROTNI KALTAKLASHGA BUYURDIM

Ketyapman-ketyapman, na yo‘lning oxiri ko‘rinadi, na atrofda biron qo‘qqaygan kulba. O‘ngga qarasang ham g‘o‘za, chapga qarasang ham g‘o‘za. Bir mahal burilib orqamga boqqan edim, nazarimda, hozirgina men bosib o‘tgan yo‘llarda ham g‘o‘zalar o‘sayotganga o‘xshab ko‘rindi. Siz qanaqaligingizni bilmayman-ku, lekin men mana shunaqangi poyonsiz dalalarga chiqqanimda yayrab, jonim tanimga sig‘may ketadi. Undan keyin qornim to‘ydi deguncha, ashula aytib yuboradigan odatim ham bor. Shu paytda qorin masalasida shikoyatim yo‘q hisobi. Undan keyin atrofda: «Hoy, Mullahoshim, quloq o‘zimizga ham kerak», – deb tanbeh beradigan biron kimsa ham ko‘rinmaydi. Shartta ashulani boshlab yubordim:

Xoh g‘o‘zam, xoh-xoh g‘o‘zam,
Hosili oppoq g‘o‘zam, –

deyman-u, buralib-buralib o‘yinga tushib yuboraman. Keyin ikki qo‘limni biqinimga qo‘yib, egilib, g‘o‘zalarga salom beraman-da:

Xoh g‘o‘zam, xoh-xoh g‘o‘zam,
Hosili oppoq g‘o‘zam, –

deb kuylab yo'lda davom etaman. Qorong'i tushib osmonda charaqlab yulduzlar ham ko'rinib qoldi. Ammo hali aytganimdek, yo'ning oxiridan darak yo'q.

Bir mahal ko'chani chap tomonidan miltillab chiroq yorug'i ko'rinib qoldi. Borib qarasam, yetmish yoshlarga kirgan, oppoq soqoli ko'ksiga tushib turgan bir otaxon yonboshlab olib xo'rillatib ko'k choy ichyapti. Oyoq tomonda – toshfonus, o'shanning yorug'ini ko'rgan ekanman.

– Assalomu alaykum, otaxon! – dedim cho'zib, – suv quyayapsizmi?

– Vaalaykum, – otaxon chordana qurib o'tirib oldi, – kel, o'g'lim, kel.

Qani, beriroq kel-chi, tanimayroq turibman. Kimning o'g'lisan o'zi?

– Dadamning o'g'liman, – deb yuboribman shoshilib. Hash-pash deguncha ikkovimiz ota-boladek bo'ldik-qoldik. Otaxonning ismlari Polvontog'a ekan. Ishimning o'ngidan kelganini qarangi, Polvontog'a yolg'iz o'zi zerikib o'tirgan ekan. Menga o'xshash esli-hushli, gapga tushunadigan bir yigitga juda-juda ham zoriqib o'tirgan ekan. Xursand bo'lib ketganidan otaxon meni obdan mehmon qildi, keyin termosdan choy quyib berayotib:

– Obbo o'g'lim-ey, obbo taylog'im-ey, – deb qo'ydi.

– Otaxon, bu g'o'zalar qaysi kolxozniki? – sekin maqsadga o'tdim.

– Kolxozniki emas, sovxozniki. Oltinchi sovxozniki. O'g'lim, qani qanddan ol, choy rasmi qand bilan ichiladi.

– Otaxon, sovxozlaringga agronom kerak emasmi?

– Sovxozga kerak-kerakmasligini bilmayman-u, ammo-lekin bizning bo'limga agronom kerak. O'zimizning agronom oblastga ko'tarilib ketdi. Umringdan baraka topkur ko'p azamat yigit edi. Nima, dadang agronommi deyman?

– Dadam emas, mening o'zim agronomman.

– Nima?! Mushtumdek bola-ya! – shunday deb otaxon menga boshdan-oyoq razm solib chiqdi. Men qo'ltig'imda turgan qalpoqchamga «qalpoqcham, sehringni ko'rsat», deb asta shivirladim-da, ovozimni chiqarib:

– Otaxon, meni chog'imda yosh bola deb o'ylayapsiz shekilli?– deb shartta o'rnimdan turgan edim, Polvontog'am mirzaterakdek bo'yimni ko'rib:

– Yopirim-ey, yopirim-ey! – deb soqolini changallab, hang-u mang bo‘lgancha menga tikilib qoldi. – Hozirgina yosh bola eding-ku yo tush ko‘rayotibmanmikin-a! Astag‘firullo...

– Otaxon, men o‘zi shunaqaman, – dedim shoshib-pishib, – bir qarasangiz yosh boladek, yana bir qarasangiz katta odamdek ko‘rinaman.

– Yopir-ey, yopir-ey! – derdi otaxon tinmasdan. U bir nafasdan so‘ng o‘ziga kelib, «shunday qilib, agronomman deng, o‘g‘lim» deb so‘radi.

– Ha, otaxon, agronomman.

– Bizning sovxozga ishga kirmoqchi bo‘lib yaxshi qilibsiz, o‘g‘lim. Sovxozimiz keng, hammaga ham ish yetib ortadi. Farg‘ona tomondan bo‘laman, dedingizmi?

– Ha, Farg‘ona tomondan bo‘laman.

– Ota-onalar hayotmi?

– Hayot, otaxon, hayot.

– Barakalla. Ularning davrida u yoq-bu yoqni ko‘rib olganingiz ma‘qul. Musofir bo‘lmasang, musulmon bo‘lmaysan, deydilar keksalar. Ertalab sovxoz direktorining oldiga o‘zim boshlab boraman. Farg‘onadan meni qora tortib kepti, hamshaharim bo‘ladi, ishga olsang ham olasan, olmasang ham olasan, deb turib olaman...

O‘sha kechasi Polvontog‘a bilan dalaning o‘zida yotib qoldik. O‘ziyam anchadan buyon bunaqangi huzuri jon bo‘lmagan edi. Sement ariqlarda hayqirib oqayotgan suvlardan egatlarga tarab qo‘ydik-da, yerning o‘rtasiga qilingan baland supada cho‘zilib yotdik. Olis-olislarda miltillab chiroqlar yonadi, ko‘kdagi yulduzlarni aytmayisizmi, charaqlab ko‘zni olay deydi. Oy bo‘lsa tepamizga kelib allaqanday sarg‘ish, allaqanday ko‘kintir nurlar sochadi. Qalbimizda hech tushunib bo‘lmaydigan, shodlikka ham, g‘ussaga ham o‘xshamaydigan g‘alati-g‘alati hislar uyg‘otgandek bo‘ladi. Suv o‘z tilida bir nimalar deb chulduraydi, chigirtkalarining basma-basga kuylashi, qurbaqalarning pashsha tuta olmaganidan kimgadir shikoyat qilayotgandek cho‘zib-cho‘zib qurillashi – mana shularning hammasi menga, negadir, qishlog‘imizni eslatib yubordi. Chalqancha tushib, ikki qo‘limni boshim ostiga qo‘ygancha yulduzlar chamaniga mahliyo bo‘lib yotarkanman, shu paytda oyijonim, jondan yaxshi ko‘rgan singillarimni eslab ketdim. Ehtimol,

bechora oyijonim sochlarini yulib faryod chekayotgandir, dalama-dala, qishloqma-qishloq bo‘zlab meni axtarib yurgandir. Oyijon, oyijonim, meni axtarmang, meni deb ko‘zyoshlaringizni oqizmang. Hoshimboyning ishlari besh, katta sovxozga katta agronom bo‘lay deb turibdi...

O‘ylay-o‘ylay uxlab qolibman.

Sovxoz direktori baland bo‘yli, yelkalari keng, polvonnamo bir kishi ekan. Gapirganda ovozi xuddi xunning ichidan chiqqandek guldirab, jaranglab eshitiladi. Kulganda tomni ko‘tarib yuborgudek qattiq kuladi, yurganda uyning pollari lapanglab ketadi. Polvontog‘a meni tanishtirgach:

– Hoshimboy hali yosh, uni o‘zing tarbiyanga olasan, – deb tayinladi sovxoz direktoriga.

– Otaxon, Sizning gapingizni hech qaytarolmayman, – dedi direktor menga zimdan razm solib, keyin mening o‘zimdan ham so‘rab qo‘ydi: – Qaysi institutni bitirgansiz?

– Agronomlik institutini.

– Qaysi fakultetini?

– Agronomlik fakultetini.

– Yaxshi. Ilgari ishlaganmisiz? – Yo‘q.

Akbar aka Nosirov unaqangi ezma direktorlardan emas ekan, gapni cho‘zib meni ham, o‘zini ham qiynab o‘tirmadi-yu, shartta agronom qilib tayinladi-qo‘ydi.

O‘sha kuni ikkovimiz uning «villis»iga o‘tirib, dala aylandik. To‘rtinchi bo‘limga tayinlangan ekanman, ixtiyorimda 1200 gektar paxta maydoni-yu, 12 brigada. Akbar aka meni jamiki brigada boshliqlari, men rahbarlik qilishim kerak bo‘lgan odamlar bilan birma-bir tanishtirib chiqdi. Minib yuring deb, «IJ» markali mototsikl berib, oylik maosh ham tayinladi.

– Eng muhimi, o‘rtoq Ro‘ziyev, – dedi u ta‘kidlab,– odamlar bilan ishlash. Agar kishilar bilan yaxshi muomala qilsangiz, ularning qalbiga yo‘l topa olsangiz ish o‘z-o‘zidan yurishib ketaveradi. Tushunarlimi?

– Tushunarli, o‘rtoq Nosirov! – dedim. Mototsiklni olishga olib qo‘ydim-u, lekin yashirib nima qilaman, haydashni bilmas edim. To‘g‘ri, dadamning mototsikliga uch-to‘rt bor minganim bor. O‘t oldirishni, gaz berishni, tezligini oshirib, pasaytirishni o‘shanda uncha-muncha o‘rgangan edim.

Uch kun mototsikl minishni mashq qilib, to‘rtinchi kundan boshlab dala aylanishga tushdim. Bu yerning odamlari ajoyib kishilar ekan. Qayerga bormay, hurmatimni joyiga qo‘yib, kutib olishadi. Choy, ba‘zan qozon osib ovqat ham tayyorlashadi. Ikki marta tovuq sho‘rva ham qilib berishdi. «Aroq-paroq ham ichasizmi?» deb so‘rashgan edi, «tag‘in mast bo‘lib qolib aljib o‘tirmay» deb, «yo‘q, men ichkilikni yomon ko‘raman», deb qo‘ya qoldim. Gohida:

– O‘rtoq agronom, sizningcha, mahalliy o‘g‘itga superfosfatni aralash-tirib solgan yaxshimi yoki superfosfatni selitra bilan tashlayveraylikmi? – deb so‘rab qolishadi.

Superfosfat nimasi-yu, selitra nimasi, rostini aytsam, o‘zim ham bil-mayman. Ilgari bunaqangi gaplarni hech eshitmagan ekanman. Lekin shunday bo‘lsa ham sir boy bermayman:

– Shuni ham so‘rab o‘tiribsizlarmi, – deb jo‘rttaga balanddan kelaman, – kim aytadi sizlarni Mirzacho‘lning mashhur paxtakorlari deb, uyat emasmi!

Aylanib yurib to‘rtinchi brigada dalasida janjal ustidan chiqib qolib-man. Bo‘lim boshlig‘i O‘rmon aka bilan brigadir Rahimjon aka nima to‘g‘risidadir qo‘llarini paxsa qilib bahslashmoqda edi. Meni ko‘rishi bilan bo‘lim boshlig‘i:

– O‘rtoq agronom, Sizdan bir iltimosim bor, – deb qoldi.

– Marhamat, – mototsikldan asta tushdim.

– Agar malol kelmasa mana bu Rahimjonga, uning a‘zolariga kompost to‘g‘risida bir gapirib bersangiz. Bular haligacha hech narsa tushunishmas ekan.

– Marhamat, – dedim-da, u yoq-bu yoqqa qarab olgach, leksiya o‘qish-ga tushib ketdim, – o‘rtoqlar, kompost juda foydali ichimlik, uni asosan mevadan tayyorlashadi. Mevalarning xili qancha ko‘p bo‘lsa, u shuncha shirin bo‘ladi. Bizning Farg‘ona tomonlarda kompostni o‘rik, shaftoli qoqi va olchanning qurug‘idan tayyorlashadi. Xullas, kompost ichmabsiz, dunyo-ga kelmabsiz...

Gapimni tugatmasimdan o‘tirgan odamlar sharaqlab kulib yuborishdi. Qiziqroq gap aytgan bo‘lsam kerak deb, mening o‘zim ham kulaverdim,

rosa kulishdik. Keyin bilsam, o'sha kuni obdan sharmanda bo'lgan ekanman. Go'ngni achitib tayyorlanadigan kompost bilan mevalardan tayyorlanadigan kompotning farqiga bormasdan, rosa aljibman, o'sha kundan boshlab to'rtinchi brigada dalalariga qadam bosmaydigan bo'lib ketdim.

Qisqasi, mana shunga o'xshash ikir-chikirlarni hisobga olmaganda ishlarim ko'ngildagidek, kayfim chog' edi. Qani endi direktorimiz Otajon Azizovichmi yoki menga ikki baholar qo'yishdan hech charchamaydigan Qobilovmi mana shu yurishlarimni bir ko'rishsa-yu, o'qimasdan katta odam bo'lib olganimni, mas'ul ishda ishlayotganimni ko'rib o'z aytganlariga pushaymon bo'lishsa, deb o'ylayman.

Kunlarning birida mehribon oyijonimga, direktorimizga alohida-alohida qilib xat yozdim. Oyijonimga nima deb yozganimni o'zingiz ham sezib turgan bo'lsangiz kerak. Otajon Azizovichga esa taxminan mana bunday deb yozgan edim:

«Qadrli Otajon Azizovich!

Mirzacho'lning azamat paxtakorlaridan Sizga otashin salom. Shuni ham aytib qo'yayki, Siz yolg'onchi bo'lib chiqdingiz, kishi o'qimasa, yoshlikda ilm olmasa, algebra, geometriya, ona tilini puxta egallamasa, agronom ham, injener ham bo'la olmaydi devdingiz, yolg'on ekan. Mana men agronomman. Ishonmasangiz, shu xat bilan yuborgan rasmimga qarang. Endi ordenli bo'lganimda uchrashamiz.

Xayr. Salom bilan agronom, Hoshimjon Ro'ziyev».

Xatni yuborgan kunim ertasiga ikkinchi brigada yerlarini aylanib nima qilishni, kimga qanaqa buyruq berishni bilmay xunobim oshib yurgan edim. Rahbar bo'lsang-u, hech kimga hech qanaqa buyruq bera olmasang, bundan ham xunugi bo'lmas ekan. Demak, deyman, o'zimga-o'zim, qishlog'imizdagi savodsiz agronom Anorboy tog'a shuning uchun ham bo'larbo'lmasga baqiraverarkan-da. Ko'p baqirsang, yomon ishlayotganing ham sezilmas ekan. Baqiroqlarning hammasi ham menga o'xshab ilmsiz, sehrgarlik bilan rahbar bo'lgan ekan-da, deb o'ylayman-u, ishlab turgan kishilarning yoniga borib bo'larbo'lmasga baqiraman, shovqin solaman.

Lekin bugun kimga, nima deb baqirishni bilmay garang edim. Bir mahal brigada boshlig'i Murodjon aka halloslagancha kelib qoldi.

- O‘rtoq agronom, o‘rtoq agronom! – dedi u o‘pkasi og‘ziga tiqilib.
- Xo‘sh? – dedim qovog‘imni solib, qoshlarimni past-baland qilib.
- Men sizni ertalabdan buyon axtarib yuruvdim.
- Xo‘sh? – deb pishqirdim yana.
- Gap bunday, o‘rtoq agronom, g‘o‘zalarimizga yoppasiga shira tushib

ketibdi.

- Shira? Qanaqa shira? – deb baqirdim, – yopishqog‘idan tushibdimi?

Shunday deyman-u, lekin o‘zim shira qanaqa bo‘lishini hech ko‘z oldimga keltirolmayman. To‘g‘ri, ilgari shira-pira deb eshitganim bor, lekin hech ko‘rgan emasman.

– Maslahat bersangiz: qanday tugatsak ekan? – deb so‘radi yana Murodjon aka.

– Qani, menga ko‘rsating-chi, – dedim o‘zimni bosib. Brigadir kelgan tomonga qarab ketdik. Boryapman-u, yo‘l-yo‘lakay qo‘ltig‘imga qisib olganim, sehrli qalpoqchamga «qalpoqcham, yordam bergin, aql o‘rgatgin» deb shivirlayman.

«Aql sehriga bo‘ysunmaydi, aqlingga aql qo‘shib berolmayman, o‘zimdagi ham shu qurg‘urdan sal kamroq», – deydi qalpoqcham.

- Bo‘lmagan gap, qo‘shasan!

– «Qo‘sholmayman. Ilm, aql degan narsalar qalin jildli kitoblarda bo‘ladi, dono kishilarning kallasida bo‘ladi. Umrim bino bo‘lib bitta ham kitob o‘qigan emasman. Xat-savodim yo‘q...»

– Mana ko‘ring, mana shu g‘o‘zalarga shira tushgan, – deb qoldi Murodjon aka shu payt katta paykalni ko‘rsatib. Imillashning payti emas edi. Biron donoroq maslahat bermasam, bu yerda ham to‘rtinchi brigadadagiga o‘xshab obro‘yim bir pul bo‘lib qolishi mumkin. Lekin nima desam ekan?

- Bargiga tushibdimi? – deb so‘radim gap orasida.

- Bargiga tushmay, poyasiga tusharmidi? – kesatib qo‘ydi brigadir.

– Menga qarang, g‘o‘zalarning tubidan ushlab qattiqroq silkitsak shirasi to‘kilib ketmasmikan-a?

- Hazilingizni qo‘ysangiz-chi, o‘rtoq agronom.

- G‘o‘zaning ustidan chelaklab suv quysak, shirasini yuvib ketadi-ku.

Ha, albatta shunday qilamiz. Shunday! – dedim hovliqib.

Murodjon aka dalani boshiga ko‘tarib xaxolab kulib yubordi. Demak,

u meni hazil qilyapti deb o'ylamoqda. Hazil bo'lsa bo'la qolsin dedim-da, o'zim ham qiqirlab kulaverdim. Jag'larimiz qiyshayib qolguncha kulishdik. Keyin o'zimni bosib, jiddiy bir ohangda:

– Necha ishchingiz bor? – deb so'radim.

– Ellik beshta, o'rtoq agronom.

– Har bittasiga yigirma donadan tol navdasi kestiring va bir soat ichida jamiki ishchingizni mana shu yerga to'plang! – deb buyurdim. Aytganimdek, bir soat o'tar-o'tmas 55 ishchi qo'ltig'ida bir dastadan novdasi bilan huzurimga «qani, ishingiz bo'lsa buyuring», deb yetib kelishdi. Egat oralab paykalga tushinglar, dedim.

– Endi hurmatli o'rtoqlar, shira tushgan barglarni kaltaklaysizlar, – deb qo'ydim gapimning oxirida.

– Nima? – ko'zlari joyidan chiqib ketgudek bo'lib so'radi brigadir.

– Gapni ko'paytirmang, buyruqni bajaring!

– Hushingiz joyidami o'zi, o'rtoq agronom? Axir bunda g'o'zalar nobud bo'ladi-ku!

– G'o'za nobud bo'lsa, men javob beraman, agronom javob beradi, – deb baqirib yubordim to'satdan. – Shiraga qarshi kurashishning yangi metodi bo'ladi bu. Tushundingmi? Zamondan orqada qopsan, kallavaram...

Xullas, buyrug'imni o'tkazmaguncha qo'ymadim. To'g'ri-da, gapimni gap qilolmasam bu yerda men nima deb yuribman. Odamlar avvaliga yelka qisishib, bir-birlariga qarab, hayron bo'lib turishdi-da, yangi metod deganimni eshitib, «chindan ham biron hikmati bo'lsa kerak», deb o'ylashdi shekilli, ko'zlarini chirt yumib, g'o'zalarni savalashga tushib ketishdi.

Bir mahal, bunday qarasam, bir xil g'o'zalarda bitta ham barg qolmagan, tandir kosovdek so'ppayib turibdi, bir xillarining boshi singan.

– Esizgina mehnat, Eshvoy! – dedi ishchilardan biri bosh chayqab.

– Nimasini aytasiz, Qobilvoy, – dedi boshqasi uh tortib, – yangi metod shunaqa bo'lsa... tavba.

– Aslida, agronomning o'zini tutib olib kaltaklash kerak edi! – dedi uchinchisi.

Shu payt orqa tomondan mashinaning ketma-ket chalingan signali eshutilib qoldi. Qarasam, sovxozimizning direktori Nosir aka tushib kelyapti.

– Hormang, agronom, – deb qo'l uzatdi u.

– Salomat bo‘ling, – dedim yangi metod o‘ylab chiqarganim uchun gerdayib. Ehtimol, mukofotga ham taqdim qilib yuborar, deb ich-ichimdan sevinib ham turibman.

– Nimalar qildiryapsiz?

– Shiraga qarshi kurashyapmiz.

Direktor odamlar ishlayotgan joyga borib, avvaliga nimalar bo‘layotganiga tushunmadi shekilli, birpas angrayib turdi. Keyin to‘satdan har bir ko‘zi shokosadek bo‘lib:

– Bular tentak bo‘lganmi o‘zi! – deb baqirdi.

– O‘rtoq agronom buyurdilar,– tushuntirdi brigadir.

– Agronom? Nima?! – Nosirov shunaqangi qattiq baqirdiki, nazarimda olis-olislardagi tog‘lar ham larzaga kelib silkingandek bo‘ldi.

– Aqlingiz joyidami o‘zi, o‘rtoq Ro‘ziyev, – o‘sha vajohat bilan so‘radi direktor.

– Joyida, o‘rtoq Nosirov.

– Agronomimiz jinni bo‘lib qolganga o‘xshaydi, – dedi kimdir.

– Rost, ana, qaranglar ko‘zi ham bejo, – dedi boshqasi.

– Ushlanglar uni! – deb yuborsa bo‘ladimi Nosirov.

Ellik besh kishi tengdan g‘azabga kelib turgan ekan, hammalari mujib tashlagudek bo‘lib menga tashlanib qolishdi. Qani, hurmatli do‘stim, o‘zingiz insof bilan ayting-chi, shundan keyin men, nima qilishim kerak edi. Albatta, boshimga qalpoqchamni kiyib xayr-ma‘zurni nasiya qilib bo‘lsa ham juftakni rostlab qolishdan o‘zga chora qolmagandi.

O‘sha atrofda aylanib yurgan edim, qo‘limga, nima bo‘ldi-yu, bitta gazeta tushib qoldi. Unda ushbu e‘loncha bosilgan ekan:

«Rayon militsiya bo‘limi mehnatkashlarga shuni yozib bildiradiki, bundan uch kun avval to‘rtinchi sovxozdan Hoshimjon Ro‘ziyev nomli bir yigit qochdi. O‘zini agronom qilib ko‘rsatib yurgan bu shaxs, aslida, shahar jinnixonalarining biridan qochib kelgan kimsadir. Bo‘yi terakdek novcha, o‘zi igna yutgandek ozg‘in, yurganda biroz oqsab yuradi. Gapida ma‘no yo‘q, yosh bolalardek aljib gapiradi. Ko‘rgan-bilganlar bo‘lsa militsiya bo‘limiga xabar qilishini so‘raymiz...»

Bu dargohdan ham tezroq chiqib ketish payiga tushib qoldim.

Savol va topshiriqlar

1. Adibning hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz?
2. Adibning umrining katta qismini aynan bolalar uchun ijod qilishga sarflaganining sababi nimada?
3. X. To'xtaboyevning qaysi asarlari bilan tanishsiz?
4. «Sariq devni minib» romanini to'liq o'qib chiqing.
5. Romanning bosh qahramoni qanaqa bola? Unga to'liq xarakteristika berishga harakat qiling.
6. Hoshimjon xatti-harakatidagi ijobiy sifatlar nimada?
7. Hoshimjonning qaysi sifatlarini ma'qul qila olmaysiz?
8. Hoshimjonning sehrli qalpoqchani izlashi bilan bog'liq tasvirlarga diqqat qiling. Uning «oyim aytyapti» deb ikkita nonni qarzga olganini qanday baholaysiz? Sizningcha Hoshimjonning bu harakati yolg'onchilikmi, shumlikmi?
9. Hoshimjon qalpoqni dastlab qayerda va qanday sinadi?
10. Romanning «Sariq devni minib» deb nomlanishiga asos bo'lgan So-raxon folbin va uning o'g'li Mirobiddinxo'ja nayranglarini fosh etishga bag'ishlangan joylarini sinchiklab o'qib chiqing. Undan Hoshimjon Mirobiddinxo'jaga tanbeh berayotib sal bo'lmasa o'zini kimligini bildi-rib qo'yishi mumkin bo'lgan joyni uning nutqidan toping.
11. Romanning «Baxtim kulib boqqan edi» bobida Hoshimjonning tashqi ko'rinishi qanday tasvirlangan?
12. Ushbu bobda Hoshimjon va Hayitvoy gap-so'zlaridan ular xulqi, tar-biyasidagi qanday farq ko'rasiz?
13. Hoshimjonning agronomlik «faoliyati»ni qanday baholaysiz?
14. Hoshimjonning agronomlik «kashfiyoti» nimada?
15. E'tibor bersangiz, Hoshimjon sehrli qalpoqqa ishonib qaysi kasbda ishlamoqchi bo'lsa, darrov qovun tushirib, fosh bo'layotganining sababi nimada?
16. Daftaringizga Hoshimjon tilidan keltirilgan tabiat tasviri, hazil-muto-yiba so'zlarini yozib oling.
17. «Bilimsizlik pand beradi» mavzuida insho yozing.
18. Qanday asarlarni sarguzasht asar deb ataymiz?
19. O'zbek adabiyotida yaratilgan sarguzasht asarlarni sanang.

*Nazariy ma'lumot**SARGUZASHT ASAR HAQIDA*

Aziz o'quvchilar! Siz turli-tuman qiziqarli hodisalarga boy sarguzasht asarlarni ko'p o'qigansiz. Sarguzasht deb boshdan kechirgan voqealarga aytiladi. Adabiy asardagi har qanday voqeani ham sarguzasht deyish mumkin emas. Sarguzasht asarda favqulodda qiziq va g'aroyib voqealar, o'quvchini hayajonga soladigan tasvirlar, kechinmalar ko'p bo'ladi. Bunday asar kishini doim hayajonda ushlab turadi, uni o'qiganingizda buyog'i nima bo'larkin deya qiziqishingiz ortib boradi. Jonatan Sviftning «Gulliverning sayohatlari», Daniel Defoning «Robinzon Kruzo», Jyul Vernning «O'n besh yoshli kapitan» kabi asarlari ana shunday asarlardandir. Bu asarlarda qahramonlar ko'z ko'rib, quloq eshitmagan voqealarni boshdan kechiradilar, dahshatli to'siqlarga duch keladilar. To'g'ri, bunday asarlarda biroz mubolag'a, biroz fantastik tasvir ustunlik qilsada, o'quvchi uni boshdan oxir hayajon bilan o'qiydi.

O'zbek adabiyotida ham qahramonlar hayoti sarguzashtli kechadigan asarlar anchagina. Jumladan, Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni sarguzasht asarning mukammal namunasi desa bo'ladi. Unda Farhodning Axraman devni yengishi bilan bog'liq voqealar, Yosuman kampir kirdikorlari haqiqiy sarguzasht asarga xos tarzda tasvirlangan.

Keyingi davr adabiyotimizda yaratilgan asarlar, jumladan, Siz yuqorida tanishgan Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» romani ham sarguzasht usulida bitilgan asar hisoblanadi. Unda 6-sinf o'quvchisi Hoshimjon Ro'ziyevning qilmishlari juda qiziqarli voqealar asosida hikoya qilinadi. Bu asarda fantastik, detektiv holatlar uyg'unlashgan. Garchi asarda real voqealar tasvirlanayotgan bo'lsa-da, undagi fantastik, detektiv unsurlar romanni hayajon bilan o'qilishini ta'minlagan.

Sarguzasht asarlar qiziqarli bo'lishi, ajoyib-g'aroyib voqealarga boy bo'lishidan tashqari, uni o'qigan kitobxonning dunyoqarashini o'stirishga, fantaziyasini o'stirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham aziz bolajonlar, Sizlarga vaqt-vaqti bilan sarguzasht asarlarni o'qib turishni maslahat beramiz.



G'afur G'ULOM

(1903 – 1966)



Taniqli o'zbek adibi G'afur G'ulomning tarjimai holi, «Mening o'g'rigina bolam» nomli hikoyasi bilan o'tgan o'quv yilida tanishgan edingiz. Yodingizda bo'lsa, bo'lg'usi adib 1903-yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. Uning ayni o'ynab-kuladigan, baxtli va betashvish kunlarni kechirishi lozim bo'lgan bolalik onlari Birinchi jahon urushi davri (1914–1918-yillar) ga to'g'ri keldi. Ota-onasidan yosh yetim qolgan G'afurjonning boshiga juda ko'p ko'rgiliklar tushadi. Garchi urush bizning yurtimizdan juda uzoqda – olis Yevropada kechayotgan bo'lsa-da, uning sovuq nafasi butun o'lkamizni qamrab olgan edi. Shahar va qishloqlar och-nahor odamlarga, tilanchi va devonalarga to'lib ketgandi. Urush tufayli turmush tobora og'irlashar, qimmatchilik va qahatchilik (oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarning yetishmasligi) xalqning tinkasini quritar darajaga yetgandi. Bunga qo'shimcha, yurtimizni bosib olgan Rusiya mustamlakachilari urush ortidagi og'ir qora ishlarni bajartirish uchun bizning o'lkamizdan ham erkaklarni – qo'lidan ish keladigan kishilarni majburan mardikorlikka olib ketardi. Boquvchisidan ajragan xonadonlar, ayollar va bolalar nihoyatda ayanchli ahvolda qolgan, shu sharoitda, og'ir mehnat bilan yetishtiriladigan aksariyat noz-ne'matlarni chor hukumati turli bahonalar, aldovlar bilan yurtdan tashib ketardi. Ko'chalarda daydib yurgan to'p-to'p tilanchilar va gadoylar safiga urush bo'layotgan joylardan jon saqlash uchun qochib kelgan yuz minglab och odamlar ham qo'shilgandi.

Bo'lg'usi adib mana shu musibatga to'la kunlarni o'z boshidan o'tkazar ekan, bolalik tasavvurida bu ko'rgiliklar uzoq muddatga muhrlanib qolmasligi, qalbini larzaga solmasligi mumkin emas edi, albatta. Keyinchalik – 1936-yilda yozuvchi bu o'tmish hodisalarini xayolida qayta jonlantiradi va o'zining mashhur «Shum bola» nomli qissasini yaratadi. Bu qissa uning umrining oxiriga qadar yanada sayqallanib, boyib boradi, o'tgan asrning 60-yillarida hozirgi mukammal holiga keltiriladi.

Quyida ana shu qissadan bir parchani e'tiboringizga havola qilar ekanmiz, avvalo bu parchani sinchiklab mutolaa qilishingizni, qolaversa, maktabingiz kutubxonasidan G'afur G'ulom kitobini topib, asarni to'liq holda o'qib chiqishingizni istar edik. Shuni bilinki, mazkur qissani bugungi kunda nafaqat o'zbek kitobxonlari, balki dunyoning juda ko'p joylaridagi tengdoshlaringiz ham miriqib o'qimoqdalar. G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasi dunyodagi ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilinib, qayta-qayta nashr etilayotgani bejiz emas, albatta.

Qissa to'g'risidagi suhbatni esa undan bir shingil bahramand bo'lganingizdan keyin boshlaymiz.

SHUM BOLA

(qissadan parcha)

...Bu qishloqda Sariboy bo'lis degan katta yer egasi bor ekan. Uning ming tanoblab hisoblangan olmazoriga epchil qo'lli xizmatkor doim zarur bo'lib turar ekan. Ayniqsa, hozir olmalar pishgan vaqti bo'lgani uchun menga o'xshash oshtomog'iga yuradigan arzonqo'l kishilarni eshigidan quvlamas ekan. Bu kecha uning xizmatkorlari yotadigan qo'shxonada yotishga qaror berdim. Uzumchi menga yo'l boshlovchi bo'lib ko'rsatib qo'ydi. Boyning qari-qartang aralash yigirma choq xizmatkorlari kechki juvari go'ja ustida edilar.

– Assalomu alaykum, – deb kirib bordim. Juda mehribonlik bilan o'z o'rtalariga qabul qildilar. Arz-dodimni ularga aytdim. Ulardan bitta keksarog'i:

– Asil umring Sariboyda bekorga o'tib ketadi, uka, yosh ekansan.

Bironta boshqa kasbning payidan bo'lganingda yaxshi bo'lar edi. Ha, mayli, sal o'zingni tutib olguningcha o'n-o'n besh kun ishlab tur. Keyin yo'lingni topib olarsan... – degan dudmal maslahat berdi. Bitta bo'sh sopol tovoqqa bir cho'mich go'ja quyib berdilar. Ikki burda jaydari non bilan shu oshni maza qilib ichib oldim.

Yotishda ham shular o'rtasida qoldim. Yaxshi olmalarni joylab, uzoq shaharlarga yuboradigan yashiklardan ikkitasini yonma-yon karavot qildim. Boshimga olma o'raydigan yog'och qirindisidan yostiqlik qilib rohat-rohat uyquga ketdim.

Bu uyqu eshon xonaqosiga qaraganda juda shohona edi. Hech bo'lmasa, bu yerda, tong azonda avrodchi so'filarning qichqirib g'oldiraydigan har xil duolari kishini uyqudan bezovta qilmas edi. Erta bilan bo'lisning oldiga bordim. Bir qancha silkillashishlardan keyin boy menga xizmat haqi uchun oyiga xom-pishiqlik aralash, ona sutidan halol ikki pud o'n yetti qadoqdan olma beradigan bo'ldi. Shu paytda boyning avzoyini ko'rib, mening ham haromzoda tomirim urib qoldi. «Mendan nima ketdi, bir shart qo'yib qo'yay, bir kun boshimga biror ish tushib qolsa, shu bahona qutulib ketarman», degan xayol bilan: «Boy buva, – dedim, – endi-ku, savdoimiz pishdi. Shariat yuzasidan mol sotganda hamma aybini aytib sotsa halol bo'lar ekan. Mening ham bir aybim bor, shuni boshdan aytib qo'yganim yaxshi».

– Xo'sh, nima aybing bor? Siyg'oqmisan, tutqanoqmisan?

– Yo'q aybim bu emas, aybim shuki, yoshligimdan odat bo'lib qolgan har zamon-har zamonda beixtiyor yolg'on gapirib qo'yaman, shunda koyimasangiz bas. Xizmat haqqi mayli, siz aytgancha bo'lsin.

– Obbo bachchag'ar-ey, quv ko'rinasan-a; ha, mayli-mayli. Lekin ko'p yolg'onlamagin!

Qiladigan ishlarim uncha ham qiyin emas. Olmalarga tirgovich qo'yaman, to'kilgan olmalarni terib, qoqi qilaman. Bog' qo'riyman. Ba'zida xo'jayinga pul zarur bo'lib qolsa xom-xatala olmalarni aravaga ortib, Darvoza, Sariog'och atroflardagi bug'doykor qishloqlarga olib borib sotib kelaman. Molga to'g'rab bersa mol yemaydigan olmalarni cho'lda, bug'doy o'rib turgan dehqonlarga bir qadog'ini ikki qadoqdan bug'doyga alishaman.

Sariboy bo'lis haligacha xo'jayinlarimning ichida eng xudo urgan badbaxti, ziqnasi edi.

Uning oldiga bir ish bilan borsangiz, bo'lar-bo'lmas yerda «innaykeyin» deb so'raydigan odati bor edi. Ana shu «innaykeyin»ga javob topib bera olmasangiz, onangizni Uchqo'rg'onda ko'rasiz. Qamchi bilan yelkaga tushirib qolguvchi edi. Chunonchi, borsangiz-da, «qandil olma pishibdi» deb aysangiz, u sizga «innaykeyin» deb savol beradi. Siz albatta: « Shu pishgan olmani terish kerak» deysiz. Yana xudo qarg'agan «innaykeyin» deydi. Xayr, «Sotish kerak», deysiz. Yana «innaykeyin» deb so'rab qoladi. Vaholanki, shu yerda gapning o'zi tamom. «Innaykeyin» degan savolga hech hojat yo'q. Ana shunaqa o'rinda javob topib bera olmaysiz-da, boydan kaltak yeysiz.

Sariboy Chuvalachidagi Yusuf kontor bilan qimor o'ynab, uning mevazorlari, ichki-tashqi qo'rg'onchasi, butun dov-dastgohining hammasini yutib olibdi. Yusuf kontorning bog'i, ayniqsa, uning bahavo shiyponi bizning xo'jayinga ma'qul tushib qolib, darrov o'sha yerdan bitta do'ndiqqina qirg'iz xotinni olib, bir borgancha o'n-o'n besh kunlab Kalasga qaytmaydigan bo'lib qoldi. Olmalar pishib, to'kilib ketayotibdi, xo'jayindan ruxsatsiz terishga hech kim botina olmaydi. Otlarga yem-xashak yo'q. Xizmatkorlar och, lekin boyning oldiga borishga hech kimning yuragi dov bermaydi. Har gapdan keyin beriladigan «innaykeyin» savolidan hamma qo'rqadi.

Bir kun kechqurun xizmatkorlar bilan o'tirib qanday qilib boyni o'z joyiga chaqirib kelish to'g'risida maslahatlashdik ham kim borishini o'ylashdik, nima deb chaqirib kelishni fikrlashdik. Toinki «innaykeyin» dardidan keyin boyning o'zini tinkasi quriydigan bo'lsin.

Chek menga chiqdi.

Erta bilan bir otga minib, boyning oldiga qarab yo'l soldim. Yo'l-yo'lakay ming xil xayollarga botib o'ylayman. Qanday qilib «innaykeyin»iga javob topish kerak?

Yetib borib otdan tushdim. Boy shiyponda kalla go'shti bilan nonushta qilib o'tirgan ekan. Salom berib sekingina poygakka tushib o'tirdim.

– Xo'sh?!

– Shunday o‘zim, sizni sog‘inib, bir ko‘rib kelay deb kelgan edim.

– Yaxshi, yaxshi, barakalla juda ham quruq kelmagandursan, biror ishing bordur, xo‘sh, nimaga kelding?

Shu paytda boyga xizmatkor yurishda qo‘ygan shartim esimga tushib qoldi. «Shart qilgan yolg‘onni endi gapirmasang, qachon gapirasan», dedim-da, gap boshladim:

– Anavi, haligi, dandon sopli pichog‘ingiz sinib qolib edi, shuning xabarini bergani keldim.

Ana shu so‘zdan keyin menga «innaykeyin» savoli yog‘ila boshladi.

– Xo‘sh, innaykeyin, qanday qilib sindi? Ro‘zg‘orda mening pichog‘imdan boshqa pichoq qurib ketgan ekanmi?

– Tozi itingizning terisini shilayotgan edim, suyakka tegib sinib qoldi.

– Iyya?! – dedi boy. – Tozining terisini mening dandon sopli pichog‘imda shilasanlarmi, o‘zing ayt-chi, nimaga shildilaring?

– Shoshib qoldik-da, o‘lib qolgandan keyin, bekor ketmasin deb terisini shilib oldik.

– Nima qilib o‘ldi?

– Harom o‘lgan otning go‘shini ko‘p yeb qo‘ygan ekan, bo‘kib o‘ldi.

– Harom o‘lgan ot go‘shiti qayoqda ekan?

– Ha, o‘zimizning to‘riq qashqaning go‘shini yeb o‘ldi-da, begona ot emas.

Boy alanglab qoldi.

– Hay-hay, bola og‘zingga qarab gapir, to‘riq qashqa o‘ldi dedingmi? Ho‘sh, to‘riq qashqa nima qilib o‘ldi?

– Xomlik qilib o‘ldi.

– Nimaga xomlik qiladi?

– Hech aravaga qo‘shilmagan ekan, biz uni aravaga qo‘shib, suv tashigan edik, zo‘riqib o‘ldi.

– Nima deyapsan, haromi, boshqa shuncha aravakash otlar turib, kelib-kelib mening birdan-bir boqib qo‘ygan uloqchi otim bilan suv tashiysanlarmi, padarla‘natilar?

– Ha, o‘t tushgandan keyin uning uloqchiligiga qarab o‘tiradimi, duch kelganini qo‘shib, ishqilib bir chelak bo‘lsa ham suv tashiy beradi-da!

Boyning chaynab turgan yaxna tilni yutishga ham darmoni qolmadi. Og‘zidan olib qo‘ydi-da, baqraygancha menga tikilib:

– O‘zing jinni-pinni bo‘ldingmi? O‘t tushdi deganing nima deganing, qayerga o‘t tushdi, nimaga tushadi?

– Sog‘man, xo‘jayin, o‘t, avvalo, og‘ilxonaga tushdi. Ot sho‘rliklarning hammasi nobud bo‘lib ketdi-da, xo‘jayin.

– Iyya, og‘ilxonada o‘t nima qiladi?

– Mening ham fikrim shu, boshqa xizmatkorlaringizning ham fikri shuki, o‘t ombordan o‘tgan bo‘lsa kerak.

– Axir omborda o‘t chiqadigan narsa yo‘q-ku? Bug‘doy bor edi, to‘g‘ri, guruch bor edi, to‘g‘ri, yog‘ bor edi, gazmol bor edi, to‘g‘ri, shulardan o‘t chiqadimi?

– Berdisini aytguncha shoshmang, xo‘jayin, omborga qo‘rg‘ondan o‘tibdi. Og‘ilxonaga ombordan o‘tgan bo‘lsa kerak. Shunaqa qilib bir-biriga tutashib ketgan-da.

– Iyya hali qo‘rg‘on ham yondi, degin!

– Qo‘rg‘on ham yondi, ombor ham yondi, og‘ilxona ham yondi, otlar ham o‘ldi, pichog‘ingiz ham sindi.

– Qo‘rg‘onga qayerdan o‘t ketibdi?

– Shamdan tutashib ketibdi, shamdan.

– Hoy, o‘zing jinni bo‘lib qolibsana, o‘g‘lim! Axir, mening dargohimda shamga kun qoldimi? Qator-qator lampalar, o‘zim Toshkentdan atay sotib olib kelgan qirqinchi fanorlar qayoqqa ketibdi, kerosin bo‘lsa bir yilga yetarligini bochka-bochka zapas qilib qo‘ygan edim. Nimaga sham yoqasanlar!

– Xo‘jayin, – deyman, – o‘zingiz ham odamni juda xit qilib yuborar ekansiz-da! Butun boshlik o‘likning arvofiga sham yoqmay lampa yoqiladimi? Kelgan arvoh nimaning shu‘lasi bilan o‘ynashadi. Axir, kosaga suv quyib, ustiga olma shoxi qo‘yiladi. Kelgan arvoh avval shoxga qo‘nib o‘tiradi. Bir nafas damini rostlagandan keyin haligi shamning pirpirab turgan shu‘lasi bilan o‘ynashadi.

Mening entak-tentak so‘zlarimdan boy talmovsirab qoldi. Go‘yo shu gaplarni eshitgisi kelmaganday, sekin, qo‘rqa-pisa so‘radi:



– Kim o‘ldi?

Shu yerda men yuzimga qalbaki qayg‘ular chiqarib, ho‘ngrab yig‘lab yubordim.

– Kenjatoy o‘g‘lingiz Bo‘riboyvachcha, terakka chiqib, chumchuq bolasini olaman deb yiqilib tushib, bir marta «dada» dedi-yu, «g‘iyq...» etib jon berdi.

Boy gaplarimning keyingi jumllalarini eshitdimi, eshitmadimi – bilmayman, choy ichib turgan piyolasini boshiga urib, chakkasini yordi-yu, soqolini yulib, dodlab yig‘lamoqqa boshladi. Men ham qo‘shilib yig‘lar edim.

Bir nafas ayyuhannos solib yig‘lagandan keyin men to‘xtadim, boy ham to‘xtadi. Boyning juda ham o‘pkasini uzib yuborganimdan endi uni yupatish uchun o‘zimdan bir gap to‘qimoqchi bo‘ldim.

– Xo‘jayin, – dedim, – xudo berardan qismasin, xafa bo‘lmang, bordi-yu, o‘g‘lingiz o‘lib, uyingizga o‘t tushgan bo‘lsa, it nobud bo‘lgan bo‘lsa, pichoq singan bo‘lsa, hammasining o‘rnini bosadigan bitta xushxabar ham topib kelganman.

Boy hiqillab turib so‘radi:

– Xushxabaring qursin, padarla‘nat, qanaqa xushxabar?

– O‘rtancha qizingiz Adol opam dunyoga arziydigan bitta o‘g‘ilcha tug‘dilar.

– Iyya! – dedi boy ko‘zlarining shox soqqasi chiqquday, – Adol opang hali erga chiqmagan-ku!

– Biz ham shunisiga hayronmiz-da, xo‘jayin. Xudo beraman desa, erga tegmasa ham berar ekan. Bolani ayting-a xo‘jayin. Badal aravakashingiz bor-ku, quyib qo‘yganday o‘shaning o‘zginasi.

Boy ortiq chidab tura olmadi. Hushidan ketib yiqildi. Men ham qamchi o‘rimidan yeydigan kaltakni nasiya qilib jo‘nab qoldim. Mendan biror soatlardan keyin tulpor saman otda barlari osilib ketgan alpang-talpeng, bir ko‘zi yerda, bir ko‘zi osmonda, egar qoshiga qamchi dastani tirab, yig‘lab boy kelib qoldi.

«Yana biron falokat yuz berib qolmasin», deb o‘zimni chetga oldim. Boyning yig‘lab kelishini uy ichlari eshitib, ular ham «bir balo bo‘lipti shekilli», deb uydin yig‘lab chiqa boshladilar. Bir-birlarini quchoqlab arosat boshlanib ketdi.

Yig'i tamom bo'lgandan keyin, bir-birlarini anglashib, surishtira boshladilar. Keyin ma'lum bo'lishiga qaraganda, na ot, na it o'lgan, na qo'rg'onchaga o't tushgan, na pichoq singan. Bo'riboyvachcha bo'lsa so'lakayini oqizib o'zi chiqib qoldi.

O'sha kuni men ko'rinmay yurdim. Ertasiga boy meni qidirib, chalpak qilib ko'tartirib olib keldi. Avval qurttakkina qilib yigirma qamchini boshko'z aralash yedik. So'ngra so'radi:

– Hoy itdan tarqagan, bu qilig'ing nimasi?!

– Axir, boshida bay qilishgan edik-ku, aylanay xo'jayin, har zamonda bir yolg'on gapiraman, deb.

– Bu o'sha yolg'onningmi?

– Lekin hammasi emas edi.

– Agar hammasi bo'lmasa, butun yolg'on qilsang, men xonavayron bo'lar ekanman-da, tur-ey, padaringga la'nat seni, qorning oshga to'ymasin, juvonmarg bo'! Haydang bu kazzobni.

Haydab chiqarmoqchi bo'ldilar. Ketish oldidan boydan haq talab qildim. Chunki boyning eshigida bir oy-u o'n to'qqiz kun ishlagan ekanman. Haligacha bergan yigirma ikki tiyin choychaqani bosib qolib, qayoqdagi sasigan, qurt tushgan olmalardan ikki pud olmani bitta chipta qopga solib berdi. Men shunga ham shukr qilib, namozshom yo'lga tushdim.

Yana o'sha darbadarlik, yana o'sha makonsizlik balosi. Qo'ndoqdan ajragan kakku bolasiday, qo'narga shox-butoqsiz. Kalasdan yuqoriroq tomon o'rlab ketar edim.

Qirga chiqqandan keyin uzoqda bir o'tov ko'rindi. Shunga qarab bordim. O'tovning eshigini qoqib, «xudoyi qo'noq», dedim. Bu kecha tunab ketishga ijozat so'radim. Avval menga bir sidra shubha bilan qarab chiqqanlaridan keyin, qabul qildilar. Orqamdagi yukni ko'rib, o'g'ri deb xayol qilgan bo'lsalar kerak. Qopning og'zini ochib bolalarga ikkita-ikkitan olma olib berdim. Boshlari ko'kka yetib ketdi. Ular meni tuya suti – qimron bilan mehmon qildilar. Qozonga yopilgan nondan yarimtasini oldimga ushatib qo'yidilar. Qorin to'ygandan keyin, qopni boshga qo'yib uyquga ketdim.

Tong azonda turib, o'tov egalari, er-xotin bilan xayrlashib, «Sariog'och

qaydasan?» deb yo'lga tushdim. O'sha kezlarda mening toleim juda ham sho'r edi. Qaysi qishloqqa borsam, bozorning ustidan chiqar edim. Aksiga olib bugun Sariog'ochning bozor kuni edi.

Mendan boshqa ham bozorga olma keltirganlar ko'p edi.

– Kep qoling, armonda qolasiz, sotaman-u ketaman! Buni yeganlar non yemaydi, shinavandaga sotaman, – deb javrab, maqtab peshinda arang sotib tugatdim. G'aladonni hisoblab ko'rsam, olti tanga bir miri bo'пти. Keyingi bir necha oy mobaynida belboqqa tugilgan naqdina shundan iborat edi.

Pul ko'p, qayg'u yo'q. Bozorni aylanib yurib hamma narsaga xaridor bo'lib ko'raman. Hamma narsaning narxini bilgim keladi. Bir kishining tunuka vannasiga xaridor bo'lib, kam so'raganim uchun, undan yaxshigina so'kish ham eshitib oldim. Kiyim bozorga kirib qunduz yoqalik bobrik paltolarga xaridor bo'lib ko'raman.

Qo'y bozoriga kirib, shoxlari mullavachchalarning sallasiday buralib-buralib ketgan do'ng peshonalik, katta bir qo'chqorga xaridor bo'lib turganimda ko'zim tanish bir basharaga uchradi. U qo'shoqlangan bir qo'ra qo'y ustida kuzatib turar edi. Bu kim, qayerda ko'rgan ekanman?

Chang bosgan kipriklar tagidagi qo'y ko'zlar menga juda tanish.

Yo'lning gard-g'ubori qoqilmagan namatdek qilib yuborgan bu bashara ko'zimga issiq-issiq ko'rinadi. Lekin egnidagi qozoqi chakmon bilan boshidagi teskari ag'darilgan telpak, qo'lidagi boshi cho'qmor kaltagi menga tanish emas. Undan ko'zimni uzmay tikilib turaman. U ham menga g'ilt-g'ilt etib tikilib turadi.

Birdan qichqirib yubordim:

– Omon!!

Bir-birovimizning quchog'imizga otildik, yalab-yulqashdik, hol-ahvol so'rashdik. O'z boshimdan kechirganlarimni bir chetdan hikoya qilib berdim. Sarguzashtimning oxiri yonimdagi tanga-chaqa aralash olti tanga bir miri pulni jaraqlatib qo'yish bilan tamom bo'ldi.

U ham boshidan o'tganlarini so'zlab ketdi:

O'lik yuvdirgan ko'chmanchilarning qo'lidan arang qochib qutulibdi. «Ulardan bitta-yarimtasiga uchrab qolib, tag'in bir baloga yo'liqmay», degan xayol bilan qishloqma-qishloq gadoylik qilib yurib, adashib-uloqib

o'n yetti kun deganda Chimkentga yetib boribdi. Chimkentga bir amakisini qora tortib borgan ekan. Lekin bu bechoraning toleiga amakisi ham allaqachonlar o'lib ketgan ekan. Shu bilan dard qolib, chor-nochor toshkentlik qo'ychi boylardan bittasiga bir yilga ikki to'qli-yu, bir echkiga cho'ponlikka yollanibdi. «Xudo berib, har qaysisi ikkitadan egiz tug'ib bersa, zora xo'jayinimdek katta qo'ychi boy bo'lib ketsam», deb mo'ljal qilibdi. Hozir shu boyning qo'ylarini haydashib Toshkent bozoriga keltirmoqda ekanlar. Bugun Sariog'ochning bozorida, «narxi kelsa sotamiz», degan umid bilan qo'ylarni bozorga solib turgan ekanlar.

Omonning bu topgan xizmati menga juda ma'qul tushdi. Omonning toleiga kunlasha boshladim.

– Jon o'rtoq, xo'jayiningga aytib meni ham bir amallab, qo'ychivonlikka oldirsang-chi, astoydil xolis xizmat qilib berar edim, – deb Omonga yalindim. U ham ma'qul ko'rib:

– Ko'kterakka borganda, xo'jayinimga aytib ko'raman, – dedi.

Kechgacha Omonning qo'ylarini qaytarishib yurdim. Sariog'ochda bu bozor echkining so'rovi chaqqon ekan. Hamma echkilar sotilib ketdi-yu, lekin qo'ylardan ko'pi – yetmish uchta qo'y bozordan qaytdi. Kechga yaqin xo'jayin o'zining yo'rg'asiga mindi-da:

– O'rtog'ing yaxshi bola ko'rinadi, unchalik ko'p ham qo'y qolgani yo'q. Omon uka, o'rtog'ing bilan ikkoving kechalab qo'ylarni haydashib, ertalab Ko'kterakning bozoriga yetkazib bora qollaring. Men oldinroq borib turay, – deb otiga qamchi berib jo'nab ketdi.

Biz qo'ylarni bir saroyga qamab, ovqatlangan bo'ldik. Biroz yonboshlab dam oldik.

Yarim kechada oy ko'tarilgandan keyin, oldinma-ketin hushtak chalishib, «qurey-qurey»lashib Ko'kterakka qarab keta boshladik.

Qo'y degan harom o'lgur juda ahmoq, asov hayvon bo'lar ekan. Uni echki eplab yurar edi. Echki bo'lmagandan keyin boshi oqqan yoqqa sanqib keta berar ekan. Echki bo'lmaganida, eshakka minib, oldinga tushib ma'rab borish kerak bo'ladi. Bizda na echki bor, na eshak bor. Men yangi havaskor cho'pon bo'lganim uchun ma'rashni uncha o'rinlata olmas edim.

Ketib boramiz. Oydin kecha, salqin havoli qir.

Ahyon-ahyon qo'ylar ma'rab qo'yadi. Bir yonboshimizda temir yo'l yoqasidagi telegraf simlari g'uvullab turadi. Juda gashtli umr, avjini baland qilib, ashulani qo'yib yubordim.

– Ayt, uka, – dedi Omon. – Ancha vaqtdan buyon shunaqa bir rohat, tanish ovoz eshitganim yo'q, – dedi.

Unga sari men zavqlanib ketganman, avjga avj qo'shib boraman, osmonning chetlarini titratib yuborgim keladi. Temir yo'lni yoqalagan uzun yo'lda qo'ylar juda tixirlik bilan ilgarilamoqda. Echkining qadri g'oyat o'tmoqda.

Qandaydir kichkina qishloqqa ham yaqinlashib qoldik. Uning pastak-pastak paxsa devorlari ko'rinib qoldi. Temir yo'lga tutashib ketgan qishloq ko'chasida qo'ylarni g'uj qilib haydab ketmoqdamiz. Omon temir yo'lni ko'rsatib:

– Poyezdda yurgan odamlar xo'pam mazza qiladi-da, – deb qo'yadi. – Poyezdga tushib uzoq joylarga ketsang, – deydi.

– Shuni ayt-a, og'ayni, – deyman. – Qani endi odoq bo'lmas puling bo'lsa-yu, yuraversang. Qovunchiga borsang, Turkistonga borsang, Chinozga borsang, Maskopga borsang, hech kim churq etmasa, keta bersang, yana keta bersang, mazza... – deyman.

Poyezdni ta'rif-tavsiflab kelamiz.

– Rost, qani endi, – deydi Omon.

* * *

Xalqimizning «Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko'r» degan maqolini eshitgan bo'lsangiz kerak. Bu degani «bir falokat ko'pchilikning boshiga yog'lsa ham, u har kimga har xil ta'sir qiladi – «yo'g'on cho'zilguncha, ingichka uziladi» deganidir. G'afur G'ulom tug'ilgan oilaning taqdiri yodingizdami? G'afurjon to'qqiz yoshida otasidan, o'n beshga kirib-kirmay mehribon onasidan ajraladi. Ukalari va singillari bilan g'irt yetim qoladi. Yana qanaqa paytda deng? Aytganimizdek, butun dunyoda urushning sovuq nafasi kezib yurgan, o'lkamizda iqtisodiy va ma'naviy tanazzul ayni chuqurlashgan yillarda. Bunday paytda ota-onasiz qolgan bolalarning hayoti juda og'ir kechishini tasavvur qilsangiz kerak. Nima bilandir qorin to'yg'azish, egniga kiyim-bosh topish oson ish emas.

«Shum bola» qissasining bosh qahramoni ham shunday og‘ir kunlarda otasidan ayrilgan, qariyb siz tengi – o‘n to‘rt yoshli bolakay. Onasi bir etak bolani boqish uchun kun bo‘yi tinim nimaligini bilmaydi. Shum bola bo‘lsa, tengdoshlariga qo‘shilib, erta tongdan to‘qorong‘i kechgacha ko‘chadan kirmaydi. U – yerga ursa ko‘kka sapchiydigan, bir joyda uzoqroq turib qolsa yuragi siqilib ketadigan, tinib-tinchimas bolalar xilidan. Kunlarning birida u onasini xafa qilib qo‘yganidan xijolat bo‘lib, qolaversa, biror oy mehnat qilib, pul topib kelish ilinjida yo‘lga tushadi. Uning Toshkent atrofidagi qishloqlarda kechadigan sarguzashtlariga sarguzasht ulanib, yarim yildan ortiq davom etadi. Mana shu vaqt mobaynida Shum bola bir-biridan qiziq voqealar ishtirokchisiga aylanadi. Pochhasi avaylab boqayotgan qimmatbaho qushlarga qatq, suzma ichirib, harom o‘ldirib qo‘yadi, do‘sti Omonga qo‘shilib Sul-ton o‘g‘ri boshchiligidagi kissavurlar bilan tunni o‘tkazadi, ko‘chmanchi qozoq ovulida o‘lik yuvib sharmanda bo‘lishadi, masjid imomining og‘ilxonasida o‘ sallab qolgan ho‘kiz o‘rniga soppa-sog‘ eshakni so‘yib qo‘yib, rosa kaltak yeydi va hokazo.

Shum bola qayerga bormasin, kim bilan to‘qnashmasin, hamma joyda kattalarning o‘ziga bepisand qarashi, qo‘pol muomalasiga duch keladi. O‘zlarini go‘yo yetimning boshini silaydigan himmatli kishilar qilib ko‘rsatadigan turli noinsof kimsalar uning navqiron kuchidan suvtekin foydalanib qolishga urinadilar. Bu ham mayli, shu yosh bolani turli qing‘ir yo‘llarga boshlovchilar ham topiladi. Masalan, yuzlab qalandarlarga yo‘lboshchi bo‘lib olib, har gapida qayta-qayta Xudoni tilga oladigan ikkiyuzlamachi Eshon Shum bolani to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘g‘irlik qilishga yo‘l-laydi. Eshonning Shum bolaga aytgan quyidagi gaplari uning naqadar tuban kimsa ekanidan dalolatdir:

«Oyoq-qo‘ling chaqqongina, epchil yigitsan. Sen ham axir qarab turmasdan, boshqacharoq yo‘l bilan bo‘lsa ham tirikchilikning payidan bo‘lsang edi, o‘g‘lim... Axir kissa-karmon degan gaplar ham bo‘ladi. Naqdina pul – ham yengil, ham qimmat, ham yashirishga oson bo‘ladi. Naqdina bo‘lsin, bolam, naqdina bo‘lsin...»

Shaharning bir chekkasidagi xaroba uyni nashavand-bangilar yig‘i-

ladigan takyaxonaga aylantirgan Hoji bobo ham o'zicha xudojo'ylikda boyagi Eshondan qolishmaydi. Biroq uning qilayotgan ishlari Xudoning aytganlariga ayni teskariligi bilan o'quvchini hayratga soladi.

Biroq, shunisi muhimki, G'afur G'ulom mana shu nursiz, qabohat va jaholatga to'la muhitni yosh bola nigohi orqali rang-barang mazmunga to'la holda tasvirlaydi. Qissani o'qir ekansiz, undagi hodisalarning qiziqligi, qahramonlar xarakteridagi yorqin jihatlar Sizni butunlay o'ziga rom qilib oladi. Garchi, yuqorida aytganimizdek, bosh qahramon duch keladigan odamlarning ko'pchiligi ochko'z, xasis, nazari past kimsalar bo'lsa-da, bizning Shum bola bunday kimsalarni bir ko'rishda taniydi, ularning chirkin muhitidan iloji boricha tezroq qutulish yo'llarini qidiradi va, albatta, topadi! Mana shu paytlarda Shum bolaning naqadar topqir, ziyrak, ba'zan esa, yaxshi ma'noda shum bola ekaniga qayta-qayta amin bo'lamiz.

Qissadan o'qigan parchamizda ham Shum bolaning Sariboyday ezma, injiq, xasis kimsani boplab dodini berganiga guvoh bo'ldik.

Avvalo shuni aytish kerakki, Shum bolaning Sariboyni mot qilish usuli Sharq xalqlari og'zaki ijodi namunalarini – ertaklarni ijodiy qayta ishlash mahsuli hisoblanadi. Biron muhim voqeani aytish uchun uni, bu voqeaga mutlaqo aloqasi yo'q tafsilotlar orqali bayon qilish usuli, jumladan, «Uch yolg'onda qirq yolg'on» ertagida uchraydi. Sharq adabiyotining katta bilimdoni hisoblangan G'afur G'ulom «o'z Shum bolasini» bu safar ayni shu usul bilan Sariboyning g'azabidan omon olib chiqib ketadi.

Guvohi bo'lganimizdek, shu paytga qadar bu ezma va laqma boyga odam bolasi teng kela olgan emas. Uning qo'lida umrbod xizmat qilib charchagan kishilarning dard-u alami ichida. Hech biri yurak yutib xo'jayinga gap qaytara olmaydi. Gap qaytarish qayda, umuman, bu odamga ro'para kelishdan qo'rqib yurishadi. Chunki, xoh yaxshi, xoh yomon gap bo'lsin, Sariboy nuqul «xo'sh, innaykeyin-chi» deb, Shum bola aytganidek, «odamni xit qilib yuboradi».

Xo'sh, nima qilish kerak?

Bu yoqda olmalar pishib, tagiga to'kilib, uvol bo'lyapti. Xo'jayin ruxsatisiz terishsa ham bir balo, vaqtida terilmay, qolib ketsa, yana bir

balo. Har ikki holda ham bechora xizmatkorlar aybdor bo‘lib qoladi. Shu muammoni yechib kelish Shum bolaning chekiga tushgan.

Sezgan bo‘lsangiz, birovlarning dard-u tashvishi, olamda bo‘layotgan ming turli ishlar Sariboyning yetti uxlab tushiga kirmasdi. U dunyoda faqat o‘zim bo‘lay, deb yashaydiganlar xilidan edi. Shu ahvolda Shum bola xo‘jayinning «innaykeyin»iga munosib javob topishi, eng muhimi esa – boyni bu savolni berishdan bezdirib tashlashi kerak! U Sariboyni uncha-muncha gap bilan, yangilik bilan lol qilib bo‘lmasligini yaxshi biladi. Demak, «sopini o‘zidan chiqarish» – boyning «nozik joyi»dan ushlab lozim. Uning nozik joyi esa mol-mulki, boyligi bilan bog‘liq. Gap ana shu mavzuga burilsa, «boyning chaynab turgan yaxna tilni yutishga ham darmoni qolmaydi». Bir xabarni ikkinchi bir xabarga shunday ulash kerakki, natijada «innaykeyin» degan bema’ni savolni berishga Sariboyning yuragi dosh bermasin.

Shum bola xuddi shunday qiladi ham. «Dandon sopli pichoq»ning sinishi bilan boshlangan gap kenjatoy o‘g‘il Bo‘riboyvachchaning «terakdan yiqilib o‘lishi» bilan tugaydi. Bu ham yetmaganday, boyning turmushga chiqmagan o‘rtancha qizi «dunyoga arziydigan o‘g‘ilcha tuqqani», chaqaloq esa Badal aravakashga «quyib qo‘yganday» o‘xshashi to‘g‘risidagi gaplar Sariboyni, nihoyat, yiqitadi. Shundan keyin ham ezma boy «innaykeyin»lab ko‘rsin-chi!

Nafaqat bu voqeada, balki butun qissa davomida biz Shum bolaning topqirligi, hozirjavobligi, har qanday qiyin vaziyatdan bir amallab sog‘ chiqib keta olishiga qayta-qayta iqror bo‘lamiz.

Endi «Shum bola» qissasida uchraydigan ko‘plab badiiy tasvir vositalaridan ayrimlarini – o‘xshatishlarni e‘tiboringizga havola etamiz. Siz qissani to‘liq o‘qish jarayonida bu ishni davom ettirib, boshqa noyob badiiy durdonalarni ham daftaringizga qayd etib borasiz, degan umiddamiz:

«To‘ti patlarining rang-barangligi Oysha chevarning ish qutisidagi ipaklarday tovlanar edi»;

«It quvgan tulkiday olazarak Omon menga ergashdi»;

«O‘choqdan chiqqan zangori tutun osmonga o‘rlab, tevarak-atrofga ko‘rpadek yoyilar edi»;

«Hazrat bo'lsa, o'zini umr bo'yi o'likdan boshqa narsani yuvmagan kishiday qilib ko'rsatishga harakat qilar edi»;

«Orqamdan o'lik quvlab kelayotgandek orqamga qayrilib boqar edim»;

«Men bo'lsam, domlanning nima niyatda ekanligini tushunmasdan, hurkovich kiyikdek oyog'imni bir yerga g'uj qilib, qochishga hozirlangan, og'zimni bo'lsa, dodlashga juftlagan edim»;

«Sirlangan xumchaga tushgan sichqonday to'rt tomonga alanglab, o'zimga bir najot yo'li qidirar edim»;

«Zinadan chiqqan itdek to'rt oyoqlab narvonga tirmashib tomga chiqdim»;

«Ora-chorada tor ko'chalar yo'limni to'sib qolsa ham, tulki quvlagan tovuqday sakrab o'tib ketar edim»;

«Haytovur domla ishtonbog'ini mahkam bog'lamagani uchun chopish vaqtida oyog'iga tushib, kishan bo'lib paypoqdor tovuqday kalavlab qoldi-da, men qochib qutuldim»;

«Piyozdog'ning hidlari dimog'imga kirib, ishtaha ham namozshomgulning karnayiday ochilib ketgan edi»;

«Xotin qozonning qopqog'ini ochdi – baliqday bo'lib, oppoq laganda moshkichiri chiqdi, o'rtaga qo'ydilar»;

«Qo'ylar xuddi sutga tushgan sichqonday boshlarini ko'tarib suzar edilar»;

«Tepamizda saman otga mingan, moshkichiri soqolli, burni xuddi paxtali to'nga qadalgan tugmaday ichiga botib ketgan puchuq bir kishi qamchi o'ynatib siyosat qilar edi»;

«Har ikkovimizning yuragimiz dard tekkan terak yaprog'iday qaltirab turibdi»;

«Omon uyqudan chap yonboshi bilan turdi. Qovog'ining peshayvoni tushib ketgan, to'g'ri gapga ham tersayib javob berar, mechkay kasalga uchragan bolalarday injiq edi» va h. k.

Savol va topshiriqlar

1. G'afur G'ulom hayoti va ijodi to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. «Shum bola» qissasining yaratilishiga nimalar sabab bo'lgan, deb o'ylaysiz?

3. Qissada yozuvchining bolalik hayoti to'g'ridan-to'g'ri va to'liq aks etgan, deb bo'ladimi?
4. Shum bolaning sarson-sargardon kezib yurishining asosiy sababi nimada edi?
5. Shum bola ba'zan yolg'on gapiradi, yomon ko'rgan odamlaridan o'ch oladi, hatto ozgina o'g'rilikka ham qo'l uradi. Uning bu harakatlarini qanday baholaysiz?
6. Shum bola bilan mahalladoshi Omonning qanday farqi bor?
7. Qissadan olingan parchada Shum bolaning qaysi xususiyatlari bo'rtib ko'rinadi?
8. Sariboyning Shum bola to'qigan yolg'onlarga chippa-chin ishonishining asosiy sababi nimada, deb o'ylaysiz?
9. Boy Shum bolani uyidan haydar ekan, unga xizmat haqi uchun «qurt tushgan olmalardan ikki pud olmani bitta chipta qopga solib» beradi. Hozirgi o'lchovda buning qancha bo'lishini aniqlang-chi.
10. 5-sinfda o'rganganingiz G'afur G'ulomning «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasi bilan «Shum bola» qissasining qanday umumiy jihatlari bor, deb o'ylaysiz?
11. «Shum bola» qissasi asosida yaratilgan badiiy film bilan qissaning o'zi orasida qanday farqlarni uchratdingiz?
12. Adabiy asar asosida yaratiladigan kinofilm yoki spektakllar o'sha asar bilan bir xil bo'lishi kerak, deb hisoblaysizmi? Kinofilm va qissaning o'ziga xos hikoya yo'sinini solishtirishga harakat qiling.
13. «Shum bola» qissasi an'analarini keyinchalik qaysi o'zbek yozuvchilari davom ettirganini bilasizmi?
14. Sinfingizda «Shum bola» qissasidan keltirilgan parcha asosida kichik spektakl qo'yib, qay biringiz Shum bola, qay biringiz esa Sariboy roliga ko'proq mos tushishingizni aniqlashga harakat qiling.



Azim SUYUN
(1948 -yilda tug‘ilgan)

Zamonaviy o‘zbek she’riyatining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri shoir Azim Suyun (Azimboy Alimovich Suyunov) 1948-yilning 22-fevralida Samarqand viloyatidagi Nurota tizma tog‘lari bag‘rida joylashgan Nakurt qishlog‘ida tavallud topgan. Uning bolaligi ulkan tog‘ darasida bunyod bo‘lgan mana shu qishloqda, aksariyat chorvachilik bilan shug‘ullanadigan odamlar orasida kechadi. Otasi Olim aka, bobosi mulla Suyun davrasida kechgan beg‘am, betashvish kunlarida u xalq og‘zaki ijodining ko‘plab namunalaridan bahramand bo‘ladi, navqiron qalbida badiiy so‘zga ixlos va muhabbat uyg‘onadi. O‘sha kunlarni shoirning o‘zi shunday xotirlaydi:

«Shom tushishi bilan bobomning toshdan qurilgan yakka-yu yagona, duddan qorayib ketgan uyiga (uyning o‘rtasida sandal ham qo‘yilmagan, tosh o‘choq bor edi) suhbattalab keksa-yu yosh yig‘ilardi. Lampachiroq lipillar, qish kechalari o‘choqda tarasha cho‘g‘i lovillardi. U Ahmad Yassaviy «Hikmat»ini o‘qiganda butun olam unutilardi. Kitobxonliklar, suhbatlar, gurunlar gohida tonggacha davom etardi. Eh-he... bu kechalarda nimalar so‘zlanmasdi, nimalar eslanmasdi».

Shu kechalarda eslangan xalq dostonlaridagi voqealar, afsonaviy qahramonlar siymosi bo‘lg‘usi ijodkor tasavvuri va badiiy tafakkurining kengayishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Azim Suyun o‘zining mehnat faoliyatini oddiy ishchilikdan boshlagan

– harbiy xizmatdan qaytgach, poytaxt qurilishlarida mehnat qilgan. Murakkab hayot sinovlarini juda erta boshdan o‘tkazgan ijodkor shundan keyin hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetiga o‘qishga kiradi va uni muvaffaqiyatli bitiradi. O‘qib yurgan paytidayoq uning dastlabki maqola va she’rlari «Toshkent universiteti» gazetasida ketma-ket chop etiladi. O‘qishni bitirgach, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyotida muharrir, Davlat matbuot qo‘mitasida adabiy maslahatchi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida mas‘ul kotib, «Xalq so‘zi» gazetasida bo‘lim muharriri vazifalarida xizmat qiladi. 1993–2002-yillar oralig‘ida «O‘zbekiston ovozi» va «Golos Uzbekistana» gazetalarining bosh muharriri bo‘lgan bo‘lsa, ayni paytda «Guliston» jurnali ijodiy jamoasiga rahbarlik qilmoqda.

Shoirning dastlabki she’riy to‘plami 1978-yilda «Mening osmonim» nomi bilan chop qilingandi. Shundan keyin Azim Suyunning quyidagi kitoblari adabiyot muxlislari mulkiga aylangan:

1. «Zarb» – 1979-yil
2. «Zamin taqdiri» – 1981-yil
3. «Xayolot» – 1984-yil
4. «Ziyo yo‘li» – 1986-yil
5. «Javzo» – 1987-yil
6. «Olis tonglar» – 1989-yil
7. «Kuyganim – suyganim» – 1992-yil
8. «Sarbadorlar» – 1994-yil
9. «Qora ko‘zing sening» – 1994-yil
10. «Saylanma» – 1997-yil
11. «O‘zlik» – 1999-yil
12. «Sharq hikmati» – 2000-yil
13. «O‘zbekiyurt» – 2005-yil
14. «Ey do‘st» – 2005-yil

Azim Suyun she’rlar bilan birga «Sarbadorlar» dramatik dostoni, «Zamin taqdiri», «O‘zbekiston», «Imorat va yoki bir tomchi dengizga aylangan kecha dostoni» singari dostonlarini o‘quvchilari hukmiga havola etgan. U yaratgan qator asarlar ingliz, rus, turk, arab, qozoq, tojik, qirg‘iz, turkman, qoraqalpoq, tuva va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingan.

Shoirning o‘zi esa dunyoning ko‘plab ko‘zga ko‘ringan ijodkorlari asarlarini ona tilimizga mahorat bilan o‘g‘irgan.

Shoirning o‘ziga xos she‘riy uslubi, uni ko‘proq jalb etgan mavzular, ijodkor badiiy mahorati bilan yaqinroq tanishish uchun, keling, uning she‘rlaridan ayrim namunalarni mutolaa qilaylik.

DARADA

(*manzara*)

Ko‘rinmas olovdan erib borar tun
Burgutlar qoyada potirlashmoqda.
Ona qornidagi go‘dakday, beun,
Tuman g‘imirlamoqda.

Tong otdi, eng so‘nggi yulduz ko‘zlarin
Qudratli pahlavon – uyqu eltmoqda.
Qo‘radan chiqishgan suruvdek, vazmin,
Tuman ko‘tarilmoqda.

Kumush cho‘qqilardan ohista oshib,
Quyosh sim-sim qo‘shiq kuylab kelmoqda.
Osmon qozonida sut kabi toshib,
Tuman tarqalmoqda...



Azim Suyun yurtimizning eng go‘zal go‘shalaridan bo‘lmish Samarqand zaminida, Nurota tog‘lari bag‘rida joylashgan qishloqda o‘sib-ulg‘ayganini aytdik. Bunday joylarda mingyillar davomida o‘zgarishsiz saqlangan ona tabiat manzaralari inson ruhiyatini pokiza hislarga oshno etadi. Bu go‘shalarda odam mayda-chuyda tashvishlarni unutib, o‘zining aslini – tabiat farzandi ekanini anglaydi, borliq bilan ruhan uyg‘unlikni his qiladi. Badiiy didi o‘tkir kishida esa bu manzaralar kuchli ijodiy qo‘zg‘alishni vujudga keltiradi. Go‘yo harakatsizdek tuyulgan borliqqa uning xayolida jon kiradi. Obrazli tafakkur kuchi harakatdagi manzarani

dunyoga keltiradi. Rassom kartinasidagidan farqli o'laroq, she'riy manzarada butun borliq hayotiy oqim kasb etadi.

Shoirning «Darada» she'ri buning yaqqol namunasiidir.

Tong otdi. Quyosh ko'rinishiga hali ancha bor. Biroq uning tafti – «ko'rinmas olov»ning issig'i tunni asta eritishni boshlagan. Bilasizki, tong otishini birinchi bo'lib qushlar sezadi, ularning mitti yuraklari pottirlab, tillari chug'urlashga tushadi. Quyoshni boshiga toj qilib ko'taradigan tog'larda esa tong sezgisi avvalo qoyalar hukmdori – burgutlarga nasib etadi.

Agar onaning oppoq umidlari o'z bag'ridagi go'dagiga payvasta – bog'liq bo'lsa, tog'lar bag'ridagi oppoq tuman xuddi shu go'dakday «beun» g'imirlab, borligini ma'lum qilib qo'yadi. Bobo quyosh uyg'onib, Yer yuzidagi jamiki mavjudotni ham uyg'otishni boshlagan pallada osmondagi yulduz ko'zlarini uyqu eltadi. Boya ojiz g'imirlayotgan tuman, qo'radan chiqib adir tomon o'rlab borayotgan oppoq qo'ylar suruvidek atrofga yoyiladi. Quyoshning zabardast qadamlari uchun cho'qqilarini abadiy muzliklar qoplagan ulkan tog'lar nima? Oftob ulardan bemalol sakrab o'tib, o'zining buyuk qo'shig'i – hayot, yorug'lik qo'shig'ini kuylashni boshlaydi. Yangi sog'ilgan sutni qozonga quyib, ostidan olov yoqib qaynatishganini hech kuzatganmisiz? Sut qizib qaynay boshlagach, uning tepasi oppoq ko'pikka aylanadi. Agar vaqtida olov o'chirilib, qozon kavlanmasa, sut voshillab qozondan toshib chiqadi. Tabiatda bo'lsa, quyosh kuchga kirib qizdira boshlagach, nahorgi tuman xuddi shu sutdek tarqalib ketadi...

Guvohi bo'lganimizdek, shoir bolaligidan ko'rib katta bo'lgan muhit manzaralari uning she'rlarida asl rangi, tarovati bilan qayta jonlanadi. Siz bilan biz ham tabiatning har qanday ko'rinishi aslida buyuk mo'jiza ekaniga iqror bo'lamiz. Bu mo'jizani idrok etmoq uchun ona tabiatga ko'ngil ko'zi bilan qaramog'imiz kerakligini his qilamiz. Shundagina tilsiz tog'lar ovozi eshita olamiz, tuman nafasini tuyamiz, oftobning sim-sim qo'shig'idan zavqlanib, olam bag'rida go'dakdek beg'ubor tuyg'ular bilan yashaymiz. She'rning, she'riyatning insonga ko'rsatadigan eng kuchli ta'siri ham aslida mana shundadir. U insonning loyqalanib ketgan xotiralarini tiniqlashtiradi, odamni bir muddat tirikchilik g'amlarini nari su-

rib, dunyoga balandroqdan nazar tashlashga da'vat etadi. Olamda avval ko'rilmagan ranglar, avval eshitilmagan ovozlari, beg'ubor kengliklar ham borligini unga eslatadi. Bir so'z bilan aytganda, haqiqiy she'riyat olamni odam uchun behad kengaytirib, boyitib beradi.

BAHODIRNING QILICHI

Bahodirning qilichi sindi...
So'nggi nuqta. Tugadi ertak.
Pastak hovli chetida dilxun
Bir bola yig'laydi –
qo'lida kitob.
Bahodirning qilichi sindi,
Bahodirning qilichi sindi.
Yovniki butun!

Qayga ketdi yaproqdek bola,
Bo'ta kabi qayda bo'zlaydi?
Uchib yurgan varaqlar, ana,
Shamollarga ertak so'zlaydi.
Bola qani?.. Bilmayman, ammo,
Ishonaman, qaylardadir u
Bahodirga qilich izlaydi...



Shoir biografiyasidan bilib oldingizki, u otasi va bobosidan ko'plab xalq dostonlari, ertaklarini tinglab katta bo'lgan. Xalq kitoblarida bo'lsa, ko'pincha o'tmish ajdodlarimizning yovuzlikka, zulmatga qarshi kurashlari, inson sha'ni va ozodligi uchun olib borgan adolatli janglari tasvirlanadi. «Bahodirning qilichi» she'ri qahramoni – Siz tengi bola o'qigan ertak oxirida mana shunday pahlavonlardan birining qilichi yov bilan bo'lgan tengsiz jangda sinib qoladi. Yog'iyning qilichi bo'lsa – butun!

Ertak shunday – afsuslanarli tarzda tugadi.

Siz ziyarak aqlingiz bilan darrov bir narsani sezdingiz... va hayron

bo'lmoqdasiz: axir deyarli barcha ertaklarning oxiri yaxshilik bilan tugar edi-ku! Ertaklar oxirida yomonlar – yovuzlar, zo'ra vonlar, bosqinchilar va boshqa barcha qora kuchlar mag'lubiyatga uchrar, sharmanda bo'lar, yaxshilar g'alaba nashidasini surardi-ku! Ko'p ertaklardagi oxirgi gap – qahramonlar «qirq kecha-kunduz to'y qilib, el-u yurtga osh berib, murod-maqsadiga yetibdi» degan, ertak eshitgan odamning ko'nglini xotirjam qiladigan gaplar bo'lardi-ku. Bu qanaqa ertakki, uning qahramoni – bahodir qo'lida singan qilich bilan yov qarshisida yolg'iz qolsa?! Bu qanaqa ertakki, o'lim bilan yuzma-yuz qolgan bahodirga na sehrli tayoqcha, na sirli so'zlar, na najotkor qanotli ot yordam bermasa?!

Demak...

Demak, bu – Siz bilan biz ko'nikib qolgan, har qancha fantastik voqealar qo'shilsa-da, oxiri bari bir baxayr tugaydigan ertaklar sirasidan emas ekan-da. Bu ancha jiddiy ertak ekan-da. Umuman, ertakmikin bu?

Bu savollar Sizni ayni she'r mazmun-mohiyatiga jiddiyroq yondoshishga undayotganini sezib turibsiz. Bu yondoshish esa she'rning yozilgan sanasiga e'tibor berish bilan boshlanmog'i kerak. «Bahodirning qilichi» she'ri 1978-yilda yozilgan. U paytlar yurtimizni istilo qilib olgan sho'rolar hukumatining eng kuchaygan, xalqimiz orzu-istaklari nazarpisand qilinmagan yillar edi. Bizning ming yillik tariximizni xolis o'rganilishiga, buyuk bobolarimiz, bahodir ajdodlarimiz bilan faxrlanishga yo'l qo'yilmasdi. Aksincha, bizni «ikkinchi darajali, madaniyati past, aqliy imkoniyatlari zaif xalqlar» deya munosabat bildirilardi. XX asr boshida milliy mustaqillik uchun kurashgan ne-ne fidoyi otalarimiz yomonotliqqa chiqarilgan, ularning qilgan ishlarini xolis eslash, yozgan asarlarini chop etish va o'qish katta jinoyatdek qaralardi. Boshqacha qilib aytganda, yov shu qadar kuchli ediki, bahodirlarning qilichi sindirilib, o'zlari o'limga hukm etilgandilar...

Lekin, sho'ro hukumatining siyosati har qancha tahdidli bo'lmasin, xalq ko'nglidagi, uning eng ilg'or vakillari bo'lmish shoir-ijodkorlar qalbidagi ozodlikka bo'lgan umid va ishonchni so'ndira olmadi. Xuddi shu tufayli ham shoirning kelayotgan avloddan umidi katta, unga ishonchi zo'r. Garchi «uchib yurgan varaqlar» – xalq xotirasi parishon – sochilgan

holga keltirilgan bo'lsa-da, kelajak avlod o'z ajdodlarining armonini, albatta, ro'yobga chiqaradi. She'r yakunidagi

Bola qani?.. Bilmayman, ammo,
Ishonaman, qaylardadir u
Bahodirga qilich izlaydi...

misralari ayni shu ezgu umid ifodasidir. 1991-yilga kelib xalqimizning 130 yillik istibdod davrida ham qalbidan o'chmagan istiqloлга erishish umidi ro'yobga chiqdi. Xuddi shu yili yovning qilichi sindi, yurt bahodirlarining muzaffar bayrog'i mustaqil mamlakat osmoni uzra hilpiradi!

Hurmatli o'quvchi, ko'ryapsizki, shoirning har bir she'ridan ko'plab ma'no-mazmunlar uqish, bilim va saviyamizni oshirish imkoniyati bor. Yuqorida o'zlashtirganingiz she'riy asar tahlili tajribasiga suyanib, Azim Suyunning shu mavzular doirasida yaratilgan «Dasht to'rg'ayi», «Bahodirsiz kelar arg'umoq» va «Tutqun» she'rlarini o'zingiz izohlashga harakat qiling. Bunda har bir misrada ifoda etilgan holat, kayfiyatga atroflicha nigoh tashlab ko'rishdan, matnda ishlatilgan badiiy san'atlarni ilg'ashdan erinmang, she'rlarning yaratilgan davrini, albatta, hisobga oling. Shunda ko'z oldingizda yaxlit she'riy manzaralar namoyon bo'ladi. She'r qahramonlarining his-tuyg'ulari ko'nglingizga ko'chib o'tadi, tasavvuringiz kengayib, badiiy go'zalliklarga oshno tutinasiz.

DASHT TO'RG'AYI

O'zbekiston dashtlarining bir qushi bor,
Ul qushining bir parvozi, uchishi bor.
Osmonlarning toqlarida chuldiraydi,
Havolarda bir muallaq turishi bor.

Nima haqda to'lib-to'lib sayraydi ul,
Anduh bilmas – nimalardan yayraydi ul.
Tinglab-tinglab ko'nglim iyar, ko'nglim ketar,
Shoir tilim qayraladi, qayraydi ul.



Bo'zto'rg'ay deb ataydilar goho uni,
 So'fito'rg'ay ataydilar goho uni.
 Cheksiz dashtda men turibman ko'kka qarab,
 Dalli to'rg'ay ataydilar uni, meni.

Men bilaman, bo'zto'rg'ayim, bo'zlaydir ul,
 Men bilaman, so'fiqushim, so'zlaydir ul.
 Ota makon – dashtlarini suyar jondan,
 Faqat-faqat erkinlikni ko'zlaydir ul.

Sog'inaman tog'lar kezib, yo'llar o'zib,
 Sog'inaman dengizlarda suzib-suzib.
 Shuvoqlarning taglarida uyalari,
 Sog'inaman yurtlar kezib, ellar kezib.

Tomoqlari bulkillagan dasht to'rg'ayim,
 Hur-hur uchib-uchavergil, jo'sh to'rg'ayim,
 Oqko'ngilim, kuylab-kuylab o'tadirmiz,
 Sening kabi men ham bitta qush, to'rg'ayim.

O'zbekiston dashtlarining bir qushi bor,
 Ul qushining bir parvozi, uchishi bor.
 Osmonlarning toqlarida chuldiraydi,
 Havolarda bir pirillab turishi bor.

BAHODIRSIZ KELAR ARG'UMOQ

Maysalar lol egdi boshini,
 Qizg'aldoqlar to'kdi yoshini,
 Ko'k berkitdi shan quyoshini,
 Bahodirsiz kelar arg'umoq.
 Unsiz qoldi qushlar samoda,
 Uchqur jayron yelmas sahroda,
 Tindi latif, sarin shabboda,
 Bahodirsiz kelar arg'umoq.

Tog'lar boqar g'amgin, tund, behol,
 Oq na'matak tebranmas xushhol,
 Bemajoldir chashmai zilol,
 Bahodirsiz kelar arg'umoq.
 Qonxo'r g'anim, qonxo'r qotil kim?..
 Havo bo'g'iq, badqavoq va dim,
 Chopib chiqqan el, xaloyiq jim,
 Bahodirsiz kelar arg'umoq.

OQ VA QORA

Oq buloqni izladim,
 Qora buloq duch keldi.
 Qora buloq suvidan ichdim, yoronlar,
 Oq buloqqa yetguncha.

Oq daryoni izladim,
 Qora daryo duch keldi.
 Qora daryo bag'rida cho'mildim, do'stlar,
 Oq daryoga o'tguncha.

Oq tog'larni izladim,
 Qora tog'lar duch keldi.
 Qora tog'lar quchog'ini kezdim, yoronlar,
 Oq tog'larga ketguncha.

Oq va qora dunyoni
 Chappor urib aylangum,
 Oq shomlar tugab, do'stlar,
 Qora shomlar quchguncha...



Bu she'r, ko'rib turganingizdek, osonlikcha «hazm bo'ladigan» asarlar xilidan emas. Tabiatda butunlay «oq buloq» ham, «qora buloq» ham, «oq daryo» ham, «qora daryo» ham, «oq tog'lar» ham, «qora tog'lar» ham

uchramasligini yaxshi bilasiz. Qolaversa, shoir dunyoni «oq» va «qora» deb ataganida, kun bilan tunni nazarda tutmayotgani ham aniq. Unda gap nimada? Shoir she'riy tashbehlari bilan nimalarga ishora qilyapti?

Inson tug'ilib yashaydigan dunyo nihoyatda murakkab, chigal muammolarga to'lib-toshgandir. Har qanday odam bolasi tug'ilganida buloq suvidek, tog'lar qoridek pok – begunoh bo'ladi. Dunyoda go'dak kulgisi va yig'isidek, u emib katta bo'ladigan ona sutidek beg'ubor narsaning o'zi yo'q. Lekin... lekin nega odamzod mangu baxtiyor yashay olmaydi? Nega olamda urushlar bo'ladi, minglab, millionlab odamlar ularning qurboniga aylanadi? Nega Yer yuzidan yovuzlik hech yo'qolib bitmaydi? Nima uchun odamlar arzimagan narsalar deb bir-birlariga dushman bo'lib qolishadi?..

Sanayman desangiz, bunday savollarning cheki-chegarasi yo'q.

Demak, odam «HAZRATI INSON» bo'lishi nihoyatda qiyin ekan-da. Uning mukammallikka erishmog'i g'oyat mushkul – butun umrni talab qiladigan jarayon ekan-da. Shoir mana shu nomukammal dunyo ishlaridan ko'ngli ozorlanib she'r bitadi. U bolaligida qilgan ko'plab orzulariga yetisha olmaganidan, hayotda nopok odamlarga ham duch kelganidan o'kinadi. Barcha kishilarning ko'ngli buloq suvidek oppoq – beg'ubor bo'lishini istasada, ko'ngil ko'zi ko'r kimsalar uning dilini vayron qiladi. Xohlaydimi-yo'qmi, shunday kishilar bilan bir havodan nafas olishga majbur bo'lgan lirik qahramon «oq buloq» – chinakam insonlar diydoriga talpinadi. She'ming qolgan bandlarida ham ayni kayfiyat izhori kuchayib borgan.

Biroq uning oxirgi bandi Sizni yanada o'ylantirib qo'ygani aniq. Yuqorida aytilgan muammolarga to'la oq va qora dunyoni chappor urib aylanib yashayotgan lirik qahramon birdaniga «Oq shomlar tugab, do'stlar, Qora shomlar quchguncha...» degan, bir qaraganda tushuniksiz kayfiyatni izhor qiladi.

Gap shundaki, tiriklik – hayot har qancha murakkab, chigal va ziddiyatli bo'lmasin, bari bir go'zaldir. Bari bir inson yashashga, hayot nashidasini surishga, tiriklikka bor kuchi bilan tirmashadi. Hayotning shomlari ham oq-oppoqdir. Negaki, ertaga kun chiqishi, hammayoq yana nurga ko'milishi aniq. Agar inson tirik bo'lsa, ertaga ham yashasa, bu yorug'-

likdan, albatta, bahramand bo'ladi! Agar... uning umri poyoniga yetsa, bu yorug' olam – hayot bilan vidolashishga majbur bo'lsa-chi?! Unda insonni «qora shomlar quchadi» – o'lim o'z bag'riga oladi...

Demak, shungacha – umrining oxiriga qadar odam «oq va qora dunyo»da chappor urib aylanmog'i – insondek yashamog'i, ezguliklar qilishga ulgurmog'i, olamda «oq buloq»lar, «oq daryolar», «oq tog'lar» salomatligi uchun kurashmog'i lozim! Shundagina bu inson olam va odamni yashnatadi, Yaratganning roziligiga ega bo'ladi!

Savol va topshiriqlar

1. Azim Suyunning hayoti va ijodi to'g'risidagi ma'lumotni to'liq o'zlashtirib olishga harakat qiling.
2. Ijodkorlar asarlarida ular o'sib-ulg'aygan muhit qanday iz qoldirishi mumkinligini misollar bilan izohlashga urining.
3. Azim Suyun tabiat manzaralarini «jonlantirish» da ko'proq qanday badiiy usullardan foydalanishini o'qigan she'rlaringiz misolida izohlang.
4. «Bahodirsiz kelar arg'umoq» she'rida tasvirlangan tabiat o'zgarishlari aslida qanday holatning ifodasi, deb o'ylaysiz?
5. Qanday o'ylaysiz: she'rdagi tasvirlangan «Chopib chiqqan el, xaloyiq jim»ligi arg'umoqning bahodirsiz kelishiga ta'siri bormi-yo'qmi?
6. Yurtimiz tarixidan «Bahodirsiz kelar arg'umoq» she'rida ko'rsatilgandek voqealarni eslashga harakat qiling.
7. «Bahodirsiz kelar arg'umoq» va «Tutqun» she'rlari voqealari o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
8. Shoir «Tutqun» she'ri orqali dunyoda eng aziz narsa sifatida nimani ko'rsatadi?
9. Tuqqan onasidan, sevimli yoridan ayrilganini eshitganda ham yov qarshisida ko'zidan qatra yosh to'kmagan tutqun Vatanidan ayrilganini eshitib, qanday holga tushdi? U nega shunday holga tushdi?
10. Vatanidan ixtiyoriy ayrilib yashashni or bilmaydigan kimsalar bilan «Tutqun» she'ridagi qahramon o'rtasida qanday insoniy farqlar bor?
11. «Yalla» ansambli ijrosida yangragan «Oq va qora» ashulasini topib, sinfdoshlaringiz bilan birga tinglashga harakat qiling.
12. Azim Suyun she'rlaridan yod oling.

*Nazariy ma'lumot**SHE'RIY NUTQ*

Kuzatgan bo'lsangiz, shoirlar ishtirok etgan uchrashuvlarda o'zgacha ruh va kayfiyat hukmron bo'ladi. Ayniqsa, ular o'z she'rlaridan o'qiy boshlashlari bilan shu paytga qadar zerikibroq o'tirgan tengdoshlaringiz ham birdan jonlanib qolishadi, butun vujudlari quloqqa aylanib, shoirni tinglashadi. Buning sababi nimada deb o'ylaysiz?

Gap shundaki, nasriy (sochma) nutqdan farq qilaraq, she'riy (tizma) nutq muayyan ohangga bo'ysundirilgan bo'ladi. Xuddi yurak urishi yoki vagon g'ildiraklarining ovozidek takrorlanuvchi ritmga egaligi bilan eshituvchini o'ziga darrov jalb qiladi. She'riy nutq musiqiy jarangi bilan birga insoniy his-tuyg'ularga nihoyatda boy bo'ladi.

Masalan, Erkin Vohidovning «Inson» qasidasidan olingan quyidagi parchaga e'tibor beraylik:

Onazorning – zamin,	Kelding olamga, demak,
Tanho yo'g'-u boring – zamin,	Yetmas uni so'rmak, yemak,
Xasta bemoring – zamin,	Yerni etmog'ing kerak
O'g'lon o'zing, darmon – o'zing...	Bo'ston o'zing, rizvon o'zing.

Shu parchadagi ma'no-mohiyatni, agar oddiy gap bilan ifoda qilinsa, kamida ikki soatlik ma'ruzaga aylanishi hech gap emas. Shoir esa ona zaminning odamzod qismatidagi ahamiyatini, uning bugungi ayanchli ahvolini, Yerdagi insoniy hayot kechirish qoidalarini, butun insoniyat oldida turgan dolzarb vazifalarni nihoyatda ta'sirli – his-tuyg'ular bilan to'yintirilgan shaklda ifoda etadi. Birinchi banddagi «zamin» so'zining takrori xuddi harsillab nafas olayotgan ona yerimizning «yurak urishi»dek eshitiladi qulog'imizga. Ikkinchi bandni o'qiyotganimizda esa («demak» – «emak» – «kerak») beixtiyor qo'llarimiz tugilib, yakka-yu yagona sayyoramizni barcha falokatlardan asrab qolish uchun o'zimizga o'zimiz qat'iy talab qo'yayotgandek bo'lamiz.

Demak, she'riy nutq – muayyan bir o'lchov (vazn) asosidagi ritmga, musiqiy jarangga ega bo'lgan, hissiy jihatdan to'yintirilgan nutqdir.



Jonatan SVIFT

(1667 – 1745)

Buyuk ingliz adibi Jonatan Svift 1667-yilda Irlandiyaning poytaxti Dublinda tug'ildi. Otasidan erta ajralgan yosh Jonatan uzoq yillar muhtojlikda kun kechiradi. Badavlat qarindoshlarining ba'zan ko'rsatadigan yordamini hisobga olmaganda uning tirikchiligi nochor edi. Tabiatan tirishqoq, ilmga tashna Jonatan o'n to'rt yoshida maktabni bitirgach, Dublin universitetining diniy bilimlar fakultetiga o'qishga kiradi, uni bitirmay Angliyaga ketadi. U bir necha yil Qirollikning sobiq ministri Vilyam Templning saroyida kotib bo'lib ishlaydi. Templning boy kutubxonasidan foydalanish Svift dunyoqarashining kengayishida muhim omil bo'ladi. Keyinchalik Svift universitetni bitiradi, dissertatsiya yoqlab magistrlik unvonini qo'lga kiritadi.

Svift badiiy ijod bilan shug'ullana boshlaydi. Uning ilk asarlari tezda xalq o'rtasida shuhrat qozonadi. Adibning ketma-ket «Kitoblar jangi», «Bochka cho'pchagi», «Movutfurush xatlari» kabi hajviy kitoblari nashr etiladi. Biroq Sviftga haqiqiy shuhratni uning «Gulliverning sayohatlari» romani olib keldi. Asarning to'liq nomi «Lemyuel Gulliverning jahondagi bir necha olis mamlakatlarga avvalo jarroh, keyinchalik esa bir necha kemalar kapitani sifatida qilgan sayohatlari» deb atalib u 1726-yilda yaratilgan.

Roman ajoyib-g'aroyib voqealarga, kulgili holatlarga boy. Asar bir

qarashda shunchaki kulgi uchun bitilgan bo‘lib tuyulsa-da, uning zamirida achchiq kinoya, zaharxanda yotibdi. Muallif bu asar orqali Angliya davlatining tartib-qoidalari, urf-odatlar ustidan kuladi. «Gulliverning sayohatlari» romani to‘rt qismdan tashkil topgan. Birinchi qismda Gulliverning liliputlar – mitti odamlar mamlakatidagi sarguzashtlari hikoya qilinadi. Mitti odamlar hayot tarzi, davlat tartiblari Angliyanikiga o‘xshash. Mitti odamchalar yashaydigan mamlakatda ham qirol, ministrlar, harbiylar, dengiz floti va turli-tuman qonunlar mavjud. Liliputiya ham Angliyadagi kabi partiyalar bor. Ular ham Angliyadagidek o‘z manfaatlarini o‘ylab janjallashadilar, bahslashadilar. Bu partiyalar *baland poshnalilar* va *past poshnalilar* deb ataladi. Mazkur partiyalar vakillari qanchalik mitti bo‘lsalar ularning maqsad va o‘ylari ham o‘zlari kabi arziyas va jo‘n. Ular siyosatlar orasida farq poshnalarining baland yoki past bo‘lganligidadir. Liliputiya davlatining qo‘shni Blefusku davlati bilan nizolari sababi ham arziyas va kulgili – ular tuxumni qaysi tomonidan chaqishda kelisha olmaydilar. Birlari tuxumni uch qismidan sindirish kerak desalar, birlari poynak qismidan sindirish kerakligini uqtiradilar. Swift ularning bu kelishmovchiliklari arziyas va bachkana ekanligi ustidan kular ekan, ayni paytda Angliyadagi diniy, siyosiy parokandalik sabablari hech qanday ahamiyatga molik bo‘lmagan ixtiloflar ekanligini uqtirgandek bo‘ladi.

Romanning ikkinchi qismida Gulliverning ulkan odamlar yurti – Brobdingnegga sayohati hikoya qilinadi. Bu mamlakatda Gulliver teskari holatga tushadi – Liliputiya davlatidagi odamlardan nafratlanagan bo‘lsa, ushbu mamlakat odamlarining tanti, olijanob, ma‘rifatparvarligiga qoyil qoladi.

Asarning uchinchi qismi Gulliverning olimlar mamlakati – Leputadagi sayohatlariga bag‘ishlangan. Bu yerdagi Buyuk akademiya bilan tanishib, umri behuda sarflanayotgan olimlar ishini ko‘radi. Ularning real hayotdan ajrab qolib, foydasiz ixtirolar bilan bandliklari muallif kulgisini qo‘zg‘aydi. Ayniqsa, bir olimning bodringdan quyosh energiyasini ajratib olib, undan yoz sovuq kelganda foydalanishga ahd qilganini, yana bir «alloma»ning uyni poydevoridan emas, tomidan boshlab qurish kashfiyoti haqidagi loyihasi – buning isboti sifatida hasharotlar – asalari va o‘rgimchak

faoliyati misol qilib keltirilganini ko'rib kishi o'zini kulgidan tiya olmaydi. Yozuvchi haqiqiy olimlar ustidan emas, soxta fan kishilari ustidan kuladi.

Romanning to'rtinchi qismi Gulliverning guignnmlar mamlakatiga qilgan sayohati haqida. Muallif Gulliverning bu sayohatini o'tkir zaharxanda, nafratli kulgi bilan tasvirlaydi. Bu mamlakatda inson qiyo-fasidagi ikki oyoqli maxluqlar yexular va aqlli, dono, halol mehnat bilan kun ko'ruvchi otlar yashaydilar. Yexular jirkanch, hazar qiladigan daraja-da tuban kimsalar. Ular Sviftning Angliyadagi vatandoshlarini eslatadilar. Ular o'z manfaatlari uchun bir-birlarini halok qilishga tayyor.

Asar bilan tanishadigan bo'lsangiz, romanda Svift tasvirlagan mam-lakatlar dunyo xaritasida yo'q. Bu shaharlar badiiy uydirma mahsuli, ular-ni yozuvchining o'zi o'ylab topgan. Adib yashagan jamiyatda tanqidiy gap aytish, bir-bir amaldor kirdikorlarini ochiq aytish juda xavfli edi. Svift o'zi yashagan Angliya qirolligidagi barcha kamchiliklar ustidan xayoliy mamlakatlar odamlari xatti-harakatlarini fosh qilish orqali kuladi. Roman uslubi juda ravon, sarguzashtlar nihoyatda qiziqarli tarzda bayon qilinadi. Ushbu roman barcha xalqlar kabi o'zbek kitobxonlarining ham sevimli asariga aylangan. «Gulliverning sayohatlari»ning o'zbek tilida olti marta nashr etilganligi ham buni isbotlaydi.

Aziz o'quvchilar, yaxshisi romanni o'zingiz to'liq o'qib chiqing.

GULLIVERNING SAYOHATLARI

BIRINCHI QISM

LILIPUTIYAGA SAYOHAT

BIRINCHI BOB

Men Nottingempshirda tug'ilganman, u yerda otamning uncha katta bo'lmagan mulki bor edi. Yoshim o'n to'rtga to'lganda otam meni Kembrij shahridagi Imanyuel kollejiga o'qishga yubordi. U yerda uch yil bilimlarni zo'r hafsala bilan o'rgandim. Biroq, kollejda o'qishim uchun mablag' yetkazib berishga otamning qudrati yetmay qoldi, shuning uchun u meni

u yerdan olib, Londondagi mashhur vrach Jems Betsga shogirdlikka berdi, undan to'rt yil ta'lim oldim. Otam har zamonda yuborgan pullarning hammasini navigatsiya hamda matematikaning boshqa sohalarini o'rganishga sarfladim. Bu fanlar hamma sayohatda qo'l kelishi mumkin, men esa, taqdir meni sayohatchi qiladi, degan fikrga qattiq ishongandim. Mister Betsnikidan ketib, uyga Nottingempshirga qaytib keldim. Otam, tog'am Jons hamda boshqa qarindosh-urug'larimizning qo'llab-quvvatlashi tufayli qirq funt to'plashga muvaffaq bo'ldim va ma'lumot olishni davom ettirish uchun Leydenga jo'nashga ahd qildim. Qarindosh-urug'larim menga har yili o'ttiz funtdan pul yuborishga va'da qilishdi. Leyden shahrida, uzoq sayohatlarda asqatib qolishini bilib, ikki yil-u yetti oy meditsinani o'rgandim.

Leydendan qaytgach, saxovatli ustozim mister Betsning yordamida kapitan Eybregem Pennell qo'mondonlik qilayotgan «Qaldirg'och» kemasiga xirurg bo'lib ishga kirdim. Ana shu kemada uch yarim yil xizmat qildim. Levant va boshqa mamlakatlarga sayohat qildim. Yurtimga qaytgach, Londonga ko'chib kelishga jazm etdim. Mister Bets bu fikrimni judayam ma'qulladi va meni bir qancha patsientlarga tavsiya etdi. Men Old-Juridagi uncha katta bo'lmagan uyning bir qismini ijaraga oldim, Nyugetstritda yashovchi paypoqfurush mister Edmond Bertoning qizi miss Meri Bertonga uylanib, to'rt yuz funt sep oldim.

Oradan ikki yil o'tgach, saxovatli ustozim Bets vafot etdi; maoshim keskin kamayib ketdi. Do'stlarim juda oz edi, ko'pgina hamkasblarimning bema'ni qiliqlariga taqlid qilishga esa vijdonim yo'l qo'ymadi. Shuning uchun ham xotim, ba'zi tanish-bilishlarim bilan maslahatlashib, yana dengizchi bo'lishga ahd qildim. Olti yil mobaynida kema xirurgi bo'lib ishladim, ikkita kema almashtirdim, Ost hamda Vest-Indiyaga bir necha marta sayohat qildim. Ana shu xizmatda o'z ishlarimni ancha o'nglab oldim.

Safarga ketayotganda ko'plab kitob olar va bo'sh vaqtlarimni qadimiy hamda yangi eng yaxshi yozuvchilarning kitoblarini o'qishga bag'ishlardim, qirg'oqqa chiqqanda esa yerli aholining urf-odatlarini kuzatardim, tillarini o'rganardim. Xotiramning yaxshiligi tufayli bularni osongina o'zlashtirib olardim.

Keyin sayohatim uncha muvaffaqiyatli bo'lmadi. Dengiz me'damga

tegdi, xotimim, bola-chaqalarim bilan uyda qolmoqchi bo'ldim. Men dengizchilar orasida bo'lib ko'proq tajriba orttirish niyatida Old-Juridan Fegter-Leynga, u yerdan Uoppingga ko'chdim, lekin mo'ljalim amalga oshmadi. Uch yillik behuda kutishdan keyin «Ohu» kemasining egasi, kapitan Vilyam Prichardning naf keltiradigan taklifini qabul qildim, u bilan Janubiy dengizga¹ jo'nadim.

Biz Bristoldan 1699-yil 14-mayda yo'lga chiqdik. Avvaliga sayohatimiz juda muvaffaqiyatli bo'ldi. Hamroh shamol kemamizni oldinga yo'naltirdi. Ko'p o'tmay Ost-Indiya tomon yo'l oldik. Xuddi shu paytda dahshatli bo'ron ko'tarildi. Dovul bizni Vandimen Yeridan² shimoli-g'arb tomonga qarab surib ketdi. Biz janubiy kenglikning 30° 2' ida edik. Ekipajimizdagi o'n ikki kishi o'ta charchash hamda maza-matrasiz ovqatdan vafot etdi, boshqalar ham haddan tashqari holdan toygandi. 5 noyabr kuni (o'sha yerlarda yozning boshlanishi) qattiq shamol kemamizni hamon oldinga haydab borishda davom etdi; hammayoqni qalin tuman qoplagandi. To'satdan kemadan qandaydir yarim kabelt³ uzoqroq masofada to'lqinlar urilib pishqirayotgan joy ko'rindi. Shiddatli shamol kemani o'z og'ushiga olib, qoya sari surib boraverdi; biror chora ko'rish uchun vaqt o'tgan edi. Kema shitob bilan borib toshga urildi va bir zumda chil-chil bo'ldi.

Ekipajdan olti kishi, shu jumladan men ham, dengizga qayiq tushirishga, kema va qoyadan uzoqlashishga muvaffaq bo'lgandik. Mening hisobimga ko'ra, eshkak eshib faqat uch milya⁴ yurdik. Keyingi kunlarda kemada shunchalik qattiq ishlagan edikki, eshkak eshishga ham darmonimiz yetmay qoldi. Biz eshkaklarni uloqtirib, o'zimizni to'lqinlar ixtiyoriga topshirdik. Yarim soatdan keyin shimoldan esgan qattiq shamol qayig'imizni ag'darib tashladi. Qayiqdagi hamrohlarimga ham, shuningdek, xalos bo'lish umidida qoyada yoki kemada qolganlarga ham nima bo'lganini bilmayman. Fikirincha, ularning hammasi halok bo'lgan bo'lsa kerak.

¹ **Janubiy dengiz** – Tinch okeanning janubiy qismi ilgari shunday atalardi.

² **Vandimen Yeri** – Avstraliyaning janubi-sharq tomonida joylashgan. Tasmaniya orolining eski nomi.

³ **Kabelt** – ingliz dengiz o'lchovi. Bir kabelt 183 metrga teng.

⁴ **Milya** – bu yerda 10 kabeltga teng dengiz milyasi haqida gap boradi.

O‘zim esa suvga dumalab tushgach, shamol va oqim yo‘nalishida boshim oqqan tomonga qarab suzaverdim. Bir necha marta suv tubini paypaslab ko‘rdim. Nihoyat, juda holdan toyib, to‘lqinlar bilan olishishga kuchim yetmay qolganda oyog‘im yerga tekkanini sezdim.

Xuddi shu paytga kelib bo‘ron ham ancha tindi. Suv tubi shunchalik qiyalik ekanki, sohilga yetguncha bir milya masofagacha suv kechib borishga to‘g‘ri keldi. Shunda kech soat sakkizlar bo‘lsa kerak. Men mamlakat ichkarisiga yarim milyacha yurib bordim, biroq uy yoki u yerda yashovchilardan nom-nishon ham topolmadim. Charchashdan, issiqdan hamda kemani tark etish paytida yarim pint¹ aroq ichib olganimdan qattiq uyququm keldi. Juda ham past hamda mayin ko‘kat ustiga cho‘zildim va qattiq uyquga ketdim, umrim bino bo‘lib bunaqa qattiq uxlamagandim.

Mening hisobimga ko‘ra uyququm to‘qqiz soatdan oz davom etmagan bo‘lsa kerak, chunki uyg‘onganimda hammayoq yop-yorug‘ edi. Men o‘rnimdan turmoqchi bo‘ldim, biroq qimirlay olmadim. Qo‘l-oyoqlarim yerga mahkam chirmab tashlanibdi; o‘zim osmonga qarab yotardim. Uzun va qalin sochlarim ham yerga bog‘lab tashlangan edi. Ayni paytda butun gavdam — qo‘ltig‘imdan sonimgacha ingichka chilvirlar bilan tortib bog‘langanligini sezdim. Men faqat osmonga qaray olardim, xolos; quyosh omonsiz kuydirar, ko‘zlarimni qamashtirardi. Qulog‘imga allaqanday noaniq shovqin chalindi, lekin tepaga qarab yotganimdan hech narsani ko‘ra olmadim.

Ko‘p o‘tmay qandaydir bir jonli narsa chap oyog‘imdan o‘rmlab, asta-sekin ko‘kragimga chiqqanini, iyagimga yaqinlashib kelganini sezdim. Ko‘z qirimni tashlab, qo‘liga o‘q-yoy ushlagan, sadoq osgan, bo‘yi bir qarich ham kelar-kelmas odamni ko‘rdim. Uning orqasidan o‘shanga o‘xshash yana qirqta odam kelayotganini ham payqadim. Hayratdan qattiq baqirib yubordim, ustimdan yerga sakrab tushgan odamchalarning ba‘zilari mayib bo‘lishdi. Biroq ko‘p o‘tmay ular yana qaytishdi. Bitta botirroq‘i yuzimga shu qadar yaqin keldiki, uni ro‘y-rost ko‘rdim. Hayron bo‘lganini izhor qilib qo‘lini ko‘tardi. Ko‘zlarini olaytirdi, aniq, lekin chinqiriq tovush bilan: «Gekina degul!» — dedi. Boshqalar ham bu so‘zni bir necha marta takrorlashdi, lekin men o‘shanda uning ma‘nosini bilmadim.

¹ Pint – yarim litrga teng ingliz suyuqlik o‘lchovi.



Kitobxon osongina tasavvur etayotgan shu muddat ichida juda noqulay ahvolda yotdim. Nihoyat, ozgina urinib, chap qo‘limni chirmab turgan arqonni uzib, arqon bog‘langan qoziqlarni yerdan sug‘urib tashladim. Qo‘limni ko‘zimga olib bordim, shu payt meni bog‘lab tashlashda naqadar ustalik qilinganini sezdim.

Boshimni keskin burib, menga behad azob berayotgan, chap tomondan sochimga bog‘lab qo‘yilgan chilvirlarni sal bo‘shatdim. Endilikda boshimni o‘ng tomonga sal burishga imkon tug‘ildi. Biroq mitti odamchalar yana qochib ketishdi, ulardan birortasini ham ushlay olmadim.

Shundan so‘ng quloqni teshib yuboradigan darajada qichqiriqlar yangradi. Shovqin tingach, kimningdir «Tollgo fonak!» deb xitob qilganini eshitdim. Shu zahotiyiq yuzlarcha yoy o‘qlari chap qo‘limga sanchilganini sezdim. O‘qlar menga ignadek sanchilardi. Yangidan yana o‘q uzishdi. Endi ular, bizning Yevropada bomba otganday, osmonga qarab o‘q uzishardi. Tanamga (garchi buni uncha sezmasam-da) o‘q yomg‘iri yog‘ildi. Bir necha o‘q yuzimga kelib tegdi, yuzimni qo‘lim bilan to‘sib oldim. Diqqatpazlik va og‘riqdan ingradim, bo‘shalish uchun yana harakat qildim. Biroq bu odamchalar oldingisidan ham kuchliroq qilib yana o‘q uzishdi; ulardan ba‘zilari biqinimga nayza suqa boshladi, lekin baxtimga, nayzalar qo‘tos terisidan tikilgan kamzulimni tesha olmadi.

Men to qorong‘i tushgunga qadar qimirlamay yotgan ma‘qul, deb o‘yladim. Qorong‘ida, chap qo‘lim yordamida bo‘shalib olishim uncha qiyin emas. Bordi-yu, bu mamlakat odamlarining hammasi ham shu ko‘rib turganlarim singari mitti bo‘lsa, menga qarshi qo‘yiladigan har qanday armiyani bir yoqlik qilishga qudratim yetadi, deb o‘ylashga to‘liq asosim bor edi.

Ammo taqdir menga boshqacha boqdi. Jim yotganimga ishonch hosil qilgan odamlar o‘q uzishni to‘xtatishdi, lekin qulog‘imga chalinayotgan shovqin-surondan ularning soni ancha ko‘payganini bildim. O‘ng tomondan, qulog‘imning naq ro‘parasida qandaydir taqillash ovozlari eshitildi – nimadir qurishayotganga o‘xshashardi. Ming mashaqqat bilan o‘sha tomonga boshimni burdim va o‘zimdan to‘rt yard¹ uzoqroqda bo‘yi bir

¹ Yard – 91,4 santimetrga teng.

yarim fut keladigan minbarga ko‘zim tushdi. Minbarga o‘sha yerlik odamlardan to‘rt-beshtasi bemalol sig‘ardi. Ulardan biri, eng zodagoni bo‘lsa kerak, uch mulozim kuzatuvida minbarga chiqdi, uzundan-uzoq nutq so‘zlab menga murojaat qildi, lekin uning birorta ham so‘zini tushunmadim.

Shuni eslatib o‘tish kerakki, bu amaldor gapini boshlashdan oldin uch marta: «Lengrodegil san!» deb qichqirdi. Bu so‘zlarni eshitgan zahotiyoy, ellikka yaqin odam menga yaqinlashib, sochimga bog‘lab qo‘yilgan chap tomondagi arqonlarni kesib tashlashdi. Bu boshimni o‘ng tomonga burishga va gapirayotgan odamning tashqi qiyofasi hamda qo‘l harakatlarni bemalol ko‘rishga imkon berdi.

Ko‘rinishdan u qirq yoshlarda bo‘lib, bo‘yi safdoshlarinikidan balandroq edi. Ulardan biri – mening o‘rta barmog‘imday keladigani, ehtimol, u mahram bo‘lsa kerak – xo‘jasining uzun etagini ushlab turar, qolgan ikkitasi esa ikki tomonda tik turishardi. U chinakam notiq singari gapirardi. Nutqda ba‘zan do‘q, ba‘zan va‘da, achinish, muruvvat ohanglari yangrardi. Men eng itoatkor qiyofada qisqa javob qaytardim, so‘ng chap qo‘limni ko‘tardim, quyoshga boqdim, go‘yo uni o‘zimga guvoh ekanligini anglatdim. Men ochlikdan o‘lar holatga yetgandim (oxirgi marta, halokatga uchramasimizdan bir necha soat avval, kemada ovqatlanganman), shu vajdan sabrsizligimni bosa olmadim va odob qoidalariga zid bo‘lsa-da, ovqat yegim kelayotganini bildirib, tez-tez barmog‘imni og‘zimga olib bordim.

Gurgo (keyin bilishimcha, amaldorlarni shunday deb atasharkan) meni yaxshi tushundi. U minbardan tushib, yon tomonlarimga bir necha narvon qo‘yishni buyurdi. Turli xil noz-ne‘matlar solingan savatlarni ko‘targan yuzdan ortiq odam narvondan yuqoriga ko‘tarilib, og‘zim tomon ravona bo‘lishdi.

Ovqatlar, mening haqimdagi xabar yetib borishi bilanoq, podshohning amri bilan bu yerga yetkazib kelingandi. Ne‘matlar turli-tuman jonivor go‘shtidan tayyorlangan edi, biroq ta‘miga qarab, qaysisi qanday jonivor go‘shiti ekanligini ajrata olmadim. Bu yerda kurak, son, biqin go‘shtlari bor edi, ular ko‘rinishdan qo‘y go‘shтини eslatsa-da, kattaligi arang turna

qanotiday kelardi. Men ulardan ikki-uchtasini har biri miltiq o'qiday keladigan uchta nonga qo'shib birdaniga og'zimga solardim. Odamchalar menga juda chaqqonlik bilan xizmat qilishar va bo'yimdan, ishtahamning karnayligidan mamnun bo'lishib, ming xil imo-ishoralar qilishardi.

Qornim to'ygach, biror narsa ichgim kelganligiga ishora qildim. Bular juda ham ziyrak, kashfiyotchi xalq ekan. Yegan ovqatimga qarab, meni oz narsa bilan qondirib bo'lmasligini bilishib, odatdan tashqari epchillik bilan arqon yordamida bochkalardan eng kattasini ustimga tortib chiqarishdi, qo'limga yumalatib olib borishdi va og'zini ochishdi. Bochkada chorak litrcha vino bor edi, uni bir ko'tarishda ichib yubordim. U burgund vinosiga o'xshasa-da, mazasi ancha yaxshi edi. Ular ikkinchi bochkani ham olib kelishdi, buni ham oldingisi singari ichib, yana so'radim, lekin ularda boshqa vino topilmadi.

Men bu karomatlarni ko'rsatayotganimda odamchalar xursandlikdan qiyqirib yuborishdi va ko'ksimda ha deb: «Gekina degul!» degancha o'yinga tushishdi. Ular imo-ishora bilan har ikkala bochkani yerga tashlashni iltimos qilishdi, biroq bundan oldin pastda turganlarning chetlanishlari lozimligini ogohlantirib: «Borach mivola!» deb qattiq baqirishdi. Bochkalarni osmonda ko'rishgach, yana baravariga: «Gekina degul!» deb qichqirishdi.

Rostini aytsam, ular tanamda u yoq-bu yoqqa yurishayotganida dastavval qo'limga tushgan qirq yoki ellik kishini ushlab olib, yerga uloqtirish vasvasasi ham qo'zg'aldi. Ammo ular meni ancha azobga qo'yishganini, boshimga bundan ham battar azoblarni solishlarini, ularga bo'ysunishga va'da berganimni o'ylab, bu fikrlarni miyamdan chiqarib tashladim. Bundan tashqari, o'zimni xarajatlarning yuziga qaramay meni bu qadar siylagan xalq mehmondo'st odamlar toifasidan bo'lmog'i kerak, deb hisobladim.

Harholda, bu mitti odamlarning qo'rqmasligidan ajablanmasdan ilojim yo'q edi. Men ularga qandaydir ulkan maxluq bo'lib ko'rinishim kerak edi, ular bo'lsa dadil ustimga chiqib, bitta qo'lim bo'shligini parvolariga ham keltirmay, bemalol o'ynab yurishardi.

Oradan biroz vaqt o'tgach, qarshimda ulug' martabali zot — imperator hazratlarining elchisi paydo bo'ldi. Elchi janobi oliylari ko'pgina

mulozimlari kuzatuvida oyog‘imdan chiqib, yuzim tomon yura boshladi. U imperatorning muhri bosilgan ishonch yorlig‘ini ko‘zimga yaqin olib kelib ko‘rsatdi, menga qarab nutq so‘zladi. Elchi qiyofasida g‘azab alo-mati ko‘rinmasdi, ammo o‘ta qat‘iyatlilik bilan o‘n minutcha gapirdi. Gap orasida qo‘li bilan bir tomonni ko‘rsataverdi. Keyinroq bilishimcha, gap oliy hazratlari davlat kengashi bilan birgalikda meni bu yerdan yarim milya naridagi poytaxtga olib kelishga qaror berganligi ustida borgan ekan.

Uning nutqiga javoban men ham bir necha so‘z aytdim, biroq, uni hech kim tushunmadi. Shunda men imo-ishora tiliga o‘tdim. Men bo‘sh qo‘lim-ni boshqa qo‘limga, so‘ng boshim va tanamga qo‘ydim, bu bilan erkinlik olmoqchi ekanligimni bildirdim. Nazarimda, oliy janoblari bu xatti-harakatlarni yaxshi angladi shekilli, chunki yo‘q degan ishorani bildirib bosh chayqadi, meni asir sifatida olib ketishlarini imo bilan uqtirdi. Ayni paytda, menga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lishlarini ham pisanda qildi.

Shu payt, arqonlarni uzib tashlashga yana bir urinib ko‘raymikan, deb o‘yladim. Biroq terimga sanchilgan yoy o‘qlari tufayli yaralar bilan qop-langan yuz va qo‘llarimning achishib og‘rishi meni bu niyatdan qaytardi. Buning ustiga, dushmanlarim tobora ko‘payib borayotganligini sezdim. Shu sababli, menga nisbatan ko‘ngillari xohlaganicha munosabatda bo‘lishla-ri mumkinligini imo bilan tushuntirdim. Shundan keyin Gurgo hamda uning mulozimlari menga odob bilan ta‘zim qilishdi va ancha xursand bo‘lishib, uzoqlashishdi.

Ko‘p o‘tmay quvnoq hayqiriqlar yangradi, «Peplon selai» so‘zi tez-tez takrorlanib turdi. To‘satdan, meni qo‘riqlayotganlar o‘ng yonboshim-ga ag‘darilishga imkon beradigan qilib, chap tomondagi arqonni bo‘sha-tishganini payqadim. Bundan ilgariroq qo‘l va yuzlarimga qandaydir xush-bo‘y malham surtib chiqishgan va o‘q tekkan joylardagi og‘riq darhol qolgandi. Rohatlanib, uyqum kela boshladi. Keyin aytib berishlariga qaraganda, sakkiz soatga yaqin uxlabman. Buning ajablanadigan joyi yo‘q edi, chunki vrachlar imperatorning buyrug‘iga ko‘ra vinoga uxlatadigan dori solib qo‘yishgandi.

Aslida ahvol bunday bo‘lgan ekan: imperator men haqimdagi ma’-

lumotni olishi bilanoq, kengash bilan kelishib, meni darhol bog‘lash haqida farmoyish beribdi (buyruq kechasi, men uxlayotganda bajarilgan). U yana, uyg‘onishim bilanoq meni ovqatlantirish hamda poytaxtga olib ketish uchun arava yasashni ham buyurgan.

Bir qarashda bunday yo‘l tutish ham o‘ta xavfli, ham qahramonlik. Men ishonamanki, yevropalik hokimlardan birortasining ham bunday qilishga yuragi betlamas edi.

Biroq, mening fikrimcha, imperatorning buyrug‘i adolatli edi. Darvoqe, bu odamlar uxlab yotganimda meni o‘ldirishga urinishdi ham deylik. Dastlabki hujumdanoq og‘riqdan o‘zimga kelishim va shunday g‘azabga tushishim mumkin ediki, arqonlarni uzib yuborib, o‘z navbatida ularga hamla qilishim turgan gap edi. Ular mendan rahm-shafqat kuta olmas edilar, bu aniq.

Bu odamlar ajoyib matematiklar ekan, ular bilimlarning mashhur homiysi imperatorning qo‘llab-quvvatlashi va rag‘batlantirishi tufayli mexanika sohasida ulkan kamolotga erishishgandi. Podsho ixtiyorida xodalar va boshqa og‘ir narsalarni tashiydigan g‘ildirakli har xil mashina bor. Bu yerda, qurilishbop yog‘och beradigan o‘rmonzorlar bor joyda, uzunligi to‘qqiz fut keladigan eng yirik harbiy kemalar qurish odat tusiga kirib qolgan ekan. Keyin kemalarni ana shu mashinalarga yuklab, dengizga olib borishar ekan.

Besh yuz duradgor va injenerga darhol ana shu mashinalardan eng kattasini yasash topshirilgan ekan. Buyruq juda qisqa bir muddatda bajarilgan. Qirg‘oqqa chiqqanimga to‘rt soat bo‘lar-bo‘lmas mashina orqamdan jo‘natilgan. Men turgan joyga mashinaning yetib kelishini xalq shodon qiyqiriqlar bilan kutib oldi. Bu — balandligi uch dyuym, uzunligi yetti va eni to‘rt futga yaqin, yigirma ikki g‘ildirakli yog‘och platforma edi. Uni mening gavdamga parallel ravishda qo‘yishdi.

Eng mushkul narsa meni ko‘tarib, platformaga yotqizish edi. Ular yerga har biri bir fut balandlikdagi saksonta xoda qoqishdi, keyin ishchilar bo‘ynim, qo‘lim, tanam va oyoqlarimga son-sanoqsiz ilmoqli bog‘larni bog‘lashdi; ilmoqlardan pishiq chilvir o‘tqazib, ularni xodalar ustiga o‘rnatilgan chig‘ir tepasidan olib o‘tishdi. Eng baquvvat ishchilardan

to'qqiz yuz kishi chilvirni torta boshladi, shunday qilib, uch soat o'tar-o'tmas meni aravaga olishdi va unga mahkamlab bog'lashdi.

Bularning hammasini menga keyin aytib berishdi. Uyqu dori sharofati bilan qattiq uyquga ketib, bu ishlarning birontasini ham sezmadman.

Ilgari aytganimdek, meni to'rt milya naridagi poytaxtga olib borish uchun saroy otxonasidan, har birining bo'yi yarim dyuym keladigan eng katta otlardan bir yarim mingtasi kerak bo'ldi.

Bir g'aroyib hodisa tufayli meni uyg'otishganda to'rt soat yo'l yurgan ekanmiz. Arava tuzatishga muhtoj bo'lib to'xtabdi. Bundan foydalangan mahalliy xalq yoshlaridan ikki-uchtasi uxlayotganimda aft-angorim qanaqaligini ko'rmoqchi bo'libdi. Ular arava ustiga chiqib, yuzim tomonga sekin yashirinib borishibdi. Ulardan biri, gvardiya ofitseri, burnimning chap teshigiga qilichining uchini ancha kirgizibdi. Burnimga xas-xashak tek-kanday qattiq aksirib yubordim, uyg'onib ketdim. Botirlar o'zlarini menga sezdirmay yashirinishdi. Oradan uch hafta o'tgandan keyingina to'satdan uyg'onib ketganligim sababini bildim.

Butun kunni yo'l yurish bilan o'tkazdik. Tunaydigan joyda aravamning ikki tomoniga besh yuzga yaqin gvardiyachi qo'yildi. Ularning yarmi mash'ala, qolganlari esa, sal-turishga intilsam o'q uzish uchun, o'q-yoyni shay qilib ushlab turardi.

Quyosh chiqishi bilan yana yo'lga tushdik, tush paytida shahar darvozasidan ikki yuz yard berida edik. Imperator saroydagi barcha arkoni davlati bilan bizga peshvoz chiqdi, lekin oliy tabaqa amaldorlar oliy hazratlarining ustimga chiqib, o'z hayotini xavf-xatar ostida qoldirishiga qat'iy qarshilik ko'rsatishdi.

Arava qirollik bo'yicha eng katta deb hisoblangan ibodatxona yonida to'xtadi. Bundan bir necha yil muqaddam ana shu ibodatxonada dahshatli qotillik yuz bergan. Mahalliy xalq o'ta xudojo'y bo'lganligidan ibodatxonani harom bo'ldi, deb unga kirmay qo'ygan. Ibadatxonani yopishib, u yerdagi ashyo va ziynatlarni olib chiqishgan, u ancha vaqtdan beri bo'm-bo'sh yotgan. Ana shu yerga meni joylashtirmoqchi bo'lishdi.

Ibadatxonaning shimolga qaragan eshiklarining balandligi to'rt futga, eni ikki futga yaqin bo'lib, osongina sig'ishim mumkin edi. Eshiklarning

har ikki tomonida, yerdan bor-yo'g'i olti dyuym balandlikda ikkita deraza bor edi. Chap derazadan saroy temirchilari yevropalik xonimlar soatining zanjiri yo'g'onligidagi to'qson bitta zanjirni o'tkazib, ularning uchini chap oyog'imga o'ttiz oltita osma qulf bilan mahkamlab bog'lab qo'yishdi. Katta yo'lning boshqa tomonida, ibodatxona ro'parasida balandligi besh fut keladigan minora turardi. Imperator eng yaqin amaldorlari bilan, meni yaxshiroq ko'rish uchun, minora ustiga ko'tarildi. Meni ko'rish uchun, alohida hisobga ko'ra, ibodatxona yoniga yuz mingdan ortiq shaharlik to'plandi. Ularning o'n mingdan ortig'i menga chirmashib oldi, deb o'yladim. Biroq ko'p o'tmay, buni man etib, chirmashganlarga o'lim jazosi berilishi haqidagi buyruq chiqarildi.

Temirchilar o'z ishlarini tugallab, meni aravaga bog'lab turgan arqonlarni qirqishdi, umrimda hech qachon his etmagan chuqur qayg'uli kayfiyatda o'rnimdan turdim.

O'rnimdan turib, u yoq-bu yoqqa yurganimni kuzatib turgan xalqning shovqin va hayrati ta'rifga sig'maydi. Meni bog'lab qo'yilgan zanjirning uzunligi ikki yardga yaqin bo'lib, oldinga yoki orqaga yurish tugul, yarim doira yasab harakat qilish, emaklab ibodatxona ichiga kirish, u yerda uzala tushib yotish imkoniga ham ega edim.

IKKINCHI BOB

O'rnimdan turib, atrofga nazar tashladim. E'tirof qilib aytamanki, umrim bino bo'lib bunaqa ajoyib va g'aroyib manzarani ko'rmaganman. Atrofim nuqul bog'ning o'zginasi; har biri qirq kvadrat fut keladigan, devor bilan qurshalgan dalalar gulzorga o'xshaydi. Bu dalalarning ba'zilari o'rmon bilan qoplangan bo'lib, daraxtlarning balandligi yetti futdan oshmasdi. Chapda esa teatr dekoratsiyasini eslatuvchi shahar yastanib yotardi.

Bu odatdan tashqari go'zal manzarani tomosha qilarkanman, imperator minoradan pastga tushdi, otliq yonimga keldi. Bu jasorati uchun uni falokat bosishiga sal qoldi. Ot meni ko'rish bilan oq hurkib, ikki oyog'ida tik turdi; chamasi ustiga tog' yurib kelayotganday tuyulgan bo'lsa kerak. Imperator ajoyib chavandoz bo'lgani uchun egardan yiqilmay qoldi. Shu payt uning baxtiga mulozimlar yugurib kelishdi. Ular irg'ishlayotgan otning jilovidan

tutib, oliy hazratlarining otdan tushib olishiga yordamlashishdi. Imperator o'zini bamaylixtor tutardi. U kiyim-boshlarining u yoq-bu yog'ini to'g'rilab, har tomonimdan o'tib, boshimdan oyog'imgacha ko'zdan kechira boshladi. U hozir-u nozir bo'lib turgan oshpazlarga va saroy xizmatkorlariga menga ovqat hamda ichimlik berishni buyurdi. Ular ovqat va vino solingan aravani qo'lim yetadigan masofagacha g'ildiratib kelishdi. Men bu ne'matlarni pok-pokiza tushirdim. Aravalarning yigirmatasida taomlar, o'ntasida ichimliklar bor edi. Har bir aravadagi taom menga ikki-uch luqma bo'ldi, xolos, ichimlikni esa o'nta ko'zadagisini bitta aravaga qo'yib birdaniga ko'tardim; qolgan vinolarni ham ana shu alfozda ichdim...

Xonimlar va saroy amaldorlari juda yaxshi kiyinishgandi. Uzoqdan rang-barang kiyingan bu olomon, zarbof va kumush rang ip bilan tikilgan yubkani yerga yozib qo'yilishini eslatardi.

Imperator oliy hazratlari menga tez-tez savol bilan murojaat qilib turdi. Men javob qaytarardim, biroq u ham, men ham bir-birimizning gapimizdan hech narsa tushuna olmasdik. Shunda u arkoni davlat ichidagi ruhoniylar va yuristlarga (kiyimlaridan shunday bo'lishsa kerak deb o'yladim) men bilan muloqotda bo'lishga amr qildi. Men, o'z navbatida, ular bilan o'zim bilgan hamma tillarda: nemischa, gollandcha, lotincha, fransuzcha, ispancha, italyancha gaplashdim, biroq bu urinishlar hech qanday natija bermadi.

Oradan ikki soat o'tgach saroy ahli jo'nab ketdi, men kuchaytirilgan soqchilar nazorati ostida qoldim — ular menga yaqinlashishga zo'r berib urinuvchi, hattoki beodob avom xalqdan saqlashi lozim edi. Uyim eshigi oldida — yerda o'tirganimda menga qarab yoydan o'q uzishdek uyatsizlikka borib yetuvchilar ham topildi. O'qlardan biri chap ko'zimga sanchilishiga sal qoldi.

Bunday surbetlikdan jahli chiqqan polkovnik bemaza qiliq qiluvchilardan oltitasini ushlashga buyruq berdi. Jazolash uchun ularni mening qo'limga berishga ahd qildi. Soldatlar to'polonchilarni nayzalar halqasiga o'rab olib, men tomon haydab kelishdi. Men ularning hammasini birdaniga o'ng qo'lim bilan changalladim, beshtasini kamzulimning cho'ntagiga soldim, oltinchisini tiriklayin yeb qo'ymoqchiday og'zimga olib bordim. Bechora jon talvasasida chinqirdi, cho'ntagimdan qalamtaroshimni olga-

nimda esa polkovnik bilan ofitserlar g'oyat tashvishda qolishdi. Biroq ko'p o'tmay ularning ko'ngli o'rniga tushdi. Men o'z asirimga mehr bilan boqib, uni bog'lab turgan arqonlarni kesdim-da, avaylabgina yerga qo'ydim; u bir zumda juftakni rostlab qochib qoldi. Qolganlarini ham birin-ketin cho'ntagimdan olib, xuddi shu yo'sinda qo'yib yubordim. Mening marhamatimdan qorovullar ham, olomon ham mamnun bo'lganligini payqadim. Ozor yetkazuvchilarga nisbatan tutgan yo'lim saroydagilarda men haqimda yaxshi taassurot tug'dirdi.

Tun boshlanishi bilan hech bir qiyinchiliksiz uyimga kirib oldim va quruq yerga cho'zildim. Imperatorning maxsus buyrug'i bilan men uchun ko'rpa-yostiq tikishgunga qadar ikki haftagacha shu alfozda hayot kechirdim. O'rtacha kattalikda olti yuzta ko'rpa keltirishdi, uyimda ish qizib ketdi. Bir yuz ellikta ko'rpani bitta qilib tikishdi, shunday qilib, uzunasiga ham, eniga ham menga to'g'ri keladigan to'shak hosil bo'ldi; ana shunaqangi to'rtta to'shakni ustma-ust qo'yishdi; biroq bundan tosh yotqizilgan yer yumshab qolmadi. Xuddi shu usulda ustimga yopinadigan ko'rpa, choyshablar ham tayyorlandi. Allaqachonlar muhtojlikka ko'nikib qolgan odam uchun bu ham harna edi.

Men haqimdagi xabar qirollik bo'yicha yoyilishi bilanoq meni ko'rish uchun hamma yoqdan boyonlar, bekorchilar va har narsaga qiziquvchi odamlar daryoday oqib kela boshladi. Qishloqlar huvillab, dala ishlari to'xtab qoldi, uy ishlari izdan chiqdi. Agar oliy hazratlari oqilona yo'l tutmaganda buning oqibati voy bo'lardi. Imperator meni ko'rib bo'lganlarning hammasi darhol uyga qaytishi haqida buyruq berdi; ularga saroyning alohida ruxsatisiz ikkinchi marotaba uyimga ellik yard masofagacha yaqinlashish qat'iy man etildi. Bu farmoyish ba'zi ministrlar uchun yirik daromad manbaiga aylandi.

Huzurimdan ketgach, imperator kengash chaqirdi, unda menga qanday munosabatda bo'lish masalasi muhokama qilindi. Mening yaqin do'stlarimdan biriga aylangan saroy aslzodasidan keyinroq bilishimcha, davlat kengashi anchagacha bir fikrga kelolmapti. Bir tomondan zanjirlarni parchalab yuborishimdan qo'rqishibdi, boshqa tomondan esa meni boqish ancha qimmatga tushishi va mamlakatda ocharchilik boshlanishidan hadiksirashibdi. Kengashning ba'zi a'zolari meni ochdan o'ldirishni yoki

zaharli o‘q otib, yo‘q qilishni astoydil talab qilishibdi. Biroq bu taklif rad etilibdi, shunday ulkan jasad poytaxtda va butun qirollikda vabo tarqalishiga sababchi bo‘ladi, deb ko‘nishmabdi.

Kengash avji qizib turgan paytda kengash zalining katta eshigi yonida bir necha ofitser paydo bo‘libdi; ulardan ikki nafari majlisga qo‘yilibdi va ular mening jig‘imga tekkan olti to‘polonchiga nisbatan qanday yo‘l tutganim xususida to‘liq ma‘lumot berishibdi. Bundan oliy hazratlari ham, davlat kengashi a‘zolari ham juda ta’sirlanib ketishibdi.

Imperator o‘sha zahotiy oq farmon chiqarib, poytaxtdan to‘qqiz yuz yard masofagacha bo‘lgan joyda joylashgan qishloqlar zimmasiga har kuni ertalab mening dasturxonimga oltita novvos, qirqta qo‘y va tegishli non hamda vino bilan birga boshqa yeguliklar keltirishni yukladi. Bularning hammasiga belgilangan narx bo‘yicha oliy hazratlarining xazinasidan haq to‘landi. Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, bu podshoh asosan o‘z mulkidan keladigan daromadlar hisobiga yashaydi, faqat do‘ppi tor kelib qolgan paytlardagina yordam so‘rab fuqarolariga murojaat qiladi.

Bundan tashqari huzurimda olti yuz odamdan iborat mulozimlar shtati ta‘sis etildi. Imperator ularning maoshi uchun alohida mablag‘ ajratdi va uyimning har ikki tomoniga ular uchun qulay chodirlar tikishga buyruq berdi. Bundan tashqari, uch yuz chevarga shu yerning fasonida menga kostyum tikish va eng mashhur olimlardan oltitasiga mahalliy tilni o‘rgatish amr qilindi. Eng oxirida, imperator o‘ziga, saroy amaldorlariga va gvardiyaga qarashli otlar menga ko‘niksin uchun, ularni mening huzurimda mashq qildirish haqida farmoyish berdi.

Bu buyruqlarning hammasi bekam-ko‘st bajarildi. Uch haftadan keyin liliputlar tilini o‘rganishda katta yutuqlarni qo‘lga kiritdim. Shu muddat ichida imperator huzurimga tez-tez tashrif buyurib, menga ta‘lim berayotgan ustozlarimga bajonudil yordam qildi. Biz bir-birimiz bilan bimalol gaplashadigan bo‘lib qoldik. Dastlabki o‘rgangan so‘zlarim oliy hazratlaridan meni ozod etishini so‘rash istagi bo‘ldi. Bu so‘zlarni har kuni imperator oldida tiz cho‘kib takrorlayverdim. Iltimosimga imperator sal dudmalroq javob qildi. Men uning gaplaridan, mening ozod qilinishim uchun davlat kengashining roziligi zarurligini va eng avvalo, men «lyumoz kelmin pesso

deemarlou Empozo», ya'ni u va uning imperiyasi bilan urushmasligim, tinchtotuv yashashim haqida qasamyod qilishim lozimligini arang bilib oldim. Biroq, mening ozod etilishim sharoitga bog'liq ekanligini, shu vajdan sabr-qanoat qilishni, o'zining ham, fuqarolarining ham ko'z o'ngida yaxshi nom qozonish uchun xizmat qilishimni pisanda qilib qo'shib qo'ydi.

Kunlarning birida u, alohida amaldorlarga meni tintuv qilish uchun buyruq bersa buni haqorat deb bilmasligimni iltimos qildi. Ulkan gavdamga yarasha o'ta xavfli qurol taqib yurishimga uning ishonchi komilmish. Men oliy hazratlaridan bu xususda ko'ngli to'q bo'lishini iltimos qildim hamda uning ko'z oldida hamma cho'ntaklarimni ag'darib ko'rsatishga tayyor ekanligimni aytdim. O'z fikrimni qisman so'zlar, qisman imo-ishora bilan uqtirdim. Imperator imperiya qonuniga binoan tintuv ikkita amaldor tomonidan o'tkazilishini aytdi.

«Qonunning bu talabi sizning roziligingizsiz va yordamingizsiz bajo keltirilmaydi, albatta, – dedi u, – lekin, sizni o'ta muruvvatli, adolatli kishi deb bilganim uchun manovi amaldorlarni bamaylixotir qo'lingizga topshiraman. Biz olib qo'ygan buyumlar mamlakatimizdan ketayotganingizda qaytarilib beriladi yoki ularga qancha narx qo'ysangiz shuncha haq to'lanadi».

Men har ikkala amaldorni qo'limga oldim-da, kamzulimning cho'ntagiga solib qo'ydim. Ular bu cho'ntakni tekshirib bo'lishgach, boshqalariga soldim. Men ularga ikkita soat hamda o'zimdan boshqa hech kimga kerak bo'lmaydigan mayda-chuyda saqlanadigan yashirin cho'ntagimdan boshqa hammasini ko'rsatdim. Soat cho'ntaklarimdan birida kumush soat, boshqasida bir necha dona oltin tanga solingan hamyon bor edi. Amaldorlar qo'liga qog'oz, qalam va siyoh olib, nima topgan bo'lishsa hammasini ro'yxatga olishdi. Ro'yxat tuzib bo'lingach, ular mendan pastga tushirib qo'yishni iltimos qilishdi. Ular o'z ro'yxatlarini imperatorga topshirishdi. Keyinroq bu hujjatni ingliz tiliga tarjima qildim. Uning so'zma-so'z mazmuni quyidagicha:

«Ulkan odam («Kuinbus Flestrin» so'zini shunday tarjima qildim) kamzulining o'ng cho'ntagidan bir bo'lak katta dag'al matoni topdik, uni oliy hazratlari saroyining kiraverishdagi zaliga gilam qilib to'shasa ham

bo'ladi. Chap cho'ntakda juda katta kumush sandiq bor ekan, qopqog'i ham kumushdan. Uni o'rnidan qo'zg'ata olmadik. Bizning so'rovimizga ko'ra Ulkan Odam sandiqni ochdi. Birimiz sandiq ichiga tushdik, u tiz-zasigacha allaqanday changga botib ketdi. Chang havoga ko'tarilib, ikkovimizni ham bir necha bor qattiq aksa urdirdi.

Nimchasining o'ng cho'ntagidan bitta qilib taxlangan, pishiq arqon bilan bog'langan bir dasta katta yupqa oq varaqlarni topdik. Varaqlar qandaydir qora belgilar bilan to'la. Bizning kamtarona taxminimizga ko'ra, bu belgilar yozuv bo'lsa kerak; har bir harf kattaligi kaftimiz yarmicha keladi. Nimchanning chap cho'ntagida maxsus bir asbob bor ekan. Asbobga uzun-uzun yigirmata qoziq o'rnatilgan, ular oliy hazratlari saroyi qarshisidagi panjara devorni eslatadi. Fikrimizcha, Ulkan Odam bu asbob bilan sochlarini tarama kerak, lekin bu bizning taxminimiz, xolos. Biz Ulkan Odamni savolga tutishdan qochdik, chunki u bilan so'zlashish biz uchun ancha qiyin.

Ulkan Odamning o'rta yopig'ining («ranfulo» so'zini shunday tarjima qildim, ular bu so'z orqali «shim» demoqchi) o'ng tomonidagi katta cho'ntagida odam bo'yi keladigan ichi kavak temir ustunni ko'rdik. Bu ustun o'zidan ham yo'g'onroq qattiq yog'och parchasiga mahkamlab qo'yilgan; ustunning bir tomonida g'alati shakldagi katta temir parchasi dikkayib turibdi, uning vazifasi nima ekanligini bilolmadik. Ana shunaqa mashina chap cho'ntagidan ham topildi. O'ng tomondagi kichkina cho'ntakda oq va qizil metallardan yasalgan va kattaligi har xil bir necha sip-silliq gardishlar bor ekan. Oq gardishlarning ba'zilar shunaqayam katta va og'irki, ikkovimiz ularni arang ko'tardik. Bular kumushdan yasalgan bo'lsa kerak.

Chap cho'ntakdan shakli notekis ikki qora kolonnani topdik. Cho'ntak tubida turib qo'l cho'zganimizda, uning uchiga arang yetdi. Har bir kolonnaga juda katta po'lat taxta qo'yilgan. Bu juda xavfli qurol bo'lsa kerak deb o'ylab, uni qanday ishlatilishini Ulkan Odamdan talab qildik. U har ikkala qurolni g'ilofdan chiqarib, o'z mamlakatida bularning birida soqol qirishlarini, boshqasida esa go'sht kesishlarini aytdi.

Bundan tashqari, Ulkan Odamda yana ikkita cho'ntak bor ekan, ularning ichiga kira olmadik. Ulkan Odam ularni soat cho'ntak deb aytdi.

Bular uning o'rtta yopig'ining yuqori qismiga joylashgan, kesib hosil qilingan keng yoriqlar bo'lib, qorning qisuvida yopilib qolibdi. Chap cho'ntakdan katta kumush zanjir pastga osilib turibdi; u cho'ntak tubidagi ajib bir mashinaga ulangan. Biz mashinani bu yoqqa olishni buyurdik; u sharsimon bir narsa ekan; uning yarmi kumushdan, boshqa tomoni qandaydir tiniq metallardan yasalgan. Sharning shu tomonidagi qandaydir g'alati belgilarni ko'rib, ularni ushlab ko'rmoqchi bo'ldik; barmoqlarimiz o'sha tiniq narsaga tiralib qoldi. Ulkan Odam mashinani quloqlarimizga tutdi, biz suv tegirmonning parragi ovozini eslatuvchi uzluksiz shovqinni eshitdik. Fikrimizcha, bu yo bizga noma'lum bir hayvon yoki ular sig'inadigan xudo bo'lsa kerak. Biz shaxsan keyingi fikrga ko'proq ishonamiz, chunki Ulkan Odam bizga biron narsani uning maslahatisiz qilmasligini (agar uning so'zlarini to'g'ri tushungan bo'lsak) aytdi. Bu narsani u o'zining folnomasi deb atab, u o'z umrining har bir daqiqasini ko'rsatib bera olishini aytdi. Ulkan Odam chap tomondagi soat cho'ntagidan kattakon to'r oldi. Hajmi jihatidan baliqchilar to'riday keladi, lekin u shunday narsaki, hamyon singari ochilaveradi ham, yopilaveradi ham. To'richidan bir nechta yaxlit sariq metall bo'laklarini topdik. Bordi-yu, u sof oltin bo'lsa, bahosi juda yuqori bo'ladi.

Ulkan Odamning hamma cho'ntaklarida tintuv o'tkazgach, ulkan hayvonning terisidan yasalgan kamarini ko'zdan kechirishga tushdik. Kamarining chap tomonida o'rtacha odam bo'yidan besh baravar uzunroq qilich osig'liq, o'ng tomonida sumka yoki ikki xonali qop bor. Qopning har bir xonasiga mamlakatimiz fuqarosidan uchtasini joylashtirish mumkin. Qop xonalaridan birida har biri bizning boshimizday keladigan ko'pgina sharlarni topdik. Ularning hammasi haddan tashqari og'ir metallardan yasalgan. Qopning boshqa xonasida qandaydir juda mayda va yengil donachalar bor. Ana shunday donachalarning elliktasi kaftimizga joy bo'ldi.

Ulkan Odamni tintuv qilganimizda undan topilgan narsalarning ro'yxati ana shunday. Tintuv vaqtida u o'zini odobli tutdi va oliy hazratlarining farmoyishlarini bajaruvchilarga o'ta itoatkor ekanligini amalda isbot etdi.

Ushbu ro'yxatga oliy hazratlarining podshohligi gullab-yashnab turgan shakson to'qqizinchi qamar oyining to'rtinchi kuni imzo chekildi va muhr bosildi.

«Klefrin Frelok, Marsi Frelok».

Mana shu ro'yxat imperatorga o'qib berilganda, oliy hazratlari unda ko'rsatilgan ba'zi bir buyumlarni berishimni nazokat bilan taklif qildi. Eng avvalo u qilichimga ishora qildi. Men o'sha zahoti qilichni yechib, qin-pini bilan topshirdim. Bu orada imperator uch ming saralangan askarga (o'sha kuni ular oliy hazratlarini qo'riqlashardi) yoylarni shay tutgan holda meni qurshashni buyurdi. Lekin men buni payqamadim, chunki ko'zim oliy hazratlarida edi.

Imperator qilichni yalang'ochlashimni iltimos qildi. Men iltimosni bajo keltirdim, qilichni boshim uzra bir necha bor aylantirdim. Soldatlar hayrat va dahshatga tushib, baqirib yuborishdan o'zlarini tiya olishmadi. Qilich dengiz suvidan sal zanglab qolgan bo'lsa-da, harholda durust yaraqlardi. Qilichga tushgan quyosh nurlari charaqlab, atrofdagilarning ko'zini qamashtirib yubordi. Barcha podsholardan ham botirroq oliy hazratlari men kutgandan ko'ra ozroq qo'rqdi. U menga qilichni qiniga solishni va o'zim bog'langan zanjirdan olti fut nariroqqa imkoni boricha sekinroq tashlashni amr etdi.

Keyin u, ular ichi kovak ustun, deb atagan to'pponchalarimni ko'rsatishni talab qildi. Men to'pponchani chiqardim, imperatorning iltimosiga ko'ra uni qanday ishlatilishini qo'limdan kelganicha tushuntirdim. Keyin uni porox bilan o'qladim (porox xalta zich berkitilgani uchun u qupquruqligicha qolgan ekan), imperatorni qo'rqmang deb ogohlantirdim-da, osmonga qarab o'q uzdim. Bu safar qilichdan qo'rqqandan ko'ra batarroq qo'rqib ketishdi. Yuzlarcha odamlar o'q yeb o'lganday yerga yiqildi. Hatto imperator, oyoqda tik turgan bo'lsa-da, anchagacha o'ziga kelolmadi. Men ikkala to'pponchamni ham, o'q-dori solingan haltachani ham topshirdim. Oliy hazratlariga o'q-dorini olovdan uzoqroq saqlashni tayinladim, u sal uchqun tegsa alanga olib, imperator saroyini portlatib yuborishini aytdim.

Soatimni ham berdim. Imperator uni zo'r qiziqish bilan tomosha qildi, so'ng ikkita eng kuchli gvardiyachisiga soatni halqasidan yog'och o'tkazib olib ketishni buyurdi. Gvardiyachilar soat halqasidan yog'och o'tkazib, Angliyada el solingan bochkani ko'targanday, yelkalarida ko'tarib ketishdi.

Hammasidan ham imperatorni soat mexanizmlarining uzluksiz shovqini va minut milining harakati hayratga soldi. Liliputlar bizdan ko'ra ancha ravshan va yaxshi ko'rishadi: oliy hazratlari milning doimiy harakatda ekanligini bir zumda payqadi. U bu mashina nima uchun xizmat qilishini aniqlashni olimlarga topshirdi. Biroq, olimlar hech qanday xulosaga kelolmasligini kitobxon shundog'am tushunib turgan bo'lsa kerak. Ularning hamma taxminlari haqiqatdan ancha yiroq edi.

Keyin kumush va mis tangalarimni, o'nta yirik hamda mayda oltin tangalar solingan hamyonimni, pichoq, ustara, taroq, kumush tamakidon, ro'molcha va yon daftarlarimni ham topshirdim. Qilich, to'pponchalar, o'q va porox solingan sumka aravaga yuklandi va oliy hazratlarining qurolxonasiga jo'natildi. Imperator boshqa buyumlarni menga qaytarib berishni amr qildi.

Amaldorlarga yashirin cho'ntagimni ko'rsatmaganimni oldin aytgandim. Unda ko'zoynak, cho'ntakda olib yuriladigan durbin va yana bir qancha mayda-chuyda narsalar bor edi. Bu narsalar imperatorda hech qanday qiziqish tug'dirmasdi, buning ustiga ularni tashiyotganda buzish, sindirish yoki ishdan chiqarib qo'yish mumkin, shu vajdan, o'z va'damni buzmasdan, ularni imperator amaldorlaridan yashirishni ma'qul ko'rdim.

* * *

TO'RTINCHI BOB

Ozodlik olgach, eng avvalo mamlakat poytaxti Mildendoni tomosha qilish uchun ijozat so'radim. Imperator paysalga solmay darhol ijozat berdi, lekin aholiga ham, ularning uylariga ham hech qanday ziyon-zahmat yetkazmasligimni qattiq tayinladi. Shahar aylanish niyatim borligi haqida varaqa tarqatilib, aholini xabardor qilindi...

Bir kuni ertalab, ozod bo'lganimga ikki hafta bo'lganida, huzurimga maxfiy ishlar bo'yicha bosh kotib (uni shunday unvon bilan chaqirishadi) Reldresel keldi. U kucheriga chetroqqa borib turishni buyurib, o'zini qabul qilishimni iltimos qildi. Men uning lavozimi va shaxsiy obro'yiga hurmat bilan qaraganim uchun bunga bajonudil rozi bo'ldim. Bundan tashqari, u saroyda menga ko'pgina yaxshiliklar ham qilgan. Men yerga

yotishga shay ekanligimni aytdim, lekin u suhbatlashayotganimizda o'zini kaftimda turishini afzal deb bildi.

Avvalo, u meni ozod bo'lishim bilan tabrikladi, albatta, uning aralashuvisiz bunga erisholmasdim. Biroq, uning gaplariga qaraganda, ozod bo'lganim uchun voqealar oqimidan mamnun bo'lishim kerak ekan.

«Mamlakatimizdagi umumiy ahvol, – dedi u, — xorijiy odamga juda yaxshiga o'xshab ko'rinadi. Lekin bu tasavvur xato. Vatanimiz boshiga ikkita zo'r, dahshatli musibat tushib turibdi. Yetmish qamar yil muqaddam imperiyada bir-biriga dushman Tremeksenlar va Slemeksenlar degan nom bilan mashhur bo'lgan ikkita partiya vujudga kelgan. Birinchilari baland poshna tarafdorlari, ikkinchilari past poshna tarafdorlari.

Tremeksenlar, baland poshnalar qadimiy davlatimiz tuzilishiga mos keladi, deb ta'kidlashadi, biroq oliy hazratlari past poshna tarafdori, u barcha hukumat va saroy mahkamalari xizmatchilari faqat past poshnali poyabzalda yurishsin, deb farmoyish chiqardi. Siz bu narsaga e'tibor bergan bo'lsangiz kerak. Ehtimol, oliy hazratlari kovushining poshnasi boshqa hamma saroy amaldorlarinikidan bir drerr past ekanligini ham sezgandirsiz (drerr dyuymning o'n to'rt dan biriga teng).

Har ikkala partiya o'rtasidagi adovat va dushmanlik shu darajaga yetib boradiki, bir partiyaning a'zolari boshqa partiya a'zolari bilan birgalikda yemaydi ham, ichmaydi ham, gaplashmaydi ham. Tremeksenlar yoki Baland Poshnalar son jihatdan bizdan ancha ko'p deb hisoblaymiz, lekin hokimiyat butunlay o'z qo'limizda. Ammo xavfsirashga asosimiz bor, toj-taxt vorisi imperator oliy hazratlarining Baland Poshnalarga ancha moyilligi bor. Uning bir poshnasi sal baland, shu vajdan oliy hazratlari biroz oqsaydi.

Davlatimizni ana shunday nizolar qiynab turgan bir paytda, oliy hazratlarining imperiyasidek zo'r va qudratli Blefusku buyuk imperiyasi bizga hujum qilmoqchi. To'g'ri, siz dunyoning boshqa joylarida o'zingizga o'xshash ulkan odamlar yashaydigan davlat va qirolliklar borligini aytdingiz. Biroq, faylasuflarimiz bunga hech ishongilari kelmayapti. Ular sizni oy yoki qandaydir bir yulduzdan tushganingizga ko'proq ishonishadi. Sizday odamlardan yuztasi qisqa muddat ichida oliy hazratlari qo'li

ostidagi mamlakatning meva-cheva va hayvonlarini yeb qo'yishiga hech qanday shak-shubha yo'q. Bundan tashqari, bizda yilnoma bor. Yilnomada olti ming qamar yil vaqt ichida yuz bergan voqealar vasf qilingan, lekin unda Liliputiya va Blefusku singari buyuk imperiyadan boshqa hech qanaqa mamlakat haqida gap yuritilmaydi.

Mana, o'ttiz olti qamar yildan beri bu buyuk davlatlar o'zaro qattiq urush olib boradi. Bunga quyidagi voqea sababchi bo'lgan. Hammaga ma'lumki, qadim zamonlardan beri pishgan tuxumlarni poynak tomonidan sindirish rasm bo'lib qolgan. Nima bo'ladi-yu, hozirgi imperatorimizning bobosi hali go'dak paytida uning nonushtasiga pishgan tuxum berishadi: Bola tuxumni qadimiy odatga ko'ra sindirayotib, barmog'ini kesib oladi. O'shanda uning otasi – imperator o'z fuqarolariga, aks holda qattiq jazo berajagini eslatib, tuxumni uch tomonidan sindirish haqida farmon beradi.

Bu farmon aholining shunaqayam g'azabini qo'zg'atganki, yilnomalarda yozilishicha, yetti marta qo'zg'olon ko'tarilgan, natijada bir imperator o'lgan, boshqasi tojidan mahrum bo'lgan. Blefusku hukmdorlari bu qo'zg'olonlarni avj oldirishgan, qo'zg'olon qatnashchilarini o'z mamlakatlari-da yashirishgan. Tuxumni uchidan sindirishdan bosh tortganligi uchun o'n bir ming fanatik o'lim jazosiga hukm qilingan. Mana shu masalaga bag'ishlab, yuzlarcha tom kitoblar yozilgan. Biroq poynakchilar tarafdorlarining kitoblari allaqachonlar man etilgan, partiya esa davlat lavozimlarini egallashdan mahrum etilgan. Blefusku imperatorlari o'z elchilari orqali bizni bir necha bor ogohlantirishdi. Ular bizni cherkov sohasida parchalanishda, ulug' payg'ambarimiz Lyustrogning Blundekralning (bu asar liliputlarning Qur'oni) ellik to'rtinchi bobida bayon qilingan asosiy aqidalarini buzishda ayblashadi. Lekin ularning bu da'vosi aqlga sig'maydi. Aqidaning asl matnida: «Barcha xaqiqiy dindorlar tuxumni o'ziga qulay tomonidan sindiradilar» deyiladi. Tuxumning qaysi tomoni qulay – uch yoki poynak tomonimi – bu, menimcha, har bir dindorning o'z shaxsiy ishi. Hech bo'lmaganda bu masalani hal etishni imperatorning oliy sudiga oshirish mumkin.

Nima bo'lsa ham, surgun qilingan poynakchilar Blefusku imperiyasida ishonchli boshpana topishdi. Bora-bora ular imperatorga shunday ta'-

sir o'tkazishdiki, u bizning davlatimizga urush e'lon qilishgacha borib yetdi. Urush o'ttiz olti qamar yildan beri davom etmoqda, ammo bir-biriga dushman tomonlardan birontasi ham uzil-kesil g'alaba bilan maqtana olmaydi. Shu muddat ichida biz qirqta katta harbiy kema va o'ttiz ming eng yaxshi dengizchilari bilan juda ko'p mayda kemalarni yo'qotdik. Aytishlaricha, dushman bizdan ham ko'ra ko'proq talafot ko'rgan. Biroq, shunga qaramay, dushman yangi flotni shayladi, bizning territoriyamizga desant tushirishga hozirlik ko'rmoqda. Shuning uchun ham oliy hazratlari, sizning kuch va jasoringizga to'liq ishongan holda, mamlakatimizdagi haqiqiy ahvolni sizga bayon qilishni menga topshirdi».

Garchi men xorijiy kishi sifatida mahalliy partiyalar o'rtasidagi nizolarga aralashmasligim kerak bo'lsa-da, xalos bo'lishim va ozod etilishimda imperator oldida o'ta qarzdorligim vajidan, uning davlatini dushman hujumidan jonimni ayamay himoya qilishga tayyor ekanligimni imperator hazratlariga ma'lum qilib qo'yishini kotibdan o'tinib so'radim.

Savol va topshiriqlar

1. Jonatan Svift ijodi, u yashagan davr haqida nimalarni bilasiz?
2. J. Svift ijodining shakllanishida kimning yordami katta bo'ldi?
3. «Gulliverning sayohatlari» asarining to'liq nomini ayting. U necha qismdan iborat?
4. Liliputiya davlatidagi siyosiy hayotni tasvirlang. Asarda Liliputiya davlatidagi qaysi partiyalar haqida gap ketadi?
5. Liliputiya va Blefusku mamlakatlari o'rtasidagi ixtilofning sababi nimada?
6. Svift nima uchun asar voqealari kechgan mamlakatlarni to'qib chiqarishga majbur edi?
7. «Gulliverning sayohatlari» romani asosida yaratilgan badiiy film bilan romanning o'zi orasida qanday farqlarni ko'rdingiz?
8. Adabiyot daftaringizga romandagi eng qiziq holat va tasvirlarni qayd qilib boring. Masalan, «dor ustida mohirlik bilan raqs tushadiganlarni yuqori davlat lavozimlariga ko'tarish yoki ordenlar bilan taqdirlash» kabi.

KECHAGI KUN – SABOQ

Muhammad Aminxo‘ja
MUQIMIY
(1850 – 1903)



Milliy uyg‘onish davri adabiyotining zabardast vakillaridan biri Muhammad Aminxo‘ja Muqimiydir.

Shoir ijodini o‘rganish uning hayotlik chog‘idanoq boshlangan. Muqimiy vafotidan keyin shoirning devoni ilk bor «Devoni Muqimiy» (1907-yil) nomi bilan nashr etildi. Unda she‘riy namunalari qatori hassos shoirning qisqacha tarjimai holi va ijodi haqida ma‘lumot ham beriladi. 1910-yilda Portsev litografiyasida shoirning hajviy she‘rlari «Muqimiy maa hajviyot» nomi bilan nashr etildi, 1912-yilda esa Muqimiyning yana bir she‘riy to‘plami chop qilindi.

Shoir ijodini jiddiy va samarali o‘rganish o‘tgan asrning 30-yillarida boshlandi. Bu davrda Muqimiy asarlarini to‘plash, o‘rganish, nashr etish qizg‘in va samarali olib borildi. Gazeta va jurnallarda qator maqolalar e‘lon qilindi. Bu xayrli ishning boshida otaxon shoirimiz G‘afur G‘ulom turdi.

1998-yilda ulug‘ shoir G‘.G‘ulom tomonidan tuzilib «Muqimiy bayozi» deb nomlangan to‘plam katta ahamiyatga ega bo‘ldi. 1950-yilda Mosk-

vada Muqimiyning «Lirika i satira» nomli ikkinchi to'plami rus tilida nashr etildi.

1953-yil Muqimiy ijodini o'rganish tarixida yangi davr bo'ldi. Shu yili vafotining 50 yilligi munosabati bilan Muqimiy hayoti va ijodiga oid maxsus kitoblar chiqarildi, shoirning tanlangan asarlari o'zbek va rus tillarida nashr etildi.

H. Yoqubov, A. Olimjonov, H. Zaripov, H. Razzoqov, G'. Karimov kabi olimlar hassos shoir haqida kitoblar yozdilar, ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qildilar.

Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy 1850-yilda Qo'qon shahrida Bekvachcha mahallasida, novvoy oilasida tug'ildi.

Muqimiy dastlab o'z mahallasidagi mulla Abduxalil maktabida tahsil oladi. Shoirning ilm o'rganishi va badiiy ijodga erta qiziqishida uning volidasi, qobiliyatli ayol Oyshabibi aytib bergan ko'plab ertak va qo'shiqlarning ta'siri kuchli bo'ldi.

Muqimiy dastlab Qo'qondagi «Hokimoyim» madrasasida ta'lim oladi. 1872–73-yillarda Buxoroga borib, u yerdagi «Mehtar anbar» madrasasida o'qishni davom ettirdi. 1876-yilda o'qishni tamomlab Qo'qonga qaytadi, uylanadi. Shoir dastlab yer qurilishi mahkamasida mirzalik, so'ngra Sirdaryo yoqasida joylashgan Oqjardagi paromda pattachilik qiladi.

Muqimiy bu vazifani tark etib, Qo'qonga qaytadi. Moddiy muhtojlik Muqimiy oilasining buzilishiga olib keladi. Xotini o'g'lini onasiga tashlab, boshqa kishiga turmushga chiqadi. Shoir o'z ota hovlisini tark etib, shu mahallada joylashgan Hazrat madrasasidan bir hujra oladi. Shu «hujrai tang va torlikda bekaslik va g'ariblik chirog'ini yoqib» muhtojlikda umr o'tkazadi.

Muqimiy hayotini mutolaa va ijod qilishga bag'ishlaydi. Zamonasi-ning yetuk xattotlaridan bo'lgan Muhammad Yusuf Xattotdan ta'lim olib, xushxat bo'lib yetishgan Muqimiyga xattotlik asosiy kasb va tirikchilik manbai bo'lib xizmat qiladi.

Bu davrga kelib Muqimiy o'zining jo'shqin lirikasi va davrning hukmron ijtimoiy guruhlarini achchiq tanqid ostiga oluvchi hajviy asarlari, yumorlari bilan shuhrat qozonadi. O'z davri adabiy harakatining yetak-

chilaridan biriga aylanadi. Muqimiy Qo'qonda Furqat, Zavqiy, Nisbat, Muhayyir, G'aribiy, Nasimiy, Mavlaviy va boshqa shoirlardan tashkil topgan adabiy guruhga boshchilik qiladi.

1885–86-yillarda shoirning otasi Mirzaxo'ja vafot etadi. Oilani boqish shoir zimmasiga tushadi. Muqimiyning ahvoli yanada mushkullashadi. Shoir bu ahvoldan qutulish yo'llarini izlaydi. Shu sababdan bo'lsa kerak, 1887–88-yillarda Qo'qonni tark etib Toshkentga boradi. 1892-yilning boshlarida shoir ikkinchi marta Toshkentga boradi. Muqimiy Toshkent safari vaqtida qarindosh-urug'larini topadi, do'stlar orttiradi.

Muqimiy Toshkent safaridan keyin ham Farg'ona vodiysining shahar va qishloqlariga bir necha marta sayohat qiladi.

Muttasil davom etgan moddiy muhtojlik, kamsitish va ta'qiblar shoir sog'lig'iga ta'sir qilgan edi. 1898–99-yillarga kelib Muqimiy tez-tez kasalga chalinib, 4–5 oylab yotib qoladi va xastalik tufayli 1903-yilda, 53 yoshida, ayni ijodiy kamolotga yetgan paytda vafot etadi.

Muqimiydan boy ijodiy meros qolgan. Shoir, asosan, poeziya janrida ijod etgan bo'lsa-da, asarlari o'zining tematikasi va badiiy-g'oyaviy xususiyatlari jihatidan rang-barangdir. Muqimiydan bizgacha yetib kelgan merosning umumiy hajmi, hozircha, taxminan 10 ming misradan iboratdir.

Bolalar, bu hazilakam meros emas. Shu raqamlar ham shoirning barakali ijod qilganini ko'rsatadi. Ular lirik asarlar (g'azal, muxammas, murabba, masnaviy, ruboiy, tuyuq, fard), hajviyot (satira, yumor), «Sayohatnoma»lar, maktublar (she'riy va prozaik shakllar)dan tashkil topgan.

Muqimiy lirikaning g'azal, muxammas, murabba, masnaviy, ruboiy, tuyuq, fard kabi janrlarida barakali ijod qildi. Bu adabiy shakllarda qalam tebratib qolmay, uning takomiliga ham hissa qo'shdi.

Muqimiy ijodiy merosi haqida gapirar ekanmiz, shoirning o'z davrida muomalada bo'lgan barcha adabiy janrlarda qalam tebratgani ma'lum. Bolalar, agar yodingizda bo'lsa 5-sinfda hassos shoirning «Sayohatnoma»lari – yo'l xotiralarini batafsil o'rgangan edingiz. 6-sinfda Muqimiyning elga mashhur qilgan, uni o'tkir hajvgo'y sifatida tanitgan «Tanobchilar» satirik she'riy hikoyasi bilan yaqindan tanishamiz.

«Tanobchilar» satirik hikoyasi amaldorlar zulmiga yo‘liqqan dehqon arz-dodi bilan boshlanadi:

Bo‘ldi taajjub qiziq hangomalar,
Arz etayin emdi yozib nomalar.

O‘n iki oyda keladur bir tanob,
O‘zgalara rohat-u menga azob.

Bechora dehqon amaldorlar zulmi tufayli o‘z boshiga tushgan kulfat-azoblarni birma-bir hikoya qiladi. Asarda kambag‘al chorakor dehqon mehnatini suiiste‘mol qilgan, ularni aldab katta zararga tushirgan Sulton Ali va Hakimjon kabi hiylakor mahalliy amaldorlar qiyofasi shoir tomonidan o‘tkir, ta’sirchan misralarda fosh etiladi. Siz quyida tanishadigan «Tanobchilar» satirik hikoyasi ana shular haqida.

TANOBCHILAR

Bo‘ldi taajjub qiziq hangomalar,
Arz¹ etayin emdi yozib nomalar.

Adl qulog‘ila eshit holimi,
Zulm qilur, baski, menga zolimi.

O‘n iki oyda keladur bir tanob²,
O‘zgalara rohat-u menga azob.

Sulton Ali Xo‘ja, Hakimjon ikav,
Biri xotun, birisi bo‘ldi kuyav.

Ikkalasi bo‘ldi chunon ittifoq,
Go‘yo xayol aylaki, qilmay nifoq³.

¹ Adl – adolat.

² Tanob – arqon, o‘lchov birligi.

³ Nifoq – nizo, ikkiyuzlamalik.

Osh yesalar o'rtada sarson ilik,
Xo'ja – chirog' yog'i, Hakimjon – pilik.

Bir-birisiga solishurlar o'run,
Erta-yu kech o'pushub og'iz-burun.

Sallalari boshlarida oq savat,
Ko'rpacha tagda hamavaqt uch qavat.

Birlari mo'ltotinamo, hiylagar,
Birlaridur kunda pix-u¹ gavda xar².

Og'izlari maqtanib o'nbesh qarish,
Mayda suxan³, ezmachuruk, zanchalish.

Qaysiki qishloqqa tushar otidin,
Elni yig'ib, voqif etar zotidin.

Derki: «Ko'zunga hali kal jo'jaman,
Maxdumi a'zam⁴lik o'zim xo'jaman.

Bizga bobo hazrati Shohlig' mazor⁵,
Muxlisimiz mardumi ahli diyor.

Ham yana Erhubbi⁶ bo'lodur tag'o,
Ammamizning erlaridur Nurato⁷.

¹ **Kunda pix** – to'nkaday qo'pol.

² **Gavda xar** – eshak gavdali.

³ **Suxan** – so'z.

⁴ **Maxdumi A'zam** – mashhur avliyo Abdulqodir G'iloniyning unvoni.

⁵ **Shohlig' mazor** – Shohi Zinda maqbarasidagi azizlar ko'zda tutilmoqda.

⁶ **Erhubbi** – islomgacha bo'lgan davrdagi avliyo.

⁷ **Nurato** – hozirgi Nurotada o'tgan avliyo.

Bibi Ubayda¹ bo'ladur xolamiz,
Goh kelur erdi kichik bolamiz.

Xizr² otamlarga birodar erur,
Chimlig' azizlar³ menga dodar⁴ erur.

Garchiki men olim-u shayxi zamon,
Qirqingiza emdi beray bir qozon.

Manki tanobingg'a chiqibman kelib,
Xizmatimi yaxshi qilinglar bilib.

O't qo'yubon kuyduradurg'on o'zim,
Hokiming-u o'lduradurg'on o'zim.

Xoh tanobingni du chandon qilay,
Xoh karam birla boshingni silay».

Xo'ja so'zini munga bermay qaror,
Mardumi sahroyi⁵ bo'lur beqaror.

Derki Hakimjoni: – «Ayo oqsoqol,
Bizni topibsän magaramkim o'sol⁶?

Hozir etib to'rt nafar mardikor,
To'g'ri qil olding'a qilibon qator.



¹ **Bibi Ubayda** – avliyo ayoilardan.

² **Xizr** – Qur'onda nomi tilga olingan payg'ambar.

³ **Chimlig' azizlar** – Turkiston tomonlarda o'tgan avliyolar.

⁴ **Dodar** – ini, uka.

⁵ **Mardumi sahroyi** – qishloq odami.

⁶ **Bizni topibsän magaramkim o'sol?** – Bizni juda bechora odamlardan deb o'yladingmi?

Arqonimi yeringa sudrab chiqay,
Bachchataloq qishloqilarni uray.

Bir burayin mo'y labimni chiqib,
Tort tanobini jazosi siqib!

Yaxshilig'ingni fuqaro bilmagay,
Holi bular ko'zga bizi ilmagay.

Ikki tanobini qilay o'n tanob,
Yurtingizi kuydurub aylay xarob.

Xoh o'ling, xoh qoling, bachchag'ar»,
Debki, uzangiga ayog'in tirar.

Bir-biriga qishloq eli boqishib,
Goh u yon, goh bu yon chopishib.

Jam bo'lishib, aylayubon maslahat:
«Do'g'mag'a, – der, – bir nima berib jo'nat»¹.

Aqcha qo'lida iki-uch mo'ysafid,
Derki: «Bu nazringiz-u, bizlar murid».

Zulm bilan ellig-u yuzni olur,
Boz tanobini duchandon solur.

Tag'i bular yaxshi-yu, bizlar yomon,
El tamizidin² hazar et, alamon³...

So'zni, Muqimiy, kerak etmak tamom,
Mazzasi qolmas uzun o'lsa kalom.

¹ Do'g'mag'a, – der, – bir nima berib jo'nat misrasining mazmuni: Amaldorlarga biror narsa berib jo'natish lozim.

² Tamiz – toza, ulug', asl.

³ Alamon – xonavayron, xarob. Misraning umumiy ma'nosi: Elning toza zotlaridan ehtiyot lozim, ey xonavayron bo'lganlar.

Savol va topshiriqlar

1. Muqimiy hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz? Gapirib bering.
2. Muqimiy adabiy merosi qaysi janrlardan tashkil topgan? Ularning miqdori qancha misrani tashkil etadi?
3. Muqimiy ijodini tadqiq etdan olimlardan kimlarni bilasiz?
4. «Tanobchilar» asarida qanday voqealar hikoya qilinadi?
5. Asardagi amaldorlarning kirdikorlarini nimalarda ko'rasiz?
6. Asardan amaldorlarning hiylakorligi, maqtanchoqligi, «erta-yu kech og'iz-burun o'pishish»lari aks etgan misralarni sharhlang.
7. Tanobchi amaldorlar o'z nasl-nasablari bilan maqtanishlari zahirida qanday maqsad yotganini tushuntiring.
8. Ushbu bandlarni sharhlang:

Zulm birla ellig-u yuzni olur,
Boz tanobini duchandon solur.

Tag'i bular yaxshi-yu, bizlar yomon,
El tamizidin hazar et, alamon.

9. «Tanobchilar» satirik she'riy hikoyasidan olgan taassurotlaringizni yozma bayon qiling.



Abdulla
QAHHOR
(1907–1968)

Milliy o‘zbek nasrining zabardast vakillaridan biri yozuvchi Abdulla Qahhor 1907-yilning 17-sentabrida Qo‘qon shahridan uncha uzoq bo‘lmagan Asht qishlog‘ida dunyoga kelgan. Uning otasi usta Abduqahhor temirchilik bilan shug‘ullanardi. Ustaning oilasida garchi juda ko‘p farzand tug‘ilgan bo‘lsa-da, ular orasidan faqat Abdullajongina yashab qolib, qolgan bolalar go‘daklik chog‘laridayoq turli sabablarga ko‘ra nobud bo‘lishadi. Abdullajon tug‘ilgan davrini tasavvur qilar ekansiz, avvalgi darslarda o‘tgan G‘afur G‘ulom mavzusi, o‘sha ijodkor, ayniqsa, uning Shum bolasi taqdiri darrov yodingizga tushgan bo‘lsa, ajab emas. To‘g‘ri sezdingiz – Abdulla Qahhorning bolalik yillari ham boshqa tengdosh yozuvchi-shoirlarniki singari juda og‘ir kechgandi. Yana bir o‘zbek shoiri Hamid Olimjon o‘sha yillarni eslab:

Men bir qora kunda tug‘ildim,
Tug‘ildim-u, shu on bo‘g‘ildim, –

deyishi bejiz emas edi. Zero, o‘sha yillardagi Turkiston o‘lkasi nihoyatda og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma‘naviy tanglikni boshdan kechirardi. Abdulla Qahhor endigina yetti yoshga kirganida boshlangan Birinchi jahon urushi esa bu ahvolni yanada og‘irlashtirgandi.

Usta Abduqahhor tirikchilik uchun pul topish ilinjida Qo‘qon atro-

fidagi qishloq-kentlarga ustaxonasini ko'chirib borar, oila ham uning ortidan sarson-sargardon sudralib yurardi. Bir qishloqda yarim yil turilsa, boshqa birida ikki oyga yetar-yetmas temirchi usta qiladigan ishlarning tagi ko'rinib qolardi. Yana ko'ch-ko'ronni ko'tarib yo'lga chiqilar, qayerga borilsa, birovlarining uyi yoki tashlandiq hovlisida sig'indi bo'lib yashashga to'g'ri kelardi. Bularning bari Abdullajonning – bo'lg'uvsi yozuvchining ruhiyatiga, dunyoqarashi va xarakteriga ta'sir qilmasligi mumkin emas edi, albatta. Agar A.Qahhorning «Sarob» romani (uning 1937-yildagi 1-nashridan o'rin olgan temirchining o'g'li Sarimsoq tarixi), «O'tmishdan ertaklar» (yozuvchi bolaligi to'g'risida batafsil hikoya qilingan avtobiografik asar) qissasi, o'tmish hodisalari yoritilgan o'nlab hikoyalariga nazar solsak, bu ta'sirning qanchalar kuchli bo'lganini ko'ramiz. Mazkur asarlarida yozuvchi o'sha kunlarni quyuq bo'yoqlarda – xalq taqdiridagi eng og'ir kunlar sifatida tasvirlaydi.

Abdullajonning savodi o'sha qishloqlardagi eski maktablarda chiqqan bo'lsa-da, ota-onasi Qo'qonga ko'chib kelib, muqim o'rnashgandan keyingina u chinakam maktab ta'limini oladi. Avvaliga shahardagi sobiq xotin-qizlar gimnaziyasi o'rnida tashkil qilingan internatda, keyin esa (1922–1924-yillari) o'qituvchilar tayyorlanadigan texnikumda o'qiydi.

U yillari savodli, qo'lida qalami bor yosh kadrlarga talab nihoyatda katta edi. Shu tufayli ham A.Qahhor Turkiston o'lkasining markazi – Toshkentga keladi va «Qizil O'zbekiston» (hozirgi «O'zbekiston ovozi») gazetasiga adabiy xodim bo'lib ishga joylashadi. 1926–1930-yillar oralig'ida O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) ning pedagogika fakultetida o'qiydi. O'qib yurgan kezlari «Mush-tum» jurnalida, ko'plab gazetalarda uning o'nlab felyetonlari, hikoya va hajviyalari ketma-ket chop etiladi. Yozuvchi bu asarlar ostiga Norin shilpiq, Sarimsoq singari taxalluslar qo'yardi.

Yosh yozuvchi tez orada yirik janrlarga ham dadil qo'l uradi. Agar «Qishloq hukm ostida» nomli dastlabki qissasi 1932-yilda chop etilgan bo'lsa, 1934-yilda u «Sarob» deb atalgan yirik romanini yozib tugatadi. 1935–1939-yillar

oralig'ida adibning uchta «Hikoyalar» to'plami, 1937-yilning oxirida esa «Sarob» romani o'quvchilarga kitob shaklida taqdim etiladi.

1941–1945-yillarda bo'lib o'tgan Ikkinchi jahon urushi Abdulla Qahhor ijodida ham o'z izini qoldirmay qo'ymadi. O'sha yillari adib fashist gazzandalarini la'natlagan qator felyetonlar, urushda mardlik namunalarini ko'rsatayotgan o'zbek jangchilarini madh etgan maqolalar, urush ortida zahmatli mehnat qilayotgan qariyalar va ayollar to'g'risidagi o'nlab hikoyalari bitdi.

Urushdan keyin – 1949-yilda A. Qahhor qishloq xo'jaligini jamoalashtirish (kolxozlashtirish) mavzusi yoritilgan «Qo'shchinor» nomli romanini yozib, e'lon qiladi. Biroq matbuotda, Yozuvchilar uyushmasida va boshqa joylarda bildirilgan noo'rin tanqidiy gaplar tufayli bu asar jiddiy qayta ishlanadi va «Qo'shchinor chiroqlari» nomi bilan 1951-yilda boshqatdan chop etiladi.

Abdulla Qahhor milliy teatr san'atimiz rivojiga ham jiddiy hissa qo'shgan ijodkor sanaladi. Uning «Shohi so'zana» (1951-y.), «Og'riq tishlar» (1954-y.), «Tobutdan tovush» (1962-y.), «Ayajonlarim» (1967-y.) singari komediyalari o'z davri tomoshabinlarining sevimli asarlariga aylangan edi. Xuddi shuningdek, adibning «Sinchalak», «O'tmishdan ertaklar», «Muhabbat», «Zilzila» (tugallanmagan) qissalari zamonaviy qissachilik rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Abdulla Qahhorning qator hikoyalari, hajviy asarlari, «Sinchalak» qissasi, «Qo'shchinor chiroqlari» romani asosida telespektakllar, video va badiiy filmlar suratga olingan.

Abdulla Qahhor 1968-yilning 25-may kuni vafot etdi va Toshkentdagi Chig'atoy qabristoniga dafn qilindi. Poytaxtimizda adib yashab ijod etgan maskan bugungi kunda «Abdulla Qahhor uy-muzeyi»ga aylantirilgan.

O'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun Abdulla Qahhor «O'zbekiston xalq yozuvchisi» unvoniga, mustaqillik davrida esa «Buyuk xizmatlari uchun» ordeniga munosib topilgan.

BEMOR*(hikoya)*«Osmon yiroq, yer qattiq» *(Maqol)*

Sotiboldining xotini og‘rib qoldi. Sotiboldi kasalni o‘qitdi – bo‘lmadi, tabibga ko‘rsatdi. Tabib qon oldi. Betobning ko‘zi tinib, boshi aylanadigan bo‘lib qoldi. Baxshi o‘qidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so‘yib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo‘ladi. Bunday vaqtlarda yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktorxonona bor. Bu doktorxonona to‘g‘risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko‘milgan baland va chiroyli imorat; shisha qabzali kulrang eshigida qo‘ng‘iroq tugmasi bor. Chigit po‘choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo‘jayini Abdug‘aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o‘ladigan bo‘lganida bu doktorxonaga bormay Simga ketgan edi. Doktorxonona deganda Sotiboldining ko‘z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so‘mlik pul kelar edi.

Bemor og‘irlashdi. Sotiboldi xo‘jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abdug‘aniboy uning so‘zini eshitib ko‘p afsuslandi, qo‘lidan kelsa hozir uning xotini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so‘radi:

– Devonai Bahouddinga hech narsa ko‘tardingmi? G‘avsula‘zamga-chi?

Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo‘ldi – har xil savatchalar to‘qishni o‘rgandi. U ertadan kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichida ko‘milib savat to‘qirdi. To‘rt yashar qizchasi qo‘liga ro‘molcha olib, onasining yuzini karaxt, xira pashshalardan qo‘riydi; ba‘zan qo‘lida ro‘molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hammayoq jim. Faqat pashsha g‘ing‘illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshutiladi: «Hey do‘st, shaydullo, ba nomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo...»

Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi. Qo‘shnisi – bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to‘zigan sochlarini tuzatdi, u yoqbu yog‘ini siladi, so‘ngra... o‘tirib yig‘ladi.

– Begunoh go‘dakning saharda qilgan duosi ijobat bo‘ladi, uyg‘oting qizingizni! – dedi.

Bola anchagacha uyqu g‘ashligi bilan yig‘ladi, keyin otasining g‘azabidan, onasining ahvolidan qo‘rqib, kampir o‘rgatganicha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Bemor kundan-kun battar, oxiri o‘sal bo‘ldi. «Ko‘ngilga armon bo‘lmasin» deb, «chilyosin» ham qildirishga to‘g‘ri keldi. Sotiboldi to‘qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yigirma tanga qarz ko‘tardi. «Chilyosin»dan bemor tetik chiqqanday bo‘ldi; shu kechasi hatto ko‘zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

– Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg‘otmang.

Yana ko‘zini yumdi, shu yumgancha qaytib ochmadi – saharga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o‘lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda, qizcha uyg‘ondi va ko‘zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

(1936-yil)

Mana, anchagina hazin hikoyani ham o‘qidik. Harqalay, hayotdan erta ko‘z yumgan onaga, uning eri Sotiboldiga, murg‘ak qiziga yuragingiz achigan bo‘lsa kerak? Shu achinish barobarida o‘nlab savollar Sizga tinchlik bermayotgandir ham:

Nega shunday bo‘ldi?

Sotiboldining xotini o‘zi nima kasal bilan og‘rigan edi?

Nahotki, bu kasalning davosi bo‘lmasa?

Nega Sotiboldi xotini ko‘rsatgani do‘xtirga olib bormadi?

Bu qanaqa tabibki, ayolning qanday kasal bilan og‘riganini aniq bilmay turib, undan qon oladi?

Baxshi kelib, kasal xotinning ustida nimalarni o‘qidi? Nega o‘qidi?

Axir kasal xotinni, kelib-kelib, tolning xipchini bilan savalashadimi?

Tovuq so‘yib, qonini oqizish bilan ayolga tekkan dardning o‘rtasida nima aloqa bor?

Sotiboldining xo‘jayini Abdug‘aniboy qanaqa odam o‘zi? Imkoniyati bo‘la turib, nimaga bir insonga yordam bermadi?..

Bunday savollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Zamonni qarangi. Kichik bir hikovaga io bo'lgan birgina havot man-

lay band qilib olgan, millat «tanasidan qon oldirgan bemor» (Hamza Hakimzoda Niyoziy iborasi) holiga tushgan edi.

Hikoyaning mazmun-mohiyati, ta'sir kuchi hali bu bilan ham tugamaydi. O'layotgan xotini uchun biror najot yo'lini topa olmagan Sotiboldi qo'shni kampirning maslahati bilan endi to'rt yashar qizchasining saharlab turib, uyqusiragan holda qiladigan duosiga umidvor bo'ladi. Qarang, butun boshli jamiyat bor – doktorxona bor, tabib bor, baxshi bor, qo'lida pul o'ynagan boylar bor, har qanday mehnat bo'lsa qilishga rozi Sotiboldi bor...biroq najot yo'q! Bor-yo'q umid – shu to'rt yasharlik qizaloqning ojiz duosi.

Demak...

Demak, BEMOR faqat Sotiboldining xotini emas ekan-da! Butun jamiyat bemor – xasta, najotga zor, tuzalishga muhtoj ekan-da!

Xuddi shu haqiqatni teran anglaganlari tufayli ham Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Avloniy singari bizning yuzlab jadid bobolarimiz el-u yurt dardini yengillatish, uni ma'rifatga oshno etish, ilm-u madaniyatini yuksaltirish, oxir-oqibat mamlakatni istiqloqlga olib chiqish uchun kurashdilar, shu yo'lda qurbon bo'ldilar.

Abdulla Qahhorning bor-yo'g'i bir sahifaga jo bo'lgan hikoyasi Siz bilan bizni shuncha mulohazaga oshno etdi. Holbuki, bu mulohazalarni yana davom ettirish, hikoya mazmun-mohiyatiga yanada chuqurroq kirib borish ham mumkin. Bu bilan esa yozuvchining badiiy olami sirlari ko'z oldimizda yaqqol namoyon bo'ladi. Adibning mo'jaz hikoyalar bag'riga olam-olam mazmun sig'dira bilish, har bir so'z, jumla ustiga chuqur fikr yuklash mahoratiga tan beramiz.

Quyida berilayotgan savol-topshiriqlar orqali Siz mana shu mahoratni o'zingiz uchun kashf etishga harakat qilasiz, degan umiddamiz.

Savol va topshiriqlar

1. Abdulla Qahhor hayoti va ijodiga xos bo'lgan asosiy jihatlarni esda saqlab qolishga urining.
2. «Bemor» hikoyasi orqali yozuvchi aks ettirgan hayot haqiqati nimalardan iborat edi?
3. Sotiboldi shahardagi yakka-yu yagona doktorxona ichiga kirganmi-kirmaganmi? Qayerdan bildingiz?

4. Sotiboldining xo'jayini Abdug'aniboy nega shu kasalxonada emas, Simdagi kasalxonada davolanganini o'ylab ko'ring-chi.
5. Sotiboldining «to'rt yashar qizchasi qo'liga ro'molcha olib, onasining yuzini karaxt, xira pashshalardan» qo'rishi hikoyaning umumiy ruhiga mos ekanini isbotlang.
6. Bemor yotgan xonadonga boshqa tovush emas, aynan gadolarning tovushi eshutilishi bilan nimaga urg'u berilyapti?
7. Bemorga qaragani chiqqan qo'shni kampirning o'tirib yig'lashiga sabab nima?
8. Kasal odamga «chilyosin» qildirish nima ekanini uyingizdagi kattalardan yaxshilab bilib oling.
9. «Chilyosindan bemor tetik chiqqanday» bo'lishi bilan shamning yonib tugashi o'rtasida qanday o'xshashlik ko'rasiz?
10. «Bemor» hikoyasi to'g'risida uy inshosi yozib, sinfda o'qib bering.

Nazariy ma'lumot

BADIIY ASAR TILI

Til bilan bog'liq uchta tushunchani aralashtirib yubormaslik, ularni o'zaro farqlash lozim. Bular:

1. Umumxalq tili (milliy til).
2. Adabiy til.
3. Badiiy til.

Umumxalq tili (milliy til) deganda yurtimizdagi o'zbek tilida so'zlashuvchilarning barchasi – ularning yashash hududi, qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligi, hayotda bajarayotgan mashg'ulot turi va boshqalaridan qat'i nazar, foydalanadigan til tushuniladi.

Adabiy til deganda umumxalq tilining leksik, grammatik, imlo va talaffuz jihatdan me'yorlashtirilgan shaklini tushunamiz.

Badiiy til esa, bir tomondan, umumxalq tili va adabiy tilga tayanadigan, boshqa jihatdan esa ularning har ikkisidan farqlanib turadigan alohida san'at hodisasidir. Badiiy tilning mavjudligi ijodkor shoir-yozuvchilar faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu ma'noda badiiy til o'z zamirida milliy adabiyotimizning asrlar osha shakllanib kelgan an'alarini (an'anaviy sifatlashlar, ramz va majozlar, o'xshatish va boshqalarni) saqlab

qolgan. Ayni paytda har bir iste'dodli ijodkor badiiy til imkoniyatlari doirasini kengaytirishi, bu tilning yanada joziba kashf etishini ta'minlashi mumkin. Bu jarayonda adabiy til qonun-qoidalaridan chekinishga, umum-xalq tili boylıklariga dadil murojaat qilishga to'g'ri keladi. Siz bu narsaga kelgusi darslarda o'rganiladigan qator asarlar, jumladan, «Qisasi Rabb'uziy», Gulxaniyning «Zarbulmasal», Tog'ay Murodning «Yulduzlar mangu yonadi» asarlari mutolaasida yana bir bor guvoh bo'lasiz.

Modomiki, adabiyot insonni, uning shakl-u shamoyilini, o'ta murakkab ruhiy olamini tasvirlar ekan, bunda o'sha obyekt – insonga yondashuv turli usullarni talab qiladi. Chunki dunyoda bir-birini har jihatdan to'liq takrorlaydigan ikki kishini hech qachon topib bo'lmaydi. Demak, har bir qahramon o'ziga o'zgacha yondashuvni talab qiladi, har birining yuragi alohida kalit bilan «ochiladi». Bu kalit – uning kayfiyati, fe'l-atvori, nutqi, axloqi, dunyoqarashi singari o'nlab unsurlarning betakror tasviri tufayligina ishga tushadi. Shundagina o'quvchi ko'z oldida qahramon xuddi tirikdek harakat qiladi, gapiradi, kuladi, o'ylanadi, iztirob chekadi, shodlanadi va ... o'ladi. Qahramonning har bir harakati o'quvchiga ham «yuqadi», uni o'z olamiga «olib kirib ketadi». Demak, qahramon o'quvchini o'ziga ishontirishi uchun xuddi uningdek jonli so'zlashishi, fikrlashi lozim ekan, yozuvchi xalq tilidagi shevaga xos so'zlardan ham; agar qahramon tarixiy shaxs obrazi bo'lsa, qadimiy yoki unutilgan so'zlardan ham; hatto bir guruh odamlargina tushunadigan jargonlardan ham foydalanishiga to'g'ri keladi. Qahramonning ruhiy holatlarini ifodalash uchun esa dialoglarning turli shakllari, hatto sukut holati ham «ishga solinadi».

Agar e'tibor bersak, kundalik so'zlashuvimizda ishlatiladigan til ham, badiiy til ham, oxir-oqibat, axborot yetkazish va axborot olishga xizmat qiladi. So'zlashuv tili yetkazayotgan axborot oddiy axborot bo'lsa, badiiy til badiiy axborotni yetkazadi, ijodkor va o'quvchi orasida badiiy muloqotning vujudga kelishini ta'minlaydi. Abdulla Qahhor o'zining mo'jazzgina «Bemor» hikoyasi orqali biz bilan o'tkazgan badiiy muloqoti o'zining ta'sir kuchini o'n yillar davomida saqlab qolishi badiiy til naqadar qudratli hodisa ekanining yaqqol isbotidir.

Chingiz AYTMATOV

(1928-yilda tug‘ilgan)



Hozirgi zamon jahon adabiyotining yirik vakili, qardosh qirg‘iz xalqining yuksak iste‘dodli farzandi Chingiz Aytmatov 1928-yilning 12-dekabrda Qirg‘izistonning Talas vodiysida joylashgan Shakar qishlog‘ida tavallud topgan. Bolaligidan uning boshiga hayotning shafqatsiz zarbasi tushadi. Otasi To‘raqul Aytmatov sho‘ro davrida o‘tkazilgan mash‘um qatag‘on qurboni bo‘ladi (1937-yil).

Aziz o‘quvchi, endi Siz, albatta, bilishingiz kerak bo‘lgan bir tarixiy haqiqatga biroz to‘xtalib o‘tamiz. Chunki «sho‘ro (sovet) davri», «qatag‘on», «qizil imperiya» degan so‘zlarni eshitgansiz-u, biroq ularning mazmun-mohiyatini to‘la anglamagan bo‘lishingiz mumkin. Busiz esa adabiyot darsligingizga kirgan juda ko‘p asarlarni ham, ularning yozilish tarixi va mualliflari qismatini ham to‘la tushunish qiyin bo‘ladi.

O‘tgan asrning boshlarida – 1917-yilda Yer yuzining oltidan bir qismini egallagan Rossiya imperiyasida davlat to‘ntarishi yuz berdi. Bu zo‘ravonlikni o‘zlarini «sovetlar» (sho‘ro), «bolsheviklar» deb atagan, savodsiz aholining bir qismini turli va‘dalar berish orqali aldab, o‘z tomoniga og‘dirishga erishgan Vladimir Ulyanov (laqabi Lenin) boshchiligidagi kimsalar amalga oshiradilar. Ular odamlarni «boylar» va «kambag‘allar» deya guruhlarga ajratib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadilar va oraga keskin nizolar solishadi. Shu tariqa uzoq (1918–1930-yillar) davom etgan birodarkushlik urushiga sababchi bo‘ladilar. Bundan

tashqari sho'rolar hukumati davlatni to'la qo'lga kiritib, unga SSSR deb nom berishgach (1922-yilda), o'z hokimiyatlarini saqlab qolish ilinjida mustaqil fikrga ega, erkparvar kishilarni doimiy ta'qib ostiga oladilar. Ko'plab millatlarning millionlab asl farzandlarini ommaviy qirg'in qilishni uzoq yillar (1991-yilda SSSR tarkibidagi aksariyat milliy respublikalar o'z mustaqilliklariga erishgunga qadar) davom ettirib, haqiqiy qatli om – qatag'onni amalga oshiradilar. Bu yovuz siyosat bizning xalqimiz boshiga ham og'ir kulfatlarni solgan. Agar poytaxtimiz Toshkentning «Shahidlar xotirasi maydoni»dagi «Qatag'on qurbonlari» muzeyiga borsangiz, bu ko'rgiliklar to'g'risida batafsil bilib olasiz.

Demak, Chingiz Aytmatovning davlat idoralarida xizmat qilgan otasini ham mana shu qatag'on olovi o'z domiga tortib ketgan edi. Bu ayriliq alami yosh Chingizni hayotga chuqur mushohada bilan qarashga, o'z galar dardi bilan yashashga o'rgatadi. Qolaversa, hozirga qadar yaratgan deyarli barcha asarlarida yozuvchi mana shu dardni – insoniyat boshiga tushgan alamli kunlarni badiiy qayta jonlantirgan.

Ch. Aytmatov avval Qirg'iziston qishloq xo'jaligi institutida, 1956–1958-yillarda esa Moskvadagi Oliy Adabiyot kursida tahsil oldi. Uning ona tili qirg'izcha bilan rus tilida ham birdek ijod qila olishi asarlarining erta e'tiborga tushishiga turtki bo'ldi. Agar yozuvchi o'zining dastlabki hikoyalarini 1950-yillarda yoza boshlagan bo'lsa, 1957-yilda e'lon qilingan «Yuzma-yuz» nomli qissasi adabiyot ixlosmandlarining jiddiy e'tiborini tortdi. Shundan so'ng adibning «Jamila», «Sarvqomat dilbarim», «Momo yer», «Somon yo'li», «Alvido, ey Gulsari» nomli qissalari ketma-ket chop etildi va butun dunyoda juda katta qiziqish bilan kutib olindi. 1970-yilda yozilgan «Oq kema» qissasidagi achchiq insoniy taqdirlar talqini, 1977-yilda yaratilgan «Dengiz yoqalab chopayotgan olapar» qissasida esa sho'ro davlatining ayanchli tarixi yaxlit holda ochib berilgani adabiyot olamida jiddiy yangilik bo'ldi.

Hikoya va qissalar yozish orqali katta ijodiy tajriba to'plagan Ch. Aytmatov 1980-yilda o'zining dastlabki romani «Asrga tatigulik kun»ni, 1986-yilda «Qiyomat», 1990-yilda esa «Kassandra tamg'asi» nomli romanlarini

e'lon qildi. Bu asarlarida yozuvchi endi bir mamlakat, bir xalq qismati haqidagina emas, balki butun insoniyat taqdiri to'g'risida kuyinib yozdi.

Tabiiyki, Siz bilan bizda ayni romanlarning barchasiga, ularda aks ettirilgan hodisalar talqiniga batafsil to'xtalish imkoniyati yo'q. Biroq, tomchida quyosh aks etganidek, yozuvchining «Qiyomat» romanidan olingan kichik bir parcha orqali adib ijodining muhim qirralari haqida bilib olishimiz mumkin.

OLTOVLON VA YETTINCHI

(«Qiyomat» romanidan)

Bu lavha «Oltovlon va yettinchi» deb nomlangan hikoya bo'lib, undagi hodisalar o'tgan asrning 20-yillarida, sho'rolar hukumati aybi bilan birodarkushlik urushi olovida qolgan Gruziyaning tog'li hududlarida bo'lib o'tadi.

Hamma xalqlar singari gruzin xalqi ham bir bosqinchi – Rossiya imperiyasidan qutulib, ikkinchi bir bosqinchi – sho'rolar hukumatiga tobe bo'lishni xohlamas edi. Biroq, ayyor sho'rolar kuchli targ'ibot bilan xalqni ikkiga ajratib tashlagan, biz – o'zbeklar iborasi bilan aytganda, «boltaning sopini o'zidan chiqargan edi». Bir tomonda yangi hukumatning puch va'dalariga ishonib, unga xizmat qilayotgan gruzin Sandro bo'lsa, ikkinchi tomonda boshqa bir gruzin o'g'loni, yilqiboqar Guram Jo'xadze boshliq chin yurtparvar yigitlar. Eng yomoni shundaki, Sandro sho'rolar o'tkazgan qatag'on siyosatining ijrochisi bo'lgan CHK (chrezvichaynaya komissiya – favqulodda komissiya)ning a'zosi (chekist) hisoblanib, u Guram Jo'xadze otryadiga pinhona kirib olgan. Jo'xadze va uning yigitlari o'zlariga dushman tomonning odami bo'lgan Sandroning asl niyatini bilmaydilar.

Kunlarning birida Sandro Guram Jo'xadze to'dasini chekistlar qo'ygan pistirmaga ustalik bilan ro'para qiladi. Qattiq olishuvdan keyin Jo'xadze besh yigiti bilan pistirmanini yorib chiqishga erishadi, qolgan yigitlari qurbon bo'ladi. Niyatiga yetolmagan, sho'rolar topshirig'ini oxirigacha ba-

jarolmagan Sandro ham darhol yettinchi sifatida yana to'daga qo'shilib oladi.

Guram Jo'xadze boshliq yigitlar kun kech bo'layotganda qo'shni Turkiya chegarasiga yaqin xilvat o'rmonda to'xtaydilar.

«Shom tushganda oltovlon va yettinchi bir joyga to'plandilar. O'rmonning chekka yoqasida o't yoqdilar, yerga qalin dasturxon to'shab, unga Guram Jo'xadzening sodiq odamlari berib yuborgan non, tuz, vino va boshqa taomlarni qo'ydilar. Gulxan alangasi osmonga o'rladi. Yettovlon o'tga yaqinroq keldilar.

– Hamma otlar egarlandimi? Hamma do'stlar uzangiga oyoq qo'yishga shaymi? – so'radi Guram Jo'xadze.

Hamma tasdiqlab bosh silkidi.

– Hey, Sandro, – dedi Guram Jo'xadze, – yaxshi o'tin yig'ib kelibsan, nega o'tinlaringni gulxandan uzoqqa qo'yding?

– Tashvish qilma, Guram, bu mening ishim, gulxanga men qarab turaman. Sen aytaringni ayt.

Shunda Guram Jo'xadze aytdi:

– Birodarlarim! Biz ishimizni boy berib qo'ydik. Ikki taraf urushganda kimdir yengib chiqadi. Boshqasi mag'lub bo'ladi. Urush degani shu. Biz qon to'kdik. Bizning qonimizni to'kishdi. U tarafdand ham, bu tarafdand ham ko'p asl o'g'lonlarning boshlari ketdi. Bo'lganicha bo'ldi. Halok bo'lgan do'stlarimdan va g'animlarimdan uzr-ma'zur so'rayman. Jangda o'lgan g'anim – g'anim emas. Oyog'im uzangida turganda ham, bari bir men halok bo'lganlardan kechirim so'rar edim. Lekin qismat bizdan yuzini o'girdi. Shuning uchun ham xalqning ko'pchiligi bizga ishonmay qo'ydi. Hatto bizni yo'rgaklab voyaga yetkazgan jonajon yerimiz ham bizni sig'dirmayapti. Bizga joy yo'q bu yerda. Bizga afv ham yo'q. Xudo shohid, agar men g'alaba qilsam, dushmanlarni omon qo'ymasdim. Bizga birdan-bir yo'l qoldi. Boshimizni olib begona yurtlarga ketamiz... Biz yetti kishi qolibmiz. Ko'p o'tmay hammamiz har yoqqa, begona yurtlarga tarqalib ketamiz. Peshonada borini ko'ramiz. Boshqa hech qachon ko'rishmaymiz. Bir-birimizni oxirgi marta ko'rib turibmiz. Oxirgi marta bir-birimizning so'zlarimizni eshityapmiz. Kelinglar, bir-



birimiz bilan xayrlashaylik, ona-Yerimiz bilan xayrlashaylik, gruzinning non-tuzi bilan xayrlashaylik, vinosi bilan xayrlashaylik. Bunday vino boshqa hech yerda yo‘q. Vidolashgach, har kim o‘z yo‘liga ketadi. Biz o‘zimiz bilan tariqcha narsa olganimiz yo‘q. Vatanni olib ketib bo‘lmaydi. Faqat sog‘inch va armonlarimizni olib ketamiz. Agar Vatanni xurjun kabi olib yurish va tashib ketish mumkin bo‘lganda, u sariq chaqaga ham arzimadi. Kelinglar, yo‘limiz oldidan ichaylik, yo‘l oldidan qo‘shiqalarimizni aytaylik...

Yettovlonning, to‘g‘rirog‘i, oltovlon va yettinchining xayrlashuv qo‘shig‘i ana shunday boshlandi. Biroq yettinchi o‘z zimmasidagi topshiriqni bir zum bo‘lsin unutmasdi. Ularning hech qaysilari va ayniqsa, Guram Jo‘xadze o‘z jazosini olmasdan chet ellarga chiqib ketmasligi kerak edi. Chekist bunga aslo yo‘l qo‘yolmasdi. Shunday buyruq olgandi. U buyruqni bajarishi kerak edi.

Qo‘shiqqa yangi qo‘shiq ulanar, vino ichilar va ichilgan sayin yana ko‘proq ichilgisi kelar, yurak ham shunga monand alanga olib yonar, yongan sayin yana mayga tashna bo‘lar, yana qo‘shiq toshardi.

Ular davra yasab turishar, ba‘zan qo‘llarini bir-birlarining yelkalariga tashlashar, ba‘zan qamchiday yerga solintirishar, ba‘zan esa, bilib bo‘lmas va ko‘rib bo‘lmas, lekin har narsani biluvchi va har nimani ko‘ruvchi ilohiy qudrat eshitsin debmi, qo‘llarini osmonga ko‘tarar edilar. Agar Yaratgan hammasini ko‘rib turgan va bilib turgan bo‘lsa, nega unda ularni o‘z ona-Yerlaridan quvg‘in qilmoqda, bu qanday bo‘ldi axir? Nega axir bunday, nega axir odamlar bir-birlari bilan urushadilar, qon to‘kadilar, ko‘zyoshlarni daryo qilib oqizadilar, hammalari o‘zlarini haq, boshqalarni nohaq deb hisoblaydilar, qani axir haqiqat, kim haqiqatni aytadi, kim? Qani ularni adolat bilan ajrim qiluvchi nabiy?..

Xalq xotirasida saqlanib qolgan o‘sha qadim qo‘shiqlarda olis-olis zamonlarda ro‘y berib o‘tgan azob-uqubatlar, yaxshilik va yomonliklarning azaliy tajribalari, ularga ota-bobolarning bag‘ishlagan ma‘nolari, ular orqali his qilingan go‘zallik va abadiyat aks etmasmidi, shular haqida emasmidi o‘sha qo‘shiqlar? Shuning uchun yettovlon bir qo‘shiq tugat-tugamas boshqasini ulab yuborar va qo‘shiqlarning halqasi sira uzilmasdi. Faqat

Sandrogina vaqt-vaqti bilan davradan chiqib, o‘tin keltirib, yana gulxanga qalardi. Bekorga u shuncha quruq o‘tin yig‘magan ekan o‘rmonda (hayotda har bir narsaning o‘z bahonai sababi bo‘ladi), mana endi, olovga o‘zi zo‘r berib o‘tiribdi. Qo‘shiqlarni ham u barcha qatori chin yurakdan aytar – axir qo‘shiq hammaga bab-baravar tegishli emasmi? Boshqalar aytishi man etilgan, faqat podshohlarning o‘zlari aytadigan qo‘shiqlar yo‘q. Qo‘shiq ayt, quvna, yayra, dard chek va yig‘la, o‘ynab qol bu tiriklik ayvonida...

Kimni titrab-qaltirab kutgan eding, kim seni tashlab ketdi, qanchalar o‘rtanding, kuyding, seni tushunmadilar, bundan ko‘ra o‘lganim yaxshiydi deding, o‘lim oldida aytgan so‘nggi qo‘shig‘ingni u eshitishini orzu qilding, onang qanchalar erkalardi seni go‘dakligingda, dov va tanti otangning boshi qaylarda qoldi, qanday jang qilishardi jasur do‘stlaring, qaysi xudolarga ocharding beg‘araz va pok dilingni, o‘ylaganmiding hech odam nega tug‘iladi-yu, nega o‘ladi va nega o‘lim doim sen bilan birga, sendan nari jilmaydi va o‘lgandan so‘ng o‘lim yo‘q, lekin hayot o‘limdan yuqori, dunyoda hayotdan ko‘ra yuqori o‘lchov yo‘q – shuning uchun tirik jonni mahv etma, lekin elingga yov bostirib kelsa, darhol himoyaga otlar, sevganingni nomusini asra xuddi ona-Yerni yotlardan asraganday; ayriliqni hech totib ko‘rganmisan, bilasanmi ayriliqning dushvorligini, xuddi yelkangga cho‘ng tog‘larning yuklari ortilganday; suyganing bo‘lmasa, hech narsa ko‘zlaringni quvontirmaydi: na gullar, na nurlar va na kelajak kunlar – ana nimalar kuylanmaydi qo‘shiqda, aytib ado qilib bo‘larmidi barini...

Oxirgi qo‘shiqni aytamiz deyishdi, keyin yana va undan keyin yana xayrlashuv oldidan aytaylik deyishdi, hech tinchiydigan emas, yana davraga turishdi, boshlarini quyi egib, qo‘shiq boshlashdi – ohang go‘yo yer ostidan kelayotganday o‘ychan va qudratli yangrab borardi. Garchi gulxan alanga olib yonayotgan bo‘lsa ham, Sandro yana o‘tin keltirgani orqaga o‘tdi. Buni u aniq hisobga olgan edi – chetdan u olov atrofida qur tashlagan, ko‘zlari o‘tdan yoshlanib qo‘shiq aytayotgan oltovlonning har birini aniq-taniq ko‘rib turar, uni esa hech kim ko‘rmasdi... Og‘ir mauzer allaqachon shay edi. Qasos pallasini yetgandi. Ko‘p o‘qli tezotar mauzerni ikkinchi qo‘li ustiga qo‘ydi. Birinchi o‘q bilan qo‘r yigitlar boshlig‘i Guram

Jo'xadzeni qulatdi. Topponcha ovozi tun qo'ynida momaqaldiraqdek gumburlab ketdi va shu zahoti, yigitlar bo'g'zidan hali qo'shiq so'zlari uzilmayoq boshqa beshovini ham ketma-ket otib yiqitdi. Ular nima ro'y berganini hatto anglolmay qoldilar. Shunday qilib, o'lim charxi yana bir sharmandali aylandi. To'kilgan qonlar uchun yana qonlar to'kildi.

Shunday. Inson munosabatlarining qonunlari aljabr hisob-kitoblariga bo'ysunmaydilar. Zamin esa qonli fojialarning kajavasi kabi do'naveradi...

Nahot, axir, bu kajava to oxir zamon bo'lguncha, Yer oftob atrofida kezib charchaguncha evriladi, nahot aylanaveradi qonli charx?

O'qlar mo'ljalga aniq urildi. Faqat bir odam titragancha qo'lga tiralib turmoqchi bo'ldi. Sandro sakrab-sakrab borib, uning chakkasidan o'q qo'ydi... Otlar qo'rqib orqaga tisarildilar va so'ng jilovlangan yerlarida qotib qoldilar...

Gulxan yonib bitmagandi. Daryo vag'illardi, o'rmon va tog'lar bari o'z joyida edi, oy yuksaklarda sokin kezardi hech narsa yuz bermaganday, yolg'iz uzoq davom etgan taronagina uzildi, uzildi...

Sandroning basharasi tun shu'lasida bo'zday oqarib ko'rinardi. U hars-hars nafas olar, o'pkasiga havo yetmasdi. U meshni shart ko'tardi-da, tagida qolgan vinoni to'kib-sochib yutoqib icha boshladi, u ichida yonayotgan olovni bosmoqchi bo'lardi... Keyin sal o'ziga keldi, gulxan atrofida yotgan o'liklarni xotirjam aylanib chiqdi. So'ng o'lganlarning qurollarini oldi, ularni egarlarning boshlariga osib qo'ydi. Otlarni jilov, no'xtalaridan batamom bo'shatdi, ularni erkinlikka qo'yib yubordi. Hamma otlarni, jumladan, o'z to'rig'ini ham bo'shatdi... Otlar erkinlikni sezgach, tog'dan pastga, odamlar qo'nalg'asi tomon turnaqator tizilishib tushib keta boshladilar. Axir otlar doim odamlar yashaydigan tomonga qarab yuradilar... Ularning ortlaridan birpas qarab turdi... Lekin mana, taqalarning ovozlari ham eshitilmay qoldi, pastda oyning tutab yotgan beqaror shu'lalari qo'ynida qator tizilib borayotgan otlarning sharpalari ham ko'zdan g'oyib bo'ldi...

Hammasi tugadi. Sandro yana bir marta yerda ag'anab yotgan oltovlon atrofidan aylanib chiqdi-da, sal chekkaroqqa o'tdi. Mauzerning og'zini chakkasiga tiradi. Tog'larda yana bir o'q ovozi sadolandi. Bu yettinchi edi. U ham o'z qo'shig'ini aytib bitirgandi...»

Mana, yana bir mungli hikoyani tingladik. Har qalay, undan Sizning murg'ak ko'nglingiz ham larzaga tushgan bo'lsa kerak. Ayni fojining kelib chiqish sabablari, uning aybdorlari to'g'risida ham o'ylay boshlagandirsiz. Qolaversa, oltovlon va yettinchi to'g'risidagi qissa faqat adabiy to'qima, yozuvchi xayolotining mahsuligina emasligini sezayotgandirsiz. Bu voqealarni qachonlardir, bizdan uzoq Gruziya o'lkasida, bir marotabagina yuz bergan-da, deb o'ylash katta xatodir. O'zingiz yashayotgan joydagi kishilarning suhbatlarida ham «Falonchi ota inqilob payti otilib ketgan, bedarak yo'q bo'lib ketishgan» degan so'zlarni eshitgan bo'lsangiz ehtimol. Demak, bu jonli tarix, o'tgan asrda bo'lib o'tgan hayotiy voqealarning aksi, sadosi.

Sho'ro hukumati o'tkazgan siyosat to'g'risida gapirganimizda, bu siyosat zaminida bir millat vakillarini bir-biriga qarshi qayrash, ular orasida o'zaro nafrat tug'dirib, qonli olishuvlar keltirib chiqarishdek insoniylikka yot g'oyalar yotganini alohida ta'kidlagan edik. Guram Jo'xadze boshliq oltovlon ham, yettinchi Sandro ham aslida bir Vatan tuprog'ida o'sib-ulg'ayishgan, hammasining jon tomirlari Gurjistonning qadim o'tmishiga payvasta. Shu tufayli ham xalq ruhiyati o'z ifodasini topgan ko'hna qo'shiqlar kuylanayotganda bu bahodirlarni bir-birovidan hech ajratib bo'lmaydi. Afsuski, mashhur shoirimiz Abdulla Oripov iborasi bilan aytganda, oraga «uchinchi odam», insonlar tabiatiga yot g'oya va mafkura tiqishtirilgach, qo'shiq shafqatsizlarcha uzildi – qiyomat sodir bo'ldi.

Bevaqt uzilgan narsa aslida qo'shiqqina emas edi. E'tibor bergan bo'lsangiz, yozuvchi qo'shiqda aks etgan millat ruhiyatining yaxlitligini sezdirish uchun o'sha ifodani hatto gaplarga ham bo'lmaydi («Kimni jondan sevgan eding...» deb boshlanadigan matnga diqqat qiling!).

Sho'ro mafkurasi ajdodlar tajribasini o'zida mujassam etgan xalq turmushini izdan chiqargan, odamlarni bir-biriga yovlashtirib qo'ygandi. Guram Jo'xadze oddiygina yilqiboqar edi. Uning to'lib-toshib yotgan boyligi ham, birov bilan talashadigan amali ham yo'q edi. Biroq u va unga sodiq yigitlarning hech kimga berishni istamagan VATANI bor edi. Vatan tuprog'i o'zgalar oyog'i ostida toptalmasligini, bobolar zaminiga boshqalar egalik qilmasligini, bu yurt kishilarining mag'rur boshlari hech

kimning oldida egilmasligini istar edi ular. Ular o'zlarining kindik qoni to'kilgan Vatanida emin-erkin yashashni, tirikchilik qilishni, oila qurib, bola-chaqa orttirishni xohlashardi. Sho'ro hukumati ularni mana shu oliy huquqdan mahrum qilmoqchi bo'ldi. Erkparvar xalqning eng jo'mard farzandlari esa bu bedodlikka qarshi bosh ko'tardi.

Afsuski, dushmanning makkor siyosatiga aldangan, uning qo'lida bir qo'g'irchoq holiga tushgan kimsalar ham topildi. Sandro mana shunday qismat egasi edi.

Albatta, Sandro amalga oshirgan mudhish jinoyatni hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Biroq uni o'z millatiga qarshi qo'l ko'tarishga majbur qilgan siyosat va mafkurani ham yoddan chiqarmasligimiz lozim. Sandroga o'xshash odamlarga «kommunizm» deb atalgan «baxtli kelajak»ni va'da qilib, ularni yo'ldan ozdirgan sho'ro hukumati qutqusi nafaqat Gruziyada, balki boshqa o'lkalarda, jumladan, bizning yurtimizda ham shunga o'xshash ko'plab fojialarga sabab bo'lgandi. Boshqacha qilib aytganda, Ch. Aytmatov oltovlon va yettinchi to'g'risidagi mungli hikoya orqali zararli g'oya va mafkura qurboni bo'lgan millionlab odamlar taqdiridan bizni ogoh etadi.

«Qiyomat» romanidagi boshqa o'rinlar singari bu hodisalar tasvirida ham muallif badiiy tafakkur va badiiy so'z imkoniyatlaridan samarali foydalangan. Biz sal avval bekorga «Oltovlon va yettinchi» tarixini «mungli hikoya» deya ataganimiz yo'q. Ko'plab qurbonlar berilgan so'nggi jangdan chiqib kelgan to'da kayfiyatida ham, Guram Jo'xadzening do'stlariga qilgan murojaatida ham, ular kuylayotgan, oxiri ko'rinmaydigan qo'shiqlarda ham, egalaridan ayrilishgach qator tizilib qishloqqa tushib ketayotgan otlar tuyog'i sadosida ham cheksiz bir mung eshitilib turadi. Ayni ohangni esa yozuvchi oddiygina so'zlar yordamida hosil qiladi. Buni faqat yozuvchilik mahoratidan deb o'ylasak, unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Siz avvalgi darslarda o'rgangan asarlardan ham ko'rdingizki, iste'dodli adiblar hayot hodisasini o'zining qalbi orqali o'tkazib, o'zini shu hodisaning faol ishtirokchisi sifatida his etgachgina qo'lga qalam oladi. Voqealarni tasvirlar ekan, u o'z qahramonlari holatiga tushib ko'radi, ular bilan birga o'ylaydi, iztirob chekadi, quvonadi. Faqat shundagina bu hodisaning tasviri o'quvchiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi, uni ishontiradi.

Ana endi Siz bilan biz ham yozuvchi bilan birga Sandro holatiga tushib ko'raylik. Yuqorida Sandro o'zining ong-u shuurini egallashga ulgurgan sho'rolar ko'rsatmasi bo'yicha harakat qilganini, u o'ziga topshirilgan vazifani bajarmasdan orqaga qaytishi mumkin emasligini aytgan edik. Xo'p, u topshiriqni bajardi – o'z do'stlarini, qardoshlarini, millatdoshlarini halok qildi. Keyin, fojia yuz bergandan keyingina u o'ziga keldi. Nima qilib qo'yganini birdan angladi. Axir shuncha odamning qoni evaziga quriladigan yurt qanday ravnaq topishi, tinchlik-omonlikda yashashi mumkin? Axir bu qurbonlarning bor-yo'q «aybi» ona-Vatanini birovga berishni xohlamaganimi? Ular Vatanni qanchalar sevar edi! Axir Vatan to'g'risida kuylayotgan qo'shiqlarining hech poyoniga yetmasligining ham bosh sababi mana shu sevgilari emasmidi? Ular qo'shiq tugab qolsa, yurtдан abadiy ketishgina qolishini yurak-yuraklaridan his qilishmaganmidi? Ularni ushlab turgan qo'shiq emas, bu qo'shiqda mujassam bo'lgan Vatan mehri ediku. Guram Jo'xadzening yolqinli so'zlariga e'tibor bering:

«Vatanni olib ketib bo'lmaydi. Faqat sog'inch va armonlarimizni olib ketamiz. Agar Vatanni xurjun kabi olib yurish va tashib ketish mumkin bo'lganda, u sariq chaqaga ham arzimadi».

Sandro shu qo'shiqqa, shu muhabbatga, shu mehrga o'q uzdi. U faqat oltovlonning jismini o'ldirgani yo'q, balki bu jism-u jonda yashayotgan Vatanga muhabbatni, yurtga mehrni mahv etdi. Muhabbat va mehrsiz esa ozod Vatan qurib bo'lmaydi. Muhabbat va mehrsiz yurtda yashab ham bo'lmaydi!..

Sandroga, kechikib bo'lsa-da, mardlik, imon va vijdon qaytib keldi. U o'zi yo'l qo'ygan fojiali xatoni anglab yetdi.

Ch. Aytmatov oltovlon va yettinchi haqidagi hikoyani aynan shunday yakunlashi bejiz emas. Uning talqinidan anglaymizki, tarixda ham, bugun ham, kelajakda ham birodarkushlik urushi biror xalqni ro'shnolikka olib chiqmaydi. Qon ortidan qon, jinoyat ortidan undan-da mudhishroq jinoyat ulanib kelaveradi. Bu o'lmas haqiqatni bizga qo'shni mamlakatlarda bo'lib o'tgan voqealar ham yana bir marta tasdiqlaydi.

«Qiyomat» romanidan abadiy haqiqatlar tarannum etilgan yana ko'plab sahifalar o'rin olganki, yoshingiz sal ulg'aygach ularni ham to'la bilib olasiz.

Bugungi kunda Chingiz Aytmatov nafaqat mashhur yozuvchi, balki yirik jamoat arbobi, siyosatchi, olim sifatida ham barakali faoliyat olib bormoqda. U Qirg'iziston Respublikasining Lyuksemburg va Belgiyadagi elchisi hisoblanadi. Shuningdek, yozuvchi 1995-yilda tashkil etilgan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasining Prezidenti hamdir. Bu assambleyaning markaziy idorasi poytaxtimiz Toshkentda joylashgan bo'lib, adib bizning yurtimizga tez-tez kelib turadi.

Ch. Aytmatovning hozirga qadar yozgan asarlari dunyoning 154 tiliga tarjima qilingan. Uning deyarli barcha kitoblari o'zbek tiliga o'girilgan bo'lib, xalqimiz orasida sevib mutolaa qilinadi. «Qiyomat» romanini yirik adabiyotshunos, yozuvchi Ibrohim G'afurov ona tilimizga yuksak mahorat bilan tarjima qilganki, Siz bunga guvoh bo'ldingiz.

Ch. Aytmatov 1995-yilda O'zbekiston Respublikasining «Do'stlik», 1998-yilda esa «Buyuk xizmatlari uchun» ordenlari bilan taqdirlangani ham yozuvchi bizning xalqimizga naqadar yaqin va do'st ekanligini ko'rsatadi.

Savol va topshiriqlar

1. «Oltovlon va yettinchi» afsonasining yaratilishiga turtki bo'lgan tarixiy hodisalar to'g'risida so'zlab bering.
2. Sandrodan farq qilaroq, Guram Jo'xadze boshliq oltovlonning sho'ro tomoniga o'tmaganining asosiy sababi nimada, deb o'ylaysiz?
3. Vatanparvarlarning yurtga bo'lgan sadoqati asarda tasvirlangan qaysi holatlarda yorqinroq aks etgan?
4. Bizning yurtimiz tarixida ham «Oltovlon va yettinchi»da hikoya qilingandek hodisalar bo'lganini eshitganmisiz?
5. Ch. Aytmatov asarlari asosida yaratilgan qaysi kinofilmni ko'rgansiz? Undagi voqealar haqida sinfdoshlaringizga so'zlab bering.

Nazariy ma'lumot

AFSONALAR HAQIDA

Afsonalar Sharq xalqlari og'zaki va yozma adabiyotining eng ko'hna va keng tarqalgan janrlaridan biridir. Arab xalqlari bunday asarlarni «asotirlar» deb atashadi. O'tmishdan bizga juda ko'p afsona va asotir

kitoblari yetib kelgan. Bu hikoyalarning aksariyati zahirida tarixda bo‘lib o‘tgan hodisalar, kishilar hayoti yotsa-da, vaqt o‘tishi bilan ularga turli qo‘shimchalar, o‘zgarishlar kirib borgan. Masalan, Xorun ar-Rashid degan hukmdor faoliyati bilan bog‘liq shu qadar ko‘p afsona to‘qilganki, ularning birida bu podshoh o‘ta adolatparvar, xalqparvar qilib ko‘rsatilsa, boshqasida buning aksiga duch kelamiz.

Afsonalarning yana bir muhim jihati shundan iboratki, ular deyarli chegara bilmaydi. Xalqlardan xalqlarga, yurtlardan yurtlarga ko‘chib yurar ekan, afsonalarga o‘sha xalq tushunchasi darajasida yangidan ishlov berilaveradi.

Ch. Aytmatovning oltovlon va yettinchi to‘g‘risidagi zamonaviy afsonasiga kelsak, uni yozuvchining ijodiy fantaziyasi mahsuli, deb qarash kerak. Asarni o‘rganish davomida aytganimizdek, shunga o‘xshash hodisalar nafaqat gruzin xalqi hayotida, balki juda ko‘p xalqlar hayotida ham kechgani aniq. Biroq, oltovlon va yettinchi taqdirini aynan shu shaklda, shu mazmun va ko‘lamda yaratish xizmati, shubhasiz, Ch. Aytmatovga taalluqlidir.



Odil YOQUBOV
(1926-yilda tugʻilgan)

Aziz oʻquvchi!

Siz Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov hikoya, qissa va romanlarini oʻqigansiz, uning asarlari asosida tayyorlangan koʻp qismli videofilmlarni koʻrgansiz. U hozirgi oʻzbek adabiyotining atoqli vakillaridan biridir.

Boʻljak yozuvchi 1926-yili Qozogʻiston Respublikasining Chimkent viloyati Qarnoq qishlogʻida tugʻilgan. Oʻsha yerda oʻrta maktabni tugatib, armiya xizmatiga ketgan. U armiya saflariga chaqirilganida Ikkinchi jahon urushi tugash arafasida edi. Shu paytda Yaponiya davlati bilan urush boshlanib, O. Yoqubov ana shu urushda ishtirok etadi. 50-yillarda u armiya xizmatidan qaytib, Oʻrta Osiyo davlat universitetining filologiya fakultetida oʻqiydi. Soʻngra turli yillarda Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasida, «Literaturnaya gazeta»da, «Oʻzbekfilm» kinostudiyasida, nashriyotlarda ishlaydi. 1982–1989-yillarda «Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati» gazetasini, 1989–1996-yillarda Respublika Yozuvchilar uyushmasini boshqaradi. Keyin Oʻzbekiston Atamalar qoʻmitasi raisi, hozirda esa Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasining vitse-prezidenti lavozimida faoliyat yuritmoqda.

Odil Yoqubovning dastlabki yirik asari 1951-yilda bosilib chiqqan «Tengdoshlar» povesti edi. Soʻngra uning «Chin muhabbat», «Aytsam tilim, aytmasam dilim kuyadi», «Yurak yonmogʻi kerak», «Olma gullagan-

da» pyesalari yaratiladi. Birin-ketin «Bir felyeton qissasi», «Muqaddas», «Qanot juft bo'ladi», «Izlayman», «Billur qandillar», «Adolat manzili» qissalari e'lon qilinadi.

Odil Yoqubov o'zbek adabiyotida roman janrini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan adibdir. Uning turli davrlarda yaratilgan «Er boshiga ish tushsa», «Ulug'bek xazinasi», «Ko'hna dunyo», «Diyonat», «Oqqushlar, oppoq qushlar» romanlari kitobxonlarning mehrini qozongan. Bu romanlarda yozuvchi gohi o'rta asrlar Vatanimiz tarixidagi buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ulug'beklar hayoti, ularning ulug'vor ishlari haqida hikoya qilsa, gohi zamonaviy mavzularni qalamga olib, odamlar o'rtasidagi mehr-oqibat, muhabbat, adolat, burch kabi yuksak tuyg'ularni asrash to'g'risida fikr yuritadi. Shuning uchun ham bu asarlar hozirgacha o'quvchilar tomonidan sevib o'qiladi.

MUZQAYMOQ

O'sha oilamiz boshiga og'ir kulfat tushgan kuni, men, o'n yashar bola, nimadandir ko'nglim g'ash, uyimiz ro'parasidagi paxsa devorga chiqib, o'zimcha go'yo otga minib o'tirardim.

U mahalda biz Turkiston shahrining eng so'lim joylaridan biri – Lager ko'chasida ikki xonadan iborat, oldi ayvon, o'sha zamon imkoniyatiga ko'ra tuzukkina uyda istiqomat qilardik. Bu uyning kattagina hovlisi ham bor edi. Ikki qavatli ulkan darvoza orqali kiradigan bu hovlida bizdan tashqari yana bir nechta xonadon yashardi. Darvozaning ustida quruq pichan saqlanadigan boloxona bo'lar, biz, bolalar oqshom paytlari berkin-machoq o'ynaganda boloxonaga chiqib pichan tagida «jon saqlardik».

Oilamiz boshiga musibat tushgan o'sha mash'um kundan bir necha oy muqaddam dadam uyimizdagi deyarli barcha kitoblarni uch-to'rt qopga solib, beda tagiga yashirgan-u, boloxona eshigiga otning kallasidek qulf osib qo'ygandilar. Endilikda boloxonaga hech kim kirolmas, faqat men goho-goho tuynukdan tushib, qoplardagi kitoblarni, ayniqsa sersurat, qalin kitoblarni tuynuk shu'lasiga solib, tomosha qilib o'tirishni yoqtirardim.

Bu suratlar ham juda g'alati, ularning aksari charm palto kiyib, bellariga

qilich va to'pponcha taqib olgan harbiy, ba'zilari esa ot o'ynatgan, qizil alvon ko'tarib dushman sari ot surib ketayotgan mard-u maydonlar bo'lsa ham, negadir barchasining ko'zlari o'yib olingan yoki yuzlariga ko'k siyoh tortilgan edi. Nega shunday? Men bu sir-asorning tagiga yetolmay qiynalardim, dadamlardan so'rashga esa yuragim dov bermas, sababi, dadamlar qahri qattiq odam edi, «bu kitoblarni senga kim ko'rsatdi» deb dashnom berishlari mumkin edi.

O'sha qora kun ham, nimadandir ko'nglim notinch, kitob titish esimga tushib tomga chiqdim. Ammo tanish tuynukka yaqinlashganimda ko'chaning boshida qo'sh ot qo'shilgan chiroyli foytunga ko'zim tushdi. Sal o'tmay, foytun darvozamiz ro'parasiga kelib to'xtadi. Undan o'sha paytlarda barcha kattalar uchun rasm bo'lgan yashil rang galife shim va gimnastorka kiygan o'rta yashar ikki kishi bilan qizil ko'ylakli, ko'zlari qiyg'och bir ayol tushdi. Erkaklardan biri tomda meni ko'rib qolib:

– Egamberdi Jaqipovning uyi shulma? – deb so'radi.

– Shu, – dedim men. Shu payt hovlidan chiqqan oyimlarning:

– Kelinglar, mehmonlar, xush kelibsizlar, – degan ovozi eshitildi. Men boloxona ustunidan sirpanib, yerga sakrab tushdim. Mehmonlar ichkariga kirishgan, oyimlar allaqanday hayajonda edilar.

– Dadangning mahkamasiga chop! – dedilar oyimlar negadir shivirlab. – Ayt: SAKUda birga o'qishgan og'aynilaringiz kelishdi, de! Kutib o'tirishibdi, tezroq kelar ekansiz, de! Ha, aytmoqchi, bir yo'la maktabga borib, opang bilan pochchangga ham ayt – tezroq kelishsin. Dasturxon-pasturxonga qarashib yuborishsin!

Men negadir, aftidan «mehmon» so'zidan ko'nglim yorishib, ikki oyog'imni qo'limga olib chop ketdim. Garchi pochcham bilan katta opamlar o'qituvchilik qiladigan maktab dadamlar ishlaydigan mahkamadan xiyla narida bo'lsa-da, avval o'sha tomonga o'tib, oyimlarning gapini opamlarga aytdim, so'ng, hamon ikki oyog'im qo'limda, yalangoyoq, yalangbosh, ko'cha changitib dadamlarning mahkamasiga qarab chopdim.

Dadamlarning mahkamasi ulkan savdogar qurgan va endilikda partiya qo'mitasi joylashgan ko'rkam binoning shundoq biqiniga joylashgan edi. Men borganimda dadamlar ham idoradan chiqqan ekanlar. Meni uzoqdan

ko'rib darvoza oldida to'xtadilar. Dadamlar to'ladan kelgan, novcha, qir-raburun, o'sha davrda rasm bo'lgan to'mtoq mo'ylovli, xushqad, salobatli kishi edilar. Egnidagi libosi hozir xotiramda yo'q, agar yanglishmasam o'sha mahalda dohiy Stalinga taqlidan kiyiladigan ko'krak cho'ntakli yashil kostum va galife shim kiygan, oyoqlarida ham o'sha zamonlarda rasm bo'lgan g'arch-g'urch xrom etik.

Rahmatlik dadamlar, uyqusizlikdanmi, boshqami – ko'zlari qizargan, allaqanday horg'in ko'rindilar menga. U kishi hansiray-hansiray aytgan gaplarimni eshitdilar-u, chehralari sal yorishib:

– Yur, bolam! – dedilar boshimni silab. – Senga bitta muzqaymoq oberay!

Boya aytganimdek, dadamlar diydasi qattiqroq, o'ktam, kamgap odam edilar. O'sha kungacha men u kishining biror marta boshimni silaganlarini bilmasdim. Aksincha, hanuz esimdan chiqmaydi: dadamlar ur kaltak, sur kaltak tagidan chiqolmay, ishdan haydala-haydala oxir pirovardida qishloqqa qaytib, uyda ko'kragini zaxga berib yotgan paytlar. Bir kun oyimlar qo'limga pul va ikki-uch litrli grafin (dadamlar katta lavozimlarda ishlagan mahalda orttirgan nodir matoh) tutqazib:

– Do'konga kirib qimiz olib chiq, dadang aytdilar! – dedilar.

Do'konga kirsam qimiz tugagan ekan. Men parvoyifalak, qo'limdagi grafinni o'ynatib uyga qaytdim. Yo'lim yog'och va temir qoziqlar qoqilgan mol bozoridan o'tardi. To'satdan nimadir «shaq» etdi. Qarasam, qo'limdagi grafin temir qoziqlardan biriga tegib, tangaday joyi o'pirilib tushibdi. Yuragim orqamga tortib ketdi. Uyga qaytishga jur'at qilolmay anchagacha bog'imiz poyidagi soy bo'yida aylanib yurdim. Nihoyat, yuragimni hovuchlab uyga kirib bordim. Oyimlar meni ko'rib:

– Qayoqlarda daydib yuribsan, bevosh? Dadang sho'rlik kutaverib diqqinafas bo'p ketdilar-ku! — deb koyidilar, so'ng grafindagi teshikka ko'zlari tushib, qo'limdan ushlagancha ichkariga sudradilar.

Dadamlar ulkan, chorxari uyimizning to'rida kitob varaqlab, yonboshlab yotardilar.

– Do'konda qimiz yo'q ekan, bu ham yetmagandek, o'g'lingiz grafinni sindirib qo'yibdi... – Oyimlar shunday deb grafinni dadamlarning oldidagi xontaxtaga qo'ydilar.

Keyinchalik oyimlar bu ishlaridan pushaymon bo‘lib ko‘p gapirganlar. «Nega shunday qilganimni o‘zim ham bilmayman, bolam, dadanglarning nochor ahvoli hammamizni ezib qo‘ygan edi», deguvchi edilar rahmatlik.

Dadamlar shitob bilan qadlarini rostladilar-u xontaxtadagi grafinni olib, menga qarab otdilar. Zarb bilan otilgan grafın shundoq qulog‘im tagidan o‘tib (chamasi, jonholatda boshimni olib qochgan bo‘lsam kerak!) devorga tegib chil-chil sindi.

Men tura qochdim, qocharkanman, oyimlarning: – qimiz ham o‘lsin! qimiz deb bolamni o‘ldirmoqchimisiz, adasi? – degan achchiq faryodini eshitdim.

Oyimlarning aytishicha, keyinchalik dadamlar ham bu qilmishidan pushaymon bo‘lganlar. Kim bilsin, ehtimol boshiga og‘ir musibat tushishini sezib yurgani uchundir, ehtimol bir mahal dilimga ozor bergani esiga tushib, uni ko‘nglimdan chiqarmoqchi bo‘lgandir, har qalay, umrimda birinchi bor boshimni silab, muzqaymoq oberishga ahd qildilar.

Ko‘chaning narigi yuzida shahar bog‘i bo‘lar, bog‘ oldidagi maydonchada har xil suv, meva sharbatlari, muzqaymoq sotiladigan mitti-mitti do‘konchalar bo‘lardir. Borsak, do‘konlar yopilgan ekan. Dadamlar astoydil ranjidilar.

– Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo‘lgandim, bu ham nasib qilmadi-yov, bolam! – dedilar u kishi allaqanday chuqur o‘kinch bilan.

Uyga borganimizda chiroqlar yongan, hovlidagi o‘choqqa qozon osilgan, bizdan avval yetib kelgan katta opamlar bilan oyimlar o‘choq atrofida kuymalanib yurishar pochchamlar ko‘rinmas edilar.

Dadamlar ichkariga kirib ketdilar-u darhol qaytib chiqdilar. Chehralari ochilgan, kayflari chog‘ edi.

– SAKUda birga o‘qigan eski qadrdonlarim kelishipti. Qalay, tuzukroq go‘sh-t-po‘sh-tlaring bormi, Gulshan? – dedilar dadamlar oyimlarga qarab. – Bor bisotingni dasturxonga to‘kasan bugun...

Hovlimizda, shundoq o‘choq yonida bir tup gujum o‘sar, gujum tagida chuqur quduq bo‘lar, issiq yoz va iliq kuz kunlari go‘sh-tni shu quduqda asrardik.

Oyimlar menga quduqdan go'sht olib ber, dedilar. Men quduq chang'irog'ining dastasini aylantirib, go'sht osilgan changakni torta boshladim-u, to'satdan ko'chadan kirib kelgan ikki harbiyga ko'zim tushib, negadir yuragim orqamga tortib ketdi. Ular o'choq atrofida kuymalanib yurgan oyimlar bilan opamlarga bir qarab qo'ydilar-da, etiklari bilan yerni tap-tap bosib ayvonga chiqishdi. Ayvondan uyga kirishdi. Harbiylarni ko'rishlari bilanoq turgan joylarida tosh qotib qolgan oyimlar bilan opamlar birdan dod solishib, uyga qarab yugurishdi. Quduq chang'irog'ini beixtiyor qo'yib yuborib men ham ketlaridan chopdim.

Men o'sha paytlar mamlakatimizda va hatto shahrimizda nima bo'layotganidan bexabar edim, albatta. Shu bois oyimlar bilan opamlarning harbiylarni ko'rishlari bilanoq faryod chekib, ichkariga otilishlari sababini anglamadim. Ammo ular mudhish maqsad bilan kelishganini aql bilan bo'lmasa-da, yurak bilan his etgandim. Keyin bilsam, o'sha davrda hamma joyda bo'lganidek, Turkistonda ham har kuni, har daqiqada ko'plab odamlar hibsga olingan ekan. Oyimlar va opamlar bundan boxabar bo'lganlari uchun ham harbiylarni ko'rib dod solishgan ekan. Eshikdan kirishim bilan harbiylardan biri – novchadan kelgan, malla sochlarining uchlari qoshlariga nafis egilib tushgan xushsurat o'ris kapitan polni g'archg'urch bosib, eshikka keldi-da, uning ilmog'ini solib:

– Tintuv tugaguncha endi hech kim uyga kirmaydiyam, chiqmaydiyam!
– dedi yurakka g'ulg'ula soluvchi bir qat'iyat bilan.

Uyda qiy-chuv boshlangan, katta opamlar o'rta eshikda haykalday qotib qolgan dadamlarning bo'yniga osilib yig'lamoqda, oyimlar ham dadamlarning yelkasiga suyanib, unsiz titramoqda, kichik opamlar bilan ukalarim burchakka tiqilishib, xuddi kalxatlardan qo'rqqan jo'jalarday, ko'zlari ola-kula, bir-birining pinjiga kirib olishgandi.

Ikki tavaqali o'rta eshik ochiq, ichkari xonaning to'rida SAKUda dadamlar bilan birga o'qigan mehmonlar, ranglarida rang yo'q, tippa-tik serrayib turishardi. Ikkinchi harbiy esa ichkari uydagi katta qizil shkafga terilgan kitob va albomlarni bitta-bitta ko'zdan o'tkazmoqda edi.

Xushsurat, mallasoch kapitan esa tashqi xonadagi qutilar, sandiq va sandiqchalar, shkaflarning tortmalarini ochib, ulardagi buyumlarni titkilar,

latta-puttalar orasidan allanimalarni qidirar edi. Navbatdagi shkafga kelganda harbiy qancha urinmasin, uning pastki tortmalarini ocholmadi. Uyda birorta sandiq yo shkaf yo'q ediki, men uni ocholmasam. Kapitanning qiynalayotganini ko'rib, men qo'limga mix oldim-u pildirab borib shkafning tortmasini shartta ochib berdim. Kapitan chehrasi yorishib kuldi-da:

– Malades! – dedi boshimni silab, – kelgusida Pavlik Morozov chiqadi sendan!

Kapitanning bu kutilmagan maqtovidan yuragim «jiz» etdi. Keyinchalik, katta bo'lganimda, men uydagi dod-faryodga qaramasdan otamni qamashga kelgan jallodning maqtovidan bir zumgina bo'lsa-da, yayrab ketganimni har eslaganimda bir o'zimdanda ijirg'anib yurdim. Ammo o'sha daqiqada, afsus-nadomatlar bo'lsinkim, uning so'zlaridan g'ururlanib ketganim ham haqiqat, mudhish haqiqat!

Shu payt dadamlarning:

– Suv! – degan ovozlari eshitildi. – Bir piyola quduq suvi beringlar, yuragim kuyib ketyapti!

Uyda suv yo'q ekan. Opam yig'idan to'xtab:

– O'rtoq kapitan! – dedilar hiqillab. – Ruxsat bering, ukam quduqdan suv olib kirsin!

Kapitan shkaf tortmasidan boshini ko'tarib:

– Agar dod-voyingni qo'ysang – ruxsat beraman! – dedi va kuldi: – Shunday chiroyli qiz ham bunaqa yig'loqi bo'ladimi?

Kapitanning meni Pavlik Morozovga o'xshatgani menga qanchalik xush yoqqan bo'lsa, uning opamlarga qilayotgan soxta xushomadi shunchalik yoqmadi. Lekin nima ham qilardim? Chelakni olib tashqariga otildim. Hovlidagi chiroq o'chgan, ayvondan uzoqroqda, quduq yonidagi gujum panasida kimdir qoqqan qoziqdek qaqqayib turardi. Bu – pochchamlar edi. U lom-mim demasdan qo'lidagi chaqaloqni menga tutqazib, quduqdan yarim chelak suv olib berdi-da, sharpasiz odimlab hovlining qorong'i burchagiga qarab ketdi.

Keyinchalik marhum oyimlar ko'p aytguchi edilar:

– O'sha kuni pochchangni Xudo o'zi asradi! Agar pochchang opang bilan birga kelganida, kim bilsin, uni ham birga opketisharmidi bu toshbag'irlar?

Oyimlarning bu gapida jon bor edi, chunki tintuv tugab, dadamlarni olib ketayotganlarida harbiylar SAKUchi sho‘rlik mehmonlarga Turkistondan ketishdan avval NKVDga borib, ruxsat olishlari shart ekanini uqtirishib, qo‘llaridan tilxat olishdi...

Nihoyat, tintuv tugadi. Dadamlarga kiyinishni buyurdilar. Oyimlar bilan opamlarning nolasi ko‘kka chiqib, uyimiz achchiq faryoddan zir titradi. Oyimlar dadamlarning yelkasiga paltosini ildilar. SAKUni bitirgan sho‘rlik mehmonlarga tuzalgan dasturxondan ilingan narsani ro‘molga tugib, qo‘llariga tutqizdilar.

Boyagidan ham battar qorayib, bir zumda allaqanday ozib, munkayib qolgan dadamlar avval hamon faryod chekayotdan oyimlar bilan opamlar, so‘ng qaqshab-qaltirab qolgan ukalarimning peshonalaridan o‘pdilar-u navbat menga kelganda:

– Hay, attang! – dedilar to‘satdan ko‘zlariga yosh olib. – Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo‘luvdim. Shuniyam evlayolmadim-ov, bolam!..

Butun tintuv davomida ko‘zimga yosh olmagan, «kelgusida Pavlik Morozov bo‘lasan», degan so‘zlardan shishib ketgan norasida, birdan hamma narsa – dadamlarning hech qachon erkalamaganini ham, do‘kondan qimiz topolmay qaytganimda grafinni qulochkashlab otganlari ham – hammasi esimdan chiqdi-yu alamli chinqiriq bilan dadamlarning tizzalarini quchoqlab oldim...

... Bir necha oy o‘tdi. Bu orada xonadonimiz motamsaro bir makonga aylandi. Qish yaqinlashib qolgan, kun sayin uning qahrli nafasi kuchayib borar, uyda esa na o‘tin bor, na ko‘mir!.. Biz tanha qurib, bir amallab kun kechiramiz.

Haftada bir marta, yanglishmasam, shanba kunlari dadamga ovqat olishadi. Oyimlar bir amallab topgan-tutganlarini pishiradilar-u tong mahal u kishi bilan birga avaxtaga ravona bo‘lamiz.

Turkistonda Qul Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasining shundoq biqinida O‘rta Osiyoni zabt etgan general Chernyayev qurdirgan besh-olti ta mustahkam g‘ishtin binolar bo‘lardi. Chernyayev bu binolarni chor askarlari uchun qurdirgan. Sovet hokimiyati esa ularni qamoqxonaga aylantirgan-u atrofini tikanli sim bilan o‘rab tashlagan.

Har shanba tikanli sim bilan chegaralangan bu qal'a ro'parasiga kamida 150–200 ayol, chol-kampirilar yig'ilishadi, bular «xalq dushmanlari»ning oila a'zolari. Yosh-yosh juvonlar qaqshab-qaltirab qolgan keksalar hibsxona xodimlarining ovqat qabul qilishini kutib, ertalabdan kechgacha tikanli sim oldida diydirab turishadi. Oyimlar qamoqxonaga gohida meni ham yetaklab borishlariga sabab – mabodo dadamlar bilan yuz ko'rishish nasib etsa otamlar meni ko'rib qolsinlar degan niyatda edilar. Lekin dadamlarni biror marta ko'rsatishmadi, ko'rsatishmaganlari ham mayli, bot-bot olib borgan ovqatlarimizni qabul qilmasdan qaytarib yuborishardi. Goho men bir necha soat mahtal bo'lib kutganimdan keyin biror bahonani ro'kach qilib, hibsxonaning shundoq yonginasidagi shahar bog'iga qarab chopardim. U yerda xudoning kuni borki, miting bo'lar, shahar maktablaridan nog'oralar gumburi va karnay-surnaylar sadosi ostida pionerlar va hatto oktabryatlar saf tortib boqqa kelishardi. Bog' o'rtasiga qizil alvon bilan o'ralgan ulkan minbar o'rnatilgan bo'lib, charm palto kiygan, to'pponcha taqqan faollar unga chiqib va'z aytishar, va'zlarning aksariyati trotskiychilar va ularning «dum»larini fosh qilishga bag'ishlanardi. Bu va'zxonliklarning dahshatli tomoni shunda ediki, bugun Trotskiyning «dum»larini fosh etib, otashin nutq so'zlagan notiqning aksari ertasiga o'zlari «dum»ga aylanib, fosh etilganlar ro'yxatiga tushib qolishardi. Meni bu mitinglarga borishga nima chorlaganini hanuz tushunolmayman. Aftidan, karnay-surnay va nog'oralar sadosi saf tortib o'tadigan tengdoshlarimning quvnoq va jo'shqin qo'shiqlari bo'lsa, ajab emas. Chunki bu gumbur-gumbur sadolar-u otashin qo'shiqlar qulog'imga chalinishi bilan xuddi nog'oraga o'rgangan harbiy otday oyoqlarim o'zo'zidan raqsga tushib, yuragim hapriqib ketaverardi. Faqat bir narsa murg'ak qalbimni ezar, u ham bo'lsa, minbardan turib aytiladigan nutqlarda ba'zi-ba'zida dadamlarning nomi ham «dum»lar qatori tilga olinardi. Lekin shunday paytlarda dadamlarning Stalin to'g'risidagi so'zlari esimga tushardi-yu yuragimga quyilib kelgan alamli tuyg'uni haydardim. Bu hol toki shahar komsomol qo'mitasining kotibi bilan yuzma-yuz kelgunimcha davom etdi.

Bu yosh, xushqad, xushsurat yigitcha bizga qo'shni edi. Oilamiz

boshiga musibat tushgunga qadar, u xonadonimizga bo‘zchining mokisi-dek qatnar, dadamlar bilan kechalari uzoq suhbatlashib o‘tirardi. U o‘sha yozda uylangan, xotini ham, o‘ziga o‘xshash ko‘hlik, xushqad, xushsurat edi. Dadamlar ularning to‘ylariga to‘yboshi bo‘lgan, oyimlarning aytishicha, dadamlar unga moddiy yordam ham bergan ekanlar.

Dadamlar qamalganlaridan keyin yon qo‘shnimiz qorasini ham ko‘rsatmaydigan bo‘ldi. Bunga ajablanmasa ham bo‘lardi, chunki shogird tugul qarindosh-urug‘lar ham bu og‘ir, g‘urbatli kunlarda uyimizni chetlab o‘tishar, bitta-yarimta kelsa ham kechalari qo‘rqa-pisa kelib, so‘ng devor panalab qaytib ketardi.

Shanba kuni edi. Chamasi, qamalganlar soni ko‘paygan, chunki avaxtaga ovqat ko‘tarib kelganlar soni ancha ortgan, navbat kutayotganlarning dumi ko‘rinmasdi. Kun sovuq, sevalab mayda yomg‘ir yog‘ardi. Shu boisdanmi, boshqami, oyimlar men so‘ramasdanoy uyga ketishimga ruxsat berdilar. Men tinimsiz maydalab yog‘ayotgan yomg‘irdan diydirab, uyimizga tomon ravona bo‘ldim-u to‘satdan bog‘ tomonda yangragan nog‘oralar gumburi-yu karnay-surnaylar sadosini eshitib, beixtiyor to‘xtadim.

Nog‘oralar va karnay-surnaylar sadosi tobora avjga chiqmoqda, chamasi, odatdagidan ham katta miting boshlanmoqda edi. O‘rgatilgan otga o‘xshab yana nog‘oralar gumburlayotgan tomonga burildim. Haqiqatan ham yomg‘irga qaramay, pionerlar har tomondan saf-saf bo‘lib boqqa yopirilib kelishardi.

Darvozaga yaqinlashib qolganimda nogahon ro‘para tomondan kelayotgan qo‘shnimiz – shahar komsomol qo‘mitasining kotibiga ko‘zim tushdi. U bir o‘zi emas, charm paltolik harbiy odam bilan uchburchak soqol qo‘ygan, jikkakina mo‘ysafid qurshovida kelardi.

Kotibni ko‘rishim bilan yuragim negadir «shuv» etib, boqqa sho‘n-g‘ishga chog‘landim, ammo kotib bir sakrashda yo‘limni to‘sib, bilagimdan shappa ushladi-da:

– Ha, qashqirdan tug‘ilgan qashqircha! – dedi titroq bosib. – Bitta shaltoq buzoq bir podani buzadi! Bo‘yningga soxta qizil galstuk taqib, bu sofdil qizil pionerlarni buzmoqchimisani? – U qo‘limni og‘ritib siqqancha o‘ziga torta boshladi. Lekin shu payt jikkak mo‘ysafid:

– Qo‘yib yubor, bolapaqirni, – dedi oraga tushib. – O‘rtoq Stalin aytdi-ku, bola otasi uchun javob bermaydi, deb? Gunohi nima bu norasidaning!

Yosh kotib qovog‘idan qor yoqqanicha bir qariyaga, bir charm paltoli harbiyga qaradi-da, qo‘limni qo‘yib yubordi va: «Yo‘qol ko‘zimdan!» – deb o‘shqirdi.

Shundan keyin nima bo‘ldi, nima qo‘ydi – hozir esimda yo‘q, faqat kotibning omburdek metin changalidan chiqdim-u tomog‘imni g‘ip bo‘q-qan ko‘z yoshini yuta-yuta, saf-saf bo‘lib o‘tayotgan baxtli tengdoshlarim yonidan katta ko‘cha tomon otildim...

* * *

Nihoyat, dadamlar bilan vidolashadigan kun ham keldi. Vidolashishga uch kishiga ruxsat berishgandi: oyimlar, katta opamlar va menga! Shu boisdan bo‘lsa kerak, qarindosh-urug‘lardan hech kim, na dadamlarning ukalari, na yor-do‘stlari — hech kim kelmadi.

Oyimlar bilan opamlar kechasi uxlashmay, dadamlar uchun bug‘doy talqon, so‘k talqon va yana allaqanday narsalar tayyorlashdi. Chunki bu payt dadamlar ozod bo‘ladi degan umid ojiz miltirab turgan shamday so‘ngan, u kishini uzoqlarga olib ketishlari chamasi oyimlarga ayon edi.

Ertalab to‘rva-xaltalarni ko‘tarib qamoqxonaga qarab yo‘l oldik. Bu safar bizni ko‘p kuttirishmadi. Beliga choynakday to‘pponcha taqib olgan harbiy bizni uzun, tor, nimqorong‘i yo‘lakdan ichkariga boshladi. Yo‘lakning yarmiga borganda o‘ng qo‘ldagi eshikni ochib, bizga yo‘l berdi. Chog‘roqqina to‘rtburchak xonaning to‘ridagi stol oldida gimnastorka kiygan, sochlari oppoq bir odam allanimalarni yozib o‘tirardi.

Dadamlar burchakda kursida o‘tirgan ekanlar (men avval u kishini tanimay qolibman!), biz kirishimiz bilan dik etib o‘rindan turdilar. Azaldan barvasta, to‘ladan kelgan, novcha odam bir-ikki oy ichida cho‘pday ozib, lunjlari ichiga botgan, ko‘zlari kirtayib, qiyg‘ir burni so‘rrayib qolgandi.

Yana qamalgan kechasidegidek yig‘i-sig‘i boshlandi. Oyimlar-ku, yuzini ro‘moliga yashirib, jimgina titrab yig‘lar, lekin opamlar... dadamlarning bo‘yinlariga osilib olgan opamlarning faryodi tor xonani zir titratardi.

Keyinchalik marhum oyimlar ko‘p aytguvchi edilar:

– Noinsoflar jilla qursa yarim soat ham fursat bermadilar. Dadang sho‘rlikning diydoriga ham to‘ymadik. Bergan chorak soatlari ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketdi...

Bu safar chorak soat davom etgan vidolashuv davomida dadamlar bi-ror marta Stalinning nomini tilga olmadilar, qamalgan kunlaridagidek: «Men partiya oldida gunohkor emasman! O‘rtoq Stalin barhayot ekan, meni oyoqosti qilib qo‘ymaydi!», – demadilar. Bil‘aks, bir necha marta ko‘zlariga yosh olib:

– Meni kechir, Gulshan. Ayol boshing bilan besh bolani qanday bo-qasan – aqlim bovar qilmaydi. Endi yuz ko‘rishishimizga ham ko‘zim yetmaydi, kechir meni! – dedilar.

Har safar dadam shunday deganlarida stolga mukka tushib, allanimalarni yozayotgan kishi:

– Hoy, Yoqubov! – derdi qog‘ozdan bosh ko‘tarmay. – Senga nima bo‘ldi? Yosh bolamisan, Yoqubov!

Nihoyat, bu odam qarshisidagi devorga osilgan almisoqdan qolgan devor soatiga ko‘z tashlab:

– Fursat tugadi, Yoqubov. Endi xayrlashinglar! – deb buyurdi.

Opamlarning nidosi battar avjiga chiqdi. Oyimlar ozgina pul olib kel-gan ekanlar, dir-dir titragan qo‘llari bilan dadamlarga tutdi, dadamlar esa:

– Bolalaringga yarat, Gulshan!– deb yolvorar edilar. Lekin oyim ko‘n-may, axiri pulni olishga majbur qildilar.

Oyimlar keltirgan pul bor-yo‘g‘i ellik so‘m bo‘libo‘nta besh so‘mlikdan iborat edi. Dadamlar pulni qiynala-qiynala olarkanlar, besh so‘mliklardan birini menga uzatdilar. Oyimlar pulni mendan olib, dadamlarga qaytarib bermoqchi bo‘lgandilar, dadamlar ko‘nmadilar, kaftlarini boshimga qo‘yib:

– Sen endi bu uydagi eng katta erkaksan, bolam, – dedilar va yana ko‘ziga yosh oldilar. – Oyingga yordamlashib, ukalaringga qarab turgin, bolam!

Dadamlar shunday deb besh so‘mlikni cho‘ntagimga soldilar.

– Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo‘lgan edim,

bu ham nasib etmadi. Bu pulga daftar-kitob ol! Qolganiga muzqaymoq olib ye, o'g'lim!..

Boyadan beri oyim va opamlarga qo'shilib yig'lashni o'zimga ep ko'rmay serrayib turgan bola, to'satdan, xuddi dadamlarni olib chiqib ketayotgan paytlaridagidek yuragimda nimadir darz ketganday tuyuldi-yu NKVD xodimining maqtovlari ham, aksilinqilobchilar kirdikorlarini fosh etgan hushyor pioner ekanligim ham – bari yoddan chiqib, «Dadajon!», degancha otamning tizzasini quchoqlab oldim.

«Muzqaymoq» hikoyasi haqida

XX asr mamlakatimiz hayotida ham fojialar, ham buyuk o'zgarishlar asridir. Biz mustaqil davlatga aylangunimizga qadar ne-ne xo'rlik va qiyinchiliklarni boshdan kechirdik. Millionlab asl insonlar arzimagan sabablar, tuhmat, adolatsizliklar tufayli tazyiqlarga uchragan, qamalgan va hatto otib, yo'q qilib yuborilgan davrlar bo'ldi. Bir millat vakili bo'lib, bir mahallada yonma-yon yashab, bir-biriga yov, dushmanga aylangan odamlar ham bo'ldi. Ana shunday jamiyat barpo etib, kishilarni qo'rquvga, vahshatga solib turgan siyosat sho'rolar zamonida necha o'n yillar hukm surdi. Bu davr insoniyat tarixiga Stalin qatag'onlari davri bo'lib kirdi.

Aziz o'quvchi! Hali Siz Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi xalqimizning ulkan ijodkorlari hayoti va ijodi bilan tanishganingizda, qatag'on siyosati va uning yovuzliklari haqida yana ko'p ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Bu siyosat o'z haq-huquqini tanishda, ozodlik, erkinlikni istagan, pok, halol yashagan har bir ziyoli, har bir fuqaroga qarshi qaratilgan edi.

Adib Odil Yoqubov ham o'z otasi misolida qatag'on davrlarining dahshatlari aks etgan bolalik xotiralarini qalamga oladi. Mehnatkash, halol, sadoqatli otasining o'z xizmatlari uchun tuhmatga uchrab, qatag'on qilingani voqealarini tasvirlaydi.

Bo'lajak yozuvchi o'n yashar chog'larida otasining qo'rquv va xavotir ichida yurgan kezlarning guvohi bo'lgan. Otasi sho'ro idoralarida katta-

katta lavozimlarda ishlagan, buvalari Yoqubshayx so‘filik qilgani uchun o‘g‘li urilib, tuman moliya bo‘limiga kichik bir vazifaga tushirib qo‘yilgan. Qatag‘on siyosati avjiga chiqayotgan pallalar. Barcha tahlikada, bir-biridan gumonsiragan davrlar. Ana shunday kunlarning birida universitetda birga o‘qigan o‘rtoqlari mehmon bo‘lib turgan bir paytda ota hibsga olinadi. Yozuvchi ana shu manzarani tasvirlar ekan, bir tomonda dahshatdan haykalday qotib qolgan otasi, dod-faryod solib yig‘layotgan opasi, burchakka tiqilishib, qo‘rquvdan bir-birining pinjiga kirib olgan ukalari holatlarini ko‘rsatib, qatag‘on davrining naqadar qo‘rqinchli bir hodisa ekanini ta‘kidlaydi.

Hikoyada yozuvchi go‘yo yaqin do‘st, qo‘shni bo‘lgan kishilarning dushmanga aylanishi, yaxshilik kutmagan odamlardan insoniy, samimiy munosabat ko‘rganlarini tasvirlab, qaltis, sinovli holatlarda kishilarning asl mohiyati namoyon bo‘lishini, kishining sirtiga qarab emas, qilgan ishi, og‘ir vaziyatlarda o‘zini qanday tuta olganligiga qarab baho berish lozimligini uqtiradi. Bu fikrlar xushsurat yigitcha – shahar komsomol qo‘mitasi kotibining yozuvchi otasiga qamalgunicha xushomad qilib yurib, musibatdan so‘ng yovga aylanib, hatto bolani tahqirlashi, «Qashqirdan tug‘ilgan qashqircha» deb haqoratlashi parchasida yoki yosh tatar o‘qituvchining bolaga achinib, chekka-chekkada boshini silab, indamay hamdardlik bildirishi lavhalarida yaqqol aks etadi. Davr shunday yovuz ediki, hatto bolani otaga dushman qilib qo‘yar edi. Sho‘ro zamonida o‘z otasini dushman sanab, qizil askarlarga tutib bergan Pavlik Morozov degan bola qahramonga aylantirilib, barcha maktab o‘quvchilariga ibrat qilib ko‘rsatilar edi. Ana shunday targ‘ibot-tashviqotlar ta‘sirida asl voqelikni tushunmay yurgan hikoya qahramoni tintuv chog‘i o‘z uyida kitob javoni qulfini ochib berib o‘zini Pavlik Morozov deb maqtaganlaridan rus shoiri Pushkin surati tushirilgan daftardan dushmanlar so‘zlarini qidirib, maqtov eshitgisi keladi. «Xalq dushmanlari» sifatida qancha-qancha begunoh yurtdoshlarini abgor qiladigan mitinglarga chorlovchi nog‘ora gumburi-yu, karnay-surnay sadolariga mahliyo bo‘lib, uni chalayotgan pionerlar ketidan ergashib boradi. Bu tasvirlar orqali

yozuvchi inson ichki dunyosining naqadar murakkabligini, yolgʻon aqidalar, gʻoyalarga ishontirilgan odam oʻz yaqinlarining dushmaniga aylanishi mumkinligini, maʼnaviy tanazzulga olib boradigan holatlarni koʻrsatib beradi. Ayni chogʻda oʻgʻliga muzqaymoq olib berolmay, armonda qolgan otaning haqsizlik, tuhmatlar tufayli naqadar ojiz, gʻarib bir ahvolga tushishi, adolatsizlik hukm surgan jamiyatning qanchalar insonlar qalbini zada qilganini, tasvirlash orqali yozuvchi mustaqillikning qadriga yetish, oʻshanday yovuzliklar boʻlmasligi uchun kurashishi, mehr-oqibat, adolat gʻoyalari barqaror boʻlishiga erishish fikrini ilgari suradi. Oʻquvchilarni ibratli xulosalar chiqarishga undaydi.

Savol va topshiriqlar

1. Yozuvchi Odil Yoqubovning hayoti va ijodini gapirib bering.
2. Odil Yoqubovning nasriy asarlaridan qaysilarini bilasiz?
3. Adibning tarixiy mavzularga bagʻishlangan qanday romanlari bor?
4. «Muzqaymoq» hikoyasida qaysi davr voqealari aks etgan?
5. «Qatagʻon davri» qurbonlari boʻlgan qaysi ijodkorlarni bilasiz?
6. Hibsga olingan otaning holatini soʻzlab bering.
7. Yosh qoʻshni yigit – kotibning xatti-harakatini qanday izohlash mumkin?
8. Nogʻora sadolari ostida oʻtadigan mitinglardan maqsad nima ekanini aytib bering.
9. Hikoya qahramoni nima uchun maqtov eshitadi?
10. Hikoyadan kelib chiqadigan xulosalarni aytib bering.
11. Mustaqillik tufayli yurtimizda qanday oʻzgarishlar roʻy berdi?



Erkin VOHIDOV

(1936-yilda tugʻilgan)



Oʻzbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov 1936-yil 28-dekabrda Fargʻona viloyatining Oltiariq tumanida muallim oilasida tugʻilgan. Uning otasi Ikkinchi jahon urushidan ogʻir jarohat olib qaytadi va 1945-yilda vafot etadi. Oradan bir yil oʻtgach onasi ham dunyodan oʻtadi. Oʻn yoshga yetar-yetmas ham ota, ham onadan ajrab qolgan yosh Erkinni togʻasi oʻz tarbiyasiga oladi.

Toshkentga – togʻasinikiga kelgan shoir qunt bilan oʻqishlarini davom ettiradi. Unda kitobga, adabiyotga havas juda erta uygʻondi. Shoir Gʻayratiy tomonidan Oʻquvchilar saroyida tashkil etilgan adabiy toʻgarak uning bu havasini yanada alangalatib yubordi. Oʻn besh-oʻn olti yoshlaridanoq tuppa-tuzuk sheʼrlar yoza boshladi.

Maktabni oltin medal bilan bitirgan E. Vohidov Toshkent davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti) filologiya fakultetiga oʻqishga kiradi. Endilikda u adabiyotni tom maʼnoda chuqur oʻrganishga kirishadi. Ham oʻzbek mumtoz adabiyotini, ham jahon adabiyotini sinchiklab oʻrganar ekan, oʻzining ijodi ham takomillasha boradi. Buyuk ijodkorlarning asarlarini berilib oʻqir ekan, ulardan badiiy mahorat sirlarini, soʻzga masʼuliyat hissini, soddalik va ravonlikni oʻzlashtirishga intiladi. Shuning uchun ham uning «Tong lavhasi», «Kamtarlik haqida», «Buloq», «Sevgi», «Ona tuproq» kabi qator

she'rlaridagi chuqur ma'no go'zal ifodalar, ajoyib tasvirlar bilan uyg'unlashib ketgan. Masalan, shoir turmushdagi oddiygina holatdan – choy suzilayotganda choynakning piyolaga «egilishi», choy ichayotganda inson piyolaning peshonasidan «o'pishi»dan ajoyib she'r yaratadi:

Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibr-u havо nimaga kerak?

Kamtarin bo'l, hatto bir qadam
O'tma g'urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning-chun
O'par doim peshonasidan.

Erkin Vohidov universitetni tugatgach, uzoq yillar nashriyotlarda ishladi, o'zbek va jahon adabiyotining eng sara asarlarini chop qilishda faol ishtirok etdi. 1964-yilda yaratilgan «Nido» dostonidan so'ng birin-ketin «Orzu chashmasi», «Palatkada yozilgan doston», «Quyosh maskani», «Ruhlar isyoni» kabi ajoyib dostonlar yozdi.

Shoir ijodini tarjimasiz tasavvur etish qiyin. U ko'plab mashhur jahon shoirlarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Xususan, E. Vohidov tarjima qilgan rus shoiri Sergey Yesenin she'rlari, nemis shoiri Gyotening «Faust» asari o'zbek adabiyotida katta hodisa bo'ldi. Shoir yangidan tashkil etilgan «Yoshlik» jurnalining dastlabki bosh muharriri sifatida yoshlarning adabiyotga kirib kelishi uchun katta jonbozlik ko'rsatdi.

E. Vohidovning ilk to'plami 1961-yilda «Tong nafasi» nomi bilan chop etilgan edi. Shundan so'ng birin-ketin «Qo'shiqlarim sizga», «Yurak va aql», «Mening yulduzim», «Nido», «Lirika», «Palatkada yozilgan doston», «Yoshlik devoni», «Charog'bon», «Dostonlar», «Muhabbat», «Hozirgi yoshlar», «Tirik sayyoralar», «Iztirob» kabi asarlari bosilib chiqdi.

E. Vohidov faqat she'r va dostonlar yozibgina qolmay, boshqa janrlarda ham barakali ijod qildi. U dramaturgiya sohasida ham o'z qalamini sinab, «Oltin devor», «Istanbul fojiasi» kabi dramalar yaratdi. Ayniqsa, «Oltin

devor» komediyasi uzoq yillar o'zbek teatri sahnasidan tushmay keldi. Bu komediya jahonning qator tillariga tarjima qilinib, teatrlarda sahnalashtirildi.

E. Vohidov ellik yildan ko'proq davr mobaynida ijod etgan asarlarini to'plab, «Ishq savdosi», «She'r dunyosi», «Umr daryosi» va «Ko'ngil nidosi» nomli to'rt jildlik saylanmasini o'quvchilarga taqdim etdi. Bu asarlar faqat shoir qalbining, kechinmalarininggina emas, balki xalq hayotining ham ko'zgidir.

Shoir asarlaridan hayotga, go'zallikka muhabbat, yovuzlikka, tubanlikka nafrat yaqqol sezilib turadi. Uning ilk dostoni – «Nido»da insoniyatga og'ir judoliklar, bitmas jarohatlar keltiradigan urush qattiq qoralansa, keyinroq bitilgan «Ruhlar isyoni» dostonida xalqlar, millatlar, dinlar o'rtasidagi nizolar bashariyatga naqadar katta falokatlar olib kelishi teran tasvirlangan. Bu esa shoir ijodida insonparvarlik hamisha bosh mavzu bo'lib kelganligini ko'rsatadi.

Erkin Vohidov jamoat arbobi sifatida ham hamisha el-yurt xizmatida bo'lib kelmoqda. U Senat a'zosi.

Erkin Vohidovning el-yurt va adabiyot oldidagi xizmatlari inobatga olinib, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni va «O'zbekiston Qahramoni» unvoni bilan taqdirlandi.

Savol va topshiriqlar

1. Erkin Vohidovning bolaligi haqida nimalarni bilasiz?
2. E. Vohidovning shoir bo'lib yetishishiga qanday omillar sabab bo'ldi?
3. Shoirning qanday to'plamlari chop etilgan?
4. 5-sinfda E. Vohidovning «O'zbekim» she'ri bilan tanishgan edingiz. Shoir va uning tengdoshlari ijodidagi ana shu mavzuga yaqin bo'lgan boshqa she'rlarni sanab berishga harakat qiling.
5. E. Vohidovning ijtimoiy faoliyati haqida so'zlab bering.
6. Shoir she'riyatdan boshqa yana qaysi janrlarda qalam tebratgan?

NIDO¹

(bag'ishlov)

Hayqiraman,
 Tog'lar bag'ridan
 Gumburlagan sado keladi,
 Ona-Yerning otash qa'ridan
 «O'g'lim!» degan nido keladi.
 «O'g'lim!»
 Vujudimni chulg'ar alanga,
 Bo'g'zimga tiqilar hayajon.
 – Mana men, o'g'lingiz,
 Dardli olamga
 Sizdan tanho yodgor,
 So'ylang, otajon!
 So'ylang, bir daqiqa quloq solayin,
 Ovozingiz tinglab to'yolmaganman.
 Bir marta yo'qotib topolmaganman,
 Xayolimda tiklab olayin.
 Otajon!
 Men axir qutlug' bu so'zni
 Yigirma yil olmadim tilga,
 Yigirma yil saqladim dilda.
 Armonli o'g'lingiz tinglaydi sizni,
 So'ylang, eshitaman.
 Vujudim tilka,
 Yuragimni yoqar o'tli iztirob,
 Ammo ko'zlarimda bir tomchi yosh yo'q.
 Bag'rim o'yib,
 Bu kun menga bermoqda azob
 Sizning ko'ksingizni teshgan qora o'q.



¹ Qisqartirib olindi.

Silqib oqayotir
Ko'kragimdan qon.
Qalbim o'rtamoqda so'ngsiz armonim...
Yurak qonim bilan bitgan dostonim
Sizga bag'ishladim,
Otajon!

* * *

Xayolning tumanli pardasi aro
Yillar ko'z oldimda charx urayotir.
Qishloq ko'chasidan zanjiday qaro
Olov bolaligim yugurayotir.
Dunyo qayg'usiga bo'lmagan oshno,
Qahqah urayotir,
Barq urayotir.
Bilmas, boshi uzra bulutli samo
Chaqmoq chaqayotir,
Guldurayotir.
Bilmas, yaralangan bu majruh dunyo
Qasos so'rayotir,
Bong urayotir...

Qadamlar,
Qadamlar,
Og'ir qadamlar...
Etiklar zarbidan titraydi tuproq.
Qayerga ketmoqda shuncha odamlar?
Nahotki, yo'llari shunchalar yiroq!
– Ana, ko'ryapsanmi?
Mening dadamlar!
Dada!!!
Ovozim hech chiqmaydi biroq –
Yuguraman – ortga ketar qadamlar,
Yig'layman – ko'zimga kelmaydi namlar,

Murg'ak vujudimda faqat zo'r titroq!
Bo'g'zimda alamlar,
Achchiq alamlar,
Yo'lining o'rtasida turibman,
Shu choq –
Poyezd qichqiradi,
To'xtang, odamlar!
Qayga ketmoqdasiz?
Qani dadamlar?!
Tepamda yonadi zangori chiroq...

Cho'chib uyg'onaman,
Onam qoshimda.
Mehribon qo'llari
Otash boshimda:
– Nega yig'layapsan,
Yolg'izim, qo'zim?
Tun uzoq, uxlay qol,
Ko'zlaringni yum.
Orom ol, men senga
Allalar aytay.
Tongda peshonangdan
O'pib uyg'otay.
Ana, derazangga
Qo'nibdi hilol.
Boshingga egilib
So'rmoqchi savol.
Sening kiprigingga
Sochmoq bo'lib zar,
Hilol tegrasida
O'ynar yulduzlar.
Men sening baxtingman
Deganday go'yo



Imlab chorlamoqda
Yoqut Surayyo.
Senikidir bular,
Seniki bari.
Seniki osmonning
Zar qandillari.
Somonchining yo'li –
Sening yo'llaring,
Uzatsang Zuhroga
Yetar qo'llaring
Ulg'ay, bolajonim,
Ulg'aygin tezroq.
Sening yo'llaringga
Yulduzlar mushtoq.
Hozircha orom ol,
Yolg'izim, qo'zim.
Tun uzoq, uxlay qol,
Ko'zlaringni yum.

Olis sohillarda,
Ufqdan nari
O'lim sochmoqdadir
Yov quzg'unlari.
O'lim sochmoqdadir
Elga beayov.
Shahar, qishloqlarni
Yutmoqda olov.
O'sha olis yurtda
Qon kechib hozir
Otang hayot uchun
Jang qilayotir.
Ellarning erk degan
Sof tilagi deb,

Jahonning nurafshon
 Kelajagi deb,
 Ofat solmasin deb
 Olamga qotil,
 Otang uzoq yurtda
 Jang qilayotir.
 Sen uchun, men uchun,
 O‘z uchun emas,
 Faqat o‘zbek va yo
 Rus uchun emas,
 Butun Yer – undagi
 Bor avlod uchun,
 Dunyoda eng qutlug‘
 E’tiqod uchun
 Uzoq o‘lkalarda
 Qon kechib hozir
 Otang hayot uchun
 Jang qilayotir.
 Sen uxla, yolg‘izim.
 Sen uxla, qo‘zim,
 Bir nafas orom ol,
 Ko‘zlaringni yum.

* * *

44-yil
 Sentabr tongi otdi.
 Meni cheksiz quvonch bilan baxt uyg‘otdi.
 Ko‘k jildimda alifbe va bir burda non,
 Birinchi bor qadam qo‘ydim maktab tomon.
 O‘yinlardan ancha erta to‘ygan edim,
 Kitoblarga barvaqt havas qo‘ygan edim.
 Yod bilardim alifbening harflarini,
 O‘qir edim informbyuro xabarini.
 Juman «pochta» dadamdan xat keltirgan kun

Katta bayram bo'lar edi mening uchun.
 O'qir edim yuz hijjalab, yuz tutilib,
 Takrorlardim yirtilguncha xat titilib.
 Yayrar edim ma'nosini uqarkanman,
 Dadam xatin o'qib savod chiqarganman.

Bu kun yana xat olganmiz,
 Ajoyib xat,
 Gospitaldan chiqqan emish sog'-salomat,
 Boshidagi jarohati bitgan emish,
 Hatto o'rni bilinmasdan ketgan emish.
 Berlin tomon tushar endi yo'lim debdi.
 Xat so'ngida yaxshi o'qi, o'g'lim, debdi.
 Shu kun tunda uch chiziqli daftarimga,
 Oro berib katta-katta harflaringa,
 Xira chiroq yorug'ida ko'z ishqalab –
 Dadamga xat yozmoq uchun surdim qalam:

«Dadajon!
 Men sizni juda sog'indim.
 Sog'indim ikkala ko'zim bilan teng.
 Kelib qolarmishsiz ertami-indin,
 Ayam shunday dedi,
 Rostmi shu, ayting?!
 Dada,
 U kun sizni tushimda ko'rdim.
 Oq otda keldingiz,
 So'radingiz suv.
 Men buni ayamga gapirib berdim.
 Dadang keladi, deb aytdi,
 Rostmi shu?..

Rustamning akasi urushdan qaytdi,
 Qo'ltiqtayog'i bor,
 Bir oyog'i yo'q.

Rustam aytib berdi:
 Ataka payti
 Tizzasidan olib ketgan emish o‘q...
 Xol aka qaytgandi uyga to‘satdan,
 O‘g‘li, dadajon, deb chopib kelibdi.
 Ota quchay desa qo‘li yo‘q ekan,
 Tik turgan joyida yig‘layveribdi.
 Darsga kelmay qoldi
 Tunov kun Tal‘at,
 Muallim urishsa turaverdi jim.
 Dadasidan kelgan ekan qoraxat.
 Hammamiz yig‘ladik,
 Hatto muallim...
 Dadajon!
 Sizga o‘q tegmasin hecham,
 Men uchun ham tezroq qayting salomat,
 Buvim aytgan,
 Agar men tilak qilsam,
 Tilagim bo‘larmish doim ijobat.
 Rost aytaman,
 Sizni juda sog‘indim,
 Sog‘indim ikkala ko‘zim bilan teng,
 Kelib qolasizmi, ertami-indin?
 Kutaman,
 Dadajon, albatta keling».

Bobolarning hikmati
 Hayotga yorug‘ yo‘ldir.
 Otang bolasi bo‘lma,
 Odam bolasi bo‘l, der.
 Bu so‘zni ilk bor menga
 O‘rgatgan otam edi.
 Men otam farzandiman,
 U esa odam edi.

Qirq birinchi yillarning
 Dahshati ko‘z oldimda,
 Go‘dak edim, otamni
 Kuzatganim yodimda.
 U ko‘plar baxti uchun
 Kirar ekan zo‘r jangga,
 Onam boshimni silab,
 O‘xsha, degan otangga.
 Mening mardlik maktabim
 Jonfido otam edi.
 Men otam farzandiman,
 U esa odam edi.
 Men otam bosib o‘tgan
 Qonli yo‘lni o‘tmasman.
 Ammo shonli hayotin
 Bir umr unutmaman.
 Ona-Vatan ko‘ksiga
 Qalqon bo‘lgan otamning,
 Ko‘plar baxti yo‘lida
 Qurbon bo‘lgan otamning –
 Aziz nomin qalbimda
 Vijdonimdek saqladim.
 Uning o‘lmas ruhini
 Shod etmoqdir maqsadim.
 Umrinni fido etay
 U jon bergan Vatanga.
 El mendan rozi bo‘lsin
 O‘xshabsan, deb otangga.

* * *

Tengdoshim,
 Asrdosh birodar!
 Kel, bir on jim o‘yga cho‘maylik.

Bu yerda
yotibdi
fidolar,
Kel, uni
gullarga
ko'maylik.
Bu yerda
baxt bo'lsin,
nur bo'lsin,
Bo'lmasin,
qora tun
zulmati.
Bu yerda
yuraklar
hur bo'lsin.
Qaytmasin,
u kunlar
dahshati.
Tengdoshim,
asrdosh birodar!
Uyg'oq bo'l,
hushyor boq
olamga.
Bu yerni
quchmasin
alanga,
Qabrida
tinch yotsin fidolar.
Eshit,
ingrayapti
Ona-Yer
Qo'ltiqtayoqlarning
zahmidan,

Bu tuproq
 yuragi
 poradir
 Atom zontlarining
 vahmidan.
 Eshit,
 chorlayapti
 Ona-Yer,
 Ko'ksida
 olovli
 oh-faryod.
 Asrdosh birodar,
 qo'lni ber,
 Kel, Yerga
 qilaylik
 qasamyod:
 Bo'lurmiz
 gal kelsa
 har birimizga
 Tinchlik janggohining
 fidosi.
 Bu senga,
 bu menga,
 bu bizga
 Yigirmanchi asr nidosi.

1964

«Nido» dostoni haqida

Urushlar qadim-qadimdan insoniyat boshiga katta kulfatlar solib kelgan. Urush tufayli qanchadan-qancha odamlar qurbon bo'lgan, ayollar tul, bolalar yetim qolgan, gullab-yashnab yotgan shahar-u qishloqlar kultepaga aylangan. Shuning uchun ham yuragida odamzodga mehr-

muhabbat bo'lgan har qanday inson urushni qattiq qoralagan, hamisha unga qarshi chiqqan. Tinchlik uchun kurashda, ayniqsa, olimlar, san'atkorlar, shoir-u yozuvchilarning xizmati kattadir. Chunki ular yaratgan asarlardan, ilgari surgan g'oyalardan millionlab kishilar bahramand bo'ladi.

Afsuski, fan-texnika rivojlanib, qurol-yarog'lar takomillashib borgani sari urush qurbonlarining ham soni ortib, u keltirgan vayronkorliklarning ko'lami kengayib bordi. Eng oxirgi – Ikkinchi jahon urushida ellik milliondan ortiq odam halok bo'ldi.

Erkin Vohidovning «Nido» dostoni ham xuddi ana shu urush va u olib kelgan kulfatlar, u yetkazgan jarohatlar haqidadir. Bu doston qisman avtobiografik xarakterga ega, ya'ni shoirning tarjimai holi bilan bog'liqdir. Chunki uning ayni qalam ushlab, savod chiqarish davri ana shu urush yillariga to'g'ri keladi.

Doston yigirma yil avval urushda halok bo'lgan otasini xotirlayotgan farzandning xayollari, iztiroblari bilan boshlanadi. Oradan yigirma yil o'tib ketgan bo'lsa-da, hamon uning jarohatlari bitgani yo'q. Hamon yer qa'ridan «O'g'lim!» degan nido yangrab turadi. Bu nidoning ma'nosi nima? Shu o'rinda shoir olis bolalik yillarini eslab ketadi. Ko'z oldidan to'p-to'p bo'lib jangga ketayotgan odamlar o'ta boshlaydi. Yoshgina bolakay hali urush nima ekanligini to'liq tasavvur qila olmaydi. Biroq ko'p o'tmay bu bolakay ko'cha changitib yurgan olis, sokin qishloqda ham urush o'z fojiali qiyofasini namoyon eta boshlaydi:

Rustamning akasi urushdan qaytdi,
 Qo'ltiqtayog'i bor,
 Bir oyog'i yo'q.
 Rustam aytib berdi:
 Ataka payti
 Tizzasidan olib ketgan emish o'q...

Yoki urushning ana shu qishloq boshiga solgan yana bir dahshati:

Xol aka qaytganda uyga to'satdan,
 O'g'li, dadajon, deb chopib kelibdi.
 Ota quchay desa qo'li yo'q ekan,
 Tik turgan joyida yig'layveribdi.

Rustamning akasi bilan Xol aka-ku nogiron bo‘lishsa ham qaytib kelishibdi. Ammo el-yurtning tinchligi, farzandlarning baxtiyor kelajagi deb jon bergan insonlar qancha!

Darsga kelmay qoldi tunov kun Tal’at,
Muallim urishsa, turaverdi jim.
Dadasidan kelgan ekan qoraxat,
Hammamiz yig‘ladik,
Hatto muallim...

Bu urush har bir xonadonga kulfat olib kelgan, har bir qalbdagi bitmas jarohat qoldirgan. Lekin urush degan balo hali yer yuzidan butunlay supurib tashlangani yo‘q. U goh terrorchilik shaklida, goh milliy va diniy adovatlar shaklida o‘z sharpasini ko‘rsatib turibdi. Agar odamzod ogoh bo‘lmasa, ona zamindagi barcha tinchliksevar kuchlar birlashib urushga qarshi chiqmasa, bu fojia avvalgilaridan ham dahshatliroq bo‘lib takrorlanishi mumkin. Dostonda tinchlik uchun kurashib jon berganlar nidosi, ularning ortida qolgan farzandlar, onalar, chol-u kampirlar nidosi umumlashib davr nidosiga – tinchlik uchun kurash nidosiga aylanib ketadi:

Bo‘lurmiz
Gal kelsa
har birimizga
Tinchlik jangohining fidosi.
Bu senga,
Bu menga, bu bizga
Yigirmanchi asr nidosi.

Ana endi doston nomidan – «Nido»dan anglashilgan ma’no ma’lum bo‘ldi. Demak, tinchlik uchun, insoniyatning baxtli kelajagi uchun kurash nidosi XXI asrda ham, undan keyin ham, to Yer yuzida abadiy tinchlik o‘rnatilgunga qadar har bir insonning qalbida jaranglab turmog‘i kerak.

Savol va topshiriqlar

1. «Nido» dostonida qaysi urush tasvirlangan va bu urush insoniyat boshiga qanday falokatlar olib kelgan?
2. Urush tugaganidan so'ng oradan yigirma yil o'tgan bo'lsa ham shoir nega u yillarni alam bilan eslayapti?
3. Urushning oddiy bir qishloq boshiga solgan fojialari qaysi misralarda tasvirlangan?
4. Urush jangda halok bo'lgan qurbonlardan tashqari yana qanday kulfatlar olib kelgan?
5. Doston orqali shoir aytmoqchi bo'lgan eng asosiy muddao nima?
6. Urushga qarshi o'qigan asarlaringiz, ko'rgan film va spektakllaringiz haqida hikoya qilib bering.
7. Bugungi kunda tinchlikka tahdid solib turgan qanday yovuz kuchlar borligini va ularga qarshi nima qilish kerakligini so'zlab bering.
8. Dostondan o'zingizga ma'qul bo'lgan parchani yod oling.



O'tkir HOSHIMOV

(1941-yilda tug'ilgan)



O'tkir Hoshimov katta iste'dod egasi. Adib o'ndan ortiq roman va qissa, ko'plab ta'sirchan hikoyalar, bir necha sahna asarlari muallifi. U dastlabki yirik asari bilanoq ulkan adibimiz Abdulla Qahhorning nazari-ga tushgan, allomadan «Sof, samimiy, tabiiy, iliq, rohat qilib o'qiladigan asar» yozgani uchun maqtov olgan yozuvchi.

O'tkir Hoshimov 1941-yilda Toshkentning Do'mbirobod mahallasida tug'ilgan. Ijodini o'quvchilik chog'larida boshlagan. Dastlabki kitobi esa talabalik yillarida chop etilgan. Adib asarlarining hayotiyligi, o'quvchiga tez ta'sir etishi uning tarjimai holi bilan bog'liq. Darhaqiqat, yozuvchi yoshligidan ijodiy ishni amaliy mehnat bilan barobar olib borgan. Uning hayot yo'liga diqqat qiladigan bo'lsak, nashriyotda xat tashuvchi, musah-hih, muxbir, gazetada bo'lim mudiri, nashriyotda va jurnalda bosh muharrir bo'lib ishlaganini ko'ramiz.

Adibning «Urushning so'nggi qurboni», «Muhabbat» kabi ko'plab hikoyalari, «Nur borki, soya bor», «Ikki eshik orasi», «Tushda kechgan umrlar» nomli romanlari, «Odamlar nima derkin», «Shamollar esaveradi», «Ikki karra ikki besh», «Bahor qaytmaydi», «Dunyoning ishlari» qissalari mamlakatimizda va chet ellarda sevib o'qilmoqda. «Qatag'on», «Inson sadoqati», «To'ylar muborak» nomli dramalari respublikamiz teatrlarida sahnalashtirilgan. Bundan tashqari yozuvchining ko'plab axloqiy-ma'rifiy mavzudagi ssenariylari televideniya ekranshtirilgan.

O'tkir Hoshimov Hamza nomidagi respublika davlat mukofotining laureati (1986), O'zbekiston xalq yozuvchisi (1991) unvoni va «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni sohibi.

Aziz o'quvchilar! Siz bilan sevimli adibimizning «Urushning so'nggi qurboni» hikoyasi haqida gaplashamiz va bu asarni to'liq o'qib chiqishni maslahat beramiz. Chunki asar urush haqida, urushning fojiali oqibatlariga olib kelishi haqida. Darhaqiqat, insoniyat tarixida eng dahshatli qirg'in-barot – Ikkinchi jahon urushi millionlab kishilar yostig'ini quritishdan tashqari odamlar ongi, ruhiyatida ham yomon o'zgarishlar yasadi. Ochlik, muhtojlik odamlarni asabiy, bir-biriga g'anim qilib qo'ydi, ayrimlarni egri yo'lga boshladi.

«Urushning so'nggi qurboni» hikoyasi qahramoni Umri xola urush ketayotgan joylardan minglab kilometr uzoqda bo'lsa-da, halok bo'ladi. Umri xola o'limi sabablarini asarni o'qigach anglab olasiz.

URUSHNING SO'NGGI QURBONI

Shoikrom ayvon to'ridagi sandal chetida xomush o'tirardi. Allaqachon bahor kelib kunlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo bu to'g'rida hech kim o'ylab ko'rmaganini u endi payqaganday g'ashi keldi. Bo'z ko'rpa ustidan yopilgan, shinni dog'i tekkan quroq dasturxon ham, hozirgina go'jadan bo'shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog'och qoshiq ham uning ko'ziga xunuk ko'rinib ketdi. Ammo beparvolik bilan qo'l siltadi-yu, do'ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi.

Yarim kecha bo'lib qolgan, atrof jimjit. Faqat olislarda it uliydi. Ayvon to'sinidagi uzun mixga ilig'liq lampochka xira nur taratadi. Chiroq atrofida o'ralashgan chivinlar bir zum tinmaydi. Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi. Onda-sonda rang olgan qulupnaylar ko'zga tashlanib qoladi. Qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yong'oq shoxlari bir guvillab qo'ydi. Shoikrom uyqu elta boshlagan ko'zlari bilan o'sha tomonga bir qarab qo'ydi-yu, ter hidi anqib turgan lo'labolishga boshini tashladi. Shu ondayoq yana o'sha tovoqqa, bandi kuygan qoshiqqa ko'zi tushib, tag'in g'ashlandi. «Ziqna bo'lmay

o'li! – deb o'yladi xotinini so'kib. – Azaldan qurumsoq edi, zamon og'ir-lashgandan buyon battar bo'ldi».

Ichkarida chaqaloq yig'ladi. Beshikning g'ichirlagani eshitildi. Bola xuddi shuni kutib turganday, battar big'illay boshladi. Kattasi ham uyg'o-nib ketdi shekilli, qo'shilishib yig'lashga tushdi.

Shoikrom siltanib qaddini rostladi.

– Ovozini o'chir, Xadicha!

Ichkaridan xotining beshikni mushtlagani, zardali tovushi eshitildi.

– Ovozi o'chsa koshkiydi! To'qqiz kechasida jin tekkan bunga! «Kam-bag'alning ekkani unmaydi, bolasi ko'payadi o'zi, – deb o'yladi Shoikrom ijirg'anib. – Shu kunimdan ko'ra urushga borib o'lib keta qolganim yaxshiydi».

Uni urushga olishmadi. To'qimachilik kombinatida montyor yetish-masmidi yo o'zi yaxshi ishlarmidi, harqalay, uni olib qolishdi. Shoikrom urushning boshlanishidan sal oldin uylangan edi. Urush bo'ldi-yu, zamona o'zgarib ketdi. Bir xil odamlar tirnoqqa zor. Uning xotini bo'lsa, yonidan o'tib ketsa ham boshqorong'i bo'laveradi. Xudo bergandan keyin tashlab bo'larmishmi, deb ketma-ket uchta qiz tug'ib berdi. Urushning qora qanoti uzoqlab ketgan bo'lsayam, erta-indin Gitlerning to'ng'iz qo'pishi ko'rinib qolgan bo'lsayam, hamon uning soyasi odamlar boshiga ko'lanka tashlab turibdi. Hali u qo'shninikida aza ochiladi, hali bu qo'shninikida.

Hovli etagidagi pastak eshik g'iyqilladi. Shoikrom kafti bilan ko'zi-ni chiroqdan pana qilib qaradi-yu, shu tomonga kelayotgan onasini ko'r-di. U uylangandan keyin otadan qolgan hovlini o'rtadan ikki paxsa devor olib bo'lishgan. Bungayam bir chekkasi Xadichaning injiqligi sabab bo'l-gan edi. Har xil ikir-chikir gaplar chiqavergandan keyin Umri xola ro'z-g'oring boshqa bo'lsa, o'zingga qayishasan, deb ularning qozonini boshqa qilib berdi. O'zi kichik o'g'li Shone'mat bilan narigi hovlida qoldi.

Rangi uniqqan chit ko'ylak ustidan nimcha kiyib olgan Umri xola sharpaday unsiz yurib keldi-da, yapaloq musulmon g'ishtdan yasalgan zinadan ayvonga ko'tarildi.

– Hali uxlamovmiding? – dedi u zinadan enkayib chiqayotganida suri-lib ketgan ro'molini qayta o'rab.

– Ko'rmaysizmi, chaqaloq tinchitmayapti. O'zim itday charchaganman.

– Bola bo‘lgandan keyin yig‘laydi-da, – dedi Umri xola yupatuvchi tovushda. – Yotaver, bolam. – U yana o‘sha unsiz odimlar bilan ichkari uyga kirib ketdi.

Qaynona-kelin bir balo qilib, bolalarni tinchitishdi. Keyin ikkovlari boshlashib chiqishdi. Xadicha bir qo‘lida choynak-piyola, bir qo‘lida zog‘ora non keltirib dasturxon ustiga qo‘ydi.

– Choy o‘lib qopti, – dedi u zog‘ora ushatarkan.

Umri xola Shoikromning yonboshiga, shaparak ko‘rpacha¹ ga o‘tirdi.

– Ol o‘zing ham,– dedi u tomirlari bo‘rtib chiqqan qo‘llari bilan sochilgan uvoqlarni yig‘ib og‘ziga solarkan. Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi. Ilgari ham shunaqamidi, yo‘qmidi, eslay olmadi.

– Ovqatingdan qoldimi? – dedi u cho‘kkalab o‘tirganicha choy quya-yotgan xotiniga qarab.

Xadichaning uzunchoq sarg‘ish yuzi qizardi. Aybdordek mahzun tovushda uzr so‘radi.

– Qolmovdi-ya.

Shoikrom uning qizarganidan yolg‘on gapirayotganini sezdi. Kim bilsin, ertalab o‘ziga isitib berish uchun shunaqa deytogandir...

– Yo‘q, bolam, ovqat kerakmas, – dedi Umri xola shoshilib. – Xayol surib yotib uyqum o‘chib ketdi... – U bir lahza jim qoldi-da, o‘ziga gapirganday sekin qo‘shib qo‘ydi.– Payshanba kuni Komil tayibning uyiga boruvdim. Har kuni nahorga bir kosadan qo‘y suti ichsa, dard ko‘rmaganday bo‘lib ketadi, dedi.

– Hozir qo‘y suti qatta, – dedi Xadicha. – Sigir suti otliqqa yo‘g‘-u... Shu paytda sigirimiz tug‘gan bo‘lardi-ya.

Shoikrom xotining gapini eshitmadi. Birdan uning ko‘z o‘ngida deraza ostida pastak shiftga tikilib yotgan ukasi jonlandi. Bir hovlida turib o‘n kundan buyon holini so‘ramaganiga afsuslanib, ichidan xo‘rsiniq keldi. Shone‘mat Rossiyadan ko‘chirib keltirilgan zavod qurilishida ishlay boshlaganida uni urushga olishmaganidan Shoikrom suyungan edi. Gap boshqa yoqda ekan. Ukasi sil ekan. Shuning uchun qoldirishgan ekan.

¹ Shaparak ko‘rpacha – qavilmagan ko‘rpacha.

Mana, uch oydirki, yerga yopishib yotibdi. Shoikrom o'n kuncha ilgari ishga ketayotib birrov kirib, ukasidan hol so'ragan edi. O'shanda Shone'matning qoq suyak bo'lib qolganini, katta-katta ko'zlari nimagadir chuqur ma'no bilan o'ziga tikilganini ko'rgan edi.

«Yaqinda o'ladi, – deb o'yladi u onasining ko'ziga qaramaslikka harakat qilib, – bari bir, o'ladi».

– Tuzukmi? – dedi u hammasi uchun o'zi aybdorday qovog'ini solib.

– Shukur, – Umri xola qult etib yutindi. – Hozir uxladi. – Onasi shu topda chiqib ovora bo'lmagin, degan ma'noda gapirganini Shoikrom tushundi.

– Ertalab xabar olaman, – dedi u onasi o'rnidan turganda.

– Sendan nega gina qilarkan, bolam, – dedi Umri xola ayvon labida to'xtab. – Ko'rib turibdi-ku. Ertalab chiqib ketasan, yarim kechada qaytasan. Bukunlar unut bo'lib ketadi, bolam. – Zinaga yechgan kalishining bir poyi to'nkarilib qolgan ekan, Umri xola oyog'ining uchi bilan to'g'ri-layman deb, ancha ovora bo'ldi. Keyin zinalardan enkayib tushdi-yu, sharpaday unsiz yurgancha, hovli etagiga qarab ketdi. Pastak eshik g'iy-qillab ochilib yopildi.

– Padariga la'nat shunday turmushning! – dedi Shoikrom bo'g'ilib. Keyin dasturxonni yig'ishtirayotgan xotiniga o'shqirdi. – Seniyam padaringga la'nat! Tumshug'ingni tagidan sigiringni yetaklab ketsa-yu, anqayib o'tirsang.

– Nega menga o'dag'aylaysiz? – Xadicha tovoqni qoshiqqa urib, yig'lamsiradi. – Nima, meniyam Ilhom samovarchining xotiniday so'yib ketsinmidi? Siz kechalari smenda bo'lsangiz. Men uchta jo'ja bilan jonimni hovuchlab o'tirganim yetmaydimi?!

Shoikrom xotini tarsakilab yubormaslik uchun yuzini o'girib, tishini g'ichirlatdi.

Suv qalqisa loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqigandan buyon yomon ko'paydi. Erta bahorda ularning tug'ay deb turgan sigirini o'g'irlab ketishdi. O'sha kecha Shoikrom tungi smenada edi. Kechasi bilan sharros jala quyib chiqdi. Shoikrom tong saharda bir nimani sezganday ko'ngli g'ash tortib, uyiga qaytdi. Kelsa xotini, onasi, bolalari dod solib o'tirishibdi.

Xadicha og‘iroyoq emasmi, o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib, bilolmay qolibdi. Ertalab tursa, ko‘cha eshigi lang ochiq, yong‘oqqa bog‘log‘liq sigir yo‘q.

«Shu paytgacha sigir tug‘ardi, ukamning og‘ziga aqalli bir kosa sut tutardim, – deb o‘yladi Shoikrom o‘kinib. – Qani o‘shalar qo‘limga tushsa, chopib tashlardim».

Shundoq dedi-yu, egasi ming poylasin, o‘g‘ri – bir. Mana, bundan ikki oycha ilgari Ilhom samovarchining xotinini pichoqlab ketishdi. Bechoraning bitta-yu bitta echkisi bor ekan. Hovliga o‘g‘ri tushganini bilib, xotin sho‘rlik dod solibdi. Eri choyxonada ekan. Yugurib borib echkning arqonidan ushlaganmi, xullas, yetib kelgan qo‘ni-qo‘shnilar qora qonga belanib yotganini ko‘rishibdi.

– Shu kunda yana o‘g‘ri oralab qoldi, – dedi Xadicha ko‘rpani qoqib tancha chetiga solarkan. – Qulupnay qizarmasdan bitta qo‘ymay terib ketishyapti.

– Vahima qilma! – dedi Shoikrom qovog‘ini uyib. – Bolalar terib yegandir. O‘g‘ri qulupnayga keladimi?

– Og‘ziga bir dona olgan bo‘lsa, buyurmasin. Nega kelmas ekan? Bir hovuchini obchiqib sotsa, bir kosa jo‘xori beradi. Ana, borib qarang, devorning bir cheti o‘pirilib yotibdi?!

– Vahima qilma! – dedi Shoikrom yana g‘o‘ldirab. Ammo bu safar o‘zining yuragi seskanib ketganini payqadi. Ko‘nglida paydo bo‘lgan g‘ashlikni sezdirmaslik uchun hovliga tushdi. Sekin yurib qulupnay pushtalari oldiga keldi. Ariqlardagi suv chiroq nurida yaltirab, shamolda jimirlar, marjonday terilib rang olgan qulupnaylar suvga tegay-tegay deb turardi.

«Rost-da, – deb o‘yladi u pushtalar atrofida aylanarkan, – bir hovuch qulupnayga bir tovoq jo‘xori beradi. Tansiq narsa... Xadicha yolg‘on gapirmaydi. Bolalar yegan bo‘lsa, buyurmasin, deyapti-ku. Pishiq, yo‘latmaydi...»

Bultur xotini shu qulupnay tufayli onasini qattiq ranjitgan edi. Umri xola bir hovuch qulupnay olgan ekan, Xadicha bolalarga non puli bo‘lar deb ekkanmiz, norasidalarining nasibasiga tegmang, deb bobillab beribdi.

Shoikrom o‘shanda onasining yoz bo‘yi kelini bilan yuzko‘rmas bo‘lib yurganini esladi-da, yana shu gap xayoliga keldi. «Xadicha anoyi emas, qurumsoq...»

U aylanib yong‘oq tagiga bordi. Bordi-yu, chindan ham o‘sha tomondagi devorning bir cheti o‘pirilganini, ostiga tuproq to‘kilganini ko‘rib, yuragi orqasiga tortib ketdi. Nazarida devorning kemtik joyidan birov mo‘ralab turganday bo‘ldi. Yong‘oq shoxlarining shamolda vishillashi ham, oyog‘i ostida to‘kilib yotgan devor tuprog‘i ham shubhali, vahimali ko‘rinib, darrov orqasiga qaytdi.

Xadicha allaqachon uyga kirib ketibdi. U chiroqni o‘chirib, sandal chetiga yotdi-yu, ko‘nglidagi g‘ulg‘ula kuchayib ketaverdi.

Kuzda o‘zi bilan ishlaydigan yigitning hovlisidagi so‘ritokdan g‘arq pishib yotgan uzumlarni o‘g‘irlab ketishganini esladi. Shamol borgan sari avjiga chiqar, hovlida yong‘oq barglari shovullab, shoxlari shubhali g‘ichirlar, allakim ship-ship qadam bosib, ayvon labiga kelayotganday bo‘lardi.

Xadicha rost aytadi. O‘zi kechalari smenada bo‘lsa, xotini uchta jo‘ja bilan jon hovuchlab tong ottirsa, o‘g‘riga o‘ljaning katta-kichigi bormi? Qo‘liga nima ilinsa olaveradi-da. Bordi-yu, o‘zi yo‘g‘ida uyini o‘g‘ri bossa, xotini dod solsa, pichoqlab tashlasa. U yoqdan onasi chiqsa, uniyam pichoqlasa... «Vijdonsizlar! Odamlarning boshiga kulfat tushganidan foydalanib qoladiganlarni qirish kerak».

Birdan xayoliga kelgan fikrdan uning vujudi titrab ketdi. Qora kunlar uchun, ne umidlar bilan tishida tishlab yurgan g‘unajinini o‘g‘irlagani uchun, o‘lim to‘shagida yotgan ukasini oxirgi nasibasidan mahrum qilgani uchun, non puli bo‘lar deb yetishtirgan mevasidan judo qilayotgani uchun shundoq qasos olsinki, o‘sha xudo bexabarlardan.

U o‘midan sakrab turib ketdi. Chiroqni yoqib, otilib hovliga tushdi. Hamon shamol o‘kirar, osmonning goh u, goh bu burchida chaqmoq yaraq-lab, yong‘oq shoxlari shubhali g‘iyqillar, ammo endi bular uni qo‘rqitol-mas edi. U yonboshidagi oshxonaga kirdi-yu, cho‘ntagidan gugurt olib chaqdi. Titroq qo‘llari bilan qorayib ketgan devordagi mixga ilig‘liq turgan ikki o‘ram simni oldi. Bir vaqtlar urushdan oldin u bu simlarni bazmlarga olib borar, odamlarning hovlisini mash‘aladay yoritib berardi. Endiyam yaxshilikka xizmat qilsin!

«Menga desa otib yubormaydimi! – deb o‘yladi u ayvon labiga cho‘q-

qayib o'tirgancha usti yopiq simni ochiq simga ildam ularkan. – Harna bitta haromxo'rni o'ldirganim. Bittasi o'lsa, boshqalari adabini yeydi».

U chaqqon harakat qilarkan, a'zoyi badani terlab ketgan, ammo buni o'zi payqamas, faqat bir so'zni takrorlardi: «Menga desa otib yubor-maydimi!»

U simning ochiq qismini qulupnay pushtalari ustiga uloqtirdi. Sim ilonday bilanglab pushta ustiga tushdi. Yopiq qismini ayvon etagidan olib o'tdi-da, bir uchini ustundagi ilgakka tiqib qo'ydi. Keyin birdan bolalari kechasi hovliga tushsa nima bo'ladi, degan xayol miyasiga urildi-yu, uyga kirdi. Xadicha yotgan joyida uyqusirab boshini ko'tardi.

– Ha?

– Hovliga chiqma, bolalar ham chiqmasin, o'ladi! – dedi Shoikrom ko'zlari yonib.

Xadicha hech nimaga tushunmadi shekilli, «xo'p» dedi-yu, boshini yostiqqa tashladi. Zum o'tmay tekis, chuqur nafas ola boshladi. Shoikrom ayvon chirog'ini o'chirib yana uyga kirdi. Har ehtimolga qarshi shundoq eshik tagiga, namatga ko'ndalang yotib oldi.

«Menga desa otib tashlamaydimi?» deb o'yladi yana o'shanday zarda bilan. Shu topda negadir bolalarini emas, xotinini ham emas, ukasini o'yladi. Shone'mat bolaligida ham zaifgina edi. Shoikrom har kuni uni maktabdan o'zi olib kelar, ikkinchi smenada dars tugaguncha poylab o'tirardi. Otasi o'lganida Shoikrom oltinchida, ukasi ikkinchida o'qirdi. O'shanda Shone'mat yig'lamagan, ammo ichikib kasal bo'lib qolgan edi. Endi bo'lsa besh kunligi qoldimi yo'qmi, aka bo'lib xabar ham ololmaydi.

Shoikrom uxladi, yo'qmi, bilolmadi. Bir mahal bola yig'ladimi yo tashqarida shamolning guvillashi aralash dahshatli bir faryod qulog'iga kirdimi, anglay olmay qoldi. Sapchib o'rnidan turib ketdi. Ayvon chirog'ini yoqishi bilan qulupnay pushtasida muk tushib yotgan odam gavdasini ko'rdi-yu, dahshatdan qotib qoldi. Shu ondayoq xato qilganini, qotillik qilganini payqadi. Sim uchini shartta ilgakdan yulib olib, hovliga otildi. «Boshqalari qochdi» degan fikr lip etib xayolidan o'tdi. Pushtalar ustida sakrab-sakrab yurib borarkan, oyog'i botib ketayotganini payqadi. Keyin buklanib yotgan odamdan uch qadam beriroqda

to'xtadi-yu, birdan cho'kkalab qoldi. Bir lahza ko'zlari olayib tikilib turdida, ko'ksidan shamol g'uvurini ham, o'z vujudini ham larzaga soluvchi bir nido otilib chiqdi:

– Oyi-i-i!

U boshidan hushi uchib borayotganini elas-elas his qilib o'zini yerga otdi. Titroq qo'llari bilan loy changallaganicha cho'kkalab ko'ksiga mushtlay ketdi.

– Oyi! Oyijon!

Umri xola bir qo'li bilan uniqqan chit ko'ylagining etagini mahkam changallab olgan, etak ichida ikki hovuch pishgan-pishmagan aralash qulupnaylar ko'rinib turar, boshqa qo'li bilan esa ilondek simni ushlab turardi. Shoikrom uning qulupnay qizili yuqqan, yorilib ketgan barmoqlarini, bo'rtgan tomirlarini aniq ko'rdi. Nariroqda, loyli ariq ichida, uning kalishi yotar, chamasi, sim oyog'iga tekkanida yulqib olmoqchi bo'lgan-u, qo'liga o'ralashib yiqilgan edi.

Shoikrom loyli marzadan emaklab borgancha, o'zini onasining quchog'iga otdi.

– Oyijon, oching ko'zingizni! – dedi u gezarib ketgan lablari bilan onasining muzday yuzidan o'pib.

U anchadan keyin o'ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig'layotganini payqadi. Boshini ko'tarishi bilan marza chetida o'tirgan Shone'matga ko'zi tushdi. Necha haftalardan buyon o'rnidan jilmay yotgan ukasi, aftidan, qandaydir kuch topib, emaklab chiqqan, ko'ylagining yelkalari osilib turar, katta-katta ko'zlari vahima bilan boqar edi.

– Nima qilib qo'ydim, ukam! – dedi Shoikrom yana balchiqqa belangan kafti bilan yuzini changallab. Keyin yana onasini ko'tarishga urinar, ammo onasining ikki buklangan gavdasi negadir hech tiklanmas edi.

– Sut ichmay zahar ichsam bo'lmasmidi, – dedi Shone'mat ovozi titrab. Shoikrom bu ojiz, titroq tovushdan seskanib, ukasiga tikilib qoldi.

– Zahar ichsam bo'lmasmidi, – dedi Shone'mat yana o'sha ohangda. Aftidan, u yig'lay olmas, yig'lashga madori yetmasdi. – Kechayam aytuvdim, ko'nmadilar. Qulupnayga sut alishadi, dedilar.

Shoikrom boshqa hech nimani eshitmadi. Eshitilmadi. Foydasi ham yo'q edi.


* * *

Umri xolani peshin namoziga chiqarishdi. Go‘ristondan chiqib kelishayotganida Shoikrom odamlarning o‘zaro gapini eshitib qoldi.

– Urush tamom bo‘pti, eshitdingizmi?

Savol va topshiriqlar

1. O‘tkir Hoshimov haqida nimalar bilasiz? Gapirib bering.
2. «Urushning so‘nggi qurboni» hikoyasini sinchiklab o‘qing. Asarning asosiy mazmunini so‘zlab bering.
3. Hikoyaning bosh qahramoni Shoikromning ko‘ngli g‘ashligi, diqqinapas holatiga nima sabab ekanligini tushuntiring.
4. Urush odamlarni o‘zgartirib yuborganligini hikoya qahramonlari so‘zlari orqali tushuntiring.
5. Shoikromni qotillikka undagan, ko‘rinmas o‘g‘ridan o‘ch olishga majbur qilgan, oqibatda o‘z onasining o‘limiga sabab bo‘lgan narsa nima?
6. Hikoya qahramonlari xatti-harakatlarini tahlil qiling. Umri xola xarakterini tavsiflang.
7. Hikoyadagi Umri xola va «Dunyoning ishlari» qissasidagi ona obrazi o‘rtasida qanday o‘xshashlik bor?
8. Daftaringizga hikoyada ishlatilgan maqol va iboralarni yozib oling. Ularni yozuvchi qaysi maqsadda qo‘llaganini tushuntirib bering.
9. Shoikromning o‘g‘rilar uchun qo‘ygan tuzog‘i tufayli Umri xola qurbon bo‘ldi. Bu yerda Sizningcha kim qotil?
10. Umri xolaning harakatini o‘g‘rilik deb bo‘ladimi?
11. Hikoya asosida yoziladigan insho rejasini tuzing. Inshoda Umri xola, aka-uka Shoikrom va Shone‘mat, Xadicha obrazlarini tavsiflang.



Said AHMAD
(1920- yilda tug‘ilgan)



Muhtaram o‘quvchi, yozuvchi Said Ahmad nomi Sizga tanishmi? Bir o‘ylab ko‘ring-a, Siz uni, albatta, taniysiz. «Kelinlar qo‘zg‘oloni» nomli spektaklni yoki kinofilmni har yili kamida ikki marotaba Respublikamiz televideniyesi namoyish etadi. Siz uni ko‘rmagan bo‘lishingiz mumkin emas. Ko‘rgan bo‘lsangiz, demak Said Ahmad nomi ham Sizga ma‘lum. O‘zbekiston xalq yozuvchisi, «O‘zbekiston Qahramoni» Said Ahmad Husanxo‘jayev 1920-yilning 10-iyunida Toshkent shahrining «Samarqand darboza» mahallasida tug‘ilgan. Avval o‘rta maktabda, so‘ng Navoiy nomli Pedagogika institutida o‘qigan. Bo‘lajak yozuvchining ilk mashqi – «Ishqiboz» nomli hajviy hikoyasi o‘n olti yoshlarida «Mushtum» jurnalida chop etilgani uchun uning dastlabki ish faoliyati ham shu jurnal bilan bog‘liq.

Ikkinchi jahon urushi yillari Said Ahmad «Qizil O‘zbekiston» (hozirgi «O‘zbekiston ovozi») gazetasi tahririyatida, keyinroq «Sharq yulduzi» jurnalida ishladi.

50-yillarning boshlarida yozuvchi bir qator ziyolilar qatorida qatag‘onga uchrab, «xalq dushmani» degan tuhmatlar bilan qamaladi. Bu siyosat qoralangandan so‘ng Said Ahmad ham nohaq jazodan ozod etilib, o‘z oilasiga qaytadi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi bo‘lib ishlaydi. Said Ahmadning birinchi kitobi «Tortiq» nomli hikoyalar to‘plami bo‘lib, 1941-yilda nashr etilgan. Shundan so‘ng uning

«Er yurak» (1942), «Farg'ona hikoyalari» (1948), «Muhabbat» (1949) to'plamlari, «Qadr don dalalar» (1949), «Hukm» (1958) qissalari e'lon qilindi. Yozuvchi ijodida 60-yillarda dastlabki ikki kitobi chop etilgan. «Ufq» romani alohida o'rin tutadi. Keyinroq uchinchi kitobi ham e'lon qililib, trilogiya sifatida adabiyotimiz xazinasini boyitgan bu asar xalqimizning Ikkinchi jahon urushi arafasida, urush yillari va undan keyingi ilk davrlardagi hayoti, fidokorona mehnati, kurashlari, orzu-armonlarini badiiy aks ettiradi. 1988-yili adibning «Jimjitlik» romani nashrdan chiqadi. Said Ahmad 70–80- yillarda o'z hikoyalari asosida «Kelinlar qo'zg'oloni», «Kuyov» nomli pesalar yozadi. Milliy teatrimizda ilk bor sahnalashtirilgan bu spektakllar xalqimiz o'rtasida juda katta shuhrat topib, hozirgacha teatrlar sahnasidan tushmay keladi. Bundan tashqari yozuvchining o'nlab hajviy hikoyalari televizion miniaturalar teatri orqali, «Xandon pista» (1994), «Bir o'pichning bahosi» (1995) to'plamlari orqali xalqimizning ma'naviy mulkiga aylangan.

Said Ahmad keyingi o'n yil ichida yana bir qator yangi hikoyalar va xotiralar to'plamlari e'lon qildi. Ayniqsa, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shuhrat, Saida Zunnunova, O'lmas Umarbekov kabi adabiyotimizning zabardast vakillari haqidagi xotiralari keng e'tirof topdi. Adibning ko'pgina asarlari xorijiy tillarga ham tarjima qilingan.

QOPLON

Yangi hovli Tillayevga yoqdi. Yuklarni mashinadan tushirayotganda Qurbonboy bir gap aytib qoldi:

– Sizga endi it lozim, o'rtoq Tillayev. It uying savlati bo'ladi. Albatta it boqing. O'zim g'alatisini topib beraman.

Tillayevning itga unchalik xushi yo'q edi, indamay qo'ya qoldi. Qurbonboy xotinlarning hayhaylashiga qaramay, polni ham o'zi yuvdi, gilamni ham o'zi olib chiqib, qoqib keldi.

– Iya, iya, biz turganda siz nega pol yuvarkansiz, opa? O'zimiz qotirib tashlaymiz. Men gilam qoqayin-u, siz tomosha qiling. Ammo-lekin itning g'alatisini boqish kerak. Ko'chadan kirgan odam kiroyi direktor bo'lsang, shunaqa it boq, deb havas qiladigan bo'lsa.

Qurbonboy uyni saranjom qilib bo'lgandan keyin ham darrov keta qolmadi. Hovlida ancha aylanib yurdi. It bog'laydigan joyni o'zi belgiladi.

– Yo'o'q, o'rtoq Tillayev, it masalasini bizga qo'yib beravering. Mana, itning joyi shu. Kichkinagina, ixchamgina uycha qurib berilsa, itning ham joni kirib qoladi. Xo'p, biz ketdik.

Qurbonboy ketdi.

– Bu kishi kim bo'ladilar? – dedi Tillayevning xotini orqasidan eshikni ilgaklab qaytarkan.

– Judayam anig'ini bilmayman, garajimizda ishlasa kerak. Ko'chishga mashina so'raganimda zavgar qarashib yuboradi, deb qo'shib bergan edi, – dedi Tillayev.

– Durust odamga o'xshaydi. Chaqqongina ekan.

Ertasi Tillayev ishdan qaytib yuvinayotganda Qurbonboy kattakon it yetaklab keldi. U itni ayvonning ustuniga boylab, iljaydi:

– Oti Qoplun, Tillayev aka. Odamning yaxshisini darrov taniydi. Sizga tez o'rganib ketadi. Ertaga yaxshilab uycha yasab berib ketaman. U qo'lini yuvib kelib, yarim soatcha itning ta'rifini qilib o'tirdi.

– It hamma gapni tushunadi, faqat jonivorning tili yo'q.

Qurbonboy bir so'zli kishi ekan, aytganini qildi. Tillayev ishga ketganida zambilg'altakda g'isht olib kelib, itga uycha yasab beribdi. Tillayev idoradan chiqib, endi mashinaga o'tiraman deb turganda, yugurib kelib qog'ozga o'rog'liq narsa uzatdi:

– Xo'jayin, Qoplonga nasiba. Kabobchi oshnamga tayinlab qo'ygan edim, suyakni begona qilma, deb.

– Qurbonboyingiz yaxshi odam ekan, – dedi xotini Tillayev uyga kelganda, – bechora jonini fido qivoraman deydi-ya. Bola-chaqali, kam-xarj odamga o'xshaydi. Imoratini yetti yildan beri bitkazolmasmish. Uncha-munchasiga qarashib yuboring.

Tillayev xotining gaplariga parvo qilmay choy ichardi.

Tillayev bilan Qurbonboy o'rtasida yaqinlik paydo bo'ldi. Bir kuni gap orasida u ro'zg'ordan orttirib uchastkasining tomini yopolmayotganligini aytib qoldi:

– Ayb o‘zimga, yoshligimdan shunaqaman, o‘zimga qaramayman, oshna-og‘aynilarning ishi bitsin deyman. Ha, odam bolasidan shu qolar ekan. Bo‘lmasa, promkombinatda ham, raypoda ham oshnam bor, yuztagina shifer so‘rasam yo‘q demaydi. So‘ramayman. Aslo so‘ramayman.

– Nechta shifer yetmayapti? – dedi Tillayev beparvo.

– Yo‘q, xo‘jayin so‘ramang. Siz bilan shu maqsadda oshno bo‘lmaganman. Bunaqa gapni aytsangiz uyingizga ikkinchi qadam bosmay ketaman.

Shu-shu bo‘ldi-yu, Tillayevning unga ixlosi oshib ketdi. Shundoq odam garajda mashina yuvib o‘tirmasin, deb uni garaj mudiriga muovin qilib qo‘ydi. Uyiga bir yuz saksonta shifer, o‘ttizta tunuka tushurib berdi. Qurbonboy ham har kuni tushlikka kelib, Qoplonni o‘ynatib ketishni tark qilmadi. Bu orada Tillayevning eski bod kasali tutib, yotib qoldi. Avvaliga Qurbonboy kelib uning holidan xabar olib turdi. Doktorlar endi bo‘lmadi, pensiyaga chiqing, deb maslahat berishgandan keyin Tillayev ministrlikka ariza yozib, ishdan bo‘shatishlarini so‘radi. Ministrlik uning talabini qondirib, o‘rniga boshqa direktor tayinladi. Qurbonboy o‘sha kuni kelib, Qoplonni aylantirgani olib chiqib ketdi-yu, qaytib kelmadi. Tillayev Qoplonga ancha o‘rganib qolgan ekan, to yarim kechagacha ikki ko‘zi to‘rt bo‘lib, itni poyladi. Yo‘q, Qoplon bedarak ketdi. Qurbonboy ham qorasini ko‘rsatmay qo‘ydi.

Oradan anchagina vaqt o‘tdi. Tillayev hassaga tayanib ko‘cha aylangani chiqdi. Bir mahal qarasa, ko‘chaning narigi betida Qurbonboy Qoplonni yetaklab yuribdi. Chaqirsa it qaradi-yu, Qurbonboy qaramadi. O‘sha kuni yangi direktor o‘g‘lining tug‘ilgan kuniga o‘tirish qilib berayotgan ekan. Tillayevga mashina yuboribdi. Er-xotin borishdi. Darvozadan kirishlari bilan yo‘lakda yotgan Qoplon ularni ko‘rib, dumini likillatib erkalandi.

– Bizning it qalay? – dedi yangi direktor.

– Bu itni taniyman, – dedi Tillayev va nariroqda yangi direktorning charm to‘nini tuflab artayotgan Qurbonboyga bir qarab, uyga kirib ketdi.

Savol va topshiriqlar

1. Qurbonboy tabiatiga xos xususiyatlarni hikoya matniga tayangan holda aniqlang.
2. Muallifning «Qurbonboy bir soʻzli kishi ekan...» deb bergan bahosi zamiridagi maʼnoni toping va sababini tushuntirib bering. Chindan ham uni bir soʻzli deb oʻylaysizmi?
3. Qurbonboy Tillayev va uning ayoli bilan soʻzlashganda oʻzi haqida nima uchun «biz» deb gapirishi haqida oʻylab koʻring.
4. Hikoyada «U qoʻlini yuvib kelib, yarim soatcha itning taʼrifini qilib oʻtirdi» degan taʼkid bor. Shunga asoslanib, Qurbonboyning tabiati haqida fikr yuriting.
5. Asarda shunday tasvir bor: «Nechta shifer yetmayapti? – dedi Tillayev beparvo.
– Yoʻq, xoʻjayin, soʻramang. Siz bilan shu maqsadda oshno boʻlmaganman. Bunaqa gapni aytsangiz, uyingizga ikkinchi qadam bosmay ketaman». Shu suhbatning mazmuni hajviy qahramon mohiyatiga qanchalik mos kelish-kelmasligi haqidagi mulohazalaringizni bildiring.
6. «Bir mahal qarasa, koʻchaning narigi betida Qurbonboy Qoplanni yetaklab yuribdi. Chaqirsa it qaradi-yu, Qurbonboy qaramadi». Hikoyadan olingan shu kichik parchaga tayanib Qurbonboy tabiatining asl mohiyati va yozuvchining tasvir mahorati haqida soʻzlang.
7. Tillayev timsolining oʻziga xos xususiyatlarini aniqlashga urinib koʻring.
8. Hikoya nima uchun «Qoplon» deb nomlanganini izohlang. Siz uni qanday nomlashingiz mumkin?
9. Mehr-oqibat borasida Qoplon tuzukmi yoki Qurbonboy mi?
10. Hikoyani oʻqish jarayonida sizda kulgi paydo boʻldimi? Kimdan kulgingiz kelgani haqida oʻylab koʻring?
11. Asarda tanqid bor deb oʻylaysizmi? Kim va nima uchun tanqid qilinayotir deb oʻylaysiz?

SOBIQ

Xoh ishonang, xoh ishonmang, birinchi kuniyoq toʻqqiz tonna paxta teribman. Avvaliga oʻzim ham hayron boʻlib qoldim. Tavba, shuncha paxtani oʻzim terdimmi yo birov qoʻshib qoʻydimi? Ertasiga bir qaytadan oʻn gʻayrat

bilan paxta terish mana bunaqa bo'ladi, deb ishga tushib ketdim. To'qqiz yarim bo'пти. O'sha kuni oblastdan, Toshkentdan muxbirlar bosib ketdi. Ovozimni lentaga yozib, radiodan eshittirishdi. Televizorda ikki marta ko'rsatishdi. Hammayoqni xat bosib ketdi. Bunaqa obro' kimning tushiga kiribdi, deysiz. Ruhim tetik, bir gapirib, o'n kulaman. Yo'talsam ham labbay deb turishadi. Raisimiz u yoqqa borsam u yoqqa, bu yoqqa borsam bu yoqqa ergashadi. Bechora meni yer-ko'kka ishonmaydi. Ikki gapining birida:

– O'zingni tut, katta-kichikning oldida sharmanda qilma. Sen bizning mash'alimizsan. Ha, shundoq, soqolingni kunda olib tur. Dazmol bosilmagan shim kiyma, – deb nasihat qilib turadi.

Ikki kundan keyin gazetaning birinchi betida chakkamda paxta qistirib kulib turgan suratim chiqdi. O'sha kuni rais Berdiali aka, yap-yangi «Volga»sini ishlab turgan joyimga yuboribdi. Tez yetib kelsin deb tayinlabdi. Obbo, bir gap bo'lganga o'xshaydi, deb ishni tashlab idoraga qarab ketdim. Borsam, rais oyog'i kuygan tovuqday bezovtalanib, kutib turgan ekan.

– Keldingmi, uka, tez bo'l. Kengashga ketasan. Poyezd bileting tayyor, uyingga borib kiyinib olgin-u, yo'lga chiq.

Ketdim. Kengash ertasi kuni ochilar ekan, uch kun oblastda qolib ketdim. Kelgan kunimoq to'ppa-to'g'ri dalaga chiqib, endi mashinaga yetay deb qolgan edim, yana o'sha «Volga» olib ketdi. Idora oldida usti yopiq yuk mashinasi turibdi. Idoraga kirishim bilan yetti-sakkiz odam atrofimni o'rab olishsa bo'ladimi. Kinochilar ekan. Paxta terishimni kinoga olamiz deb, atayin Toshkentdan kelishibdi. Raisning gapini qarang. Ummatalining mashinasida kinoga tushasan, o'sha tomonda paxta yaxshi ochilgan, kinoda chiroyli chiqadi, deb turib oldi. Ummatalining yeriga qarab ketdik. Kinochilar o'larcha ezma, shoshmagan odam bo'lishar ekan, ikki kun ovora qilishsa bo'ladimi, mana, chiqib qolsa ko'rasizlar, qandoq qilib mashina haydashimdan tortib, peshanamdagi terni qanaqa qilib, qaysi qo'l bilan sidirib olishimgacha apparatga olishdi.

Kinochilardan qutulib uyga holdan toyib keldim-u, kiyim-boshim bilan uxlab qolibman. Ertalab raisning o'zi uyg'otdi.

– Tez bo'l, kutib qolishdi.

– Tag'in kinomi? Kecha tamom qilishgan edi-ku!

– Yo‘q, boshqa gap. Rayonga yangi qurilgan madaniyat uyining ochilish marosimi bo‘ladi. Ilg‘or mexanizatorlardan bir kishi tabrik nutqi so‘zlashi kerak. Sen gapirasan. Qani ketdik.

Gapni ham ammo-lekin bopladim. Kuniga nutq so‘zlab turgandan keyin usta bo‘lib ketarkansan. Rosa chapak bo‘ldi. Ichkariga mehmonlar uchun joy qildirib qo‘yishgan ekan. Artistlar bilan birga o‘sha yoqqa kirdim. Rosa pivoxo‘rlik bo‘ldi. Uyga kelib yotgan edim, eshik taqillab qoldi. Chiqsam, soch qo‘ygan, ingichka mo‘ylovli bir yigit turibdi. Yelkasida bir metrli faner sumka.

– Xizmat uka, ishlari bormidi?

– Atayin o‘zlarini yo‘qlab keldim. Suratingizni ishlashim kerak. Vistavkaga qo‘yiladi.

Undoq desam, bundoq dedi, bundoq desam, undoq dedi. Sira gapimga ko‘nmadi. Janjallashib, raisning oldiga bordik. Rais koyib berdilar.

– Esing joyidami? Bu vistavkaga qo‘yiladigan suratlarning ro‘yxatini oblastdan tasdiqlashgan. Qani, darrov bo‘l.

O‘zingiz bilasiz, raisimizning gapini ikki qilib bo‘lmaydi. Ishga tushib ketdim. Rassom tushmagur hali yosh, tajribasi kamroq ekan. Rosa to‘qqiz kunda o‘zimga o‘xshatdi. Bu orada uyim xatga to‘lib ketdi. Pioneerlar bilan uchrashuv, meditsina xodimlari bilan uchrashuv, mebel fabrikasi ilg‘or ishchilari bilan uchrashuv... Albatta, bularga rais o‘zi bilib muomala qildi-yu, ammo rayon o‘t o‘chirish komandasining pensiyaga chiqayotgan keksa xodimini tabriklashni menga yuklab qo‘ysa bo‘ladimi. Bordim. Bularning tantanasi g‘alati bo‘larkan. Yolg‘ondakam o‘t ketdi qilib, birdan gupur-gupur qilishdi. Biri suv sepyapti, biri bolta bilan eski yashiklarni parchalab tashlayapti. Rosa odam yig‘ildi. Men uchinchi bo‘lib so‘zga chiqdim...

O‘sha kuni shamollab qolgan ekanman. To‘rt kun yotib oldim. Darmonim qurib ishga ketayotsam, rais qovoq-dimog‘ini osiltirib, samovarning so‘risida o‘tiribdi. Indamay o‘tib ketish uyat. Odobdan emas. Qo‘rqa-pisa salomlashdim. U meni ko‘rdi-yu, ko‘zlari yashnab ketdi.

– E, bormisan? Juda uzoq yotib olding-ku. Bu yoqda shuncha ish, shuncha joydan taklif. Sen bo‘lsang, arzimagan kasalni bahona qilib

yotibsan. Allaqayoqdan polvon kelayotgan emish, vokzalga chiqib kutib oluvchilar ro'yxatining boshida sen turibsan. Shu bugun kech soat yettida poyezd keladi. Kechikmay yetib bor. Mashinani tayinlab qo'yanman.

Bir nima dey, desam, raisning fe'lidan qo'rqaman. Chidadim. Oxiri yorildim:

– Axir, rais buva, bu yoqda shuncha...

Aytdim-ku, rais og'iz ochgani qo'ymaydi deb, urishib berdi.

– Uncha-muncha odam qadam bosolmaydigan joylarga boryapsan. Noz qilma. Yigit kishining boshiga baxt bir qo'nadi. Qani tur, tayyorgarligingni ko'r. Fizkultura komitetidan telefon qilib, miyamni qoqib qo'limga berishdi. Uyaltirma-da, uka.

Xuddi soat yettida stantsiyaga chiqdim. Poyezdning oltinchi vagoni. Eshigidan bo'yi salkam bir terak keladigan odam tushib kelyapti. Tikilib qaragam, bir yili domotdixga borganimda tarvuzni butun yutib o'yin ko'rsatgan polvon. Rayonimizga tosh o'ynashni ko'rsatgani kelgan ekan. To'rt kishi, to'rt kishi bo'lib yigirmata toshni sudrab tushurib qo'ydik. Stantsiya bufetida jindek hozirlik ko'rib qo'yishgan ekan, o'tirishdik. Polvonni tabrikladik. Yaxshi kutib olganimizdan sevingan polvon oxirida so'zga chiqib, olti kishilikni bir qilib kosaga quyib qadah ko'tardi. Hammamiz kayf qilib qolib, toshlar stantsiyada qolib ketaveribdi. Qolsa qolavermaydimi, uni ko'taradigan mard qayoqda.

Mana, oktabr oyi ham oxirlab qoldi. Mashina terimi tugay deb turibdi. Harna bo'lsa ozroq terib olay, deb dalaga chiqsam, mashinam joyida turibdi. Bechorani biram chang bosibdiki, kimdir bo'r bilan yoniga «Kolxozimizning sobiq mexanizatori falonchi mavsumda bir hafta dalaga chiqib, shu mashinada paxta tergan» deb yozib ketibdi. Juda alam qildi.

Bunaqa beodob gap yozgan odamni topib rosa ta'zirini berardim-u, ishim tig'izroq edi-da. Axir bugun yosh drujinachilar¹ bilan rayon markazidagi somsapazlikni tekshirishimiz, kaloriyasini² aniqlashimiz kerak.

¹ **Drujinachilar** – tartib saqlash ishida ko'ngilli bo'lib qo'shilgan yosh bolalar.

² **Kaloriya** – lotincha issiqlik so'zidan. Bu o'rinda somsaning quvvati ma'nosida kelgan.

Said Ahmadning hajviy hikoyalari haqida

Yozuvchi hajviy hikoya janrida juda samarali ijod etib keladi. Jamiyatdagi turli illatlar, nuqson va kamchiliklar, odamlar o'rtasidagi kulgili munosabatlar, har xil toifa xarakterlar mazkur hikoyalarning bosh mavzusidir.

Said Ahmad hajviyalarining tahlilidan avval badiiy asarda kulgi masalasiga biroz izoh berish lozim. Kulgi turli janrdagi asarlarda uchrashi mumkin bo'lgan hodisa, holat. Biror voqea tarkibida yoki biror obraz tasvirida kulgi, kulgili holatlar bo'lishi mumkin. Kulgi o'z o'rnida mahorat bilan, me'yorli qo'llanilsa, har qanday asarga hayotiylik, o'quvchiga qiziquvchanlik, yengil kayfiyat bag'ishlaydi. Bunday asarlarga kitobxon ehtiyoji ham katta bo'ladi.

Odatda mutaxassislar badiiy asardagi kulgini ikki yo'nalishga ajratadilar – satira va yumorga.

Satira so'zi yunoncha turli, aralash degan ma'nolarni anglatib, badiiy asarda keng ma'noda kishilardagi yoki ma'lum bir jamiyatdagi nuqson va kamchiliklarni keskin tanqid qilish, masxaralab bartaraf etish maqsadida qo'llaniladi.

Yumor ingliz tilidagi namlik, suyuqlik so'zidan olingan bo'lib, u keng ma'noda badiiy adabiyotda yengil kulgi qo'zg'ash, hazil-mutoyiba sifatida qo'llaniladi. Bunda ijodkor ayrim nuqsonlar ustidan kinoya-kesatiqsiz do'stona, xayrixohlik bilan kuladi. Voqea-hodisalarning, jamiyatdagi insonlarning hech bir nuqsonsiz bo'lishini istab, ularni inkor etmagan holda zukkolik, topqirlik, hozirjavoblik, hazil-askiya bilan munosabat bildiriladi.

Said Ahmadning Siz yuqorida o'qigan ikki hikoyasi o'sha ikki yo'nalishda yaratilgan asarlardir.

«Qoplon» hikoyasi satirik asarning yaxshi namunasi bo'lib, kishilardagi xushomadgo'ylik, laganbardorlik, o'z manfaati yo'lida andisha-mulohazaga bormay surbetlarcha ish tutish, odamlarni amal kursisiga qarab munosabat ko'rsatish kabi yaramas illatlar tanqidiga bag'ishlangan. Hikoyadagi Qurbonboy obrazi misolida yozuvchi o'zini hali tanilmagan rahbarlar pinjiga kirishning nozik yo'llarini topib olgan, hech bir istiholasiz laganbardorligini oshkora ko'rsatib, xo'jayinining polini yuvib, gilamini ham qoqib berishdan orlanmaydigan, vaqti kelganda shartta yangi boshliqqa xizmat qilib

ketaveradigan oriyatsiz, ablah bir shaxs qiyofasini ko'rsatib beradi. Tillayev ham, uning xotini ham Qurbonboyning kimligini anglamay, ularga qilib yurgan xizmatini o'zlaricha yaxshilikka yo'yib yuradilar. Bu amal vaqtinchalik vazifa uchun qilinayotgan makkorlik ekanini tushunmaydilar. Shu bois Qurbonboyga ixlosi oshib, Tillayev uni mashina yuvuvchidan garaj mudiri muovini vazifasiga ko'taradi, uyi tomini yopib olishi uchun anchagina shifer, tunuka tushurib beradi. Qurbonboy esa ishi bitguncha girdikapalak bo'lib, har qanday mayda-chuyda oilaviy yumushlarni orlanmay bajarib, yangi boshliq tayinlanishi bilan Tillayev xonadonidan batamom yuz buradi. Xushomadining asosiy vositasi bo'lgan it «Qoplon»ni olib ketib, yangi rahbarga ham xuddi avvalgiday alfozda taqdim qiladi. Uning surbetligi shu qadar kuchliki, Qurbonboy Tillayevni yangi boshliqnikida ko'rib qolganida, hatto uyalmaydi ham. Direktorning charm to'nini artib turaveradi. Hatto it Qoplon eski xo'jayinini tanib, dumini likillatib erkalanadi. Hikoya so'ngida Tillayev Qoplonni ko'rib, «Bu itni taniyman» desa-da, achchiq istehzo bilan aytilgan bu so'zlarni asli Qurbonboyga qarab qo'yib aytadi. Demak, «it» deb Qurbonboyini nazarda tutadi. Yozuvchi bu bilan Qurbonboylar kabi buqalamun kimsalar, ablah odamlarni jamiyatda, insonlar orasida o'rni bo'lishi kerak emas, degan g'oyani ilgari suradi.

Said Ahmadning «Sobiq» nomli ikkinchi hikoyasi achchiq, alamli kulgidan yiroq, hajviy, sof yumoristik yo'nalishda. Yozuvchi voqeani hikoya qahramonining o'z tilidan hikoya qilarkan, jamiyatimizda, halol kishilarning xatti-harakatlarida paydo bo'layotgan dabdababozlik, nozarur yumushlarga chalg'ib, kulgili vaziyatlarga tushib qolish kabi nuqsonlar ustidan yengil kuladi. Katta maqsadlar yo'lida intilayotgan yaxshi bir mehnatkash insonni asrab-avaylash, uning kuchidan oqilona foydalanish, har bir odam o'z o'rnida bo'lib, o'z vazifasini sidqidildan bajarishi kabi masalalar hajviy yo'sinda tasvirlangan vaziyatlar orqali anglashiladi.

Turg'unlik zamonlarida sho'rolar davrida har narsani mafkuraga bog'lash odat tusiga kirgan edi. Hikoya qahramoni ham paxta terishda jonbozlik ko'rsatib, hech kutilmaganda dabdababozlikning nishoniga aylanadi. Eng ilg'or paxtakor deb, asosiy ishini yig'ishtirib, turli kerak-nokerak majlis, kengash, yig'ilishlarga borishga majbur bo'ladi. Endi dalaga chiqaman

deganda, bir kinochilar, bir rassomlar kelib g'animat vaqtini behuda o'tkazadi. Yozuvchi bu xatti-harakatlarning be'manilashib ketganini ta'kidlash uchun kulgini shunday kuchaytiradiki, mubolag'a, lof kabi badiiy tasvir vositalarini qo'llaydi. Ya'ni paxtakor qahramon rayon o't o'chirish komandasining pensiyaga chiqayotgan k'ksa xodimini tabriklashga yuboriladi. Tarvuzni butun yutib, o'yin ko'rsatadigan p'olvonni qutlashga chiqadi. Oxiri yosh drujinachilar bilan rayon markazidagi somsapazlarni tekshirgani o'tlanadi. Xullas, yozuvchi kulgili vaziyatni mubolag'a priyomi orqali yanada kuchaytirib, o'quvchida shodon qahqaha paydo qiladi va bu bilan jamiyat rivojiga xalaqit berayotgan mayda nuqson, kamchiliklarga e'tiborni qaratadi.

Har ikki hikoyada ham yozuvchi badiiy tilning xalqona, nozik qochirimli, shirali, ko'p ma'noli xususiyatlaridan keng foydalanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Said Ahmadning hayoti va ijod yo'li haqida so'zlab bering.
2. Yozuvchining qanday hikoyalari va hikoyalar to'plamlarini bilasiz?
3. Said Ahmad roman va dramaturgiya janrida ham asarlar yaratganmi?
4. «Kelinlar qo'zg'oloni» spektakli va kinofilmini ko'rganmisiz? Ko'rgan bo'lsangiz taassurotlaringizni so'zlab bering.
5. «Qoplon» hikoyasi va satira janrining xususiyatlari haqida so'zlab bering.
6. Qurbonboy obraziga ta'rif bering.
7. «Laganbardorlik», «xushomadgo'ylik» kabi illatlar jamiyatga kerakmi yo yo'qmi?
8. Said Ahmadning qaysi hajviy hikoyalarini bilasiz?
9. «Sobiq» hikoyasi qahramoni qanday odam?
10. Rais obraziga ta'rif bering.
11. Yozuvchi kulgili vaziyatni kuchaytirish uchun qanday tasviriy vositalardan foydalanadi?
12. Yumor janrining satiradan qanday farqi bor?
13. Yozuvchi yumoristik hikoyada qanday maqsadni nazarda tutishini «Sobiq» hajviyasi misolida gapirib bering.
14. Siz o'zingizdagi qanday kamchiliklardan xalos bo'lishni istar edingiz?

SO‘ZDA HIKMAT BOR

BADIIY SO‘Z QUDRATI

Aziz o‘quvchilar! Agar e‘tibor bersangiz, insonlar o‘rtasida aloqa, munosabatlarning asosida so‘z yotganini ko‘ramiz. So‘z dunyodagi barcha narsa-hodisalarning asosi, desak yanglishmaymiz. Chunki Tangri taoloning «Yaralgin» so‘zidagi amri bilan butun olam yaralgan, so‘zning qudrati ana shunda. So‘z, agar ilmiy mulohaza qiladigan bo‘lsak, eng muhim til birligi. Tilimizda narsa-hodisalar, jarayonlar va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan asosiy unsur so‘zdir. Negaki, har bir narsani o‘z nomi bilan atash kerak ekan, uni faqat so‘zda ifodalay olamiz. Masalan, tilshunoslik ilmida badiiy til, rasmiy til, ilmiy til kabi tushunchalar bo‘lgani kabi **so‘zni ham o‘z navbatida badiiy so‘z, ilmiy so‘z deb ataymiz.**

So‘z turli ko‘chma ma‘nolarni ham anglatadi: «Bir so‘z aytdi – hikoya, naql qildi», «So‘z berdi – va‘da berdi» kabi.

Inson hayotida so‘zning ahamiyatini o‘lchab, baholash qiyin. U kishilar o‘rtasida muloqot vositasi, jamiki qadriyatlar faqat so‘z orqali namoyon bo‘ladi. Agar shunday bo‘lmaganda ajdodlarimiz yaratgan behisob og‘zaki va yozma ilmiy, badiiy asarlar, benazir hadislar bizgacha yetib kelmagan bo‘lardi. Hazrat Navoiy bobomiz aytganlaridek, olamda so‘zdan yuksak boylilikni topib bo‘lmaydi. Insonni boshqa maxluqotdan ajratib turuvchi narsa ham so‘zdir:

Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilki guhari sharifroq yo‘q ondin.

Hazrat yana bir joyda so‘z haqida shunday deydilar:

Dona-u dur so'zni afsona bil,
So'zni jahon bahrida durdona bil.

So'z qudratli narsa. So'z bilan qurmoq mumkin, so'z bilan ko'ngilni vayron qilmoq mumkin. Har qanday xasta ko'ngil so'z bilan obod bo'ladi, shu ma'noda so'z tibbiyotda ham shifo o'rnida qo'llanishi bejiz emas. To'shakda yotgan og'ir xastani ham shirin so'z bilan, dalda bilan oyoqqa turg'izish, aksincha, soppa-sog' odamni yomon so'z bilan bir lahzada ko'nglini vayron qilish mumkin. Yaxshi so'z ham, yomon so'z ham bir og'izdan chiqadi, demak har bir so'zni o'ylab gapirish har kimning o'ziga bog'liq. Aytaylik, ko'chadan chinqirgancha «Tez yordam» mashinasi o'tib ketyapti. Farosatsiz odam yana birortani kuni bitdi deyishi yoki shunga o'xshagan xunuk gap qilishi mumkin, biroq farosatli odam «Qaranglar, yangi mehmon dunyoga kelyapti» deyishi mumkin. Shunday ekan, doimo yaxshi niyat qilaylik, chunki «Yaxshi so'z – jon ozig'i» deb bekorga aytmaydilar.


Aziz o'quvchilar, yuqorida so'z tushunchasi, uning inson hayotidagi o'rni haqida gaplashdik. Endi badiiy so'z nima, u bizga nima beradi, ana shular haqida fikr yuritamiz. So'z ham til kabi (jonli til umumxalq tili, adabiy til, badiiy til) jonli so'z, adabiy so'z, badiiy so'z sifatida farqlanadi. Jonli so'zdan kundalik turmushda o'zaro muloqot sifatida foydalanamiz. So'zning bu turi cheklanmagan tarzda muomalada bo'ladi. Adabiy so'zdan esa muayyan qoidalarga rioya qilgan holda foydalaniladi. Masalan, matbuot, ya'ni gazeta-jurnal, radio, televideniya, fan, adabiyot, kitob, teatr, kinoda qo'llaniladigan so'zlar.

Badiiy so'z – bevosita adabiy asar yozishda qo'llaniladigan so'zlar. Endi ular faqat adabiy so'zlarga emas, balki kishi hissiyotlariga, tuyg'ulariga ijobiy ta'sir qiladigan xarakter, obraz, manzaralar yaratishga xizmat qiladigan so'zlardir. Adabiyot so'z orqali badiiy tasvirlash san'ati bo'lsa, uning asosiy quroli so'zdir. Badiiy tasvir so'zlar orqali ro'yobga chiqadi. Demak, u voqea-hodisalarni obrazli, yuksak did va mahorat bilan tasvirlashda ishtirok etadi. U yoki bu qiziqarli voqeani oddiy hikoya qilish bilan badiiy tarzda hikoya qilish o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Biror-bir voqeani gapirib berish oddiy xabardan iborat, xolos. Badiiy hikoyalash, obrazlar vositasida tasvirlash esa insonga estetik zavq beradi,

uni go'zallikka undaydi. Badiiy asardagi har bir so'z muayyan salmoqqa, mazmunga ega bo'ladi. Bobokalon shoirlarimiz Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Muqimiy va boshqa ijodkorlar so'zning bag'riga hikmat jo qilganlar, unga sehr ato etganlar. So'zda hikmat bor deganda ana shu badiiylikka yo'g'rilgan qudratli badiiy so'z tushuniladi. Badiiy adabiyotlar bilan tanishganda uning yozma va og'zaki turlariga, she'riy, nasriy, dramatik shakllariga duch kelasiz. Badiiy so'z bilan qanchalik chuqur tanishgan sari uning sehr va hikmat to'la olamiga kirib borasiz. Bu yo'ldagi har bir qadamingiz qutlug' bo'lishini tilaymiz.

Savol va topshiriqlar

1. So'z nima? Uning haqiqiy mohiyatini tushuntirib bering.
2. Ishlatilish o'rniga ko'ra so'z qanday farqlanadi?
3. So'z san'ati deganda qaysi san'atni tushunasiz?
4. Badiiy so'zning jonli, ilmiy so'zdan farqini, badiiy adabiyotning ilmiy, siyosiy adabiyotlardan farqini tushuntiring.
5. Hazrat Navoiyning so'zga bergan ta'rifini adabiyot darsligidan ko'chirib oling va og'zaki sharhlang.
6. So'zda hikmat bor deganda nimani tushunasiz?



Alisher NAVOIY

(1441 – 1501)



Aziz o'quvchi, Siz buyuk bobokalonimiz hazrati Alisher Navoiy haqida ko'p eshitgansiz, kitoblar o'qigansiz va balki atoqli yozuvchi Oybekning «Navoiy» romani asosida suratga olingan ko'p qismli videofilmni tomosha qilgansiz. Har yili 9-fevral kuni ulug' bobomizning tug'ilgan kunlari Toshkent shahridagi Milliy bog' hamda Shayxontohur mavzeidagi xiyobonga o'rnatilgan haykallari poyiga gullar qo'yib, xotiralarini yod etish qat'iy an'anaga aylanganini ham bilasiz. Nima uchun shunday ehtirom va e'zoz bildiramiz shoir bobomizga? Asarlarini qayta-qayta nashr etib, keng targ'ibot qilamiz? Buning asosiy sababi shundaki, hazrati Alisher Navoiy bizning Vatanimiz tarixidagi barcha zamonlarda, xoh o'tmish, xoh bugun yo kelgusida bo'lsin, eng ulug' siymodir. Bu zot millatimizni dunyodagi eng madaniyatli, ma'rifatli xalqlar qatoriga olib chiqqan, jahon adabiyotining eng buyuk siymolari qatorida turadigan zotdirlar. Bobomizning mustaqillik yillarida nashr etilgan yigirma jildlik mukammal asarlari to'plamlariga kirgan she'r-u dostonlari, ilmiy va tarixiy asarlari, xotira va yozishmalari ruhiy dunyomizni nihoyatda boyitadigan, aql-tafakkurimizni charxlaydigan yurtimiz tarixi va uning buyuk siymolari haqida juda qimmatli ma'lumotlar beradigan asarlardir. Mazkur asarlarning orasida besh ulug'vor dostonlarni o'z ichiga olgan «Xamsa» ayniqsa alohida e'tiborga sazovor. Siz avvalgi sinflarda bobomizning ijodiy faoliyatlari bilan tanishganingizda «Xamsa» yaratish juda mushkul, ammo sharaflı hodisa

hisoblanganini, jahon adabiyotida faqat ozarboyjon shoiri Nizomiy Ganjaviy, hind adibi Xisrav Dehlaviy va fors-tojik adabiyoti namoyandasi Abdurahmon Jomiyga va o'zbek hamda boshqa turkiy adabiyot vakillari orasida faqat Alisher Navoiyga nasib etganini bilib olgansiz. Alisher Navoiy hazratlarining «Xamsa» beshligiga kiradigan birinchi doston – «Hayrat ul-abror», ya'ni «Yaxshi insonlarning hayratlanishi» deb nomlanadi. Bu doston 63 bobdan iborat bo'lib, kishilardagi yaxshi, ibratli fazilatlar, ayrim yomon illatlar haqida hikoya qiladi. Dostonda mutafakkir bobomiz juda keng to'xtalgan mavzu bu XIV va XV boblaridagi badiiy ijod, badiiy so'zning qudrati, insonga ta'siri haqidagi mavzudir.

HAYRAT UL-ABROR

XIV BOB

So'z ta'rifida

So'z guharig'a erur oncha sharaf –
Kim, bo'la olmas anga gavhar sadaf.

To'rt sadaf gavharining durji ul,
Yetti falak axtarining burji ul.

Bog'chai dahrki yuz toza gul,
Topti qayonkim nazar etti ko'ngul...

Katmi adam gulshani ichra nuhuft,
G'unchalar erdi borisi noshuguft.

Chun bu nasim esti azal tog'idin,
Muncha gul ochildi jahon bog'idin.

Qaysi nasim ulki erur gulfishon,
Bargi gul-u nastaran andin nishon.

Bu ikki yafrog'ni qachon zufunun,
Bir-biriga qo'ysa bo'lur «kof-u nun».

Dahri muqayyad bila ozodasi,
Borcha erur «kof» ila «nun» zodasi.

Tengriki, insonni qilib ganji roz,
So'z bila hayvondin anga imtiyoz.

Donai dur so'zini afsona bil,
So'zni jahon bahrida durdona bil.

Munchaki sharh etti qalam so'zga hol,
Nasridadur, nazmida bor o'zga hol.

So'z aro yolg'on kibi yo'q nopisand,
Aylar aning nazmini dono pisand.

O'rnida tishlar duri manzum erur,
Chun sochilur qiymati ma'lum erur.

Vardu shajar shohid erur bog' aro,
Lek o'tun silkidadur tog' aro.

Munda parishonlig'i noxush qilib,
Anda murattablig'i dilkash qilib.

Nav'i bashar boshig'a rabbi g'afur,
Qo'ydi tafovut bila toji zuhur.

Shohki gulshanni bisot aylagay,
Bazm tuzub, azmi nishot aylagay.

Har kishi o'z poyasi birla maqom
Tutsa erur anjuman ichra nizom.

Emdiki may zoyil etib hushni,
Shah yonig'a tortti chovushni.

Qul beg ila tuzdi uzun mojaro,
Qayda halovat yana ul bazm aro?

Arsada shatranjni ulkim to'kar,
Necha yig'och porasidurkim o'kar.

Chunki birov o'lturubon har taraf,
Tersa bisot ichra ani ikki saf.

Har yon iki saf iki misra' kibi,
To'rt saf o'lsa, iki matla' kibi.

Har biri bir turfa muammo bo'lub,
Otlar aning zimnida paydo bo'lub.

Fikri sahih elga bisotida ot,
Qilsa parishonlig' o'lub anda mot.

Daftari nazmida chu sherozadur,
Gul varaqi gulshan aro tozadur.

Uzdi chu sherozasini daftari,
Yel uchurur har varaqin bir sari.

Nazm anga gulshanda ochilmog'lig'i,
Nasr qaro yerga sochilmog'lig'i.

Bo'lmasa e'joz maqomida nazm,
Bo'lmas edi tengri kalomida nazm.

Nazmda ham asl anga ma'ni durur,
Bo'lsun aning surati harne durur.

Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,
Ahli maoniy qoshida xo'b emas.

Nazmki ham surat erur xush anga,
Zimnida ma'ni dog'i dilkash anga.

So'z ta'rifida

(nasriy bayoni)

So'z gavharining sharofati shunchalar yuksakki, gavhardek qimmatbaho narsa ham unga sadaf bo'la olmaydi. To'rt sadaf¹ ichidagi gavharga quti ham shu so'z, yetti osmon yulduzlarining burji ham shu so'z.

Inson ko'ngli qaysi tomonga bo'lmasin boqib, jahon bog'chasida yuz xil yangi gullarni ko'rarkan, ular barchasi bir vaqtlar sirli yo'qlikning gulshanida yashiringan, g'unchalar ham hammasi ochilmagan holda edi. Azaliyat tog'idan mayin shabada esa boshlashi bilan jahon bog'idagi shuncha gullar ochilib ketdi. Bu oddiy shabada emas, gullar sochuvchi shabada bo'lib, u na'matak va undan to'kilgan gul yafrog'iga o'xshab ketadi. Shu ikki narsani donishmand odam bir-biriga yopishtirsa, «kof-unun» hosil bo'ladi². Tangri insonni sirlar xazinasi darajasiga ko'targan ekan, uni so'zlash qobiliyatiga ega bo'lgani uchun hayvonlardan ortiq qilib yaratdi.

Durning bir donasi bilan bog'liq gapga ishonma, so'zni jahon dengizidagi haqiqiy durdona deb bil.

Qalam so'zni sharhlab yozgan shuncha gaplar nasrga oiddir. Nazmdagi so'zning xossasi bundan ham boshqacha. Oddiy so'zlashuvda yolg'ondan e'tiborsiz narsa yo'q. Lekin nazmdagi yolg'on (mubolag'a)ni donolar ham ma'qul ko'radi. Tish durlari o'z joyida tizilib turganda, tartibli, yaxshi ko'rinadi. Ular sochilib ketguday bo'lsa, qanday qimmatga ega bo'lishi mumkin?!

Gul va meva daraxtlari bog'da chiroyli ko'rinadi. Tog'da esa ular hammasi o'tin hisobida qaraladi. Bunda (nasrda) sochilib yotganligi kishini noxush qilsa, unda (she'rda) mavjud tartib-qoida ko'ngulni xursand etadi. Bandalarini kechiruvchi xudo ularni xilma-xil qilib yaratar ekan, ularning har qaysisini boshiga bir-biridan farq qiladigan toj bilan paydo qilgan. Shoh odatda gulshanda bo'lishi, unda bazm qurib, shodlik yo'lini tutishi kerak. Har kishi o'z darajasini bilib o'tirsa, o'tirishda tartib-intizom bo'ladi.

¹ **To'rt sadaf** – suv, havo, o't, tuproq.

² Arabcha «k» va «n» harfi bir-biriga qo'shilsa, «kun!» bo'lib, «yarat!», «ijod qil!» degan ma'nolarni bildiradi.

Bordi-yu ichkilik aqlini yeb, shoh o‘z yoniga eshik og‘asini o‘ltirg‘izsa yoki qul o‘z begi bilan adi-badi aytishadigan bo‘lsa, unday bazmda tag‘in qanday halovat bo‘lishi mumkin?!

Shaxmat taxtasiga donalarni to‘kkan odam uning yog‘och donalarini qancha maqtamasin, u chiroyli ko‘rinadi shu vaqtdaki, birov – ikki tomonga u donalarni ikki qatordan qilib tersa. Shaxmatning ikki tomonidagi ikki qator xuddi ikki misra she‘rga, to‘rt qator esa she‘rning ikki matlaiga o‘xshab ketadi. Bunday har dona ajoyib muammo bo‘lib, ularning orasida otlar ham paydo bo‘ladi. Odam qancha to‘g‘ri fikr qilmasin, bunda ozgina parishonlikka yo‘l qo‘ysa, otning yurishi tufayli mot bo‘lib qolishi mumkin.

She‘r daftari ham bir-biriga bog‘langani uchun uning varaqlari gulzordagi gulday toza. Daftarning ipi so‘kilsa, uning varaqlarini shamol har tomonga uchirib yuboradi. Gulshanda gullarning saf tortib ochilib turishi, bu – nazm; ularning yerda sochilib-to‘kilib yotishi esa nasrdir. Nazm bu qadar yuksak e‘zozlanmasa, Tangri so‘zi‘da bo‘lmas edi.

Nazmda ham asosiy narsa ma‘nodir, uning shakli esa har xil bo‘lishi mumkin. Yaxshi mazmunga ega bo‘lmagan she‘r tushungan odamlarning yaxshi bahosini ololmaydi. Ham yaxshi shaklga ega bo‘lgan, ham go‘zal ma‘no asosiga qurilgan she‘r – haqiqiy she‘r.

* * *

So‘z inson tanasidagi jon bo‘lib, ruh uning qolipi. Tanasida ruhi bor odam, ya‘ni tirik inson doim so‘zlamogga ehtiyoj sezadi. So‘z xuddi Iso payg‘ambarga o‘xshab, odamning o‘lgan tanasini tiriltirishi, ya‘ni odamga hayot bag‘ishlashi mumkin, deydi muallif. Muqaddas kitoblarda yozilishicha, Iso payg‘ambar «Masih» («jonbaxsh») o‘lgan odamni o‘z nafasi bilan hayotga qaytarguvchi zot hisoblangan ekanlar. Alisher Navoiy bobomiz so‘zga ana shunday ta‘rif berib, uning favqulodda katta ahamiyatini ko‘rsatmoqchi bo‘ladilar. So‘zni barcha odamlar yuragida bo‘ladigan eng muqaddas narsa deb aytadilar. Qo‘li gul ustalar, hunarmandlar po‘lat xanjarlar yasaganlarida, u chiroyli bo‘lsin uchun uning sopiga har xil qimmatbaho yaltiroq toshlar qadaganlar. Bobomiz ta‘rificha agar odamni tili shu po‘lat xanjar kabi bo‘lsa, so‘z ana shu xanjar bezagi hi-

¹ «Qur‘on» nazarda tutiladi.

soblangan, uning qiymatini belgilaydigan qimmatbaho tosh – duru injudir. Alloh insonni ham aslida maxluqlar qatori yaratgan. Lekin unga ong-shuur berib, sirlar so‘zlashish ne‘matini ato etib, hayvondan ajratgan. Demak, so‘z ongdagi fikrni sirlar xazinasini ifodalaydigan vosita ekan, u maxluqni odamga aylantirgan. So‘z tufayli inson o‘zgalar bilan munosabatga kirishadi. Bir-birini tushunadi.

So‘zni go‘zal ifodalarga, o‘xshatish va sifatlarga o‘rab taqdim etish bu badiiy so‘zdir. Badiiy so‘z inson qalbiga, tuyg‘ulariga ta’sir qiladi. Uning xulqi, odobini belgilaydi. Xalqimiz «Yaxshi so‘z jon ozig‘i, yomon so‘z jon qozig‘i» deydi. Ya’ni so‘zda ma’no bo‘lib yoqimli fikrlar ifodalansa u kishini yaxshi ishlar qilishga, mehr-u muruvvatli, saxovatli, g‘amxo‘r bo‘lishga undaydi. Yomon so‘z esa kishilarni g‘azabga, urush janjallarga boshlaydi, kasal qiladi, qalbini yaralaydi. Alisher Navoiy bobomiz so‘zni shunday go‘zal sifatlardan bezab ifodalash she’riyatga xos xususiyat ekanini, she’r so‘zlarni go‘yo durlardek bir qator tizib tartibga soluvchi durlar shodasi ekanini aytadilar. Agar durlar bir joyda tizilib tursa chiroyli ko‘rinadi. Ammo sochilib ketsa, qiymati yo‘qoladi. Bahriy so‘z ham shunday. Odatda so‘zlashganimizda birov yolg‘on so‘z aytsa, deylikki, xos bo‘lmagan sifatlarni aytib, kimgadir xushomadgo‘ylik qilsa hafsalamiz pir bo‘ladi, hatto yolg‘on so‘zlar uchun ranjib ham qolamiz. Lekin nazm – she’riyatda kishiga xos xususiyatlarni bo‘rttirib, goho qo‘shib-chatib mubolag‘alar keltirsa, bu yoqimli tuyulishi mumkin. Bobomiz fikrlaricha, she’rda mubolag‘a ishlatish donolarga ham ma’qul kelar ekan. Chunki mubolag‘a, bo‘rttirish orqali she’r qahramoni chiroyli sifatlardan kasb etadi, maqtaladi. Ammo mubolag‘a, maqtovdan ham me’yorida bo‘lgani yaxshi. Mubolag‘a ta’riflanuvchi kimsa yo narsaning asl holatidan juda uzoqlashib ketsa, u endi ma’noga putur yetkazishi mumkin. Aslida she’rlarda ham asosiy o‘lchov ma’nodir.

Nazmda ham asl anga ma’ni durur,
Bo‘lsun aning surati har ne durur.
Nazmki ma’ni anga marg‘ub emas,
Ahli maoniy qoshida xo‘b emas.
Nazmki ham surat erur xush anga,
Zimnida ma’ni dog‘i dilkash anga.

Haqiqiy she'r ma'no bilan uni ifoda etuvchi shakl – badiiy so'zlarning bir-biriga mutanosibligidan tug'iladi. Donishmandlar shakli chiroyli, mubolag'alari haddan ortiq bo'lgan, biroq ma'nosi sust, jo'n she'rni qabul qilmaydilar. Har ikki jihat mos kelganda she'r mukammal bo'lib, o'quvchiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

ALISHER NAVOIY RUBOIY VA QIT'ALARI

Buyuk bobomizning ijodiy merosida turli shakl va mavzudagi minglab g'azal, muxammas, ruboiy, qit'a kabi o'nlab janrdagi she'riy asarlari mavjud. Biz shulardan ayrim ruboiy va qit'alarni ko'rib o'tmoqchimiz.

Ruboiy – arab tilida to'rtlik ma'nosini anglatuvchi so'z bo'lib, mumtoz she'riyatda falsafiy, axloqiy, diniy va ishqiy mavzularda yoziladigan aruz vaznidagi to'rt misradan iborat lirik she'rdir. Aslida xalq og'zaki ijodida to'rtlik shaklidagi she'rlar ko'plab uchraydi. Ana shu she'rlar o'zbek adabiyotida ruboiy janriga asos bo'lgan. Faqat yozma adabiyotimizda aruz vazni joriy etilgach, to'rtliklar qat'iy shu vaznda yozila boshladi. Ruboiylar ikki xilda qofiyalanadi. Biri a – a – b – a shaklida uch misrasi qofiyalansa, ikkinchisi a – a – a – a tarzida barcha misralari qofiyalanadi. Barcha misralar qofiyalanishi asosidagi ruboiylar «taronai ruboiy» deb ataladi. Ya'ni ularda to'la ohangdoshlik saqlanadi.

O'zbek adabiyotidagi deyarli barcha klassik shoirlar ijodida va zamonaviy shoirlarimizning aksariyatida ruboiy janridagi she'rlar uchraydi. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Rizo Ogahiy kabi shoirlarimiz bu janrda «ko'p va xo'b» yozishgan. Sharq she'riyatida buyuk olim va shoir Umar Xayyom falsafiy ruboiylar yaratishda buyuk mahorat kashf etgan.

Bobokalonimiz hazrati Alisher Navoiy ham yuzlab ruboiylar yozib, bu janr rivojiga ulkan hissa qo'shganlar.

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulga tikondek oshiyon bo'lmas emish.

Har bir inson, jonzot o'z vatani, o'z tuprog'idan aziz, ardoqli.... o'z yurtidan ajralish fojia. Inson faqat o'z vatanida g'arib, bechora sezmaydi. O'zini o'zga ellar qancha begona bo'lsa, o'sha yurtning odamlaridan ham shafqat-g'amxo'rlik kutma. Qizil gulga ishqiboz bulbul agar u oltindan yasalgan qafas ichida bo'lsa, o'z oshiyoniga tikon-u xor-xasdan tiklangan bo'lsa-da almashmaydi. Chunki uning erki, ozodligi bo'lmasa, har qanday chamanzorda ham begona sezadi o'zini. Bu to'rt misra zamiriga shoir olam-olam ma'noni jo etib, vatansizlik inson uchun naqadar og'ir azob ekanini, har qanday sharoitda ham o'z yeriga sodiq qolish odamni baxt-saodatga eltishini ta'kidlamoqchi bo'ladi. Vatanni sevish iymonli, ishonch-e'tiqodli bo'lishning bir belgisi deydi donolar. O'z yurtidan chetlarda yashayotgan odamlar xorlik va xo'rlik ko'radilar. Yolg'on va'dalarga ishonib, aqidaparast buzg'unchi kimsalar ketidan chet ellarga ketib qolgan yosh yigitlarimizning qanchalar pushaymonda ekanliklari, oxir-oqibat yo qamoqlarda yoki boshqa bir vayronalarda xor-u zor bo'layotganliklari haqida siz ko'p eshitgansiz yoki teleekran orqali ko'rgansiz.

Alisher Navoiy bobomiz besh yuz yil oldin bunday xavfdan ogoq etganlar. Afsuski oltin qafaslardagi qizil gullarga oshiq bo'lib, o'z hayotini fojiali tugatayotgan kimsalar hanuz uchraydi. Demak bu ruboiy sira ahamiyatini yo'qotgan emas.

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,
 Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.
 Har neniki sevmoq andin ortuq bo'lmas,
 Andin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

Bu ruboiy hayotsevarlik g'oyalarini ifoda etgan, insonga umid va ishonch tuyg'ularini singdiradigan asardir. Jon eng sevimli, nihoyatda ehtiyot qilinadigan holat. Biror yeringiz og'risa, «voy jonim» yoki «jonim og'riyapti» deysiz. Dunyodagi hech narsa joningizdan shirinroq yo ortiqroq bo'lmaydi o'sha pallada. Bobomiz jon qancha shirin bo'lmasin, lekin umr barchasidan azizroq deydilar. Chunki umr Alloh tomonidan insonga ato etilgan oliy ne'mat, buyuk ishlar, ezguliklar qilish uchun berilgan fursat. Undan unumli foydalanib, odamlarga, o'z yaqinlari, oilasiga naf keltirib o'tgan umr aziz-u e'zozlidir. Yaxshi tarbiya topgan odam umr daqiqalarini

behuda o'tkazmaydi. Mehnat qiladi, yaratadi, olamni yashnatib, hayotni go'zal qiladi. Bunday odamlar hamisha el-yurtda hurmat topadi, e'tirof va ehtiromga sazovor bo'ladilar. Chunki ular hayotda iz qoldiradilar. Umr fursatlarini savobli ishlarga sarflaydilar. Bobomiz ana shu umrni aziz deydilar, uni har narsadan ortiqroq sevadilar. Vatanimiz tarixida shunday umr kechirgan ming-minglab tabarruk zotlar bor. Ulug' allomalarimiz, shoir-u adiblarimiz, hunarmand me'morlarimiz, yurtimizning buyuk tarixini yaratgan barcha insonlar umrni aziz qilgan zotlardir. Ular hayoti hamisha o'rnak bo'lmog'i kerak.

Shoir bobomizning quyidagi keltiriladigan ruboiylari ham yana qator boshqa ruboiylari kabi teran mushohadalarga, fikrga undaydigan, ramz-timsollarga, go'zal obrazlarga boy falsafiy asarlardir.

Jonimdag'i «jim» ikki dolingg'a fido,
Andin so'ng «alif» toza niholingg'a fido.
«Nun»i dag'i anbarin hiloling'a fido,
Qolg'an iki nuqta ikki xolingg'a fido.

Zohid, sanga hur, manga jonona kerak,
Jannat sanga bo'lsun, manga mayxona kerak.
Mayxona aro soqi-yu paymona kerak,
Paymona necha bo'lsa to'la, yona kerak.

O'lsam yasamang munda mozorimni mening,
Yuklab eliting jismi figorimni mening.
O'tru chiqarib ahli diyorimni mening,
Ko'yida qo'yung tani nazorimni mening.

Alisher Navoiy hazratlarining she'rlari orasida qit'a janriga mansub mo'jaz asarlar ham ko'p.

Qit'a – Sharq adabiyotida juda keng tarqalgan she'riy janr. U ikki yoki undan ortiq baytlardan iborat bo'lib, juft misralari o'zaro qofiyalanadi. Ya'ni b–a, g–a shaklida. Qit'a ikki xil bo'ladi. Birinchi xili mustaqil asar shaklida, ikkinchi xili esa g'azal, qasida, tarje'band kabi boshqa janrdagi she'rlar tarkibidan ajratib olish tarzida. Qit'a birinchi xil namunasida

shoirda paydo bo'lgan zavq, his-hayajon natijasida o'sha zahotiy oq qo-g'ozga tushiriladi va keyinroq lozim topilsa yana rivojlantirilib g'azal, qasida shakliga keltiriladi. Ikkinchi xil qit'alar aksincha biror munosabat bilan boshqa janrdagi she'rlardan ajratib, saralab olinadi. Ular falsafiy jihatdan teran, ta'sirchan, kuchli ibratomuz baytlar bo'lib, tugal mustaqil she'r sifatida ham ko'rilishi mumkin. Qit'a, shoirning kundalik hayotidagi taassurotlari asosida hozirjavoblik bilan yoziladigan ixcham asar. Unga kuzatilgan voqeadan darhol poetik xulosa chiqarish, fikrni boshqa janrdagi qat'iy shakllarga qaraganda erkin ifodalash, vazn, mavzularni belgilashda imkoniyatning kengligi kabi xususiyatlarga xosdir.

Qit'a janrida adabiyotimizning Lutfiy, Alisher Navoiy, Gadoiy, Bobur, Turdi, Ogahiy, Uvaysiy, Komil Xorazmiy kabi ulkan shoirlari ijod etishgan. Albatta bu ro'yxatda eng barakali va eng mahoratli qit'alar muallifi sifatida bobomiz Alisher Navoiy hazratlari birinchi o'rinda turadilar.

Mana hazratning ba'zi qit'alari:

Chun g'araz so'z din erur ma'ni anga,
 Noqil o'lsa xoh xotun, xoh er.
 So'zchi holin boqma, boq so'z holini,
 Ko'rma kim der ani, ko'rgilkim ne der.

Muhtaram o'quvchi, Siz bilan yuqoriroqda bobomizning «Hayrat ul-abror» dostonidagi so'z xususida aytilgan fikrlarini tahlil qilib, so'zning qudrati, uning ta'siri, badiiy so'zning ahamiyati haqida to'xtalib, so'z insonni hayvon – maxluqotdan ayirgan eng asosiy omillardan ekanini ko'rgan edik. Hazrat ana shu mavzuni mazkur qit'alarida davom ettirib, endi o'sha muqaddas bo'lgan so'zni aytish adabi, madaniyati xususida to'xtaladilar. Va juda aniq, ixcham shaklda o'z fikrlarini lo'nda bayon etadilar.

So'zni erkakmi, ayolmi, kim aytsa ham ma'noli aytishi kerak. Chunki so'zlashdan maqsad biror ma'noni anglatishdir. Shuning uchun so'zni kim aytayapti, uning ahvoli qandayligi bilan qiziqmasdan, balki qanday so'z aytilayapti – ma'nolimi yoki aksi, mana bunga e'tibor bermoq muhim. Darhaqiqat juda to'g'ri fikr. Xalqimizda ham «Odamni o'ziga emas, so'ziga boq» degan maqol bor. Kishi balki tashqi qiyofasi ko'rimsiz, ayrim bir sabablar tufayli kiyimlari eskiroq bo'lishi mumkin. Biroq uning so'zi chiroyli bo'lsa,

soʻzida maʼno-mazmun boʻlsa, eʼtiboringizni shu jihati jalb etadi. Suhbatdoshingizga hurmatingiz oshadi. U bilan uzoqroq suhbatlashingiz, yaqinlashingiz keladi. Undan aql, ibrat olasiz. Aksincha koʻrinishi goʻzal, ammo soʻzlari dagʻal, qoʻrs-qoʻpol odamlar ham boʻladi. Ularning tashqi qiyofasiga qarab baho berib, suhbatlashsangiz, undan tezroq qutulishni oʻylaysiz, bahona topib, uzoqlashishga harakat qilasiz. Qoʻpol badjahl odamlar xunuk soʻzlar, yoqimsiz iboralar aytishga moyil boʻladilar yoki istehzo, kinoya bilan soʻzlaydilar. Bunday soʻzlar kishilar qalbini yaralaydi, ozor beradi. Shuning uchun ularni «dilozor odamlar» deb barcha qochadi. Ana shularni koʻzda tutib, quyidagi qitʼalardan juda ibratli xulosalar chiqarish lozim.

Shoir bobomizning mana bu qitʼalari xushomadgoʻy kimsalar haqida:

Kimki maxluq xizmatigʻa kamar
Chust etar, yaxshiroq ushalsa beli.

Qoʻl qovushtirguncha bu avlodur,
Ki aning chiqsa egni, sinsa beli.

Chun xushomad demakni boshlasa kosh
Kim, tutulsa dami, kesilsa tili.

Yomon bir kimsaning xizmatini qilib yurgan kishi undan alam koʻrib, tahqirlanib kaltak yesa-yu, yana unga xushomad qilib oʻtirsas, bunday odamning damini qaytarib tilini kesish kerak, deydi shoir. Bu bilan til-yogʻlamalik, yomonni yaxshi deb xushomad qilish, yoʻq sifatlarini keltirib, amaldor yo davlatmand shaxsga yaxshi koʻrinmoqchi boʻlish bu eng badbin illatlardandir.

Koʻngilchan, kamtarin insonlar amal kursisiga oʻtirsas, albatta atrofida maʼlum gʻarazli maqsadlarni koʻzlab xushomadgoʻylik qiluvchi kimsalar paydo boʻlishi mumkin. Ular oʻzlarining nomunosib xatti-harakatlari, yolgʻon maqtovlari, yolgʻon sadoqatlari bilan oʻsha rahbarni notoʻgʻri yoʻllarga boshlaydilar. Rahbar shunday odamlarga aldanib, egri ishlarni qila boshlasa qoqilib qolishi, oxir-oqibat tanazzulga yuz tutishi aniq. Ana shundan, oʻsha xushomadgoʻylar birinchi boʻlib undan qochadilar, turli joylarda yomonlab, obroʻini toʻkadilar. Bunday odamlarni oqil kishilar «buqalamun kimsalar», yaʼni tusini oʻzgartirib turadigan oʻz qiyofasiga ega boʻlmagan

odamlar deb nafratlanadilar. Navoiy bobomiz nafratlanibgina qolmay, xushomadgo‘y kimsaning tili kesilsa deya, ularga o‘z g‘azablarini oshkora bildiradilar.

So‘zida ma‘no yo‘q, xushomadgo‘y badbin kimsalar kabi jaholatda umr o‘tkazgan odamlarni bobomiz yana bir qit‘alarida hammomga kirib, undan yuvinmay nopok chiqqan odamlar deb hisoblaydilar.

Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sanga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o‘tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Bu yorug‘ olam odamlar uchun sinov dunyosi. Unda yashagan kimsa o‘zini inson deb bilmog‘i uchun o‘zini anglamog‘i, tag-zoti – avlodini bilmog‘i, ilm-u hunar kasb etib, o‘zi va o‘zgalarga nafi yetmog‘i lozim. Olam shu qadar go‘zal va jozibador, sehrliki, uning go‘zalliklaridan bahra olish, sir-sinoat, tilsimotlarini kashf etish beqiyos huzur bag‘ishlaydi. Ilm cho‘qqilarini egallab, ma‘rifatli bo‘lgan odamlargina o‘sha huzurga erishadilar. Shu sabab hazrat o‘quvchiga «kamol kasb et», ya‘ni ilm o‘rgan, o‘z ma‘naviy kamolotingga erishgin, shundagina «olam uyidan» – dunyodan «g‘amnok» – afsuslanib o‘tmaysan. Agar hayotdan ma‘no topolmay, hech narsani bilmay, intilmay maxluqlarday yashasang, hammomdan poklanmay chiqqan kabi, ya‘ni jaholat botqog‘iga botib, dunyo saodatini bilmay o‘tasan demoqchi bo‘ladilar. Axir tiriklik, hayotning ne‘mati, avvalo, o‘rganib, izlab, anglamog‘da, halol mehnat qilib, farovon turmush kechirmog‘dalar.

Bobomiz Alisher Navoiyning ruboiy va qit‘alari, umuman ijodiy meroslaridan biz avlodlariga qoldirgan pand-u nasihat va ibratlari bir dengizdir. Bu ma‘naviy dengizdan barchamiz hamisha bahramand bo‘lib tursak, hayotda yanglishmay, to‘g‘ri yo‘ldan boramiz.

Savol va topshiriqlar

1. Alisher Navoiy hazratlari siymosining xalqimiz ma‘naviy hayotida tutgan o‘rni haqida so‘zlab bering.

2. Nima uchun biz har yili 9-fevral kunini bayram sifatida nishonlaymiz?
3. Alisher Navoiy siymosi aks etgan qanday badiiy kitob va boshqa san'at asarlarini bilasiz?
4. «Xamsa» so'zi qanday ma'noni anglatadi va «Xamsa» yaratgan qaysi ijodkorlarni bilasiz?
5. «Hayrat ul-abror» qanday ma'noni anglatadi?
6. Nima uchun bobokalonimiz So'zni ulug'laganlar?
7. So'zning dur kabi tizilishi nimaga nisbat beriladi?
8. Mubolag'ali so'zni qo'llash qachon foydali bo'ladi?
9. She'rdagi ma'noning ahamiyati haqida so'zlang.
10. Ruboiy so'zining ma'nosi, uning she'riy janr sifatidagi ta'rifini aytib bering.
11. Qanday ruboiylarni «ruboiyi tarona» deb ataymiz?
12. O'zbek va boshqa xalqlar adabiyotidagi qaysi shoirlar ruboiy yozganlar?
13. Alisher Navoiy bobomiz ruboiylaridan namunalar yodlang.
14. Bobomiz ruboiylarining mavzulari haqida so'zlab, ayrimlarining mazmunini sharhlab bering.
15. Ruboiylardan qanday ibratli xulosalar chiqardingiz.
16. Qit'a janri haqida so'zlab bering.
17. Necha xildagi qit'alarni bilasiz?
18. Qaysi shoirlar qit'a janrida ijod qilganlar?
19. Qit'alardan namunalar yodlang.
20. «Odamni o'ziga emas, so'ziga boq» maqolini Alisher Navoiy bobomiz qit'alari asosida sharhlang.
21. Shoir bobomizning xushomadgo'y kimsalar haqidagi qit'alaridan qanday xulosalar chiqarish mumkin?
22. Qanday odamlar hammomdan nopok chiqqan odamlarga qiyoslanadi?
23. O'rganilgan ruboiy va qit'alarning ahamiyati va ibrati haqida sinfdoshlaringiz bilan suhbat o'tkazing.



XALQ QO'SHIQLARI

Qo'shiqlar xalq poetik ijodining eng qadimiy va ommaviy shakllaridan biridir. Aziz o'quvchilar! Siz har kuni radio, televizor orqali o'nlab, yuzlab qo'shiq tinglaysiz. O'zingiz ham biror-bir yoqimli qo'shiqni xirgoyi qilib yursangiz ham ajab emas. Biroq ularni farqlay bilish kerak.

Qo'shiqlar yaratilish manbai, tinglovchilarning qaysi qatlamiga bag'ishlangani, mavzulariga ko'ra har xil. Masalan, xalq tomonidan va real ijodkorlar (shoir va bastakor) tomonidan yaratilishiga qarab *xalq qo'shiqlari* va *zamonaviy qo'shiqlar* deb farqlanadi. Xalqimiz tarixida qo'shiqlarning qadimiy turi mavjud bo'lgan: ov qo'shiqlari, mavsum qo'shiqlari, to'y qo'shiqlari («Yor-yor»), aza qo'shiqlari (marsiya) kabi. Bundan tashqari bolalarga mo'ljallangan alla, ovunchoq qo'shiqlar, o'yin qo'shiqlari («Boychechak», «Oq terakmi, ko'k terak») ham mavjud.

Siz bilan biz tanishmoqchi bo'lgan *xalq qo'shiqlari* kundalik hayotimizni bezovchi ko'ngil mulki hisoblanadi. Xalqimiz o'z quvonchini, shodligini yoki g'am-hasratini qo'shiqlarda yorqin aks ettirgan. Xalqimizning og'zaki bisotidan lirik qo'shiqlar va termalar yillar davomida sayqallanib bizgacha yetib kelgan va hozir ham sevilib ijro etilyapti.

Xalqimiz tomonidan yaratilgan qo'shiqlarda milliy urf-odatlarimiz nafislik va nazokat bilan aks ettiriladi. Kundalik hayotda onalarimiz allani kanda qilmay kuylayotganlari yoki to'ylarimizning «Yor-yor»siz o'tmayotganligi buning isbotidir.

Qo'shiq – jon ozig'i. Uni tinglaganingda ruhing yengil topadi, jon orom oladi. Xalq qo'shiqlarining bu boradagi o'rni beqiyos. Quyida e'tiboringizga havola etilayotgan xalq qo'shiqlari biz ta'riflagan buyuk ummondan tomchilar, xolos. Ularni o'qing, kuylang, toki qalbingiz zavq-u shavqqa to'lsin.

BOYCHECHAK

Boychechagim boylandi,
Qozon to‘la ayronди.
Ayroningdan bermasang,
Qozonlaring vayronдир.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Boychechakni tutdilar,
Tut yog‘ochga osdilar.
Qilich bilan choptilar,
Baxmal bilan yopdilar.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

BOSHHINAM OG‘RIYDI

– Onajon, onajon!
Boshginam og‘riydi-ya.
– Boshginangdan onang aylansin,
Nimalarga og‘riydi-ya?

– Bozorlarda bo‘lar ekan,
Zargarlarda turar ekan,
Uning oti tillaqosh,
O‘shanga og‘riydi-ya!

– Onajon, onajon!
Bo‘yniginam og‘riydi-ya.
– Bo‘yniginangdan onang aylansin,
Nimalarga og‘riydi-ya?

– Bozorlarda bo‘lar ekan,
Zargarlarda turar ekan,
Uning oti bo‘yintumor,
O‘shanga og‘riydi-ya!

– Onajon, onajon!
Quloqqinam og‘riydi-ya.
– Quloqqinangdan onang aylansin,
Nimalarga og‘riydi-ya?

– Bozorlada bo‘lar ekan,
Zargarlarda turar ekan,
Uning oti oltin isirg‘a,
O‘shanga og‘riydi-ya!

CHITTI GUL

Chitti gul-e, chitti gul,
Etagingga gul bosay.
Hay-yu, chitti gul,
Hay-yu, chitti gul.

Qo‘ling qo‘lbog‘da bo‘lsin,
Beling belbog‘da bo‘lsin.
Hay-yu, chitti gul,
Hay-yu, chitti gul.

Tapir-tupur ot keldi,
Chiqib qarang – kim keldi?
Hay-yu, chitti gul,
Hay-yu, chitti gul.

Aravada un keldi,
Childirmada gul keldi.

Hay-yu, chitti gul,
Hay-yu, chitti gul.

Gul yaxshi-yu, gul yaxshi,
Gulning popugi yaxshi.
Hay-yu, chitti gul,
Hay-yu, chitti gul.

O'rtada o'ynagan qizning
Haydar kokili yaxshi.
Hay-yu, chitti gul,
Hay-yu, chitti gul.

Savol va topshiriqlar

1. «Qo'shiq – jon ozig'i», «Qo'shiq – ko'ngil mulki» deganda nimani tushunasiz?
2. Qo'shiqlar yaratilish manbai, mavzulari, kimlarga mo'ljallanganiga qarab har xil dedik. Buni tushuntirib bering.
3. Qaysi qo'shiqlarni o'yin qo'shiqlari deya olamiz?
4. Mavsum qo'shiqlari sirasiga qaysi qo'shiqlar kiradi?
5. Xalq qo'shiqlari qanday xususiyatlarga ega?
6. «Boychechak» qo'shig'i nima haqda? Sharhlang.
7. Kitobingizdagi qaysi qo'shiqni savol-javob qo'shig'i deya olamiz?
8. Biror-bir xalq qo'shig'ini yod oling va uni mukammal kuylashga harakat qiling.

Nosiruddin Burhonuddin

RABG‘UZIY

(XIII asr oxiri – XIV asr boshlari)

QISAS AR-RABG‘UZIY

O‘zbek mumtoz nasrining ilk go‘zal durdonasi «Qisas ar-Rabg‘uziy» («Rabg‘uziy qissalari») asarining muallifi Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning bizgacha shu birgina asari yetib kelgan. Asar muqaddimasidan ma‘lum bo‘lishicha, u Xorazmning Raboti o‘g‘uz degan mavzesida tug‘ilgan. Rabg‘uziy taxallusi ham shundan kelib chiqqan. O‘g‘uz urug‘idan bo‘lgan. «Qisas ar-Rabg‘uziy» mutolaasi muallifning badiiy salohiyati balandligi, o‘z davrining barcha ilmlaridan, Qur‘oni karim, Hadisi sharif va diniy-tasavvufiy adabiyotlardan yetarlicha xabardor donishmand kishi bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Rabg‘uziy o‘z asarini Movarounnahr hukmdori Alouddin Tormashirinning noibi, musulmonlikni qabul qilgan ma‘rifatli mo‘g‘ul beklaridan bo‘lgan Nosiruddin To‘qbug‘abekning iltimosi va homiyligida 1309–1310-yillarda yozadi. Shundan taxmin qilish mumkinki, u XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida yashagan.

Ma‘lumki, Qur‘onda payg‘ambarlar haqidagi qissalar va diniy voqealar bir necha suralarda nozil bo‘lganligidan ularni sharhlash, tushuntirishga ehtiyoj tug‘ilgan. Shuning natijasi o‘laroq dastlab arab tilida Abu Is‘hoq Nishopuriy, Vahhob binni Munabbih al-Yamaniylarning «Qisas ul-anbiyo» asarlari paydo bo‘lgan. Keyin fors tilida shunday asarlar yaratilgan. «Qisas ar-Rabg‘uziy» o‘zbek tilida yaratilgan bu yo‘nalishdagi asarlarning ilk namunasi hisoblanadi.

Rabg‘uziy Qur‘on va hadisdan tashqari, Imom Ya‘qub Sufyon, Majiddiddin Anbugoniy, Qaffol Shoshiy va boshqalarning Qur‘onga yozgan

tafsirlari, «Usmat ul-avliyo», «Daloyil an-nubuvva» kabi ko‘plab diniy adabiyotlar, Abulhasan Kisoiy qissalaridan ham foydalangan. Lekin u o‘zidan oldin yozilgan asarlardan nusxa ko‘chirib qo‘ya qolmaydi, balki mavzuga ijodiy yondoshadi, qissa va hikoyatlardan eng ishonchliharini tanlab oladi. Shu bilan birga, salaflari¹ yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzatadi, bu kitoblardagi chala qissalarni to‘ldiradi. Bu haqda To‘qbug‘abek unga shunday degan edi: «... payg‘ambarlar qissalariga qiziqishim juda kuchli. Bunday qissalar ko‘p bo‘lsa-da, ularning ba‘zisi haqiqiy, ba‘zisi esa soxta. Bir qanchasi qiyomiga yetgan bo‘lsa, bir qanchasi hali notugal. Bir qismining tafsiloti chala bo‘lsa, bir qismining maqsadi noayon. Shuning uchun sen o‘qishga yaroqlik bir kitob bitsang...»

Rabg‘uziy bor bilimi va mahoratini ishga solib, kitobni bir yil ichida yozib tugatadi. Dunyoning yaratilishidan boshlab so‘nggi payg‘ambar Muhammad alayhissalomning nevaralari Hasan va Husaynning shahid bo‘lishlari – payg‘ambar xonadonining zavoligacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan ushbu asar 72 ta katta-kichik qissalardan iborat. Olam va Odamning paydo bo‘lishi, payg‘ambarlar hayoti, islom tarixi, boshqa ko‘plab diniy voqea-hodisalar, qisqasi, olamning bir butun diniy manzarasini o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlantirishga yo‘naltirilganligi jihatidan asar asrlar davomida ko‘plab nusxalarda ko‘chirilib, turkiy xalqlar o‘rtasida sevib o‘qilgan. «Qisasi Rabg‘uziy», «Qisas ul-anbiyoi turkiy» nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Asarning qo‘lyozma nusxalari dunyoning turli kutubxona va qo‘lyozma fondlarida saqlanadi. Uning eng qadimgi qo‘lyozmasi XIV asrning qirqinchi yillarida – muallif hayotligida ko‘chirilgan bo‘lib, u Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi. Mashhur sharqshunos K. Gronbek tomonidan 1948-yili Kopengagen (Daniya)da uning faksimilesi² chop etilgan. Xuddi shu nashr asosida akademik E. Fozilov, fan nomzodlari A. Yunusov va H. Dadaboyevlar uni o‘zbek tilida nashrga tayyorlab, ikki jildda chop etdilar.

«Qisas ar-Rabg‘uziy» bir qarashda yagona sujet chizig‘iga ega bo‘l-

¹ **Salaf** – oldin o‘tganlar; ustozlar.

² **Faksimile** – qo‘lyozmaning aynan tiklangan nusxasi.

magan asarday taassurot tug'diradi. Chunki unda 33 payg'ambar, 4 xalifa, 7 tarixiy shaxs va boshqalar to'g'risida so'z boradi. Lekin asarning bosh qahramoni ham bor. U – Muhammad alayhissalom. Ma'lumki, diniy ta'limotga ko'ra, olamning asosida Muhammad nuri yotadi. Bu nur olam yaratilmasdan burun ham mavjud edi. Ollahning olamni yaratishidan maqsad – inson, insondan maqsad esa Muhammad alayhissalom edi. Shuning uchun ham asarning boshidan oxiriga qadar Muhammad alayhissalom mustaqil qissalami bir-biriga bog'lovchi halqa bo'lib xizmat qiladi. Chunonchi, Odam Ato tug'ilganda uning oldida Muhammad alayhissalom nuri jilva qiladi. Shis payg'ambar tug'ilganda bu nur unga o'tadi. Nuh kemasining 124 ming temir halqasi bo'lib, har bir halqada bir payg'ambarning ismi bitilgan edi. Ular orasida Muhammad payg'ambar ham bor edi. Bundan tashqari, barcha qissalar ichida Muhammad alayhissalomning biror hadisi yoki u bilan bog'liq biror rivoyat keltiriladi.

«Qisas ar-Rabg'uziy» o'sha davr Movarounnahr va Oltin O'rda hududi uchun mushtarak bo'lgan turkiy adabiy tilda yozilgan. U Rabg'uziyning nafaqat turkiy nasr asoschilaridan biri, balki zabardast shoir ham ekanligini ko'rsatadi. Chunki payg'ambarlar to'g'risidagi har bir qissa she'r bilan boshlanib, ularda qissaning mazmuni umumlashtirilgan. Shuningdek, ayrim qissalar she'riy xulosa bilan yakunlanadi. Qissada jami 600 misra she'r mavjud. Xususan, tabiat manzaralari, bahor tasvirini shoir hassoslik bilan qalamga olgan. «Qissai Yusufi siddiq alayhissalom» ichida kelgan «Bahoriyoti Mavlono Nosiruddin Rabg'uziy» nomli g'azalning el ichida mashhur bo'lib ketishi bejiz emas:

Kun hamal¹ g'a kirdi ersa, keldi olam Navro'zi,
 Kechdi bahman² zamharir³ qish, qolnadi qori, muzi.
 Kun kelu ming ko'rki ortib, tirilur o'lmish jahon,
 Tong badiz⁴ lab, naqshi birla bezanur bu yer yuzi.

¹ **Hamal** – hijriy-shamsiy yilning birinchi oyi (21-mart – 20-aprel).

² **Bahman** – hijriy-shamsiy yilning o'n birinchi oyi (22-yanvar – 20-fevral).

³ **Zamharir** – sovuq, qahraton.

⁴ **Badiz** – tasvir.

«Qisas ar-Rabg‘uziy» Qur‘on, hadis va diniy adabiyotlar ta‘sirida, ulardan foydalanilib yozilgan bo‘lsa-da, voqealar keng, chuqur va badiiy yo‘sinda bayon qilinib, adabiy asar holiga keltirilgan. Buning uchun adib ifodani ta‘sirchan qiladigan badiiy vositalar – tashbeh, talmeh, mubolag‘a, tazod, lutf, tajohuli orifona, irsoli masal kabi san‘atlardan mahorat bilan foydalangan, xalq maqol-mataallari, obrazli iboralari, folklor motivlarini ustalik bilan asar matniga singdirib yuborgan. Badiiy to‘qimalardan mahorat bilan foydalangan. Pand-nasihat ruhini singdirgan. Bularning barchasi asarning ta‘sirchanligi, o‘qimishligini oshirgan.

«Qisas ar-Rabg‘uziy» – badiiy-estetik qimmat, ma‘naviy-axloqiy ahamiyati jihatidan o‘zbek mumtoz adabiyotining durdona asarlari sirasiga kiradi. U payg‘ambarlar tarixini ilk bor turkiy xalqlarga o‘z tillarida sodda va tushunarli tarzda bayon qilib berish orqali ularni diniy qadriyatlardan bahramand etgani bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. U O‘rta Osiyo, Volgabo‘yi va Kavkazorti hududlari turkiy tilli xalqlari tomonidan ham sevib o‘qilgan. Asar nafaqat din tarixi va badiiy adabiyot, ayni paytda, til tarixi, islom tarixi va ahkomlari, tarix, jamiyatshunoslik, etnografiya, psixologiya, falsafa, astronomiya kabi fanlar bo‘yicha ham ko‘p ma‘lumotlarni o‘z ichiga olganligi jihatidan ma‘rifiy-ilmii ahamiyat kasb etadi.

Muallifning hikoya uslubi sodda, samimiy va qiziqarli. Ilk sahifalaridanoq o‘quvchini o‘z ortidan ergashtirib ketadi. Lekin oradan yetti asr o‘tgani uchun hozirgi o‘quvchi asarni o‘qishga qiynaladi. Shuni hisobga olib, asardan olingan hikoyatlarni hozirgi tilimizga tabdil qilib (moslashtirib) berishni ma‘qul ko‘rdik. Bunda siz aziz o‘quvchilarning yoshingiz, bilim darajangiz, so‘z boyligingizni ham hisobga oldik. Yuqori sinflarga o‘tganingizda, mumtoz adabiyot asarlarini mutolaa qilib, qadimiy so‘z boyligingiz ko‘payganida asarni asl nusxasida o‘qib, zavq olishingiz mumkin. Hozir esa uning zamonaviy tilga moslashtirilgan hikoyatlarini o‘qib, ma‘naviy zavq, ma‘rifiy bilim oling. Dunyo, hayot, jamiyat va inson haqida xulosa chiqaring.

ODAMNING YARATILISHI¹

Qudratli va ulug‘ Olloh Odamni yaratishga qaror qilganida Jabroilga xitob qildi:

– Borgil, yer yuzidan bir hovuch tuproq keltirgil!

Jabroil kelib, bir hovuch tuproq olmoqchi bo‘lganida yer mendan tuproq olmagil deb Jabroildan o‘tindi. Jabroil (uning) hurmatini qilib, tuproq olmadi.

Isrofilni jo‘natdi. (Yer) undan ham tuproq olmasligini o‘tindi. U ham tuproq olmadi.

Keyin Mikoilni jo‘natdi. (Yer) undan ham tuproq olma deb o‘tindi. U ham tuproq olmadi.

Keyin Azroilni jo‘natdi. (Yer) undan ham o‘tindi. Azroil² dedi:

– Menga sening iltimosingdan Tangri taolo amri azizroq!

Shunday deb, yer yuzidan bir hovuch tuproq oldi...

Parvardigori olamdan xitob keldi:

– Ey Azroil, juda qattiq ko‘ngillik ekansan. Barcha mavjudotlarning jonini olishni senga taqdir qildim.

Savol: Odamni tuproqdan yaratishdan hikmat nima edi?

Javob: Qudratli va ulug‘ Olloh Odamni yarataman deb xitob qilganida barcha narsalar bosh ko‘tarib: «Odamni bizdan yaratgil!» – deb tama’ qildilar. Tog‘ aytdi:

– Men – qutlug‘man!

Dengiz aytdi:

– Men – ulug‘man!

Osmon aytdi:

– Men –yuksakman!

Shu tariqa barcha narsalar o‘zlarini ulug‘ladilar. Yer esa tavoze bilan:

– Men hammadan zaifman, oyoq ostidaman, menda maqtangulik narsa yo‘q, – deb kamtarlik qilganida xitob keldiki:

– Men Odamni tuproqdan yaraturman! – deb.

Odamni tuproqdan yaratdi.

¹ Matnni hozirgi tilga E. Ochilov moslashtirgan.

² Islomdagi farishtalar: **Jabroil** – Xudo bilan payg‘ambarlar o‘rtasida elchilik qiladi. **Isrofil** – qiyomat kuni kelganini bildirib, sumay chaladi. **Mikoil** – koinotni boshqaradi. **Azroil** – jon oladi.

SHAYTONNING LA'NATLANISHI

...Azozil jannatda hukmfarmo edi. Barcha farishtalarga ilm o'rgatar edi. Bir kuni «Lavh ul-mahfuz»da¹ ko'rdiki, farishtalardan biri mal'un² bo'lar deb. Buni bilib, farishtalarning barchasi qo'rqdilar. Azozilga kelib aytdilar:

– Sen ustozimizsan, duo qilgil, qudratli va ulug' Oллоh bizni la'natdan asrasin!

Azozil duo qildi, farishtalar «omin» dedilar. Qudratli va ulug' Oллоh uning duosi (sharofati) bilan barcha farishtalarni la'natdan asradi, (Azozilning) o'zi la'natga qoldi.

Farmon bo'ldiki: Odamni nurdan yasalgan bir taxtga o'tqazib, farishtalar uni yelkalarida ko'tarib, jannatni kezar edilar. Sabab bu edikim, Odam yaratilmasdan avval Odam o'g'lonlari fasod qilg'aylar, qon to'kkaylar deb (farishtalar) g'iybat qildilar. Biz tasbih³ va taqdis⁴ aytamiz, deb o'zlarini ulug'ladilar. Parvardigori olamga (ularning) bu so'zi ma'qul kelmadi. Hukm qildi: sizlar Odamni g'iybat qildingiz, savoblargiz bekor bo'ldi. U savoblar Odam o'g'lonlariga berildi. Bu g'iybatning jazosi shudir. Bu kun barcha farishtalar boring, Odam taxtini yelkangizga ko'tarib, unga xizmat tariqini ko'rsating, deb farmon bo'ldi. Shundan keyin qudratli va ulug' Oллоh «Asmo»⁵ ilmini Odamga o'rgata boshladi. Hamma narsalarni farishtalarga ko'rsatdi.

– Agar to'g'ri so'zlik bo'lsangiz, bu narsalarning oti nimadir, menga aytib bering.

Farishtalar ojiz bo'lib aytdilar:

– Sen o'rgatgandan boshqa narsani bilmasmiz.

Yana Odamga farmon bo'ldi:

¹ **Lavh ul-mahfuz** – diniy aqidaga ko'ra, kishilarning yaxshi va yomon amallari, taqdiri azaldan bitib qo'yilgan taxta.

² **Mal'un** – la'natlangan; qarg'ish urgan.

³ **Tasbih (aytish)** – Xudoni zikr etish, «subhonolloh-subhonolloh» deyish.

⁴ **Taqdis (aytish)** – muqaddas hisoblash, poklikka nisbat berish.

⁵ **Asmo** – ismlar. Oллоh taoloning go'zal ismlari haqidagi ilm bo'lib, bu ismlarning jami 99 ta. U «Asmoi husna» (go'zal ismlar) deb ham yuritiladi.

– Ey Odam, farishtalarga bu narsalarning otini aytib bergin.

Odam (barcha narsalarning) otini ayta boshladi:

– Bu – daraxt, bu – tosh, bu – suv...

Hamma narsaning nomini boshidan oxiriga qadar barcha tillarda bayon qildi.

Xitob keldi:

– Ey farishtalar, sizlarga aytmadimmi, men bilgan narsani sizlar bilmaysizlar, deb. Endi sizga ma'lum bo'ldiki, Odam olimdir, siz obidsiz¹. Mening huzurimda ming obiddan bir olim afzalroqdir. Qayda obid bo'lsa, u olinga xizmat qilishi kerak. U maxdum² bo'lsin, sizlar xodim³ bo'ling. U masjid bo'lsin, sizlar sajda qiluvchi bo'ling. Odamga sajda qiling!

Barcha farishtalar baravariga sajda qildilar... yolg'iz Azozil sajda qilmadi. O'zini ulug' sanab, bo'yin egmadi va kofirlar jumlasidan bo'ldi.

Azozil sajda qilmagach, (arshdan) xitob keldi:

– Nima uchun sajda qilmading? – deb.

– Men undan ortiqroqman, – dedi. – Meni o'tdan yaratding, uni qora tuproqdan...

Bunday dalil keltirgani uchun Azozil otini bekor qilib, Iblis (deb) nom berdilar. Ma'nosi «noumid» demakdir. La'nati Iblis o'tni tuproqdan ortiq dedi. Bilmadiki, tuproq o'tdan ortiqdir. Dalili bukim: o't o'g'ridir, nimaniki o'tga bersa, yo'q qilur, qaytib bermas. Ammo tuproqqa bir hovuch (narsa) solsang, o'nni yuz qilib senga qaytarur...

Iblis aytdi:

– Yo Rabbim, (men) yuz ming yil toat qildim, uning mukofotin menga bergil.

Xitob keldi:

– Nima istaysan?

Iblis uzun yosh tiladi – qiyomat kuniga qadar.

Mufasssirlar⁴ ayturlar:

¹ **Obid** – toat-ibodat qiluvchi, xudojo'y, taqvodor.

² **Maxdum** – boshqalar uning xizmatida bo'ladigan kishi; xo'jayin, xoja.

³ **Xodim** – birovlariga xizmat qiladigan kishi, xizmatkor.

⁴ **Mufasssir** – sharhlovchi, tafsirlovchi (Qur'on va hadisni).

– U badbaxt Olloh taologa nayrang ko‘rsatdi – qiyomat kuniga qadar umr tiladi. Maqsadi shu ediki, o‘liklar tiriladigan kunga qadar umr ko‘rsam, keyin menga o‘lim bo‘lmaydi deb. Olloh taolo uning (bu yashirin) sirini bilib, javob qildi:

– Biz senga umr berdik ma‘lum kunga qadar, sen tilagan kunga qadar bermadik.

Boshqa bir mo‘tabar tafsirda keltirilishicha, (qiyomat kunigacha) deganidan maqsad bu edi: hozirda Tangri farishtalari ko‘pdir. Ularga (qarshi) chiqishga qudratim yetmas. O‘liklar tiriladigan kungacha umr ko‘radigan bo‘lsam, ungacha Jabroil, Isrofil, Azroil va boshqa farishtalarning hammasi o‘ladigan bo‘lsa, Tangri yolg‘iz qolganda uning bilan talashaman deb niyat qilgan edi.

Savol: Iblis mal‘un bo‘lgandan keyin qanday qilib jannatga kira olar edi?

Javob: Olloh marhamat qildi: «Odam o‘g‘lonlari uzra nusrat¹ berdim. Ko‘rmasmisaniki, Rasul alayhissalom²: «Qon odam bolasining tanasida qanday aylansa, shayton (ham uning ichida) shunday yuradi», – deb ogohlantiradilar.

ODAM ATO VA MOMO HAVONING JANNATDAN HAYDALISHI

Odam (Ato) va (Momo) Havo nikoh qilinganlaridan keyin xitob keldi:

– Ey Odam, jufting bilan jannatga kirgil, ne‘matlaridan bahramand bo‘l. Faqat mana bu yig‘ochga³ yaqinlashmang – zolim bo‘lgaysiz.

Ishonchli manbalarga ko‘ra, u bug‘doy yig‘ochi edi...

Iblis mal‘un bo‘lgandan keyin jannatdan haydaldi. Jannatga kira olmaydigan bo‘ldi. Ko‘nglida Odam (Ato) va (Momo) Havoga nisbatan adovat bosh ko‘tardi. Ularni yo‘ldan urib, jannatdan chiqarishga qasd qildi. O‘sha paytda ilon chiroyli suratlik tuyaga o‘xshar edi. Qizil, yashil – turli bezaklik qanotlari bor edi. (Momo) Havo ilonning chiroyli suratini

¹ **Nusrat** – zafar, g‘alaba, g‘oliblik.

² Bu yerda Muhammad alayhissalom ko‘zda tutilmoqda.

³ **Yig‘och** – daraxt, yog‘och.

xush ko'rib, u bilan suhbat qurar edi. Buni bilgan Iblis ilondan iltimos qildi:

– Meni jannatga olib kir, Havo bilan so'zlashayin, – deb.

Ilon qo'rqdi. Unamadi.

Iblis aytdi:

– Og'zingni ochgil, men kirayin.

Ilon og'zini ochdi.

Iblis ilonning tili ostiga yashirindi. (Shu tariqa ilon Iblisni) jannatga olib kirdi. Ilon Odam (Ato) va (Momo) Havoning taxti ro'parasiga kelib to'xtadi. Tili ostidan Iblis so'zga kirdi. Odam (Ato) ilon so'zini tinglamagach, (Momo) Havoga yuzlandi. «Ayol kishining ko'ngli yumshoq bo'ladi», – deb (Momo) Havoga so'zladi:

– Tangri sizni bu bug'doy yig'ochidan man qilgani sababini bilar-misan?

(Momo) Havo aytdi:

– Bilmayman.

Iblis aytdi:

– Shuning uchunki, kim bu bug'doydan yesa, jannatda abadiy yashaydi, o'lim ko'rmaydi, yana jannat ne'matlaridan bebahra qolmaydi.

Bu so'zni eshitib (Momo) Havoning ko'ngli sust ketdi. O'rnidan turdi. O'n qadam yurib, bug'doy (yoni)ga bordi. Bir butog'ini sindirib, Odam (Ato)ning qoshiga keltirdi:

– Bu butoq lazmatli ekan, men yedim – hech narsa qilmadi, sen ham yegil, – dedi.

Odam (Ato) o'sha damda (Tangriga) bergan va'dasini unutdi. Bug'doyni og'ziga soldi, chaynadi, bo'g'ziga tiqilgandagina va'dani esladi. Yutishni ham bilmadi, yutmaslikni ham... Bu gunoh sodir bo'lgach, boshlaridan toj tushdi, ustlaridan libos – yalang'och qoldilar. Qo'llari bilan avratlarini bekitib, yaproq so'rab, daraxtdan-daraxtga yugura boshladilar. Qaysi daraxtga bormasin (lar, ular) yaproq bermadi...

Hukm keldi:

– Ey Odam, mendan qochayapsanmi?

– Yo Iloho, uyatdan sendan senga qocharman, – dedi.

Jabroil Odam (Ato)ning qo‘lidan tutib, Parvardigori olamning oldiga olib keldi.

Farmon bo‘ldi:

– Ey Odam, seni tuproqdan yaratmadimmi? Ma‘rifat bilan ulug‘lamadimmi? Chiroyli surat bilan bezamadimmi? Farishtalarga ko‘tarmadimmi? Jannatga kirgizmadimmi? (Ilohiy) ne‘matlardan bahramand etmadimmi? (Momo) Havoni senga juft qilmadimmi? Bug‘doy yig‘ochini yemang demadimmi? Shaytonni sizga dushman deb aytmadimmi? Nega bug‘doy yeding?

– Yo Iloho, ul hukmni kim qildi, u qismatni kim belgiladi?

Farmon keldi:

– Men yuritdim, men qismat qildim. Ammo mening (belgilaydigan) qismatim, hukmim, taqdirim (yashirin) sirdir, buyrug‘im, farmonim ochiqdir. Ochiqni qo‘yib, nega yashirin sirga daxl qilding?

– Yo Iloho, agar bunday hukm qilgan, qismat belgilagan bo‘lsang, meni endi kechirgil, meni mag‘firat qilgil, – dedi.

Farmon keldi:

– Seni mag‘firat qildim. Sendan keyin keladigan (tug‘iladigan) farzandlaring ham shunday tavba qilsalar, ularni ham kechirgayman. Endi jannatdan chiqgil, – dedi.

Xabarda andog‘ kelur: anjir daraxti Odam (Ato) va (Momo) Havoga besh yaproq berdi – andomlarini yashirib, (jannatdan) chiqdilar. Tong otgach, u besh yaproqdan birini kiyik yedi – mushk¹ bo‘ldi, birini sig‘ir yedi – anbar² bo‘ldi, birini ari yedi – asal bo‘ldi, birini qurt yedi – ipak bo‘ldi, birini Odam (Ato) yerga sanchdi – yung bo‘ldi. Qiyomatgacha (undan) farzandlariga kafan bo‘ldi.

Nukta³. Anjir daraxti Odam (Ato)ga yaproq bergani uchun qudratli va ulug‘ Tangri (uni) ulug‘ladi. Har qanday meva uch xil bo‘ladi: olma, nok kabi mevalarning tashqi tomoni yeyiladi, bodom,

¹ **Mushk** – qora rangli xushbo‘y modda. Kiyiklardan bir turining kindigida mushk hosil bo‘ladi – bu yerda shunga ishora qilinmoqda.

² **Anbar** – xushbo‘y modda.

³ **Nukta** – nozik va chuqur ma‘noli so‘z, hikmat.

yong‘oqqa o‘xshaganlarning ichi – mag‘izi yeyiladi, qovun, tarvuz kabilarning po‘chog‘i ham, urug‘i ham yeyilmaydi. Ammo anjirning tashi ham, ichi ham yeyiladi.

Jannatdan chiqing deb Odam (Ato)ga, (Momo) Havoga, tovusga, ilonga ilohiy amr keldi. Odam (Ato) bilan (Momo) Havo zor-zor yig‘lab-yolvorib (jannatdan) chiqdilar.

Odam (Ato) Hindistonga, Anjalus¹ degan yerga – Sarandip² tog‘iga tushdi. (Momo) Havo Jadda³ (yaqinidagi) toqqa tushdi. Iblis Basraga⁴ tushdi... Odam (Ato) bilan (Momo) Havo yalang‘och qoldilar, Iblis mal‘un bo‘ldi, ilonning chiroyli ko‘rinishi aynidi – yer bag‘irlab yuradigan, achchiq tuproq yeydigan bo‘ldi.

Odam (Ato) tushgan yerida haddan ziyod ko‘p yig‘ladi. Yuz yig‘och⁵ lik yerda ko‘zyoshlaridan daraxtlar undi, yo‘llar hosil bo‘ldi, buloqlar ko‘z ochdi. Odam (Ato)ning ko‘zyoshi tomgan yerda o‘t-o‘lan, achchiq-chuchuk dorivor o‘simliklar o‘sdidi. (Momo) Havoning ko‘zyoshlari tomgan yerda ud⁶, qaranful⁷, sunbul⁸, hino, o‘sma undi. Qiyomatga qadar Odam farzandlariga meros qoldi...

Yana farmon bo‘ldi:

– Ey Odam, mag‘firat tilasang, Makkaga borgil. Men uchun bir uy tiklagil.

Aytdi:

– Yo Iloho, ul yerning qayerdaligini men bilmasman.

Qudratli va ulug‘ Olloh taolo bir qushni yo‘l ko‘rsatuvchi qilib jo‘natdi. (U qushning) oti – ko‘k qarg‘a edi. U uchar, Odam (Ato) uning ortidan borar edi... Odam (Ato) Makka yeriga kelib bir uy tikladi... Ul uyning atrofini tavof etdi. Olloh Odam (Ato)ning (bu ishlarini) qabul qildi, gunohini kechirdi...

¹ **Anjalus (Andalus)** – Ispaniyaning qadimgi nomi.

² **Sarandip** – Seylon (Shrilanka).

³ **Jadda** – Saudiya Arabistonidagi shahar.

⁴ **Basra** – Iroqning janubi-sharqidagi shahar.

⁵ **Ylg‘och** – taxminan 9 km ga teng masofa birligi.

⁶ **Ud** – o‘tga solganda xush hid taratadigan yog‘och.

⁷ **Qaranful** – qalampirmunchoq.

⁸ **Sunbul** – gullari halqa-halqa va xushbo‘y gul.

Jadda tog‘idagi (Momo) Havo qorni ochsa, dengiz qirg‘og‘iga kelib, baliq tutib, tosh ustiga qo‘yib, pishirib yer edi. Odam (Ato) ikki yuz yil yig‘ladi. Ikki yuz yildan keyin Arafot (degan) joyda ikkovlari topishdilar.

NUH ALAYHISSALOM QISSASI

...Nuh Sharqdan G‘arbgacha (bo‘lgan) barcha xalqlarga payg‘ambar edi. Bir qarich yer odamdan xoli emas edi. Bir parcha yerdan 300 yuk¹ bug‘doy chiqar edi, 100 botmon bug‘doy bir yillik oziq bo‘lar edi.

Hikoyat qilishlaricha, Sharqdan G‘arbgacha tutash tomlardan (iborat) uylar edi, tomdan tomga (o‘tib), Sharqdan G‘arbgacha borsa bo‘lar edi...

Hikoyat qilishlaricha, Sharqdan G‘arbgacha, qayerga tayoq tashlasa, kishi boshiga tushar edi. Yana aytadilarki, mushuk tomdan-tomga oshib yursa, 100 yig‘och yer yurar edi. Shuncha xalq bo‘la turib, Olloh yagona deguvchi kimsa bo‘lmadi. Nuh davridagiday ko‘p xalq qiyomatgacha bo‘lmaydi. Shu vaqtda Jabroil payg‘ambarlik (xabarini) keltirdi. Nuh aytdi:

– Dunyo juda keng, kofirlar ko‘p. Men qayerga borib, sening yakka-yu yagonaliging (xabarini) yetkazayin?

Xitob keldi:

– Ey Nuh, mendan eshittirish, sendan aytish.

Nuh imonga da‘vat qildi. Shamol Nuhning so‘zini Sharqdan G‘arbgacha olib borar edi:

– Har kuni chiqib, imon keltiring. Olloh taoloning birligiga iqror bo‘ling. Mening payg‘ambarligimga ishonib.

Kofirlar Nuhni ura boshladilar. Shunchalik urdilarki, suyaklari sindi. Qopga solingan suyak qanday shiqirlasa, terisi ichida suyaklari shunday shiqirlar edi. Tunda boshini yostiqa qo‘yganida qudratli va ulug‘ Olloh shifo berar edi. Jabroil har kuni kelib, vahiy yetkazar edi:

– Ey Nuh, borgil, kofirlarga aytgil: «Lo iloha illallohu Nuhun rasulallohi»², – desinlar.

Borib aytar edi, (yana) shunday urar edilar. Nuh aytdi:

¹ **Yuk** – og‘irlik; bir ulov ko‘taradigan og‘irlikdagi yuk.

² Olloh yagona, Nuh uning elchisidir.

– E Xudoyim, kecha-kunduz sening farmoningni yetkazdim – tinglamadilar, ochiq aytdim – eshitmadilar. Da’vat orasida nasihatlar qildim – qabul qilmadilar.

950 yil da’vat qildi: 80 kishi musulmon bo’ldilar, imon keltirdilar – yarmi er, yarmi ayol. Boshqa hech kishi musulmon bo’lmadi. Kun sayin mashaqqati ziyoda bo’ldi. Nuhning xotini kofir edi.

Kunlardan bir kuni bir keksa chol bir o’g’lonni boshlab Nuhning qoshiga keldi. Nuhning yuziga tupurdi, tili (ga kelgan so’zlar) bilan so’kdi. U o’g’longa aytdi:

– Nuh bir telbadir. Otarimiz uning so’zini eshitmadilar. Bugun men unga (nisbatan) nima qilgan bo’lsam, sen ham mendan keyin shunday qil, – deb o’g’longa vasiyat qildi.

Nuh uni ko’rib, so’zini eshitib, o’zidan umid uzdi. Umidi bekor bo’ldi. Iltijo qilib, aytdi:

– Ey Xudoyim, biror kofirni yer yuzida tirik qo’ymagil!

Qodir Xudo qirq yil yomg’ir yog’dirmadi, yerda giyoh undirmadi, xotinlarga o’g’il-qiz tug’dirmadi. Hayvonlarning hammasi halok bo’ldi, izlarida qolmadi.

Shu vaqtda Nuhga amr bo’ldi:

– Iltijongni qabul qildim – borgil, chinor daraxti ekkin...

Nuh chinor ekdi. Qirq yilda uch chinor voyaga yetardi. Avjni¹ taklif qildilar. Ul daraxtni sudrab keltirdilar. Jabroil Nuhga ta’lim berdi. Yog’ochni pona bilan yordilar. Suv yuzida o’rdak yurganini ko’rsata berdi. Unga o’xshatib, kema yasay boshladilar. Kofirlar uni ko’rib, kular edilar:

– Hozirga qadar payg’ambar eding, endi duradgor bo’ldingmi? Buni nima qilasan? – deb so’rasalar:

– Kema qilarman, ustiga minib, suv yuzida suzarman, – dedi.

– Egar yasayapsanmi, avval eshak olgil, – deb kular edilar...

Nuh javob qilar edi:

¹ **Avj ibn Unuq** – Odam alayhissalomning qizi Unuqning o’g’li. Uzun bo’ylik bo’lib, ikki oyog’ining orasi bir kunlik yo’l edi. Tog’ning tepasida o’tirib, qo’li bilan dengizdan baliq ushlab, quyoshga tutib, pishirib yer edi.

– Siz bizni mazax qilursiz, ertaga azob (ga mustahiq bo‘lganda) biz ham sizni mazax qilurmiz, – deb.

Nuh so‘radi:

– To‘fon va‘dasi qachon bo‘lar?

Farmon keldi:

– Qachon sening tandiring ichidan suv chiqsa, u azobni yuborarman.

Kema uch qavat edi: pastki qismida hayvonlar, o‘rtasida Nuh va uning qavmi, yuqori qismida qush va qurtlar edi. Nuhning to‘rt o‘g‘li bor edi: Som, Hom, Yofas va Kan‘on. Kema yo‘ndilar: uzunligi 300, eni 200 qari¹. Ba‘zilarning aytishicha, uzunligi 1200, eni va balandligi 600 qari. 124 ming temir halqa qildilar. Har bir halqada bir payg‘ambarning ismi bitilgan edi. «Muhammad rasulullohi» deb bitilgan temir halqani Iblis o‘g‘irladi. Nuh har qancha qidirsa-da, (uni) topmadi. Jabroil kelib xabar berdi. Nuhga bergil desa (men) olmadim, deb ont ichdi. Jabroilning jahli chiqdi. Kemaning bir yog‘ochini olib, boshiga urdi. Boshi, ko‘zi qonga bulg‘andi. Qo‘rqanidan (qaytarib) berdi.

Kema tayyor bo‘lganida Nuhning kofir xotini non pishirar ekan, tandir ichidan suv chiqdi. Kelib Nuhga (bu haqda) xabar berdi. Nuh musulmonlikni qabul qilgan o‘sha 80 kishi bilan kemaga chiqdi. To‘rt o‘g‘lidan Som, Hom va Yofas musulmon edilar, Kan‘on (esa) kofir edi.

Farmon keldi:

– Har bir mavjudotdan bir juft olib kemaga kiritgil: bir erkak, bir urg‘ochi, (toki) urug‘lari kesilmasin. Yana o‘g‘lonlaringni kiritgil.

Nuh aytdi:

– Ey Xudoyim, uchadigan, yuguradigan mavjudotlarni qanday qilib tutayin?

Suv yuzida barcha mavjudotlar yig‘ildilar. Har biridan bir erkak, bir urg‘ochisini tutib, kemaga kirgizdilar. O‘g‘li Kan‘onni kiritmoqchi bo‘lganida farmon keldi:

– Kirgizma, u kofirdir!

¹Qari – qo‘l uchidan tirsakkacha bo‘lgan uzunlik o‘lchovi birligi; gaz. Gaz – 70 sm ga teng o‘lchov birligi.

Aytdi:

– Ey Xudoyim, oila (a’zolari) ngni kirit deb o’zing aytding-ku?

Farmon keldi:

– U sening oilang a’zosi emas.

Nuh aytdi:

– Ey Kan’on, musulmon bo’l, kemaga kirgil, to’fon suvi halok qilmasin.

Kan’on aytdi:

– Men baland tog’larga sig’ingayman. Tog’ meni suvdan asraydi.

Nuh aytdi:

– Bu kun Ollohdan o’zga biror kimsani bu azobdan saqlaydigan zot yo’q.

Shu so’zni aytar ekan, suv keldi. Kan’onni halok qilgudek bo’lgan edi, toqqa qarab qochdi. Suv keldi, to’pig’iga chiqdi. O’g’li bor edi, uni oyog’i ostiga olib, ustiga chiqdi. Bola o’ldi, o’zi ham g’arq bo’ldi, (bu dunyodan) imonsiz bordi.

QALDIRG’OCHNING INSONIYATGA DO’STLIGI

...Nuh payg’ambar ilonni, chayonni kemaga qo’ymadi odamga sizdan zarar tegar deb. (Ular) aytdilar:

– Kim sening otingni tutsa, ul kimsaga zarar yetkazmagaymiz...

Aytadilarki, qirq kecha-kunduz yomg’ir yog’di. Har bir tomchisi te-girmon toshi chog’lik edi. Dunyoda qaysi tog’ eng baland bo’lsa, uning ustida qirq qari suv bor edi. Kemadagi 80 kishidan boshqa dunyoda tirik jon qolmadi, hammasi halok bo’ldi.

Xabarda keltirishlaricha, kemada uch narsa yo’q edi, daryo ichida paydo bo’ldi: biri – mushuk, ikkinchisi – sichqon, uchinchisi – to’ng’iz. Sichqon paydo bo’lgach, kemani teshdi. Farmon bo’ldi: Nuh qo’li bilan arslon boshini siladi – burnidan ikki mushuk chiqib, ul sichqonni (tutib) yedilar. Yana aytdilar: sichqon kemani teshgach, odamlarga g’arq bo’lish xavfi paydo bo’ldi, suv ichidagi teshikni qidirib topmadilar. Nuh aytdi:

– Kim bu teshikni berkitsa, har qanday tilagi bo’lsa, ado etgayman.

Ilon aytdi:

– Men uni berkitayin, suv kirmasin. Kirgan suvlarni chiqarsinlar.

Yana ilon aytdi:

– Menga nima berasan?

Nuh aytdi:

– Nimani xohlaysan?

Ilon aytdi:

– (Bu dunyoda) nimaning eti (eng) mazalik bo‘lsa, (o‘shani menga nasiba qilib) bergil.

Nuh qabul qildi. Ilon suvga kirib, teshikni topdi, ustiga kulcha bo‘lib yotdi, suv yo‘li bekildi. (Kema) ichidagi suvni tashqariga chiqarib tashladilar. Suv xavfi qolmadi.

Kemadan chiqqandan keyin ilon kelib, Nuhdan ul etni so‘radi.

Nuh aytdi:

– Hamma jonivorlar chiqib, yer yuziga tarqalib ketdilar, (endi) etni qanday topaman?

Ilon so‘rab qo‘ymagach, Nuh alayhissalom chivinni jo‘natdi:

– Bor, yer yuzidagi etlarni totib ko‘r, (qaysi eng mazali bo‘lsa, uni) ilonga (nasiba qilib) beraylik.

Chivin ketdi, (lekin) kech qoldi. Ilon talab qildi. Nuh uyatlik bo‘lib, chivinni topib kelishga qaldirg‘ochni yubordi. Qaldirg‘och kelib, chivinni topdi.

– Nega kech qolding? – deb so‘ragan edi, chivin aytdi:

– Yer yuzi keng ekan, aylanaman deb kechga qoldim.

Qaldirg‘och so‘radi:

– Etlarni totib ko‘rdingmi? Qaysi et mazali ekan?

Chivin aytdi:

– Barcha etlardan odamning eti mazali ekan.

Qaldirg‘och aytdi:

– Ul etning mazasi og‘zingda (hali) bo‘lsa kerak. Og‘zingni och, hidlab ko‘rayin.

Chivin og‘zini ochdi. Qaldirg‘och uning og‘zini hidlamoqchi bo‘lib, tumshug‘i bilan chivinning tilini uzib oldi. O‘sha kundan beri chivin tilsiz

(bo‘lib) qoldi. Ikkovlari Nuh payg‘ambar (huzuri)ga keldilar. Chivindan har qancha so‘ramasinlar, gapirmas, tushunarsiz ovoz chiqarar edi. Qaldirg‘ochdan so‘radi:

– Nima uchun gapirmayapti?

Qaldirg‘och aytdi:

– Men bilan gaplashganida barcha etlardan suv baqasining eti mazali ekan deb aytgan edi. Kech qolgani uchun qo‘rqib so‘zlolmayapti.

Nuh alayhissalom baqa etini ilonga (nasiba qilib) berdi. Agar qaldirg‘och o‘sha kuni shunday yaxshilik qilmasa edi, biz barcha odamlar ilonga yemish bo‘lar edik¹.

QORUN QISSASI

Qorun Muso payg‘ambar xolasining o‘g‘li edi. Bir kuni Muso Fir‘avn-ga (ilohiy) farmonni yetkazgali borayotganida bir tilanchi qarshisidan chiqdi. Musodan narsa tiladi. Muso aytdi:

– Menda senga bergulik hech vaqo yo‘q.

Tilanchi:

– (Juda) og‘ir ahvoldaman, – deb yolvordi.

Qorun Musoga salom qilgani kelayotgan edi. Uzoqdan Musoni darvesh bilan ko‘rdi. Muso ko‘rsa, narsa so‘raydi, deb yashirindi. Muso aytdi:

– Shu yerda (kutib) turgil. Fir‘avnikidan uyga qaytishda senga (biror) narsa beraman.

Darvesh aytdi:

– Shunchalik og‘ir ahvoldamanki, kutishga toqatim yo‘q.

Muso (uning o‘zidan) umidini uzayotganini ko‘rib dedi:

– Yerda ko‘ringan o‘tlarni yiqqil, quritgil. Shundan keyin biroz temir-mi, qalaymi, qo‘rg‘oshinmi, misimi, har nimaki topsang, (uni) eritgil. Quritilgan o‘tingdan unga ozgina aralashtir. Hammasi qizil oltin bo‘ladi.

¹ Qaldirg‘och Ibrohim alayhissalomga ham yaxshilik qilgan. Zolim podshoh Namrud uni o‘tga yoqqanida qaldirg‘och tumshug‘ida suv keltirib, u o‘tga separ edi. Ibrohim alayhissalom: «Ey qaldirg‘och, sening tumshug‘ingdagi suv bu o‘tga nima ham foyda qilar edi», – deydi, lekin uni duo qiladi. Qaldirg‘och keltirgan suv bilan o‘t o‘chunadi, lekin u o‘zining do‘stligini ko‘rsatdi. Qiyomatga qadar yaxshilik bilan ot chiqardi. Evaziga yaxshilik mukofot oldi.

Darvesh bilar ediki, Musodan yolg'on so'z chiqmas. Bu so'zga ishonib jo'nadi. Qorun Musoning bu so'zlarini eshitib turar, ammo Muso Qorunni ko'rmas edi. Muso ketishi bilan Qorun darveshdan:

– Muso senga nima berdi? – deb so'radi.

Darvesh aytdi:

– (Hech) narsa bermadi, ammo o'tlarni misga aralashtir, oltinga aylanadi, dedi.

Qorun aytdi:

– Ey darvesh, Muso sendan qutulish uchun bahona qildi, shu ham so'z bo'ldimi? Borgil, rizqingni (boshqa yerdan) qidir.

Darvesh uyiga ketdi. Qorun u o'tlarni yig'di, quritdi. Temir, mis, qalay, qo'rg'oshin eritdi. U o'tdan ozgina aralashtirgan edi, qizil oltin bo'ldi. Yana bir ming botmon¹ temirga, misga, qo'rg'oshinga u o'tdan ozgina sorsa, qizil oltin bo'lar edi. Tangri qudrati bilan Qorun yetti kecha-kunduz oltinchilik qildi. Boyliklardan xazinalar hosil qildi. Har bir xazinaga bir oltindan kalit yasatti. Kalitlar ko'p bo'ldi. Ko'tarish og'ir bo'ldi. Xachirga yukladilar, xachir ko'tarmadi.

Aytadilarki, har bir xazinaga sigir terisin quritib, barmoq (kattaligida) kalit qildirdi yengil bo'ladi deb. Qirq xachirga yuklatti – ko'tarmadi. Har bir xachir yuki to'rt yuz botmon edi. Aytadilarki, to'rt qo'sh ho'kizlik yerni saroy qildirdi. Tomlari bir g'isht oltin, bir g'isht kumush, ikki g'isht orasiga mushk-anbar, za'faron² yuritdi. Dur-u marvaridlar aralashtirdi.

To'shangulari hammasi oltindan, durdan, marvariddan. Qachon qo'shini otlansa, 50 ming yigit hammasi oltin uzangulik otlanur edi. Boshdan-oyog'igacha yuzlari, sochlari qizil oltin edi. Quyosh nuridek tovlanar edilar. O'zi qo'shin orasida qora ko'zlik, yoli, quyrug'i qora oq xachirga minib, yana 400 qul yigitlar qizlar to'nin kiyib, yana 400 qiz yigitlar to'nin kiyib, barchasi xachirlarga minib chiqar edilar. Xaloyiq uni ko'rib, dunyo tilaganlar havas qilib aytar edilar:

– Ey koshki, bu Qorunga berilgan mol-dunyoni bizga ham bersa edi!

Ammo u dunyoni tilaganlar aytar edilar:

¹ **Botmon** – og'irlik o'lchovi. Turli davrlarda va turli mamlakatlarda turlicha hajmda bo'lgan.

² **Za'faron** – sarg'ish tus beruvchi xushbo'y o'simlik.

– Voy, sizning ahvolingizga! Qudratli va ulug‘ Tangriga imon keltirganlar, ezgu ish qilganlarga Xudoning savoblari yaxshiroq. Sabr qiluvchilardan boshqalar bu savobga ega bo‘lmaydilar.

Xabarda kelur: Muso payg‘ambar har kuni Isroil xalqini yig‘ib, minbarga chiqib, majlis qilar edi, va‘z va nasihat aytar edi. Qorun ham oltin piyola chiqarib, Muso ro‘parasida o‘tirib, cholg‘uvchilarni muhayyo qilib, orqasi va oldida qullari davra tutib, may ichar edi. Muso sabr qilib turar edi.

Tangri farmon qildi:

– Ey Muso, Qorunga aytgil, molining yarmini darveshlarga bersin...

Kellub aytsa, Qorun dedi:

– Musoga aytgil, men sening Tangringdan (hech) narsa so‘ramayman.

Yana Jabroil farmon keltirdi:

– Ey Muso, Qorunga aytgil, boyligining beshdan birini kambag‘allarga bersin... O‘n hissa qilib qaytarayin.

Kellub (yana) Qorunga aytsa, (u) dedi:

– Musoga aytgil, (o‘sha) o‘n hissa boylikni o‘zi kambag‘allarga bersin.

Mendan narsa so‘ramasin.

Kellub kelib ko‘p nasihatlar qildi – unamadi.

– Mol bermayman, – dedi...

Kelib (buni) aytganida, Qorun dedi:

– Narigi dunyoda seni Fir‘avn bilan do‘zaxda ko‘rgayman, – deb jo‘nadi.

Muso Tangriga munojot qildi, aytdi:

– Ey Xudoyim, (bunga) balo yuborgil!

Farmon keldi:

– Qaysi baloni xohlarsan?

Muso aytdi:

– Yerni mening ixtiyorimga bergil.

Tangri taolo ijobat qildi.

Muso(ning) jahli chiqib, (qo‘liga) tayoq oldi. Qorun saroyiga bordi. Horun, Yusha¹, Kellub¹ yana boshqa Isroil xalqi bilan bordilar. Ayvonda

¹ Horun, Yusha¹, Kellub – Musoning safdoshlari.

arxom toshidan but qilib, oltin bilan bezatib, o'zi taxt ustida o'tirardi. Yigitlar, qizlar, qulbachalar oltin toji atrofida (qo'l qovushtirib) turar edilar. Muso kirib keldi. Aytdi:

– Ey Qorun, Fir'avn oldida har kuni to'rtta non uchun xizmat qilmasmi eding? Qudratli va ulug' Tangri shuncha mol va ne'mat berdi, nega ehson qilmaysan?

Qorun aytdi:

– Tangri bergan emas, men o'z ilmim bilan ishlab topdim.

Muso achchig'lanib, tayog'ini ko'tardi. Aytdi:

– Ey yer, yutgil!

Qorunning taxti atrofining yetti yeri o'prildi. Qorun sakrab yerga tushdi. Yer Qorunni to'pig'igacha yutdi. Qorun faryod qildi:

– Ey Muso, kechirgil!

Muso aytdi:

– Azob yetib keldi, endi tavba qilasanmi?

Ikkinchi marta aytdi:

– Yutgil!

Beligacha yutdi. Yana yolvordi. Muso aytdi:

– Azob yetib kelgandan keyin (tavba) foyda qilmas.

Yana aytdi:

– Ey yer, yutgil!

Qorunni butunlay yer yutdi.

Aytishlaricha, Isroil xalqi degan emishki: Muso Qorunning boyligini olish uchun halok qildi. Muso (Xudoga) munojot qildi, aytdi:


– Ey Xudoyim, bilasankim, boylig uchun iltijo qilmadim. Bular menga ta'na qilmasinlar, boyligini berayin. Yer o'ziga yutsin.

Tangri taolo Muso duosin ijobat qildi. Qorunni barcha mol-dunyosi, saroyi bilan yer yutdi.

Savol va topshiriqlar

1. Rabg'uziy hayoti va ijodi haqida so'zlab bering.
2. «Qisas ar-Rabg'uziy» asarining yaratilish tarixi qanday kechgan va asar qancha muddatda yaratilgan?

3. Ollohning olamni yaratishdan maqsadi inson edi. Insonni yaratishdan maqsadi nima edi?
4. Olloh insonni nima uchun tuproqdan yaratdi? Bundan hikmat nima edi? Bu hikmatni tushuntirib bering.
5. Ollohga tuproqni qaysi xislati ma'qul keldi?
6. Ollohning mening huzurimda «ming obiddan bir olim afzalroqdir» degan so'zlarini nasriy bayondan foydalanib sharhlang.
7. Azozil qaysi qilig'i uchun Ollohning g'azabiga uchradi va unga nima deb nom berdilar?
8. Odam Ato va Momo Havoning jannatdan haydalishi tafsilotini va ularning xatoga yo'l qo'yishiga kim sababchi bo'lganini gapirib bering.
9. Nuh payg'ambarning insoniyat oldidagi xizmatlari nimada?
10. Ollohning birligini xohlamaganlar qanday jazolandilar?
11. Nuh payg'ambar o'z kemasini nima maqsadda yasadi? U necha qavatdan iborat edi, unda tirik mavjudotlarning joylashish tartibini tushuntiring.
12. Nuh payg'ambar o'g'illariga tavsif bering.
13. Ilon Nuh payg'ambarga qanday xizmat qildi va o'z xizmati uchun qanday haq talab qildi?
14. Ilon ovqati inson eti emas, balki suv baqasi bo'lib qolishida Qaldirg'och qanday xizmat qildi?
15. Qaldirg'och Ibrohim alayhissalomga qanday yaxshilik qildi va buning uchun qanday mukofotga sazovor bo'ldi?
16. «Qaldirg'ochning insoniyatga do'stligi» mavzusida sodda reja tuzing va uni yozma bayon qiling.
17. Qorun kimning rizqini o'g'irladi va buning uchun qanday jazo oldi?



Muhammadsharif GULXANIY
(*XVIII asr oxiri – XIX asr boshlari*)

ZARBULMASAL

Muhammadsharif Gulxaniy XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Qo‘qonda yashab ijod qilgan mashhur masalnavis adib va hassos shoirdir. Jo‘shqin fe‘lligi va olovqalbligi tufayli o‘ziga Gulxaniy taxallusini tanlagan. Keyinchalik she‘rlarida Jur‘at taxallusini qo‘llagan. Bizgacha uning o‘zbek va tojik tillaridagi 12 g‘azali, Qo‘qon xoni Amir Umarxonga bag‘ishlangan 1 qasidasi va «Zarbulmasal» asari yetib kelgan.

O‘z davri voqeligini majoziy usulda badiiy ifoda etgan axloqiy-pandnoma va tanqidiy-hajviy yo‘nalishdagi «Zarbulmasal» asari Gulxaniyga favqulodda shuhrat keltirdi. Unda ijtimoiy hayot muammolari, turli toifadagi odamlar o‘rtasidagi munosabatlar, xalq turmush tarzi va udumlari haqida majoziy uslubda so‘z yuritiladi. Insonga xos xususiyatlar boshqa jonli va jonsiz narsalarga ko‘chirib tasvirlansa, majoziy asar deyiladi. Gulxaniy ham, qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit qabilida qushlar misolida o‘z davri voqeligi manzaralarini tasvirleydi. Toj-u taxt talashlari, mamlakat urushlar natijasida yurt vayron, xalq xarob bo‘lgan. Buxoro va Qo‘qon xonliklari o‘rtasidagi munosabat yomon bo‘lib, ular o‘zaro urushib yurganlari uchun ham asarda Buxoro go‘yoki vayronalarga boy muzofot singari tasvirlansada, Qo‘qon ham undan obod emas edi. Adib aytmoqchi, xonning atrofini Boyo‘g‘li, Yapaloqqush, Ko‘rqush, Kordon, Kulonkir sulton kabi yomon odamlar o‘rab olgan. «Holo, bu turg‘onlaring navola¹ do‘stlari, piyola hariflari², taom yemakka hozir, maslahatga aqli qosir»³. Bu ketishda mamlakat

¹ Navola – in‘om, ehson; taom, luqma.

² Piyola hariflari – qadah, ulfatchilik do‘stlari.

³ Qosir – qisqa; ojiz.

vayronaga, shoh uning ustidagi Boyo'g'liga aylanib qolishi hech gap emas. Gulxaniyning yirtqich va asosan tunda ov qiladigan qushlarni o'z asariga qahramon qilib olishida nozik ishora mavjud. Shuning uchun Ko'rqush tilidan nasihat qiladi: «Ulug'ni borgohinda¹ xiradmandi² donish³ va aqli xiradi bohush⁴ har qancha ko'b bo'lsa ham, oz bo'lur. Xususan, podshohi odilg'a uch toifadin guzir⁵ yo'qdur: avval, olimi boamalki⁶, podshohning oxiratlik asbobini⁷ taraddudida bo'lsa. Ikkinchi vaziri sohibi ra'yki⁸, podshohning dunyolik yarog'ini taraddudida bo'lsa. Uchunchi, munshiyi⁹ rostnavis¹⁰, qalamzanu¹¹ nigohdor¹² shamshirzan¹³ bo'lsa».

«Zarbulmasal» arabcha «zarb» va «masal» so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lib, «masallar yig'indisi» ma'nosini beradi. Masal so'zi o'tmishda biz hozir qo'llaydigan maqol ma'nosida ishlatilgan. Zarbulmasal so'zga maqol qo'shib gapirish, o'xshashi va dalilini keltirish ma'nolarini ham anglatadi. Zarbulmasal bo'lish – el og'ziga tushish, afsona bo'lish, mashhur bo'lish ma'nolarida ham keladi. Ma'lum bo'ladiki, Gulxaniy o'z davri va zamondoshlarini asarda zarbulmasal qilgan.

Asar qahramonlari o'z nutqlarida vaziyatga mos ko'plab maqollarni keltiradilar, to'g'rirog'i, maqollar yordamida gapiradilar. Shu bilan birga, ular bir-birlariga turli **masal** va hikoyatlarni aytib beradilar.

«Zarbulmasal»da 400 ga yaqin maqol, matal, naql va 15 dan ortiq katta-kichik masal va hikoyat mavjud. Bu muallifning xalq hayoti, turmush tarzi, an'ana va marosimlari, og'zaki va yozma adabiyotni chuqur bilganligidan dalolat beradi. U mashhur hind eposi «Kalila va Dimna»,

¹ **Borgoh** – shoh qabulxonasi, saroy.

² **Xiradmand** – oqil, dono, donishmand.

³ **Donish** – ilm, ma'rifat; aql, idrok.

⁴ **Bohush** – es-hushli.

⁵ **Guzir** – biror narsadan xalos bo'lish.

⁶ **Olimi boamal** – ilmiga amal qiladigan olim.

⁷ **Oxirat asbobi** – oxirat uchun zarur amallar.

⁸ **Sohibi ra'y** – aql-u tadbir egasi.

⁹ **Munshiy** – kotib.

¹⁰ **Rostnavis** – haqiqatni yozadigan.

¹¹ **Qalamzan** – kotib.

¹² **Nigohdor** – nazorat qiluvchi.

¹³ **Shamshirzan** – shamshir uruvchi. Bu yerda: yozishga usta ma'nosida.

Abdurahmon Jomiyning «Silsilat uz-zahab» asarlari, shuningdek, Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor kabi ulug' so'z ustalari hikmatlaridan ham mahorat bilan foydalangan. Bularning barchasi asarning ta'sirchanligi va o'qimishlilikini oshirgan.

«Zarbulmasal» xalq orasida «Yapaloqqush hikoyasi» nomi bilan mashhur bo'lib, qissaxonlik kechalarida uni eshitgan shinavandalar asarning chuqur hayotiy mazmuniga qoyil qolishgan. Uning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Farg'ona iqlimida Kayqubod degan podshohdan qolgan bir vayrona bor edi. Unda yashovchi Boyo'g'lining Gunashbonu ismli qizi bo'ladi. Shu atrofda manzil tutgan Yapaloqqush uni o'g'li Kulonkir sultonga olib bermoqchi bo'lib, Ko'rqushni sovchilikka yuboradi. Ko'rqush yo'lda Hudhudga duch kelib, o'zaro munozara qiladi. Keyin Kulonkir sulton bilan gaplashib oladi. Boyo'g'linikiga kelsa, u qarindoshlari bilan kengashib, so'ng javob bermoqchi bo'ladi. Buni yaxshilikka yo'ygan Yapaloqqush do'sti Sho'ranul degan qarg'a orqali qushlar shohi Malikshohindan suyunchi oladi. Malikshohin o'zining pahlavoni bo'lmish Kulonkir sultonning to'yini podshohlik hisobidan o'tkazib bermoqchi bo'lib, o'z xazinachisi Kordonni to'y xarajatlarini aniqlash uchun Boyo'g'linikiga jo'natadi. Boyo'g'li qizining qaliniga mingta vayrona so'raydi. Kordon Umarxon davrida mamlakat obod bo'lib, vayronalar kamaygani, shuning uchun uning sonini 600 taga tushirishni so'raydi. Boyo'g'li ko'nmagach, ortiga qaytib ketadi. Uni eshitgan Ko'rqush oting Kordon – ishbilarmon bo'lsa-da, aslida qo'lingdan hech ish kelmas ekan deb, o'zi Boyo'g'lining yoniga kelib, Qo'qondan topilmasa ham, mingta vayronani Buxoro muzofotidan topib berishga va'da beradi. Shundan keyin dabdabali to'y qilib, kelin-kuyov murod-maqsadlariga yetadilar.

Aziz o'quvchilar! Sizning yoshingiz, bilim darajangiz, dunyoqarashingizni hisobga olib, «Zarbulmasal»dan olingan bir necha ibratli masal va hikoyatlarni e'tiboringizga havola qildik. Voqealar ortidan quvmay, ularning mazmuniga sinchiklab nazar soling, muallifning bu masal yoki hikoyat orqali nima demoqchi ekanligiga diqqat qiling. Shu narsani yodda tutingki, shoir yoki yozuvchi biror voqea-hodisani shunchaki bayon qilib

qo‘ya qolmaydi. Voqea-hodisa – shoir va yozuvchilar uchun o‘z badiiy maqsadini amalga oshirish uchun bir vosita. Aytaylik, «Maymun va Najjor» masali orqali qo‘lidan kelmagan ishga uringan kishi albatta, sharmanda bo‘ladi, degan fikr ilgari surilsa, «Toshbaqa va Chayon» masalida do‘st tanlashda adashmaslik kerakligiga e‘tibor qaratiladi. «Tuya bilan bo‘taloq» masalida erki o‘zida bo‘lmagan kishining fojiasi ko‘rsatiladi va hokazo.

KABUTAR¹ BILAN ZOG‘²

Hakimi hoziq³ bir gulistoni ruhafzog‘a⁴ doxil bo‘ldi. Ko‘rdiki, bir shox uzasinda Kabutar ila Zog‘ nishast qilib⁵ o‘lturubdur. Ikkisi bir-biriga vahshat bila nazar qilur⁶, ulfati baror kelmas⁷. Shul asnoda⁸ mehmonsaroni⁹ oldida bir jo‘y¹⁰ bor erdi – ikkisi suv ichmoqqa qasd qildi. Mehmonsaroni ichida bir rustoiy¹¹ azbaroyi¹² sayd¹³ o‘qin sozlab, muntazir o‘lturub erdi. Zog‘ daraxtdan parvoz qilib, eshikni to‘g‘risig‘a tushdi. Zog‘din rustoiy o‘qin otib o‘tkardi, qushig‘a yem qildi. Kabutar parvoz qilib, sihat¹⁴ ketti. Agar Zog‘ o‘z jinsi birla sahroda va yo juvaripoyada¹⁵ va yo eski xirmanlarda yursa erdi, o‘q zaxmini¹⁶ yeb, qushg‘a yem bo‘lmas erdi.

¹ **Kabutar** – kaptar.

² **Zog‘** – qarg‘a.

³ **Hakimi hoziq** – bilimdon tabib.

⁴ **Ruhafzo** – ruhni yayratuvchi, ko‘ngilni quvontiruvchi, jonbaxsh.

⁵ **Nishast qilib** – qaror topib, maqom tutib.

⁶ **Nazora** – qarash, nazar solish.

⁷ **Baror kelmas** – mos, muvofiq kelmas.

⁸ **Asno** – vaqt, payt, holat.

⁹ **Mehmonsaro** – mehmonxona.

¹⁰ **Jo‘y** – ariq, anhor, oqar suv.

¹¹ **Rustoiy** – qishloqi; majozan: nodon, ahmoq.

¹² **Azbaroyi** – uchun, sababli.

¹³ **Sayd** – ov.

¹⁴ **Sihat** – sog‘-omon.

¹⁵ **Juvaripoya** – jo‘xorizor.

¹⁶ **Zaxm** – zarb, jarohat.

MAYMUN BILAN NAJJOR¹

Bor edi Kashmir² navohinda³ tog‘,
Bog‘i Eram⁴ rashkdin ko‘ksida dog‘.

Anda imoratga yaroqliq yag‘och,
Yetti quloch bo‘yi, eniga – quloch.

Bor edi cho‘x⁵ ne‘mati alvonlari⁶,
Xurram-u ma‘mur⁷ edi hayvonlari.

Zulf⁸ kabi sunbuli⁹ xushbo‘lari,
Rohatijon erdi oqar suvlari.

Uydin ulug‘roq¹⁰ edi bir gulbune¹¹,
Anda vatan tutmish edi Maymune.

Jon sonub¹² o‘zni, uyin aytardi tan,
O‘qur edi qissai «hubbul vatan»¹³.

Yer edi ko‘ngli tilagan mevasin,
Boshlar edi odamilik shevasin¹⁴.

¹ **Najjor** – duradgor, imorat yasovchi usta.

² **Kashmir** – Shimoliy Hindistondagi voha va shahar.

³ **Navohiy** – atrof, **tevarak**, chegara.

⁴ **Bog‘i Eram** – afsonaviy jannat bog‘i.

⁵ **Cho‘x** – ko‘p.

⁶ **Alvon** – rang-barang, turli-tuman.

⁷ **Ma‘mur** – obod, farovon; bu yerda: to‘q.

⁸ **Zulf** – soch.

⁹ **Sunbul** – xushbo‘y va gullari halqa-halqa giyoh. Qizlarning sochiga nisbat beradilar.

¹⁰ **Ulug‘** – bu yerda: katta.

¹¹ **Gulbun** – gul tupi.

¹² **Sonmoq** – bilmoq, hisoblamoq.

¹³ **Hubbul vatan** – vatan muhabbati.

¹⁴ **Sheva** – odat, ravish; hunar.

Bir kuni najjori xiradmandi fard¹,
Ko'ngli yag'och yo'qligidan qildi dard².

Uylaki, nav³ kissalarin qistari,
Rasm edi najjor yag'och istari.

Egdi kulah⁴ go'shasini⁵ farrasin⁶,
Belga suqub teshasi-yu arrasin.

Bordi o'shal toqq'a – mavquf⁷ edi,
Ezgu yag'ochlar anga ma'ruf⁸ edi.

Shahrni zindonidin ozod o'lib,
Tog'ni Shiriniga Farhod o'lib⁹.

Sonur edi o'zini tog' xisravi¹⁰,
Tog'ni uqub Dehlavii ma'navi(y)¹¹.

Borib anga, kesti yag'och reshasin¹²,
Qo'ydi u yerda unutib teshasin.

¹ **Fard** – yakka, yagona.

² **Dard qilmoq** – bu yerda: tashvishga tushmoq.

³ **Nav** – yangi.

⁴ **Kulah** – bosh kiyim.

⁵ **Go'sha** – chet, chekka, burchak.

⁶ **Farr** – go'zallik; jabdaba, hashamat.

⁷ **Mavquf** – to'xtash; tegishli.

⁸ **Ma'ruf** – ma'lum, mashhur.

⁹ Bu yerda «Farhod va Shirin» dostoniga ishora qilinmoqda.

¹⁰ **Xisrav** – podshoh, hukmdor.

¹¹ Bu yerda buyuk shoir Xusrav Dehlaviy nomi vositasida so'z o'yini qilinmoqda: o'zini tog' xisravi (podshohi), tog'ni esa ma'naviy jihatdan (Xusrav) Dehlaviyi ma'naviy hisoblar edi, ya'ni duradgor uchun tog' Xusrav Dehlaviy kitobiga o'xshar edi.

¹² **Resha** – ildiz, tomir.

Bordi yana – kesti bo‘lak bir yag‘och,
Yormog‘ini fikriga qildi iloj.

Bolta bilan bir uchini yordi ul,
Pona qo‘yub, tesha sari bordi ul.

Tushti banogah¹ anga Maymun ko‘zi,
Oqilu dono sonub ul dam o‘zi(n).

Aydi: «Ulus² ichra bu bir kasb erur,
«Kasb»ni kessang boshini, «sab»³ erur.

Kissai purzar⁴ emish elga hunar,
Behunar elni o‘xiyur⁵ (rishi)⁶ xar⁷.

Man dog‘i najjorlig‘in⁸ o‘rganay,
Zuryalarim⁹ barchasig‘a o‘rgatay.

Jahd qilib turdi ravon borg‘ali,
Ya‘ni yag‘och qolmishini yorg‘ali.

Bar sari on cho‘bi kafida rasid,
Kibri hunar didu kaduro nadid¹⁰.

¹ **Banogah** – kutilmaganda, daf‘atan.

² **Ulus** – xalq, el.

³ *Bu yerda:* arab yozuvi asosida so‘z o‘yini qilingan: «kasb» so‘zining bosh harfi o‘chirilsa, «sab» qoladi. **Sa‘b** – qiyin, og‘ir degani.

⁴ **Purzar** – bu yerda: pulga to‘la.

⁵ **O‘xiyur** – aytadilar, hisoblaydilar.

⁶ **Rish** – soqol.

⁷ **Xar** – eshak.

⁸ **Najjorlig‘** – duradgorlik, ustalik.

⁹ **Zurya** – bu yerda: zurriyod, avlod.

¹⁰ «Yorib qo‘yilgan yog‘och yoniga bordi-yu, hunar o‘rganish shavqi bilan bo‘lib, orqasida turgan baloni ko‘rmadi».

Mindi yag'och ustuga najjordek,
Kosibi purkardau¹ purkordek².

Ketti hunar shavqi bila g'ussasi,
Tushti yag'och ayrisiga xossasi³.

Bas, keynidin bo'ldi tutulmog'lig'i,
Mumkin emas bo'ldi qutulmoqlig'i.

Odamini jinsida yo'q qissasi,
Qoldi ani xossasini hissasi.

TUYA BILAN BO'TALOQ

Bor edi Farg'onada bir sorbon⁴,
Tevasi⁵ bor erdi, tug'ub nogahon.

Ahli ayoli⁶ ani bor erdi cho'x,
Ozuqadin kulbasida narsa yo'x.

Hosili dunyo⁷ edi bir tevasi,
Emadig'on orqasidin bo'tasi.

Bir kuni u tevasini qo'mladi⁸,
Ortadig'on yuklarini jo'mladi⁹.

¹ **Purkarda** – tajribali, ko'pni ko'rgan.

² **Purkor** – tajribali, ko'pni ko'rgan, ishchan.

³ **Xossa** – biron narsaga tegishli, taalluqli. Bu yerda: maymunning dumi ma'nosida kelayapti.

⁴ **Sorbon** – tuyachi, tuya yetaklovchi.

⁵ **Teva** – tuya.

⁶ **Ahli ayol** – bola-chaqa.

⁷ **Hosili dunyo** – dunyoda orttirgan narsasi, ishongan boyligi.

⁸ **Qo'mladi** – cho'ktirdi.

⁹ **Jo'mladi** – jamladi.

Yuklari erdi og'ir-u yo'l yiroq,
O'rtadi tayloqini¹ nori firoq².

Fasli tamuz³ erdi, havo cho'x isig',
Yo'lda temurdek edi, qumlar qiziq.

Och o'tina kuydi anodin⁴ judo,
Modarini⁵ mehrida erdi ado.

Jahd ila yetmay anosin keynidin,
Qumda kuyardi g'ami ul siynadin⁶.

Og'di yuki yo'lda o'shal sorbon,
Yerga cho'kurdi tuzatay deb ravon.

Qoldi horib anosi arqosidin⁷,
Yondi haroratlari yag'mosidin⁸.

Yuzlanib aytdi: «Ayo, berahm enam,
Kuydi-yu, yondi-yu, tutashti tanam.

Asta yurusang na bo'lur, man yetay,
Tashna bo'lub hordim-u qoldim, emay».

Aydi anosi balosig'a⁹ boqib,
Ko'zlarini yoshlari suvdek oqib:

¹ **Tayloq** – bu yerda: bo'taloq.

² **Nori firoq** – ayriliq azobi.

³ **Tamuz** – yoz, saraton.

⁴ **Ano** – ona.

⁵ **Modar** – ona.

⁶ **Siyna** – bu yerda: ona ko'kragi.

⁷ **Arqosidin** – orqasidan.

⁸ **Yag'mo** – talon-toroj. Bu yerda issiq azobi ko'zda tutilmoqda.

⁹ **Balo** – bola.

«Ko'rki, burunduq kishini qo'lida,
Bu kishini ko'zlari o'z yo'lida.

Manda agar zarra kabi ixtiyor –
Bo'lsa edi, bo'lmas edim zeri bor»¹.

TOSHBAQA BILAN CHAYON

Yaxshilar andog' aytmishlarki, Sangpusht² Iroqdin Hijozga borur erdi. Bir Chayon anga yo'ldosh bo'ldi. Ikisi ketib borur erdi, ammo Sangpusht bag'oyat³ sohibifahm – farosatlik erdi, toinki cho'x safarlarda yaxshi-yamonlar birla yurub, ko'b tajribalar hosil qilg'on erdi. Ammo Chayonga inon-ixtiyorini verub⁴, bodiyalar⁵ qat' edub⁶ borur erdi. Shul orada banogoh bir nahri azim⁷ paydo bo'ldi. Ikisi o'tmoqqa qasd qildilar. Sangpusht birla Chayon o'tmoqqa yo'l topmay, tafakkur yog'ochi anga ko'pruk bo'lurg'a ojiz va tadbir qamuchi sol bo'lurg'a nobudu nochiz⁸. Oxir ul-amr⁹ Sangpusht mustajobi da'vadek¹⁰ murod hadafiga¹¹ maqrun¹² o'lub, shinovarlik¹³ birla muddao istid'osi¹⁴ sohiliga o'zini oldi, nori yoqig'a o'tub, qozu¹⁵ o'rdakdek silkinib turdi. Banogoh orqasiga boqti, ko'rdiki, yo'ldoshini oti horug'on, poyluchchak tag'olardek nayzasini kiftiga tashlab, yuqori va quyi yurur erdi¹⁶. Anda Sangpusht aydiki:

¹ **Zeri bor** – yuk ostida (qolmoq).

² **Sangpusht** – toshbaqa.

³ **Bag'oyat** – g'oyatda, juda, nihoyatda.

⁴ **Verub** – berib.

⁵ **Bodiya** – cho'l, dasht, biyobon, sahro.

⁶ **Qat' edub** – bosib o'tib.

⁷ **Nahri azim** – katta daryo.

⁸ Tafakkur kuchi bunga ko'prik va tadbir qamishi sol (kema) bo'lishga ojiz.

⁹ **Oxir ul-amr** – nihoyat, oqibatda.

¹⁰ **Mustajobi da'va** – duosi qabul bo'ladigan.

¹¹ **Hadaf** – nishon.

¹² **Maqrun** – yaqin.

¹³ **Shinovar** – suzuvchi.

¹⁴ **Istid'o** – iltimos, so'rash, yalinib-yolvorish.

¹⁵ **Qoz** – g'oz.

¹⁶ Bu yerda Chayonning suvdan qo'rqib, nayzasini kiftiga tashlab, yuqori va quyi yurishi qurolini yelkasiga osib, oyoqyalang uyoqdan-buyoqqa yuruvchi posbonga o'xshatilyapti.

– Mo‘jib¹ nadur – buyon o‘tmaysiz?

Kajdum² aydi:

– Ko‘zyoshicha suv bo‘lsa, bizga ma‘zur tutung.

Sangpusht aydi: «Yo‘ldosh bo‘lmoq sharti bul ermashki, oz hodisa birla hamrohliq rasmini bartaraf qilsam. Avloroq³ uldurki, tag‘oni o‘tkarib qo‘ysam, yaxshi bo‘lur. Burung‘ilar masalidurki: «Yaxshiliq qil, suvg‘a sol, baliq bilur, baliq bilmasa, Xoliq⁴ bilur». Anda Sangpusht hut-chav yag‘ochini qo‘lg‘a olib⁵, oz harakat birla najot sohilig‘a o‘zini oldi. Aydi:

– Ey birodar, sani daryodan o‘tkazgali o‘g‘radim⁶. Mani ustimga mingil va lekin bejo harakat qilmag‘ilki, o‘z joningga jabr qilursan.

Anda Chayon aydi:

– Har kim o‘z maslahatini o‘zi bilur.

Andin so‘ng Sangpushtni orqasig‘a mindi. Daryog‘a tushib oqdilar. Zamonedin so‘ng Chayoni mazkur tebrana berdi. Sangpusht aydi:

– Bul bejo harakatdin muddao nimadur?

Chayon aydi:

– Bu kun maydongni vase⁷ topdim. Burung‘i yaxshilar «Eshak o‘yuni qirq yilda va yana it o‘yuni bor anda», debdurlar. Bul fo‘lod⁸ nayzamni yakjirma qalqoningga⁹ ozmoyish¹⁰ qiloyin derman.

Anda Sangpusht aydi: «G‘olibo uldurki: «O‘z do‘sti dilin resh¹¹ aylayur jahldin kim, ul urur o‘z mushtini devorg‘a!» Anda Sangpusht aydi:

¹ Mo‘jib – sabab.

² Kajdum – chayon.

³ Avlo – yaxshi, afzal.

⁴ Xoliq – Yaratuvchi, Xudo.

⁵ Suvga suzishga hozirlanib.

⁶ O‘g‘ramoq – yo‘l olmoq, mo‘ljallamoq.

⁷ Vase’ – keng.

⁸ Fo‘lod – po‘lat; o‘tkir, tez.

⁹ Yakjirma qalqon – toshbaqaning yaxlit kosasi.

¹⁰ Ozmoyish – sinash, imtixon.

¹¹ Resh – yara, jarohat.

– Sani bu xorsifat¹ nayzai bemajoling² mani bu yakjirma qalqonimg‘a ne kor³ qilsin?

Anda Chayon aydi:

– Bilganing yo‘qmuki, aqrabni⁴ muddaosi nish urmoqdur xoh do‘st ko‘ksina va xoh dushman orqasina!

Qit‘a:

Har kimi odati zamima⁵ bo‘lur,
Beirodat⁶ zuhur etar⁷ andin.
Toshdin nish⁸ ayari yo‘q aqrab,
Garchi mundoq demak ajab sandin.

Anda Sangpusht aydi:

– Ishonmagil do‘stingg‘a, samon tiqar po‘stingg‘a. «Oshnongdin tob» debdurlar. Ey do‘stum, suv uzra jasadimiz xasdek yurmagi tokay? Bu bahri⁹ amiq¹⁰ javohirlarin tamosho qilmoq kerak, – deb g‘avvoslardek¹¹ bir g‘o‘ta¹² urdikim, ul javohir termogda qoldi va bul jon bermog‘da qoldi.

DUMSIZ ESHAK

Bir dumi yo‘q eshak bor edi. Dumsizligini o‘ylab, dardi kundan-kunga ziyoda bo‘lar edi. Dum axtarib, dum talab qilib, biyobonma-biyobon kezar edi. Shunday sarson-sargardon kunlardan birida o‘zi bilmagan holda bir ekinzorning o‘rtasidan o‘tib qoldi. Eshakni uzoqdan kuzatib turgan dehqon uni tutib olib, ikki qulog‘ini kesib tashladi. Bechora eshak dum orzu qilib, dum topish o‘rniga ikki qulog‘idan ham ajraldi.

¹ Xorsifat – tikanga o‘xshash.

² Bemajol – ojiz, kuchsiz.

³ Kor – bu yerda: ta‘sir.

⁴ Aqrab – chayon.

⁵ Zamima – yomon, yaramas.

⁶ Beirodat – beixtiyor.

⁷ Zuhur etish – ko‘rinish, namoyon bo‘lish.

⁸ Nish – zaharli jonivorlarning chaqish a‘zosi.

⁹ Bahr – ummon, dengiz.

¹⁰ Amiq – chuqur, teran.

¹¹ G‘avvos – suvga sho‘ng‘uvchi.

¹² G‘o‘ta urish – suvga sho‘ng‘ish.

YOLG‘ONCHI TUYA

Qish ayyomi¹ erdi. Havodin qor-yamg‘ur behad yog‘ib erdi va ko‘cha sahroding osha loy bo‘lg‘on erdi. Anda bir Teva loyg‘a yiqilib, ikki yonig‘a og‘nab, dumigacha sho‘mg‘ug‘on va har tora² mo‘yi³ loyi mazkurding najote tobqon yo‘q erdi. Ul Teva sorbong‘a javobi xargo‘sh berib⁴, bir sho‘razor axtarib borur erdi. Yo‘lda bir Tulki yo‘luqti. Salomlashib, Tulki Tevani ahvolini so‘rdi. Aydi:

– Hormasunlar! Qaydin kelurlar?

Anda Teva aydi:

– Mo‘jibi g‘usl⁵ uchun hammomdan kelurman.

Anda Tulki aydi:

– Borakallo! Rost aytursan. Nishonai tozalug‘ing birla tonudum. Hama boshdin-ayog‘ chunon toza turar. Bu saru⁶ gardani⁷ pokizaki sanda bor va bu poyu⁸ siyoqeki⁹ sanda bor, mulohaza qildimki, hammomni garmoba¹⁰ suvini boshing bila ayog‘ingg‘a ozoncha ishlatibsan. Magar hammomchi o‘lgan ekanmu va hammomni xoli ko‘rdingmu?

Naql

...Ibrohimbek... bog‘inda tab‘i tund¹¹, lavand¹² bir bog‘boni bor erdi. Ani bog‘boni o‘zini bog‘bone sonub, olti tub daraxtni ho‘l shoxini quruq shoxiga payvand qilur erdi va yana bu aql-u farosati birla o‘zini olamni bog‘bonidek sobit qadam olur erdi.

¹ **Ayyom** – vaqt. Bu yerda: fasl.

² **Tora** – tola.

³ **Mo‘y** – soch.

⁴ **Javobi xargo‘sh berib** – quyoning rasmini chizib.

⁵ **G‘usl** – cho‘milish, poklanish.

⁶ **Sar** – bosh.

⁷ **Gardan** – bo‘yin.

⁸ **Poy** – oyoq.

⁹ **Siyog** – bashara, aft.

¹⁰ **Garmoba** – hammom; bu yerda: issiq suv.

¹¹ **Tund** – tez, g‘azabli.

¹² **Lavand** – yalqov, tanbal, dangasa, bo‘shang.

Naql

...bir odam yaxshi ko'rgan to'ppisini¹ tez suvga oqizib, harchand taraddud bila ololmadi. Mahrum bo'lub qaytur erdiki:

– Yo'qolg'oni ham xo'b bo'ldi², boshimg'a ham tor kelur erdi, – deb.

Naql

...zangi³ yo'l uzasidin bir oyina topib oldi. Oyinada o'zini aksi nomu-borakini ko'rub, oyinani yerga urub, anga necha ayblar qo'yub, aytur erdiki:

– Bul o'zi yaxshi mato' bo'lsa, yo'l uzra yoturmidi?!

YODGOR PO'STINDO'Z

Odamizod arosinda Yodgor otlig' bir odam bor erdi. Goho o'zini o'tkir so'fiy⁴ ot qo'yar, goho mirishkori⁵ hushyor va donishmandi ro'zgor olib aytur erdiki:

– O'n yoshimda hazrati Nuh payg'ambarni obi azobda⁶ qolg'onlarida kemalarin itorib, boham⁷ erdim.

Va yana aytur erdiki:

– Andog' ham ermas. O'n besh yoshimda hazrati Ibrohim alayhissalomni kofirlar manjanaqqa⁸ solib o'tga otarda bir poyasinda⁹ hozir erdim.

Boz aytur erdiki:

– Andog' ham ermas. Yigirma besh yoshimda hazrati sultoni orifin¹⁰ Xoja Ahmad Yassaviy xonaqohlarin¹¹ obod qilurda loy tepib, xisht bergan man erdim.

Ul yerda o'lturg'on yor-jo'ralari aytur erdiki:

¹ **To'ppi** – do'ppi.

² **Xo'b bo'ldi** – yaxshi bo'ldi.

³ **Zangi** – qora tanli, habash, negr.

⁴ **So'fiy** – tasavvuf tariqati namoyandasi.

⁵ **Mirishkor** – o'z ishining ustasi.

⁶ **Obi azob** – azob suvi. Bu yerda: Nuh davridagi to'fon ko'zda tutilmoqda.

⁷ **Boham** – birga.

⁸ **Manjanaq** – palaxmon.

⁹ **Poya** – joy.

¹⁰ **Sultoni orifin** – oriflar sultoni. **Orif** – ma'rifat sohibi, Oллоhni tanigan kishi, komil inson.

¹¹ **Xonaqoh** – so'fiylar yig'iladigan, zikr tushadigan joy.

– Ey Yodgor aka, rost naql qiling...

Aytur erdiki:

– Qul Muhammad Bahodirdin bo‘lagini bilsam, Xudo ursun!

Yodgorning po‘stin tikkanin ko‘rsangiz, chokidin barmoq o‘tar erdi. Bozorga olib chiqsa, xaridorlar barmog‘ini chokiga suqub, aytur erdiki:

– Bu na tikish?

Ul javob berurki:

– Musht o‘tmasa, xo‘b tikish!

O‘zi din, ilmi sunnatga¹ amri ma‘ruf² qilg‘uchi erdi, to onki tahoratda qo‘l-oyoqni bandig‘acha yuvmog‘ni farz³-sunnat ekanin bilmay, uch angushtni⁴ birin yuvub, ikkisini yuvmay qo‘yar erdi.

«Zarbulmasal» haqida

Zarbulmasal masallar yig‘indisi demakdir. Masal so‘zi bir vaqtlar hozir biz qo‘llaydigan maqol qo‘shib gapirish, o‘xshatishlar qilish, dalil keltirish ma‘nolarini ham anglatadi. Zarbulmasalda u yoki hikoya tarkibida, ularning xulosasi o‘rnida maqol, matallar keltiriladi. Biror-bir xatti-harakati tufayli kishi el orasida mashhur bo‘lib ketishi, og‘izga tushishi, ya‘ni zarbulmasal bo‘lishi mumkin. Zarbulmasalni adabiy asar sifatida oladigan bo‘lsak, u adabiyotimiz tarixida o‘ziga xos ta‘sirchan adabiy janr sifatida yashab kelgan. Zarbulmasal ko‘proq axloqiy-ta‘limiy hikoyalardan iborat bo‘lib, maqol, matallar, ularning tarbiyaviy xulosasi sifatida keltirilgan. Bu janrdagi asarlarning asosiy xususiyati ularda majoziy usul qo‘llanilganidadir, ya‘ni voqea va hodisalar hayvonlar, qushlar tilidan hikoya qilinadi. Mualliflar tanqid qilinajak kishilar ta‘qibidan cho‘chib shu usulni qo‘llaganlar. Mashhur masalnavis Muhammadsharif Gulxaniy ana shunday asarni – Siz yuqorida batafsil tanish bo‘lgan «Zarbulmasal»ni yaratgan. 400 ga yaqin maqol, matal, 15 dan ortiq katta-kichik masal va hikoyatni o‘zida jamlagan ushbu asar hozirgacha bizga mislsiz zavq-shavq bag‘ishlab, ma‘naviy ozuqa berib kelyapti.

¹ **Sunnat** – yo‘l, ravish, odam. Muhammad alayhissalomning yo‘li va qilgan ishlari.

² **Amri ma‘ruf** – savob ishlarga da‘vat qilish.

³ **Farz** – bajarilishi zarur bo‘lgan ish.

⁴ **Angusht** – barmoq.

Savol va topshiriqlar

1. Gulxaniy haqida nimalarni bilasiz?
2. Gulxaniyning yana bir taxallusi nima?
3. «Kabutar bilan Zog'» hikoyatidan qanday ma'no uqdingiz?
4. Qo'lidan kelmagan ishga uringan kishi albatta, sharmanda bo'ladi, degan fikr qaysi hikoyatda aks etgan?
5. «Tuya bilan Bo'taloq» hikoyati nima haqda? Bo'taloq onasidan nega xafa bo'ldi? Ona tuyaning javobini sharhlang.
6. «Toshbaqa bilan Chayon» hikoyati mazmuni orqali qanday ibratli fikr ilgari surilgan? Tushuntirib bering.
7. O'z ahvolidan doim shikoyat qilib yurish, noshukrlik qaysi hikoyada tanqid qilinadi?
8. «Yolg'onchi tuya», «Yodgor po'stindo'z» hikoyalari nima haqda va ularda qanday xulqli odamlar hajv qilinadi?
9. «Zarbulmasal»dan keltirilgan naqllardagi odamlarning latifanamo holatini sharhlang.
10. «Zarbulmasal» deb qanday asarga aytiladi?
11. Daftaringizga «Zarbulmasal»dagi maqol va iboralarni ko'chirib oling. Ularni hozirgi maqollar bilan taqqoslang.



Zohir A'LAM

(1943-yilda tug'ilgan)

Zohir A'lam 1943-yilda Toshkent shahrida tug'ildi. O'rta maktabni tugatgach, Toshkent davlat universitetiga o'qishga kirib, uni 1965-yilda muvaffaqiyatli tamom qildi. Armiya safida xizmat qilib qaytgach, 1967-yilda «O'zbekiston» nashriyotiga ishga kiradi.

Zohir A'lamning ilk hikoyalar kitobi «Baxtli bilet» nomi bilan 1972-yilda chop etiladi. Shundan so'ng uning birin-ketin «Muqaddima» (1978), «BAM manzaralari» (1978), «Kiyik ko'zlari» (1981) kitoblari nashr qilindi.

1985-yilda adibning «Ota o'gitlari» deb atalgan hujjatli qissasi yaratiladi. Bu qissa O'zbekistonda limon yetishtirish bo'yicha faoliyat olib borgan inson Z. Faxriddinov haqida edi. Shu yili u «Afandining qirq bir pashshasi» nomli pyesa yozadi. Dastlab bu asar o'zbek qo'g'irchoq teatri-da, keyinroq esa rus va bolgar tillariga tarjima qilinib, ushbu xalqlar teatrlarida ham sahnalashtiriladi. Ko'p o'tmay mazkur pyesa asosida qissa ham dunyoga keladi.

Yozuvchi jahon adabiyotidan asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish bilan ham shug'ullandi. Xususan, bolgar adibi Pavel Vasilyevning «To'siq», «O'lchamlar» kabi qissalarini, rus yozuvchisi Sergey Zaliginning «Kommissiya» romanini o'zbek tiliga tarjima qildi.

Zohir A'lam publitsist sifatida ham barakali ijod qildi. Uning res-

publikamiz tabiati, uning noz-ne'matlari, ekologiyasi haqidagi maqolalari o'z paytida og'izga tushgan edi.

Zohir A'lam hamisha hayotning eng qaynoq jabhalarida bo'lishga intildi. Ko'p joylarni kezib chiqdi, ko'pgina sohalarda ishladi va bu tajriba uning ijodida munosib iz qoldirdi. Bu ijod hamon davom etmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. Zohir A'lam qachon va qayerda tug'ildi?
2. Yozuvchining adabiyotga kirib kelishiga qaysi omillar sabab bo'lgan deb o'ylaysiz?
3. Z. A'lamning qanday tarjimalarini bilasiz?
4. «Afandining qirq bir pashshasi» qissasining yozilishiga nima turtki bo'ldi?
5. Yozuvchi qanday janrlarda ijod qilganligini sanab bering.

AFANDINING QIRQ BIR PASHSHASI

(qissadan boblar)

TUSH

Laylak qishlog'ining eng katta boyi Muhsin guppi yotsa ham, tursa ham yeriga yer qo'shishni o'ylardi. Yana bir orzusi dono va hozirjavob odam sifatida dovrug' taratish edi.

Shu sababli oldiga Nasriddin Afandi kelib, sizga maslahatim bor, deganda, sevinganidan o'yinga tushib ketgudek bo'ldi.

– Xo'sh, xo'sh, – dedi u dik etib turib, salom-alikdan so'ng Nasriddin Afandini o'tirishga taklif etarkan.

– Bilasizmi, mulla aka, – gap boshladi Nasriddin, «mulla aka»ning Muhsin guppiga moydek yoqishini bilib, – men bugun tush ko'rdim.

– Xo'sh, xo'sh? – Muhsin guppi unga bir piyola choy uzatdi.

– Tushimga otam rahmatli kiribdilar. «Bog'ingdan uch-to'rt qadam yuqoriroqda odamdek keladigan, chorak qismi yerga ko'milgan eski xum bor. Qishlog'ingdan uch-to'rt bechorani topgin, uni suvga to'ldirishsin.

Xumga eng oxirgi chelak suvni quygan odamga bog‘ingning yarmini xatlab berasan», dedilar.

– Iya, xudoyo tavba qildim! – dedi Muhsin guppi sevinchdan gupillab ketgan yuragini bazo‘r tinchitib.

– Taqdir ekan, qanday qilay? – dedi Nasriddin Afandi bechorahol qiyofada.

– Ha, endi tushga har balo ham kiraveradi-da, – dedi Muhsin guppi yupatgandek bo‘lib, bo‘limga‘ur narsa uchun hayhotdek bog‘ning yarmidan ajralib o‘tirasizmi?

– Yo‘q, – dedi Nasriddin qat‘iylik bilan. – Otam rahmatlining tirikliklarida so‘zlarini ikki qilmasdim, endi ruhlari ozor cheksinmi?

– Ofarin! Ofarin! – Muhsin guppi ham sevinchdan, ham hovlidan quruq qolish vahimasidan bir turib yana o‘tirdi. – Balli! Yashang! – bu olqishini boyagidan ancha xotirjam aytdi. Chunki darrov reja tuzishga sho‘ng‘ib, ko‘zlari sovuq yiltiray boshlagandi.

– Xo‘sh, – Nasriddin gapning kashtasini yanada gajakdorroq qildi. – Qoshingizga kelishimning boisi, mulla Muhsin aka, siz qishloqning ipidan ignasigacha biladigan obro‘li odamsiz. Men esa yangiman. Xo‘sh, shu xumni to‘ldiradigan odamni qayerdan topaman? Menga birov ishonarmidi... Ikkinchi tomondan, juda shov-shuv qilishning ham tarafdori emasman. Otamning aytganlarini bajarib, ko‘nglimni xotirjam qilsam bas.

– Juda yaxshi kelibsiz!.. – dedi-yu, shu gapidan so‘ng Muhsin guppini qattiq yo‘tal tutdi. Aslida bu yo‘tal emas, sevinchdan otilib chiqayotgan kulgisini xaspo‘shlovchi soxtalik edi. – Juda to‘g‘ri va oqilona yo‘l, – deya Muhsin guppi ko‘zyoshlarini artdi. – Ovoza qilish shart emas. Bu savob ishingizni o‘zim uddalab beraman. Gah desam qo‘limga qo‘nadigan ikkita odamim bor. Bechoralar juda kambag‘al. Aytaman, o‘zim boshida turib, bajarib beraman. A?

– Bo‘pti, men rozi! Rahmat sizga! – Nasriddin o‘rnidan turdi. – Bo‘lmasa ishni bugundan qoldirmaylik, mulla aka. Yana otamning arvohi urib yurmasin meni. Kechasi tushimga kirib.

– Juda yaxshi! – Muhsin sevinchdan qafasdagi qushday potirloyotgan yuragini qo‘li bilan bosdi.

Nasriddin ketish taraddudida eshik tomon yurdi-yu, ilkis to'xtadi:

– Ha, aytmoqchi! – dedi u bir narsani hozirgina eslagandek. – Boyagi otam aytgan xumlari hech qachon bog'da turmasdi. Ertalab uyg'onib qaragam, xuddi aytganlaridek, bog'ning o'rtasida chorak bo'yi ko'milib, tippa-tik turibdi!

– Yo, tavba! – Muhsin yoqa ushladi.

Nasriddin Afandi eshagiga mindi-da, iltijo qildi:

– Kutaman, mulla aka, xudo xayringizni bersin, shu ishinni tezroq bitirishga yordam bering!

Nasriddin ketdi. Muhsin guppi sal uzoqlashishini kutib turdi-da, sevinganidan baqirib yubordi:

– Tursunali! Alimsho!

Ichkaridan uzun-qisqa bo'lib ikki kishi yugurib chiqdi.

– Tez! Uchta obkash bilan sakkizta paqir olib chiqlaring! – buyurdi ularga guppi...

Muhsin guppi o'zining Tursunali degan devqomat korandasi va Alimsho degan yugurdagi bilan uchta obkash, sakkizta chelak ko'tarib tezda Nasriddinnikiga yetib kelishdi. Yoz boshining kuchga to'lgan quyoshi ancha tikkalashib, dehqon va korandalarni soya-salqinga hayday boshlagandi. Shunga qaramay, boqqa ega chiqib qolishidan qo'rqqan Muhsin guppi ishni kechiktirmaslikka qaror qildi.

Bu yil qurg'oqroq keldi. Ikki yuz qadamcha naridagi katta ariqda suv jildirab qolgandi.

Muhsin guppi malaylari bilan bir-ikki borib kelishdayoq qora terga botdi. Harholda, birinchi sakkiz chelak suvni ag'darishgandayoq xumning yarmidan pastrog'igacha to'ldirib qo'yishdi. Ikki-uch qatnashda xumning to'lishi aniq edi. Muhsin guppining kayfi shunchalik chog', boshi osmonda.

U bo'sh chelak-la oldinda ketar, to'ldirib qaytishganda xizmatkorlarining orqasidan kelib suv ag'darishlarini kuzatib turar edi. Xudo ko'rsatmasin, ularning chelagi oxirgi bo'lib qolishi mumkin edi-da!

Ikki karra qatnaganda xumning to'lishiga uch-to'rt chelak kifoya ekanligi sezildi. Shunday bo'lsa-da, Muhsin guppi boshchiligida shotirlari sakkiz chelakning barini ko'tarib ketishdi.

Nasriddin Afandi eshagiga yarim chordana qurib o'tirgancha ularning ishini kuzatardi. Boqqa umidvor bo'lganlar qora terga botib uchinchi karra qaytib kelishganda, u eshagidan tushdi.

– E, yashanglar! – dedi xumga yaqinlashib. Uning bu xitobi va betoqatlik bilan eshagidan tushib kelganidan otasining tushda tayinlaganini tezroq bajarib, bog'ning yarmidan qutulmoqchiligi ko'rinib turardi.

Birinchi yetib kelgan Tursunali bir chelagini ag'darib, ikkinchisini chog'laganda orqada qolgan guppi unga baqirdi.

– To'xta!

Muhsin guppi halloslab keldi-da, gapini qaytardi.

– To'xta. Bir ko'ray, qancha qoldiykin.

U shunday deb xumning ichiga mo'raladi-yu, Nasriddinga saro-sar ko'z tikdi:

– Sal kamayib qolibdimi? Yo menga shunday ko'rinyaptimi?

– Qanaqasiga kamayadi? – dedi Tursunali shang'illab. – E, mulla aka, ag'daraveraylik, zo'r kelsa bir marta yana borib kelamiz-da!

– Qayoqqa kamayadi? – Nasriddin ham Tursunalining gapini tasdiqlarkan, xumga mo'raladi:

– Ha, bu o'zi katta xum-da! Haybatini qarang!

– Ha, shundaymi?

Muhsin guppi xumning kattaligiga ham, boyagina to'lib qoldi, deb aldanganiga ham ishondi.

Shu kayfiyatda suv tashuvchilar yana ikki karra qatnashdi. Xum esa o'sha ahvolda edi. Ya'ni to'lishiga uch-to'rt chelak yetarlidek tuyulardi-yu, o'zidan-o'zi yarimlashib qolaverardi.

– Bu nima degan gap?! – Muhsin guppi shubhaga bordi. Bu shubhasi xumga taalluqliligi ayon edi. Nasriddin Afandini hali ham xumning tezroq to'lishidan manfaatdor deb bilardi.

Nasriddin Afandi ham ko'zlarini baqraytirib, nima deyishini bilmay turdi-da, kelib xumni ushlab, qimirlatmoqchi bo'ldi. Xum qimir etmadi. Nasriddin xumning tubiga, ichiga qaradi.

– Bu palakat nima qilyapti o'zi? – jig'ibiyroni chiqdi, xumni beozor tepdi. – Hali otamni go'rida tikka turg'izmasaydi!

Oraga jimlik cho'kdi. Uchala qora terga tushgan «suvchilar» va Nasriddin Afandi bir-birlariga hech narsa tushunmay anqayishdi. Jazirama issiq kun ham o'zining shabadasi, olislardan kelayotgan qushlar sayrog'i, xullas, jamiki harakat va ovozlari bilan birga hayronlikka qo'shilgandi. Nimanidir kurt-kurt chaynab, eshakkina buzayotgan jimlikda guppi bilan manglaylaridan oqayotgan ter ham jildirab ovoz chiqarayotganga o'xshardi.

– Topdim! – dedi Nasriddin Afandi. – Buning tagida darz ketgan joyi bo'lsa suv o'shandan sizib tushayotgandir?

Bog'ning yarmi mash'aladek charaqlab turgan joyda bu gapga chalakam-chatti ishonishdi ham.

– Xudo xayringlarni bersin! Ishni o'lda-jo'lda qoldirmanglar! Bu xumparga yana besh-o'n chelak suv ketsa ketar. Otamning vasiyatlarini bajarmasam, huzur-halovatimdan tamom ayrilaman!

Muhsin guppi bu gaplarni ma'qulladi.

– Qani ko'tarlaring! – dedi chelaklarga ishora qilib.

Suv tashuvchilar yana uch-to'rt karra borib-kelishdi. Lekin xumdagi suv o'rni o'sha-o'sha: to'lishiga uch-to'rt chelak qolar va yana pasayib ketardi.

Nasriddin tag'in bir karra yalinib-yolvorib otasining ruhini chirqiratmaslikka guppini ko'ndirdi. Keyingi safar guppining o'zi bu yerda qandaydir nayrang borligini sezdi. Sharmandai sharmisor bo'lganini orqaga surish uchun ham jahl ustida yana besh martacha shotirlari boshchiligida qatnadi. Shunday qilib, xumga taxminan ikki yuz chelaklar suv ag'darildi.

Nihoyat guppi portladi. Bo'sh chelakni daranglatib yerga urdi-da, yig'lagudek baqira ketdi:

– Men sizga nima yomonlik qilgan edim, a? Nima yomonlik qildim?

Nasriddin ham achinganidan yig'lagudek bo'lib o'zini oqladi:

– Menda ayb yo'q! Menda ayb yo'q!

– E, qoching-e! – Muhsin guppi qo'l siltab nari ketayotib orqaga o'girildi. – Sizning nomingizni eshitiboq hurmat qilgandim. Mana shunaqa fisq-fasodligingiz uchun Urganchdan haydashganini endi bildim. To'g'ri qilishgan! To'g'rilikcha suv so'rasangiz bermasmidim?

Muhsin guppi keta boshladi. Nasriddin gunohkorona gap qotdi:

– Bu padarla'nat xumni bunchalik suv yeyishini men qaydan bilibman?

Guppi va odamlari ketishdi. Nasriddinning yuzidagi gunohkorona ifodani jilmayish egalladi. Shu jilmayish bilan asta borib, xumdan to'rt qadam naridagi devordan bog'iga mo'raladi. Undagi polizning va daraxtlarning anchagina qismi sug'orilgandi.

Nasriddin Afandi ana shunaqa – turib-turib kimningdir ustidan kulish istagi tutib qolardi. Xumga suv to'ldirish hamda otasining tushiga kirgani bilan bog'liq voqea esa tubandagicha edi.

Qishloqdagi katta ariq qadimdan qolgan ovoza bo'yicha Muhsin guppining ota-bobolariga tegishli bo'lib, undan oqqan suv ancha bir qiziq tarzda taqsimlanardi. Ya'ni, yon ariqlarga o'zidan o'zi, hech qanday bog'lovsiz chiqqan suv hammaniki, bordi-yu, yon ariqlarga suv bog'lab chiqarilsa, guppiga haq to'lanishi kerak edi.

Bu yil esa qurg'oq kelganidan ko'p xonadonlar anchagina qiynaldi. Shusiz ham qaram bo'lgan odamlarni Muhsin guppi yanada ko'proq qarzga botirdi. Albatta, hech kimning behuda haq bergisi kelmaydi. Odamlar guppining ko'zini shamg'alat qilib, ekinlarini yashirincha sug'orib olishlari, o'qariqqa kim tashlagani noma'lum kattakon xarsanglarning «o'zidan o'zi» tushib qolishlari tez-tez takrorlanib turardi. Shunda guppining baqirib so'kinganlari butun atrof-tumonatga taralardi.

Nasriddin Afandining qiliq chiqarishiga ham sabab ana shu, kunda bo'lmasayam kunora eshitiladigan vag'illab so'kishlar edi...

QASOSNING YO'LI TOPILDI

Muhsin guppi bir oylarcha vaqtini qasos olish orzusi bilan o'tkazdi. O'ylay-o'ylay yo'lini topdi.

Nasriddin Afandi bolari tutardi. Guppi so'rab-surishtirib uning yaqin kunlarda asalni ikki xum qilib bozorga olib tushmoqchiligini bildi. Ana shu ikki xum asal ustida Nasriddinni qo'lga tushirishni niyat qildi. Puxtalab reja tuzdi. Ochig'ini aytish kerakki, agar bu reja amalga ohsa, haqiqatan ham Nasriddin Afandi el orasida qattiq kulgi bo'ladi.

Bugun guppi o'ylagan qasosning amalga oshadigan kuni edi...

– Yaratganning ishlariga qoyilman, – dedi guppi atrofda gi go‘zallikka maroqlangancha alanglab, so‘ng birdan ovozi ga malomat aralashdi.

– Yo‘q, qaytib oldim, – dedi u, ariqdagi suvga qo‘lini paxsa qilib. – Qoyil emasman!.. Mening mingta qo‘yim bor, ming tanob yerim bor, xo‘p-mi?! – Guppi atrof ga bir qarab qo‘yib tomoq qirdi-da, yana ariqqa gap so‘qdi. – Xo‘-o‘sh, ha endi mingta bo‘lmasa ham shunga yaqin. Xo‘sh?! Nega endi meni atrofimdagi to‘rtta qishloqdan narida hech kim tanimaydi-yu, cho‘n-tagida hemiri bo‘lmagan Afandini butun olam taniydi? A?

Guppi beparvo oqayotgan suvga bir zum o‘qraydi-da, qo‘l siltadi.

– E, bor-e, bu – g‘irt g‘irromlik!

Guppi choydan xo‘r-xo‘r ichdi-da, qomatini tikladi.

– Mana bugun, – dedi u barmog‘ini suvga nuqib, – men bu g‘irromlikni tuzataman! Nasriddin Afandiga bir firib beray-ki, kim aqlli va kim dono ekanligini ko‘rib qo‘yasan!

Muhsin guppi ko‘kraginging boricha nafas olib yayradi. Kayfi chog‘ bo‘ldi.

To‘g‘ri-da! – dedi u yana o‘z gapini tasdiqlab. – Menimcha, kim boy bo‘lsa – o‘sha aqlli. Kim aqlli bo‘lsa – o‘sha boy! Bidingmi? – Guppi yana barmog‘ini nuqib suvga uqtirdi. – Bilmasang bilib qo‘y! Ha! Aqling bo‘lmasa boylik topib bo‘psan!

IKKI MIRSHAB

Nodir mirshab bilan Sodir mirshabning aslida xizmat joylari shaharda. Ammo katta bozor kunlari dalaga chiqib, o‘zlarining tilida aytganda havo o‘zgartirishardi. Ham sayohat, ham tijorat deganlariday, bozor yo‘lida turib olib, o‘tgan-ketgan dehqon va cho‘ponni aldab-suldab yoki do‘q-po‘pisa qilib jindek-jindek shilishar edi.

Nodir mirshab bilan Sodir mirshab mo‘ljallaridagi vaqtdan xiyla kechikib qolishgandi. Bunga Sodir mirshab aybdor edi.

Boyadan beri bir necha marta koyigan bo‘lishiga qaramay, turib-turib Nodir mirshabning achchig‘i yana tutib ketardi.

– Hey, ha shuncha ham uxlaysanmi, galvars! Nas bosib yurasan-a! – dedi u tosh supada yelkasini chiqargancha qo‘llariga suyanib o‘tirarkan...

Sodir mirshab otining oldingi oyog‘ini ko‘tarib, taqaning bo‘shab ketayozgan mixini tosh bilan chiqillatib qoqardi. Sherigining bu gapini ko‘p eshitgani uchun javob bermay ishini davom ettirdi.

– Bugun endi hemiriyam yo‘q, ikki qo‘lni burunga tiqib qaytamiz!

Sodir mirshab: «Ana!» deb baqirib yubordi. Baqirig‘iga monand qo‘li ham «Laylak» tomon cho‘zildi.

– Ana! – xitobini takrorladi Sodir mirshab. – Aytmadimmi, xudoyim bugungi rizqimiz uchun ham biror narsa sochib qo‘ygandir, deb!

«Laylak» tomondan bir arava kelardi.

IKKINCHI O‘LJA

...Ikkala do‘st qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan musulmon qiyofasida supaga yonma-yon o‘tirishdi. Muhsin guppi yaqinlashishi bilan ular birdaniga shirin jilmayishib, tavoze bilan salom berdilar. Mirshablar jilmaygan ko‘yi Muhsin guppini tezgina o‘tkazib yuborishni mo‘ljallagandilar. Lekin guppi o‘tib ketmadi. «Vaaleykum» deganicha otdan tusha boshladi.

Ikki mirshab kim o‘zar o‘ynagandek yugurib borib, uning qo‘lini olib so‘rashdilar. Ularning boya Abdukarim oldidagi vajohatlarini ko‘rgan va hozirgi siyoqlari bilan solishtirgudek kimsa topilsa edi, odamning gavdasi birdaniga kichrayib qolishiga guvoh bo‘lardi.

Muhsin guppi boshi bilan otini ishora qilib supaning chetiga o‘tirdi. Ikkala mirshab otini chinorning tagiga, soyaga bog‘lab qaytishdi.

– E, – Muhsin guppi yayrab kuldi. – Senlarning nima qilib o‘tirganlaringni bilaman. Lekigin meni senlarga xudoning o‘zi yetkazgani rost! ...Ajabmas, bugun rizqlaringni men tufayli topsanglar! – dedi u qamchi bilan etigining changini asta qoqarkan, viqor bilan.

– Inshoollo, inshoollo, boy aka! – tamshandi Nodir mirshab. Muhsin guppi ikkala mirshabga chamalagandek ko‘z yugurtirdi:

– Bir ish bor. Eplasalaring ikkoving bir xumdan asalga ega bo‘lasanlar. Ustiga har biringga yarim tilladan tanga beraman.

Nodir mirshabga jon kirdi.

– Ayting tezroq, boy aka!

– Xo‘-o‘sh, -- dedi guppi nihoyatda jiddiylik bilan. – Hozir mening izimdan bir odam keladi. Eshaginging xurjunida ikki xum asali bor. Shuni olish kerak!

Uning bu gapidan so‘ng mirshablar indamay qolishdi.

Biroz o‘tgach Sodir mirshab so‘radi:

– O‘zi ikki xum asali bor!

– Ha!

– Biz ikkovini olishimiz kerak?

– Ha.

Mirshablar yana o‘ylanib qolishdi. Odatda, ular o‘n-o‘n besh qopli dehqondan yarim qop, bir qopni olishardi. Ellik-oltmish qo‘yli cho‘pondan bitta, juda nari borsa ikkita qo‘yni. Shunda ham gohida janjallar bo‘lib zo‘rg‘a qutulardilar. Lekin odamning bor bud-shudini tortib olish! Bu toifa ishni ular qilmasdilar va qilishni xohlamasdilar.

– O‘sha aytgan odamingizning boshqa hech narsasi yo‘qmi? – bu savolni Nodir mirshab berdi.

– Yo‘q! – dedi tajanglashib guppi.

– Juda qiyin ish, boy aka! – deya gapga Sodir mirshab aralashdi: – Bunaqasini bizga ustozimiz o‘rgatmaganlar!

– Ustozingizdan o‘rgildim. Men o‘rgatyapman! Boz ustiga tilla beryapman!..

Nodir mirshab guppining gapini bo‘ldi:

– Chorak xumini, boringki, yarim xumini ol, deng, oberaylik. Molidan ajragan odam boltadan qaytmaydigan ho‘kizga aylanadi. Bilasizmi, qas-sobga kalla qo‘yib qolishi mumkin.

– Hoy, hoy, hoy! – o‘z navbatida guppi ham uning gapini kesdi-da, barmoqlarini bir-biriga ishqab dedi. – Men tanga beryapman! Mullajiring beryapman! Chorak xum, yarim xum emish! Chorak xum, yarim xumni men aytmasam ham olishlaringni bilaman.

Mirshablarning ko‘nmayotgani ko‘rinib turardi. Muhsin guppi yarim tillani eshitib darrov ko‘nishadi deb o‘ylab xato qilganini tushundi. Endi avrashga o‘tdi.

– Yarim tilla-ya! Boz ustiga, olishning oson yo‘lini o‘rgataman. U odam xumlarining bo‘shligini bozorga borguncha bilmay qoladi. – Muhsin

guppi jindek tin olib, narxni qo'shdi. – Ha, borlaring, ana ikkovingga bir tangadan beraman! – Bir xumdan asal, bitta mullajiring – asl tilladan, egasi bilmay qoladigan yo'li! Yana nima kerak? Men o'sha odamni xumlari bo'sh holda bozorga kirib borganini ko'rsam bo'ldi!

– Kim o'zi o'sha aytayotgan odamingiz? – so'radi shoshib Sodir mirshab. Shoshmasa, Nodir mirshab «Bo'pti, biz rozi!» devorishga tayyor edi. O'ljasiz qaytishdan dili xufton Nodir mirshabni yarim maoshiga teng bir tanga – butunlay es-hushini olgandi. Boz ustiga bir xum asal!

Muhsin guppi ham oshnalarning yakdilligiga darz ketganini sezdi. Shuning uchun Nodir mirshabga piri-pirab boqib, go'yoki o'pkalandi:

– Do'stingizni qarang! Ha buni nima ahamiyati bor?!

Sodir mirshab quvuroq edi. Buning ustiga yana narxni oshirish mumkinligini tushundi.

– Juda borda, – dedi u o'jarlik qilib.

Nodir mirshab do'stiga boqarkan, uning tixirlik qilishiga hayron bo'ldi. Guppi nihoyatda tajang edi. Sodir mirshab esa ularning bittasiga ham qaramas, goh yerga, goh osmonga tikilarkan, g'o'ng'illab xirgoyi qilardi.

Jahli chiqqan guppi barmog'ini nuqib hijjaladi: – O'sha men aytgan asalli odam – Nasriddin Afandi bo'ladi!

Bu gapni eshitgan mirshablar avval bir zum og'izlarini ochib ag'rayishdi-da, keyin: «Yo'q, yo'q, yo'q!» – degancha xuddi moxovdan qochgandek ikki yoqqa qochishdi. Guppi bir amallab Nodir mirshabning etagidan ushlab qoldi. Sodir mirshabni esa takror-takror chaqiraverib, arang yoniga qaytib o'tqazdi.

– Tavba! – dedi u xunob bo'lib. – Namuncha nomini eshitiboq bu odamlar o'zini tomdan tashlagudek qochadi-ya? U ham hammaga o'xshagan odam! Menga qarang: ikkovingga ikki tilladan beraman. Ana, mendan ketsa ketsin! Foydani tagida qoladigan bo'ldilaring!

– E, Nasriddin Afandiga tegmagan odam foyda qiladi, boy aka! – po'ng'illadi Sodir mirshab.

– Uch tilladan beraman, – dedi guppi.

– Uch tilladan!!! – Nodir mirshab shunday deb hushi boshidan uchdi. U batamom guppinig quliga aylangandi. Sodir mirshab esa battar shubhaga tushdi.

– Menga qarang, boy aka, shu odamga tegish namuncha zaril bo‘lib qoldi? Nasriddin Afandini butun poshsholikda otlıq ham, piyoda ham tanisa. Bir ishkal chiqsa men bu mirshablarni tanimayman, deb tonib ketaverasiz!..

– Besh tilladan! – dedi guppi uning og‘ziga urgandek.

Bu pulni eshitib ikkala mirshab adoyi tamom bo‘lishdi. Ayniqsa, Nodir mirshab o‘rnidan turib ketib: «Lanj! Nas bosgan!» degan ta‘nalarni aytib unga tashlandiki, Sodir mirshab ham taslim bo‘ldi.

– Besh tilladan ollaring-da, ishni bajaringlar! Asalini olib quruq jo‘nat-salaring bas! Nasriddin Afandini loy qilgan mirshablar, deb shon-shav-katinglar butun poshsholikka ketadi. Bekning, shohning nazariga tushasanlar. Senlarni chaqirib mansab beradi. Hammasi ikki xum asalni olish evaziga-ya! Karnaychidan bir puf-da! Boz ustiga oson yo‘lini o‘rgataman.

– Bo‘pti, o‘rgating yo‘lini! – dedi Sodir mirshab.

Guppi biroz nafas rostlab, so‘ng u yoq-bu yoqqa alanglab oldi-da, ikki og‘aynini bo‘ynidan ushlab o‘ziga engashtirdi. Shu alfozda uch-to‘rt jumla aytgandi, mirshablar birdan o‘zlarini orqaga tashlab qah-qah urishdi. Guppi yana ularni boyagidek engashtirdi. Uch-to‘rt og‘iz gapidan so‘ng mirshablar yana gavdalarini orqaga tashlab, osmonga qarab qah-qah urdilar.

– Obbo, obbo, boy aka! Ustomonlikda barchadan o‘tib ketibsiz-ku! – dedi kulgi aralash Nodir mirshab.

– Nasriddin Afandi ham ip esholmaydi! – dedi Sodir mirshab. Yarasiga malhamdek bu maqtovdan Muhsin guppi taltayib ketdi.

– Zo‘rmi? – so‘radi u ham gerdayib. – Zo‘r! Qoyil!

Muhsin guppi jiddiylashib, mirshablarga rejani puxta uqtirdi.

– Agar asalni o‘marganlaringni sezmasdan ketaversa – indamaysizlar! Sezib qolsa, biz bilmaymiz deb, haligi men o‘rgatgan javobni berasanlar! Bo‘ptimi?

– Bo‘pti, boy aka! Ammo-lekin qoyilman! – dedi Nodir mirshab.

– Shundan keyin Muhsin guppi ularga ikkita og‘zi boyloq oq xaltacha berdi. Mirshablar uni avaylab olib, sardobaga yashirib chiqishdi.

– Qani, boringlar! Ikkita xum topib kelinglar! – dedi guppi.

IKKI XUM ASAL

Sal o'tmay, Sodir va Nodir mirshablar biri xum, ikkinchisi mis kashkulni egarga bosgancha qaytib kelishdi. Bir-birlariga yordamlashib, idishlarni artishdi, ko'z ochib yumguncha ularni sardobaning orqa tomonidagi butalar ichiga yashirib qo'yishdi.

– Menga qara! Agar shu ishimiz tufayli rostdan ham bekning nazariga tushsak, qaysi mansabni so'rasam ekan-a? – dedi Nodir mirshab og'zi qulog'iga yetib.

Sodir mirshab doimo sherigining xayolini band qilgan orzusini bilgani uchun darrov javob berdi:

– Mirshabboshilikni!

Nodir mirshab bir chuqur oh tortib, «sen nima so'raysan, Sodir?» demoqchi edi, Laylak tomondan kimningdir xirgoyisi eshitildi:

– Toshqin daryoman debon, savlatingga ishonma, ho ishonma. – Bu Nasriddin Afandi edi. Mirshablar gap bilan bo'lib uning yaqinlashganini sezmay qolgandilar. Ular darrov salla-pechlarini to'g'riladilar. Bir oyoqlarini supadan pastga osiltirganlaricha yarim chordana qurib, «suhbat»ga berilishdi.

Nasriddin Afandi xirgoyisini bir daqiqaga uzib, «assalomu alaykum», dedi-da, o'tib keta boshladi.

– Yo'l bo'lsin, Afandim? – dedi Nodir mirshab alik olgach.

– Bozorga, saltanat tog'lari, bozorga, – javob berdi Nasriddin zarracha qiyo boqmay.

– Bozor tarqab ketmaydimi, kech qopsiz? – Sodirning bu gapidan keyin ikkala mirshab xavotirlanib o'rinlaridan turishdi. Chunki Nasriddin o'tib keta boshlagandi.

– Yaxshi molning bozori tarqamaydi, birodarlar! – Mirshablar haya-jonlanib yo'l ustiga chiqishdi.

– Nima olib ketyapsiz?

– Asal, asal.

– Hoy, to'xtang, – dedi Nodir mirshab. – Hujjatingiz bormi?

– Iya, qanaqa hujjat?

Savoldan Nodir mirshab kalovlanib qolgandi, Sodir mirshab topqirlik qildi:



– Asal o‘zingiznikiligi haqidagi hujjat!

Nasriddin eshagining jilovini tortdi. Bir oyog‘ini egar ustiga olib yarim chordana qurarkan, jilmayib mirshablarga o‘girildi. Shu qiyofasi-ning o‘zi kattakon savol edi.

– Biz sizni o‘g‘ri demoqchiasmiz-u, ammo-lekin mirshabboshi hamma hujjatlarni tekshirib o‘tkazgin deb buyruq bergan. Shuning uchun yo hujjat, yo guvoh topib keling, – dedi Nodir mirshab.

Nasriddin xoxolab kuldi:

– O‘tganning o‘rog‘ini, ketganning mashog‘ini olib o‘tirasizlar, deb eshitgandim. Qarang, noto‘g‘ri ekan! Guvoh yoki hujjat tekshirib o‘tirar-kansizlar-da!

Mirshablar Nasriddinning kinoyasini tushunmaslikka oldilar.

– Biz birovdan bekorga hech narsa olmaymiz. Birovning haqiga xiyonat qilgan odam shariat oldida javob beradi. Avval o‘ng qo‘li, so‘ngra so‘l qo‘li kesiladi. Sizni hurmat qilamiz. Shuning uchun har xil ma‘noga buradigan gaplarni gapiravermang.

– Ha, sizni hurmat qilamiz, – deb ilib ketdi Sodirning gapini Nodir. – Shuning uchun qishloq oqsoqolidan borib bitta hujjat olib kelasiz!

– Hurmatlaring uchun, rahmat. Lekin xuddi shu hurmat haqqi, hozir yo‘ldan qo‘ymanglar! Mabodo mirshabboshi tekshirib qolsa, bor edi, yo‘qotib qo‘yibman, deyman.

– Yo‘q, bizni yolg‘onga sherik qilmang.

Mirshablarning qat‘iy javobi shu bo‘ldi.

Nasriddin Afandi bir sir borligini tushundi va qaytib hujjat olib kelishga ko‘ndi. Lekin mirshablarni bir sinovdan o‘tkazmoqchi bo‘ldi:

– Xumlarimni shu yerda qoldiraymi yo olib ketaymi?

– Iya, ha nima qilasiz eshak jonivorni qiynab? Tashlab ketavering! – dedi darrov Nodir mirshab, asalning olib ketilishidan xavfsirab.

– Turadi shu yerda. Men umuman asalni xush ko‘rmayman! – jo‘r bo‘ldi Sodir mirshab, so‘ng sherigidan so‘radi: – Sen-chi?

– Be-e! – dedi Nodir mirshab. – Men asalni jindek hidlab qo‘ysam, shu yo‘tal tutadi, shu yo‘tal tutadi! Hech o‘zimni to‘xtata olmayman!

– Mana, supaning yonboshiga qo‘ying. Salqinda tura-turadi, – dedi Sodir mirshab.

– Qani, yordamlashib yuboringlar, bo‘lmasa! – iltimos qildi Nasriddin eshakdan tushib.

Birovning ishiga saratonda qo‘l urmaydigan mirshablar bu iltimosga yugurgilab kelishdi. Tizzadan sal balandroq keladigan xumlarni uch kishilashib supaning yonboshiga olib qo‘yishdi.

Nasriddin xuddi hech narsa bo‘lmagandek, xirgoyi qilgancha Laylakka qaytdi. U uzoqlashib nuqtadan sal kattaroq holda ko‘ringunga qadar: «Sabr qil, sal nariroq ketsin, o‘girilib ko‘rib qoladi» degan gaplar bilan mirshablar birini biri bosib turishdi. Keyin birdaniga shoshib ishga kirishishdi. Boyagi, sardoba orqasiga yashirib qo‘yilgan xum va kashkulni keltirib, Afandining xumlarini ularga ag‘darib, asal yaxshilab oqib tushguncha ushlab turishdi. Shunday qilib o‘zlari olib kelgan idishlarini to‘ldirishdi-da, ularni yana chakalakzor ichiga yashirishdi.

Afandi xumlarining har bittasiga esa haligi guppidan olgan oq xaltalarni qoqib bo‘shatishdi. So‘ngra darrov-darrov og‘zini bog‘lab joy-joyiga – supaning yoniga qo‘yib qo‘yishdi.

KUTILMAGAN...

Nodir mirshab bilan Sodir mirshab asalni gumdon qilib, pinakka ketishni mo‘ljallamoqda edi. Chunki eshagi ming yo‘rtmasin, Nasriddinning qaytib kelishiga kamida bir-bir yarim soat kerak.

Guppining «besh tilla, nazarga tushasanlar, shuhrating oshadi», degan gaplari ta’sirida avval mirshablarning ruhlari ko‘tarildi, ketma-ket qo‘shiq aytib, biroz askiyabozlik ham qildilar. Keyin esa allaqaydandir o‘rmalab kelgan xijillik yuraklariga asta kirib, ikkovlari ham xomushlanib qolishdi...

Nasriddin Afandi masalasi, hozir o‘ylab ko‘rishsa, chatoqroq. Nasriddin arz-dodini hech kimga yetkaza olmaydigan dehqon yoki cho‘pon emas. Uni oddiy fuqarodan tortib bek-u amaldorlargacha hamma biladi.

Xijillikning ildizi shunda edi. Bu xijillik ikki mirshabni o‘tga solgan bo‘lsa-da, Nodir bilan Sodir mard kishilar edi. So‘z berdilarmi, bas, o‘sha ishni do‘ndirishlari kerak. Yana bir tomoni, Muhsin guppining boyligi, qozikalon bilan tanish-bilishligi, unadigan besh tilla ularga tasalli berar edi. Boz ustiga, nayrangning silliq chiqishiga, Nasriddinning hech narsa

sezmay qolishiga ishonch ularning batamom tahlikaga berilib, «oh-voh» qilishlariga yo'l bermasdi.

...Nasriddin Afandi xirgoyi qilganча ularga yaqinlashardi.

– Asaldan mosuvo bo'lganidan bexabar mullaning ashula aytishini qara! – dedi Nodir mirshab. Ikki og'ayni kulishdi... Keyin supada yonmayon o'tirishib, mo'min-qobil qiyofaga kirishdi

Nasriddin Afandi eshakdan tushgandagina xirgoyisini to'xtatdi-da, gap qotdi:

– Borib hujjatni olib keldim. Mana!

Nasriddin qo'ynidan kichkina qog'oz parchasini olib uzatdi. Qog'ozni olgan Nodir mirshab, u yoq-bu yog'ini ag'darib ko'rdi, so'ng Sodir mirshabga uzatdi. Sodir mirshab ham qog'ozning u yoq-bu yog'ini qarab, Nasriddinga qaytardi.

– Joyida muhri, imzosi bor, yaxshi! Ana, asalingiz turgan yerida turibdi. – So'ng Nodir mirshabga yuzlanib, o'rnidan qo'zg'aldi. – Ortishvoraylik-a? Afandim ancha ovora boldilar... – dedi...

Nasriddin Afandi: «Yashanglar! Rahmat sizlarga!» deganча jilmayib kuzatib turdi.

– Ana! – dedi Sodir mirshab qo'lini qo'liga urib changini qoqqandek.

– Ana! – dedi Nodir mirshab xuddi o'shandek kaftini kaftiga urib. – Eshakka mining-da, jo'nayvering!

– Shundaymi? Jo'nayveraymi? – Nasriddin Afandi shunday deb xum solingan xurjunning bir tomonini ko'tarib ko'rdi.

– Iya! – dedi u hayron jilmayganча. – Ha, bu yengil bo'lib qolibdi-ku?!

– Nega yengil bo'lib qolarkan? – dedi Nodir mirshab yasama hayronlik bilan.

– Qiziqmisiz, o'zidan o'zi yengil bo'lib qolaverarkanmi? – dedi Sodir mirshab ham undan qolishmay.

So'ngra mirshablar o'sha xurjundagi xumni ikkovlashib ko'tarishdi.

– Zildek og'ir-ku, ikkovlon bazo'r ko'tarib turibmiz, – deyishdi ular xumni qo'ymay.

Nasriddin zavqlanib kuldi.

– E-e, qo'yinglar, qo'yinglar! Yana uzilib qolmanglar! – dedi.

Nasriddin narigi xumning bog‘log‘ini shoshilmay yechdi-da, qopqoq qilingan lattani ko‘tardi. Xumning ichidan bir gala pashsha g‘uvillab uchib chiqib har tomon tarqab ketdi. Nasriddin qo‘li bilan yelpina-yelpina xumning ichiga mo‘raladi:

– Bo‘sh-ku?!

Bu xitobdan keyin mirshablar xumli xurjunni qo‘yib yuborishdi. Nasriddin eshakning berigi tomoniga o‘tdi-da, ikkinchi xumni ham ochdi. Yana bir gala pashsha qutulganiga shukr qilgandek g‘uvillab tashqariga otildi. Uch-to‘rttasi xumning chetiga, Nasriddinning egniga ham o‘tirdi. U yana yelpina-yelpina xumning ichiga mo‘raladi. Shu ko‘yi ikki kiprik qoqqunchalik turdi-da, zavq bilan qiyqiriqqa o‘xshatib kulib, mirshablarga o‘girildi va shunday dedi:

– Nasib etsa kelar Shom-u Iroqdin,

Etmasa gar ketar qosh-u qaboqdin!

Xafa bo‘lish o‘rniga Nasriddinning kulgani, she‘r aytgani mirshablarni juda qo‘rqitib yubordi.

– Nega bizga qaraysiz? Ha, nega bizga qaraysiz? – deyishdi payopay ranglari o‘chgancha.

– Asal osmonga uchib ketibdi-da?!

– Biz qattan bilaylik! Qo‘limizni uchiniyam tekkizmadik! – dedi Nodir mirshab...

– O‘zi bormidi asalingiz? Yoki bizni mazax qilmoqchi bo‘ldingizmi?

– so‘radi Sodir mirshab dadillashib.

Nasriddin javob bermadi. Kinoyali, sinchkov jilmaygancha sallasini sal surib, bosh qashigancha supaga borib o‘tirdi. Bir nuqtaga tikilgancha zo‘r berib nimalarnidir xotirlay boshladi...

– Tavba, sizlarning qo‘llaringdan bunaqa ish kelmaydi, – dedi Nasriddin takrorlab. – Asal qayoqqa ketdiykin?

– Tavba, – dedi Nodir mirshab ham qo‘lini paxsa qilgancha. – Ha, bu og‘zi bog‘liq bo‘lsa! Qo‘l tekkizilmagan bo‘lsa! Qayoqqa ketdi asal, a?

Sodir mirshab birdan peshonasiga urib baqirdi: – Topdim!!! Asalni kim gumdon qilganini topdim!

Nasriddin indamay qarab turaverdi. Nodir mirshab «Kim? Kim?» deb so‘radi.

– Haligi bog‘lovini yechganda ichidan g‘uvillab uchib chiqqan pashshalar! O‘shalar yegan asalni!

– Yo‘g‘e! – Nasriddinning yuziga tabassum yugurdi.

– To‘g‘ri, – dedi Nodir mirshab. – Aqlingga balli!

– Be-e, qo‘ysanglar-chi! – dedi Nasriddin soddalik bilan. – Shu uch-to‘rtta pashsha ikki xum asalni yeya olarkanmi?

– Yo‘q, Nasriddin aka! – dedi Nodir do‘stining bu fikriga yopishib olib. – Pashshalar uch-to‘rtta emas, qirq bitta edi.

– Ho, ho, ho! Qirq bitta ekanini qayoqdan bila qoldingiz?

Nodir mirshab kalovlandi:

– Men, a... men... o‘zi yoshlikdan zehnim o‘tkir!

– Ha, – Sodir sherigiga yordamga oshiqdi. – Buning ota-bobosi cho‘pon o‘tgan. Otardagi qo‘yni sanayverib o‘rganib ketgan-da!

– To‘g‘ri, – dedi Nodir. – Oldimdan qancha pashsha o‘tganini ham shundoq qarab aytib beraveraman.

– O‘! Zo‘r ekansiz!

Nasriddin sallasini boyagidan boshqa tomonga surib, bosh qashib, o‘yga cho‘mdi.

«Zo‘r ekansiz, zo‘r ekansiz»ni g‘o‘ldirab takrorlab o‘tirdi... Nasriddin tuyqusdan tizzasiga «shap» etib urib, «xo‘p» dedi. Mirshablar sapchib turishdi.

– Demak, asalimni pashsha yegan, shundaymi?

– Shunday, shunday! – dedi Sodir mirshab.

– Qirq bitta pashsha! – ta‘kidladi Nodir mirshab.

– Xo‘p! – dedi Nasriddin Afandi. – Men ishondim. Endi-chi, saltanatning suyangan tog‘lari, menga o‘sha qirq bitta pashshadan qasos olishga yordam berasizlar! Yaraydimi?

– Yaraydi! Yaraganda qandoq, – dedi Sodir mirshab.

– Qirq bitta tugul mingta bo‘lmaydimi? – Nodir mirshab shap etib supaga qo‘ngan pashshani urdi. – Mana, bittasini tinchitdim...

– Yo‘-o‘q, – Nasriddin bosh chayqadi. – Menga bu ketmaydi. Hozir qozining oldiga boramiz, xo‘p denglar, men asalimni yeb ketgan pashshalarni jazolashga vakolatnoma so‘rayman, xo‘p denglar! Sizlar guvoh bo‘lasizlar.

Bu gapni eshitgan mirshablar xoxolashdan o‘zlarini to‘xtatolmay qoldilar. Bir-birlarining kulishiga, ayniqsa, Nasriddinning soddalik bilan

jilmayib turishiga ko'zlari tushgan sayin kulgilari avjlanib, o'zlarini to'xtatolmay qoldilar. Bora-bora nafasleri ichlariga tushib ketdi...

– Obbo, Nasriddin Afandim-ey! Ha, pashsha o'ldirishga ham vakolatmi? – deyishardi mirshablar, ko'zyoshlarini arta-arti. – Mana, atrofigizda uchib yuribdi. O'ldiravering! Kuchimiz yetgancha, biz ham yordamlashamiz, qiladigan ishimiz yo'q.

Shunday deb mirshablar supani aylangancha pashsha o'ldirishga tushib ketishdi.

– Hoy, bunaqasi ketmaydi dedim-ku! – deya to'xtatdi ularni Nasriddin.

– Ha, nima qil deysiz?

– Qoziga boramiz! Guvoh bo'lasizlar, tamom-vassalom!

– Be-e, qo'ysangiz-chi! – dedi Sodir mirshab.

– Men sizni hazillashyapsiz deb o'ylabman, – dedi Nodir mirshab.

– Hazillashayotganim yo'q! – Nasriddin go'yo do'stlariga hasrat qilayotgan odamdek, mirshablarni yoniga o'tirishga da'vat qilib, asta gap boshladi. – Men-ku pashsha vajiga ishondim. Ammo... Agar xotinimga borib, mirshablarning tumshug'i ostida turgan asalni pashshalar yeb ketibdi deb, quruq gapni aytsam, o'la qolsa ishonmaydi, – Nasriddin nasihat ohangida davom etdi: – Shuning uchun gap chuvalmasin-da, borib vakolatni olaylik. Men ham uni xotinga ko'rsatib tinchiyman, sizlar ham g'alvaga qolmaysizlar.

Mirshablar ko'zlari ola-kula bo'lib... qoziga borishga ko'nishdi.

Nasriddin eshagiga mindi, mirshablar otiga. O'ljalar qolayotgani uchun bir-ikki orqalariga qarab qo'ydilar-u, noiloj Nasriddinning ketidan yo'lga tushdilar.

Ular olislab ketgach, Abdukarim joyidan chiqdi. Supaga kelib o'tirdida, yerga qaragancha o'yga toldi. «Nima bo'lsa bo'ldi!» deb ro'zg'or tashvishlariga qo'l siltadi. Eshagiga o'tirib Nasriddin Afandi va mirshablarni qora qilgancha shaharga yo'l oldi...

VAKOLATNOMA

Nasriddin Afandi mirshablar bilan qozixonaga kirib kelganda, qozikalon bilan Muhsin guppi kabobni yeb, ustidan shirinliklar bilan choy ichardilar...

• – Keling, Nasriddinboy. Qanday shamol uchirdi? – qozikalon Nasriddinni ko‘rib, chin dildan bir zavqlansa, uning chuv tushishiga guvoh bo‘lajagidan ikki zavqlanardi.

– Bu, – deya salmoqlab boshladi Nasriddin gapni cho‘zmaslik niyatida.
– Bizning musulmonobod zamonda o‘g‘rilar jazolanishi shart-a?

– Albatta, albatta! – dedi qozikalon katta gavdasiga yarashmagan chaqqonlikda joyiga o‘tirib, dasturxon chetlarini pashsha talayotgan oshovqatning ustiga yoparkan. – Birinchi karra qo‘lga tushgan o‘g‘rining o‘ng qo‘li kesiladi, ikkinchi karrasida chap qo‘li!

Qozining javobidan mirshablar tipirchilab qolishdi.

– Bizni boshqa narsaga chaqirgan edingiz-ku, Nasriddin aka! -deyishdi barobar.

– Nega qo‘rqasizlar? – hayron bo‘lgandek gap qotdi ularga Nasriddin.
– Asalni gumdon qilgan sizlar emas-ku, to‘g‘rimi?

– To‘g‘ri, to‘g‘ri, bizlar emas! Bizlar emas!

Qozi jim bo‘llaring degandek ishora qildi-da, Nasriddinga yuzlandi:

– Xo‘sh, Afandim, o‘zi nima gap?

– Ha, gapiring, gapiring! – deya luqma tashladi guppi o‘ta qiziqsingandek va o‘zini hech narsadan xabari yo‘qdek ko‘rsatib.

– Mayli, lo‘ndasini aytaman, – dedi Nasriddin Afandi qo‘lini siltab. – Men bozorga ikki xum asal olib kelayotgan edim. Bu mirshablar yo‘lda to‘xtatib, asal o‘zirniki ekanligini tasdiqlovchi hujjat talab qilishdi. Asalimni bularning oldiga qo‘yib oqsoqoldan hujjatni olib kelsam, og‘zi boyloq xumlarim bo‘sh! Bog‘log‘ini yechgandim, ichidan bir gala pashsha uchib chiqdi...

– E, qiziq bo‘pti-ku! – guppi qixillab kuldi.

– Qirq bitta! – dedi Nodir mirshab.

– E, pashsha qursin, – dedi qozi pashsha qo‘rib.

Shu uch luqmadan keyin Nasriddin Nodir mirshabni ko‘rsatib davom etdi.

– Bu kishining zehnlari juda o‘tkir ekan, qirq bittaligini darrov sanab qo‘yibdilar. Men, turgan gap, mirshablarni o‘g‘ri qildim. Lekin bular asalni pashshalar yegan, deyishdi. Podshohlikning odamlari shunday degandan keyin ishonmay ilojim yo‘q, ishondim!

– Ha, qirq bitta pashshayam yeyman desa ancha-muncha narsani yeb qo‘yadi! – dedi Nodir mirshab aqli gap aytayotgandek ko‘zlarini lo‘q qilib.

– To‘g‘ri! Qirq bitta! Balki ko‘proq hamdir? Lekin menga qirq bittasi ham yetadi. Endi, qozikalon, siz menga shu ikki mirshab guvohligida, shu qirq bitta pashshani jazolashga ruxsat beradigan vakolatnoma yozib berasiz!

Nasriddinning bu gapidan keyin sardoba yonida mirshablar qanday kulishgan bo‘lsa xuddi o‘shanaqa kulgi boshlandi. Unga Nasriddinning o‘zi ham qo‘shildi. Faqat hali uch kishi kulgan bo‘lsa hozir besh kishi edilar. Hammasi dumalab, qornini ushlab, «pashsha...», «vakolat» deb, davomini aytolmay qixillab qolishardi.

– Obbo, Nasriddin-ey! Obbo tushmagur-ey! Ba‘zan xo‘p soddasiz-da! – dedi nihoyat qozi tili zo‘rg‘a aylanib. – Ha, vakolatsiz shunday o‘ldiravermaysizmi?

– Shunday qilsam ham bo‘laveradi, – dedi Nasriddin o‘sha-o‘sha jilmaygan ko‘yi. – Lekin odamlar jinniga chiqarishlari mumkin...

Yana uzoq kulgi bo‘ldi. Nasriddin ham jilmayganicha kutib turib, mavridi kelgach, davom etdi:

– Undan keyin bu qog‘ozingiz xotinimga ko‘rsatish uchun kerak. Uni eshitgansiz. Otasi Shohboboning sevimli ellikboshisi bo‘lgan. Ellikboshining dovrug‘i hali ham so‘nmagan. Shu xotinga asalni ikkita mirshabning tumshug‘i tagida pashsha yeb ketibdi desam, quruqdan-quruq ishonadimi? Yo‘q, mirshablarga to‘nkaydi. Mirshablarning orqasida yana birov bor, deydi-da, Urganchdagi qarindoshlariga xabar qiladi. Mirshablarni qo‘yavering! Kuppa-kunduz kuni odamlarni mirshablarga tunatib qo‘yibsan deb, sizga-da, begimizga-da gap tegadi. Xo‘sh, vakolat bo‘lsa-chi? Men uni xotinimga ko‘rsataman, ko‘zining o‘ngida bir-ikkita pashshani o‘ldiraman, tamom-vassalom! Hamma yoq tinch, olam guliston!

Nasriddin Afandining da‘volaridan keyin ikkala mirshab va kutilmaganda Muhsin guppi uning yonini olib gap uqtira boshlashdi. Muhsin guppi ham gapirar, ham kishi bilmas qosh qoqib qozini ko‘ndirishga urinardi. Xullas, Nasriddindan ko‘ra mirshablar va guppining tazyiqi tufayli, ikkilanayotgan qozi ham rozi bo‘ldi-da, qalamni olib, dovotni oldiga surdi.

Qozi do'rillagan ovozda yozganlarini qaytarib, vakolatnomani yarimlatgan paytda, «assalomu alaykum» deb, qozixonaga Abdukarim kirib keldi. Uning salomiga Nasriddindan bo'lak hech kim alik olmadi. Qozi g'ong'illab vakolatnoma yozardi. Guppi ensasi qotib teskari o'girildi. Mirshablar esa bir seskanishdi. So'ng ikkovi asta Abdukarimga yaqinlashib: «Bor, chiqib tur, navbati bilan kelasan!» deb shivirlab tashqariga turtkilashdi. Lekin Abdukarim bir siltanib joyida qoldi.

– Mirshablar to'g'ri aytyaptilar, bo'tam, tegirmon navbati bilan! – dedi qozi ko'zlarini qog'ozdan uzmay o'ziga o'zi gapirgandek.

– Meni ishim ham hozirgi ishga bog'liq, – dedi Abdukarim.

– Unday bo'lsa, mayli, – javob qildi qozi gapga tuzuk ahamiyat bermay yozuvda davom etarkan.

Noiloj qolgan mirshablar guppini chekkaga tortishdi:

– Asalni shuning idishlariga solganmiz. Tezroq aqchasini bering! – deyishdi tishlarini g'ijirlatib. – To'polon chiqaradi!

Muhsin guppi istehzoli kuldi:

– Menga shunisi kerak-da! Qancha ko'p to'polon ko'tarsa, shuncha yaxshi!

– Kerakmas aqchangiz, mirshab aka! – dedi ularning gap-so'zini eshitib turgan Abdukarim. – Hech narsani bilmaganimda, boshidayoq to'laganlarida olardim. Endi olmayman!

– Nega? – hang-mang bo'lgancha so'radi Sodir mirshab.

– Nasriddin akamga firib bermoqchiliginglarni sezib qoldim. Hammasini hozir aytaman!

Gapini tugatar-tugatmas mirshablar rostakamiga yoqasiga yopishib qozixonadan chiqarib tashlamoqchi bo'ldilar. Lekin qozining sharaqlatib muhr bosgani mirshablarni chalg'itdi. «Ana bitdi!» dedi qozi. So'ngra engashgan ko'yi qovog'i ostidan kulib qarab qog'ozni uzatdi:

– Mana, Nasriddin boy!

Nasriddin vakolatni olish uchun borayotgandi, qozi hiringlab qo'ydi-da:

– Shoshmang! Avval o'qib beray, – deb yo'g'on ovozda o'qiy boshladi: «Vakolat. Berildi shul haqdakim, ushbuni ko'rsatuvchi mulla Nasriddin Afandi asallarini yeb ketgan qirq bitta o'g'ri pashshani qayerda va qachon

ko‘rishidan qat’i nazar jazolashga mutlaq huquqi bor. Kimda-kim bu ishda unga mone’lik qilaturg‘on bo‘lsa, ul kimsa-da, haromning homiysi sifatida, bamisoli o‘g‘ri kabi, o‘ng qo‘li kesilishiga mahkumdur.

Shar’an muvofiqdir, deb: qozikaloni shahri Kumushkent Sadriddinxo‘ja Idrisxo‘ja o‘g‘li.

Imzo. Muhr»

– Mana, mulla Nasriddin, endi pashshalaringizni o‘ldiravering, – kuldi Muhsin guppi.

Nasriddin qoziga bir qarab qo‘yib, qo‘lidan hujjatni oldi-da, Abdulkarimning oldiga keldi. Unga engashib past ovozda tayinladi.

– Meni deb aqchangizdan kechganingiz uchun rahmat! Endi yordamingiz kerak! Shu qog‘ozni obchiqib, yaxshilab yashiring!

Abdulkarim gapirmoqchi bo‘lgan edi, Nasriddin og‘iz ochirmay keskin va sirli qilib ta’kidladi:

– Shu qog‘oz bularning ta’zirini beradi. Yaxshilab yashiring. Birov topadigan bo‘lmasin! Keyin o‘zimga qaytararsiz!

Abdulkarim hujjatni olib chiqib ketdi.

– Xo‘sh, ana endi pashshalarni qirishga kirishamiz, – dedi Nasriddin orqaga qaytarkan.

– Kirishing-kirishing! – dedi Muhsin guppi mazax ohangida... Guppi shunday deyishi bilan qo‘qqisdan quloq chakkasiga shapaloq tushdi. Tuyqusdan kaltak yegani uchun guppi hatto voy deyolmay gandiraklab borib ag‘darilib tushdi. Qozi va mirshablar hayron-u lol qolib: «Hoy-hoy, bu nima qilganingiz?» deyishdi.

– Bu birinchi pashsha! – deb javob berdi Nasriddin va hamon og‘zini ochib turgan Nodir mirshabni ham qulochkashlab soldi. – Bu – ikkinchi pashsha!

Nodir mirshab «voy, jag‘im», degancha engashib qoldi. Nasriddin Sodir mirshabga yuzlandi. Sodir mirshab qochdi. Nasriddin Afandi orqasidan yetib olib: «Bu uchinchi pashsha!» degancha ketiga bir tepdi.

Voqeaning bu yo‘sin, teskarisiga aylanib ketishini kutmagan qozi so‘rida o‘tirgan joyida: «Chatoq ish bo‘pti-ku!», «Qiziq ish qilib qo‘yibmiz-ku!» – deb g‘o‘ldiradi.

Ikkala mirshab sal o'zlariga kelib qilichlarini «shig'» etib qinidan chiqarishdi.

– Qani tegib ko'ringlar-chi! O'g'ri pashshaning himoyachisi sifatida qo'llaringni kesishadi! – dedi Nasriddin qo'rqish o'rniga asta bostirib borib...

Shu payt Abdukarim qaytib keldi-da, ostonadan turib e'lon qildi:

– Boplab berkitib qo'ydim, Nasriddin aka!

– Yashang! – dedi Nasriddin. So'ngra qoziga yuzlandi: – Qani, qozikalon, beriroq keling-chi! Bitta pashsham sallangizga o'tirib qolibdi!

Nasriddin shunday degancha so'riga chiqa boshladi. Qozi ikki qo'lini oldinga chiqarib so'rining to'riga tisarilarkan: «Hoy-hoy, Nasriddinboy! O'ylab ish qiling! Sharmanda qilmang!» deya yalinardi. «Qimirlamang, qimirlamang, uchirib yuborasiz!» deb, Nasriddin uni so'ri bo'ylab ta'qib qila boshladi. Qozi qo'lini boshi uzra silkitib, keyin yana oldinga chiqarib muhofazalanib: «Ana haydavordim. Uchib ketdi. Bu boshqa pashsha!» degancha so'rida gir aylanib chekinardi. Nasriddin baribir unga yetib, qulochkashlab gardaniga bir urdi. Lekin qozikalon baquvvat odam bo'lgani uchun «hiq» dedi-yu, bildirmadi. Nasriddin yana bir qulochkashlamoqchi bo'lgandi, qozi chaqqonlik qilib uning qo'lini ushlab, o'zini quchoqlab oldi.

– Sizni o'g'ri deb jazolash kerak! O'zingiz yozgan vakolatga qarshi chiqyapsiz! – derkan Nasriddin qozining quchog'idan chiqmoqchi bo'lib siltana boshladi. Qozi Nasriddinni quchog'ida mahkam qisganicha qimirlatmas: «Insof qiling! Insof qiling! Sharmanda bo'lmay!» deb yalinardi.

– Mayli, qo'yvoring, – dedi Nasriddin qozining «quchog'ida» turgancha, hozircha qozini dushman qilmaslikka qaror qilib. – Lekin anavilarning boshidagi pashshalarni urishga qarshi bo'lmaysiz!

Qozi: «Meni urmaysizmi? Menga qo'ngan pashshani o'ldirmaysizmi?» deb qayta-qayta so'rab tasdiqlatib olgandan keyin uni qo'yib yubordi.

– Iye! – dedi Nasriddin qizishib. – Asalimni yegan pashshalarni siz taniysizmi, menmi?!

– Nima, hammasi bizning boshimizga qo'nadimi? – yig'lamsiradi Muhsin guppi.

– Qo'nsa mendan so'rab qo'nadimi? O'zi biladi-da!

– Sal insof qiling-da, axir! – Muhsin guppi shilq etib burnini tortib qo‘ydi.

– To‘g‘rida, insof ham kerak! – ma‘qullashdi mirshablar.

– Ho‘y! – dedi Nasriddin uchoviga qarata. – Men insof nimaligini tushunmayman! U ariqning boshiga o‘tirib olib, yosh-u qari ko‘z tikib o‘tirgan ekinni quritish emasmi? Dehqonni xonavayron aylash, yerini tortib olish, bevatan qilish emasmi? Yoki sardobaning oldida qaroqchilik qilib, o‘tgan-ketganni shilishmi, a?

Mirshablar indashmadi, ko‘zlarini lo‘q qilib yerga tikishdi. Muhsin guppi qo‘l silkiib o‘rnidan turib ketdi. Nasriddin irg‘ib borib uning bo‘yniga yana bir tushirdi.

– Mana bu beshinchi pashsha! – dedi birinchi marta jahli chiqib. Nasriddinning avvalgi shapaloqlari sharmanda qilish niyatida bo‘lsa, keyingisi g‘azab bilan urilgandi. Chunki Muhsin guppi – qozi, mirshablardan farq qilib, otdan tushsa-da, egardan tushmagan, batamom mag‘lub bo‘lganligini tushinishni istamasdi.

– Voy! Bu qanday bedodlik, hech narsa qilolmasam, a? – dedi Muhsin guppi qoziga qarab yolvorgancha.

Qozi alaloqibatda o‘zi ham sharmandai sharmisor bo‘lishi mumkinligini o‘ylab, uning gapiniyam eshitmadi. Ko‘zi Abdukarimga tushdi.

– Siz nima qilib turibsiz? – so‘radi undan.

Bu so‘roqni shunday dag‘dag‘a bilan aytdi-ki, Abdukarim dovdirab chiqib ketgudek holga tushdi. Yaxshiyamki Nasriddin Afandi joniga oro kirdi.

– Bu kishi men tarafdin guvoh! – dedi u qoziga qasdma-qasd dag‘dag‘a qilib.

– Ha, ha, men guvohman, – dedi dadillanib Abdukarim. – Asalni qanday o‘g‘irlashganini, qayerga yashirganini ko‘rganman. Mening xumlarimga solib qo‘yishibdi. Mirshablaringiz zo‘ravonlik qilib tortib olishdi xumlarimni.

– Qani, beringlar, xumlarining badalini, – buyurdi qozi mirshablarga o‘qrayib.

– Bering! – dedi Sodir mirshab buyruqni o‘z navbatida guppiga o‘tkazib.

Guppi o'tirgan yerida voy-voylab, qo'lini hamyonda yubordi.

– E, o'la qolsangiz bo'lmaydimi? – achitdi Sodir mirshab. – Boshida tashlab o'tish kerak edi! Rostdan ham «guppi» deyishgancha bor ekan! Past! Ahmoq!

Sodir mirshab shart turdi-da, qo'lini qilich sopiga yuborib, Guppiga yuzlandi. Uning ko'zlari sovuq yiltirardi:

– Bering tezroq!

Guppi shosha-pisha ikkita oq tangani olib unga uzatdi. Sodir mirshab Abdukarimga yaqinlashdi.

– Olmayman, deb aytdim-ku, – dedi Abdukarim undan chetlashib.

– Ol buni, xumpar! Ikkita oq tanga! Ko'chada yotmaydi! – Sodir mirshab tangalarni Abdukarimga tutqazishga urindi.

Bu tortishuvni qozi to'xtatdi.

– Bas! – dedi u baqirib, – hozir vakolatnomani hal etaylik! – qozi guppiga yuzlanib, do'qini davom ettirdi. – Buyoqqa kelib o'tiring! Jim turasiz! Nasriddin Afandi bilan men gaplashaman! Bular nima deb shart qo'ysalar, ko'nasiz! Xo'sh, mulla Nasriddin Afandi! – qozi tuyqusdan jilmayib Nasriddinga yuzlandi. – Vakolatnomani Muhsinboyga nimaning evaziga topshirishingiz mumkin?

Nasriddin bir zum o'ylab turdi-da, e'lon qildi: – Yuz tilla evaziga!

Guppi «voh» deb o'rnidan turib ketdi.

– Yuz tilla! – ko'zlari chaqchayib, boshini ushlagancha voy-voylab qozixonaning u boshidan bu boshiga borib kela boshladi.

– Men bu tillalarni, – davom ettirdi Nasriddin vositachi sifatida qoziga qarata, – Muhsinboyning o'ziga qaytib beraman. Faqat u keyingi o'n yil mobaynida yerlarini tortib olgan jami odamlarini, jami qarzdorlarini chaqiradi. Menga bitta-bitta aytib turadi, men ularning qarzini to'layman. Undan keyin oq ariqdagi xo'jayinchiligidan ham kechdim deb, qishloq ahli yig'inida e'lon qiladi. Qarabsizki, yuz tillasi ikki-uch kunda o'ziga qaytib boradi! Olam guliston!

– Ajab savdo! – dedi qozi sevinib. – Juda mardona savdo! Ofarin!

«Afandining qirq bir pashshasi» qissasi haqida

Ko'pgina xalqlarning og'zaki ijodida g'oyat zukko, tadbirkor, hozir-javob qahramonlar uchraydi. Ular hamisha, hamma joyda xalq manfaatini himoya qilishadi, zulm-zo'ravonlik, yovuzlik, qalloblik, muttahamlik kabi illatlarga qarshi ayovsiz kurash olib borishadi.

Nasriddin Afandi turkiy xalqlar folkloridagi ana shunday qahramonlardan biridir. U haqda ko'plab hikoyatlar, latifalar to'qilgan, asarlar yozilgan, filmlar yaratilgan.

Yozuvchi Zohir A'lamning «Afandining qirq bir pashshasi» qissasidan avval o'zbek o'quvchilari Nasriddin Afandini rus yozuvchisi Leonid Sobolevning «Sehrlangan shahzoda» povesti va ikkinchi jahon urushi yillari hamda urushdan keyingi yillarda yaratilgan, «Nasriddin Buxoroda», «Xo'ja Nasriddin», «Nasriddinning o'n ikkinchi qabri» badiiy filmlari orqali yaxshi tanib olishgan. Biroq, aynan o'zbek yozuvchisi tomonidan Nasriddin Afandi badiiy siymosi keng miqyosda ilk bor Zohir A'lam asarida o'z ifodasini topdi.

Qissa Laylak qishlog'ining eng katta boyi – Muhsinboyning ochko'zligi, qanday qilib bo'lsa ham o'z yerlarini kengaytirish haqida o'ylashi haqidagi manzaradan boshlanadi. Uning ana shu ochko'zligidan foydalangan Nasriddin Afandi uni chuv tushiradi. Boyga yolg'on tushi haqida hikoya qilib, anchagina yerini sug'ortirib oladi.

Xo'sh, inson o'z boyligini orttirsam, yerga yer qo'shsam buning nimasi yomon? Gap shundaki, Muhsinboy bu boyligini halol yo'l bilan topmaydi. Ariqdagi suvni hamqishloqlariga pullab, shuning hisobidan boylik orttiradi. Agar u Abdukarim dehqonga o'xshash o'r-qirlardagi ekilmay yotgan yerlarni o'zlashtirib, u joylarga suv olib chiqsa hech kimning e'tirozi bo'lmas edi. Biroq u mehnat qilib, shu mehnatning rohatini ko'rishga odatlanmagan. Shuning uchun ham birovlarining tayyor yeri, mol-mulkiga ko'z olaytiradi.

Qissada amal-u mansabidan foydalanib, xalqning hisobidan kun kechiradigan tekinxo'r, poraxo'rlar ancha teran tasvirlangan. Masalan, Sodir va Nodir degan mirshablar, qozikalon ana shunday toifaga taalluqlidir. Sodir va Nodir tog'ni ursa talqon qiladigan yigitlar. Biroq ular halol-pokiza yashash o'rniga o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini olib o'rganishgan.

O'zlarining bu yaramasliklarini haspo'shslash uchun, mirshabboshi bizga shuni buyurgan, degan vaj ham keltirishadi. Ular bu ishga shu qadar berilib ketishganki, Muhsinboy har biriga va'da qilgan besh tillani eshitib, o'zlarini tiya olmay qolishadi. Nasriddin Afandidek zukko, quv odamning ham ikki xum asalini o'g'irlashga rozi bo'lishadi.

Ammo ularning bu hiylasi zaminida nima yotganligini Nasriddin Afandi darhol fahmlab yetadi. Asalingizni pashshalar yeb ketibdi, deyishganda, Afandi ular bilan tortishib, janjallashib o'tirmaydi. Balki ana shu mantiqsiz bahonadan ularning o'ziga qarshi kurashda foydalanadi. Ikki mirshab guvohligida o'z asalini «yeb ketgan» qirq bir pashshani qirib tashlash haqida qozikalondan vakolat oladi. Ana endi Nasriddinning ishini ko'ring! U o'z asalini yeb ketgan pashshalarni qirish bahonasida qozikalonni ham, Muhsinboyni ham, har ikki mirshabni ham do'pposlab chiqadi. Afandini el-yurt oldida masxara qilish, obro'sini tushirish uchun ularning til birlashtirib qilgan hiylalari yo'qqa chiqadi. Qaytanga xalq orasida o'zlari kulgi bo'lishadi.

Qissada Nasriddin Afandi ancha quv, ayyor qilib tasvirlanadi. Ammo u o'z ayyorligidan birovlariga zarar yetkazish uchun emas, balki xalqqa zarari tegadigan, nopok, tekintomoq kishilarni fosh etish uchun foydalanadi. U hatto Muhsinboyni shu ko'yga soladiki, natijada boyning o'zi qozikalonni chaqirtirib kelib, Laylak qishlog'idagi dehqonlardan nohaq olgan yer va mol-mulklarni ularga qaytarib beradi. Hatto ariq ham jamoaning mulkiga aylantiriladi.

Yozuvchi qahramonlarning sarguzashtlarini tasvirlar ekan, dunyoda abadiy ziddiyatlar bo'lgan yomonlik va yaxshilik, jaholat va ma'rifat, yovuzlik va ezgulikning kurashida har bir inson o'z o'rmini topishi, yuksak maqsadlar uchun yashab, halol ter to'kib, yaxshi nom qozonishi, kerak degan fikrni ilgari suradi. O'quvchini aql va adolat bilan ish yuritish, yorug'likka, baxtga sazovor etadi degan xulosa chiqarishi uchun ibratli sarguzashtlar orqali imkon yaratadi. Asar yengil, hajviy tasvir vositalaridan keng foydalanilgan holda yozilgan. Undagi voqealar asosida Nasriddin Afandi nomi bilan bog'liq xalqimiz orasida keng tarqalgan uydurma, rivoyatlar, latifa, askiyalar yotadi. Qissaning yana bir ibratli jihati shundaki, turli sarguzashtlar bayoni bahonasida yozuvchi tarixiy hodisalar, joy

nomlari, xalqimizning aql va farosatini ko'rsatadigan turli obidalar, hunarmandchilik haqida ma'rifiy ma'lumotlar keltiradi. Masalan, badiiy niyat uchun o'ylab topilgan Laylak, Kumushkent kabi joylar qatori tarixiy Jurjon, Choch shaharlari haqida Xorazm shohligi bilan bog'liq tarixiy-jug'rofiy dalillar, suv tanqisligini bartaraf etish uchun dono ajdodlarimiz o'ylab topgan suv saqlash inshooti hisoblanmish «Sardoba» kabi ma'muriy qurilmalar, charxpalak va hokazolar xususida qissani o'qigan o'quvchi ko'p narsani bilib oladi.

Umuman, «Afandining qirq bir pashshasi» qissasi mahorat bilan yozilgan asardir. Qahramonlarning tili g'oyat sodda va xalqchil. Ular o'z xatti-harakatlari, fe'l-atvori, gap-so'zlari bilan o'quvchi xotirasida muhrlanib qoladi. Yozuvchining yutug'i ham ana shundadir.

Savol va topshiriqlar

1. Asar voqealari qayerda bo'lib o'tadi?
2. Qissada ro'y bergan voqealar aniq bir tarixiy davrda bo'lib o'tganmi yoki uni boshqa davrlarga ham nisbat berish mumkinmi?
3. Muhsinboyning Nasriddin Afandiga qarshi kurashga majbur qilgan sabablar nima?
4. Nima uchun qozikalon, Muhsinboy, mirshablar va Ahmad Tarashalar o'zaro til biriktirishdi?
5. Asardagi Nasriddin Afandi bilan hammaslak bo'lgan qahramonlarni sanab bering.
6. Xuddi shunday mavzuda yozilgan asarlar, yaratilgan kinofilmlar haqida hikoya qilib bering.



ABAY
(1845 – 1904)

Qozoq mumtoz adabiyotining asoschilaridan biri, buyuk shoir va ma'rifatparvar. Shoirming asl ismi Ibrohim bo'lib Abay uning taxallusidir. Shoir 1845-yilda Qozog'istonning Chingiztov tumanida chorvador boy oilasida tug'ildi. Avval 12 yoshida madrasada o'qidi. Keyinchalik rus maktabiga qatnab rus tili va adabiyotini o'rgandi. Bo'lajak shoir bir tomondan Sharq allomalari – Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy ijodidan bahramand bo'ldi. Rus tili orqali rus va g'arb adabiyoti vakillarining ijodi bilan tanishdi.

Shoirming ijodi yoshlik chog'laridan she'r yozish va o'lan aytishdan boshlandi. Abay o'zigacha og'zaki kuylab kelingan o'lanlarni yozma adabiyotga olib kirgan shoirdir. Shoir o'lanlarni yozma yaratishdan tashqari ularga kuy bastalab, mahorat bilan kuylagan. U bastalagan 17 ta o'lan kuyi hozirgacha oqinlar tomonidan sevib ijro etilyapti.

Abay ma'rifatparvar shoir edi. U o'z she'rlarida tarqoq qozoq qabilarini birlashishga, hamjihatlikka chaqirdi, ilm-ma'rifatli bo'lishga undadi. Shoir bir o'lanida,

«O'zi bilan yovlashgan yurtim tingla!
O'zi bilan dovlashgan yurtim tingla!
Dardingga davo bo'lsin o'lanlarim,
Bir-birini ovlashgan yurtim tingla!»

deya iztirob chekadi. Abayning «Shoʻrlik qozogʻim», «Boy bolasi bilan kambagʻal bolasi», «Ilm oʻrgan», «Oʻlan» kabi sheʼrlarida ham ilgʻor millatlardan oʻrnak olib qoloqlikdan qochish, chidam va mashaqqat bilan ilm-fanni egallashga daʼvat yaqqol sezilib turadi.

Abay sheʼrlari oʻzbek kitobxonlarining ham sevimli asarlariga aylanib qolgan. Siz quyida tanishadigan «Oʻlan» va «Koʻklam» sheʼrlari shoir ijodining eng goʻzal namunalaridir. Ularni sevimli shoirimiz Mirtemir oʻzbekchaga tarjima qilgan.

OʻLAN

Oʻlan – soʻzning poshshosi, soʻz sarasi,
Qiyindan qiyiltirar er donasi,
Tilga yengil, yurakka iliq tegib,
Tep-tekis, silliq kelsin aylanasi.

Saralanmay bulgʻansa soʻz orasi,
Bu – oqinning bilimsiz – bechorasi.
Ham oqin, ham tinglovchi koʻpi nodon,
Soʻz tanimas bul yurtning bir porasi.

Soʻz boshi avval hadis, oyat boʻlur,
Shirasi ham maʼnosi gʻoyat boʻlur.
Paygʻambar ham soʻzini oʻlan qilgan;
Oʻlan aytay, shoyadki koʻnglim toʻlur.

Oʻlanday xutba oʻqiy kekxa mullo,
Oʻlan aytib yigʻlagan valiyullo¹,
Hamma ham chamasicha oʻlan oʻqir,
Oʻlan bilan yozilgan kalimullo².

¹ Olohning valiysi.

² Olohning soʻzi, kitobi, Qurʻon.

O'langa ishqimiz bor qadim choqdin,
Lekin qanday naf bo'lur maqtanmoqdin!
Ichi zar, sirti kumush so'z yaxshisin –
Keltirar kim ham bor mo'l qozoqdin?..

So'zni chertib so'zlasang har kim siylar,
Maqol qo'shib so'zlarkan keksa biylar.
Oqinlari beaql, nodon ekan,
Bekor so'zni teriday nuqul iylar.

Qo'lida ham qo'bizi, ham do'mbira,
Hammaga maqtov o'qir, qo'yimas sira.
O'lan aytib xayr tilar elni kezib,
So'z qadrin yerga urar, bo'lib xira.

Mol uchun so'zni bezar, vijdon sotar,
Mol uchun bo'yin egar, molday yotar.
Mol uchun ham aldaydi, ham avraydi.
E xudo, shu oqinlar qachon qotar?

Boylarni maqtayberib so'z qolmabdi,
O'lan aytib, mol yig'ib, boy bo'lmabdi.
O'lanning qadri ketdi el ichida,
Qadrini ketkizganlar yo'qolmabdi...

Keksa biydek maqolga burmagayman,
Yo oqindek xayr tilab yurmagayman.
So'zim – o'zga, tinglovchi, sen ham tuzal,
Behuda gapdan suhbat qurmagayman.

El chopgan botirlardan so'ylab bersam,
Oshiqlar, ma'shuqlardan kuylab bersam,
Anchayin hangoma deb tinglardingiz,
So'zlarning sarasini so'ylab bersam...



Ammo aql chaqirilmagan mehmon emish,
Aqli borga bunday umr zindon emish...
Kechiring, nodonlarga tegib o'tsam,
Bu elda to'g'ri aytgan yomon emish...

To'g'ri so'zlik o'lanim, o'zing ko'rkam!
Mayli, tatimasa ham so'yla bardam...
Bu yurt so'z oshig'imas, mol oshig'i,
Roziman, mingdan biri tushunsa ham...

O'zi bilan yovlashgan yurtim, tingla!
O'zi bilan dovlashgan yurtim, tingla!
Dardingga davo bo'lsin o'lanlarim,
Bir-birini ovlashgan yurtim, tingla!

Nahot senda qolmagan nomus va or?
Nahot nomus va insof emas darkor?
Teran o'y, teran ilm yo'ling ochsin,
Yolg'on o'lan va so'zdan olam bezor...

KO'KLAM

Ko'klam kelsa qolmaydi qishning izi,
Qulp urar ko'kalamzor yerning yuzi;
Jon kiradi borliqqa, tabiatga,
Ona yanglig' jilmayar kunning ko'zi.

Kulishar, o'lan aytar yigit-yalang,
O'tovda o'tirolmas qari-qartang;
Jon-jonivor, odamizod yayrab ketar,
Qushlarning qo'shig'idan havo jarang.

Qirdagi, soydagi el aralashar,
Qo'y qo'zilab, oyoqqa o'ralashar.

Qish bo'yi bir-birini ko'rmaganlar
Quchoqlashar, o'ynashar, hol so'rashar.

Tuya bo'zlar, ot kishnar, qo'ra shov-shuv,
Kapalaklar gul izlab uchar duv-duv.
Yetti rangli gilamday yashil tusda –
Suluv qizday buralib oqadi suv.

Ko'l yoqalab uchishar o'rdak ham g'oz,
Uya izlab yugurar bola shovvoz;
Uchar otni egarlab ko'lga tushsang,
Chaqmoqday tez ovolar bo'z dovulboz¹.

Qanjig'adi o'ljasi – ovchi qaytar,
Suluv qizlar nozlanib, salom aytar.
Qush go'shtiga mos tushar nordon qimiz,
Badaningni balqitar, jimirlatar.

Ko'klamday kiyinishar kelinchaklar,
Chekkasida gunafsha, boy chechaklar,
Qirda to'rg'ay sayrasa, soyda bulbul,
Gul bilan to'lib ketar – tul etaklar.

Dehqonlar qo'sh qo'shadi, ekar ekin,
Hafta o'tmay ko'karar ekin-tikin,
Savdogarlar mol yuklab, tuya qumlab,
Olis-olis yo'llardan kelar sekin.

Olamga bezak bergan qodir mavlon,
Yer – ona, quyosh – ota, nuri jahon,
Onaday emizdirar ko'ksidan yer,
Otaday mehr to'kar yorug' osmon.

¹ Dovulboz – ovqushi, lochin.

Bulut o'tsa arillab oqadi soy,
 Kechasi chaman yulduz va to'lin oy,
 Ne qilsin qorong'ida yarqiramay,
 Quyosh chiqar chog'ida holiga voy.

Quyosh – oshiq yemi ko'p sevar emish,
 Yer ishqida o'rtanib, kuyar emish,
 Oshiq yigit ufqdan ko'ringanda,
 Yulduz va oy sevgini qo'yar emish.

Oshiq – quyosh tun bo'yi kutar emish,
 Visol paytin poylab ko'z tutar emish,
 Sahardan og'ush ochib sevganini,
 Muhabbat olovida o'rtar emish.

Qish bo'yi yer – quyoshni izlar mushtoq,
 Kuta berib sochlari bo'larmish oq;
 Ko'klam va yoz vasliga qonib toza,
 Gul ochilib, to'lisharmish, yetmay quchoq.

Quyoshga to'g'ri boqqan – ko'r bo'ladi,
 Quyosh kulsa olamga nur to'ladi.
 Ne bilay, o'zim ko'rdim, quyosh har kech –
 Oltin chodiriga kirib dam oladi.

Savol va topshiriqlar

1. Abay haqida nimalar bilasiz? Gapirib bering.
2. Abayning qozoq adabiyotiga qo'shgan hissasini nimada deb bilasiz?
3. O'lan nima? «O'lan» she'ridan foydalanib bu badiiy asar turini ta'riflang.
4. O'zi bilan yovlashgan yurtim, tingla!
 O'zi bilan dovlashgan yurtim, tingla!

Dardingga davo bo'lsin o'lanlarim,
Bir-birini ovlashgan yurtim, tingla!

Yuqoridagi satrlarni sharhlang. Shoir ushbu bandda nimadan iztirobga tushyapti.

5. «O'lan» she'rini yod oling.
6. «Ko'klam» she'ridagi tabiat tasviri, odamlar kayfiyatidagi o'zgarishlarni so'zlab bering.
7. «Yetti rangli gilamday yashil tusda –
Suluv qizday buralib oqadi suv»
satrlarida shoir tabiatdagi qaysi hodisaga ishora qilyapti?
8. Kelinchaklar qanday kiyinishyapti, to'rg'ay, bulbul qayerda sayrayapti?
She'r matnidan yuqoridagi savollarga javob toping.
9. «Ko'klam» she'rini o'qiganda o'zingizda qanday o'zgarishlar his etdingiz? Izohlab bering.
10. «Ko'klam – men sevgan fasl» mavzuida uy inshosi yozib, sinfda o'qib bering.

TUYG‘ULARNING KAMALAK RANGI



ZULFIYA

(1915–1997)



Muhtaram o‘quvchi! Balki Sizning maktabingizda yoki qo‘shni maktablarda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan qizlar o‘qir. Siz, albatta, shunday mukofot borligini, u har yili respublikamizda ta‘lim, fan, adabiyot, san‘at sohalarida o‘z iste‘dodini namoyon etayotgan maktab, kasb-hunar kolleji va akademik litseylar hamda oliy o‘quv yurtlarida o‘qiyotgan qizlarga taqdim etilishini yaxshi bilasiz. Ana shunday nufuzli mukofot nega Zulfiya nomida, uning o‘zi kim, qanday xizmatlari bilan bunday sharafiga sazovor bo‘lgan deb, hoynahoy, qiziqqan bo‘lsangiz ham kerak? Keling, yaxshisi hikoyamizni diqqat bilan o‘qing!

Zulfiya Isroilova xalqimizning atoqli va ardoqli shoirasi, O‘zbekiston xalq shoiri, xalqaro «Nilufar», Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofotlari sohibasidir. U 1915-yili Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan. Avval boshlang‘ich maktabda, so‘ng xotin-qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935–1938-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasida o‘qigan. Shundan keyin turli nashriyotlarda ishlagan. 1953-yildan 1980-yilgacha, qariyb

o'ttiz yilga yaqin respublikamizda keng tarqalgan «Saodat» nomli xotin-qizlar jurnalida bosh muharrir bo'lgan.

Zulfiyaning dastlabki she'rlari «Hayot varaqlari» nomi bilan 1932-yilda bosilib chiqqan. Shundan so'ng shoironing «She'rlar» va «Qizlar qo'shig'i» (1938), «Uni Farhod der edilar» (1943), «Hijron kunlarida» (1944), «Dalada bir kun» (1948), «Tong qo'shig'i» (1953), «Yuragimga yaqin kishilar» (1958), «Kuylarim sizga» (1965), «O'ylar», «Shalola» kabi o'nlab she'riy to'plamlari chop etildi. U atoqli o'zbek shoiri Hamid Olimjon bilan oila qurib, ular shirin hayot kechirayotgan pallada 1944-yili mashina avariyasi tufayli turmush o'rtog'idan ayriladi. Shundan so'ng umr bo'yi o'z muhabbatiga sodiq qolib, Hamid Olimjonning ishlarini davom ettiradi. Uning «Semurg'», «Zaynab va Omon» dostonlari asosida pyesa va opera librettolarini yaratadi. O'zi ham «Quyoshli qalam», «Mushoira», «Xotira siniqlari» kabi poemalar yozadi. Rus, ukrain, ozarboyjon, hind shoirlarining she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qiladi.

Zulfiya keng tanilgan jamoat arbobi edi. U Osiyo, Afrika va Yevropaning o'nlab davlatlarida bo'lib, xalqaro xotin-qizlar hamda adabiyot namoyandalarining harakatlarida faol ishtirok etar edi. Uning she'rlari ingliz, nemis, rus, bolgar, xitoy, hind, yapon, arab, fors, vyetnam kabi juda ko'p xorijiy tillarga tarjima qilingan edi. Shoira 1997-yil 82 yoshida vafot etgan.

TUN

Tog' ortiga o'tib ketdi kun,
 Sekin cho'kdi toza, salqin tun...
 Men deraza ochganim chorbog'
 Sokin uxlar tun ko'rpasida.
 Mayin qo'shiq yoyilar har yon
 Esib o'tgan yel sharpasida.
 Suv oqadi allalab tunni,
 Hamma uxlar, uyda men uyg'oq,
 Parcha qog'oz, kichik bir qalam,
 Boshim uzra porlaydi chiroq.
 Tunda qancha xayol, qancha kuy,

Men berilib quloq solaman.
 So'z topolmay ifodasiga,
 Rang axtarib shoshib qolaman.
 Sof yel esar...
 Parvona uchar,
 Chiroq atrofida o'rgilib,
 O'zin urib part bo'ladi-yu,
 Stolimga tushadi kelib.
 Men yozaman, yulduzlar o'tar,
 Har birisi so'ylar bir ertak.
 Mana, Hulkar qarshimda chaqnar,
 Yorqin tongdan keltirib darak.
 Tun o'tadi, yana chorbog'dan
 Ko'tarilar sahargi tuman.
 Men-chi, asta chiroq so'ndirib,
 Otayotgan tongni kutaman.
 Ko'zlarimda erib ketdi tun,
 Yoyilmoqda yorqin juvon kun...

1944

BAHOR KELDI SENI SO'ROQLAB

Salqin saharlarda, bodom gulida,
 Binafsha labida, yerlarda bahor.
 Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
 Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...
 Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
 O'rik gullarining eding maftuni.
 Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi
 Ko'zlaringga surtib o'parding uni.
 Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,
 Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
 Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
 Ul ham yosh to'kdi-yu, chekildi nari.

Seni izlar ekan, bo'lib shabboda,
 Sen yurgan bog'larni qidirib chiqdi.
 Yozib ko'rsatay deb husn-ko'rkini,
 Yashil qirg'oqlarni qidirib chiqdi.
 Topmay, sabri tugab bo'ron bo'ldi-yu,
 Jarliklarga olib ketdi boshini.
 Farhod tog'laridan daraging izlab,
 Soylarga qulatdi tog'ning toshini.
 Qirlarga ilk chiqqan qo'ychivonlardan
 Qayda shoir, deya ayladi so'roq.
 Barida sukunat, ma'yuslik ko'rib,
 Horib-charchab keldi, toqatlari toq...
 So'ngra jilo bo'lib kirdi yotog'imga,
 Hulkar va Omonning o'pdi yuzidan.
 Singib yosh kuydirgan za'far yonog'imga
 Sekin xabar berdi menga o'zidan.
 Lekin yotog'imda seni topolmay,
 Bir nuqtada qoldi uzoq tikilib.
 Yana yel bo'ldi-yu, kezib sarsari,
 Mendan so'ray ketdi qalbimni tilib:
 «Qani men kelganda kulib qarshilab,
 Qo'shig'i mavjlanib bir daryo oqqan?
 «Baxtim bormi deya, yakkash so'roqlab»
 Meni she'rga o'rab suqlanib boqqan?
 O'rik gullariga to'ymaydi nega,
 Yelda hilpiratib jingala sochin?
 Nega men keltirgan sho'x nashidaga
 Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?
 Qanday ishqqa to'lib boqardi tongga,
 Kamol toptirardi keng xayolimni.
 Uning rangdor, jozib qo'shig'ida
 Mudom ko'rar edim o'z jamolimni.
 Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?
 Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol?

Nechun qora libos, sochlaringda oq,
 Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?»
 Qanday javob aytay, loldir tillarim,
 Baridan tutdim-u, keldim qoshingga.
 U ham g'aming bilan kezdi aftoda,
 Boqib turolmayin qabring toshiga.
 Alamda tutoqib daraxtga ko'chdi,
 Kurtakni uyg'otib so'yladi g'amnok.
 Sening yoding bilan yelib beqaror,
 Gullar g'unchasini etdi chok-chok.
 Gul-u rayhonlarning taraldi atri,
 Samoni qopladi mayin bir qo'shiq.
 Bu qo'shiq naqadar oshno, yaqin,
 Naqadar hayotbaxsh, otashga to'liq.
 Bahorga burkangan sen sevgan elda
 Ovozining yangradi jo'shqin, zabardast.
 O'lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
 Men ham hali sensiz olmadim nafas.
 Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,
 Hayotni kuylayman, chekinar alam,
 Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
 Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

1945

KO'RGANMIDING KO'ZLARIMDA YOSH?

Sog'inganda izlab bir nishon,
 Qabring tomon olar edim yo'l.
 Keltirarding menga bir zamon,
 Endi har chog' men eltaman gul.
 Keldim. Uzoq qoldim men sokin,
 Sening aziz boshingda yolg'iz,
 Osmon tiniq edi va lokin,
 Parcha bulut yetib kelib tez.

Ko'kda mening boshimda turib
 Go'yo yuragimday qalqdi u.
 Ko'zimdagi yoshimni ko'rib
 U ham to'kdi yoshini duv-duv.
 Biz yig'ladik tepangda shu kun,
 Keldingmi, deb ko'tarmading bosh.
 Ayt-chi, sen-la baxtiyor onlar
 Ko'rganmiding ko'zimda bir yosh?

1945

O'GLIM, SIRA BO'LMAYDI URUSH

To'lisharmi o'lkada bahor,
 Quyosh kezar osmon ko'ksida.
 Qaldirg'ochlar qanotmi qoqar,
 Undan soya labi ustida.

Mana, o'g'lim labi ustida
 Qaldirg'ochning mayin qanoti.
 O'spirinim toza ko'ksida,
 Kunda oshar yangi his toti.

Bo'yi oshib ketdi bo'yimdan,
 Bosa olar ko'ksiga boshim.
 Sevgim qurib bergan uyimda,
 O'sdi mening katta yo'ldoshim.

Yurak to'la shodlik, mehr, baxt,
 Uning ko'zlariga boqaman.
 Nigohiday tiniq va yorqin
 Orzu to'lqinida oqaman.

Orzulari qalbimga ziynat,
 Hayotidir ko'zim qorasi.
 O'kinaman, ba'zida faqat,
 Yonida yo'q, uning otasi.

Urush! Noming o'chsin jahonda,
 Hamon bitmas sen solgan alam.
 Sen tufayli ko'p xonadonda
 Ota nomli buyuk shodlik kam.

Ota bo'lib soldim men yo'lga,
 Ona bo'lib mehringa oldim.
 Mana, yurtga o'g'il o'stirgan
 Bir davlatmand boy bo'lib qoldim.

Men onaman, mening yuragim
 Farzandlarim quvonchiga kon.
 Dil orziqar, ba'zan tilagim
 Vahimalar o'ragan zamon.

Yo'q, urushning nomi ham o'chsin,
 Mening o'g'lim kerak hayotga.
 Istamayman uning dudlari
 Qo'nsa labi uzra qanotga.

Bas, bas, ezgu onalar qalbi,
 Yashay olsin bexavf, baxt bilan.
 Mehnatimiz, g'azab, sevgimiz
 Tinchlik deydi butun xalq bilan.

Ko'krak suti va mehnat bilan
 Biz jahonga berganmiz turmush,
 Ona qalbi oyoqqa tursa,
 O'g'lim, sira bo'lmaydi urush!

1954

Zulfiya she'rlari haqida

Zulfiya she'rlari harorat bilan yo'g'rilgan ehtirosli, hayotbaxsh she'r-lardir. Ular xoh Vatan haqida, uning go'zal tabiati, mehnatkash odamlari, buyuk bunyodkorlik qudrati xususida bo'lsin yoki insonlarning turfa his

tuyg'ulari: mehr-muhabbat, quvonch-u shodlik, baxt, sadoqatni tarannum etishga bag'ishlangan bo'lsin, barchasida hayotsevarlik, o'quvchida yorug' kayfiyat paydo etish istagi yashiringan.

Yurak to'la shodlik, mehr, baxt,
Uning ko'zlariga boqaman.
Nigohimday tiniq va yorqin
Orzu to'lqinida oqaman.

Bu Zulfiyaning «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush» she'ridan olingan parcha. She'r nomlanishining o'zidanoq hayotsevarlik, kelajakka ishonch tuyg'usi anglashib turibdi. Shoira o'g'liga boqib turib, uning balog'atga yetib qolganini, bo'yi bo'yidan oshib, mo'ylovlari sabza ura boshlaganini kuzatadi. O'spirin farzandining ne-ne orzular quchog'ida yashayotgani, pokiza, yorqin istiqbolini uning ko'z nigohlaridan sezib, cheksiz surur tuyayotganini aytib, faqat bir armoni borligini ta'kidlab ketadi. Ya'ni Zulfiya umr yo'ldoshi – Hamid Olimjonning farzandi kamolini ko'rolmay ketganidan o'kinadi. Agar o'g'li ota diydoriga to'yganida, baxti tugal bo'larmidi, deya armon qiladi. Va ana shu xususiy holatdan shoira katta bir hayotiy falsafaga boradi. Urush, ma'nisiz qirg'in-barotlar tufayli qancha jangchilar – otalarning halok bo'lishi oilalar boshiga kulfat soladi, farzandlarni ota beradigan shodlikdan mahrum etib, yetim qiladi. Shu sabab urushning hatto nomi ham o'chsin. Uning ma'naviy yaralari tuzalmas yaralardir, deydi shoira va otasiz qolgan go'daklar boshini Vatani – O'zbekiston silagani, yuragiga dalda bo'lib, uni yolg'izlatmagani uchun shukur qiladi. O'quvchi qalbida urushga nafrat uyg'otsa, Vatanga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalaydi. Vaqti kelib o'g'lining shu Vatan posboni bo'lishi, nafaqat Vatanga, onaga ham suyangulik qoya bo'lishini tilaydi. Shoira xalqimiz orasida o'g'il o'stirgan ayollarni boyvachcha ona deb e'zozlashlariga ishora qilib, o'zini voyaga yetib qolgan o'g'li tufayli davlatmand boydek his etadi, yuragi orziqib, quvonchlar og'ushida kezadi. Va yana takror-takror shu quvonchga raxna solishi mumkin bo'lgan urushni qoralaydi. Onalar xavf-u xavotirsiz yashamog'i uchun tinchlik, omonlik bo'lmog'i kerak. Chunki ular o'g'illarini hayot uchun, bunyodkorlik, olamni yashartirmoq uchun dunyoga keltirganlar.

Shunday falsafa bilan shoira onalar qalbi uygʻoq boʻlsa, ular birlashsalar, «Oʻgʻlim, sira boʻlmaydi urush!» deya hayqiradi. Bu sheʼr ehtiros bilan, ilhom bilan yozilgani uchun gʻoyat taʼsirchan va oʻquvchi yodida uzoq saqlanib qoladi.

Zulfiya ijodida taʼsirchan, xotirangizda uzoq saqlanib qoladigan sheʼrlar talaygina. Ayniqsa, shoiraning umr yoʻldoshi Hamid Olimjon xotirasiga bagʻishlab yozilgan bir qator sheʼrlari shunday xususiyatga ega. Masalan, «Bahor keldi seni soʻroqlab...», «Koʻrganmiding koʻzlarimda yosh?» sheʼrlarini olib koʻraylik. Ular garchi alohida sheʼrlar boʻlsa ham, mazmunan va mantiqan bir-birini toʻldiruvchi, yaxlit kayfiyat paydo qiladi.

Hamid Olimjon oʻzbek adabiyotida baxt va shodlik kuychisi sifatida shuhrat topgan. U yasharish va quvonchdan darak berguvchi bahor faslini juda suyib kuylagan edi. Uning birinchi sheʼriy kitobi ham «Koʻklam» deb nomlangan edi. Ayniqsa, «Oʻrik gullaganda» sheʼri kitobxonlar oʻrtasida juda mashhur. Bir qator sanʼatkorlar bu sheʼrni kuyga solib, qoʻshiq qilib, hozirgacha ijro etib kelishadi. Zulfiya umr yoʻldoshining mana shu jihatini sheʼrga solib, sanʼatdagi shartlilik xususiyatiga murojaat etib, «Bahor keldi seni soʻroqlab...» deya nom qoʻyadi sheʼriga. Sheʼr bahor fasli tasviridan boshlanadi:

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

Iliq, mayin yellar esib, bahorning ilk darakchisi binafshalar ochilib, yerlar asta yashil rangga boʻyalayotgan manzarani tasvirlab shoira, Hamid Olimjonning koʻklam maftuni ekan, kurtaklarning uygʻonishi, oʻrik gullariga oshuftaligini eslab, uning ruhiga murojaat etadi. Bahor shabbodasi mayin esib kelib, shoirmi bogʻlardan, togʻlardan, qir-u qoʻychivonlar oʻtovlaridan izlab keladi. Topolmay gʻazabnok shabboda boʻronlarga aylanib, toshlarni qulatib, oxiri shoiraning yotogʻiga kirib keladi. Uxlab yotgan jajji farzandlari yuzlariga teginib, uxlamay xayol surib oʻtirgan shoirani goʻyoki qiynoq savollarga tutadi. Oʻsha oʻziga, u tabiatga keltiradigan goʻzalliklarga oshiq

bo'lgan shoirmi izlaydi. Bahor shabbodalarining qayg'uli so'roqlariga javob berolmay, shoira Hamid Olimjon qabri tepasiga keladi. Go'yo bahor ham u bilan birga motam chekib, beqaror yeladi. Osmonda parcha bulut paydo bo'lib («Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?») she'ri mantiqan bog'lanib ketadi) yomg'ir yog'arkan, go'yo osmon ham birga ko'zyosh to'kadi. So'ngra beqaror shamoldan atrofdagi gul-u rayhonlar hidi yoyilib, kayfiyat ma'yusligi tarqala boshlaydi. Shoirning shodlik qo'shiqlari yangragandek tuyulib, g'am-anduh o'miga yorug'lik, go'zallik, jo'shqin yashash zavqi paydo bo'ladi. Ana shu holatda shoira o'z suyukli yorining garchand jismonan yo'q bo'lsa ham, ruhi, nomi barhayotligini his etadi. Uni xalqi hech qachon unutmasligi, boshlagan ezgu ishlari davom etayotganini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, inson o'zidan yaxshi ishlar, savobli amallar, oqil farzandlar qoldirib dunyodan o'tsa, u insonlar xotirasida yashashda davom etadi. Zulfiya bahor fasli kirib, xayolida jonlantirgan xotiralardan va qalbidan paydo bo'lgan tuyg'ulardan shunday ibratli, falsafiy xulosa chiqaradi.

Umuman, Zulfiya shunday katta yo'qotishni boshidan kechirgan bo'lsa-da, u tushkun kayfiyatlarga berilib, abadiy motam tutib yashamadi. She'rlarida xuddi Hamid Olimjon kabi hayotsevarlikni, yorug' kunlar nashidasini kuyladi. Uning hijronli tunlari doim tongga ulanadi. Bu holat shoiraning «Tun» she'rida juda go'zal ifodasini topgan. U tuni bilan tabiatning sukunati, sokinligiga berilib, qog'oz-u qalam bilan yolg'iz suhbatlashib o'tirar ekan, yulduzlarga tikilib, go'yo ularning ertagini tinglaydi, o'zini chiroqqa urib halok etayotgan parvonani kuzatadi. U tun manzaralarini chizar ekan, maqsadi oydin tongni qarshilash, qorong'ilikni mahv etib, yorqin kunni olqishlash edi. U kunni juvon deydi, ya'ni yoshlikka, mehnatkashlikka, yaratuvchanlikka o'xshatadi. Shu tariqa bu she'rida ham hayotga, yorug'likka muhabbatni ulug'laydi.

Savol va topshiriqlar

1. Shoira Zulfiya qayerda tug'ilgan, qaysi o'quv yurtini tugatib, qanday faoliyat bilan shug'ullangan?
2. Shoiraning ilk she'riy to'plami haqida so'zlab bering.
3. Zulfiya qanday she'riy to'plamlar va dostonlar muallifi?

4. Zulfiya Isroilovaning jamoat arbobi sifatidagi faoliyati haqida gapirib bering.
5. Shoira asarlari qaysi xorijiy tillarga tarjima qilingan?
6. Onalar nima uchun urushni qoralaydilar?
7. Ona farzandini o'ylab, qanday orzularga beriladi.
8. Zulfiya va Hamid Olimjon mavzuida so'zlab bering.
9. Nega shoira bahor fasliga murojaat etadi?
10. Zulfiya she'rlarida hayotsevarlik g'oyalari qanday holatlar bilan yonmayon keladi.
11. Tun va tong obrazlarining ramziy ma'nolari haqida so'zlang.
12. Zulfiya mukofotiga kimlar sazovor bo'ladi?

Nazariy ma'lumot

RITORIK SO'ROQ

Ritorik so'roq – badiiy asarlarda muallifning o'z fikrini so'roq shaklida tasdiqlab ifodalashidan iboratdir. Bunda so'roq javob talab etmaydi. So'roqning o'zida javob ham anglashiladi. Badiiy asarlarda ritorik so'roq fikrning kuchli, ta'sirchan ifoda etilishini ta'minlaydi. Bunday usul, ayniqsa lirik she'rlarda ko'p uchraydi. Masalan, Zulfiyaning «Bahor keldi seni so'roqlab...» she'ridagi:

Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo'shig'i mavjlanib bir daryo oqqan?
«Baxtim bormi deya, yakkash so'roqlab»,
Meni she'rga o'rab, suqlanib boqqan? –

satrlarida so'ralayotgan shaxsning sifatlarini ta'riflash asosiy maqsad hisoblanadi. Uning yo'qligi fikrning obrazli, emotsional ifoda etilishidan anglashilib turadi.

Savol va topshiriqlar

1. Ritorik so'roq nimani anglatadi?
2. Ritorik so'roqni qo'llashdan maqsad nima?
3. Zulfiya she'rlarida uchragan ritorik so'roqni aniqlang?
4. Yana qaysi shoirlar ijodida shunday badiiy usulga murojaat etilganini bilasiz? Misollar keltiring.



Tog'ay MUROD

(1948 – 2003)

XX asrning 70-yillarida o'zbek adabiyotiga bir qator iste'dodli shoir va yozuvchilar kirib keldilar. Ular orasida Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zamov, Xayriddin Sulstonov, Tog'ay Murod singari nosirlar, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Usmon Azim, Muhammad Rahmon singari shoirlar bor edi. Bu avlod o'zlaridan avvalgi ijodkorlar boshlab bergan eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda, adabiyot sahnasiga ko'proq oddiy odamlar obrazini, ularning orzu-armonlari talqinini olib chiqdilar. M.M.Do'stning «Bir toychoqning xuni», «Galatepaga qaytish», E. A'zamovning «Otoyining tug'ilgan yili», «Javob», X.Sulstonovning «Yozning yolg'iz yodgori», «Ko'ngil ozodadur» nomli asarlari qahramonlari bir qaraganda boshqalardan keskin farq qilmaydigan, har qadamda uchraydigan oddiy odamlar. Ular katta tarixiy o'zgarishlarga boshchilik qilishmaydi, favqulodda qahramonliklar ko'rsatib boshqalarga o'rmak bo'lishmaydi, hatto suvga cho'kayotgan biror odamni qutqarib el og'ziga tushishmaydi ham. Lekin shunisi muhimki, yosh o'zbek adiblari dunyoning omonligi, jamiki go'zalligi aynan shu oddiy odamlar tufayli ekanini ko'rsata oldilar, isbotlay bildilar. Mana shunday novator (yangilik kashf etuvchi, yangi yo'l ochuvchi) yozuvchilardan biri Tog'ay Murod bo'ldi.

Bu yozuvchining tarjimai holi ham o'z qahramonlariniki singari oddiyginadir.

U janubiy viloyatlarimizdan bo'lmish Surxondaryoning Denov tuma-

niga qarashli Xo‘jasoat qishlog‘ida 1948-yilda tug‘ildi. Qishloqdagi o‘rta maktabda o‘n yil o‘qigach, 1966–1972-yillarda hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetida ta‘lim oldi. Bu fakultet o‘sha yillari ko‘plab yosh iste‘dodlarga o‘z ijodiy yo‘lini topishi, jiddiy asarlar yozib dastlabki muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritishida muhim maktab rolini o‘ynagan edi. Fakultetdagi qaynoq, nisbatan erkin ijodiy muhit, o‘z davrining yirik shoir-yozuvchilari bilan tez-tez o‘tkazilib turadigan uchrashuv-muloqotlar, yotoqxonalarda to‘ tongga qadar tugamaydigan she‘riyat kechalari – bularning bari iste‘dod g‘unchalarining tez yetilishi, kamol topishida jiddiy turki rolini o‘ynardi. Ko‘p mualliflarning respublika matbuotida muntazam qatnashishi ham ayni shu fakultetda o‘qib yurgan yillariga to‘g‘ri kelardi. Tog‘ay Murod ham talabalik paytidayoq o‘nlab hikoyalar yozgan bo‘lsa-da, ularni e‘lon qilishga shoshilmas, o‘zidan, bilimlaridan ko‘ngli to‘lmasdi. U iloji boricha ko‘proq o‘qish, bu orqali esa faqat o‘zimizning ijodkorlarnigina emas, balki dunyoning eng zo‘r adiblari tajribalarini ham o‘zlashtirishni istardi.

U, shu niyatdan kelib chiqib, tirikchilikka yetarli maosh beradigan qanday ish taklif qilinsa, o‘sha yerga borib ishlardi. Masalan, 1972–1976-yillarda respublika radiosining «Vatandoshlar» (xorijiy ellarga mo‘ljallangan) tahririyatida xizmat qilgan bo‘lsa, undan keyin «O‘zbekiston fizkulturachisi» gazetasida, 1982-yildan 1985-yilgacha esa «Fan va turmush» jurnalida xizmat qildi. Tog‘ay Murod o‘zining ijodiy rejalariga birovlarning aralashishini, unga ta‘sir o‘tkazishga bo‘lgan urinishlarni hecham yoqtirmas, shovqin-suronli davralardan o‘zini olib qochar edi. Butun fikri zikri o‘qib-o‘rganish, tinimsiz ijodiy mehnat qilish bilan band bo‘lardi. Shu tufayli ham, yozuvchi sifatida xalqqa ancha tanilib qolgan bo‘lishiga qaramay, 1985–1987-yillar ichida Moskvadagi Jahon adabiyoti institutida ham tahsil olib qaytdi.

Tog‘ay Murodni iste‘dodli yozuvchi sifatida ko‘rsatgan dastlabki yirik asar 1976-yilda dunyoga keldi. Bu «Yulduzlar mangu yonadi» nomli qissa edi. Mazkur asarda yozuvchining qon-qoniga singib ketgan, ming yillar mobaynida unutilmay, elda ardoqlanib kelayotgan tarixiy qadriyat – kurash, kurashchi polvonlar, ular orasidagi muomala-munosabatlar, ziddiyatli hayotiy muammolar qalamga olindi.

Yozuvchining keyingi asari – «Ot kishnagan oqshom» qissasi (1979-yil) «Yoshlik» jurnalida chop qilinishi bilan nafaqat adabiyot muxlislari, balki butun xalqimiz orasida juda tez dovrug' qozondi. Chunki bu asarda o'sha davr adabiyotida kamdan-kam tilga olinadigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, butun dunyoga ibrat qilib ko'rsatiladigan «sovet kishisi» tabiatiga xos bo'lgan turfa illatlar badiiy jihatdan ta'sirchan va ishonarli tarzda ochib berilgandi. Asardagi qishloq mehnatkashlarining og'ir mehnati, katta-kichik rahbarlarning ularga bepisand munosabati, odamlardagi pokiza his-tuyg'ularning toptalishi, kuppa-kunduz kunda bo'layotgan adolatsizliklar tasvir va talqini haqiqatga tashna o'quvchilarning qizg'in e'tirofiga sababchi bo'ldi. Mazkur qissa sho'ro davri adabiyotidagi ko'plab boshqa asarlardan oxiri «umidbaxsh sadolar bilan» tugamasligi jihatidan ham ajralib turardi. Uning so'ngida umrbod ixlos qo'yib yurgani odam bolalaridan cheksiz adolatsizlik, nomardlik, vahshiylik ko'rgan qissa qahramoni Ziyodulla chuvandoz o'zining sevimli, vafodor va bir umrga sadoqatli otidan najot tilaydi! Aqlli va til-zabonli, kiyim-boshi po'rim va o'zicha madaniyatli kimsalar uni urib o'ldirishga chog'langan bo'lsalar, o'sha – til-zaboni yo'q, ongsiz hayvon sanalmish ot o'z do'stini o'limdan asrab qoladi. Bir so'z bilan aytganda, odamni o'zi singari odam zulmidan himoya qilish uchun odam topilmaydi, najot faqat hayvonda qoladi!..

Qissaning bunday oshkora ruhi, adolatparvarlik pafosi o'z davrining ko'plab amaldorlari, mafkurachilari g'ashini keltirgani, natijada yozuvchi nomi atrofida turli g'iybat gaplar tarqatilgani ham haqiqat edi. Biroq yozuvchi bu malomatlardan cho'chib o'tirmadi, aksincha, oradan bir yil o'tar-o'tmas yana bir ajoyib asarini – «Oydinda yurgan odamlar» qissasini e'lon qildi.

Bu qissaning qahramonlari – Qoplonbek va Oymomo ham atrofda-gilarga faqat yaxshilikni sog'inadigan, umrini ezgulikka baxshida etgan olijanob qalb egalaridir. Qissada buyuk muhabbat rishtasi bilan bir-biriga mangu bog'langan bu go'zal insonlarning butun hayot yo'li oydinda aytilgan qo'shiqday tarannum etiladi. Qoplonbekka cheksiz kuch-quvvat, mardlik va shijoat, Oymomoga behad xushro'ylikni ato etgan ona tabiat, afsuski, ularni farzand ne'matidan bebahra qilgandi. Ular umrbod mana

shu umid ilinjida yashashadi, ne-ne gap-so‘zlarga, g‘iybat-pichinglarga chidashadi. O‘zlarini ko‘rsatmagan tabib-u do‘xtirlari, najot izlab bormagan qadamjolari qolmaydi. Farzand sog‘inchi shu qadar kuchli ediki, yoshi o‘tib, keksayib qolgan Oymomo qo‘shni kelinning beshikdagi bolasini ovutib o‘tirganda, qup-quruq ko‘ksiga birdan sut keladi. U so‘nggi nafasidagina onalik baxtidan bir lahza totinadi-yu, dunyodan ko‘z yumadi...

Har qancha og‘ir bo‘lmasin, oraga tushgan qarindosh-urug‘lar ularni ajralishib, boshqa oila qurishga zo‘rlashmasin, Qoplonbek va Oymomo bir-birlaridan voz kechishmaydi. Qissa so‘ngida, hatto bu dunyodan ketganlaridan keyin ham ular oppoq oydin tunlari oydek sokin va unsiz suhbat quradilar. Bu ikki qalbning muhabbat qissasi eng pokiza insoniy hislar kuylangan abadiyat qo‘shig‘i bo‘lib qoladi.

1985-yilda yaratilgan «Qo‘shiq» qissasi, garchi undan ham ayrim esda qolarli voqea-hodisalar, yangi xarakterlar o‘rin olgan bo‘lsa-da, avvalgi qissalardek muvaffaqiyatli chiqmadi. Buning ham o‘ziga yarasha sabablari bor ediki, ularni yuqori sinflardagi saboqlar davomida bilib borasiz.

Qissa janrida mana shunday tajribalar orttirgan Tog‘ay Murod 1993-yilda «Otamdan qolgan dalalar» nomli yirik romanni yozib tugatadi. Bu roman o‘zbek xalqining Chor Rossiyasi va sho‘ro bosqini ostida o‘tgan hayotini – yuz yildan ortiqroq tarixni o‘zida mujassam etgan. Asarda bir oilaning uch avlodi hayoti misolida butun millatning taqdiri o‘ta ta‘sirchan bo‘yoqlarda ifoda etiladi. Oqqoshshoning asl niyatini anglamay, bosqinchilarning uyatli qiliqlaridan orlanib, tug‘ilib o‘sgan yerini tashlab ketgan Jamoliddin ketmon – XIX asrning oxiri – XX asrning boshlaridagi xalq vakili edi. Nima qilib bo‘lsa-da, yurt tuprog‘ini bosqinchilardan tozalash niyatida qo‘liga qilich tutgan Aqrab (Chayon) XX asrning 20-yillarida milliy istiqloq yo‘lida shahid bo‘lgan bobolarimiz timsoli sifatida ko‘rinadi. Shunday shavkatli otalardan to‘ragan Dehqonqul esa o‘sha paytdagi hukmron Moskvaning «paxta mustaqilligini ta‘minlash» siyosati qurboni – millionlab huquqsiz kolxozchilarning umumlashma obrazidir.

Siz bu asar bilan ham yuqori sinflarda batafsil tanishishingizni inobatga olib, hozir hikoyamizni qisqa qilamiz. Faqat shuni eslatib o‘tamizki, «Otamdan qolgan dalalar» romani uchun Tog‘ay Murod Qodiriy nomidagi

Davlat mukofoti bilan taqdirlangan. Aynan shu roman e'lon qilingach, adibga O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoni berilgan. Bu asar asosida taniqli kinorejissor Shuhrat Abbosov ikki qismli badiiy filmni suratga olgan.

Yuqorida Tog'ay Murodning xorijiy adiblar kitoblarini chanqoqlik bilan mutolaa qilganini aytgandik. U o'zi bahramand bo'lgan noyob asarlarga boshqalarni ham oshno etish umidida bir qancha tarjimalar ustida jiddiy ish olib bordi. Jumladan, E. Seton-Tompsonning «Yovvoyi yo'rg'a» asarini zo'r muvaffaqiyat bilan ona tilimizga o'girdi.

Afsuski, iste'dodli yozuvchi Tog'ay Murod ayni ijodiy kuchga to'lgan paytda – 55 yoshida hayotdan ko'z yumdi. Uning ijod stoli ustida tugallanmagan qator yirik asarlarning, tarjimalarning qo'lyozmalari qoldi. Shunday bo'lsa-da, yozuvchi yaratib, xalqiga yetkazishga ulgurgan ajoyib asarlari bois uning nomi va ishi kelgusi avlodlar qalbida ham aks sado berishi shubhasizdir.

YULDUZLAR MANGU YONADI

(*qissadan boblar*)

XVIII

Bo'ri polvon davradan xursand: janjal-araz yo'q. Polvonlar sen-menga bormay olishyapti... O'zini taroziga solmay olishyapti.

Ana, xo'jasoatlik Sadir polvon sho'rchilik Ro'zi polvonni yelkasidan oshirib urdi.

Ro'zi polvon origa Maksim polvon degani chiqdi.

Sadir polvon:

– E, u sport masteri, chiqmayman, – deya turib ketdi.

Maksim polvon sambo kurashi bo'yicha sport ustasi ekani chin bo'ldi. Bakovul ro'parasida talab qilib o'tirib-o'tirib ketdi.

Bo'ri polvon xo'jasoatliklarga og'iz soldi:

– Chiqinglar-da endi! – dedi.

U yoqdan Amir polvon:

– Polvon bova, Sadirning qo'li lat yebdi! – dedi.

Bu shunchaki bahona bo'ldi.

Sho'rchiliklar piching qildi:

– Nimaga bir polvonni yiqita solib qochasizlar!.. Sig'sa davraga chiqingizlar-da! – dedi.

Ilkis piching Sadir polvon bahona butun davra egalariga qarata aytili.

Bo'ri polvon yalt etib sho'rchiliklar davrasiga qaradi.

Keyin, Amir polvonga yuzlandi.

– Unday bo'lsa, boshqasini chiqar! – dedi.

Amir polvon:

– E, polvon bova, master sportga teng kep bo'ladimi? – dedi.

Bo'ri polvon mehmonlar oldida izza bo'ldi. Xivich uchi bilan chiroqda yiltiramish somonlarni titkiladi. Shunda, davraga yoshi o'tib qolgan Normurod polvon chiqib keldi. U duch kelmish odam ro'parasiga cho'kdi. Qo'llarini ketiga tiradi. Orqasiga chalqayib, oyog'ini uzatdi.

– Mahsini tort, tort mahsini! – dedi.

Torta bermagach, Normurod polvonning o'zi mahsilarini tortib-tortib sug'irdi. Paytavallarni chuvalatib-chuvalatib tashladi.

Joyidan sapchib turdi. O'z polvonlariga qahr bilan qo'lini shop qildi.

– Chiqmaysanmi-a, chiqmaysanmi? Elga eshittirib ayt! Chiqmayman, de! Qo'lingni ko'tarib ayt! Unda, mana men chiqaman!

Normurod polvon bakovul ro'parasiga borib cho'kkaladi. Sho'rchiliklarga qo'lini silkib aytdi:

– Qani, master sportingni berman yubor! – dedi.

Ammo sho'rchiliklar Maksim polvonni davraga tushirmadi. Boisi, Normurod polvonning soqoli oppoq edi...

Sho'rchiliklar to'pidan ovoz keldi:

– Sizga qoyil bo'ldik, Normurod polvon, bizga anavi polvonlaringizni chiqaring!

Normurod polvon davra aylana berdi:

– Bizda polvon yo'q, bo'lsa chiqardi! – dedi.

Bo'ri polvon domangir bo'ldi:

– Polvon, ko'tarilma, ko'p ko'tarilma! – dedi.

Normurod polvon Bo'ri polvon qo'lidan yulqinib chiqdi. Yana davraga aylandi.

– E, master sport tugul, dev bo'lsayam chiqaman! – dedi.

Bo'ri polvon Normurod polvon tirsagidan mahkam ushladi, davradan yetaklab chiqdi.

Normurod polvon tag'in davraga talpindi:

– Normurod polvonning ko'zi ochiq bo'p turib, uning eli yerga qaraydimi? – dedi. – Ushlamang meni, polvon bova, ushlamang! E, yerga kirgizib yuborsayam chiqaman!

Bo'ri polvon qalbini-da ayni shunday tuyg'ular tirnadi. Ammo keksalarga xos vazminlik bilan o'zini bosib turdi.

Davraga kirib, xo'jasoatliklarga ovoz berdi:

– Amir, Tilovberdini berman yubor! Tilovberdi, munda ke! – dedi.

Shunda davraga Bo'ri polvonning o'g'li Tilovberdi chiqib keldi. Bo'ri polvon o'g'lini tirsagidan yetaklab, bakovul ro'parasiga o'tirg'izdi.

Sho'rchiliklar ko'nishga ko'ndi-yu, Maksim polvon rozi bo'lmadi.

– Tilovberdining vazni og'ir, chiqmayman, – dedi.

Bo'ri polvonning zardasi qaynadi.

– Nima, endi davraga toroziga tortib chiqaraylikmi? – dedi. – Ko'rib turibsan, bo'y-basti sendan ziyod emas, chiqa ber-da! Chiq-e, ota-bovamız tarozisiz olishgan!

– E, chiq-e, Maksim-e, yiqilsang yer ko'taradi-da! – dedi sho'rchiliklar. Polvonlar fотиha olib ketdi.

XIX

Bo'ri polvon ich-ichidan zil ketdi. O'zi bilan o'zi gapirishdi.

«Biz polvonlik maktabida o'qimadik. Polvonlik bizga ota meros. Pushtdan-pushtga, qondan-qonga o'tib kelyapti.

Polvonlikning ko'zga ko'rinmas, til bilan tushuntirib bo'lmas shunday sirlari borki, uni faqat tomirida polvonlik qoni borlargina biladi. Biz bilamiz.

Bu sirlar hech bir kitobda yo'q.

Mana, mening o'zim. Surxon vohasida mendan yiqilmagan polvonning o'zi yo'q! O'sha maktab ko'rgan sport masterlariyam yag'rinimdan oshib ketdi!

Xalq nimasi bilan xalq?

O'zining urf-odatlarini bilan xalq! Ko'p urf-odatlarimizni bировlar... bировlar o'zini qilib oldi! Biz qo'limizni burnimizga tiqib qoldik.

Shunday keta bersak, hademay... o'zimizni-da boy berib qo'yamiz!

Bu yog'i karnday, ne-ne nimalarimizni eskilik sarqiti deb yo'q qildik. Xiyol bo'lmasa xalqning o'zini-da... eskilik sarqitiga chiqarib yuborayin, dedik!

Bugun buni yo'qota bersak, ertaga uni yo'qota bersak... podadan nima farqimiz qoladi?..

Biz hademay bu dunyodan ketamiz. O'zimiz ketsak-ku, go'rga-ya. O'zimiz bilan... Buni rais biladimi?..»

Bo'ri polvon raisga qarab-qarab qo'ydi.

Tag'in nimalardir... nimalardir yo'qolib boryapti...

Bo'ri polvon o'yladi-o'yladi... O'ylab o'yiga yetdi...

«Avlodlar almashgan sayin... yo, pirim-e, tuf-tuf-tuf... avlodlar almashgan sayin... yurak yo'qolib boryapti!

Jasad bor! Aql bor!

Yurak yo'q!

To'rt mucha bor! Kuch-quvvat bor!

Yurak yo'q!

Ko'krakda jon bor!

Yurak yo'q, yurak!..

Farzandlar hayotga beparvo qaraydi. Musibat bilan xursandchilik farqiga bormaydi.

Farzandlar o'zlari minayotgan mashinaga o'xshaydi! Odam kim, mashina kim, bilib bo'lmay qolyapti»...

XX

4

...Sariosiyodagi o'sha davrada Bo'ri polvonga teng topilishi qiyin bo'ldi.

Davra egalari talvasada qoldi.

Bordi-yu, Bo'ri polvonga talabgor bo'lmasa, sariosiyoliklar denov-

liklardan qoyil bo'ldi, bo'ladi. O'z uyida qoyil bo'lish, mag'lub bo'lish-dan-da yomon bo'ladi!

Shunda davraga yoshgina bir yigit chiqib keldi. Bo'ri polvonga talabgor bo'ldi.

Davra egalari shundagina yengil nafas oldi.

Bo'ri polvon yosh polvonga mensimay-mensimay qaradi.

«Laylakning yurishini qilaman deb, chumchuqning puti yirtilgan ekan! – deb o'yladi Bo'ri polvon. – Bu yosh bola-ku! O'ylab ish qilyaptimi? Yo kayfi bormi?»

Bir yosh bola Bo'ri polvon shon-shavkatini nazarga ilmay qurga yugurib chiqishi Bo'ri polvon izzat-nafsiga tegdi.

Bo'ri polvon darg'azab bo'lib davraga kirdi.

Bosh bakovul oldiga g'oz yurish qilib bordi. Davra odati bo'yicha talabgor yosh polvon qabatiga borib o'tirishi lozim bo'ldi.

Ammo Bo'ri polvon davra qoq o'rtasiga borib cho'k tushdi. Bo'ri polvon bu bilan o'zini anavi yosh bola yonida yonma-yon o'tirishga or qilganini bildirdi.

Anavi yosh bolaga, ko'rpachaga qarab oyoq uzatsang-chi, degan qarash qildi.

Bo'ri polvon bilan Ismoil otli bu yosh polvonga bir g'unajin, yana bir qancha mayda zotlar qo'yildi.

Bo'ri polvon Ismoilni ko'zga ilmay-ko'zga ilmay davra aylandi.

«Tayyor osh-ku...» deya o'zidan ketdi.

Oqibat... Bo'ri polvon... Polvon nomini olgandan buyon umrida birinchi marta yelkasi yer ko'rdi!

Qanday yiqildi – o'zi-da bilmadi!..

Ko'zlarini ochsa... osmon to'la yulduz bo'ldi!..

Ohista-ohista joyidan turdi. Bosh egib-bosh egib davradan chiqdi.

Hamrohlari hamdard bo'lish uchun qo'ltig'idan ushladi.

Bo'ri polvon hamrohlari qo'lini zarda bilan siltab-siltab tashladi.

Choponiga cho'nqayib o'tirdi. Tizzalarini quchoqladi. Peshonasini bilaklari ustiga qo'ydi...

Ho'ng-ho'ng yig'lab qo'ya berdi!

Hamrohlariga javdirab-javdirab qaradi.

– Chiniminan yiqildimmi-a, chiniminanmi-a?.. – dedi.

Sel-sebor yig‘lab qo‘ya berdi...

5

Bo‘ri polvonning yelkasi yerga tekkani elga yoyildi.

Bo‘ri polvon nomi bilan g‘ururlanib yurmishlar ichi achiy-achiy bosh chayqadi.

– Yomon bo‘pti-da... – dedi.

Davralarda Bo‘ri polvon dastidan ro‘shnolik ko‘rolmay yurmishlar xushvaqt-xushvaqt bosh irg‘adi.

– Bo‘ri polvon-da tamom bo‘pti... – dedi.

Bo‘ri polvon el orasida bosh ko‘tarolmay qoldi. Uyidan ko‘chaga chiqmay qoldi.

Keyin o‘sha yosh polvonni ta‘qib eta boshladi. Qayerda to‘y bo‘lsa, poylab bordi.

Ammo yosh polvon Bo‘ri polvon nomini eshitiboq, rad qila berdi.

Ismoil otli bu yosh polvon dovrug‘i butun vohaga yoyildi.

Kimsan – Bo‘ri polvon yelkasini yerga tekkizgan Ismoil polvon!

Ismoil polvon bu nomni umrbod saqlab qolmoqchi bo‘ldi. Shu bois Bo‘ri polvon davraga kelibdi, desa bo‘ldi, indamay ketib qola berdi.

10

Bo‘ri polvon Ismoilni tinmay ta‘qib eta berdi...

U endi mug‘ombirlik yo‘liga o‘tdi.

Termizda bo‘lmish bir to‘yga juda kech bordi. Mashina kabinasida davraga qarab o‘tirdi.

Davra oxirida bakovullar boshqa katta polvon yo‘q deyishib, kimsan, Bo‘ri polvonday polvon yelkasini yerga tekkizgan Ismoil polvonga jar soldi.

Ismoil polvon davrani bir aylanib, o‘zini ko‘rsatdi.

Xuddi shu vaziyatni ikki oydan beri angg‘ib¹ yurmish Bo‘ri polvon kabinadan sakrab tushib, davraga kirdi.

¹ Angg‘ib – kutib, poylab.

Bo'ri polvon xuddi osmondan tushganday favqulodda paydo bo'lishi barcha-barchani hayron qoldirdi.

O'zaro shivir-shivir bo'lib, davra gap nimada ekanini bildi.

Ismoil polvon arosatda qoldi.

Chiqayin desa – Bo'ri polvon, chiqmayin desa – bakovul jar solib bo'ldi.

Ismoil polvon chiqishga majbur bo'ldi.

Bo'ri polvon vajohati barcha-barchani seskantirib yubordi.

Bo'ri polvon g'alabaga tashna bo'ldi!

G'alaba qozonish esa hamisha qiyin! Ayniqsa bugun!

Negaki, Bo'ri polvon faqat zafar qozonish uchun olishadi!

Faqat, faqat g'alaba uchun kurashilsa, g'alabaga yetish juda mushkul bo'ladi! Ba'zan, yetib bo'lmaydi!

Yo'q, polvon zafarni emas, zafar polvonni qidirsin! Zafar polvonni topsin!

Polvon xohish-iroda bilan olishsa, o'zining nimalarga qodirligini namoyish etsa, san'atini namoyish etsa, zafar o'z-o'zidan keladi!

Polvon o'z kurashidan o'zi zavqlansa, zafar o'z-o'zidan yor bo'ladi!

13

Bo'ri polvon davraga kirdi.

Ismoil polvon-da sakrab davraga tushdi.

Ismoil polvon yurish-turishi, avzoyidan osonlikcha jon beradiganga o'xshamasdi!

Bo'ri polvon Ismoilga yeguday-yeguday bo'lib xo'mrayib qaradi.

Ismoil polvon kurashni iloji boricha cho'zish payida bo'ldi.

Shunda, Bo'ri polvon nafasi qaytadi. Bo'ri polvon holdan toyadi. Yosh – yoshligini, qari – qariligini qiladi...

Bo'ri polvon nimaki qilmoqchi bo'lsa, Ismoil polvon xuddi bilib turganday, niyatlarini chippakka chiqara berdi. Bo'ri polvon ana shunda ko'zga yaqin, yagona zo'rga juda-juda qiyin ekanligini bildi. Boisi, zo'rga hamma havas bilan qaraydi. Zo'arning san'atini, o'ngi-chapini miridan-sirigacha sinchiklab o'rganadi. Zo'rga taqlid qilib, o'shanday zo'r bo'lgilari keladi!

Zo'r-chi? Zo'r o'zgalarni bilmaydi. Ayniqsa, o'zidan kuchsizlarni bilmaydi!

Bilgisi-da kelmaydi! Boisi, ko'zga ilmaydi!

Zo'ring tag'in bir fojiasi – zo'r mag'lubiyat alamini kam totadi.

Zafar ketidan zafar... Zo'r – zafar og'ushida yashaydi!

Yo'q, zo'r mag'lubiyatlar alamini-da totib turishi lozim!

Ana shunda u o'zi haqida o'ylab ko'radi! Ana shunda sergaklik bilan yashaydi!

Zo'r uchun mag'lubiyat zafar qatori bab-baravar zarur!

15

...«Xo'sh, kuchi-ku kamayib qolibdi, – umid bilan o'yladi Bo'ri polvon. – Nahotki, quruq kuchiga ishonayotgan shu yosh bolaning biron korini qilib bo'lmasa?»

Xayoliga o'ziga ma'qul bir fikr keldi...

Qo'llarini sermab, Ismoil polvonga qarab yurdi.

Ismoil ketiga tislandi. O'zini goh chapga olib qochdi, goh o'ngga olib qochdi. Bo'ri polvon mo'ljaliga bormadi.

«Faqat qo'yib yubor deguncha qiladigan ishni qilish kerak, – o'yladi Bo'ri polvon, – bo'lmasa g'irrom bo'ladi».

Bo'ri polvon Ismoilga qaradi.

Ismoil polvon yelkasidan nafas ola-ola davra aylandi. Demak, Ismoil polvon-da charchadi!

Ana, Ismoil polvon mash'ala yaqiniga borib qoldi.

Bo'ri polvon bo'lsa, davra bu chetida boryapti. U o'zicha mo'ljal qildi: «Hozir olishmoqchi bo'lib o'giriladi. Ismoil-da olishmoqchi bo'lib o'giriladi».

Bo'ri polvon o'rtaga qarab yurdi.

Ismoil polvon bir-ikki qadam tashlab, olov oldida to'xtadi. Yoniga o'girildi. O'rtada Bo'ri polvonga qarab yurdi.

Ismoil polvon yelkalari uzra mash'ala lovullab-lovullab turdi. Mash'alaga teskariligi sababli yuzlari qorayib-qorayib turdi.

Polvonlar bir-biriga quloch otib kela berdi!

Bo'ri polvon Ismoil polvon yoqasidan ushlab, ichidan chil berdi. Jonjahdi bilan ketiga burdi. Shunday shiddat bilan surdiki, Ismoil polvon o'zini o'ngga-da, chapga-da ololmadi. Tikka mash'ala ustiga seltanglab-seltanglab bordi.

– E-e-e, olov, olov! Olov bor! – dedi ovozlari.

Ismoil polvon olov taftini oldi. Taqqa to'xtadi. Ketiga chalqaydi. Olovga yiqilmaslik uchun gavdasini oldinga tashladi.

Ya'ni... ya'ni gavdasini Bo'ri polvonga berib qo'ydi!

Bo'ri polvon g'oyatda tezlik bilan chilini chiqarib oldi. Chap oyog'ini yoniga to'shadi. Ismoil polvonni davra o'rtasiga sermab yubordi.

– Yo, otam! – deya ayqirdi.

Ismoil Bo'ri polvon to'g'anoq oyog'i ustidan oshib, davra o'rtasiga chalqancha tushdi!

Ismoil polvon yulduz sanadi!..

Hay-hay-hay! Yoshlik – yoshligini, ko'pni ko'rganlik – ko'pni ko'rganligini qildi! Tajriba! Tajriba zafar qozondi!

Bo'ri polvon qo'llarini ko'tarib, davrani aylanib chopdi. Oyoqlarini osmon qilib dorboz bo'ldi. Dorboz bo'lib-dorboz bo'lib davra aylandi.

Davradan chopib chiqib, hamrohlarini bitta-bittalab bag'riga bosdi. Hamrohlarini quchoqlab-quchoqlab oldi.

– Ko'rdingmi meni? Ko'rib qo'y!.. – dedi.

Kulayotgan yonoqlaridan munchoq-munchoq yoshlar oqdi.

16

Ertasi uyda ho'kiz so'ydi. Gapga yetar odamlarni chaqirdi.

Davrani tark etajagini aytdi. Uylanajagini aytdi.

– Hali-hozir uylanmay turing endi, Bo'ri polvon, – dedi gapga yetarlar.

– Har yurtning o'z ko'zga surtar polvoni bo'ladi. Bizning ko'zga surtar polvonimiz sizsiz...

– Yo'q, bo'ldi! – cho'rt kesdi Bo'ri polvon.

Gap yetarlar nasihat qildi. Nasihatlar zoye ketdi.

Bo'ri polvon o'z bilganidan qolmadi.

Brigadasida Suluv degich qiz bo'ldi.

Bo'ri polvon ana shu qizni ko'z ostiga oldi.
 Suluv Bo'ri polvon ko'ngliga o'tirib qoldi.
 Ko'ngliga o'tirgani – Suluv erkak zoti ko'ziga tik qaramasdi.

25

...Bo'ri polvonsiz davralar fayzsiz bo'lib qoldi.
 Bo'ri polvon o'rni juda-juda bilindi.
 El Bo'ri polvon kurashini qo'msadi...
 Bo'ri polvon-da davralarga intiq bo'lib qaradi. Bo'ri polvon o'zini izladi!
 Yo'q, Bo'ri polvon yo'q! Aksiga olib ayoli topgani-da qiz bo'ldi!
 To'rtinchi farzand ko'rdi – tag'in qiz bo'ldi!
 Yaratganning o'zidan davralarni gursillatib-gursillatib olishadigan o'g'il tiladi.
 Hartugul, beshinchi farzandi o'g'il bo'ldi!
 Tilab-tilab topganim deya, otini Tilovberdi qo'ydi.
 Bo'ri polvon endi orzu bilan ovundi: o'g'li Tilovberdi balog'atga yetyapti – ot o'rmini toy bosadi...
 Yolg'iz o'g'il Tilovberdi tez yetildi. Uni kuyov qiladiganlar ko'paydi.
 Ayrimlar tilga borib aytdi.
 Ammo Bo'ri polvon rozi bo'lmadi. Kampiri qistasada ko'nmadi.
 Bo'ri polvon o'g'lini tarbiya qila berdi.
 O'g'lini nahorda uyqudan uyg'otdi. Tuxum yuttirdi...

XXIX

Shunday qilib, Tilovberdi polvon bilan sho'rchilik Shodi polvon olishadigan bo'ldi.

«Menga daryoning naryog'iyam bir, beryog'iyam bir. Bari bir o'g'limdan zo'ri yo'q, dedi o'zicha Bo'ri polvon. Lekin Sho'rchida Abray degan bunday katta polvon yo'q edi-ku? Bu kim bo'ldi ekan? Yo sho'rchiliklar alamlarini olish uchun boshqa yoqdan polvon yollab keldilarmikin? Bunday voqealar ko'p bo'ladi...»

Bo'ri polvon sho'rchiliklar to'pi ro'parasiga o'tirdi. Past ovozda so'radi:

– Inim, bu Abray polvonlaringni eshitmagan ekanman, u kimlardan?
 – Abraymi? Nasim polvonning uli bo'ladi. Yaqinda armiyadan keldi.
 Bo'ri polvon birdan sergak tortdi. Javob bermish odamga tikildi-tikildi,
 ohista joyidan turdi.

Ajabtovur hislar og'ushida qoldi. Xivich ushlagan barmoqlari qaltiradi.
 Xivich siquvida qahr bo'ldi, nimadir qilishga chog'lanish bo'ldi. Titroq
 chap qo'li, lablariga o'tdi.

Davradan qanday chiqdi, bilmadi. Amir polvon yelkasiga qo'lini qo'ydi.
 Og'ir entikdi. Nimadir demoqchi bo'ldi. Deyolmadi, tomog'i qurib qoldi.

Amir polvon Bo'ri polvon holini bildi. Darrov qo'ltiqlari ostidan oldi.
 – Polvon bova, nima bo'ldi? Tilovberdi, suv opke! – dedi.
 Bo'ri polvon sovugan choy ichdi. Entikdi. Lablarini yaladi. Jilmaydi.
 – Qaridik, ukam, qaridik. Yurak yaramay qolyapti! – dedi. – Amir, sen
 berman ke.

Bo'ri polvon Amirni qorong'iga ergashtirib ketdi.

– Amir, menga qara, shu Abray deganiga bizning Tilovberdini chiqar,
 xo'pmi?

– E, polvon bova, davra bilib qoldi-da!

Bo'ri polvon davra sirtida turib qoldi. O'zini o'nqlab oldi.

Tag'in davraga kirdi. Siniq ovozda jar soldi:

– Xaloyiq, eshitmadim demanglar! Ho'kiz toboqni ko'targan Abray
 polvonga Tilovberdi polvon chiqadigan bo'пти! Gilam toboqni esa Jonibek
 ko'taradigan bo'пти! A? Endi u yog'ini bilmadim, xaloyiq! O'zlari shunday
 fikrga kelibdi, bir bilganlari bordir-da!

XXX

– Qani, endi davraga ho'kiz toboqni ko'targanlar chiqsin!

Bo'ri polvon shunday deya davra aylandi. Ko'z ostidan Nasim pol-
 vonga tikildi.

«Nasim oshna, o'g'lingga bir og'izgina chiqma, u Bo'ri bobongning
 o'g'li ekan, demading-a – deya, ich-ichidan o'pkaladi. – Demaysan,
 deyolmaysan. Chunki sen o'sha Nasimsan... Sendan bunday gap chiqmaydi.
 Mana hozir bilasan, sening farzanding kim-u, mening farzandim kim...»

Nasim polvon to'g'risiga oyoq ildi¹. Soqolini siladi. Tomog'ini qirdi.
«Meni bir umr mag'lub etdim, qoyil qildim, deb yurib edingmi? Oshna, adashasan... Hozir ko'rasan, mening kim ekanimni. Oldingdan salom berib o'taman...»

XXXI

Nasim polvon tarafdan Abray, ro'baro' tarafdan Tilovberdi polvon davraga tushdi.

Tilovberdi polvon qo'lini ko'ksiga qo'ydi. Abray polvonni oldinga taklif etdi.

– Qani polvon, torting! – dedi.

Abray polvon Tilovberdi polvonga qo'l berdi.

– Yo'g'-e, yo'l boshi sizdan, polvon! – dedi.

Tilovberdi polvon oldinga yurdi. Abray ketidan ergashdi.

Bo'ri polvon shuni, aynan shuni kutdi. Yuzlarida tabassum o'ynadi. Olisroqda bo'lsa-da, Nasim polvonga tag'in qaradi.

«Ko'rdingmi, Nasim oshna? O'g'ling mening o'g'limdan oldinda yurishga yuragi dov bermadi. Mening o'g'lim hamisha birinchi...»

Bo'ri polvon o'g'illarni bir-biriga qiyosladi. Ayniqsa, Abray polvonning sumbatiga sinchiklab-sinchiklab tikildi.

«Momoqizning o'g'li xushsurat yigit bo'pti. Ammo Momoqizga o'xshamaydi. Otasiga tortibdi. Nasimning o'ziyam husndor edi-da. Faqat burnining puchuqligi Momoqizga kelbat beradi...»

Bo'ri polvon soqoli uchini buklab tishladi. Sezilar-sezilmas bosh irg'adi.

Abray polvonga suqim kirmasin, deya nazarini quvdi, yon-veriga tufladi:

– Tuf-tuf-tuf!..

XXXII

Polvonlar qo'l berib ko'rishdi.

Tilovberdi polvon jelaklari o'ngirini ketiga surdi. Yenglarini xiyol tortdi. Barmoqlarini tili bilan ho'lladi. O'ynab-o'ynab Abray polvonga qarab bora berdi.

¹ Oyoq ildi – to'xtadi.

Abray polvon ko'zlari qarshisida mardona o'ynayotgan barmoqlar orasida hech nimani ko'rolmadi. Ko'zlari pирpiradi. Keyiniga tisarildi.

Tilovberdi polvon Abray polvon ko'zlariga tikildi: Abray polvon ko'zlari hayiqdi! Ana endi hamlaga o'tsa bo'ladi!

Tilovberdi polvon o'ng qo'li bilan Abrayning yoqasidan ushladi. Ichidan chil berdi. Shiddat bilan ketiga surdi.

Abray polvon ketiga seltanglab-seltanglab bordi. Kimningdir fonusiga qoqilib ketdi. Odamlar ustiga chalqancha tushdi.

Tilovberdi polvon yiqitdim deya, qo'llarini ko'tardi.

Nasim polvon qabatidagilardan tashvishli ovozda so'radi:

– Nima bo'ldi-a, nima bo'ldi?

Nasim polvonning ovozi juda xasta bo'ldi, faqat ko'zi ojizlarga xos ovoz bo'ldi.

Xo'jasoatliklar Tilovberdi polvonni olqishlab qichqirdi:

– Halo-o-ol!

– Tilovberdi polvonning haqi berilsin!

– Xayriyat, odamlar ustiga tushdi, agar shu zarb bilan yerga tushganda, ichagi uzilardi!

Tilovberdi polvon bakovul qoshiga cho'kkaladi.

Bo'ri polvon yuzlarida quvonch ifodasi ko'rinmadi. Vag'ir-vag'ir qilayotgan hamqishloqlariga amirona qo'l siltadi.

– Xaloyiq, jim! – dedi. – Ko'p javramang, jim bo'ling! Xaloyiq, davradagi Bo'ri polvon so'zim: Tilovberdi polvon Abray polvonni yiqitolmadi!

Qoni tez xo'jasoatliklar bidillab ketdi:

– E, qo'ying-e, polvon bova, chalqayramon¹ tashladi-yu!

– Bundan ziyod qanday yiqitib bo'ladi?!

– Xaloyiq, so'zlab bo'ldingizmi? – dedi Bo'ri polvon. – Qaytarib aytaman, Tilovberdi polvonning yiqitgani bekor!

– Nimaga bekor bo'lar ekan?

– Chunki u odamlar ustiga yiqitdi! – dedi Bo'ri polvon.

– Sizga bari bir emasmi, qayerga yiqitgani?!

¹ Chalqayramon – chalqancha.



– Yo‘q! Polvon polvonni osmonning ko‘kiga otsayam bekor! Polvon-misan – yerning ustiga yiqit! Qani, boshqatdan olishinglar!

Tilovberdi polvon otasiga o‘qraydi. Qobog‘ini uydi. Tag‘in davra aylandi. Bo‘ri polvon bildi, o‘g‘li undan norozi bo‘ldi.

«Oh, qaniydi o‘g‘li hozir yiqitgan bo‘lsa! O‘g‘li buni bilmaydi-da! Bilmagani yaxshi...»

XXXVI

Tilovberdi polvon g‘olibona yurishda davom etdi. O‘ng oyog‘ini lapanglatib-lapanglatib olg‘a tashladi. Ba‘zan, haddan ziyod olg‘a tashlab yubordi. Shunda gavgasi orqada qolib-qolib ketdi.

Abray polvon sezdi! Ammo Tilovberdi oyog‘iga atayin qaramadi! Ko‘zlariga tik boqib bora berdi! Bor diqqat-e‘tibori esa oyog‘ida bo‘ldi. Bo‘lajak vaziyat to‘lishib kelajak sayin ko‘zlari yanada besaranjom boqdi, bejo boqdi.

Xo‘jasoatliklar Tilovberdi polvon beparvoligi oqibatida ro‘y berayotgan nozik vaziyatni ko‘rib turdi. Ammo Tilovberdi polvonni ogoh qilishga jur‘at etolmadi. Ehtimol, ko‘zlari tik boqayotgan Abray polvon bu vaziyatni payqamayotgandir? Bordi-yu, ovoz bersalar, Abray polvon bilib qolmaydimi?

Xo‘jasoatliklar ana shu tashvishda miq etmay o‘tirdi.

Qaltis vaziyat bo‘ldi!

Davra nafasini yutdi.

Tevarak suv sepganday jimjit bo‘ldi.

Faqat Tilovberdi polvon bilan Abray polvon nafasi eshitildi. Polvonlar bir-birini ruhan arbadi¹.

XXXVII

Bo‘ri polvon davra chetida chordana qurdi. O‘zini, jamiki olamni unutdi...

Qo‘ynidan tasbehini oldi. Donalab-donalab tasbeh ag‘dardi.

Shiq!

Ichida kalima qaytardi! O‘ng kaftini yuziga tortdi. Boshi chapga xiyol

¹ **Arbadi** – avradi, chalg‘itdi.

qiyshaydi. O'g'lining lapanglayotgan oyog'idan ko'z uzmadi. «O'g'lim, oyog'ingni ol!»

Shiq!

Bo'ri polvonni zo'r hadik bosdi. Qaddi tobora cho'kib bordi. Tomog'ini qirdi. Ovozini yolg'iz o'zi eshitdi. Og'zini angraygannamo ochdi.

«O'g'lim, senga aytaman!»

Shiq!

Yo'q, zafarli yurishlarga o'rganib qolgan otasining o'g'li oyog'ini olmadi. Aksincha, xuruj qilib bora berdi.

Shiq!

Abray polvon Tilovberdi polvon ko'zlaridan ko'z olmadi. Ko'z ayirmadi. Tilovberdi polvonni oyog'i yerga tekkuncha zarb bilan qoqib yubordi.
– Xap-a-a-a! – deya ayqirdi.

Hayqiriq nihoyasiga yetmayoq, Tilovberdi polvon ikki yag'rini bilan gupillab tushdi!

XXXIX

Shiq!

Bo'ri polvon qo'lidagi tasbeh yerga tushdi.

Ko'zlari yumildi, boshi orqaga xiyol chalqaydi.

Keyin o'zini o'nqlab oldi. Nasim polvonga qaradi. Mung'ayib-mung'ayib qaradi.

Nasim polvon iljaydi, Nasim polvon tantana qildi!

Bo'ri polvon boshini xam qildi. Yerda kulcha bo'lib yotmish tasbehini oldi. Ohista qo'zg'aldi. Davradan enkayib-enkayib chiqib ketdi. Davra sirtida kiyinajak o'g'li ovozini eshitdi.

O'g'il yig'lab-yig'lab aytdi:

– Men yiqitganda g'irrom dedi, mana oqibati! Otamiz niyatiga yetdi! Otamiz bor ekan, bizga g'animning keragi yo'q!..

Bo'ri polvon oyoq ildi. Nimadir demoqchi bo'ldi. Ammo so'zlashga madori yetmadi.

Ohista-ohista odimladi. Qorong'ilikka kirib ketdi. Duch kelmish g'o'-zapoya uyumiga chiqdi. Yelkasidan nafas oldi. «Qorong'i qanday yaxshi,

odamlar ko'rmaydi...» – cho'nqayib o'tirdi. Keyin yonboshladi. Telpagini ketiga surdi. Titrayotgan barmoqlari tasbeh donalarini sur'at bilan sanadi: shiq, shiq, shiq...

XLII

Bo'ri polvon ko'ngli to'lib-to'lib ketdi.

Ko'ngli to'ridan nimalardir o'ksib-o'ksib kela berdi. O'ksik zarbidan yelkalari silkina berdi. Yonoqlaridan marjon-marjon yoshlar oqdi. Ohlar – yurakdan, yoshlar – ko'zdan bo'la berdi...

«Nasim oshna, ko'zimga ko'rinib, yaramni yangilading. Yana tag'in o'g'limni-da yiqitding.

Bilib qo'y, oshna... izingdan surganim surgan! Qayerda davra bo'lsa izingdan quvib boraman!

Tilovberdini o'g'ling bilan uch safargacha olishtiraman! Bordi-yu uch martasida-da o'g'ling o'ktam kelsa... unda, nailoj, uchdan keyin puch.

Bari bir qo'ymayman! Ana, nevaralarim bor! Nasib bo'lsa, nevaramni nevarang bilan olishtiraman!

Ishonchim komilki, nevaram bobosining orini oladi!

Sen ko'rmayapsan, oshna, oy botib, yulduzlar so'nib-so'nib boryapti.

O'g'lim o'ktamligida yulduzlar yongani-yongan bo'ladi. O'g'lim mag'lubligida yulduzlar so'ngani-so'ngan bo'ladi.

Yo'q, oshna, yo'q!

Yulduzim hali yonadi! Davralarim hali davom etadi! Nevaralarim davralarda:

– Yo, bobomning piri, deb olisha beradi!

Yulduzim mangu yonadi!»

«Yulduzlar mangu yonadi» qissasi haqida

«Yulduzlar mangu yonadi» qissasini o'qir ekanmiz, bu asar biz mutolaa qilgan boshqa asarlardan juda ko'p jihati bilan farq qilishini anglaymiz. Bu farq, avvalo, muallifning hikoya tarzida ko'rinadi. Guvohi bo'lganingizdek, asar tili va yozuvchi uslubi muallif unib-o'sgan Surxon

vohasida yashaydigan xalq tili va muomala usuli bilan chambarchas bog'liqdir. Tog'ay Murod go'yo qishloqdoshlariga qiziqarli bir rivoyat so'zlab berayotganday tutadi o'zini. U shu tinglovchilariga tushunarli, soddada tilda so'zlaydi, qisqa-qisqa gaplar tuzadi. Shunisi qiziqki, bu hikoya usuli yurtimizning istagan hududidagi o'quvchini ham darrov o'ziga tortadi, uni jon qulog'ini berib eshitishga rag'batlantiradi.

Nega?

Nega o'rtada biror yotlik, anglashilmaslik paydo bo'lmaydi, tushuniksiz holatlar yuzaga kelmaydi? Axir, Siz bilan biz o'rganib qolgan nasriy asarlarning voqea-hodisalarni bayon qilish usuliga Tog'ay Murod hikoya tarzi hecham o'xshamaydi-ku! Yozuvchi bilan bizni yaqinlashtirayotgan narsa nima o'zi? Nimaga biz ham muallif bilan birga suyunib, birga yuragimiz achishib boradi?

Tog'ay Murod hayoti va ijodi haqida gapirganimizda, uning asarlarida favqulodda qahramonlar, o'ta aqlli odamlar uchramasligini eslatgandik. U tanlagan qahramonlar oddiy – Siz bilan biz deyarli har kuni ko'cha-ko'yda uchratadigan, ko'pincha ahamiyat ham bermay o'tib ketadigan odmi kishilardir.

Bundan besh asr ilgari hazrat Navoiy asl «ma'no maxzani» – inson ruhiyatining xazinasi yirtiq janda kiygan oddiy insonlar qalbida ekanini alohida ta'kidlagan edi. Bugungi o'zbek she'riyatining iste'dodli vakillaridan biri Iqbol Mirzo ham zamondoshlariga, jumladan, ijodkor do'st-lariga murojaat qilib, shunday misralar bitadi:

Buncha bino qo'yma zarrin choponlarga,
Saratonda yaproq bo'lg'in dehqonlarga,
Suyangani tayoq bo'lg'in cho'ponlarga,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

Demak, Tog'ay Murod qahramonlari bilan bizni qalban yaqinlashtirayotgan narsa – xalqimizga (demak, Siz-u bizga ham!) xos bo'lgan soddalik, samimiylik, to'g'rilik, ochiq ko'ngillik xislatlaridir. Millatning bu bebaho fazilatlarini «Yulduzlar mangu yonadi» qissasida ortiqcha jim-jimaga o'ralmay, alohida bo'rttirilmay, kuchanib ta'kidlanmay aks ettiriladi. Uzoq Surxondaryoning uzoq qishloqlarida yashaydigan, ayrim-

lariga, balki umri bino bo‘lib, Toshkentga kelish ham nasib etmagan oddiy insonlar uchun OR, NOMUS, G‘URUR, UYAT, ANDISHA, KAMTARLIK, HALOLLIK, MARDLIK singari hislar alohida qahramonlik belgisi emas. Bu hislar tuproq ustida insonman deya bosh ko‘tarib yurgan har bir kishining tabiiy yo‘ldoshi bo‘lishi lozimligini qissaning ko‘plab ta’sirchan epizodlarini o‘qib, qayta-qayta yodga olamiz.

Eslang, bu asar 1976-yilda yozilgandi. U yillari o‘zbek xalqi miyasiga «Sizlar o‘tmishda savodsiz, madaniyatsiz, aqliy va jismoniy imkoniyatlari haminqadar xalq bo‘lgansizlar. Faqat yurtigingizda sho‘ro hukumati o‘rnatilgandan keyingina madaniyatli millatlar qatoriga qo‘shilish imkoniyatiga ega bo‘ldingiz» qabilidagi tushunchalar g‘oyat ayyorlik bilan singdirilardi. Ikki-uch yillik harbiy xizmatga olib ketilgan yigitlarimiz aksariyat qurilish batalyonlariga tashlanar, ularning kuchidan suvtekin foydalanilardi. Respublikada sportni rivojlantirish, bolalarni sog‘lomlashtirish masalalariga kam e’tibor berilar, bolalar umri paxta dalalarida, xavfli kimyoviy dorilar ostida zaharlanib borardi. O‘z intilishi bilan ko‘pchilikni qoyil qoldirgan iste’dodli sportchilar ham xorijiy davlatlarda bo‘ladigan xalqaro musobaqalarga jo‘natilmas, natijada, dunyo ahli o‘zbeklar kim, O‘zbekiston qanday yurt ekanidan bexabar qolaverardi.

Boshqa yoqdan esa turli bahonalar bilan bizning milliy an‘analarimiz, urf-odatlarimizga davlat miqyosida hujumlar uyushtirilardi. Dinimiz, e’tiqodimiz ustidan ochiqdan-ochiq kulishar, ne-ne asrlar osha zavol ko‘rmay kelgan ko‘plab muqaddas qadamjolarimiz buzib tashlanardi. Ona tilimiz butun rasmiy idoralar, hujjatlar, aksariyat ta’lim dargohlaridan siqib chiqarilgan, unda gaplashish esa madaniyatsizlik belgisi sifatida qaralardi...

Tog‘ay Murod mana shunday sharoitda o‘z qahramoni Bo‘ri polvonga qo‘shilib og‘ir-og‘ir, ayni choqda yozuvchi uchun xavfli-xavfli o‘ylarga cho‘madi. Bu o‘ylarini el oldiga, boyagi makkor hukumat oldiga olib chiqishdan cho‘chib o‘tirmaydi:

«Xalq nimasi bilan xalq?

O‘zining urf-odatlari bilan xalq! Ko‘p urf-odatlarimizni birovlar... birovlar o‘zining qilib oldi! Biz qo‘limizni burnimizga tiqib qoldik.

Shunday keta bersak, hademay... o‘zimizni-da boy berib qo‘yamiz!

Bu yog'i kamday, ne-ne nimalarimizni eskilik sarqiti deb yo'q qildik. Xiyol bo'lmasa xalqning o'zini-da... eskilik sarqitiga chiqarib yuborayin, dedik!

Bugun buni yo'qota bersak, ertaga uni yo'qota bersak... podadan nima farqimiz qoladi?..»

Bo'ri polvonning bu o'ylari «Buni rais biladimi?..» degan savol bilan tugayotganiga e'tibor bering. Xo'p, rais biladi ham deylik, nima qila oladi? Undan kattaroq raislar, vazir-u noiblar nima qila olyaptiki, kichik bir kolxoz raisi bir narsa qila olsin! Aslida ularning biror narsa qilishi, nimanidir o'zgartirishi – keyingi masala. O'zi ular bu haqda jiddiyroq o'ylaydimi? Shu muammolarni o'ylab hech uyqulari qochganmi?

Agar jiddiyroq o'ylaganlarida, ozgina ixlos qo'yib harakat qilganlarida bu masalalarni ham yoritish yozuvchiga qolmas edi-ku! Shunday emasmi?

Xuddi Bo'ri polvondek yozuvchi ham noyob urflarimiz, ko'hna ma'naviy boyliklarimiz sekin-asta unutilishi, borib-borib esa yo'q bo'lib ketishidan jiddiy xavotirga tushadi. Agar e'tibor qilgan bo'lsangiz, bu qissada qadimiy xalq musobaqasi olish – kurash san'atining butun qonun-qoidalari eng mayda jihatlarigacha batafsil tasvirlanadi. Ikkinchi qissa – «Ot kishnagan oqshom»da xuddi shunday ish chavandozlik, otlar bilan bog'liq o'yinlar, otlarning zoti, parvarishi singari mavzular ustida qilinadi. «Otamdan qolgan dalalar» romanida bo'lsa, qadim o'zbekning paxtakorlik faoliyati sir-sinoatlari to'liq qog'ozga tushiriladi. Tog'ay Murod bu ishni ongli ravishda, ezgu maqsad yo'lida qilgani shubhasizdir. Zero, chinakam yozuvchilar ajdodlarni avlodlarga, zamonlarni zamonlarga ulovchi, xalq madaniyatining jonkuyar targ'ibotchilari sifatida ham tarixiy vazifalarni ado etadilar!

Bo'ri polvonning quyidagi tashvishli mulohazalari ham, aslida, yozuvchining o'z zamonasi bilan bog'liq bedor o'ylaridir:

«Farzandlar hayotga beparvo qaraydi. Musibat bilan xursandchilik farqiga bormaydi.

Farzandlar o'zlari minayotgan mashinaga o'xshaydi! Odam kim, mashina kim, bilib bo'lmay qolyapti».

Ha, «O'zimizni-da boy berib» qo'ymasligimiz uchun har bir avlod

(jumladan, Siz ham!) hayotga, uning barcha tomonlariga ko'zni kattaroq ochib qarashi kerak bo'ladi. Yozuvchining musibat bilan xursandchilik farqiga borish to'g'risidagi da'vati ham bizni jiddiy o'ylarga toldirishi lozim. Gap shundaki, Siz bilan biz *xursandchilik* deb yurgan juda ko'p narsalar ma'no-mohiyati, pirovard natijasiga ko'ra musibat bo'lib chiqishi, biz bugun *musibat* deb qabul qilgan hodisalar zamirida esa teran anglashilishi lozim bo'lgan, insonni poklovchi buyuk haqiqatlar yotgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Navoiy bobomiz ham chinakam inson bu dunyo g'am-alamlarisiz yashashi mumkin emasligini, aksincha, ko'ngilda g'am yo'qligi buyuk g'am, alam yo'qligi esa og'ir alam ekanini ta'kidlagan edilar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, muallif o'zining markaziy qahramoni – Bo'ri polvonni har qanday qusurdan xoli, farishtanamo odam qilib taqdim etmaydi. Bo'ri polvon ham hayoti davomida bilib-bilmay ancha-muncha kamchiliklar, xatolarga yo'l qo'yadi. Do'st tanlashda adashib, o'zi suygan qizi – Momoqizni Nasim polvon «ilib ketishi»ga yo'l qo'yib berganini aytamizmi, «Hammadan zo'ri o'zimman» deb o'ylab, «yosh bola» – Ismoil polvondan yengilganini aytamizmi, Nasimni oxirigacha tan berdirish, yoshlikda yuragida qolgan orini undan olish uchun Tilovberdining yutug'ini zo'rlik bilan bekor qilib, o'g'lini o'ksitganini aytamizmi... Xuddi shu kamchilik va nuqsonlari uchun ham Bo'ri polvon ko'nglimizga yaqin keladi. Zero, inson kamchilik-u qusurlari bilan ham insondir.

Qissaning yakuniy voqealari tasviri ham uning hayotiyiligi – realizmini ta'minlashga xizmat qilgan. Azaliy raqiblar – Bo'ri polvonning o'g'li Tilovberdi hamda Nasim polvonning o'g'li Abray polvonlar olishuvi boshlanishidanoq o'quvchi bu kurash Tilovberdining g'alabasi – Bo'ri polvonning tantanasi bilan yakunlanishiga shubha qilmay qo'yadi. Qolaversa, Bo'ri polvonning olishuv oldidan Nasimga nisbatan ko'nglida aytgan gaplari bu fikrga o'quvchini yanada ishontiradi. Biroq...

Biroq buni hayot deb qo'yibdilar! Hayotning haqiqati esa o'ta shafqsiz. Unda doim ham yovuzlik ustidan ezgulik, qorong'ilik ustidan yorug'lik g'alaba qozonavermaydi! Uning qiziqiligi, hatto go'zalligi ham balki shundadir. Ezgu niyatli kishilarni mudom sergak tutib turadigan, ularni shiddatli kurashlarga chorlaydigan, bu kurashlarda toblab – poklab bora-

digan hayot, ehtimol, shuning uchun ham buyukdir, qudratlidir! Axir mana shu kurashlar bo'lmasa, hayot nuqul oson g'alabalardan iborat bo'laversa, uning qanchalik qiymati-yu, nechog'li qizig'i qolardi? Axir birov g'olib bo'lishi uchun kimdir mag'lub bo'lishi tabiiy-ku! Mana shu mag'lubliklar bo'lmasa, Bo'ri polvonning qissa oxiridagi yulduzlarday o'ziga tortuvchi, qalblarni entiktiruvchi mulohazalari qaydan tug'ilardi?!

Yuqorida qissaning tili va uslubi unda tasvirlanayotgan voqealar hamda qahramonlar xarakteriga mutlaq mosligi to'g'risida aytgan edik. Bu borada bir-ikki misol keltirish bilan cheklanamiz. Ko'rdingizki, Bo'ri polvon bir so'zli, qat'iyatli, muammolarni xuddi kurashdagidek shiddat bilan yechishga o'rgangan inson. Uning bu xarakter jihatlari uning mulohaza tarzi, fikrlash yo'sini orqali ham alohida ta'kidlanadi. Yozuvchi voqealarni Bo'ri polvon nigohi orqali yoritganida deyarli har bir gapning oxiriga undov belgisi qo'yishi shu ta'kid natijasidir:

«Yo'q, Ismoil polvon haqiqatan ham zo'r ekan!

Bo'ri polvon o'zidan bo'lak zo'r bo'lishini xayoliga keltirmadi!

Zo'r faqat bitta – u, men, o'zimman, deb yurdi!

O'g'il bola gap... o'zidan bo'lak zo'r chiqishini xohlamadi!

Yo'q, Bo'ri polvon xohlaganday bo'lmadi!

Vaqt, vaqt!»

Shafqatsiz vaqt har davrning o'z zo'rlarini yaratadi! Inson buni xohlaydimi-yo'qmi, vaqt uchun bari bir – yarata beradi!

Ana, vaqt o'zining kenja zo'rini yaratdi! Ana, kenja zo'r, ana!

Asarda qo'llangan badiiy o'xshatishlar ham voqealar yuz berayotgan makonga, hikoyachi ruhi va dunyoqarashiga mos tarzda tanlanadi – «Laylakning yurishini qilaman deb, chumchuqning puti yirtilgan ekan!», «Maksim polvon zarang tayoqday ekan – qayrilmadi» va b.

Bir polvonning mag'lubiyat alamini tortishi va raqibidan bu alamni olish uchun qilgan harakatiga nisbatan muallif «o'chimni olmoqchi» yoki «alamimni olmoqchi» degan iboralarni emas, «orimni olmoqchi edim» iborasini ishlatadiki, bu ibora har jihatdan polvonlar ruhiyatiga mosdir.

Xalqona ibora bilan aytsak, «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi muallifi – Tog'ay Murodning xudoga aytgani bor ekan. Yurtimiz mustaqilligi qo'lga

kiritilgach, juda ko'p xalq an'analari singari o'zbek kurashini keng targ'ib etish, yoshlarni unga jalb qilish, bu sport turini har tomonlama ommalashtirish borasida ulkan ijobiy ishlar amalga oshirildi. Prezidentimiz tomonidan kurashga alohida e'tibor qaratilib, bugungi kunda bu sport turi bilan nafaqat mamlakatimizda, balki ko'plab xorijiy yurtlarda ham minglab odamlar shug'ullanmoqdalar. O'zbek kurashi bo'yicha xalqaro turnirlar bugunga kelib Yer yuzining barcha qit'alarida o'tkazilayotgani bu mardlar musobaqasining qanchalar halol, gumanistik xarakterga ega ekanini yana bir bor isbotlamoqda.

Savol va topshiriqlar

1. Tog'ay Murod va unga tengdosh yozuvchilar ijodiga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarni biror asar misolida ko'rsatishga harakat qiling.
2. Tog'ay Murodning darslikda keltirilgan qissasidan boshqa yana qanday asarlarini o'qigansiz?
3. «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi Siz hozirga qadar o'qigan boshqa yozuvchilar asarlaridan ko'proq nimasi bilan farq qiladi?
4. Bo'ri polvon tabiatan qanaqa odam? Nega u o'ttizga kirguncha uylanmay yurdi?
5. Nasim polvon bilan Bo'ri polvon o'rtasida qanday ziddiyat yuz berganini qissani to'liq o'qish orqali bilib olishga harakat qiling.
6. Bo'ri polvonning hech qachon o'z manfaatini ko'zlab ish qilmasligi qaysi harakatlarida namoyon bo'ladi?
7. Bo'ri polvon nega o'g'li Tilovberdining g'alabasini tan olishni istamadi va uni qaytadan kurashga tushishga majbur qildi?
8. Tilovberdining Abray polvondan yengilganidan keyingi holatini qanday izohlaysiz? Bu – otaga hurmatsizlik belgisimidi yoki boshqa narsami?
9. Qissaning kitobingizda berilgan parchalaridan Bo'ri polvon aslida qayerda ishlashi, qishloqda nima yetishtirilishini bilsa bo'ladimi?
10. Sizni ham kattalar biror marta «E, yasha otasining uli (o'g'li)!» deya alqaganmi?
11. Tog'ay Murod qissasini mutolaa qilib, o'zingiz uchun o'zlashtirgan eng muhim ma'naviy boylik nima bo'ldi?
12. «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi asosida ijodiy insho yozing va sindoshlaringizga o'qib bering.

*Nazariy ma'lumot**QISSA*

Badiiy asarlar uchta katta guruhga – epik, lirik hamda dramatik turlarga ajraladi. Epik, lirik va dramatik asarlar, avvalo, o'zlarining nutqiy shakllanishi jihatidan bir-biridan farqlanadi. Masalan, epik asarlar asosan sochma – nasriy yo'l bilan yoziladi. Har bir adabiy tur o'z ichiga qator janrlarni jamlaydi. Hayot hodisalarini badiiy qamrash ko'lami nuqtai nazaridan epik janrlarni quyidagicha tasniflash mumkindir:

1. Kichik epik janrlar: latifa, masal, hikoya, rivoyat, ertak, afsona, badia, etud, ocherk, esse.

2. O'rta epik janrlar: qissa (povest).

3. Katta epik janrlar: epos, epik doston, roman, epopeya.

Ko'ryapsizki, qissa janri ham mazmunan, ham shaklan o'rtaliqda joylashgan. Unda qamrab olinadigan voqealar ko'lami, qahramonlar ishtiroki, talqin etish mo'ljallangan muammolar hajmi hikoyanikidan katta bo'lsa, romannikidan kichkinadir. «Bemor» hikoyasi doirasiga qamrab olingan mazmun-mohiyat «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi bag'riga singdirilgan mazmun-mohiyatdan birmuncha kichikligini darrov ilg'agan-dirsiz. Bu o'rinda Sizni asarlarning hajmi aldab qo'ymasligi lozim. Masalan, shunday hikoyalar borki, ularning hajmi uncha-muncha qissanikidan kattaroqdir. Va aksincha, shunday romanlar yoziladiki, ularning hajmi qissadan kichikroq bo'lishi mumkin. Bu yerda gap, boya aytganimizdek, yozuvchi tomonidan asarga singdirilgan mazmun-mohiyat ko'lamidadir. O'sha «Bemor» degan bir betlik hikoyaga jam qilingan mazmunni noshud yozuvchi ellik betlik hikoya yoki yuz betlik qissada bera olmasligi ham mumkin. Ayrim yozuvchilarning yostiqday romanlari borki, ularni o'qib «Yulduzlar mangu yonadi» qissasidan olgan taassurotni mutlaqo topa ol-maysiz. Demak, har qanday janrning rivojlanishi va yuksalishida ham bi-rinchi navbatda iste'dodlar asosiy o'rin tutadi, desak to'g'ri bo'ladi.



Pirmqul QODIROV

(1928-yilda tugʻilgan)

Zamonaviy oʻzbek nasrining rivojiga salmoqli hissa qoʻshgan otaxon adiblarimizdan biri Oʻzbekiston Xalq yozuvchisi Pirmqul Qodirovdir. U oʻz safdoshlari – Asqad Muxtor, Said Ahmad, Odil Yoqubovlar bilan birga ustoz adiblar – Gʻafur Gʻulom, Oybek, Abdulla Qahhorlar qalamini yerga tushirmay, milliy adabiyotimiz ravnaqini yana bir pogʻona yuksaltirgan taniqli yozuvchi hisoblanadi. Pirmqul Qodirov asarlarini nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari hududida, balki uzoq xorijiy mamlakatlarda ham sevib mutolaa qiladilar, oʻqib oʻrganadilar.

Pirmqul Qodirov 1928-yilning 25 oktabrida hozirgi Xoʻjand viloyati hududidagi Kengkoʻl qishlogʻida choʻpon oilasida dunyoga kelgan.

Kolxozlashtirish (1930–1933-y.) davrida koʻpchilik qatori uning otasi – oʻziga toʻq Qodir choʻpon ham quloq qilinadi. Bu voqea koʻp bolali oilaning kundalik tirikchiligigagina emas, farzandlarning keyingi taqdiriga ham ogʻir koʻlankalar solardi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida oʻspirin Pirmqul kolxozdagi ogʻir yumushlarni bajarishda kattalarga yelkadosh boʻldi, bir parcha qora non topib yeyish qanchalar qiyinligini oʻz koʻzlari bilan koʻrdi.

Qishloq maktabida yaxshi oʻqigani, ilm-u ijodga chanqoqligi tufayli izlab-izlab Toshkent davlat universitetini topib keldi va uning sharqshunoslik fakultetiga oʻqishga kirdi. 1951-yilda bu fakultetni muvaffaqiyatli bitirgach, bir muddat Til va adabiyot institutida ishladi. P. Qodirov

adabiy ijodning sir-u sinoatlarini chuqur o'rganish maqsadida Moskvadagi aspirantura o'qishiga kiradi va 1954-yilda ustoz Abdulla Qahhor asarlarining til va uslubiy jihatlari tadqiq etilgan nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi.

Talabalik paytidayoq Pirimqul Qodirov o'zining dastlabki kitobi – «Studentlar»ni e'lon qildi. Shundan keyin uning ko'plab hikoyalari, «Meros», «Erk», «Qadrim», «Yayra institutga kirmoqchi», «Najot» singari qissalari, «Uch ildiz», «Qora ko'zlar», «Olmos kamar», «Yulduzli tunlar», «Avlodlar dovoni» nomli yirik romanlari millionlab o'quvchilarini topdi.

Pirimqul Qodirovning yuqorida sanalgan asarlari turli mavzularni, har xil kasb egalari hayotini badiiy aks ettiradi. Ularning birida paxtakorlar («Meros»), boshqasida ziyolilar («Uch ildiz»), yana birida neft konlarini izlovchilar («Qadrim») hayoti qalamga olingan bo'lsa-da, barchasida inson taqdiri, uning ruhiy dunyosi qatlamlari chuqur mushohada qilinadi.

Abdulla Qodiriy, Oybek singari adiblar boshlab bergan tarixiy mavzular talqini P. Qodirovni ham jiddiy izlanishlar sari rag'batlantirdi. U qariyb yigirma yillik umrini mana shu izlanishlarga bag'ishladi. Holbuki, sho'ro zamonida milliy tarix qatlariga nazar tashlash, uni xolis yoritish nihoyatda qaltis ish sanalar, yozuvchini yomonotliqqa chiqarish hech gap emas edi. P. Qodirovning dastlabki tarixiy asari – «Yulduzli tunlar» («Bobur») romani atrofida ham sho'ro mafkurachilari chakana vahima qo'zg'amadilar. Yozuvchini tarixga to'g'ri yondashuvni bilmaslikda, zolim podsholarni ulug'lashda, o'tmishni ideallashtirishda aybladilar, asarning ko'p joylarini qayta ishlashga majbur etmoqchi bo'ldilar. Buni qarangki, mana shu pastkashlikka rahbarlik qilgan yoki bosh qo'shgan ne-ne zamona zo'rlarini birov eslamaydi, agar eslasa ham tarixiy xotira jallodlari sifatida irganib tilga oladi. Pirimqul Qodirovni esa Yaratganning o'zi, u ulug'lagan ajdodlari ruhi qo'lladi. Mustaqillik yillari yozuvchi va uning asari qarshisida barcha eshiklar ochildi – adib asarlari o'nlab xorijiy tillarga tarjima qilinib, olamga yuz tutdi.

Bugun shuni to'la ishonch bilan aytish mumkinki, o'zbek adibi Pirimqul Qodirov shoh va shoir Bobur va uning bir-biriga o'xshamagan farzandlari taqdirini to'laqonli badiiy qayta yaratishda tom ma'nodagi tarixiy

vazifani ado etdi. Albatta, kelajakda Bobur to'g'risida, uning sulolasi vakillari haqida ko'plab badiiy va ilmiy asarlar yaratiladi. Ularning dunyoga kelishida esa kelajak mualliflariga Pirimqul Qodirov tajribasi samarali xizmat qilishi shak-shubhasizdir.

NIZOMNING TANTILIGI

(«Avlodlar dovoni» romanidan parcha)

«Avlodlar dovoni» romanining asosiy voqealari buyuk sarkarda Mirzo Bobur vafotidan so'ng, u yangidan tashkil etgan Hind mamlakatida yuz beradi. Ko'p hukmdorlar bilan bo'lgani singari Boburdan keyin ham turli shajaralar vakillari bo'lmish shahzodalar o'rtasida toj-taxt dardidagi kurash alanga oldi. Bobur Mirzoning suyukli farzandi, valiahdi Humoyun Mirzo taqdirida ham bu kurashlar o'zining qonli izini qoldirdi. Jumladan, aqlli va makkor Sherxon bilan bo'lib o'tgan olishuvlar boburiylar sulolasi taqdiriga jiddiy havf solar edi.

Romanga kiritilgan to'qima obrazlardan biri Nizom Hamida ismli go'zal qizni sevadi. Qiz ham o'z navbatida bu qayiqchi yigitga ko'ngil beradi. Shunisi qiziqki, Humoyun Mirzo ham Hamidabonu qo'zalligiga maftun bo'lib yurardi. Albattaki, bu ishqiy musobaqada «imtiyoz» ko'proq shahzoda tomonida edi. Taqdir taqazosini qarangki, Nizomning raqibi Humoyunning hayotini asrab qolish aynan uning o'ziga bog'liq bo'lib qoladi...

* * *

Humoyun oyoq qo'ygan yer o'pirilib tushib, tubsiz o'ngirga aylandi. U oyog'ini tortib olib, orqaga tisarildi. Qorayib turgan o'ngirning labida qandaydir daraxtning ildizi ko'rindi. Humoyun tubsiz jarga yiqilay deganda shu daraxtni ikki qo'llab tutib qoldi. Bir payt daraxt ham ildizi bilan sug'urilib chiqa boshladi. Humoyun jarga yiqilib tushishini sezganda qichqirib, bosinqirab uyg'ondi-yu: «Alhamdulillah, tush ekan» deb xiyol yengil tortdi. Lekin tashqarida dovul ko'tarilganini, tepasidagi chodimi shamol yiqitib ketgudek qattiq silkitayotganini sezdi, jala quyib, momaqaldiroq ustma-ust guldirayotganini eshitdi-da, yana yuragi hapriqib, o'rmidan turib ketdi.

Ganga bo'ylarida yomg'ir fasli boshlangan, havo iliq bo'lsa ham dim, hamma narsa namiqib ketgan. Xos chodir eshigiga osilgan kimxob parda Humoyunning qo'liga salqin va mayin tegdi. Uni bir tomonga surib tashqariga ko'z yugurtirdi.

Qorong'ida hech narsa ko'rinmaydi, faqat yashin chaqnaganda Ganganing oqish qirg'oqlariga toshib chiqqan oqish to'lqinlari tahdidli yarqirab ko'zga tashlanadi. Daraxtlar dovuldan yerga tekkuday egiladi, ularning qattiq shovullashi orasidan momaqaldiroqning qasr-qusuri xiyla past eshitaladi.

Humoyunning chodiri turgan balandlikdan Gangaga kelib qo'shiladigan yana bir daryo – Karamnasa ham ko'rinadi. Odatda suvi uncha ko'p bo'lmaydigan bu daryo yomg'ir fasli boshlangandan beri bo'tana sellarga to'lib, vahimali tusga kirgan. Qo'shindagi filbon va kemachi hindlar Karamnasa daryosidan juda qo'rqadilar, unga qo'l-oyoqlarini tekkizmaslikka tirishadilar. Hindlarning e'tiqodi bo'yicha, Karamnasaning suvi tekkan odam bir umr qilgan toat-ibodatidan ayrilib, kasofatning tagida qolib ketarmish. Shuning uchun taqvodor hindlar Karamnasaning narigi qirg'og'iga o'tmoqchi bo'lsalar, irim qiladilar – uning o'zidan emas, Gangaga quyilgan joyning naryog'idan kema bilan aylanib o'tadilar.

Bu hodisani bundan o'n yil oldin mana shu Karamnasa bo'yida otasi Bobur ham ko'rganini va o'z esdaliklarida yozib qoldirganini Humoyun biladi. Bunaqa irimlarga ishonmaydigan Bobur Mirzo hozir Humoyun turgan joyni qo'shinga qarorgoh qilib tanlab, bir hafta turgan va shu atrofdagi yovlarni yengib, Agraga g'alaba bilan qaytgan edi.

Shuning uchun Humoyun taqvodorlarning irimidan ko'ra otasining tajribasiga ko'proq tayandi. Uch tarafi daryo bilan to'silgan baland tepaliklar uni dushmanlaridan asraydigandek ko'rindi. Beklar ham «faqat qarorgohning janubi-sharq tomoniga soqchilar qo'yilsa, kechalari tinch uxlash mumkin...» deyishdi.

Lekin hozir yomg'ir chelaklab quyayotgan va dovul chodirlarni yirtgudek bo'layotgan paytda Humoyun tushida ko'rgan dahshatli voqeani esladi-yu, yashin yorug'ida yalt etib chaqnagan toshqin daryolar halqasi birdan vahmini keltirdi. Uch tomondan toshib chiqayotgan daryolar uni

to‘rtinchi tarafdin bostirib kelayotgan yovlarga tuzoq bo‘lib tutib beradigandek tuyuldi. Yo alhazhar! U nega o‘z oyog‘i bilan daryolar orasiga kirib qoldi. Otasi bu yerni qarorgoh qilgan paytlarda havo quruq, daryolarda suv oz, bu atrofda Sherxonday xatarli yov yo‘q edi-ku!

Yoshi o‘ttiz birga kirgan Humoyun o‘smirlik yillaridan beri ko‘p tahlikali janglarni ko‘rdi, turli-tuman yovlar bilan olishib, hali biror marta yengilgani yo‘q. Lekin Sherxonga kelganda uning shijoati ham, janglarda orttirgan tajribasi ham ish bermay qo‘yyapti. Vaqt o‘tgan sari Sherxonning qudrati ortib Humoyunning ishi orqaga ketayotganday bo‘lyapti.

Humoyun to‘shagi turgan joyga qaytib, qorong‘ida yostiqli paypaslab topdi. Yostiqa qayta bosh qo‘yar ekan, tashqarida xuruj qilayotgan shamol, jala va momaqaldiroq shovqini orasidan Sherxon uning ko‘ziga ko‘rinib ketganday bo‘ldi.

Qoshlari qalin, ko‘zlari ko‘kish, qirra burun, kalta qirqilgan soqoli va qayrilma mo‘ylovi o‘ziga juda yarashgan durkun gavdali Sherxonning qarashlarida burgutni eslatadigan bir ifoda bor.

...Humoyun barcha odamlari bilan Ganganing o‘ng qirg‘og‘iga o‘tguncha Sherxon askarlari qorasini ko‘rsatmadi. Humoyun Karamnasa va Ganga oralig‘idagi tepaliklarni qarorgoh qilib, qo‘shinini joylashtirgandan keyingina janubi-sharqdagi ochiq sahnda birdan Sherxonning qo‘shini paydo bo‘ldi. Bu orada yomg‘ir fasli boshlanib, daryolarda suv ko‘payib ketdi. Endi uch tomonlama daryolar halqasidan osonlikcha chiqib ketib bo‘lmaydi, to‘rtinchi tomonni esa yov lashkari bekitib oldi. Humoyun odamlarini hayotmamot jangiga shaylab, eng sara askarlarini, harbiy fillarini Sherxon turgan tomonga joylashtirdi va uning hujumini kutdi. Shu vaqtgacha mudom Humoyun hujumda edi. Endi u hujum qilish navbatini Sherxonga bergandek bo‘lib, bir hafta kutdi, bir oy, bir yarim oy kutdi. Ammo Sherxon hujum qilmadi. Chunki vaqt Sherxonning foydasiga ishlamoqda edi. Humoyun qarorgohida o‘n mingdan ortiq odamlarni va ulardan ikki barobar ko‘p otulovni boqish uchun g‘amlagan zahiralalar tugab bormoqda. Daryolar zaxidan va yomg‘ir faslining rutubatidan kasalga uchrab safdan chiqayotgan navkarlar soni esa tobora ko‘payib ketyapti. Atrofdan keladigan yordamning yo‘lini toshqin daryolar va Sherxon qo‘shini to‘sib turibdi.

Sherxon ikki oy deganda ham hujumga o'tmagach, Humoyun oraga odam qo'yib: «Bizdan ne tilagi bor, aytsin», dedi. Sherxon o'tgan kuni Humoyun qarorgohiga o'z elchisini yuborib, undan Chunor qal'asini va Bixar viloyatini so'radi. Bixar hozir himoyasiz qolgan, Humoyun o'z qo'shinini Agraga olib ketgach, bu viloyatni Sherxon yana ishg'ol qilishi shubhasiz. Ammo sharqiy viloyatlarning qulfi-kaliti bo'lgan Chunorni Sherxonga jangsiz topshirishni o'ylaganda Humoyunning butun vujudi zirqirab ketdi. Axir bu qal'ani olguncha olti oy jang qilib, ozmuncha talafot berildimi?

Humoyun Sherxon elchisiga aniq javob bermadi, o'ylashib, kengashib undan so'ng o'z qarorini maxsus odamlar orqali ma'lum qiladigan bo'ldi. Kechagi mashvaratda ko'pchilik beklar Chunorni Sherxonga qaytarib berishga qarshi chiqdilar. Shuncha azob tortib qo'lga kiritgan eng muhim joylari Chunor bo'lsa-yu, uni ham Sherxonga jangsiz topshirib ketsalar Agraga qaysi yuz bilan qaytishadi? Odamlar ularning ustidan kulishmaydimi?

– Nodonlar kulgisiga e'tibor bermasligimiz kerak, janoblar! – dedi Bayramxon. – Hozir vaziyat bizdan qurbon talab qilmoqda. Biz mana bu daryolar sirtmog'idan eson-omon chiqib, Agraga qaytsak, u yerdagi ixtiloflar bartaraf bo'lsa, keyin Chunorni yana qaytarib olishimiz hech gap emas!

Humoyun Bayramxonning bu fikriga qo'shilmadi, ko'pchilik beklar podshoning tarafini oldi.

Biroq hozir sharillab quyayotgan yomg'ir tagida, dovul ko'tarib ketgudek bo'layotgan chodirda uyqusizlikdan qiynalib, goh u yonboshiga, goh bu yonboshiga ag'darilar ekan, Bayramxon bilan ertalab yana bir gaplashgisi keldi. Azon palla podshoning xirgohiga¹ chaqirilgan Bayramxon eshik oldida ta'zim qilib yukundi. Humoyun unga o'ng yonidan joy ko'rsatdi. Bayramxonning o'siq qora soqoli va bug'doyrang yuziga tikilib:

– Bugun tuni bilan uxlay olmay to'lg'onib chiqdim, – dedi. – Yomon

¹ Xirgoh – qarorgoh.

tushlar... Siz aytgan qurbonlik... Chunor... bag‘rimdan bir parcha etni yulib olib g‘animga bergandek og‘ir... Mabodo biz Chunorni topshirsak, Sherxon qanoat qilarmikin? Bangola bilan Gaurni tinch qo‘yarmikin? Agar shu haqda bitim tuzsak, Sherxon so‘zida turarmikin?

– Hazratim, – dedi Bayramxon. – Agar faqirga vakolat bersangiz, Sherxonning oldida Qur‘onni qo‘yib so‘z olmog‘im mumkin. Axir u ham musulmon-ku!

– Sherxon Bangolaga tegmasa mayli. Chunorni beraylik. Bizdan vakil bo‘lib boring.

Humoyun o‘z qarorgohidagi eng nufuzli ulamolardan bo‘lgan va Sherxon bir vaqtlar nazr-niyozlar berib fotahasini olgan Xo‘ja Husaynni Bayramxonning yoniga qo‘shib elchilikka yubordi.

Tushga yaqin yomg‘ir tindi-yu, bulutlar orasidan ko‘m-ko‘k osmon va issiq yoz oftobi ko‘rindi. Ganga hali ham uzoqlarda yog‘ayotgan jala suvlariga to‘lib, loyqalanib oqayotgan bo‘lsa-da, yer asta-sekin quriy boshladi.

Bayramxon Ganga janubidagi keng tekislik orqali Sherxonning qarorgohi tomon otliq borar ekan, yomg‘irdan keyingi havoda bo‘liq o‘t-o‘lanlar va rang-barang dala gullari qanchalik qulf urib yashnab turganini, osmon to‘la qushlar naqadar yayrab uchayotganini ko‘rdi-yu, o‘zicha bir xo‘rsinib qo‘ydi. Hind yeri yoz issiqlariga qo‘shilib keladigan iliq yomg‘irlarga to‘yib, hamma tirik jonni, barcha giyohlarni birvarakayiga uyg‘otadigan va juda tez rivojga kiritadigan mana shu pashkol¹ faslida Bayramxon uydami, bog‘dami tinchgina o‘ltirib kitob o‘qishni va she‘r yozishni qo‘msaydi. Hind elining azaliy odati bejiz emaski, yomg‘ir faslida sayohatga chiqilmaydi. Chunki odam ham, ot-ulov ham bu faslda qayoqqa qadam qo‘ymasini, rivojga kirgan birorta tirik jonni yoki giyohni bosib oladi. Tirik jonni bosib nobud qilgan odamning haji qanday qabul bo‘lsin? O‘n minglab qo‘shin bilan harbiy yurishga chiqqan sarkardalarning shunday faslda urush boshlashini qanday baholash mumkin? Sherxon ham ko‘p kitob o‘qigan bilimli odam. Bayramxon unga tug‘ilib o‘sgan mamlaka-

¹ Pashkol – yomg‘ir fasli.

ting pashkol fasliga oid udumlarini albatta eslatadi, hozir urushadigan payt emasligini, sulh tuzishi kerakligini boshqa dalillar bilan ham isbot etadi...

Sherxon shomiyona¹ to'ridagi baland shahnishinda² chordana qurib sokin o'tiribdi. Kiyimlari bezaksiz, odmi ipakdan, kichkina sallasiga ham gavhar yoki boshqa toshlar qadalmagan, ammo burgutnikiga o'xshah ko'z qarashlari va mag'rur o'ltirishi Bayramxonda hayiqishga o'xshash bir tuyg'u uyg'otdi. Bayramxon unga ta'zim qilib, Humoyunning muhri bosilgan maktubni topshirdi. Sherxon maktubni o'qib bo'lguncha elchilar uning ishorasi bilan pastdagi kimxob ko'rpachalarga cho'kka tushib o'ltirdilar. Sherxon o'ltirgan shahnishin bir gazcha balandda edi. U Bayramxonga yuqoridan turib kinoyali so'z qotdi:

– Podshoyingiz Chunor evaziga Bangolani talab qilmoqda-ku!

– Davlatpanoh, – dedi Bayramxon qo'lini ko'ksiga qo'yarkan. – Bangola to'qqiz yildan beri Humoyun hazratlarining qalamravidadir.

– Ammo bizning afg'on qavmlarimiz Bangolada yuz yillardan beri yashab kelmoqda. Ular bizga qarindosh, ko'plari bilan quda-anda bo'lganmiz. Endi sizlarni deb orani uzaylikmi?

– Davlatpanoh, qarindoshlik, quda-andachilik bermalol davom eta-versin. Faqat Bangolaga bu yilgidek qo'shin tortilmasa, xazinalar talanmasa, qon to'kilmasa bas...

– Sizlar Chunorni olti oy qamal qilib ozmuncha qon to'kdilaringizmi? Bangolada biz ana shuning qasdini oldik!

– Biz bugun qasoskorlik haqida emas, sulh haqida so'zlashgani keldik, davlatpanoh. Ayniqsa hozir, pashkol kunlarida faqat inson emas, butun tabiat ham urushsiz tinch yashamoqqa alohida ehtiyoj sezadir. Siz ma'rifatli sarkardasiz, «Chunor berilsa sulh tuzgaymiz» deb odam yuborgan erkansiz. Shunga javoban Humoyun hazratlari bizni vakil qilib jo'natdilar.

Sherxon Humoyunning maktubiga yana bir ko'z yugurtirdi-yu:

– Behuda qon to'kilishini biz ham istamaymiz! – dedi. – Chunor bizga berilsa, podshohingiz qo'ygan shart qabul qilingay.

¹ **Shomiyona** – tunashga mo'ljallangan chodir.

² **Shahnishin** – maxsus o'rindiқ.

Bu gaplar davomida Xo'ja Husayn qo'ynidan uncha katta bo'lmagan zarhal muqovali bir kitob oldi. Bu – mo'jaz harflar bilan ko'chirilgan Qur'on edi. Xo'ja Husayn uni ko'ziga surtib o'pdi-yu, o'rmidan turib Sherxonga uzatdi.

– Davlatpanoh, siz aytgan dono gaplarga mana shu Kalomi Olloh guvoh bo'lsin, oling!

Sherxon birdan sergaklandi:

– Taqsir, siz bu... Qur'onni o'rtaga qo'yib bizga qasam ichirmoqchimisiz? – dedi.

Sherxonning ko'zlari tahdidli chaqnaganidan qo'rqib ketgan Xo'ja Husayn:

– Zinhor bunday niyat xayolimga kelgan emas, davlatpanoh! – dedi.

– Sizga nek maqsad yo'lida Qur'oni sharif madadkor bo'lsin deb... savg'o tarzida olib keldik.

– Unday bo'lsa biz savg'oni qabul qilg'aymiz! – Sherxon Qur'onni Xo'janing qo'lidan olib, naridan-beri ko'ziga surtgan bo'ldi-da, mulozimiga uzatdi: – Bu sharif kitobni bizning masjidimizga eltib, o'ziga munosib mehrobga qo'ying.

Bundan keyingi muzokara Chunorning Sherxonga qay tartibda topshirilishi haqida ketdi. Humoyun qo'shini Karamnasa daryosidan va Banorasdan nariga o'tguncha Sherxon hozirgi qarorgohidan qo'zg'almay turishga so'z berdi.

Bayramxon muzokarani tugatib ketayotganda:

– Davlatpanoh, siz-u biz yer-u osmon guvohligida sulh tuzib, unga sodiq qolish majburiyatini oldik, – dedi. – Podshohimiz huzuriga shu xulosa bilan qaytsak rozimisiz?

Sherxonning ko'zlari Bayramxonga «sen kim bo'libsanki, mendan sodiqlik talab qilursen?» – degandek sovuq istehzo bilan tikildi, ammo uning istar-istamas jilmaygan lablaridan:

– Xulosangiz ma'qul, – degan so'zlar eshitildi.

* * *

Elchilar ketgach, Sherxon kecha Agradan kelgan Alvaro Pakavirani o'z huzuriga chaqirtirdi. Pakavira, yo'llarda Humoyun qo'ygan odamlarning qo'liga tushib qolmaslik uchun, hind savdogari kiyimida kelgan

edi. Sherxon uni shahnishindan tushib qarshi oldi, o'ziga yaqin o'tqazib, past tovush bilan so'radi:

– Agradan Humoyunga yordam kelmasligi aniqmi?

– Aniq, davlatpanoh, Komron sizga qarshi chiqmagay. U akasining siz bilan jang qilib mag'lub bo'lishini kutmoqda. Shundan so'ng u toj-u taxtni egallash umidida.

– Bu bizga ma'lum. Hindol-chi?

– Bunisi Humoyunga sadoqat saqlamoqchi ekan. Ammo siz yuborgan maxfiy maktub yordamida biz uning sadoqatini adovatga aylantirdik.

– Qanday qilib? – ishonqiramay so'radi Sherxon.

Shundan keyin Pakavira voqeaning tafsilotlarini so'zlay boshladi. Humoyun Agraga kutvol¹ qilib tayinlagan Amir Bahlul poraga sotilmaydigan, podshohga sadoqat bilan xizmat qiladigan vijdonli odam edi. Sherxonning Agradagi xufiyalari masjidi jomeda Said Xalil bilan aloqa o'rnatib, Bahlulni qanday daf qilishning rejasini tuzdilar...

Yarim tunda Mirzo Hindol va Zohidbek o'z navkarlari bilan Amir Bahlul uxlab yotgan hovliga bostirib bordilar. Unga Sherxon yozgan maktubni va taxta ortilgan aravalar tagiga yashirilgan qurollarni ko'rsatdilar.

Amir Bahlul bu qadar ustalik bilan to'qilgan bo'htondan qutulishning ilojini topolmadi.

– Tuhmat balosidan meni faqat Humoyun hazratlari qutqargaylar! – dedi-yu, Agradan qochib chiqdi. Bu qochish ham Hindolning nazarida Bahlulning xoinligini isbot qilganday bo'ldi. U yuborgan quvg'inchilar Bahlulni tungi otishmada o'ldirdilar va boshini kesib qaytdilar...

Bir zarba bilan ham Humoyunning eng sadoqatli kutvoli mahv bo'lgani, ham Hindol bilan akasining do'stligi adovatga aylangani Sherxonga alohida zavq va mamnunlik baxsh etdi. U Alvaro Pakaviraga shukuhli nazar tashlab:

– Balli, siz bizga yaxshi xizmat qilibsiz, – dedi. – Orzuyimiz amalga oshib, Hindistonda ulug' davlat tuzsak, sizga zo'r inoyatlar qilgaymiz!

Sherxon xazinachini chaqirtirdi. U tadbirkor xufiyalardan oltinni ayamas edi.

¹ **Kutvol** – qal'a boshlig'i, komendant.

– Janob Pakaviraga ikki man oltin berilsin!

Pakavira quvonib ketdi: ikki man oltin hazilakam boyluk emas, bunga yangi kema sotib olish mumkin! U Sherxonga sidqidildan ta'zim qilaqila, orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

Sherxon shomiyonada yolg'iz qo'lib, qolini peshonasiga qo'yganча o'yga toldi. Humoyunga Agradan yordam kelmasligi endi aniq. Sherxonga esa hatto uzoq Farangistondan kelgan Pakavira ham shunchalik ko'mak berdi. Karamnasa daryosining kasofatidan qo'rqqan kemachi va eshkakchi hindlarning besh-oltitasi tungi shamol – to'polonda Ganga orqali suzib kelib, Sherxon ixtiyoriga o'tdi. Humoyunning ahvoli tang bo'lgani uchun ham bugungi vakillarini yuborgan. Agar Sherxon lashkarboshilarini chaqirib, «Chunorni jangsiz ishg'ol qilamiz, shu shart bilan sulh tuzdim» desa, ular albatta xursand bo'lishadi, lekin bu xursandchilik uzoq davom etmaydi. Humoyun ertaga Sherxonning sirtmog'idan omon qutulsa, Agraga borib o'zini tez o'nglaydi. U kechirimli yigit, ukalari bilan yarashadi. Yuz amri issiq. Sherxonday xatarli yov qarshisida aka-ukalar birlashishi mumkin. Boburiylar ittifoq bo'lsa, ularga hech kim bas kelolmasligini Sherxon Dalaxruada va Gujaratda Mahmudxon va Bahodirshohlarning mag'lubiyatida ko'rgan. Sherxonning shuncha vaqt chekinib, xazinasini tog'dagi Rostaslarга bekitib yurgani yetar! Agar Sherxon boshiga yangidan balo orttirishni istamasa fursatni boy bermasligi va Humoyunni daryolar sirtmog'idan tirik chiqarmasligi kerak!

Sherxon o'yini shu tarzda yakunladi-yu, lashkarboshilardan to'rt kishini mashvaratga chaqirdi. Sherxonning o'g'illari Qutbxon bilan Jalolxon o'ng tomonga o'tirishdi. Rajputlar sarkardasi Bikramadit Gaur va Sherxonning lashkarboshisi Havasxon chap tomondan joy olishdi. Sherxon shomiyonadagi mulozimlarni chiqarib yuborib, eshikning pardasini tushirtirdi. Qandilda lipillab turgan shamlarning yorug'ida o'g'illari va sarkardalariga bir-bir qarab oldi-da:

– Mening dunyoda eng ishongan odamlarim – to'rtovlaring, senlar, – dedi. – Biz vatanimizni kelgindilardan ozod qilib, mustaqil davlat tuzmoqchimiz. Bu orzu bizlarni roja Bikramadit Gaur bilan og'a-ini qildi. Ulug'

maqsad yo'lida biz din-u millat ayirmaymiz. Chunki afg'onlar ham rajputlar kabi asli ariy qabilalaridan tarqalgan. Biz hammamiz Hindistonda tug'ilib o'sdik, ota-bobolarimizning qabri ham shu zaminda. Oldin kelgindilar zo'r keldi, biz chekinib yurdik. Ammo bizning ham omadimiz keladigan paytni sabr-toqat bilan kutdik. O'sha payt mana endi keldi! Dushmanning ahvoli tang, Chunorni bizga jangsiz berishga tayyor. Elchilar sulh taklif qildi. Men ularni cho'chitmaslik uchun sulhga rozi bo'ldim. Endi bizning hujumimizni kutmagay, daryolardan tezroq o'tib ketishga shoshilgay.

– Dushmanni g'aflatda qoldirib bosadigan payt kelibdi-ku! – dedi Havasxon.

Qutbxon bu gapni yoqtirmay, Havasxonga o'qrayib qaradi. U ikki yil Humoyun askarlari safida xizmat qilib, uning tantiliklarini ko'p ko'rgan.

– Sulhni harbiy hiylaga aylantirib bostirib borish... mardlikka kirmikin? – dedi Qutbxon otasiga yuzlanib.

– Vatanni kelgindilardan ozod qilish – dunyodagi eng katta mardlikdir! – dedi Sherxon o'g'liga tik qarab. – Bobur bilan fotihlar Panipatda qirq ming kishini o'ldirdilar. Bajur qo'rg'onida Boburning farmoni bilan uch ming kishi qatli om qilinganda ularning kallasidan minora yasalmishdir! Humoyun Panipatda ikki yuz kishini asir olganda Bobur siyosat uchun shu asirlardan yuztasini to'fanglardan otib o'ldirishni buyurmishdir. U paytda bizning odamlar to'fang nimaligini bilmas edi. Shuning uchun to'fang qarshisida bexavotir turganlarni fotihlar shafqatsizlarcha otib yiqiturlar. Ana undan so'ng: «Fotihlarda ilohiy qurol bor emish, hind xudosi Shivaga o'xshab ko'zidan olov purkab, uzoqdagi odamni o'ldira olarmish!» degan ovozarlar tarqalmishdir. Xalqni qo'rqitib bo'ysundirishga qaratilgan bu ovozarlar harbiy hiyla emasmidi?

– Ha, temuriylar bizni zo'ravonlik bilan ham qirgan, hiyla-yu nayrang bilan ham qirgan! – dedi Bikramadit Gaur. – Endi shu kecha ularga qasos qaytmog'i kerak!

– Bajurda qonxo'rlarcha qatli om qilinganlar uchun ham, Panipatda vahshiylarcha otilgan harbiy asirlar uchun ham biz qasd olmog'imiz kerak! – qat'iy qo'shimcha qildi Sherxon.

Qutbxon bu asosli gaplarga qo'shilmay iloji qolmadi.

– Yarim tunda sekin yo‘lga chiqamiz, – dedi Sherxon. Sahar palla tong yorisha boshlaganda bosmoq lozim.

Ular kim markazda, kim o‘ng qanotda, kim chap qanotda hujum qilishining aniq rejasini tuzishga kirishdilar.

Boshqa kunlar Sherxonning qo‘qqis hujum qilishini kutib sergak yotadigan Humoyun kechagi sulh xabarini eshitgandan keyin xotirjam bo‘lib, juda qattiq uyquga ketgan edi. Tong qorong‘isida qarorgohning sharqi-janubidan boshlangan va to‘rt tarafga yashin tezligida yoyilgan jang to‘poloni, fillar na‘rasi, odamlarning qiy-chuvi, tig‘larning shaq-shuqi, to‘fanglarning gumburlashi uni mast uyqudan uyg‘otganda, «yana yomon tush ko‘rdim shekilli», deb o‘yladi. Lekin eshikdan yugurib kirgan Javhar oftobachining qo‘rqinchli vajohati:

– Hazratim, yog‘iy bosdi! – degan so‘zlari uning boshiga quyilgan sovuq suvday vujudini seskantirdi.

U sakrab turib, etigiga paytavasiz oyoq tiqdi. Javhar oftobachi qaltirab tutgan to‘nni kiyib, qilichini shosha-pisha taqdi. Sadoqatli oftobachi uning ko‘kragiga po‘lat choroyna, yelkasi va qo‘liga boshqa zirhli narsalar ham kiydirmoqchi edi, lekin bunga Humoyunning sabri chidamadi. U dubulg‘ani yo‘lakay boshiga kiydi-da, chodirdan tashqariga otildi. Yomg‘ir sevalab turgan tong g‘ira-shirasida qarorgohning janub chetidagi chodirlarni yiqitib, odamlarni bosib-yanchib, na‘ra tortib kelayotgan yuzlab harbiy fillar Humoyunning ko‘ziga tashlandi.

– Menga ot keltiring! – qichqirdi u. – Bayramxon qani? Ustod Xonqu-li, zambaraklarni o‘qlang!

Humoyunga og‘ir zirhli kejim yopilgan saman otni keltirdilar. Uzangi tezda oyog‘iga ilinmagach, otning bo‘yniga qo‘lini solib, egarga sakrab mindi. Shu payt Bayramxon yigirmatacha navkar bilan ot choptirib keldi.

– Sherxon sulhni buzib nomardlik qildi! Hazratimni o‘rtaga olinglar! – buyurdi Bayramxon navkarlariga.

Qarorgohning yov kelgan janub chetidagi yuzlab navkarlar saflanishga ulgurolmay, tum-taraqay bo‘lib qocha boshladi. Selday bostirib kelayotgan yov otliqlari ularni daryolar tomonga surib ketdi.

– Bizning harbiy fillar qani? – qichqirdi Humoyun. – Zambaraklar nechun jim? Xonqulibek!

– Hamma g‘aflatda qoldi! – dedi Bayramxon, so‘ng to‘pxona va filxonalarga ot choptirib ketdi.

Humoyunning ko‘zi saropardaga tushdi. Uning ichkarisidan bolalarning qo‘rqib yig‘lagan tovushlari eshitildi. Ayollarning ahvoli nima bo‘ladi? Olti yashar qizchasi Aqiqa begim, xotinlari Beka begim, Chand bibi hammasi o‘sha ulkan saroparda ortidagi chodirlarda.

Humoyun otning boshini saroparda tomonga burdi. Qo‘riqchi navkarlar uni uch tomondan o‘rab ola boshladi. Tepadan tushayotgan yovning harbiy fillaridan o‘ttiz-qirqtasi saroparda tomonga chopib kelayotganini ko‘rdi. Shu payt ularning qarshisidan gumburlagan to‘fanglar otildi. Borut tutuni orasidan yaralangan fillarning asabiy bo‘kirigi quloqqa chalindi. Qarorgoh xiyla katta maydonni egallagan, unga Humoyunning o‘n ikki ming qo‘shini, shunga yarasha ot-ulov va to‘pxonalari joylashgan. Sherxonning otliqlari va fillari janub tomondan yorib kiringuncha markazda va shimoli-sharqda Humoyun askarlarining uch-to‘rt mingi otlanib, qurollanib, dushmaning yo‘lini to‘sisib chiqdi. Xos navkarlar otgan to‘fang o‘qlari yov fillariga va otliqlariga borib tegayotganini ko‘rgan himoyachilar yov otliqlari bilan astoydil olisha boshladilar. Qilichlar va nayzalar bir-biriga urilib, to‘da-to‘da otliqlar uymalashib, olishib qoldi. Markazda ikki tomonning harbiy fillari bir-birlarini tepib, tishlarini tishlariga qarsillatib urar, fil ustidagi kajavalarda o‘ltirgan merganlar yov filining ko‘zini yoki filbonning ko‘kragini mo‘ljalga olib yoydan o‘q otishardi.

* * *

Ammo qarorgohning ikki chetida qarshilik ko‘rsatuvchilar safi juda siyrak. Selday yopirilib kelayotgan Sherxon otliqlari yalangoyoq, yalangbosh qochib ketayotganlarni quvib yetib, qilich bilan chopib tashlamoqda. Daryo qirg‘og‘iga qochib borganlar kemalar va qayiq'larga tashlanyapti. Chap qanotni ezib-yanchib o‘tgan rajput otliqlari markazdagi Sherxon askarlariga yordamga yetib keldilar. Humoyunning harbiy fillari Sherxonnikidan oz, zambaraklarning chaqmoq bilan yondiriladigan pitalari rutubatli zax havoda nam tortib qolgani uchun Xonqulining sarosima harakatlari natija bermadi. Zambaraklar o‘q otgunlaricha bo‘lmay, dushman

fillari to'pxonalar ustiga bostirib keldi. O'qlangan, ammo otib ulgurilmagan, piltasi yonmay tutab turgan zambarak quvurlarni xartumlari bilan ko'tarib loyga otdilar. To'pchilarning qochib ulgurolmaganlarini kaja-vadagi merganlarning o'qi va ortdan kelgan otliqlarning qilich-u nayzalari nobud qildi.

Naryoqdan otliq yetib kelgan Humoyun qarorgoh markazi ham yov qo'liga o'tganini, faqat daryo bo'yi hali xatarsiz ekanini ko'rdi:

– Ayollar bilan bolalar daryo bo'yiga olib o'tilsin! – deb qichqirdi. – Bayramxon, siz markazdan kelayotgan yovning yo'lini to'sing! Mavludbek, xaylxonani¹ kemaga eltib joylang!

Mavludbek boshlab chiqqan Beka begim, Aqiqa, Chand bibi, Bayramxonning o'ttiz besh yoshlardagi turkman xotini, yana bir qancha kanizlar, xizmatkor ayollar shosha-pisha daryo tomonga yo'l oldilar. Biroq ular qirg'oqqa yetib borguncha daryo chetidagi kema va qayiqlar oldinroq qochib borgan bek-u navkarlarga to'lib qolgan edi. Vahima ichida tartib-intizomni unutgan, jonidan boshqa narsa ko'ziga ko'rinmay qolgan odamlar birdan-bir najot mana shu kema va qayiqlar ekanini allaqachon sezishgan edi. Kemachi va eshkakchilar betartib qochib kelganlarni podshoning ruxsatisiz kemaga kiritmaslikka urinib qarshilik qildilar. Qilich va xanjarlar ishga tushdi. Lekin qochqin olomon benihoya ko'payib ketdi, qarshilik qilgan kemachilarni surib, itqitib o'tdi. «Gunjoyish» kemasining eshkakchilaridan biri bo'lgan Nizom bu ur-surda o'zini chetga olib zo'rg'a omon qoldi. Zo'rlik bilan tortib olingan kema va qayiqlar saropardadan olib chiqilgan ayollar va bolalarning yetib kelishiga qarab o'tirmay narigi qirg'oqqa tomon yo'l oldi.

* * *

Qayiqlarni ham boshqa qochqin navkarlar va beklar tortib olishdi. Nizom qirg'oq chetidagi omborda meshlar borligini esladi. Chopib kelib kattaroq bir meshni tanladi-da, qaytib chiqdi. Bu orada dushman otliqlaridan uch-to'rt yuztasi Mavludbek boshlab kelayotgan ayollar va bolalarning yo'lini to'sib chiqayotganini ko'rdi. Nizom yov otlarining oyog'i tagida qolib ketishdan qo'rqib, qirg'oq bo'ylab Humoyun tomonga qochdi.

¹ **Xaylxona** – podshoh va a'yonlarning xotin, bola-chaqalari.

Bayramxonning otliqlari Humoyunni o‘rab olib, tepalikning narigi tomonidan daryo qirg‘og‘iga qarab chekinmoqda edi. Dushman otliqlari podshohning xos navkarlari safini yorib o‘tolmadi. Shunda yovning harbiy fillaridan uch-to‘rttasi himoyachilar halqasiga tashlandi. Xos navkarlarda to‘fanglar bor edi. Fillardan ikkitasi to‘fanglardan ustma-ust otilgan to‘ng‘iz o‘qlarga uchrab yiqildi. Ammo sag‘risiga o‘q tekkan, yara og‘rig‘idan battar quturib ketgan uchinchi fil to‘fang otayotgan navkarlarga bo‘kirib hamla qildi. Otlardan birini qattiq tepib, chavandozi bilan ag‘anatib yubordi. Humoyun himoyasida turgan ikkinchi otliq navkarni xartumi bilan belidan o‘rab olib egardan dast ko‘tardi-yu, big‘illatib qisib, yerga chalpak qilib urdi va tanasini oyog‘i bilan bosib-yanchib o‘tdi. Darg‘azab fil qarshisida himoyasiz qolgan Humoyun qilichini qinidan sug‘urdi. Fil unga xartumini cho‘zib yaqin kelganda Humoyun qora ilonday harakatchan bu baloni kesib tashlamoqchi bo‘lib qilich sermadi. Ammo xartum qilichdan chaqqonroq edi. Tig‘ borguncha fil o‘z xartumini yo‘g‘on oq tishlarining panasiga olishga ulgurdi. Humoyun zarb bilan urgan qilich filning yo‘g‘on so‘yloq tishlari orasidagi qalin terisini kesib o‘tdi-da, teri bilan tish suyagi orasiga kirib ilinib qoldi. Humoyun qilichni sug‘urib olguncha bo‘lmay o‘ng yelkasiga yoy o‘qi jazillab sanchildi. Fil ustidagi kajavada o‘tirgan merganlar uning ko‘kragini mo‘ljalga olgan, lekin oti tinimsiz harakatda bo‘lgani uchun o‘q yelkasiga tekkan edi. Shoshilinchda zirhli kiyim kiymagani uchun Humoyun endi afsus qildi. Og‘riqdan jonsizlangan o‘ng qo‘li qilichni sug‘urib olishga yaramadi. Fil bir silkinganda oltin qilich dastasi Humoyunning qo‘lidan chiqib ketdi. Yo‘g‘on qora xartum qaytadan uning bo‘yniga cho‘zilib kela boshladi. Humoyun chap qo‘li bilan otning jilovini keskin siltab chetga burdi-yu, yol ustiga engashdi. Shu payt uning yonginasida yana to‘fang gumburladi. Fil Humoyun bilan andarmon bo‘lgan paytda to‘fangni qayta o‘qlashga ulgurgan xos navkarlardan biri filning peshonasini mo‘ljalga olib tepkini bosgan edi. Tishiga oltin qilich ilinib qolgan, sag‘risidan va xartumi ustidan qon oqayotgan ulkan fil endi peshonasini qoraytirib teshib kirgan o‘qdan gandarab orqaga tisarildi-da, gursillab yiqildi.

Orqadan yana yov otliqlari va fillari bostirib kelmoqda edi. Bayramxonning ovozi keldi:

– Hazratimni daryo bo‘yiga olib ketinglar! Biz yog‘iyini o‘tkazmaymiz! La‘l Chand, filingiz bilan himoyada turing!

Humoyunning yelkasiga qadalib turgan uzun yoy o‘qi ot yo‘rtganda qattiq silkinar va jazillatib og‘ritar edi. Humoyun himoyachi navkarlar qurshovida ot choptirib borar ekan, yana yol ustiga engashib, chap qo‘lini o‘ng yelkasiga cho‘zdi-yu, qadalib turgan yoy o‘qini bir harakat bilan sug‘urib tashladi. Shu payt og‘riqdan ingrab, otning yoliga yuzini bosdi. Javhar oftobachi o‘ng tomondan otini jips keltirib, uni qo‘ltig‘idan suyadi. Yelkadan oqayotgan qonni to‘xtatish uchun yaralangan joyni yumshoq salla matosi bilan besh-olti marta o‘rab, qattiq chirmadi-yu, qo‘ltiq tagidan tang‘ib bog‘lab qo‘ydi.

Bayramxon va La‘l Chand markazdan o‘tib kelgan yovning yo‘lini to‘sgan bo‘lsa ham, ikki qanotdan yorib kirgan boshqa yuzlab otliqlar Humoyunga qarab yopirilib kelmoqda edi. Humoyun orqaga o‘girilib qarab, Bayramxon La‘l Chand boshliq fillar yordamida himoyada turganini ko‘rdi.

Qirg‘oqda birorta kema ham, qayiq ham yo‘q. Odam to‘la bir kema qirg‘oqqa yetay deb qolgan. «Mavludbek bolalar bilan ayollarni o‘sha kemada olib chiqib ketgandir», degan o‘y Humoyunga ozgina tasalli bergandek bo‘ldi. O‘ng qanotdan otilib chiqqan yov otliqlari yuzdan ortiq. Humoyunni himoya qilib qirg‘oqqacha kelgan navkarlar esa o‘ttiz-qirq-tagina xolos. Qurshovda qolib asir tushish o‘limdan ham dahshatliroq. Humoyun qilich dastasini qidirib belini paypasladi. Ammo bo‘sh yengil qin salanglab osilib turganini ko‘rdi va boyagi yarador filni esladi.

Chug‘urchuqday behisob dushman otliqlari tobora yaqinlashib kelayotgani Nizomni ham sarosimaga soldi. U qo‘lidagi meshga havo puflab, uni tarang qilib shishirdi-da, og‘zini mahkamlab bog‘ladi. Mesh yordamida narigi qirg‘oqqa suzib o‘tish uchun suvga qarab chopdi.

Bo‘tana bo‘lib to‘lib oqayotgan toshqin daryo Humoyunning vahmini keltirdi. Lekin yaqin kelib qolgan dushmanlarga asir tushish undan ham dahshatliroq edi. Tagidagi saman – zo‘r ot, Humoyun suzishni biladi. Xos navkarlar yov ilg‘orlarining yo‘lini to‘sib, ular bilan qilich chopisha boshlagan paytda Humoyun Nizom suvga tushgan joydan sal nariroqda otni

qirg‘oqdan daryoga sakratdi. Suv avval otning sonigacha keldi, keyin qor-niga chiqdi. Humoyun egardan tutib sog‘ qo‘li bilan samanning bo‘ynidan quchoqlab oldi. O‘ng qo‘li butunlay ishdan chiqqan, sal qimirlatsa yelkada-gi yara og‘rig‘iga chidab bo‘lmaydi. Daryo birdan chuqurlashib, otning oyog‘i yerga tegmay qoldi. Ot ustiga yopilgan og‘ir zirhli kejim va uning bo‘yniga osilib olgan yarador Humoyunning vazni samanni cho‘ktirib yubora boshladi. Ot pishqirib tumshug‘ini suvdan chiqardi-yu, birpas suzib ko‘rdi, ammo yana suvga botib ketdi. Humoyun otning bo‘ynini qo‘yib yuborib bir qo‘llab suzib ketdi. Ammo kutilmagan girdoblar uni pastga tortib ketayotganday bo‘ldi-yu, yana cho‘kayotgan otning yoliga yopishdi.

Bu orada Humoyun oqim kuchi bilan Nizomga yaqin borib qoldi. Meshga ko‘kragini berib qiyalab suzayotgan Nizom esa podshohga bir joyi tegib ketishidan cho‘chib o‘zini nariroq oldi.

Axir daryolar oralig‘idagi bu bexosiyat joyni qarorgoh qilishga Nizom ham boshqa hind suvchilari qatori qarshi edi. Lekin Humoyun ularning ogohlantirishiga quloq solmadi, yana xushomadgo‘y beklarning gapiga kirdi, chodirda may ichib yotib fursatni boy berdi. Bugun ko‘p qatori Nizom ham shu xatolarning kasofatiga qoldi. Bas, endi Nizom bu podshoga yaqin bormaydi. Laganbardor beklari Humoyunni «yengilmas botir» deb maqtashadi. Qani Karamnasa ichida shu botirligini bir ko‘rsatsin! Boya daryoga ot sakratib kirganiga qaraganda hash-pash demay narigi qirg‘oqqa suzib o‘tsa ajabmas.

Bu kinoyali o‘ylar asnosida suv tagidagi allaqanday o‘pqon girdobi Nizomni oyoqlaridan pastga torta boshladi. U ko‘kragini qo‘ygan mesh ham kuchli girdobga tushib aylanib ketdi. To‘satdan Nizomning nafasi qaytib, ko‘zi tinganday bo‘ldi.

Hind kemachilarining Karamnasadan hayiqib, uni chetlab o‘tishlari bejiz emas edi. Bu daryoning tagida chuqur o‘pqonlar ko‘p, suv girdobi ularga quyilib tushayotganda odamni ham pastga tortib ketar edi. Yomg‘ir faslida tog‘ ichidagi simob konlaridan Karamnasa daryosiga ko‘ngilni aynitadigan, hatto odamni es-hushidan ketkazadigan badbo‘y, zaharli narsalar oqib kelardi.

Zaharli hovurdan ko‘ngli ayniy boshlagan Nizom mesh ustiga yuztu-

ban yotib oldi-yu, qo‘l-oyoqlarini eshkak o‘rnida ishlatib, talpina-talpina girdob komidan chiqdi. Bir payt shunday yonginasida suvga cho‘kayotgan Humoyunni ko‘rdi. Humoyun qo‘l-oyoqlarini kerib yuqoriga bor kuchi bilan talpindi-da, boshini bir lahza yuzaga chiqardi, yutoqib nafas olarkan:

– Kim bor? Qutqaring! – deyishga ulgurdi-yu, yana loyqa girdoblar orasiga cho‘kib keta boshladi.

Nizom uning chindan g‘arq bo‘layotganiga endi ishondi va beixtiyor meshni unga yaqin olib bordi. Humoyun yana bir talpinib suv yuziga chiqqanda Nizom uni yelkasidan tutib oldi-da, mesh ustiga ikki qo‘llab tortib chiqardi.

Ho‘kizning terisidan qilingan mesh kattagina bo‘lsa ham, ikki kishining og‘irligini ko‘tarolmay, suvga botib ketdi. Buni ko‘rgan Nizom qo‘lini mesh chetidan va Humoyunning yelkasidan olmagan holda tanasining butun og‘irligini suvga tashladi. Shunda mesh suv yuziga yana qalqib chiqdi. Humoyun sog‘ qo‘li bilan meshga jon holatda yopishdi-yu, Nizomning yordamida ko‘kragini va zilday og‘ir o‘ng yelkasini mesh ustiga chiqarib oldi. Ichiga ketgan suvdan o‘qchib yo‘taldi, nafasini rostlay olmay hansiradi, yelkasidagi yara og‘rig‘idan ihradi.

Nizom uning Agrada fil minib, Ko‘hinur olmosini peshonasiga qadab yurgan paytini esladi. O‘shanda Humoyun Nizom uchun qo‘l yetmas bir balandlikda edi. Hamida bonuni bu yigitga bermoqchi bo‘lganlarini eshitib, Nizom qanchalik iztirobga tushgan edi! Humoyun Agraga omon qaytsa, qizni unga hali ham olib berishlari hech gap emas. Bu o‘y Nizomning qalbini kuydirib o‘tdi. Ikki kishi bir meshda bu xatarli daryodan suzib o‘tishlari amrimahol. Suvosti o‘pqqonlari Nizomni ham Humoyunga qo‘shib pastga tortib ketishi mumkin.

Lekin Humoyun og‘riqdan ihraganda Nizom uning yelkasidan yaralanganini, tang‘ib bog‘langan lattada qonli dog‘lar borligini ko‘rdi. Daryo bo‘yida o‘sgan Nizom suvga g‘arq bo‘layotgan kattami, kichikmi, kimni ko‘rsa yordam qilib o‘rgangan. Humoyun hozir avvalgi mag‘rur hukmdor emas, balki Sherxonning sulh haqidagi gapiga ishonib aldangan, yarador bir jangchi. Nizom Hamidaga oid dardi-yu qalbida bir lahza bosh ko‘targan raqiblik tuyg‘usi tufayli uni qutqarmay tashlab ketadigan bo‘l-

sa, keyin odamlarning yuziga qanday qaraydi? Qutqarish mumkin bo'lgan odamni ko'ra-bila turib cho'ktirib yuborish – yo'q, Nizom bunday qilolmaydi!

U butun kuchini, shuncha yil daryoda orttirgan bor tajribasini ishga solib meshni Humoyun bilan birga girdoblar orasidan olib chiqa boshladi. Humoyunga qarab:

– Siz ham oyoqni ishlating! – deb buyurdi. – Suv ostida o'pqonlar ko'p. Tortib ketmasin!

Humoyun mingan saman otni bu o'pqonlar allaqachon suv ostiga tortib ketgan edi. Yovdan qirg'oqqa qochib kelib o'zini suvga tashlayotgan minglab otlig'-u piyodalar ham shu girdoblar orasiga suzib kirgandan keyin daqqa sayin kamayib yo'q bo'lib bormoqda. Humoyun hindlarning Karamnasadan bunchalik qo'rqib irim qilishlariga sabab borligini endi bildi-yu, suv ichida oyoqlarini suzgan kabi harakatlantirib, Nizomga yordam bera boshladi.

Humoyun ko'p uringan sari yelkasidagi yaradan qon ketib, uni darmonsizlantirib qo'ydi. Buning ustiga daryoning o'rtasida nafasni bo'g'adigan badbo'y hovur quyuqlashib ketdi. Humoyunning ko'zi tinib boshi aylandi, qo'li ham jonsizlandi, og'ir gavdasi meshdan suvga sirg'alib tusha boshlaganda:

– Yigit... meni... tuti... – deyishga ulgurdi.

Nizom tezda meshning old tomoniga o'tdi-yu, Humoyunni sog' qo'li-dan va to'ning yoqasidan tutib, yana mesh ustiga tortib chiqardi.

Badbo'y bug'lar Nizomning ham ko'nglini behud qilib, ko'zini xiralashtirdi. Shunda u bir qo'lini bo'shatib, salqin suv bilan yuzini yuvdi. Bu biroz yengillik berganini sezdi-da, ho'l qo'lini Humoyunning peshonasiga qo'yib turdi. Humoyun ko'zini ochdi.

Daryo oqimi meshni shitob bilan Ganga tomonga oqizib ketmoqda edi. Humoyun hushini yig'ib, Nizomga ko'z tashlar ekan, xuddi boshqa dunyodan qaytib kelganday bo'ldi.

Nizom uning ko'z ochganidan yengil tortib:

– Xayriyat! – dedi. – Meshni mahkam tuting. Bu oqim bizni Gangaga oqizib borsa g'arq bo'lg'aymiz. Ikki daryo ayqashgan joy juda xatarli!

Humoyun sog' qo'li bilan mesh chetidan bo'shgina ushladi-yu, ko'zini yumdi. Unda umidsiz bir loqaydlik paydo bo'ldi. Bu daryolardan tirik chiqolmaydiganga o'xshaydi. Qiynoqlar tezroq tugay qolgani afzal emasmi? Koshki tezroq hushidan ketsa!..

– Meni qo'ying, – dedi u Nizomga. – O'zingizni qutqaring...

– Yo'q, hazrat! Men sizning kemangizda xizmat qilib maosh olurman. Sizni suvdan o'tkazib qo'ymasam menga bergan noningiz harom bo'lg'ay. Men halol non yeb o'rganganman!

Humoyun sergaklandi. Yalangoyoq bir eshkakchi deb, kemada ko'rganda pisand qilmay yurgan yigit shunday xatarli asnoda ham halol-haromni unutmasa, bunda bir karomat bor.

– Birga zo'r bersak, omon chiqg'aymiz, hazrat! – dedi Nizom. – Siz meshni mahkam tutsangiz bas! Ushlang! Mahkam ushlang!

Nizomning ovozida shunday bir qat'iyat va ishonch bor ediki, Humoyun shuning ta'sirida «zora tirik qolsam!» deb umidlandi. U endi o'zidan ko'ra Nizomga ko'proq ishona boshladi. Humoyun bu suvchi yigitning irodasiga so'zsiz bo'ysunib, ko'kragini mesh ustiga yaxshiroq o'rnatdi-da, sog' qo'li bilan uning narigi chetini qattiq changallab oldi. Nizom bo'ynigacha suvga botgan holda meshni ikki qo'llab narigi qirg'oq tomon surdi, oyoqlarini ham, butun gavdasini ham g'ayir¹ oqimga qarshi jonjahdi bilan ishlatib, vujudidagi barcha muskullarni go'yo suzgidcha aylantirib yubordi. Humoyun ko'kragi bilan osilib yotgan mesh oqimni yorib o'tib, narigi qirg'oqqa tomon qiyalab bora boshladi. Qirg'oqdagi yashil daraxtlarni, ko'katlar orasiga sochilgan rang-barang gullarni Humoyunning ko'zi endi ko'rdi. Unda birdan yashash ishtiyoqi kuchayib ketdi. Endi u ham suvdagi oyoqlarini oqimga urib, suzgardagi kabi harakatlar bilan Nizomga yordam bera boshladi. Mesh boyagidan yengilroq va tezroq harakatlanib, nihoyat, narigi qirg'oqqa yetib to'xtadi.

Ular suv chetidagi shag'al aralash loyqadan og'ir qadamlar bilan yurib o'tishdi-yu, pastgina qirg'oq bo'yidagi ko'kalamzorga cho'zilishdi. Anchagacha og'ir nafas olib, hansirab yotishdi.

Bulutlar orasidan sizib chiqqan xira oftob nayza bo'yi ko'tarilgan edi.

¹ G'ayir – o'jar, teskari.

Tong g'ira-shirasida boshlangan dahshat bir necha soat ichida Humoyun qo'shinini tor-mor qildi, ne-ne yigitlar suvga g'arq bo'lganini uning o'zi ko'rdi. Sherxon hozir daryoning naryog'ida g'alaba zavqini surayotgan bo'lsa kerak...

Qaytib berilgan hayot tuyg'usi barcha ko'rguliklar alamidan zo'rroq bo'lishini u endi sezdi. Yelkasidagi yara og'rig'ini ham unutilib, o'rnidan turib o'tirdi. Yonida hamon nafasini rostlay olmay hansirab yotgan Nizomga iymانبroq ko'z tashladi. Uni o'zidan bir necha bor ustun bo'lgan tengsiz bir bahodirday e'zozlagisi kelib:

– Siz menga inilarim qilmagan yaxshilikni qildingiz, – dedi. – Otingiz nedur?

Nizom yonboshga turib, o'z otini aytdi.

– Nizom! – deb Humoyun uning otini yoqtirib takrorladi. – Bu daryo ichida ikkovimiz dunyoga qaytadan kelganday bo'ldik.

– Rost, onadan qayta tug'ildik,– dedi Nizom ham.

– Hozir siz menga tug'ishgan inimdan ham azizroqsiz. Nomingizni Dehlidagi Nizomiddin avliyoning nomiday ulug'lasam arzigay!

Nizom Humoyunning podsholigini unutilgan edi. Kiyimlari shalabbo ho'l, yarador, yalangoyoq bu yigit zamona zo'rlarining boshida turgan tojkor ekani birdan esiga tushdi.

– Agar meni rostdan tutingan ini o'rnida ko'rsangiz, sizga ikki og'iz arzim bor.

– Ayting, bajonudil tinglay!

– Poraxo'r amaldorlar bilan aldamchi shayxlar mamlakat xalqini sizdan bezdirdi. Qancha hind yigitlari Sherxon tomonga o'tib ketdi. Axir Sherxon hindi-yu muslimni bir-biridan ajratmas ekan!..

– Men ham hindi-yu muslimni yakdil qilish orzusida edim. Ammo bu mushkul ishda kimga tayanishimni bilmadim.

– Hind eliga tayaning-da, hazrat. Bu elda bhaqtiylar¹ bor. Ularning shoiri Kabir hindi-yu muslimni o'z dilida birlashtirgan. Mening otam bhaqtiy bo'lgani uchun tuhmat bilan zindonga tashlandi.

¹ **Bhaqtiylar** – adolatparvar xalq harakatining ishtirokchilari.

– Kim tuhmat qildi?

– Siz ishongan amaldor-u shayxlar.

– Men o‘zim bu adolatsiz muhitdan qanday qutulishimni bilmasmen! Otangiz Agradagi zindondami? Poytaxtga qaytaylik... Siz o‘zingiz... otangizga tuhmat qilgan amaldor-u shayxlarga jazo bergaysiz.

– Men? – ishonqiramay so‘radi Nizom.

– Ha, omonlik bo‘lsa, siz hali istaganingizdan ham katta martabaga erishgaysiz.

Nizom istagan martaba nima ekanini o‘zi ham bilmaydi. Uning eng zo‘r istagi – otasini zindondan qutqarish-u, Hamidani yana ko‘rish. Bu go‘zal qizni u juda sog‘inib yuribdi. Lekin Hamida to‘g‘risida Humoyunga og‘iz ochishga tili bormadi. Faqat podshoni qutqargani hali taqdirida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lishini ich-ichidan sezdi-yu, yuragi g‘alati bo‘lib hapriqdi...

* * *

Tarixiy mavzuda badiiy asar yozish ijodkordan katta mas‘uliyatni talab etadi. Chunki tarix konkret bo‘lib o‘tgan, hech bir narsani qo‘shish yoki olib tashlash mumkin bo‘lmagan voqealar silsilasidir. Erkin mavzularda qalam tebratayotganda, yozuvchi o‘zining xayol kuchiga, fantaziyasiga istagancha erk berishi, o‘zi o‘ylab topgan u yoki bu hodisani, o‘z maqsadiga ko‘ra, u yoxud bu yo‘nalishda davom ettiraverishi mumkin. Bunda faqat mantiqqa va badiiy ishontirish san‘atiga amal qilinsa, bas. Fantastik mavzular talqinida esa yozuvchi bundan-da ko‘proq erkinliklar egasiga aylanadi. Tarixiy mavzu haqida bunday deb bo‘lmaydi. Zero, tarix muayyan xalqning xotirasi, asrab-avaylaydigan ma‘naviy bisoti hisoblanadi. Bu bisotga kim qanday xohlasa shunday yondashuviga o‘zini hurmat qilgan biror xalq yo‘l qo‘yib qo‘ymaydi. Bu mas‘uliyat tarix taqdirini belgilab bergan hodisalar boshida turgan yirik shaxslar – podsholar, qirollar, prezidentlar, yirik davlat va din arboblari, katta siyosatchilar haqida asar yozilayotganda yana-da ortadi. Tarixning har bir hodisasini yoritishda, uni talqin etishda xolislik, odillik, halollik talab qilinadiki, bu narsa ijodkordan juda katta bilimni, fuqarolik mas‘uliyatini so‘raydi.

Pirimqul Qodirov shu ma‘noda, Cho‘lpon iborasi bilan aytganda, «bo-

shini zo'r ishga berib qo'ygan» ijodkor hisoblanadi. Zero, Bobur va boburiylar tarixini yoritish hazilakam ish bo'lmay, bu mavzularning yozuvchi, albatta, hisobga olishi lozim bo'lgan minglab qirralari bor edi.

Shulardan biri bu sulola hukm surgan bugungi Afg'oniston, Pokiston, Hindiston singari davlatlarda yashovchi aholining o'z tarixiga munosabati, boburiylarga qarashi masalasidir. Chunki bu yurtlarda ham hozirga qadar yuzlab ijodkorlar, olimlar, siyosatchilar, hatto yirik davlat arboblari bizning vatandoshlarimiz – boburiylarga o'z munosabatlarini u yoki bu tarzda bildirganlar. Ular o'z qarashlarini himoya qilish huquqiga esa hamma vaqt ham haqlidirlar.

To'g'ri, Pirimqul Qodirov ixtiyorida hazrat Bobur qalamiga mansub tengsiz asar – «Boburnoma», uning qizi Gulbadanbegim tomonidan bitilgan «Humoyunnoma» singari ko'plab tarixiy, yuzlab badiiy manbalar bor edi. Lekin, shu narsani inobatga olish kerakki, P. Qodirov tarixchi sifatida emas, ijodkor – yozuvchi sifatida maydonga chiqadi. Ijodkordan esa o'quvchi tarixning quruqdan-quruq bayoni yoki ilmiy izohini emas, san'atni talab qiladi. San'atki, xoh tarixiy, xoh to'qima insonlar obrazi bo'lsin, ularning faqat jismi emas, ruhi ham qayta tirilsin, bugungi kun kishisini o'z dunyosiga «tortib olsin»!

Xo'sh, Pirimqul Qodirov mana shu og'ir estetik talabni bajara olganmi?

Keling, bu savolga «Ajdodlar dovoni» asaridan olingan, yuqorida o'qiganimiz parchadan kelib chiqib javob topishga urinaylik.

Tarix kitoblarida Ganga va Karamnasa daryolari qo'shiladigan joyda siquvda qolgan boburiy podshoh Humoyun Mirzoga qo'qqisdan qilingan hujum shu hududlarga da'vogar Sherxonning sulh haqidagi bitimni xiyonatkorona buzishi, deya baho berib ketilaveradi. Pirimqul Qodirov esa boburiy shahzoda ahvoliga har qancha achinmasin, «u tomonni» ham tushunishga, tushuntirishga harakat qiladi. Sherxon, asarda tasvirlanganidek, o'qimishli, aqlli, tadbirkor, harbiy san'atni puxta egallagan shaxs. U, bir so'z bilan aytganda, Humoyunga munosib raqib, dushman. Qolaversa, uning Bobur va uning avlodlariga fotih sifatida qarashga va ularga munosabatini shu asosga qurishga nendir haqqi ham bor. U o'z ko'nglidagi toj-taxtga ega bo'lishdek o'ta kuchli istakka shu bahona-yu sabablar bilan tezroq yetishish

mumkinligini ham yaxshi biladi. Uning, o‘z og‘zi bilan sulhga rozilik berib, endi uni buzish, Humoyunni g‘aflatda bosish haqidagi rejasiga ozgina e‘tiroz bildirgan o‘g‘li Qutbxonni «asosli gaplar» bilan ketma-ket inkor etib tashlashi Sherxonning qanchalar usta siyosatchi, notiq ekanini ham isbotlaydi. Sherxon o‘z maqsadlari yo‘lida ish berishi mumkin bo‘lgan har qanday omildan samarali foydalanishga erishadi. O‘sha paytdayoq u farang xufyalari (razvedkachilari) xizmatidan voqif bo‘lib, ularni harb ishiga jalb etgani, bu xufyalar taklifi va o‘rgatgan usullarini qo‘llab boburiylar orasiga nifoq sola olgani ham, istaymizmi-yo‘qmi, saltanat ishida Sherxon erishgan muhim g‘alabalar sirasiga kiradi.

Yozuvchi o‘sha zamon diplomatiyasiga oid nozik jihatlarni ham hisobdan chetda qoldirmagani asarning ta‘sir kuchini, voqealarning ishon-tirish quvvatini oshirgan.

Masalan, Sherxon oldida Bayramxon bor-yo‘g‘i bir elchi, ikki podshoh o‘rtasidagi vositachidir. Elchining hayoti, bilasizki, uning tiliga, muomalasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Bir og‘iz ortiqcha so‘z yoki harakat uning hayotiga chek qo‘yishi, boshini kunda tepasiga olib kelishi hech gap emas. Buni Bayramxon juda yaxshi anglaydi. U bundan tashqari o‘zi nihoyatda sadoqat bilan xizmat qilayotgani Humoyun Mirzoning endigi taqdiri o‘ziga bog‘liq bo‘lib qolganini ham biladi. Humoyun Mirzo taqdiri degani esa – boburiylar saltanati, ulkan bir mamlakatning keyingi taqdiri degani ham edi.

Shularni bir soniya ham yodidan chiqarmagan Bayramxonning Sherxon qarshisidagi gap-so‘zlariga sinchiklab nazar tashlasak, bu muhim imtihondan uning muvaffaqiyatli o‘tib ketganiga guvoh bo‘lamiz.

Biz yuqorida tarixni yoritish ijodkor oldiga qator talablarni qo‘yadi, dedik. Bu masalaning nima ekanini yaxshiroq anglashingiz uchun shu munosabat bilan bir zamonaviy faktni keltirib o‘tamiz. Ko‘pchiligingiz Amerika kinoijodkorlari tomonidan suratga olingan, dunyoda juda katta shov-shuvga sabab bo‘lgan «Gladiator» filmi ko‘rgan bo‘lsangiz kerak. Ochig‘ini ayting: zo‘r film bo‘lgan-a? Undagi voqealarning ta‘sirchanligi, ishonarliligi, qahramonlarning mardligi, o‘limga tik borishi... Hatto yo‘lbarlar bilan ochiq maydonda olishuvlar, ot aravadagi kamonchi qizlarga qarshi gladiatorlarning shiddatli harakat qilishlari... Bularni kino

ekranida ko‘rar ekansiz, beixtiyor tarixni yoritish mana bunaqa bo‘pti, deb yuborganingizni sezmay ham qolasiz. Biroq...

Biroq bu film bir tomonda dunyo ekranlarini kezib yurar ekan, boshqa bir tomonda kino tanqidchilar, tarixchi mutaxassislar bu filmda yo‘l qo‘yilgan yuzlab tarixiy mantiqsizliklar, qahramonlar nutqi, kiyimlarida uchraydigan xatoliklar, maxsus effektlarni suratga olishda ishlatilgan texnik asboblarning tasvirda ko‘rinib qolgani to‘g‘risidagi maqolalarni ketma-ket e‘lon qildilar. Masalan, aksariyat gladiatorlar keyingi asrlarning matosi bo‘lmish jinsi materialidan kiyim kiyganlari, boyagi kamonchi qizlar tushgan aravalar gladiatorlar tomonidan ag‘darilganida, arava tagiga o‘rnatilgan zamonaviy avtomotorlar ko‘rinib qolgani va boshqa faktlar...

Holbuki, bu filmga ko‘plab tarixchi mutaxassislar, elshunos-etnograflar, kiyim ustalari (kostyumerlar), adabiy matn mutaxassislari jalb qilingan edi.

Pirimqul Qodirov esa Humoyun va Sherxon qo‘shini o‘rtasida bo‘lib o‘tgan jangni (va romandagi yana boshqa o‘nlab jang epizodlarini!) tasvirlashda faqat o‘z kuchi va tarixiy materiallarga suyanib ish ko‘radi. Guvohi bo‘lganimizdek, yozuvchi bu ishni ham qoyilmaqom qilib bajargan. Jang shiddati, unda ishtirok etayotgan tomonlar harakati, lashkarboshi va askarlar munosabati badiiy kartinaning bir qismini tashkil etsa, boshqa bir qismini nihoyatda tahlikali, qaltis vaziyatda qolgan Humoyun qalbida kechayotgan murakkab ruhiy o‘zgarishlar tasviri to‘ldiradi. Shunday qaltis vaziyatda Humoyun o‘zini emas, birinchi navbatda oilasini – o‘jiz ayollar va bolalarni qutqarishni o‘ylaydiki, bu uning chinakam Bobur farzandi ekanini yana bir bor isbotlaydi!

Taqdir o‘yinini qarangki, Humoyunni o‘limdan qutqarib qolish oddiy kernachi yigit Nizomga bog‘liq bo‘lib qoladi. Bunga qo‘shimcha, Nizomning bu podshohdan, uning qo‘l ostidagi amaldorlardan anchagina alami ham bor – uning otasini tuhmat ortidan zindonga tashlaganlar va... Nizom sevgan qizni – Hamidabonuni yaqin kunlarda Humoyun haramiga keltirmoqchilar...

Bunday vaziyatda uncha-muncha odam osmondan tushgan bu imkoniyatdan o‘z manfaati – o‘ch olish yo‘lida foydalanishi, juda bo‘lmaganda, suvga cho‘kib ketayotgan yarador Humoyun o‘limini chetdan kuzatib turaverishi ham hech gap emas. Biroq Nizom unday tarbiya

ko'rmagan. Nizom qalbidagi insoniylik zaxa yemagan. U shu podshoh qo'lida xizmat qilib non topib yeyayotgan ekan, shu bir burda nonni halolab yeyishni o'zining insonlik burchi deb biladi. Bir muddat shayton oraga tushib, Nizomni avrashga, uni fojiani ko'ra-bila turib yuz o'girishga majbur qilmoqchi ham bo'ladi. Lekin qayiqchi yigit tezda o'ziga – insonligiga qaytadi!

O'limdan omon qolgan Humoyun va Nizom o'rtasida bo'lib o'tgan qisqagina suhbat xalq va hukmdor munosabatini, xalqning hukmdorga, hukmdorning xalqqa qarashini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Atrofidagi ayrim adolatsiz amaldorlar makrlaridan zada bo'lib yurgan Humoyun qayiqchi yigit suhbatidan o'ziga ruhiy madad olish bilan birga kelgusida qilishi lozim bo'lgan ishlarni ham ichida belgilab oladi.

Yozuvchi mazkur lavhadagi voqealar shiddatini o'quvchiga yuqtirish uchun uni bor ko'lami bilan tasvirlashga alohida e'tibor bergan. Tong qorong'usi, osmondan yoz yomg'iri shivalab urib turibdi, qarorgohga kutilmaganda qilingan hujum Humoyun askarlari orasida vahima, sarosima, betartiblik vujudga keltirgan. Bu o'pqondan omon chiqish ilinjida o'zini suvga tashlagan navkarlar ikkinchi o'pqonga – Karamnasaning badbo'y girdoblari ichida g'arq bo'lyapti. Ko'ryapmizki, bu badiiy kartina o'sha «Gladiator» filmidagi jang maydonlaridan aslo qolishmaydi. Agar filmda insonlarga qarshi zanjirband yo'lbarlar tashlansa, bu asarda jangovar fillar yog'iy navkarlarini xartumi bilan ilib-o'rab zarb bilan yerga yuztuban uradilar, ulkan oyoqlari bilan ezib tashlaydi. Xuddi shunday xavf – ajal markaziy qahramon Humoyun boshida ham aylanadi...

Shunisi muhimki, Pirmqul Qodirov amerikalik kinochilardan farq qilarmoq, na tarixiy voqealar talqinida, na qahramonlar nutqi va harakatida, kiyim-boshi va jang qurollarida noaniqlik yoxud xatoga yo'l qo'ymaydi. Tarixni badiiy qayta jonlantirish, uning ishtirokchilari bo'lmish shaxslarning to'laqonli xarakterini yaratish, o'tmish hodisalarining bugungi kun muammolari bilan tutash o'rinarini alohida bo'rttirib ko'rsatish – bularning bari Pirmqul Qodirov tarixiy mavzu talqinida izlana-izlana erishgan ulkan ijodiy muvaffaqiyatlar hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Pirimqul Qodirovni tarixiy mavzuga murojaat qilishga undagan sabablar nimalar edi deb o'ylaysiz?
2. «Yulduzli tunlar» romanini o'qigan bo'lsangiz yoki u asosida yaratilgan videofilmni ko'rgan bo'lsangiz, sinfdoshlaringizga bu asarning sujetini qisqacha gapirib bering.
3. Bobur va boburiylar to'g'risida nimalarni bilasiz? Ularning faoliyati Hindiston tarixida qanday iz qoldirgan?
4. «Avlodlar dovoni» romanidan olingan parchada Hindiston tabiati va odamlariga xos qanday uyg'un jihatlar ko'rsatilgan?
5. Alvaro Pakavira singari odamlar tarix sahnasida qanday rol o'ynaydilar? Ularning ishlarini oqlash mumkinmi?
6. Sherxonni qanday odam sifatida tasavvur etdingiz? Uning o'rnida Siz bo'lganingizda nima qilgan bo'lardingiz?
7. Nima deb o'ylaysiz: agar Sherxon o'zi va Humoyun o'rtasida ahdlashilgan tinchlik sulhiga Qur'onni ushlab va'da berganida, uni buzishga jur'at etarmidi-yo'qmi?
8. Bayramxonning Humoyunga bo'lgan sadoqati qaysi harakatlarida bo'rtibroq ko'rinadi?
9. Tarixiy qo'lyozma kitoblarga ishlangan suratlar (miniaturalar)da tasvirlangan jang epizodlari bilan romanda tasvirlangan jang lavhalarini o'zaro muqoyasa qilishga harakat qiling.
10. Humoyun Mirzo otasi Bobur umidlarini oqlagan farzand bo'lib yetishganmi? Uning ukalari-chi?
11. Nizom oddiy mehnatkash odamni emas, kimsan podshohni o'limdan qutqardi! Shunday vaziyatda uning o'zini tutishi Sizga notabiiy tuyulmayaptimi? Fikringizni asoslashga harakat qiling.
12. Nega Nizom podshohdan otasini ozod qilishni so'radi-yu, Hamidabonu haqida so'z ochmadi?
13. Pirimqul Qodirovning hikoya tarzi bilan Tog'ay Murod hikoya tarzi o'rtasida qanday farqlar sezdingiz?
14. «Avlodlar dovoni» romanidan olingan parcha asosida uy inshosi yozing.



Maqsud SHAYXZODA

(1908–1967)

O‘zbek va ozarboyjon xalqlarining farzandi, o‘zbek adabiyotining zabardast vakili Maqsud Shayxzoda 1908-yili Ozarboyjon Respublikasining Oqdosh shahrida tug‘ilgan. O‘sha yerda o‘rta ma‘lumot olib, Boku pedagogika institutida o‘qigan va bir necha yil muallimlik qilgan. 1928-yili Toshkent shahriga kelib, gazeta va jurnallar tahririyatida, Til va adabiyot ilmiy tekshirish institutida ishlagan. 1938-yildan to umrining oxiriga qadar Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutida o‘zbek mumtoz adabiyotidan dars bergan.

Uning ilk she‘rlari yigirma yoshlarida e‘lon qilingan. 30-yillarda «O‘n she‘r», «Undoshlarim», «Uchinchi kitob», «Jumhuriyat» nomli she‘rlar to‘plamlari chop etilgan.

Maqsud Shayxzoda Ikkinchi jahon urushi yillarida juda barakali ijod etdi. «Kurash nechun», «Jang va qo‘shiq», «Kapitan Gastello», «Ko‘ngil deydi-ki...» kabi she‘riy to‘plamlari, «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy dramasi shu davrlarda yaratildi.

Bolalar, Sizlarga ma‘lumki, sho‘rolar zamonida mamlakatdagi eng yaxshi ziyolilar, ilm-fan, adabiyot va san‘at arboblari qoralab, tazyiq o‘tkazish, qamash, uzoq Sibir o‘lkalarga surgun qilib, yo‘qotib yuborish odat tusiga kirgan edi. Urushdan keyingi yillarda ham shu siyosat davom etib, bir qator o‘zbek ziyolilari bilan birga Maqsud Shayxzoda ham «xalq dushmani» sifatida hibsga olinadi. Stalin vafotidan so‘ng uning siyosati

qoralangach, juda ko‘p nohaq qamalganlar qatorida Maqsud Shayxzoda ham Toshkentga qaytib keladi va o‘z ilmiy-ijodiy faoliyatini davom ettiradi.

«O‘n besh yilning daftari», «Olqishlarim», «Zamon torlari», «Shu‘la», «Chorak asr devoni» she‘riy to‘plamlari, «Toshkentnoma» lirik dostoni, «Mirzo Ulug‘bek» tragediyasi uning keyingi yillar ijodi mahsulidir.

Maqsud Shayxzoda Alisher Navoiy ijodini va boshqa o‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari ijodini teran tadqiq etgan atoqli olim ham edi. U rus, ingliz, turk, ozarboyjon adabiyotining bir qancha sara namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan o‘tkir tarjimon sifatida ham shuhrat qozongan.

Maqsud Shayxzoda 1967-yili vafot etgan. Uning adabiyotimiz rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi Mustaqillik yillarida e‘zoz topib, shoir «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlandi.

MAQSUD SHAYXZODA SHE‘RIYATI

Maqsud Shayxzoda faylasuf shoir edi. Uning lirik she‘rlari va purma‘no to‘rtliklari xalqimiz o‘rtasida juda mashhur. Siz ham muhtaram o‘quvchi, shoirning

Do‘stlar yaxshilarni avaylab saqlang!
 «Salom» degan so‘zning salmog‘in oqlang.
 O‘lganga yuz soat yig‘lab turgandan, –
 Uni tirigida bir soat yo‘qlang! –

to‘rtligini to‘y-hashamlarda, turli davralarda ko‘p eshitgan bo‘lsangiz kerak va, albatta, bu misralarning zamiridagi ma‘noni yaxshi anglagansiz. «Salom» degan so‘z insonlarni bir-biriga oqibatini ko‘rsatadigan tabaruk so‘z. Shoir shu bir og‘iz so‘z bilan odamning bir-biriga mehri toblanishini, yaqinlaringizga muruvvatli bo‘lib, tez-tez holidan xabar olib turish lozimligini uqtirmoqchi bo‘ladi. Yaxshi inson ko‘pincha o‘zini ko‘rsatavermaydigan xokisor, kamtarin bo‘lishi mumkin. Uni hayot vaqtida ko‘nglini topish, asrash, avaylash lozim. Bir yaxshi so‘z insonni umriga umr qo‘shishi, yomon so‘z esa kasalga chalinishi, bevaqt o‘lim topishiga sabab bo‘lishi mumkin. O‘lganda yaxshi inson edi deb, achinib, motam tutgandan ko‘ra, uni tirikligida yo‘qlash, e‘zozlash ma‘qul.

Shoirning «Omonlik» deb atalgan to'rtligida yana quyidagi boshqa ibratli fikri davom etadi.

Otalar udumi kelinlarga sep,
 «Omon bo'!» tilagi saodatga zeb.
 Ko'priklar ustida: «sen kimsan» demay –
 Avval so'rashimiz: «Xo'sh, tinchlikmi?» deb.

O'zbekchilik taomiliga ko'ra tanish-bilishlar ittifoqo ko'rishib qolishsa, albatta, avval «tinchlik, xotirjamlikmi» deb so'rashadilar. Bu ota-bobolarimizdan o'tib kelayotgan qadriyat. So'rashib bo'lib xayrlashar ekanlar, «omon bo'!» deb tilak bildirib qoladilar. Insoniy munosabatlarning, yaxshi xalqning birinchi belgisi ana shu. Bu udum hamisha, har joyda saqlanmog'i kerak.

Shu aziz kunlarning tarzini angla!
 Anglasang, vijdoning qarzini angla!
 Vijdoning qarzini anglasang, do'stim, –
 Ertangi ayyomning arzini angla!

yoki

G'animat sanalur har lahza, har payt,
 Aytganingni qilgin, qilg'usini ayt!
 Go'zallik diyorin grajdani sen –
 Yomonni yo'qotib, yaxshini ko'payt!

Inson umrining har dami g'animat. U yaxshi ishlar qilish, kelajak kun uchun ezgu nom qoldirish tilagi bilan yashashi lozim. Shunday odam avvalo lafzli, vijdonli bo'ladi. Vijdonli odam hamisha biror munosabat bilan so'z berdimi, demak aytganini qiladi, va'dasini bajaradi. Oqil odamlar, go'zallik diyorining fuqarolari. Ularda yomon xulq, nopok ishlar bo'lmaydi. Ular hamisha yomonlik yo'lini to'sib, yaxshilik urug'ini sepadilar. Bu bilan vijdon burchini bajaradilar, ertangi yanada yorug', ezgu ishlar uchun zamin hozirleydilar.

Maqsud Shayxzoda lafzi halol, so'zida turadigan odamlarni juda qadrlaydi. Ayniqsa, mehnatkash insonning chala ish qilmay, bir maqsad

sari intilishida yaxshi ibrat ko‘radi. Bunday odam hech qachon yutqazmaydi, balki g‘alabalarga erishib, dong taratadi.

Men seni taniyman – lafzing haloldir,
Ishni chala qo‘ymoq dilga maloldir.
Qo‘yganing yutqizish, terganing yutuq,
Ilg‘or dong chiqarar, qoloqlik – loldir.

Shoirning to‘rtliklari orasida shaklan oddiy, mazmunan teran falsafiy namunalar ko‘p. Masalan «Qo‘l va fikr», «Uch do‘st» kabi she‘rlar shunday xususiyatga ega.

Qo‘lning muskuliga qo‘shiqlar kerak,
Qo‘lning davlatidan tepadi yurak.
Qo‘limga chapdastlik baxsh etar fikrim,
Fikrimni tez qo‘lim aylaydi ziyrak.

Dunyodagi juda ko‘p mo‘jizalar, aqlimizni lol etuvchi ulug‘vor binolar, chamanzor bog‘lar – bari inson qo‘li bilan bunyod etiladi. Qo‘llarning mo‘jizasini har qancha ulug‘lasa arziydi. Qo‘lning harakati bilan yurak urishi ham yaxshi. Xayoldan o‘tgan ishlarni qo‘l bajarib, reallikka aylantiradi. Shoir qo‘lning ta‘rifini keltirar ekan, uning shunchaki inson tanasining a‘zosi sifatidagi vazifasini sanamoqchi emas. U mazkur obraz orqali bunyodkorlikni, inson qudratining naqadar buyuk ishlarni amalga oshirishga qodir ekanligini uqtirmoqchi bo‘ladi. Shu fikrning mantiqan davomi sifatida odamzodga ato etilgan g‘ayrat, mehnat va bilimning birligidan olam yashnab ketishini «Uch do‘st» to‘rtligida ifoda etadi.

G‘ayrat: – Men to‘xtamay jadal yurdim, der,
Mehnat: – Ekkanimni barvaqt terdim, der.
Bilim: – Mushkullarni tez yemirdim, der,
Uch do‘stning kuchidan o‘lka bahra yer.

Ana shu uch fazilat birlashsa, mushkullar oson yemirilib, dunyo obod, hayot farovon bo‘ladi.

G‘ayrat, mehnat va bilim bilan o‘tgan kunlar ma‘noli, serzavq va nurli

kunlardir. Hafta-oylar va hatto tugal yil shunday kunlardan iborat bo'lsa, inson umri baxt-u saodatga to'liq bo'ladi. Bu fikr Maqsud Shayxzodaning «Yillarning salomin yillarga eltib...» she'rida ilgari suriladi.

Yillar o'tib ketar bizdan so'ramay –
 Yakshanba, dushanba, seshanba kabi.
 Kunduzlar tunlarning sochin taramay
 O'polmas tonglarning pushtirang labin.
 Ha, yillar o'tadi, zamon ketadi,
 Sen va men qolamiz, aziz birodar.
 Yurt qolar, el-ulus qolar abadiy,
 Va biz quvonch tashib pochталon qadar
 Yillarning salomin yillarga eltib,
 Boramiz yo'llardan-yo'llarga o'tib.
 Inson bir shahardan bo'lak shaharga
 Ko'chib borganida nelar o'ylarkan?
 U yerda qoldirgan ko'prikni, bog'ni,
 Kuzatgani chiqqan eski o'rtoqni.
 Bir yildan ikkinchi yilga ko'chganda
 Nelarni o'ylaymiz, birodar, bugun?
 Muazzam yutuqlar esga tushganda
 Yuraklar yashamoq haqidan mamnun.

Kunlar mazmun bilan o'tsa, ya'ni ezgu ishlar qilib, ko'priklar qurib, bog' yaratib va yana odamlarga allaqancha naf keltiradigan faoliyat bilan umr o'tsa, bu ibratli umrdir. Inson umri shunchaki shitob bilan jadal o'tayotgan daqiqalar, soatlar bilan o'lchanmaydi. Bugun yakshanba, erta dushanba, indin seshanba deb, quruq sanalib o'tadigan hayot bu tussiz, rangsiz hayot. Kishilar uchun foydali bir ish bilan shug'ullanmay, yo bekorchilik va yoki faqat o'zim bo'lay deb kechgan hayot bema'ni hayotdir.

Yilni nima bilan o'lchamoq mumkin?
 Uch yuz oltmish besh kun deyish bilanmi?
 Yillar bir-biriga teng kelarmikan,
 Zamon kun sonimi yoki planmi?

Ha, o'rtoq, shu bir yil ko'targan yukka
 Arzir havas qilsa yetim-yesirlar.
 Shunday bino soldi u yaxshilikka,
 Oldida bosh egar marmar qasrlar.
 Yolchitib ishladi kelajak uchun,
 «Rahmat!» shu ishchiga, do'st yilimizga.
 Mukofot odamga xosdur odatda,
 Vaqtga in'om berish hozir rasm emas.
 Lekin ixtiyorim bo'lsa, albatta,
 Shu yilning xizmatin sanab ro'yirost,
 Pensiyaga chiqqan ustaga o'xshab,
 Uni men gullarga, olqishga qurshab:
 «E'tiborga olib zo'r mehnatini...»
 Ko'ksiga ilardim mehnat ordeni.
 ...Inson bir shahardan bo'lak shaharga
 Ko'chib borganida nelar tilarkan?
 Xiyobon yo'llarni, shinam uylarni,
 Ishning barakasin, yangi kuylarni.
 Bir yildan ikkinchi yilga ko'chganda
 Nelarni tilaymiz, birodar, bugun?
 Istaymiz u yerda biz ko'rishganda
 Dunyoni tinchlikda ko'raylik butun.
 Yo'llar va aqllar keltirsin quvonch,
 Tog'day mahkam tursin shu Vatan – tayanch.
 Va raqamlar tilga kirib kuylasin,
 Tillar-chi: raqamday rostgo'y so'ylasin.
 Yangi yil oshirsin fikr o'tini,
 Ishchining, kuychining qalb ehtirosin.
 Bor ekan hukamo pandi – udumi:
 «Farzandlar orttirar ota merosin...»

Garchi bir yil uch yuz oltmish besh kun bo'lsa ham, har yilni bir-biriga teng yillar deb bo'lmaydi.

Shoir o'tgan yilini zafarlarga boy yil der ekan, hatto imkon bo'lsa, zo'r mehnatni e'tiborga olib, unga orden taqishni orzulaydi. Ya'ni, elu-

yurt kelajagi uchun to'kilgan ter, halol mehnat taqdirlanishi kerak demoqchi bo'ladi. Inson bir yilni kuzatib, navbatdagi yilni kutib olar ekan, o'tgan kunlarni sarhisob qiladi. Kelayotgan yil uchun rejalar tuzadi. Dunyoning urush-u olovlardan xoli tinch, omon bo'lishini, aql va tafakkur kuchi bilan yo'llar, xiyobonlar, shinam uylar qurib, yurtni obod, odamlarni shodon ko'rishni istaydi. Kirayotgan yil g'ayrat, shijoatni oshirib, qalb ehtiroslarini yaratish shavqi bilan to'lqinlantirib, yutuqlarga yutuq, zafarlarga zafar qo'shmog'ini tilaydi. Shoir kelajakni olqishlarkan, ajdodlardan o'tib kelayotgan otalar merosini farzandlar orttirmog'i, ularning ezgu amallarini davom ettirib, rivojlantirmog'i kerak, degan udumni eslatadi.

Savol va topshiriqlar

1. Maqsud Shayxzodaning hayoti haqida so'zlab bering.
2. Shoir qanday she'riy to'plamlar yaratgan.
3. Maqsud Shayxzodaning doston va sahna asarlari haqida so'zlang.
4. Shoir to'rtliklaridan namunalar yod oling.
5. Nega Maqsud Shayxzodani faylasuf shoir deymiz?
6. «Salom», «Omon bo'!»», «Xo'sh, tinchlikmi?» degan so'z va iboralarining ahamiyati haqida so'zlang. Nega «Sen kimsan?» demay «Xo'sh, tinchlikmi?» deb murojaat qilamiz?
7. «Qo'l va fikr» to'rtligidagi ramziy ma'noni qanday izohlaysiz?
8. Nega shoir «g'ayrat», «mehnat» va «bilim»ni uch do'st deydi?
9. Yillarning o'tishida shoir qanday ma'nolarni ko'radi?
10. «Otalar merosini orttirish» degan udumning ma'nosini izohlab bering.

ADABIYOT – ODAMNI TANISH VOSITASI

(xotima o‘rnida)

Aziz o‘quvchi!

Buyuk bobokalonimiz hazrat Navoiy: «El netib topg‘ay menikim, Men o‘zimni topmaman...» degan edilar. Ya‘ni, men o‘zimni – qalbimni, tabiatimni, ruhiyatimni tushuna olmayapman-u, boshqalar meni qanday tushunsinlar – topsinlar?..

Bu gapni Sizning yoshingizdagi, ustozlari Lutfiyni qoyil qoldirgan bola va g‘o‘r Alisher emas, butun mamlakatni yakqalam qilishga erishdim, deya haqli faxrlangan mutafakkir Navoiy aytyaptilar. Demak, insonni tanish, uni tushunish va tushuntirish dunyodagi eng qiyin mashg‘ulot ekan-da!

Agar o‘ylab qarasak, hayotdagi barcha katta-kichik kelishmovchiliklar, ziddiyatlar, janjallar ostida odamni tushunmaslik yoki tushunishni istamaslik degan hol yotibdi. Shoir Usmon Azimov she‘riy kitoblaridan biriga bekorga «Insonni tushunish» deb nom bergan emas. Yozuvchilarni esa «inson qalbining injenerlari» deb atashadi.

Xo‘sh, odamni tanishda, anglashda adabiyot bizga nimasi bilan yordam beradi. Axir har bir asarda konkret bir necha odam obrazigina yaratiladi, ular bilan yuz bergan voqealar biz bilan yuz bermasligi ham mumkin-ku?! Shu asarlardagi odamlar ruhiyati bilan tanishishimizning o‘zi boshqa barcha odamlarni tushunishimizga yetarli bo‘ladimi?

Shuni ochiq aytishimiz kerakki, Sizning bu aqlli savolingizga hech kim «HA!» degan aniq javobni bermaydi! Negaki, boya aytilganidek, «odamni topish» – tushunish ne-ne allomalarni ham umrini oxiriga qadar qiynagan masala-muammo hisoblanadi. Biroq bu – insonni tushunish mumkin emas ekan-da, degan xulosa-hukmga ham olib kelmasligi kerak.

Gap shundaki, odam tug'ilganidan to umrining oxiriga qadar o'zini va o'zidek insonlarni o'rganishga, bu borada har kuni bir yangilik kashf etishga, shu asnoda tajriba orttirib, kecha qilgan xatosini bugun takrorlamaslikka mahkum tarzda hayot kechiradi. Murakkab jihati shundaki, bugungi qarashning, qilingan ishning xatoligi, do'st deb bilganimiz odamning dushmanligi faqat... ertaga ma'lum bo'ladi. Ertaning esa o'zining xatolari, adashishlari, do'st-u dushmanlari kutib turibdi.

Shu tarzdagi aylana hayot abadiy davom etaveradi. Hayotning qiziqligi, odam bolasining unga hech to'ymasligining siri ham aslida mana shunda!

Adabiyot masalasiga kelsak, u Siz bilan bizga ham o'zimizni, ham boshqalarni sal oldinroqdan bilishga, anglashga, shu orqali shaxsimiz mustahkamlanib borishiga beg'araz yordam ko'rsatadi. Zero, yozuvchi-shoirilar aksariyat insonlarga xos bo'lgan abadiy o'zgarimas, muqim ruhiy qonuniyatlarni ta'sirli tarzda bizga tanishtiradi, ularning shakl-u shamoyili, mohiyatidan bizni ogoh etadi. Adabiy asar o'qir ekansiz, Siz ko'cha-ko'yda yuzlab marotaba uchratadigan odamlarning jismi ostida yashirin yuragi, fikr-u o'ylari, kayfiyati, niyat-u amallarini tobora yaqindan ko'rib, his qila boshlaysiz. Birdaniga bu tuyg'u-kayfiyatlar Sizga ham yot emasligini, faqat ularning qayerda paydo bo'layotganini anglolmay yurganingizni... anglab qolasiz. Siz har bir adabiy qahramon tabiatida o'zingizning bir jihatingizni, hech kimga bildirmay-aytmay yurgan fazilat yoki nuqsoningizni topasiz va nahotki men ham atrofdagilarga shunday ko'rinayotgan bo'lsam, deya tashvishga ham tushasiz. Mana shu bezovtalik Sizni endi bunday yashab bo'lmasligiga, odamlarning g'ashiga tegadigan qusurlardan forig' bo'lish vaqti allaqachon kelganligiga ishontiradi. Natijada, Siz har bir kitob mutolaasidan o'zingiz anglab-anglamagan holda poklanib, ma'nan boyib, ulg'ayib bosh ko'tarasiz. Adabiyotning kuch-u quvvati xuddi mana shunda! Shu tufayli ham odamlar unga talpinadilar, uni yaratadigan iste'dodlarni e'zozlashni o'zlarining burchi deb biladilar!

O'zini bilish inson imkoniyatlarini nihoyat darajada kengaytiradi. Zero, odam har bir harakati, gap-so'zi atrofdagilarga qanday ta'sir qilishi mumkinligini idora qilish quvvatiga ega bo'ladi. O'zini idora qilish esa har qanday vaziyatni qo'lga olish, uni ijobiy tomonga burish, yaxshi natija sari

olib borish imkoniyatini beradi. Qolaversa, o'zini anglagan odam o'zgalarni ham anglaydi. O'ziga ep ko'rmagan narsani boshqalarga ham ep ko'rmaydi. O'zini saqlagan narsalardan o'zgalarni ham saqlaydi. O'ziga ravo ko'rmagan uyatli yoki xijolatli holga boshqalarni ham majburlab tushirmaydi...

Siz 6-sinfda «Adabiyot» darsida o'qib-o'rgangan aksariyat asarlar mana shunday ta'sir kuchiga ega mumtoz asarlar ekanini anglagandirsiz. Navoiy ruboiylari, Rabg'uziy qissasi, Abay she'rlari-yu, Chingiz Aytmatov romani orqali insoniylikdan dars olganingiz muborak bo'lsin! Jonatan Svift, G'afur G'ulom va Tog'ay Murod qahramonlari Sizga mardlik, quvnoqlik, bu dunyoning o'tkinchi tashvishlaridan yuqoriroq turish sabog'ini berdi. Abdulla Qahhor, Said Ahmad va O'tkir Hoshimov hikoyalari, Erkin Vohidov dostoni, Pirmqul Qodirov romani Sizga insonga shafqat tuyg'usi nima ekanini anglatdi, yuragingizga mungli ohanglar soldi... Bularning bari adabiyotning insonni poklashdek ulug' missiyasi – vazifasidan nishonadir. Adabiyot orqali poklangan qalbga esa yovuzlik, tubanlik, pastkashlik, bag'ritoshlik singari ofatlar yaqin yo'lamagay!

Kelgusi adabiy suhbatlar orqali diydor ko'rishguncha xayr, do'stlar!

MUNDARIJA

Ma'naviyat xazinası	4
---------------------------	---

BOLA – UCHQUR XAYOL EGASI

X. To'xtaboyev	10
G'afur G'ulom	41
Azim Suyun	58
Jonatan Svift	70

KECHAGI KUN – SABOQ

Muqimiy	95
Abdulla Qahhor	103
Chingiz Aytmatov	113
Odil Yoqubov	126
Erkin Vohidov	141
O'. Hoshimov	157
Said Ahmad	167

SO'ZDA HIKMAT BOR

Badiiy so'z qudrati	178
Alisher Navoiy	181
Xalq qo'shiqlari	195
Rabg'uziy	199
Gulxaniy	220
Zohir A'lam	236
Abay	266

TUYG'ULARNING KAMALAK RANGI

Zulfiya	273
Tog'ay Murod	284
Pirimqul Qodirov	312
M. Shayxzoda	340
Adabiyot – odamni tanish vositasi	347

SUNNAT AHMEDOV, RAHMON QO'CHQOROV, SHUHRAT RIZAYEV

ADABIYOT

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik

Toshkent «Ma'naviyat» 2005

Muharrirlar *U. Qo'chqorov, N. Hakimova*

Rassomlar *A. Mamajonov, R. Zufarov*

Texn. muharrir *T. Zolotilova*

Musahhihlar *Sh. Ilhombekova, H. Ahmedova*

Komputer dizayni *A. Tursunov*

Terishga 12.04.2005-y.da berildi. Bosishga 14.06.2005-y.da ruxsat etildi. Bichimi 70x90¹/₁₆. Tayms garniturası. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t.25,74. Shartli kr.-ott. 52,08. Nashr t. 20,96. 563000 nusxa. Buyurtma № A-0185.

«Ma'naviyat» nashriyoti. Toshkent, Buyuk Turon, 41-uy. Shartnoma 23–05.

O'zbekiston Respublikasi Matbuot va Axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyida chop etildi. 700129. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy. 2005.

Mazkur darslik maktab kutubxona jamg'armalariga tegishli bo'lib, sotuvga chiqarish taqiqlanadi.

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

№	O'quvchining ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqar yo'q
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi



Sotuvga chiqarish taqiqlanadi



Manavijai